O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:316,346,32-053,6(575,1)

Nigora ABDIKADIROVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: nigor_@ mail.ru

O‘zMU dotsenti vazifasini bajaruvchisi, (PhD) K.N.Kayumov taqrizi asosida

EXPERIENCE OF THE LEADING FOREIGN COUNTRIES ON THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE

Annotation

In Western countries, scientific research on the organization of youth leisure began two centuries ago. During this period, a sufficient base of scientific research in this area has been formed, and great success has been achieved in practice. In the modern information age, young people living in different regions have common views and interests. In this article, the author studied the best foreign experience, studied foreign practice in matters of meaningful organization of youth leisure in our country and expressed his opinion on the importance of its application in life.

Key words: Youth, friendship, free time, rest, recreation, youth politics, youth organization, youth association, culture, sport, experience.

ПО ОПЫТ ПЕРЕДОВЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДОСУГА МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В западных странах научные исследования по организации досуга молодежи начались еще два века назад. За этот период была сформирована достаточная база научных исследований в этой области, достигнуты большие успехи на практике. В современный информационный век молодые люди, проживающие в разных регионах, имеют общие взгляды и интересы. В данной статье автор изучил передовой зарубежный опыт, изучил зарубежную практику в вопросах содержательной организации молодежного досуга в нашей стране и высказал свое мнение о важности его применения в жизни.

Ключевые слова: Молодежь, досуг, свободное время, рекреация, отдых, молодежная политика, молодежная организация, молодежное объединение, культура, спорт, опыт.

YOSHLARNING BO‘Sh VAQTINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Annotatsiya

G‘arb davlatlarida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish masalasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ikki asr oldin boshlangan. Ushbu muddat davomida mazkur sohada yetarlicha ilmiy tadqiqotlar bazasi shakllangan, amaliyotda esa ulkan yutuqlarga erishilgan. Bugungi axborot asrida esa turli mintaqalarda yashayotgan yoshlar yaqin umumiy dunyoqarashga, qiziqishlarga ega. Muallif ushbu maqolada ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib, mamlakatimizda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalalalarida xorij amaliyotini o‘rganib, hayotga tadbiq etish muhimligi haqida o‘z fikr mulohazalarini bayon etgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, bo‘sh vaqt, rekreatsiya, dam olish, yoshlar siyosati, yoshlar tashkiloti, yoshlar uyushmasi, madaniyat, sport, tajriba.

Kirish. Yoshlarga oid davlat siyosati takomillash-tirish, xususan, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishni taqozo etadi. Ushbu tajribalarni tahlil qilish, O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. «... Yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta’minlash masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi masala esa yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishdir. Ushbu vazifalarni bajarishimiz shart va zarur. Boshqa ilojimiz ham yo‘q, boshqa yo‘limiz ham yo‘q»[1]. Shu sababli yoshlarning bo‘sh vaqtini tizimli tahlili asosida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yo‘lida tadqiqot olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Yoshlarning bo‘sh vaqtini tashkil etishda, ayniqsa, AQSH, Yevropa, Sharqiy Osiyo, shuningdek, umumiy jihatlarga ega bo‘lgan MDH davlatlari tajribasini o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda yoshlar-ning bo‘sh vaqtining o‘zgarish dinamikasini aniqlash, uni o‘tkazishni tashkillashtirishda istiqbolda ularning bandligini ta’minlashga ko‘maklashuvchi yo‘nalishlarni qo‘llash, madaniyat, sport, ta’lim infratuzilmalarini yoshlarning bo‘sh vaqtini o‘tkazishga moslashtirish orqali bo‘sh vaqtni inson taraqqiyotiga va uning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-foydalilik xususiyatlarini oshirish yuzasidan tadqiqotlar Oksford universitetining “Youth development index” YUNESKO va Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasi-da “The global youth development index”, “youth progress index” tadqiqotlarida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni doimiy ravishda tizimli tahlilini yuritish zarurati ilgari surilgan[2].

G‘arbiy Yevropa va Amerikada sanoat inqilobi ta’siri ostida odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot jarayoni sezilarli darajada o‘zgargan. Xorijiy mamlakatlar madaniyatining muhim yutuqlaridan biri – bu, yoshlarning bo‘sh vaqti va dam olishining samarali faoliyat ko‘rsatayotgan sohalari mavjud-ligidir.

Germaniyada aksariyat talabalarning o‘qishdan tash-qari bo‘sh vaqtlari kam bo‘ladi. Nemis yoshlarining har o‘nin-chisi o‘qish bilan bir vaqtning o‘zida ishlaydi. Germaniya yoshlarining 90 foizi kompyuterga ega bo‘lib, 80 foizining internetdan foydalanish imkoniyati bor. Universitetdagi ko‘pgina talabalar o‘qishlari va keyinchalik o‘z sohalari bo‘yicha qo‘shimcha kurslarda tahsil olishadi va shu orqali

o‘zlarini moliyaviy taminlaydi. Turli sohalarga qiziqqan yoshlarni birlashtirish, ularda mustaqil fikr yuritishni va o‘rganayotgan sohasi bo‘yicha yetuk kadr bo‘lib yetkazish unversitetning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish borasidagi qonunchilik asoslari G‘arb davlatlarining eng yuqori qonun chiqaruvchi instansiyalarida shakllantiriladi va dam olish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish federal hukumatlarning, ya’ni davlat sektorining vakolati hisoblanadi. Ular faoliyatining asosiy nuqtasi – bu, sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha barcha ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi yoshlarning bo‘sh vaqti va dam olishini samarali tashkillashtirishning milliy rejasini ishlab chiqish.

Rekreatsiya (lot. recreatio tiklash, dam olish) - bu shaxsning bo‘sh vaqtida jismoniy va ma’naviy kuchini tiklash va mustahkamlash, shuningdek, shaxsni har tomonlama rivojlantirish maqsadida, asosan, maxsus ajratilgan joylarda tabiiy omillardan foydalangan holda amalga oshiriladigan faoliyati doimiy yashash joylaridan tashqarida.

Rekreatsiya sohasi – bu, bo‘sh vaqt va dam olish faoliyati sohasidagi individual va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq, yoshlarga rekreatsiya xizmatlarini ko‘rsatishga qaratilgan tabiiy, moddiy-texnikaviy, moliyaviy va tashkiliy vositalar majmui. Shunday qilib, ushbu soha tarkibiga quyidagilar kiradi: hududiy tabiiy resurslar, moliyaviy resurslar, moddiy-texnika bazasi, ushbu sohani tashkil etish va boshqarish tizimi, shuningdek, rekreator-mutaxassislarni tayyorlash tizimi[3].

Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish borasidagi qonunchilik asoslari G‘arb davlatlarining eng yuqori qonun chiqaruvchi instansiyalarida shakllantiriladi va dam olish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish federal hukumatlarning, ya’ni davlat sektorining vakolati hisoblanadi. Ular faoliyatining asosiy nuqtasi – bu, sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha barcha ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi yoshlarning bo‘sh vaqti va dam olishini samarali tashkillashtirishning milliy rejasini ishlab chiqish.

Federal dam olish agentliklari bir qator davlat idoralari negizida tashkil etilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi milliy darajada yoshlarga dam olish xizmatlarini ko‘rsatish muammolarini hal qilishdir.

Shunday qilib, Yevropa va Amerikadagi davlat sektorining barcha darajadagi rekreatsion agentliklari o‘z mamlakatlari yoshlarini turli xil dam olish xizmatlari bilan ta’minlash uchun katta hajmdagi ishlarni amalga oshiradilar. Ushbu idoralarning barchasida ko‘plab dam olish maskanlari va infratuzilma inshootlari mavjud, tegishli dasturlar ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Shu bilan birga, rekreatsion sohaning butun davlat sektorining barqaror ishlashi uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydigan asosiy rolni mahalliy ma’muriyatlar (munitsipalitetlar) o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘sh vaqtni tashkil etish bo‘yicha nodavlat-notijorat tashkilotlari umumiy dam olish va rekreatsiya sektorida yoshlarga katta hajmdagi turli xil dam olish dasturlari va xizmatlarini taqdim etadigan sektorni ifodalaydi. Masalan, amerikalik ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlarda ushbu sektor doirasidagi moliyaviy xarajatlarning yillik hajmi 15 milliard dollardan oshadi.

Ushbu ko‘p sonli uyushmalar faoliyatining o‘ziga xos maqsadlari biroz boshqacha bo‘lishi mumkin, ammo ularni, shubhasiz, bitta umumiy maqsad birlashtiradi: yoshlarning bo‘sh vaqtini madaniy va qimmatli turlariga jalb qilish va yoshlarni kamolotga yetaklash orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qilish. Boshqacha aytganda, ixtiyoriy jamoat tashkilotlari faoliyati ijtimoiy yo‘naltirilgan missiyaning yorqin elementini o‘z ichiga oladi.

Nodavlat-notijorat tashkilotlari yoshlarning bo‘sh vaqtlarini oqilona to‘ldirish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqda: Karnegi jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlardagi 400 dan ortiq milliy tashkilotlar yosh fuqarolarga o‘z xizmatlarini taqdim etadilar. Hozirda ushbu tashkilotlar faoliyatida faqat dam olish mashg‘ulotlariga qaratilgan an’anaviy dasturlardan uzoqlashish tendensiyasi kuzatilmoqda. Endilikda bo‘sh vaqtni o‘tkazish va hordiq chiqarish dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirish maqsadida yosh avlodni tarbiyalashning pedagogik tamoyillariga asoslanadi.

AQSHda yoshlar yoshlarga oid siyosatnng subyekti, uni ishlab chiqish va amalga oshirishning bevosita ishtirokchisi hisoblanadi. Har bir shtatda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha alohida strategiya ishlab chiqilib, ushbu strategiya o‘sha shtatdagi davlat va xususiy tashkilotlarning faoliyat turlari va yo‘nalishlarini, amalga oshirish kerak bo‘lgan dasturlarni belgilab berish bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni e’tiborga olib, shtatning ehtiyojlariga muvofiq yoshlarni rivojlanishiga yordam beradi.

AQSHda yoshlarga doir dasturlari an’anaviy ravishda aniq tarmoqlarda – sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik va bo‘sh vaqtni tashkil etish sohalarida joriy etiladi va amalga oshiriladi. Ammo, yoshlarga oid siyosat bo‘yicha mutahassislar, sohadagi dasturlarning sifatiga ko‘proq e’tibor qaratishga imkon beradigan tarmoqlararo va kompleksli qilish uchun faoliyat chegarasini kengaytirishni tavsiya etadi.

Butunjahon bo‘sh vaqt va hordiq chiqarish tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlardagi o‘smirlar hozirda boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ko‘proq vaqtlarini ta’tilda o‘tkazishadi. AQSH yoshlari ko‘proq vaqtini sport bilan shug‘ullanish, muloqot qilish, tashqi ko‘rinishiga g‘amxo‘rlik qilish va maktabdan keyin ishlashga sarflashadi. Amerikalik o‘smirlarning bo‘sh vaqtlaridan qanday foydalanishlaridagi farqlar oilaning etnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga emas, balki ularning turli tadbirlarda qanchalik ishtirok etishiga bog‘liq bo‘ladi.

Oddiy amerikalik o‘smir kuniga 6 soat, haftada 5 kun va yiliga

180 kunni maktabda o‘tkazadi. Maktablar amerikalik bolalarga akademik ta’limdan ko‘ra ko‘proq narsani beradi. Maktab o‘quvchilarining 80 foizdan ortig‘i maktabdan tashqari sport, maktab matbuoti, dramaturgiya, havaskorlik to‘garaklari, suhbatlar, xor, sport va boshqa to‘garaklar mashg‘ulotlarida qatnashadi. Amerikalik yoshlar bo‘sh vaqtlarida boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari kabi ko‘p vaqtlarini televizor qarshisida, musiqa tinglash yoki kompyuter o‘yinlari o‘ynash bilan o‘tkazadilar. 14 yoshdan oshgan ko‘plab o‘smirlar dam olish kunlari yoki maktabdan keyin fast-fud ovqatlanish tarmoqlarida yoki yetkazib berish xizmatlarida, shuningdek, do‘konlarda yarim kunlik ishlaydi. Ba’zi o‘smirlar jamoat ishlarini tashkil etishda yoki diniy guruhlarda, ko‘ngillilar faoliyatida qatnashadilar. Boshqalari esa Skautlar kabi yoshlar guruhlariga tegishli bo‘lib, ular fuqarolik, hunarmandchilik, san’at sirlarini o‘rganadilar, lager va boshqa ochiq havoda tadbirlarni tashkil qiladilar[4].

Buyuk Britaniyada yoshlarning bo‘sh vaqtini tashkil etishda yangi shahar korporatsiyalari, mintaqaviy suv resurslari va milliy bog‘larni boshqarish kabi davlat organlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tashkilotlarning barchasi yoshlar uchun ekstremal dam olish bazasini rivojlantirishda har qanday tadbirning tashabbuskori bo‘lish uchun yetarli vakolatga ega.

Buyuk Britaniyaning mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek, yoshlarning sport zallari, basseynlar, bog‘lar, bolalar maydonchalari, kutubxonalar, plyajlar va boshqalarga erkin kirishini ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi. Bunday kirish faqat pullik, ya’ni soliq tizimi orqali moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari keng ko‘lamli pullik xizmatlarni taqdim etadilar: basseynlar, o‘yin maydonchalari, golf maydonchalari, qayiq stansiyalari, teatrlar, sport majmualari va boshqalar. Ushbu

xizmatlar narxining katta qismi subsidiyalar hisobidan qoplanadi.

Yoshlarning bo‘sh vaqti, dam olishi, ta’lim, san’at va madaniyat sohasidagi tadbirlarni tashkil etishda Angliyada mahalliy hokimiyat organlari muhim rol o‘ynaydi. Ular buni sport klublari, sog‘lomlashtirish markazlari, maktablar, kollejlar, san’at galereyalari, muzeylar, konsert zallari va kutubxonalar tizimi orqali amalga oshiradilar. Yoshlar va butun hudud aholisining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ta’lim tizimi orqali amalga oshirilmoqda, biroq barcha xizmatlarning yig‘indisi mahalliy hokimiyat organlari va ko‘ngilli sport tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati natijasidir[5].

Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkillashtirish borasida Germaniya tajribasi muhim ahamiyatga ega. Germaniyada yoshlar (22 million nafar bo‘lib, aholining 25 foizini tashkil etadi) “to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoshlar” (14 – 18 yosh) va “yoshlar” (18 – 27 yosh)ga bo‘lingan, chunki u bu yosh guruhlari har xil.

Germaniyada talabalarning o‘qishdan tashqari bo‘sh vaqtlari kam bo‘ladi. Nemis yoshlarining har o‘ninchisi o‘qish bilan bir vaqtning o‘zida mehnat faoliyatini ham olib boradi. Germaniya yoshlarining 90 foizi zamonaviy kompyuterga ega bo‘lib, 80 foizining tezkor internetdan foydalanish imkoniyati bor. Universitetlardagi aksariyat talabalar mutaxassisliklari va keyinchalik, o‘z sohalari bo‘yicha qo‘shimcha kurslarda tahsil olishadi va shu orqali o‘zlarini moliyaviy ta’minlaydi. Turli sohalarga qiziqqan yoshlarni birlashtirish, ularda mustaqil fikr yuritishni va o‘rganayotgan sohasi bo‘yicha yetuk kadr bo‘lib yetishishini Germaniya oliy ta’lim muassasalarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Germaniyada 28 ta yoshlar assotsiatsiyasi, 16 ta hududiy yoshlar assotsiatsiyasi va 7 ta filial uyushmalari mavjud. Mazkur tashkilotlar yoshlarning keng ko‘lamli faolligini hamda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari Germaniyada bolalar va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish bo‘yicha Berliner Freizeitzentrums FEZ – Berlin bo‘sh vaqtni tashkil qilish markazi mavjud. Markazda talabalar va yoshlar bo‘sh vaqtlarida mashinasozlik, texnologiya va boshqa turli xil sohalarda saboq olishlari mumkin. Tashkilot tarkibida turli yoshdagi bolalar va yoshlarning qiziqishlari hisobga olingan holda, o‘quv kurslari, ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etiladi. 16 yoshdan katta bo‘lgan o‘smirlarga saboqdan keyin markazda o‘rgangan yo‘nalishlari bo‘yicha ish taklif qilinadi. Bundan tashqari, ular internetdan axborot to‘plash, video tomosha qilish va turli roliklar olish, IT sohasidagi yangliklar bilan tanishish imkoniyatiga ham ega. Shu bilan birga, sport ko‘pchilik yoshlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Germaniyada har ikkinchi yosh sport klubi a’zosi hisoblanadi. Malumotlarga ko‘ra, nemis yoshlari kun davomida deyarli ikki soat sport bilan mashg‘ul bo‘lishadi. FEZ-Berlin (dam olish markazi)da yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish imkoniyati hamda turli xil kurs va ko‘ngilochar atraksionlar mavjud. Kompaniya ikkita biznes yo‘nalishiga ega bo‘lib, ular: bolalar va o‘smirlar dam olishi va turli sohalarga oid kurslar markazi va davlat musiqa akademiyasiga bo‘lingan.

Fransiya yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarning bo‘sh vaqti va dam olishi masalasi asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, mamlakatda yoshlar muammolari bilan shug‘ullanuvchi jamoat tashkilotlariga katta e’tibor qaratiladi va bunday tashkilotlar o‘z loyihalarini amalga oshirish uchun davlatdan moddiy ko‘mak olish huquqiga ega. Fransiyada Milliy yoshlar kengashi (Yoshlar masalalari, sport va jamoat tashkilotlari vazirligi boshchiligida) nufuzli yoshlar tashkiloti sanaladi.

Rossiya Federatsiyasida esa yoshlar bilan bog‘liq davlat siyosati bilan shug‘ullanish Yoshlar ishlari bo‘yicha federal agentlikga yuklatilgan bo‘lib, ushbu agentlik tomonidan “2025 yilgacha bo‘lgan davrda yoshlarning kelajagini rivojlantirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqilgan hamda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etishga ham alohida urg‘u berilgan. Yuqorida keltirilgan texnologiyalardan unumli foydalanish hamda xalq madaniyati durdonalarini qayta tiklash va rivojlantirish ishlariga yoshlarni jalb etish masalalari loyihaga kiritilgan[6].

Shuningdek, funksional texnologiyalar doirasida mamlakatda turli kibersport bellashuvlari, kompyuter o‘yinlari musobaqalari va boshqalar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari tabaqalashtirilgan texnologiyalar doirasida maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida turli teatr, musiqa, texnik ijodkorlik, robototexnika to‘garaklari tashkil etilgan hamda ushbu to‘garaklar doirasida turli musobaqalar va kechalar tashkil etiladi.

Rossiya oliy ta’lim muassasalarida talabalar bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlari uchun keng qamrovli shart-sharoitlar tizimi yaratilgan. Rossiya oliygohlarining qaysi yo‘nalishida o‘qishdan qatiy nazar, yoshlar istalgan sport turi, ijodiy va adabiy to‘garaklariga qatnashishlari mumkin[7]. Rossiya universitetlariga o‘qishga kirgan har bir talaba, to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning sport maydonchalari, stadionlari, sport majmualari, suzish havzalari, fitnes zallari va sport klublari a’zoligiga kirish huquqiga ega bo‘ladi. Talabalar havaskor va professional sport bilan shug‘ullanishi mumkin[8]. Har bir universitet o‘z turnirlarini, kafedralar o‘rtasidagi musobaqalarni o‘tkazadi, universitetlararo, munitsipial, butun Rossiya va xalqaro musobaqalarda, shu jumladan, Universiadada ishtirok etadi[9].

Talabalar universitet sport klublarida bepul qatnashadilar. Turli sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan talabalar universitet jamoalariga a’zo bo‘lishadi. Sport klublari haqida ma’lumot olish uchun veb-sayt ham yuritiladi. Universitetdagi sport zallari, suzish havzalari va boshqa sport inshootlariga bo‘sh vaqtda, chegirmali yoki bepul (universitetga qarab) tashrif buyurish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning aksariyatida davlatning yoshlar siyosati sohasidagi asosiy prinsiplari, vazifalari aks etgan huquqiy hujjatning ishlab chiqish masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Misol uchun, Ozarbayjon, Belorussiya, Finlandiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Litva, Janubiy Koreya kabi davlatlarda Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida Qonun qabul qilingan[10].

Chet ellarda tahsil olayotgan o‘zbekistonlik yoshlarning ham bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish masalasini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Bu boradagi ishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Chet davlatlardagi o‘zbekistonlik talaba yoshlarning turli buzg‘unchi g‘oyaviy ta’sirlarga, istiqbolli kadrlarning esa turli tashkilotlar yollov faoliyatining obyektiga aylanib qolmasligi yo‘nalishida;

talaba yoshlarni O‘zbekistonning buguni va ertasi uchun taraqqiyotiga hissa qo‘shishni Vatani oldidagi o‘z farzandlik burchi sifatida hisoblash tuyg‘usini shakllantirish yo‘nalishida;

xorijdagi o‘zbekistonlik talaba yoshlarning bo‘sh vaqtlarida o‘z bilim va dunyoqarashlarini yanada takomillashtirishga ko‘maklashishi yo‘nalishida va h.k.

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasiga qaralsa, talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun samarali mexanizm sifatida Talabalar uyushmalari (Students union) alohida e’tirof etiladi.

Jumladan, Avstraliya talabalar uyushmalari, odatda, ovqatlanish joylari, kichik chakana savdo nuqtalari (masalan, axborot agentliklari), talabalar ommaviy axborot vositalari (masalan, kampus gazetalari), advokatlik va turli ijtimoiy, san’at, siyosiy, ko‘ngilochar, maxsus qiziqish va sport klublarini qo‘llab-quvvatlash kabi xizmatlarni taqdim etadilar.

O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati boshqa ko‘plab davlatlar uchun namuna vazifasini o‘tay oladi.

Negaki, yoshlar masalasi mustaqillik yillaridan boshlab, o‘tgan 30 yil davomida davlat siyosati darajasidan tushmay kelmoqda. Mazkur davr mobaynida ushbu sohada yetarlicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar, yirik davlat dasturlari qabul qilindi, ijrosi borasida esa sezilarli yutuqlarga erishildi. Biroq, tadqiqot natijalaridan ma’lumki, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish borasidagi ishlarni takomillashtirish uchun qator ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalarini tahlil qilgan holda, ularni O‘zbekistonga tatbiq etish zaruratga aylangan. Avvalo, yoshlar siyosatining aynan ushbu yo‘nalishida ilmiy va amaliy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Shuningdek, bu boradagi ishlar alohida me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmagan.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2022 yilning 19 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 92-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

Mazkur qarorida ko‘zda tutilgan vazifalar asosida yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab mumkin. Unga ko‘ra, respublikamizdagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, ular o‘ziga biriktirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirishi belgilangan[11].

Xulosa va takliflar. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish masalasi G‘arbda ikki asr avval ko‘tarilgan, ilmiy tadqiqotlar boshlangan. Ushbu muddat davomida mazkur sohada yetarlicha ilmiy tadqiqotlar bazasi shakllangan, amaliyotda esa ulkan yutuqlarga erishilgan. Bugungi axborot asrida esa turli mintaqalarda yashayotgan yoshlar yaqin umumiy dunyoqarashga, qiziqishlarga ega. Demak, bu borada ilg‘or xorijiy tajribani mamlakatimizda amaliyotga tatbiq etish har qachongidan ham muhimdir. Zero, mamlakatimiz aholisining 60 foizini tashkil etuvchi qatlamning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil qilish kelgusida yoshlar siyosatida ko‘zlangan maqsadlarga erishishga imkon beradi.

Yoshlar o‘rtasida madaniyat va san’atni targ‘ib qilish borasidagi ishlarning samaradorligi joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini to‘liq tahlil qilgan holda, ularning faoliyatini yaxshilashga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy tarmoq va messendjerlarni bloklash yo‘lidan borish emas, balki ularni foydali, ma’rifiy axborotlar bilan to‘ldirish va ularni ommalashtirish zaruratga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-eng-muhim-vazifa-avvalo-yoshlar. Мурожаат вақти: 25.02.2022.
2. The prince’s trust Tesco youth index 2021, https://www.youthprogressindex.org
3. Состояние и проблемы развития молодежного экстремального досуга. https://studbooks.net/714887/turizm/-sostoyanie_problemy_razvitiya_molodezhnogo_ekstremalnogo_dosuga. Мурожаат вақти: 25.04.2022.
4. Медведева Н.В., Шишлова А.И. Организации досуга молодёжи на муниципальном уровне: теория и практика. – М., 2019. – С.62.
5. Основы государственной молодёжной политики в Российской Федерации до 2025 года, утверждённые постановлением Правительства РФ от 29 ноября 2014 г. №2403-р
6. https://www.ejmste.com/download/using-interactive-platform-round-to-organize-online-leisure-activities-for-children-during-the-11182.pdf
7. https://studyinrussia.ru/en/life-in-russia/life-conditions/leasure-activities/
8. http://www.youthpolicy.org/nationalyouthpolicies
9. Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 19.01.2022 йилдаги ПҚ-92-сон. https://www.lex.uz/docs/5831865
10. Медведева Н.В., Шишлова А.И. Организации досуга молодёжи на муниципальном уровне: теория и практика. – М., 2019. – С.78.
11. Основы государственной молодёжной политики в Российской Федерации до 2025 года, утверждённые постановлением Правительства РФ от 29 ноября 2014 г. №2403-р.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:301.085:15:371.95:371.398(045)

Nilufar ABDINAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo‘rayev taqrizi ostida

MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARIDA IJOBIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada “Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilarida ijobiy xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: jamiyat, oila, mehribonlik uyi, tarbiyalanuvchi, shaxs, farzand, ota-ona, xulq-atvor, mehr, ijtimoiylashuv.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS FORMATION OF POSITIVE BEHAVIOR OF PUPILS IN THE HOUSE OF MERCY

Annotation

The article studies the socio-psychological features of the formation of positive behavior among the pupils of the "House of Mercy". It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, about the scientific research conducted by scientists in connection with this. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.

Key words: society, family, orphanage, educated, personality, child, parent, behavior, attachment, socialization

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗИТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ ВОСПИТАННИКОВ В ДОМЕ МИЛОСЕРДИЯ

Аннотация

В статье изучены социально-психологические особенности формирования позитивного поведения у воспитанников “Дом Милосердия”. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными в связи с этим. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.

Ключевые слова: общество, семья, детский дом, воспитанный, личность, ребенок, родитель, поведение, привязанность, социализация.

Kirish. Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – farzand ko‘rish orqali avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta’minlashdan iboratdir. Bunda insonning rivojlanishi, shaxs sifatida kamol topishi va jamiyatda o‘z o‘rnini egallashida, bir so‘z bilan aytganda, uning ijtimoiy-lashuvida oila muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek oilalaridagi qadriyat va an’analar, ota-ona va yaqinlar tomonidan ko‘rsatiladigan mehr, g‘amxo‘rlikdan inson kuch olib, voyaga yetadi, hayotda o‘z o‘rnini egallaydi. Aksincha, oila muhitidan uzoqda voyaga yetayotganlar, masalan “Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilarida bu borada muammolar kuzatilishi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham mamlakatimizda mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirish, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni hayotga ijtimoiylashuvini to‘g‘ri tashkil etish, ularni oilaga yaqin muhitda tarbiyalash, bilim va ma’naviyatli, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida ijobiy xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil etish qator olimlar va tadqiqotchilarning obyekti sifatida o‘rganilgan. Mamlakatimizda mehribonlik uylari tarbiyalanuv-chilarini xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik mexanizmlari sotsiologik, pedagogik hamda psixologik jihatlari E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, B.R.Qodirov, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, D.G.Muhamedova, R.S.Samarov, B.M.Umarov, D.SH.Baro-tova, G.To‘laganova, D.R.Abdumajidova, F.F.Rasulova, U.D.Qodirov, B.Xodjayev, G.Yusupova, M.Utepberganov, M.Bekmurodov, O.Musurmonova, E.To‘xtamurodov, N.Egamberdiyeva, G.Xrulsova, D.Madjidova, N.Maxmudova, M.Yaxyayevalar va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

G‘.B.Shoumarov ilmiy izlanishlarida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog‘lom psixologik muhitning bola xulq-atvoriga ta’siri, xulq og‘ishining kelib chiqishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ruhiy tanglik va affektiv holatlarning bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’siri masalasi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari oiladagi nosog‘lom-psixologik muhit nafaqat er-xotin o‘rtasidagi nizolarni, balki bolalar ruhiyatidagi, xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Oilada ota-onalarning o‘z hayot va tashvishlari bilan bo‘lib, bolalar faoliyatini nazorat qilmasliklari hamda ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirmasliklari, bolalarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning ta’sirchanlik roli, ota-onaning shaxs sifatida ibrat ko‘rsata olmasligi, ularning noaxloqiy xulq-atvorga ega bo‘lishlari va boshqalar bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga olib kelishini ilmiy asoslab bergan[1].

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir xorijiy olimlar Dj.Boulbi, K.Broun, U.Goldfarb, YE.Donald-son, R.Djonson, S.Nelson, R.KArterlar tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda yetim va otaona qaramog‘isiz qolgan bolalarda yuzaga keladigan emotsional xulq-atvor va intellektual muammolar, oila tipidagi bolalar uylarini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari aniqlashtirib berilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Leontyev, V.Petrovskiy, I.Dubrovina, V.Kondrashin, I.Korobeynikov, V.Muxina, A.Ruzskaya, V.Chumakov, I.SHevchenko, T.Shulga kabilar

tomonidan bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining psixik rivojlanishi, yetimlik muammolari, psixologik yordam ko‘rsatish, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti, ularning ijtimoiy moslashuvi masalalari tadqiq etilgan.

V.A. Doskin, Z.S. Makarova, R.V. Yampolskiylar mehribonlik uylari hamda maktab-internatlarda tarbiyalangan bolalarda tez-tez uchraydigan asosiy patologik o‘zgarishlarni aniqlaydi. Ular ontogenezida xulq-atovrning og‘ishishiga noqulay muhit va har xil ijtimoiy omillar ta’sir etishini ko‘rsatib o‘tgan: a) nevrologik o‘zgarishlar; b) hissiy va xulq sohasidagi og‘ishlar; v) neyropsikik, nutq va jismoniy kasalliklar rivojlanishi; g) ichki nerv sisitemasidagi og‘ishishlar; d) moslashish imkoniyatining pasayishi[2].

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida ijobiy xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida ota-onasi mavjud bo‘lgan 67 nafar sinaluvchilar, SOS-bolalar mahallasi tarbiyalanuvchilaridan iborat 63 nafar sinaluvchilar, mehribonlik uyida tarbilanayotgan 87 nafar sinaluvchilar jalb etildi. Tadqiqotda yoshlarning shaxsga xos ijobiy va salbiy xulq-atvorni aniqlashda Kettellning 16-omilli foydalandik.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xulq-atvor shakllanishida ijtimoiy ta’sirlarni aniqlash hamda ularni omillar guruhi sifatida yaxlitlash muammosi uchta katta bosqichda olib borildi.

Birinchi (pilotaj) bosqichda, tanlangan va modifikatsiyalangan tadqiqot metodlarini sinash maqsadida tadqiqotlar o‘tkazildi; sinovlarda aniqlangan kamchiliklar asosida muallif uslubini tuzatish ishlari olib borildi hamda ayrim tadqiqot metodlarining yo‘riqnomasi va mazmuni yoshlarga oid davlat dasturlari negizida takomillashtirildi hamda empirik tadqiqot ishlari o‘tkazildi.

Ikkinchi bosqichda, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xulq-atvor shakllanishida muhim sanalgan ijtimoiy ta’sirlarnining mohiyatini aniqlashtirish maqsadida belgilangan xududlar tadqiqot bazalarida eksperimental ishlar o‘tkazildi.

Uchinchi bosqichda, ushbu yo‘nalishda tarbiyalanayotgan markazlarda tadqiqot natijalarini amaliyotga hamda o‘quv jarayoniga tadbiq etish yuzasidan amaliy ishlar olib borildi.

Olib borilgan tadqiqot davomida Kettell mezonlari (uslubi) bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlari sifatida tanlab olingan sinaluvchilardagi shaxslilik sifatlariga baho berildi, shuningdek bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan juftli tanlovda o‘rganilayotgan belgilar darajasidagi ishonchli farqlanishlarni aniqlash uchun Styudentning t-kriteriysi hamda Pirsonning r korrelyatsiyasi imkoniyatlaridan ham o‘rni bilan foydalangan holda olingan natijalarning umumiy tahlillari shakllantirildi.

Ma’lumki, Kettell metodikasi imkoniyatlari va undagi 16 omilning har biri bo‘yicha tahliliy ishlanmalar juda ko‘plab ilmiy-nazariy adabiyotlarda mavjud. Shuning uchun mazkur tahlilda biz 16 omilning har biriga alohida to‘xtalmasdan shaxsning xulq-atvori namoyon bo‘lishi yuqori bo‘lgan omillar bo‘yicha 3 ta komponentga birlashtirgan holda metodika natijalarni interpretatsiyasini taqdim etishni lozim topdik.

Bularga quyidagi mezonlar kiritildi:

I. Emotsional-irodaviy komponentlarni ifodalovchi omillar: C; F; G; I; Q; Q3; Q4 ;

II. Kommunikativlik komponentlarni ifoda etuvchi omillar: A; H; E; N; L;

III. Kognitivlik komponentlarni ifoda etuvchi omillar: B; M; Q1; Q2.

Izoh sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu mezonlarning tanlanishidan asosiy maqsad shuki, nazorat guruhi (n1), tajriba guruhi (n2) va tajriba guruhi (n3) sinaluvchilari shaxsida shakillanib borayotgan shaxslilik komponentlarni alohida ajratib olib ushbu komponentlar asosida ota-onasi bilan birga yashayotgan hamda mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan yoshlar xulq-atvoriga qiyosiy jihatdan baho berishdir.

Shuningdek, ushbu baholashlar orqali tajriba guruh sifatida tanlab olingan mazkur toifadagi bolalar uchun xarakterli bo‘lgan kuchli va zaif jihatlari haqida muayyan tasavvurlarni ham shakllantirishga harakat qilindi.(1-jadval; 1-rasm).

1-Jadval

NG hamda TGlarida Kettell metodikasi yordamida tajriba avvalida olingan natijalarning foiz ko‘rinishi

	Komponentlar								
	Emotsional irodaviy		Kommunikativ		Kognitiv		t-mezon		
	a	b	a	b	a	b	t		
NG n1=67 n %	43	24	39	28	41	26	4,26***	<0,001	<0,001
	64,1	35,8	58,2	41,7	61,1	38,8	2,98**	<0,01	<0,01
TG n2=63 n %	30	33	28	35	27	36	4,42***	<0,01	<0,001
	47,6	52,3	44,4	55,5	42,8	57,1	3,45***	<0,001	<0,001
TG n3=87 n %	34	53	27	60	42	45	2,63**	<0,01	<0,01
	39,1	60,9	31,1	68,9	48,2	51,7	3,56***	<0,001	<0,001

Izoh: * p≤0,05;** r ≤0,01; *** r ≤0,001

Yuqoridagi jadval va rasmdan ko‘rinib turibtiki, NG sifatida tanlab olingan ota-onasi bilan birga to‘liq oila bo‘lib yashayotgan yoshlar guruhi (n1 = 67), TG sifatida tanlab olingan SOS tarbiyalanuvchilar (n2 = 63) hamda TG sifatida tanlab olingan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan iborat sinaluvchilar 1- rasm.

yoshlar guruhida (n3 = 55) ko‘rsatkichlar ko‘lami turli darajalarda namoyon etilayotganligi bilan alohida ajralib turibdi. Bu esa har bir bolani yoki guruhni alohida o‘rganish va shu asosda unga munosabat bildirish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Demak, olingan ma’lumotlar natijalar tahliliga ko‘ra shartli ravishda qabul qilingan har bir komponent yuzasidan sinaluvchining xulq-atvorida o‘zining namoyon etilishi jihatdan turlicha ko‘rsatkichlar miqdorini tashkil etayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, birinchi emotsional-irodaviy komponent omillarining (C; F; G; I;Q; Q3; Q4) shaxslilik xulq-atvor mezonlarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq o‘rtacha umumiy ko‘rsatkichlar ko‘lami n1 = 67 sinaluvchilar guruhi a’zolariga muayyan darajada adekvat (“a”) ko‘rsatkichlariga nisbatan 43 nafarni, ya’ni 64,1 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich noadekvat (“b”) ko‘rsatkichlar miqdoriga nisbatan esa 24 nafarga, ya’ni 35,8% ko‘rinishida chiqanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchi komunikativ kompanent omillari (A; H; E; N; L) shaxslilik xulq-atvor mezonlarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘lik ko‘rsatkichlar “a” bo‘yicha 39 nafar sinaluvchi 58,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, “b” ko‘rsatkichi bo‘yicha 28 nafar sinaluvchilarda 41,7% ni a tashkil etishi aniqlandi.

Ikkinchi komunikativ kompanent omillari (A; H; E; N; L) shaxslilik xulq-atvor mezonlarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘lik ko‘rsatkichlar “a” bo‘yicha 39 nafar sinaluvchi 58,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, “b” ko‘rsatkichi bo‘yicha 28 nafar sinaluvchilarda 41,7% ni a tashkil etishi aniqlandi.

Uchinchi kognitiv kompanent omillari (B; M; Q1; Q2) xulq-atvorining namoyon bo‘lish mezonlari yuzasidan “a” adekvat ko‘rsatkichi 41 nafar sinaluvchilarda 61,1% ni tashkil qilgan bo‘lsa, “b” noadekvat ko‘rsatkichi yuzasidan sinaluvchilarda 28 nafar sinaluvchilarda 38,8% ni tashkil etishi aniqlandi.

2-rasm.



Bu ko‘rsatkichlar ko‘lami SOS tarbiyalanuvchilaridan (n2=63) tashkil topgan sinaluvchilar guruhida emotsional-irodaviy komponent mezonlarida 30 nafar (47,6%) adekvat hamda 33 nafar (52,3%) “noadekvat” ko‘rsatkichlar chegarasida turganligi ma’lum bo‘ldi.

Ikkinchi komunikativ kompanent omillari shkalasida “a” bo‘yicha 28 nafar sinaluvchi 44,4% ni, “b” ko‘rsatkichida 35 nafar 55,5% ni tashkil etishi aniqlandi.

Uchinchi kognitiv kompanent omillari yuzasidan shaxslilik xulq-atvor ko‘rinishi “a” bo‘yicha 27 nafar 42,8% ni, “b” bo‘yicha 36 nafar sinaluvchilarda 57,1% ni tashkil etishi olingan metodikani tahlil qilish jarayonida aniqlandi. Ushbu sinaluvchilar guruhi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bo‘lib hisoblanadi. Lekin SOS tarbiyalanuvchilari noto‘liq bo‘lsada, ularga ona biriktirilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ota-ona biriktirilmagan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga nisbatan ularda hissiy-emotsional sohasidagi, komunikativlik sohasida hamda kongnitiv sohalarida xulq-atvor ko‘rinishi ijobiy darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



3-расм.

Tajriba guruhi sifatida tanlab olingan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslilik xulq-atovori namoyon bo‘lish mezonlari yuzasidan tajriba avvalida Kettell metodikasi yordamida olingan natijalar tahlili quyidagicha ko‘rinishda namoyon bo‘ldi.

Birinchi emotsional-irodaviy komponentlarni ifodalovchi omillar (C; F; G; I; Q) shaxslilik xulq-atvori ko‘rinishi mezonlari shkalasida “a” adekvat ko‘rsatkichi 34 nafar sinaluvchilarda 39,1% ni, “b” noadekvat ko‘rsatkichi bo‘yicha 53 nafar 60,9% ni, ikkinchi komunikativ kompanent omillari (A; H; E; N; L) yuzasidan 27 nafar 31,1% ni, “b” ko‘rsatkichi bo‘yicha 60 nafar sinaluvchilarda 68,9% ni hamda kongnitiv kompanent omillari (B; M; Q1; Q2) shkalasida “a” adekvat ko‘rsakichi bo‘yicha 42 nafar sinaluvchi 48,2% ni, “b” noadekvat ko‘rsatkichi bo‘yicha 45nafar sinaluvchi 51,7% ni takil etishi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, NG sifatida ota-onasi mavjud bo‘lgan bolalar guruhida (n1) ota-onasi mavjud bo‘lmagan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga (n2, n3) nisbatan ko‘proq hollarda hissiy barqarorlik, ruhiy ko‘tarinkilik, mas’uliyatlilik, qat’iylik, hissiy barqarorlik, biroz xotirjamlik, o‘z-o‘zini nazorat qila olish yuqori darajadagi faollik sifatlarining “adekvatlilik ko‘rsatkichlari” (ya’ni aynan ushbu sifatlar o‘rtachadan yuqori darajada) namoyon etilgan bo‘lsa, TG sifatida tanlab olingan mehribonlik yi tarbiyalanuvchilarida (n2, n3) esa mazkur sifatlarga nisbatan noadekvatlilik ko‘rsatkichlarining (“b”mezon) – yaqqolroq namoyon etilganligini ko‘ramiz. Bu esa xulq-atvorida muayyan buzilishlar kuzatilgan bolalar bilan emotsional-irodaviy sohada yanada ko‘proq korreksion ishlarni tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy zaruratni yanada ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Albatta, ota-onasi mavjud bo‘lgan sinaluvchilarda barcha kompanetlarda yuqori bo‘lishi bilan birga mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan sinaluvchilar guruhida bu ko‘rsatkich nisbatan past darajada namoyon etilishi ulardagi shaxslararo munosabat xulq-atvorning takomillashuviga daxldor boshqa omillarni ham bevosita o‘rganishni taqozo etadi.

Xulosa. R. Kettell metodi asosida qayd etilgan ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xulq-atvorida ishonchli darajada emotsional kechinmalarning yuqoriligini, emotsiyalar ustidan nazoratning pastligi, muloqotning istalganligi darajasining pastligi, ifodalangan emotsional beqarorlik mavjudligini hamda xavotirlanish darajasining meyoridan yuqorilini ko‘rsatadi.

Demak, xavotirlanishning yuqori darajasiga ega bo‘lgan bolalar o‘z faoliyatlari davomida ko‘proq noaniq va noma’lum manbaga ega bo‘lgan notinchlik, xavotirlanish hissiyotini boshdan kechirishar ekan. Bu esa o‘z o‘rnida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xulq-atvoriga salbiy ta’siri natijasida emotsiyalar ustidan nazoratning past ko‘rsatkichlarini ifodalovchi emotsional kechinmalar ota-onasi mavjud bolalarga nisbatan ishonchli darajada yuqori bo‘lib, bu holat noaniqlik, predmetsiz xavotirlanish, ichki notinchlik, achchiqlanuvchanlik, emotsional beqarorlikni boshdan o‘tkazish bilan xarakterlanar ekan.

ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2000. – 340b
2. Доскина В.А., Макаровой З.С. Развитие и воспитание детей в домах ребёнка /Под ред. Доскина В.А., Макаровой З.С. М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2007. – 375с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:621.311 : 004.056

Erkin ABDISOATOV,
O‘zMU tadqiqotchisi

PhD O.Allanov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONNING GLOBAL KIBERXAVFSIZLIK REYTINGLARIDAGI MAVQEYINI OSHIRISHNING AYRIM JIHATLARIGA OID

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda dunyo siyosati va iqtisodiyotiga ta’sir qilayotgan kiberxavfsizlik reytinglari, xususan, Estoniyaning Milliy kiberxavfsizlik indeksi (NCSI) va BMTning Global kiberxavfsizlik indeks (GCI)lari haqida tushunchalar hamda mazkur indekslarning baholash mezonlari, ushbu reytinglarda O’zbekistonning o’rnini qanday oshirish kerakligi xususida muammolar tahlil etilgan. Tahlillar aniq raqamlar, statistikalar va xalqaro tajribalarga asosan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kiberxavfsizlik, Milliy kiberxavfsizlik indeksi, Global kiberxavfsizlik indeksi, axborot xavfsizligi, kiberopertsiyalar, asosiy xizmat operatorlari, raqamli xizmat ko’rsatuvchi provayderlar.

О НЕКОТОРЫХ АСПЕКТАХ УЛУЧШЕНИЯ ПОЗИЦИЙ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВЫХ РЕЙТИНГАХ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье рейтинги кибербезопасности, влияющие сегодня на мировую политику и экономику, в частности Эстонский национальный индекс кибербезопасности (NCSI) и Глобальный индекс кибербезопасности ООН (GCI), а также критерии оценки этих показателей представлены в этих рейтингах, анализируются проблемы, как повысить позиции. Анализ основан на конкретных цифрах, статистике и международном опыте.

Ключевые слова: Кибербезопасность, Национальный индекс кибербезопасности, Глобальный индекс кибербезопасности, информационная безопасность, кибероперации, ключевые операторы услуг, поставщики цифровых услуг.

ON SOME ASPECTS OF IMPROVING UZBEKISTAN'S POSITION IN GLOBAL CYBER SECURITY RATINGS

Abstract

In this article, the cyber security ratings affecting world politics and economy today, in particular, the Estonian National Cyber Security Index (NCSI) and the UN's Global Cyber Security Index (GCI), as well as the evaluation criteria of these indexes, are presented in these ratings. the problems of how to increase the position are analyzed. The analysis is based on concrete figures, statistics and international experiences.

Key words: Cybersecurity, National Cybersecurity Index, Global Cybersecurity Index, information security, cyber operations, key service operators, digital service providers.

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo’ylab kiberjinoyat va kiberhujumlarning salbiy tendentsiyasi oshib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha, bu sohadagi tahdidlar ko’rsatkichi kelajakda jadal oshishi prognoz qilinmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyun sanasida qabul qilingan PF-6003-sonli Farmoniga muvofiq, O’zbekiston Respublikasining dunyo mamlakatlari qatorida turli xalqaro reyting va indekslardagi o’rnini yuksaltirishni nazarda tutuvchi vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni vakolat doirasida sifatli amalga oshirish hamda kiberxavfsizlik sohasiga oid xalqaro indekslarda mamlakatimizning o’rnini yaxshilashga qaratilgan amaliy choralarni belgilab olish maqsadida, “Kiberxavfsizlik markazi” DUK (keyingi o’rinlarda - Markaz) tomonidan Estoniya hukumati va BMTning Taraqqiyot dasturi doirasida yuritilayotgan “Milliy kiberxavfsizlik indeksi”ning (https://-ncsi.ega.ee/) savolnomasiga javoban kiritilgan ko’rsatkichlar va ularni shakllantirish tizimi o’rganib chiqildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga doir adabiyotlar ro’yhati o’rganib chiqilganda global kiberxavfsizlik indekslari bo’chiya Estoniyaning Milliy Kiberxavfsizlik indeksi va BMTning Global kiberxavfsizlik indekslarida ko’rsatilgan baholash mezonlari bo’yicha ko’pchilik davlatlarda shuningdek, O’zbekistonda ham qator kamchiliklar ko’zga tashlanmoqda. Xususan, kiberxavfsizlik bo’yicha yagona strategiyaning ishlab chiqilmaganligini ko’rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, “Milliy kiberxavfsizlik indeksi” (keyingi o’rinlarda - MKI) dunyo mamlakatlari tomonidan kibertahdidlarning oldini olish va kiberinsidentlarni boshqarishga tayyorligini reyting asosida baholovchi global operatsion indeks hisoblanadi.

Shu bilan birga, ushbu indeks davlatlarning ochiq ma’lumotlar bazasi va milliy kiberxavfsizlik salohiyatini oshirish vositasi sifatida chop etib boriladi (https://ncsi.ega.-ee/ncsi-index/?order=-ncsi). Mazkur indeks Estoniya hukumati va BMTning Taraqqiyot dasturi tashabbusi doirasida tashkil etilgan notijorat tahlil markazi bo’lgan Estoniya elektron boshqaruv akademiyasi jamg’armasi tomonidan shakllantiriladi. Tahlil markazi asosiy e’tiborni kiberxavf-sizlik, elektron boshqaruv va elektron demokratiya sohalariga qaratadi.

Mazkur indeks hozirda o’z ichiga 160 davlatning ko’rsatkichlarini qamrab olgan bo’lib, dunyo mamlakatlari kesimida O’zbekiston Respublikasida axborot va kiberxavf-sizlikni ta’minlash yo’nalishida amalga oshirilayotgan keng ko’lamdagi chora-tadbirlarning yuqori darajada ekanligini taqdim etish hamda respublikaning investitsion jozibadorligini yanada oshirishga imkon beruvchi global ochiq ma’lumotlar manbayi sifatida ta’riflash imkonini beradi.

MKIni ishlab chiqishda, baholash yilining ixtiyoriy vaqtida tasdiqlangan hamda yangilangan baholash mezonlarining taqdim etilishi orqali amalga oshirilishi, ushbu indeksni ishlab chiqish uslubiyatining afzalliklaridan hisoblanadi.

Indeksning baholash uslubiyati soha mutaxassislari tomonidan shakllantirilgan kibertahdidlar ro’yhatiga asoslangan, jumladan:

1.Elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatini rad etishi;

2.Ma’lumotlarning ruxsatsiz o’zgartirilishi hamda to’liqligining buzilishi;

3.Ma’lumotlarning sizib chiqishi – konfidensialligining buzilishi[1].

MKI mamlakatlarning yuqoridagi kibertahdidlarni boshqara olish salohiyati, birlamchi ma’lumot sifatida haqqoniyligi tasdiqlangan (isbotlangan) quyidagi taqdim etiladigan jamlanma ma’lumotlar asosida baholanadi:

1.Mavjud qonunchilik: qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlar, buyruqlar va h.k.;

2.Tashkil etilgan bo’linmalar: kiberxavfsizlik sohasidagi mavjud tashkilotlar hamda idoralar;

3.Hamkorlik shakllari: qo’mita, ishchi guruh va h.k.;

4.Natijalar: siyosat, tadbir, texnologiyalar, veb-saytlar, dasturlar[2].

2023 yilning Milliy kiberxavfsizlik indeksi hisoboti quyidagicha shakllantirilgan (qisqartmalar bilan)[3]:

Davlat	Indeksdagi (rangi) darajasi	Indeksdagi ko’rsatkich (%) hisobida	Raqamli rivojlanish darajasi (%)
Gretsiya	1	96.10	64.02
Belgiya	2	94.81	74.07
Litva	3	93.51	67.34
Estoniya	4	93.51	75.59
Chex Respublikasi	5	92.21	69.21
Germaniya	6	90.91	80.01
Qozog’iston	76	48.05	60.18
O’zbekiston	88	36.36	49.00
Janubiy Afrika	89	36.36	49.24
Janubiy Sudan	161	1.30	0

2022 yil 8 mart sanasida kiritilgan ma’lumotlar asosidagi so’ngi holatiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi MKI bo’yicha olinishi mumkin bo’lgan maksimal umumiy 77 balldan 28 ball to’plagan holda reytingda 160 ta davlat orasida 87 o’rinni (rangni) egallamoqda[4].

MKI yo’nalishlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi tomonidan kiritilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, ushbu indeksni ko’rsatkichlari quyidagi ko’rinishga ega:

№	Tadbirlar nomi	Olingan ball	Maksimal ball
	Kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish	0	7
	Kibertahdidlar to’g’risidagi ma’lumotlar va ularni tahlil qilish	4	5
	Ta’lim hamda kasbiy rivojlanish	4	9
	Global kiberxavfsizlikka qo’shgan hissasi	1	6
	Raqamli xizmatlarning himoyasi	1	5
	Asosiy xizmatlarning himoyasi	0	6
	Elektron identifikasiya xizmatlari	7	9
	Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi	4	4
	Kiberinsidentlarga chora ko’rish	3	6
	Kiberkrizisni boshqarish	0	5
	Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash	4	9
	Harbiy kiberoperatsiyalar	0	6
Umumiy		28	77

Ta’kidlash joizki, ushbu ko’rsatkichlarni avvalgi hisobot yillaridagi (2019 yil 18 fevral (24 ball), 2018 yil 3 iyul (25 ball)) ko’rsatkichlar natijalari bilan solishtirma tahlil qilinganda MKIning mamlakatimizga oid ko’rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamika mavjud emasligi namoyon bo’lmoqda.

Shu bilan birga, o’tgan davr mobaynida O’zbekiston Respublikasi kibermakonda xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilgan va tatbiq etilishi davom etayotgan chora-tadbirlar “2020-2021 yillarda Kiberxavfsizlik Markazi tomonidan Indeksni to’ldirish maqsadga muvofiq emas deb topilgan” sababli MKIda o’z aksini topmaganini e’tirof etish lozim.

Binobarin, MKIni shakllantirishda qo’llaniladigan savolnoma matnida mavjud quyida keltirilgan bandlar bo’yicha yangilangan ma’lumotlarni taqdim etgan holda, MKIning mamlakatimizga oid umumiy ko’rsatkichini qo’shimcha ballar olish orqali bir necha darajaga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

- 1.2. band: “Mamlakatda kiberxavfsizlik sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi idoraning mavjudligi”. O’zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to’g’risida” gi qonunining 11- moddasida O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi deb belgilangan;

- 3.3. band: “axborot xavfsizligi yoki kiberxavfsizlik yo’nalishida magistrlar tayyorlash bo’yicha o’quv dasturning mavjudligi”. Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ushbu yo’nalish mavjud;

- 5.3. band: “Mamlakatda axborot va kiberxavfsizlik talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat va xususiy raqamli xizmat ko’rsatuvchi provayderlarni nazorat qilish vakolatiga ega bo’lgan vakolatli nazorat qiluvchi organ mavjudligi”. O’zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to’g’risida” gi qonunining 11- moddasiga asosan, kiberxavfsizlik sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi etib O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati belgilangan;

- 6.1. band: “asosiy xizmatlarning operatorlari aniqlanganligi”. ONENET yagona kiberxavfsizlik uzeli operatori etib belgilangan;

- 6.2. band: “asosiy xizmat operatorlari axborot va kiberrisklarini boshqarishi shartligi normativ-huquqiy

hujjatlarda aks ettirilganligi”. “O’z DSt ISO IEC 27005” davlat standarti joriy etilgan;

- 6.3. band: “Mamlakatda axborot va kiberxavfsizlik talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat va xususiy raqamli xizmat ko’rsatuvchi provayderlarni nazorat qilish huquqiga ega bo’lgan organ mavjudligi”. O’zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to’g’risida” gi qonunining 11- moddasiga asosan, kiberxavfsizlik sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi etib O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati belgilangan;

- 9.2. band: “Raqamli xizmat ko’rsatuvchi provayderlar va asosiy xizmat ko’rsatuvchi operatorlar kiberxavfsizlik hodisalari to’g’risida vakolatli davlat organlarini xabardor qilishlari shartligi ko’rsatilgan normativ-huquqiy hujjat mavjudligi”. O’zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to’g’risida” gi qonunining 14- moddasida o’z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Tahlil shuni ko’rsatmoqdaki, yuqoridagi bandlarga tegishli tasdiqlovchi ma’lumotlar kiritilgan holda o’rta hisobda qo’shimcha ravishda 14 va undan yuqori ballni qo’lga kiritib, MKI doirasida respublikamiz reytingini bir necha pog’ona yuqoriga ko’tarish imkoniyatidan to’laqonli foydalanish, dunyo mamlakatlari orasida O’zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minlash borasida respublika hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijalariga nisbatan holis va ijobiy ijtimoiy fikr shakllantirilishiga imkon yaratiladi.

Shuningdek, So’nggi yillarda O’zbekistonning kiberxavfsizlik global reytinglaridagi o’rnida ba’zi ijobiy holatlar bilan bir qatorda salbiy tendensiya ham kuzatilmoqda.

Xususan, Global Cybersecurity index ma’lumotlariga ko’ra, 2021 yilda O’zbekiston kiberxavfsizlik global reytingida 70 o’rinni egalladi. Reytingga ko’ra, O’zbekiston indeksi maksimal 100 balldan 71,11 ballni tashkil qilgan[5].



Shuningdek, O’zbekiston huquqiy chora-tadbirlar segmentida 19,27 ball, tashkiliy chora-tadbirlar segmentida 10,05 ball, texnik chora-tadbirlar segmentida 12,56 ball, salohiyatni rivojlantirish segmentida 15,68 ball va hamkorlik segmentida 13,56 ball olgan[6].

Lekin ba’zi mezonlar bo’yicha O’zbekiston nol (0) ball olib umumiy reytingda past ko’rsatkichni qayd etmoqda.

Xususan, Estoniyaning milliy kiberxavfsizlik indeksida kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, asosiy xizmatlarni himoya qilish, kiberinqirozni boshqarish va harbiy kiber operatsiyalardagi ishtiroki kabi mezonlari bo’yicha past (nol ball) baholangan.

Bunga kiberxavfsizlikni ta’minlash bo’yicha strategiya va kiberxavfsizlik siyosatini muvofiqlashtirishi formatining yo’qligi, kiberxavfsizlik choralarini muntazam nazorat qiluvchi vakolatli organning rasmiy hujjatlarda ko’rsatilmaganligi, shuningdek, xalqaro kiberinqiroz mashqlarida, kiberoperatsiya mashqlarida O’zbekistonning ishtirok etmasligi sabab bo’lmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyun sanasidagi PF-6003-sonlshuningdei Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini to’laqonli ta’minlash hamda global kibermakonda mamlakatimizning kiberxavfsizlik sohasidagi salohiyatiga nisbatan dunyo hamjamiyati miqyosida ijobiy ijtimoiy-siyosiy fikrni shakllantirish maqsadini ko’zlovchi, vakolatlatli idoralar tomonidan MKI savolnomasining yuqorida keltirilgan bandlariga oid zarur va yetarli yangilangan tasdiqlovchi ma’lumotlarni kiritish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR

1. https://ncsi.ega.ee/methodology/
2. https://ncsi.ega.ee/methodology/
3. https://ncsi.ega.ee/ncsi-index/?order=rank
4. https://ncsi.ega.ee/country/uz/
5. https://www.itu.int/epublications/publication/D-STR-GCI.01-2021-HTM-E
6. https://uz.sputniknews.ru/20211012/reyting-kiberbezopasnosti-uzbekistan-voshel-v-top-70-stran-20871200.html

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:159.923:316.6

Akobr ABDULLAEV,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutitayanch doktoranti
E-mail: akobrabdullaev@gmail.com

Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi psixologi,PhD D.Abdumadjidova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL CULTURE AS A FACTOR IN THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGICAL CLIMATE IN THE PEDAGOGICAL TEAM

Abstract

In this article, the issue of the formation of a positive socio-psychological environment is considered in a certain way in accordance with the organization of quality education in school pedagogical communities. Scientific research and methodological theoretical foundations in this area are analyzed. The degree of formation of psychological culture in the personality of the teacher, the impact on the socio-psychological environment in the school pedagogical community, the social opinion of experts is studied on the basis of a survey.

Keywords: socio-psychological climate, organizational climate, teaching staff (teachers’ team), psychological culture, quality of education.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА - КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГІЧЕСКОГО КЛИМАТА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ

Аннотация

В данной статье определенным образом рассматривается вопрос формирования позитивной социально-психологической среды в соответствии с организацией качественного образования в школьных педагогических коллективах. Анализируются научные исследования и методологические теоретические основы в этой области. Изучается степень сформированности психологической культуры личности учителя, влияние на социально-психологическую среду в школьном педагогическом коллективе, на основе опроса будет изучено общественное мнение экспертов.

Ключевые слова: социально-психологический климат, организационный климат, педагогическое коллектив, психологическая культура, качество образования.

PSIXOLOGIK MADANIYAT – PEDAGOGIK JAMOADAGI PSIXOLOGIK MUHIT SHAKLLANISHINING OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab pedagogik jamoalarida sifatli ta’limni tashkil etishga muvofiq, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish masalasi muayyan jihatdan ko‘rib chiqiladi. Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar va metodologik nazariy asoslar tahlil qilinadi. O‘qituvchi shaxsida psixologik madaniyatning shakllanganlik darajasi, maktab pedagogik jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitga uning ta’siri, so‘rovnoma asosida ekpertlarning ijtimoiy fikri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik muhit, tashkilot iqlimi, pedagogik jamoa, psixologik madaniyat, ta’lim sifati.

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor, oldimizga qo‘yilgan yuksak maqsadlarga erishish uchun qadam sifatida namoyon bo‘lmoqda, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoniga asosan, O‘zbekiston ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro reytingdagi o‘rni 2025 yilda 60-o‘rinda, 2030 yilda esa 30-o‘rinda bo‘lishi maqsad qilinganliligi [1], shuningdek, Davlatmiz Rahbari tomonidan 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishi, buni “Endi maktablarimizga mutlaqo yangi muhit va sifat kirib kelishi kerak[2]” degan aniq ko‘rsatma bilan ifodalashlarii – endilikda yurtimizda ijtimoiy-psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning ham oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri deb o‘ylaymiz. Zero, psixologik madaniyat omilining pedagogik jamoadagi psixologik muhit shakllanishiga ta’sirini o‘rganish, bir tomondan ta’lim-tarbiya sifatini oshirishning ijtimoiy-psixologik komponentini takomillashtirishga ilmiy asoslarni yaratsa, ikkinchi tomondan mavzu yuzasidan olib boriladigan tadqitolar natijalari, xulosa va tavsiyalari Prezidentimiz ilgari surgan ko‘rsatma, maktablarimizga mutlaqo yangi muhit va sifat kirib kelishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologik madaniyat omilining ta’lim jarayoni bilan bog‘liq ravishda o‘rganilganligi haqida so‘z borar ekan, asosan rus olimlari tomonidan mazkur masala keng tadqiq etilayotganini guvohi bo‘lish mumkin. Jumladan, V.Semikin [3] (2004) tomonidan “Pedagogik munosabatlarda psixologik madaniyat” mavzusida olib borilgan doktorlik dissertatsiyasida, olim professional pedagogik madaniyatning bir butun tarkibi, pedagogik faoliyatning samaradorligi, insoniyligi, psixologik jihatdan havfsizligi va psixologik madaniyat kabilardan tashkil topishini ilgari suradi. Psixologik madaniyat pedagog shaxsining umumiy madaniyatini shakllantiruvchi hamda shaxslar aro muloqot-munosabatlarda asosiy regulyatar vazifasini bajarishini ta’kidlaydi. Shuningkdek, psixologik madaniyat insonni nafaqat shaxsiy, balki professional o‘zini o‘zi aktuallashtirish va realizatsiya (namoyon) qilishga yordam beradi.

Psixologik madaniyat masalasi, professor I.Dubrovina [4] (2007) tomonidan ta’lim kontekstida o‘rganilgan bo‘lib, u insonlarda aynan psixologik madaniyatning pastligi sabab ham gumanizm, tolerantlik, demokratizm, hamkorlik kabi prinsiplar hali hanuz rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgani (muallif fikriga ko‘ra bevosita tormozlayotgani)ni ta’kidlaydi. Buni psixologik ta’limning talabga javob bermasligi bilan izohlagan holda, olim bu holatni ta’lim jarayoni misolida ham yuqori baholay olmasligini aytib, chuqur tashvishlanishini bildirgan. Chunki aynan ta’lim jarayonida psixologik madaniyat keng yoyilishi yoki umuman bilimlar tizimida mavjud bo‘lmasligi mumkin, Bu esa albatta, pedagoglarning avvalo o‘zlarida

kerakli psixologik bilimlar va psixologik madaniyatning shakllanganligiga bog‘liqdir.

Psixologik madaniyat I.Motkovning (1993) talqiniga ko‘ra – bu shaxsning o‘zini anglashi va qabul qilishi, hayotdan, o‘zidan va atrofdagilardan mamnun bo‘lishi, o‘zini o‘zi har qanday salbiy va ijobiy vaziyat-holatlarda boshqarishi hamda yaxshi his qilishini ta’minlovchi hayotiy kerakli psixologik bilim, ko‘nikmalar, tajribalar jamlanmasi[5].

Bundan tashqari, bir qator olimlar [6] tomonidan emotsional madaniyat tushunchasi ham fanda qo‘llanilgan bo‘lib, u psixologik madaniyatning emotsional-hissiy sohasini qamrab olishi, u o‘z navbatida ta’lim jarayonida psixologik havsizlik muhitini xosil qilishga asos bo‘lishi ta’kidlanadi.

Yurtimiz psixolog olimlaridan psixologiya fanlari doktori N.Sh.Umarovaning fikriga ko‘ra, “psixologik madaniyat o‘zining eng umumiy ko‘rinishida insonning aqliy xususiyatlari va jarayonlari tizimi sifatida belgilanadi, uning yordamida u o‘zini va boshqa odamlarni shaxs sifatida tushunadi. Psixologik madaniyat bu har bir shaxsning turli hayotiy muammolarni hal qilishda foydalanadigan samarali va oqilona shaxsiy salohiyatini ta’minlashga qaratilgandir [7]”.

Maktab pedagogik jamoalarida ijobiy psixologik muhit shakllanishi ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifatini oshirish, pedagogik jamoaning psixologik va umumiy salomatligini mustahkamlash, pedagoglarning emotsional-hissiy so‘nish holatlarini oldini olishga yordam berishi mumkin. Bunda perdagoglarning psixologik madaniyati ham bir vaqtni o‘zida muhim determinat deb o‘ylaymiz.

Mehnat jamoasida psixologik muhit muammoasi bilan chuqur shug‘ullangan olimlardan, B.D.Pariginning fikriga ko‘ra, mehnat jamoasidagi psixologik muhit shaxslararo munosabatlar zamirida aks etuvchi omil sanaladi[8], bu borada professor G.M.Andreeva esa psixologik muhit muayyan jamoadagi insonlarning o‘zaro munosabatlari, kayfiyati, psixologik holati majmuidir [9], degan fikrni keng muhokama qiladi. Tahlillarga asoslanib, psixologik madaniyat shaxslar aro munosabatlar regulyatori nazariyasiga binoan, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit mazkur regulyatorga determinat-siyalashadi degan fikrni ilgari surish mumkin.

E.A.Klimovning ta’rifiga ko‘ra, psixologik madaniyat shaxs umumiy madaniyatining bir qismi bo‘lib, insonning o‘zini va boshqalar psixologiyasini tushunishi hamda mazkur tushunchalarni kundalik shaxsiy yoki professional hayotida, o‘z-o‘zini rivojlantirishda qo‘llay olishdir [10]. Shunday ekan, psixologik madaniyat ham shaxsning umumiy madaniyati kabi shakllanishi va rivojlanishi muayyan ta’lim-tarbiya jarayoni, tarixiy tajribaga bog‘liq sanaladi. Aytib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda, pedagoglarda psixologik madaniyat mavjud bo‘lmagan taqdirda, uni shakllantirish, mavjud bo‘lgan taqdirda rivojlantirish kerakligini aytishimiz o‘rinli. Zero, pedagogik jamoadagi pedagoglarda psixologik madaniyatni kuchaytirish orqali jamoada ijobiy va muvofiq psixologik muhitga erishsa bo‘ladi.

Tadqiqod metodologiyasi. Psixologik madaniyatni pedagogik jamoadagi psixologik muhit shakllanishining omili sifatida ilmiy jihatdan o‘rganishning metodologik asoslari sifatida, quyidagilar ko‘rib chiqiladi: “O‘zini o‘zi aktualizat-siya qilish va motivatsiya” nazariyalari (self-actualization: Kurt Goldshteyn, Karl Rojers va Abraham Maslou) [11]; “O‘zini o‘zi determinatsiya qilish (self-determination: Edvard L.Desi, Richard M.Rayan)” nazariyasi; “Muhit zonalari nazariyasi” (V.M.Shepel); “Faoliyat nazariyalari va shaxs professional faoliyat subekti konsepsiyasi” (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontiv, L.S.Vigoskiy, K.A.Abulxanova-Slavskaya) [12]; “Faoliyatga nisbatan konseptual yondoshuvlar, reaktivlik va proaktivlik” [13], “Psixologik muhit sxemasi” psixologik modeli (H.C.Mansurov); “Ish joyidagi buling nazariyasi va psixologik havsizlik muhiti modeli [14]”; guruhlar, kichik guruhlar dinamikasi, ijtimoiy guruh, kollektivizm nazariyalari [15], shaxsning har tomonlama muvofiq rivojlanishini ta’minlovchi “psixologik madaniyat” nazariyasi (I.Motkov); “Tashkilot iqlimi konsepsiyasini o‘z ichiga olgan tashkilotdagi motivatsion xatti-harakatlarning aniqlovchi modeli” (Litvin-Stringer) [16].

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit mohiyatini birinchilardan bo‘lib ochib bergan olimlardan V.M.Shepel fikriga ko‘ra jamoadagi muhit, uning a’zolari o‘rtasidagi yaqinlik, simpatiya, moyillik, xarakter, qiziqishlarning o‘xshashligi in’ikosidagi psixologik munosabatlar zamirida shakllanadi. V.M.Shepelning muhit zonalari nazariyasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Olim tomonidan muhit uchta zonaga bo‘linadi, birinchi zona – sotsial muhit zonasi bo‘lib, unda guruhdagi shaxslarning fuqarolik hamda shaxsiy huquqlari hamda majburiyatlar, kollektiv maqsad va vazifalar bilan birga barcha tomonidan tan olinadi, rioya etiladi, bajariladi. Ikkinchi zona – ma’naviy-ahloqiy muhit sifatida talqin etilib, guruh a’zolarining qadriyatlari umum qabul qilinadi, tan olinadi hamda umumiy qadriyatlar tizimi yuzaga keladi. Uchinchi zona – norasmiy munosabatlar zonasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu zonada guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari hamkasblik munosabatlari maqomini kesib o‘tib, do‘stlik, birodarlik va boshqa xususiyatlarga ega munosabatlar kategoriyasiga aylanishi mumkin. [17] Mazkur uchta zona bo‘yicha mulohazalariga asoslangan holda, olim jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni sotsial zona va ma’naviy-axloqiy zo‘nalarga nisbatan torroq ta’sir doiraga ega zonada turishini ilgari suradi.

Mavzuimiz doirasida asosiy metodologik asoslardan yana biri bu “Tashkilot iqlimi konsepsiyasini oz ichiga olgan tashkilotdagi motivatsion xatti-harakatlarning aniqlovchi Litvin, Stringer modeli” xisoblanadi. Mazkur modelda (1968) mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitning eng muhim mezonlari ajratib ko‘rsatiladi [18], ularni quyidagi rasmda ko‘rgazmali tarzda ifoda etdik.

Tashkilot strukturasi	• tashkilotdagi rasmiylik hamda cheklovlarni idroketilishi
Chaqiriqlar	• ish sharoitlari talablari va muvaffaqiyatga erishish hissini idrok etilishi
Rag'bat va qo'llab-quvvatlash	• jazolashga nisbatan ijobiy qo'llab-quvvatlashga ko'proq urg'uni berish
Ijtimoiy-inklyuziya	• taaluqlilik, ijtimoiy hamkorlik birdamlikka intilish

Tahlil va natijalar. Ilgari surilayotgan farazlarimizni eksperlarning ijtimoiy fikri asosida o‘rganish hamda muayyan amaliy xulosalar chiqarish uchun umumta’lim muassasalari psixologlari o‘rtasida onlayn (telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali maktab psixologlaridan tarkib topgan guruhlarda) so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma ikkita yopiq (test ko‘rinishidagi) savoldan iborat bo‘ldi.

Birinchi savol “Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi va qulayligini ta’minlashda o‘qituvchilar-ning psixologik madaniyati darajasi qanchalik muhimligini 5

ballik shkalada baholang?” tarzida berildi hamda savolga 1 dan 5 gacha bo‘lgan javob variantlari qo‘yildi. Mazkur savolga 337 nafar psixologlar o‘z javob variantlarini berdi.

Berilgan javoblarga ko‘ra Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi va qulayligini ta’minlashda o‘qituvchilarning psixologik madaniyati darajasi qanchalik muhimligini (so‘raluvchi) psixologlarning 11 foizi (36 nafari) - “1 ball” deb, 7 foizi (22 nafari) - “2 ball” deb, 11 foizi (38 nafari) - “3 ball” deb, 11 foizi (38 nafari) - “4 ball” deb, 60 foizi (203 nafari) - “5 ball” deb baholagan. Ko‘rinib turibdiki, aksariyat amaliyotchi psixologlarning fikriga ko‘ra, pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi va qulayligini ta’minlashda o‘qituvchilarning psixologik madaniyati darajasi muhim.

Ikkinchi savol “Siz ta’lim muassasasi psixologi sifatida muayyan ijtimoiy psixologik ta’sir orqali pedagogik jamoa a’zolarida (ya’ni pedagoglarda) psixologik madaniyatni shakllantirsangiz yoki rivojlantirsangiz bu pedagogik jamoada psixologik muhitning ijobiyligi va qulayligini ta’minlashga yordam beradimi?” tarzida berildi hamda savolga “ha” va “yo‘q” javob variantlari qo‘yildi. Mazkur savolga 515 nafar psixologlar o‘z javob variantlarini berdi.

Berilgan javoblarga ko‘ra, ta’lim muassasasi psixologi muayyan ijtimoiy psixologik ta’sir orqali pedagogik jamoa a’zolarida psixologik madaniyatni shakllantirish yoki rivojlantirish mumkinligini so‘raluvchi psixologlarning 8 foizi (41 nafari) “yo‘q” degan javob bilan inkor etishgan bo‘lsa, mutaxassislarning qolgan 92 foizi (474 nafari) “ha” degan javob bilan tasdiqlaganlar.

So‘rov natijalaridan kelib chiqib, ob’ektiv tahlil qilinadigan bo‘lsa, amaliyotda bevosita so‘z yuritilayotgan muammolar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning aksariyat qismi pedagoglarda psixologik madaniyatni shakllantirish zarurligini, psixologik madaniyat darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar ishlaydigan pedagogik jamoa muvofiq psixologik muhitga ega bo‘lishi mumkinligini tasdiqlagan deb xulosa qilishimiz mumkin. Ta’kidlash o‘rinliki, so‘rovnomada ishtirok etgan mutaxassislarning ko‘pchiligi psixologik madaniyat tushunchasining talqinini avval bilmagan bo‘lishlari ehtimol, shuni inobatga olib so‘rov avvalida psixologlarga I.O.Motkovning psixologik madaniyat tushunchasi bo‘yicha bergan tavsifi taqdim etilgan. Shunga asosan, so‘rovnomada ishtirok etgan mutaxassislar psixologik madaniyat haqida aniq tasavvurga ega bo‘lganligini ayta olamiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarda psixologik madaniyatni shakllantirish pedagogik jamoalarda psixologik muhit muvofiqligi yoki ijobiyligini ta’minlovchi vositalardan biri sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Shu bilan birga mazkur masala yana qo‘chimcha tadqiqotlarni talab etishini inkor etmaymiz. Maktablardagi rahbar hodimlarda psixologik madaniyat bo‘yicha kerakli tushunchalarini shakllantirish zarur. Maktab direktorlari o‘rtasida o‘z jamoalarida pedagog hodimlarning psixologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ishlarga urg‘u berish, mumta’lim muassasa psixologlari tomonidan o‘qituvchilar uchun shaxsda psixologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan psixologik ma’rifat yo‘nalishidagi ishlarni yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-4312785
2. Xalq so‘zi gazetasidan. 29 dekabr 2022 yil. Siyosat rukni. https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoev-talim-korgazmasi-doirasida-bir-guruh-maktab-oqituvchilari-bilan-uchrashdi
3. Semikin V.V. Psixologicheskaya kulьtura v pedagogicheskom vzaimodeystviitema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF 19.00.07, doktor psixologicheskix nauk. 3-7 s.
4. https://www.dissercat.com/content/psikhologicheskaya-kultura-v-pedagogicheskom-vzaimodeistvii
5. Dybrovina I.V.Psixologicheskaya kulьtura i obrazovanie // Natsionalьnuy psixologicheskiy jurnal. 2007. №1 (2). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-kultura-i-obrazova
6. Motkov O.I.. Psixologiya samopoznaniya lichnosti. - M., Akademiya,1993. - 368 s.
7. Kazanseva G.H., A.G.Madjyga, A.P.Zagitov. Emotsionalьnaya kulьtura kak osnova psixologicheskoy bezopasnosti obrazovatelьnoy sredы // Zdorovье i obrazovanie v XXI veke. 2013. №1-4. URL: https://cyberleninka.ru/-article/n/emotsionalnaya-kultura-kak-osnova-psihologicheskoy-bezopasnosti-obrazovatelnoy-sredy
8. Umarova N.Sh., P.G‘.O‘risheva. Psixologik madaniyat shaxs ijtimoiylashuvi omili sifatida. // CARJIS. 2022. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psixologik-madaniyat-shaxs-ijtimoiylashuvi-omili-sifatida.
9. Parыgin B.D. Sotsialьno-psixologicheskiy klimat kollektiva i ego faktorы,- // Sotsialьno-psixologicheskie problemы povыsheniya effektivnosti deyatelьnosti proizvodstvennыx kollektivov. Kurgan, 1977 142 – 151 s.
10. Andreeva G.M.Sotsialьnaya psixologiya. M., Izd-vo Mosk. un-ta, 1980. - 392 s.
11. Klimov Ye.A. Osnovы psixologii. - M., VLADOC, 1997. - 376 s.
12. Polyakov A.N. Ot knuta i pryanika k samodeterminatsii. Kratkaya istoriya motivatsii. (rus.) // Management : jurnal. — 2020. № 1 (53). - S. 58 - 67.
13. Abulьxanova K.A. Psixologiya i soznanie lichnosti (Problemы metodologii, teorii i issledovaniya realьnoy lichnosti): Izbrannыe psixologicheskie trudы. - M.: Moskovskiy psixologo-sotsialьnыy institut; Voronej: Izdatelьstvo NPO «MODEK», 1999. - 224 s.
14. Golofast V. B. Metodologicheskiy analiz v sotsialьnom issledovanii. Pod. red. V. A. Yadova. L.: «Nauka», 1981, 113 s.
15. https://www.researchgate.net/figure/Psychosocial-safety-climate-predicting-job-design-bullying-and-harassment-health-and_fig1_311107408
16. Parыgin B. D. Osnovы sotsialьno-psixologicheskoy teorii / B. D. Parыgin. - M.: Mыslь, 1971. — 352 s.
17. https://www.researchgate.net/publication/285339454_Psychological_Climate_in_the_Work_Setting
18. Shepelь V.M. Upravlencheskaya psixologiya / V.M. Shepelь. - M.: Ekonomika, 1984. - 246 s.
19. Litwin G H, Stringer R A 1968 Motivation and OrganizationalClimate. Harvard University Press, Cambridge, MA.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:101.1.316

A’zam ABDULLAYEV,
Тошкент молия институти ўқитувчиси

ЎзМУ, ф.ф.д.проф. Б.Тўйчиев тақризи асосида

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В ПЕРИОД ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье теоретически и практически анализируется, что повышение социальной активности молодежи в развитии гражданского общества является фактором развития, современные социально-философские аспекты концепции гражданского общества с методологической точки зрения, а также закономерности повышения социальной активности молодежи в развитии гражданского общества, показать место инновационных идей в этом процессе и дать практические указания. пытался дать.

Ключевые слова: Гражданское общество, демократическое общество, право, правовое государство, правосознание, правовая культура, общественное сознание, воспитание личности.

PROBLEMS OF RAISING THE LEGAL CULTURE OF YOUNG PEOPLE DURING THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY

Annotation

The article theoretically and practically analyzes that the increase in the social activity of young people in the development of civil society is a factor of development, the modern socio-philosophical aspects of the concept of civil society from a methodological point of view, as well as the laws of the increase in the social activity of young people in the development of civil society, to show the place of innovative ideas in this process and give practical instructions. tried to give.

Key words: Civil society, democratic society, law, legal state, legal consciousness, legal culture, social consciousness, personality education.

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH DAVRIDA YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH MUAMMOLARI

Annotasiya

Maqolada fuqarolik jamiyati rivojida yoshlar ijtimoiy faolligining oshishi taraqqiyot omili ekanini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilib fuqarolik jamiyati tushunchasining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy jihatlarini metodologik nuqtai nazardan shuningdek, fuqarolik jamiyati rivojida yoshlar ijtimoiy faolligining oshishi qonuniyatlari ochib berish, bu jarayonda innovasion g‘oyalarning o‘rnini ko‘rsatishga va amaliy ko‘rsatmalar berishga xarakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati, demokratik jamiyat, huquq, huquqiy davlat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy ong, shaxs tarbiyasi.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda huquqiy madaniyatni tarkib toptirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Huquqiy madaniyat yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning yoshlarni shaxs sifatida kamol toptirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish, taraqqiyot istiqbolarini belgilash nuqtai nazardan dolzarb vazifadir. Ma’lumki, yurtimizda istiqbolli islohotlarning taqdiri va samarasi, sifatida milliy istiqlol g‘oyalarini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish, amaliy faoliyat dasturiga aylantirish shaxs tarbiyasiga bog‘liq, buning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda huquqiy tarbiyaning rolini oshirish va hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy hususiyatlarini chuqurroq o‘rganish milliy qadriyatlarni asrash va hatto kelgusi avlodlarga yetkazib berish kabi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi, chunki fuqarolik jamiyatida ham huquqiy tarbiyaga amal qilinadi. Shaxs tarbiyasi insoniyat jamiyatida asrlar davomida muhim hayotiy va ijtimoiy muammo sifatida qarab kelingan. Respublikamizning mustaqil rivojlanishi mobaynida davlatni boshqarish hamda demokratik islohotlarni amalga oshirishda fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash zarurligi ayon bo‘ldi. Zero, bu fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy talabi, adolatli huquqiy davlat qurishning birdan-bir manbaidir. Fuqarolik jamiyati, albatta, demokratik islohotlar orqali bosqichma-bosqich barpo etiladi. Bunda davlat tashqi siyosati, mudofaa, mamlakat va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, moliya va soliq tizimini takomillashtirish, qonunlar qabul qilish kabi umummilliy vazifalarni amalga oshirsa, boshqa masalalarni bajarish vakolatlari, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, markazdan joylarga, jamoat tashkilotlariga hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilishi lozim chunki, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini qurish mamlakatdagi barcha ijtimoiy institutlarni faollashtirish orqali ham amalga oshiriladi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni mustaqillik bilan chambarchas bog‘liqdir. Mustaqillik huquqiy madaniyatning negizidir. Shunga ko‘ra mustaqillik poydevoriga qurilgan huquqiy madaniyat bu:

O‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi;

Milliy boyliklarga egalik qilish huquqi;

Xalqimizga o‘z milliy ma’naviyatiga tayanib yashash imkonini bergan voqelik;

Tenglar ichida tenglik demokratik o‘zgarishlarning kafolati demakdir;

O‘zbekiston hukumatining yoshlar huquqiy madaniyatini va shakllantirish hamda rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosati ikkita muhim vazifani hal etishni ko‘zda tutadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyati bu avvalo qonunlarini bilish va tushunish, uni hayotning ijobiy tomonlarga tatbiq etish, ijrosini ta’minlash, har bir shaxs yoki fuqaroning jamiyat xayotidafaol ishtirok etishi, ayni paytda mazkur

faollikni boshqalarga ham singdirish hamda huquqlarini bajarishni talab etishidir.

Aslini olganlda huquqiy madaniyatni asosan, har-bir inson ichki his tuyg‘usi,ichki dunyosining madaniyati umuminsoniy urf odatlar, an’analar va huquqiy bilim, ilmlarga bo‘lgan munosabatlar belgilab beradi.

Har bir yoshning ichki his tuyg‘usi o‘zining tashqi odobini namoyon qiladi. Huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan har bir yosh jamiyat jamoa talablariga zid ish bilan shug‘ullanmaydi. Qonun qoidalarga hurmat bilan qaraydi. O‘z faoliyatida huquqiy malaka bilimlarini ijobiy tomonga buradi,qonun-qoidalarga amal qilib ish yuritadi.

Sir emas, aksariyat hollarda insonlar huquq, qonun, burch, adliya, yuristik faoliyat kabi tushunchalarni, ba’zan tasodifan qonunlarga rioya qilmay qonun oldida javobgarlik holatiga tushib qolgandagina eslaydilar. Afsuski bunda endi kech qolgan bo‘ladilar. Qonun buzarlardan odatda nega bunday qilding deb murojat qilganda bunday bo‘lishidan xabarim yo‘q edi, deb qandaydir jarayonlardan najot kutadilar.

Demak har bir shaxs, qonunlarni bilmaslik hech qachon sodir etilgan jinoyatni yengillashtirmaydi. Qonunlarga “chambarak” ostidan qarasak, uni mukammal bilmasak, hurmatini joyiga qo‘ymasak,hayotimiz tinchini buzgan bo‘lamiz. Zero, qonunlarni bilish, unga hurmat nuqtai nazardan qarash jinoyatlardan, umuman olganda jinoyatdan uzoqroq bo‘lishning asosiy omilidir. Qonunga hurmat insonning kundalik turmush tarzidan mustahkam o‘rin olishi zarur deb o‘ylaymiz. Ana shunday bo‘lgandagina har bir yosh o‘zini va jamoa, jamiyatni boshqarishi yengillashadi. Farovon hayot bo‘ladi, adolat qaror topadi. Shu maqsadlarga erishish uchun ham huquqiy savodhonlik talab etiladi. Mazkur sohada ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy darajaga ko‘tarish zarur. Demak, xuquqiy savodxonlikni yuqori darajaga ko‘tarish nuqtai nazaridan o‘z haq-huquqlarini biladigan, shaxsni kuchi va qudratiga suyanib ishlaydigan va yashaydigan, tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqea yoki hodisalarga mustaqil munosabatda bo‘ladigan, ayni paytda o‘z manfaatini xalq, mamlakat, davlat manfaati bilan uyg‘unlashtiradigan erkin shaxsni voyaga yetkazish uchun barcha sharoit, zaruriy jarayonlarni paydo qilish davr talabidir. Baralla aytish mumkinki yoshlarni umuman jamiyat fuqarosini huquqiy madaniyatini, savodxonligini taraqqiy ettirmay turib qonun va me’yoriy hujjatlarni hisobga olmaydigan qonun buzarlarni, o‘g‘ri va yulg‘ichlarni, tovlamachilarni, laganbardorlarni, axloqsiz ijobiy ma’naviyatsizlarni, umuman salbiy oqibatlarni oldini olish mushkul bo‘ladi. Qonunbuzarlar bor ekan, inson va jamoa faoliyatida tinchlik hukmron bo‘lmaydi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarni huquqiy madaniyatini shakllantirishga doir keng ko‘lamli faoliyatlar chuqur o‘rganishni talab qiladigan eng dolzarb muammolardan biri ekan. Ta’kidlash lozimki, bu xususda O‘zbekiston Respublikasida bugungi kun sharoitini, ijtimoiy-siyosiy ahvolni va yaratilgan yangi qonun va hujjatlarni inobatga olgan holda maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan. Ammo ushbu masalaga yaqin bo‘lgan ba’zi ilmiy ishlarni bir necha turkumga ajratish mumkin.

Birinchi turkumga sosialistik va kommunistik qurilish deb nomlanadigan sobiq sovet tuzumi davrida olimlar yaratgan fuqarolarning huquqiy madaniyatiga oid masalaning ayrim jihatlari sobiq mustabid tuzum siyosatiga bog‘liq holda kommunistik mafkura asosida yoritilgan adabiyotlar kiradi. Ushbu olimlarning qarashlariga asosan tanqidiy nuqtai nazardan yondoshish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi turkumga 90-yillarning boshlarida yangi mustaqil davlatlar tashkil bo‘layotgan davrda yaratilgan ilmiy ishlar kiritiladi. Ularda mustaqillikka erishilishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolning o‘zgarilishi va yangilanishi bilan bog‘liq jarayonlar ifodalangan.

Ushbu muammolar yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazgan mualliflarni uch guruhga, bo‘lish mumkin.Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari; uzoq xorijiy davlatlar olimlari; O‘zbekiston Respublikasining olimlari; Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan S.A.Avakyan, G.V.Barabashev, V.I.Vasilyev, Ye.N.Kozlov, M.A.Krasnov, O.Ye.-Kutafin, I.I.Ovchinnikov, V.I.Postovoy, D.D.Ragulin, V.V.Tabolin, N.V.Fadeyev, K.F.Sheremet kabi olimlar fuqarolarning huquqiy madaniyatiga doir maxsus ilmiy tadqiqotlar o‘tkazganlar.Ilmiy ishimizda xorijiy davlatlar olimlarining ilmiytadqiqotlari huquqiy madaniyat hodisalarini qiyosiy manbalar sifatida o‘rgandik.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu mavzu bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etgan, shuningdek, hozir ham faoliyat olib borayotgan ko‘pgina olimlar, xususan, O.Buriyev, M.Boydadayev, A.Vaxobov, Sh.Jalilov, R.Jumayev, Z.Islamov, K.Komilov, O.Xusanov, R.Nabiyev, R.Kayumov, M.Kirg‘izboyev, M.Malliskiy, Sh.Mamadaliyev, Sh.Maxmudbekov, X.Odilkoriyev, A.Saidov, R.Siddikov, A.Tulaganov, M.Fayziyev, T.Fayzullayev, E.Xalilov, U.Choriyorov, K.Kodirov kabilar fuqarolar huquqiy o‘z-o‘zini anglash muammolarining nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilganlar.Huquqiy madaniyat masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida mamlakatimiz olimlari tomonidan bir necha yillardan buyon o‘rganib kelinmokda. Jumladan, O.T.Xusanov, A.T.Tulaganov va R.Qayumovlar fuqarolar huquqiy bilimlarini shakllantirishdan iborat vazifalar tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan faoliyat bilan mahalliy davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning tashkiliy-huquqiy jihatlarini, E.X.Xalilov, L.M.Boyko, K.Komilov, M.M.Fayziyev, Z.M.Islamov-mavzuning umummetodologik jihatlarini, Sh.Maxmudbekov, O.Buriyev, M.G.Milliskiy va T.Fayzullayev-muammoning tarixiy jihatlarini, M.Kirg‘izboyev va B.Ochilov huquqiy madaniyatning xalqaro ijtimoiy jihatlarini R.Nabiyev esa ilmiy-empirik negizlarda tadqiq etganlar.

Ta’kidlash joizki, mazkur mualliflarning ilmiy asarlari tadqiq etilayotgan muammoni nazariy mushohada qilishda katta yordam ko‘rsatdi.

Ayni vaqtda, qayd etish zarurki, istiqlol yillarida amalga oshirilgan ulug‘vor faoliyatlar yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda nisbatan o‘zining oz bo‘lsada ahamiyatini ifodalangan. Ayniqsa istiqlol davridagi yoshlar ongi, tafakkuridagi o‘zgarishlar evolyusiyasi, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar o‘z yechimini topgan. Shu boisdan ham pozitiv o‘zgarishlar jadal kechayotgan hozirgi davr nuqtai nazaridan mazkur dolzarb ijtimoiy muammoni yanada yahlit tadqiqot darajasida o‘rganishga harakat qilinmoqda.

Istiqlol davrida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning tarixiy va nazariy asoslarini hamda bu sohada to‘plangan tajribalarni ilmiy tahlil qilish asosida O‘zbekistonda fuqarolarning va ayniqsa yoshlarning o‘zini-o‘zi anglash tizimini ilmiy o‘rganish, mavjud tajribalarni umumlashtirish, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasiga pozitiv yo‘nalish bag‘ishlashga asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

O‘zbekiston Respublikasida asta-sekin takomillashib borayotgan fuqarolarning huquqiy madaniyat tizimining mohiyati, o‘ziga xos jihatlari va fuqarolik jamiyatini qurishda tutgan o‘rni hamda rivojlanish yo‘nalishlarini tadqiq etish;

- Huquqiy madaniyat hodisasining tarkibi, tuzilishi, tizimiy xususiyatlarini o‘rganish:

Huquqiy madaniyat tamoyillari va funksiyalarini tahlil qilish:

- Huquqiy madaniyatga doir xalqaro huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish;

Yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida vujudga kelgan nazariy va amaliy muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirish borasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

Ushbu tizimni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirish.

Xulosa. Huquqiy madaniyat salohiyati va fuqarolarning, yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish ob’yektiv va mantiqiy jarayondir. Milliy manfaatlar faqat bugungi kunni emas, balki davlat va jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan maqsad va vazifalarni e’tiborga olib ishlashni talab etmoqda. Shaxsning xavfsizligi va rivojlanishiga yo‘naltirilgan huquqiy targ‘ibotni barpo etish va takomillashtirishning maqbul tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi institutlar sifatida huquqni muhofaza qilish organlari muhim ahamiyatga egadir. Ular faoliyatining muhim jihatlari, ibratli tarbiyaviy yakunlari ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritilishi, huquqni muhofaza qilish organlarining hodimlari va rahbarlarining doimiy rukndagi intervyularini yo‘lga qo‘yish, "to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zlashish" shakl uslublarini amaliyotga joriy etish (telefon orqali hamda fuqarolarning hokimliklar va ommaviy axborot vositalariga shaxsan murojaat qilishlari) hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Oliy sudda ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar uchun “Ochiq eshiklar” kunlarini muntazam yo‘lga qo‘yish maqsadga-muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Anikin A.V. Adam Smit (izdaniye na russkom 1968, na nemeskom 1990).
A. Xolbekov U. Idirov M. Sosiologiya (izoxlilug‘at- ma’lumotnoma) Toshkent. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibiyot nashriyoti. 1999 y. –B.110-41
2. Nersesyans V. S. Huquqfalsafasi. (ma’sulmuharrir: A. X Saidov. T, «Adolat», 2003. Uchinchi bob. –B. 201-223.
3. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. - T. «Shark», 2003. –B. 9-21.
4. Safarova T. R. (2021). Vliyaniye pandemii covid-19 na sostoyaniye etnokulturnogo turizma v Uzbekistane. In Novыye vыzovы novoy nauki: opыt teoreticheskogo i empiricheskogo analiza (pp. 176-183).
5. Safarova T. R. (2020). K probleme razvitiya etnokulturnogo turizma v Uzbekistane. Paradigmata poznani, (2), 23-25.
6. Safarova, T. R. (2022). Main Directions for Improving International Tourism Statistics. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 13, 20-22.
7. Politologiya. Sovremennaya demokratiya [Tekst]: uchebnoye posobiye /N.A.Malyutin. – M., 2009.
8. Jurayev N., Azizov Sh. «Ijtimoiyot asoslari» (shaxsvajamiyat). Ma’rifat, madadkornashriyoti. - Toshkent, 2003,43 bet.
9. Jo‘rayev N. Yangilanishlar konsepsiyasi: Yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti (mas’ul muharrir: M.Bekmurodov).- T.: “Ma’naviyat”, 2002. - 80 b.
10. Belyayeva N. Chto ostalos posle Grajdanskogo foruma Opublikovano v jurnale: «Neprikosnovenniy zapas» 2003, №2(28)
11. Odilqoriyev H. Konstitusiya va fuqarolik jamiyati. T.; “SHARQ”, 2002-175 b.
12. Romanenko M.L. “Sosialno – politicheskiye texnologii razresheniye konfliktov grajdanskogo obщyestva: Ekzestensialnыye alternativы sovremennoy Rossii na poroge tretyego tыsyachiletiya”. Monografiya Mosk. Un-ta 1999.
13. Bajinov M.A. Grajdanskoye obshestvo i mestnыye samoupravleniye: opit konseptualnogo analiza. Vest Mosk. Un-ta 1999. № 12.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:330.1(075.8)

Laylo AKBAROVA,
Toshkent davlat transport universitetikatta o‘qituvchisi
Nilufar SHANAZAROVA,
Toshkent davlat transport universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: akbarova1965@gmail.com

ТДТрУ профессори, фалс.ф.д. Раматов Ж.С. тақризи асосида

IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE MODERN WORLD ON THE ECONOMY AND STATISTICAL ANALYSIS

Abstract

In this article, the digital economy and the factors of their development have a significant impact on the economy of many developed countries in the world today, as well as the important role of the digital economy in the state economy. "Tasks and goals of the digital economy" and "Factors and obstacles affecting the digital economy in Uzbekistan" and their solutions were scientifically analyzed. learning the role. In the article, the impact of digitization on international trade, changes in the composition and form of international trade due to its influence, the strengthening of global competition and its transition to the intangible sphere were discussed and scientifically analyzed.

Key words: Digital economy, digitization methods, digital economy, market economy, digital technology, robotics, IT, digital dividends, internet banking.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ НА ЭКОНОМИКУ И СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье цифровая экономика и факторы их развития оказывают существенное влияние на экономику многих развитых стран мира сегодня, а также важная роль цифровой экономики в экономике государства. Научно проанализированы «Задачи и цели цифровой экономики» и «Факторы и препятствия, влияющие на цифровую экономику в Узбекистане» и пути их решения. В статье рассмотрено и научно проанализировано влияние цифровизации на международную торговлю, изменение состава и формы международной торговли в связи с ее влиянием, усиление глобальной конкуренции и ее переход в нематериальную сферу.

Ключевые слова: цифровая экономика, методы цифровизации, цифровая экономика, рыночная экономика, цифровые технологии, робототехника, ИТ, цифровые дивиденды, интернет-банкинг.

ZAMONAVIY DUNYODA RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA STATISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda dunyodako'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga raqamli iqtisodiyot va ularni rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazmoqda,shuningdek davlat iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning o’rni muhim hisoblanishi keltirilgan. "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari", hamda "Raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga ta’sir ko’rsatuvchi omillar va to'siqlari" kelib chiqish omillari va ularning yeshimlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.Savdo-sotiq jarayonlarini raqamlashtirish va unda tegishli zamonaviy texnologiyalarning roli o‘rganligi. Maqolada raqamlashtirishning xalqaro savdoga ta’siri, uning ta’sirida xalqaro savdo tarkibi va shaklining o‘zgarishi, global raqobatning kuchayishi va uning nomoddiy sohaga o‘tish haqida to’xtalib o’tilgan va ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish usulari, raqamli iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, raqamli texnologiya, robototexnika, IT, raqamli dividentlar, internet banking.

Kirish. «Raqamlashtirish» so‘zi aslida yangi atama bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o‘laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.Jahonda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, IT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir etadi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishiyurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o‘sishini misol qilib keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. 2020 yil mamlakatimizda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinib, bu borada ko‘lamli ishlar boshlandi. Xususan, 2020 yil 28 aprelda davlatimiz rahbarining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bundan tashqari 2020 yil 5 oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni e’lon qilindi. Bu mamlakatimizda raqamlashtirish ishlarini yana tezlashtirish va rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor berilayotganini belgilaydi.

Xalqaro savdoga raqamlashtirishning ta’siri haqida manbalarda ilmiy maqolalarni topish muammo hisoblanadi. Shuning uchun ushbu mavzudagi tadqiqot dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungidavrda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning sur’ati, ko‘lami, qamrovi va chuqurligida misli ko‘rilmagan texnologik o‘zgarishlar odatda „to‘rtinchi sanoat inqilobi“ degan umumiy atama bilan tavsiflanadi (inglizcha: the Fourth Industrial Revolution).

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishga imkon beradigan suv va bug‘ energiyasiga, ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda jadal taraqqiyotni ta’minlagan elektr energiyasiga va elektronika hamda axborot texnologiyalariga asoslangan uchta sanoat inqilobidan farqli o‘laroq, to‘rtinchi sanoat inqilobi tizimli ta’sirga ega ekanligini ko’ramiz. U hayotning barcha sohalariga, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida sifatli o‘zgarishlarga olib keldi. Shveysariyaning UBS banki mutaxassislarining fikriga ko‘ra, iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalari va yirik ma’lumot bazalarining paydo bo‘lishi, Internet va blokcheyn, ilg‘or robotlar va boshqalar tufayli har qanday ishlab chiqarishni tashkil etish samaradorligini ta’minlashning o‘zaro bog‘liqligi vujudga kelmoqda.

To‘rtinchi sanoat inqilobi va uning insoniyat uchun qanday oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risida eng zamonaviy g‘oyalar Jahon iqtisodiy forumining (JIF) asoschisi va rahbari, professor Klaus Shvab tomonidan bayon etilgan bo‘lib, ushbu hodisani “jismoniy, raqamli va biologik sohalar orasidagi chegaralarni yo‘q qiladigan texnologiyalarning birlashishi” deb ta’riflaydi.[4] Ya’ni kelajak kiber-fizik ishlab chiqarish tizimlariga asoslanadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni raqamlashtirish to‘rtinchi sanoat inqilobining hal qiluvchi tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi va ilg‘or texnologik yechimlardan samarali foydalanish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratadi.

2018 yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan Jahon Iqtisodiy Forumi(JIF) sessiyasida taqdim etilgan ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risidagi hisobotda McKinsey & Company global konsalting tarmog‘ining mutaxassislari ishlab chiqarishni keskin o‘zgartiradigan uchta asosiy texnologik megatrendlarni ko‘rsatib o‘tdilar: zamonaviy raqamli texnologiyalarning kombinatsiyasi orqali o‘zaro bog‘liq, shu jumladan Interneti hamda turli AT texnologiyalari; ishlab chiqarish jarayonlari va tizimlarini sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda boshqarish, kompyuterda o‘qitish, raqamli buxgalteriya va yirik ma’lumot bazalari, diagnostika xizmatlari; ilg‘or robotlar, moslashuvchan mustaqil ishlab chiqarishning yangi turilarini vujudga kelishiga asos bo‘luvchi 3D nashr etish, elektron-optik boshqaruv tizimlari va boshqalardan foydalangan holda yuqori mahsuldorlikka erishadigan avtomatlashtirishdir.[5]

Akademik S. G‘ulomov va boshqalar muallifligidagi “Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari” nomli o‘quv qullanmada raqamli iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif berilgan:- “raqamli iqtisodiyot(elektron) bu–axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan iqtisodiyotdir. Bu axborot-kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibrid dunyoda barcha iqtisodiy faoliyat subektlari – tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayoni obektlari va subektlarining to‘laqonli o‘zaro aloqa qilish imkoniyatini ta’minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo‘lishi mumkin”[6].

Tadqiqotmetodologiyasi. Tadqiqotning asosiy masalasi bugungi kunda O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotni, shu jumladan undan xalqaro savdoda foydalanishni rivojlantirishning qonuniyatlari, tendensiyalari va imkoniyatlarini, xususan, axborot texnologiyalarining tashqi iqtisodiy faoliyatning turli sohalariga kirib borish darajalarini ilmiy asosda o‘rganish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Vatanimiz taraqqiyoti va istiqboli, mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati milliy iqtisodiyotimizga yangi innovatsiyalarni joriy qilishga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli tashqi savdoda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya kabi usullar qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Raqamlashtirish tufayli yetakchi kompaniyalarning strategiyasi va rivojlanishida kutilayotgan o‘zgarishlar to‘g‘risida 2017 yil sentabr oyida JIF ekspertlari tomonidan yuqori darajadagi mansabdor shaxslardan o‘tkazilgan so‘rov ma’lumotlarini o‘rganish muhim xulosalar qilishga imkon beradi.

Xalqaro mehnat taqsimotiga, mamlakatlar ega bo‘lgan tabiiy, nisbiy va raqobatdosh ustunliklarga asoslangan an’anaviy iqtisodiy globallashuv va uning tamoyillarga muqobil bo‘lgan taqsimlangan ishlab chiqarish konsepsiyasi bugungi kunda katta qiziqish uyg‘otmoqdi. Bu konsepsiyaning asosiy g‘oyasi ishlab chiqarishni xaridorga/iste’molchiga yaqinroq joylashtirish, mahsulotni dizayni va boshqa parametrlarni yaratishda ishlab chiqishda ishtirok etish orqali o‘z manfaatlari va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda yangi qiymat yaratish jarayonini yanada samaraliroq etishdir. Bu ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan vaqtini va uning tannarxini pasaytiradi, mijozning talablariga moslashishni sezilarli darajada oshiradi. Masalan, butun konstruksiya markazlashtirilmagan 3D printerlar tarmog‘iga va dasturli hisoblash orqali amalga oshiriluvchi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tizimlariga ulangan AT tizimlariga tayanish mumkin[9]. Iqtisodiyotni raqamlashtirish uning o‘sishi va samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. 2016 yilda Buyuk Britaniya hukumatining buyurtmasiga asosan tayyorlangan raqamli iqtisodiyot to‘g‘risidagi hisobotda, raqamalashtirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilganda, mamlakatning so‘nggi o‘n yillikda yalpi ichki mahsuloti o‘rtacha 0,4-0,7 foiz darajaga tezroq o‘sishi mumkin bo‘lishi ta’kidlangan.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdodagi zamonaviy o‘zgarishlarning asosi, bir tomondan, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish, milliy iqtisodiyotni AKT tovarlari va xizmatlari bilan to‘ldirish, boshqa tomondan - mobil aloqa va Internetning mavjudligidir. Bular esa postindustrial jamiyatining muhim infratuzilmasini tashkil etuvchilardir. Bugungi kunda o‘rtacha hisobda yeryuzining har bir aholisi uyali aloqa abonentidir va dunyo aholisining deyarli yarmi Internetdan foydalanadi 1990 yilda ikkala ko‘rsatkich ham nolga yaqin ekanligini ko’rganmiz.

2015 yilda elektron kanallari “biznesning iste’molchilar uchun” segmentida amalga oshirilgan transchegaraviy oldi-sotdi kelishuvlarining hajmi 190 milliard dollarga yaqinlashdi. Ushbu miqdorning 120 milliard dollari eng yetakchi kirgan davlatlarga to‘g‘rikeladi. Masalan AQSH (40 milliard dollar), Xitoy (39 milliard dollar), Buyuk Britaniya (12 milliard dollar), Germaniya (9 milliard dollar) va Kanada (7 milliard dollar) [12]. Chetel tovarlarini Internet orqali sotib olish ulushi tovarlar importining umumiy hajmida Xitoy,Buyuk Britaniyava AQSH uchun eng yuqori ko‘rsatkich - taxminan 3%,dunyo bo‘yicha - 1,1% ni tashkil etadi. Mamlakatda “biznes iste’molchilar uchun” segmentdagi barcha oldi-sotdi kelishuvlaridagi onlayn transchegaraviy savdolarning ulushi Italiya (19%), Kanadada (16%) va o‘rtacha dunyo bo‘yicha o‘rtacha 7% ni tashkil etdi.. Bugungi kunda 380 million iste’molchixorijiy veb-saytlarda xaridlarni amalga oshirmoqda (ularning 70 millioni xitoyliklar,34 millioni amerikaliklar va 70 millionga yaqin iste’molchilar Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada, Janubiy Koreyava Yaponiyada istiqomat qilishadi).

Jahon mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgachayetkazib berishlari

mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatilgan.

- ko'plab sohalardagi monopoliya;
- internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonununchilikning zamondan orqada qolganligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi;
- qonunchilikning shaffof emasligi;
- axborot texnologiylari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki(ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab raqamli ma’lumotlarga asoslangan biznes modellaridan foydalangan holda ko‘plab raqamli platformalar paydo bo‘ldi va ular mavjud sanoat tarmoqlari o‘rnini egalladi. Platformalarning ustunligi shundaki, bozor kapitallashuvi bo‘yicha dunyodagi yetakchi sakkizta kompaniyaning yettitasi platformaga asoslangan biznes modellaridan foydalanishadi.Shunga qaramay, YUNKTAD ekspertlarining fikriga ko‘ra Internet orqali savdo hajmi rivojlanayotgan mamlakatlarda past darajada qolmoqda. Shuni ham ta’kidlash lozimki, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlar o‘zlarining yirik elektron savdo maydonchalari va zamonaviy ta’minot logistika tizimiga ega bo‘lib, onlayn ravishda tovarlar va xizmatlarni xarid qiladigan yoki buyurtma qiladigan Internet foydalanuvchilari hajmi kundan-kunga o‘sib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Xalqaro savdo uni tartibga solish va liberallashtirishni rivojlantirishning yangi bosqichi arafasida turibdi. Bu jarayon raqamli muhitda faoliyat ko‘rsatish va raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy qoidalarni ishlab chiqishni talab etadi. Chegaradagi savdo to‘siqlari olib tashlanganidan keyin (ingliz tilida: at the border disciplines), birinchi navbatda, bojxona to‘lovlarini kamaytirish va bekor qilish, shuningdek, xalqaro ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan bozor faoliyatidagi ko‘pgina tarifsiz cheklovlarni kamaytirish (ingliz tilida: behind the border disciplines). Tizimlar, transchegaraviy virtual makonda tijoriy munosabatlarni tartibga solish bilan bog‘liq yangi fanlar sinfi vijudga keladi (ingliz tilida: above the border disciplines). Bunday tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari kiberhujumlarga qarshi kurash standartlari, intellektual mulk huquqlarining buzilishi, Internetda va elektron tijorat sohasida firibgarliklarni oldini olishga yo‘naltirilgan ma’lum qoidalar, ma’lumotlarning erkin harakatlanishi, saqlanishi va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bemalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi. Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi.

ADABIYOTLAR

1. https://uz.vvikipedla.com/wiki/Digital_economy.
2. Muhammadjon Butaboev, Akmaljon O’rinov, Farhod mulaydinov, Isroiljon Tojimamatov “Raqamli iqtisodiyot” darslik, 7-39 betlar.
3. Akbarova, L. U. (2022). Application of pedagogical technologies in practical classes in the discipline" economic theory". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
4. Akbarova, L. U. (2022). The significance of economic theory in knowing and solving problems of economic development of the republic of uzbekistan. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
5. Akbarova, L. U. (2022). Some problems of lifelong education in uzbekistan in the conditions of a market economy. Journal of new century innovations, 16(1), 130-132
6. https://uz.vvikipedla.com/wiki/Digital_economy.
7. Upashovna, A. L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security. European journal of innovation in nonformal education, 2(1), 245-248.
8. Upashovna, A. L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security. European journal of innovation in nonformal education, 2(1), 245-248.
9. Акбарова, Л. У. (2020). Особенности ріночной инфраструктурі в современніх условиуах. В номере, 9.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 316.6

Zohid ALIMARDONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, p.f.f.d.(PhD),

s.f.n. dots N.Xalilova taqrizi asosida

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH BO‘LINMALARI BO‘LAJAK OFITSERLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING TA’SIRI

Annotatsiya

Maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari bo‘lajak ofitserlarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda psixologik madaniyatni ta’sir xususiyatini aniqlashdan iborat. Ayniqsa, bo‘lajak ofitser shaxsida psixologik madaniyatni rivojlantirish yordamida kommunikativ kompetentlikni kuchaytirish mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, kursantlarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan xulosa va uslubiy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, psixologik madaniyat, kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, shaxslararo munosabatlar, kommunikativ funksiya, kasbiy sifat, kasbiy tayyorgarlik, muloqot, qadriyatlar yo‘nalishi, kommunikativ strategiya.

ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ СЛУЖЕБНЫХ ОРГАНОВ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

Цель статьи - определить влияние психологической культуры на развитие коммуникативной компетентности у будущих сотрудников органов общественной безопасности. В частности, показано, что укрепление коммуникативной компетентности возможно с помощью развития психологической культуры у будущего офицера. Также предложены выводы и методические рекомендации, направленные на развитие коммуникативной компетентности у курсантов.

Ключевые слова: культура, психологическая культура, компетентность, коммуникативная компетентность, межличностные отношения, коммуникативная функция, профессиональные качества, профессиональная подготовка, общение, ценностные ориентации, коммуникативная стратегия.

THE INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL CULTURE ON THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE OFFICERS OF PUBLIC SECURITY DEPARTMENTS

Abstract

The purpose of the article is to determine the influence of psychological culture on the development of communicative competence in future officers of public security units. In particular, it has been shown that it is possible to strengthen communicative competence with the help of developing psychological culture in a future officer. Also, conclusions and methodological recommendations aimed at developing communicative competence in cadets were offered.

Key words: culture, psychological culture, competence, communicative competence, interpersonal relations, communicative function, professional quality, professional training, communication, value orientation, communicative strategy.

Kirish. Ma’lumki, jamiyat rivojlanishiga nisbatan zamonaviy yondashuvlar, insonni eng oliy ijtimoiy qadriyat sifatida anglash hamda shaxsni ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq jarayonni faoliyatning markaziy o‘rniga chiqishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi ta’lim jarayoni subyektlarining maqsadli o‘zaro ta’sir jarayoni va natijasidir. Shu bilan birga shaxsning rivojlanishiga psixologik nuqtai nazardan yondashilsa, uning maqsadi ta’lim va tarbiya jarayonida o‘z aksini topadi. Agar ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bu maqsadga erishishining samarali vositasidir. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik jarayoni rivojlangan shaxsda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda modellashtirish, uning psixologik tabiatini hisobga olish, shaxsiy ahamiyatga ega individual niyatlar, ilgari surilgan maqsadlar hamda o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan yuqori mustaqillikka erishishni ta’minlaydigan shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqarishni taqazo qiladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari bo‘lajak ofitserlarining kasbiy tayyorlash jarayoni keng ma’noda jamiyat madaniyatiga moslashish deb baholanib, uning muhim vositalaridan biri bu psixologik madaniyatdir. Psixologik madaniyat jamiyatdagi o‘zaro va shaxslararo munosabatlar olamida mavjud bo‘lib, ularning me’yorlari, qoidalari va usullarini belgilab beradi. Shu o‘rinda K.M.Romanov ta’kidlaganidek, jamiyat madaniyati shaxsni inson sifatida shakllantiradi. Psixologik madaniyatni o‘zlashtirish orqali shaxs boshqa insonlar va o‘zi bilan munosabatda bo‘lishining insoniy usullarini o‘zlashtiradi. Shu bilan birga madaniyatning psixologik tabiatini uning mazmunini hamda shaxsning predmetiga aylanadi. Ana shu fazilatlar orqali shaxs psixologik tabiatining tirik tashuvchisi hisoblanadi [5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Psixologik madaniyat insonga o‘zini shaxs, subyekt, individuallik sifatida qarashning eng samarali usullarini taqdim etadi. Natijada shaxs hayotining sifatini yaxshilaydi, travmatik omillar ta’siriga nisbatan qarshilik ko‘rsatadi hamda inson o‘zini to‘liq anglashi uchun sharoit yaratib, muvaffaqiyatlarga erishishni ta’minlaydi. Aksariyat holatlarda ko‘pchilik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yuqori darajadagi psixologik madaniyat insonning boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy mavjudlik sohalarida ya’ni muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu ularning barcha sohalarda inson faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydigan kuchli vositadir. Psixologning ta’kidlashicha, ishga doir muvaffaqiyatning 15% kasbiy bilimga, 85% esa insonlar bilan muloqot qilish san’atiga bog‘liq.

Psixologik madaniyat insonning nafaqat o‘ziga balki boshqa insonlarga ham subyekt va shaxs sifatida munosabat qoidalari, me’yorlarini belgilaydi.

Ma’lumki, psixologik madaniyatning kommunikativ jihatlariga doir ilmiy tadqiqotlarning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo hozirgi kunda keng doirada o‘rganilgan va yetarli ma’lumotlar to‘plangan. Shunday qilib, ba’zi

mutaxassislar psixologik madaniyat va kommunikativ funksiyaning boshqa funksiyalar o‘rtasida ekanligi (N.I.Lifinseva, 2001; V.V.Semikin, 2002; S.L.Semenova, 2006; M.V.Kapranova, 2009 va boshqalar), kommunikativlikni namoyon bo‘lishi psixologik madaniyat tarkibida mustaqil komponent sifatida (N.T.Selezneva, 1997, T.Ye.Yegorova, 2005; N.Yu.Pevzner, 2005, M.V.Petrovskaya, 2013 va boshqalar) namoyon bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari bo‘lajak ofitserlarining kommunikativ kompetentligini ulardagi psixologik madaniyatining ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqish bugungi kun uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

Ma’lumki, bo‘lajak ofitserlardagi kommunikativ kompetentlik kasbiy muhim ahamiyatli sifatlar tarkibiga kiradi. Shu bois, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish oliy harbiy ta’lim jarayoning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, ta’limning yangi paradigmasi mazkur muammoni yangi, yanada kengroq mazmun bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari bo‘lajak ofitser kommunikativ kompetentligining mohiyati va tuzilishini o‘rganish o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikkita darajasini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: Birinchidan, kommunikativ kompetentlik bevosita muloqot jarayonida, inson xulq-atvorida namoyon bo‘lishi; ikkinchidan, pedagogik kommunikativ qadriyatlar, kursant kasbiy motivatsiyasining yo‘nalishi va o‘ziga xos xususiyatlari hamda uning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini o‘zi ichiga oladi [1]. Shu o‘rinda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari bo‘lajak ofitserlarining asosiy ish faoliyatini “kommunikativ”lik bilan bevosita bog‘liqdir. Darhaqiqat ularning faoliyatlari amaliy ko‘rinishga ega bo‘lib, faoliyatlarining asosini insonlar bilan samarali muloqot olib borish jarayoni tashkil qiladi. Mazkur kasbning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bo‘lajak ofitserlarning shaxslararo o‘zaro munosabatlari, insonlarni bir-birlarini idrok qilish, muloqotga kirishuvchanlik kabi kommunikativ malakalariga bog‘liq. Bundan tashqari ijtimoiy munosabatlarning kuchayishi, muloqot maydonining kengayishi, shu bilan bog‘liq aqliy faoliyatdagi ortiqcha yuklama muloqot jarayonidagi keskinlikni keltirib chiqaradi. Kommunikativ kompetentlikni yuqori darajada shakllanganligi bo‘lajak ofitserni jadal shaxslararo muloqot sharoitida yanada tayyor va himoyalangan qiladi.

Pedagogik lug‘atida kommunikativ kompetentlik shaxsning bilim va emotsional tajribasiga asoslangan muloqotning turli vaziyatlarida insonning yo‘nalishi sifatida talqin qilinib, psixik holat, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlarining doimiy o‘zgarishi, o‘zini va boshqalarni tushunish tufayli ular bilan samarali munosabatda bo‘lish qobiliyati deya ta’kidlangan.

Tahlil va natijalar. Psixologik lug‘atda kommunikativ kompetentlik samarali muloqotga kirishish, insonlar bilan aloqa o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati yoki muayyan vaziyatlarda muloqot jarayonida samaradorlikka erishish uchun zarur bo‘lgan ichki zahiralar tizimi sifatida belgilaydi.

N.G.Shashkin tomonidan kommunikativ kompetentlikni birinchidan, ta’lim jarayonini samaradorligini ta’minlaydigan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar majmui hamda muloqotning turli tomonlariga yo‘naltirilganligi tushuniladi; ikkinchidan, turli toifadagi harbiy xizmatchilar ularning oila a’zolari va fuqarolar, xodimlar bilan samarali va kommunikativ munosabatlarni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan shaxsning ichki zahiralari tizimi [6].

O.M.Kazarsevaning ta’kidlashicha, kommunikativ kompetentlik tug‘ma qobiliyat emas, balki ijtimoiy va kommunikativ tajribani o‘zlashtirish jarayonida shaxsda shakllanadigan qobiliyat ekanligini ta’kidlaydi. Kommunikativ va ijtimoiy tajriba o‘z navbatida nutqning stilistik o‘zgarishida ifodalangan kodlarni almashtirish mexanizmini o‘z ichiga oladi. Bunday o‘zaro almashtirishlarning asosini aloqa ishtirokchilari o‘rtasidagi rolli munosabatlarning o‘zgarishidir [2].

A.V.Nemushkinning fikriga ko‘ra, kommunikativ kompetentlik - bu o‘zining asosiy funksiyalarini (axborot, xabar, idrok qilish, baholash, o‘zaro ta’sir va uni tashkil etish) amalga oshirish uchun shaxslararo muloqotning muayyan vaziyatida qo‘llaniladigan kommunikativ strategiyalar va vositalar (bilimlar, ko‘nikmalar) to‘plamidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) boshqa insonlar bilan muloqot qilishning dastlabki tajribasi;

b) qobiliyatlarning rivojlanish darajasi;

v) shaxsning individual xususiyatlari [3].

M.A.Pautovaning ta’kidlashicha, kommunikativ kompetentlik - bu zamonaviy ta’lim an’analarini hisobga olgan holda universitetda shakllangan ish va shaxslararo muloqot jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxslararo muloqot jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxslararo va kommunikativ ko‘nikmalarni shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq qadriyatlar yo‘nalishlarini namoyish etish qobiliyatidir [4].

Muammoga oid turli ilmiy manbalarni tahlil qilish kommunikativ kompetentlik kursatkichlarini ajratib olishga imkoniyat yaratadi: refleksiya, empatiya, markazlashmagan va bashorat qilish qobiliyati, kommunikativ bag‘rikenglik, muloqotdagi diologik yo‘nalish, konstruktiv ishga oid aloqalarga motivatsion yo‘nalish, shaxs yo‘nalganligining tipi, kommunikativ nazorat, stressga barqarorlik, muloqotchanlik, internallik, liderlik sifatlari, fikrlashning tipologik xususiyatlari, ishga doir muloqot, ko‘nikma va malakalari, kommunikatsiyaning usul va uslublari, ijtimoiy intellekt, alturizm, nutqiy savodxonlik, kommunikativ moyillik va boshqalar.

Bir qator mutaxassislar (V.Ye.Akinteva, I.V.Vlasova, T.S.Kovaleva, V.S.Romanyuk, V.S.Chernyavskaya, N.G.Shashkin va boshqalar) bo‘lajak ofitserlarning kommunikativ kompetentligining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida rivojlangan nutqning mavjudligi, zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo‘lish, rasmiy hujjatlarni tuzish va saqlash qobiliyati, o‘ziga ishonchning yuksak darajasi, kommunikativ nazorat hamda kommunikativ tolerantlikning yuqori darajasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlik borasidagi nazariy manbalarni tahlil qilish asosida harbiy oliy o‘quv yurtlari kursantlarining kommunikativ kompetentligini shakllantirishda mavjud muammolar xususida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari bo‘lajak ofitserlari o‘rtasida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va uni samaradorligini ta’minlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

-kommunikativ kompetentlikni kasbiy muhim komponent sifatidagi ahamiyatini nafaqat kursantlar balki o‘qituvchilar ham anglab yetganda o‘zini o‘zi tarbiyalash ishlarida izchillikka hissa qo‘shadi;

-kursantlarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradigan va ularda zarur muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradigan o‘quv jarayoniga “Bo‘lajak ofitserlarning kasbiy faoliyatidagi kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish” maxsus kursini (fakultativ) kiritish;

-kursantlarga psixologik madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ularga individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish.

ADABIYOTLAR

1. Емельяненко А.А. Гендерные особенности коммуникативной компетентности курсантов военных вузов // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 2; URL: www.science-education.ru/102-5767 (дата обращения: 24.06.2012).
2. Казарцева О.М. Культура речевого общения: Теория и практика обучения. – М.: Флинта-наука, 1999.
3. Немушкин А.В. Формирование коммуникативной компетентности при подготовке специалистов социально-культурной деятельности в Вооруженных Силах Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – М., 2004.
4. Паутова М.А. Развитие коммуникативной компетентности студентов экономических специальностей: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Новосибирск, 2009.
5. Романов К.М. Психологическая культура: проблемы и перспективы исследования // Психологическая культура человека: Теория и практика: материалы научной конференции, 27-28 февраля 2012 г., Саранск / отв. ред. К.М. Романов. – Саранск, 2012. – С. 59–76.
6. Шашкин Н.Г. Формирование коммуникативной компетентности у будущих сотрудников органов внутренних дел в системе высшего образования: автореф. дис. … канд. пед. наук. – Чебоксары, 2005.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 82

Bekzod ALIMOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail:balimov@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dotsent I.Ismoilov taqrizi asosida

AL-KARAJI'S SCHOOL OF ARITHMETIC-ALGEBRAICS

Annotation

In this article, the scientific results of the scientific school of algebra of al-Qaraji, who is the successor of the great encyclopedist Muhammad Musa al-Khorazmi, the founder of algebra science, in terms of approximate calculations and finite arithmetic series are highlighted.

Key words: al-Khwarizmi, al-Qaraji, treatise, algebra, scientific school, approximate calculations, finite arithmetic series, arithmetic of unknowns, gnomon, row, column.

AL-QAROJIYNING ARIFMETIKA - ALGEBRACHILAR MAKTABI

Annotatsiya

Ushbu maqolada algebra fanining asoschisi buyuk qomusiy olim Muhammad Muso al-Xorazmiyning sohasida davomchisi bo‘lgan al-Qarojiyning algebra ilmiy maktabining taqribiy hisoblashlar, chekli arifmetik qatorlar borasida ilmiy natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: al-Xorazmiy, al-Qarojiy, traktat, algebra, ilmiy maktab, taqribiy hisoblashlar, chekli arifmetik qatorlar, noma’lumlar arifmetikasi, gnomon, satr, ustun.

ШКОЛА АРИФМЕТИКО-АЛГЕБРАИКИ АЛ-КАРАДЖИ

Аннотация

В данной стате освещаются научные резултаты научной школы алгебры ал-Караджи, преемника великого энциклопедиста Мухаммада Мусы ал-Хоразми, основоположника науки алгебры, в части приближенных вычислений и конечных арифметических рядов.

Ключевые слова: ал-Хорезми, ал-Караджи, трактат, алгебра, научная школа, приближенные вычисления, конечный арифметический ряд, арифметика неизвестных, гномон, строка, столбец.

Kirish. Arab matematikasining rivoji VII asr, islom dini paydo bo‘lishi davridan boshlangan. U savdogarchilik, arxitektura, astronomiya, geografiya, optika qo‘ygan ko‘p sonli masalalardan rivojlandi, va bu amaliy masalalarni yechishga bo‘lgan intilish va o‘ta jiddiy nazariy ishlarni o‘zida chuqur uyg‘unlashtirgan edi.

Arab matematiklari algebraik hisobda, ham abstrakt, ham amaliy tenglamalar nazariyasini paydo bo‘lishiga, algebra va arifmetikaning tutash joylarida algoritmik usullar sohalarida hal qiluvchi yutuqlarga erishdilar va qator shak-shubhaga o‘rin qoldirmagan yangiliklar yaratdilar.

Arab matematikasi rivojini ikki bosqichga ajratish mumkin: eng avvalo VII va VIII asrlar grek va sharq merosini bilib olish- o‘zlashtirish. Bog‘dodda al-Mansur (754-775yillar) va Xorun al-Rashid (786-809yillar) hukmronligi davrida birinchi katta ilmiy markaz bo‘lgan. U yerda ko‘p sonli kutubxonalar bo‘lgan va ilmiy asarlarning ko‘p nusxalari tayyorlangan. Antik Gresiya (Yevklid, Arximed, Apolloniy, Geron, Ptolemey, Diofant) asarlari tarjima qilingan, va shuningdek Hindiston, Fors va Mesopotamiyadan keltirilgan asarlar o‘rganilgan.

IX asrga kelib o‘zlari tomonidan yaratilgan xaqiqiy arab matematika madaniyati shakllandi va ellin (grek,...)lar matematik merosi aniqlagan chegaradan uzoqlashgan yangi ishlar chiqdi.

Bag‘dod maktabining birinchi mashhur olimi O‘rta Osiyolik Muxammad al-Xorazmiy (783-850 yillar) bo‘lib, u bu maktabda IX asrning birinchi yarmida faoliyat olib borgan. U Bag‘dodda al-Ma’mun (813-833yillar) hukmronligi davrida asos solingan “Donishmandlar uyi”, o‘ziga xos akademiyada faoliyat olib boruvchi matematik va astronomlar guruhiga kirgan. Al-Xorazmiyning qisman qayta ishlangan beshta asari saqlanib qolgan, shulardan arifmetika va algebraga bag‘ishlangan ikkita asari matematikaning keyingi taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Uning arifmetika haqidagi asarining XIII asrdagi lotin varianti ma’lum, shubhasiz bu aniq tarjima emas. Uni “Hind hisobiga asoslangan qo‘shish va ayrish haqidagi kitob” deb nomlash mumkin. Har holda bu o‘nli sanoq sistemasi va bu sistemadagi bajariladigan amallar jumladan ko‘paytirish va bo‘lish yoritilgan birinchi kitobdir. Xususan unda nol soni funksiyasini bajaruvchi kichkina doirachadan ham foydalanil-gan. Al-Xorazmiy birliklar, o‘nliklar, yuzliklar, mingliklar, ming mingliklar..., tushunchalaridan foydalanib u aniqlagan sonlarni qanday talaffuz qilishni tushuntirgan. Lekin al-Xorazmiy foydalangan raqamlarning shakli nomalum, lekin ular arab alifbosi harflari, yoki Sharq arab raqamlaridir. Darhaqiqat sof harfli sanoq sistemasi juda qadimdan yashab kelgan, bunga Abu-l-Vafo (940-998yillar) tomonidan 961 va 976 yillar oralig‘ida yozilgan “Kotiblar va savdogarlar uchun arifmetika” kitobi, al-Qarojiy (953-1029 yillar) tomonidan X asr oxiri va XI asr boshlarida yozilgan mashhur “Arifmetika haqidagi fandan yetarli kitob” lar guvohlik berishi mumkin.

[1] ushbu maqolada Mirzo Badiyaning “majma-al-arkam” devonining qo‘lyozmasidagi algebra fanining eng muhim qismlarini ko‘rib chiqiladi, algebra taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lgan davr matematiklari Umar Hayyom va al-Xorazmiy ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Risola ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limida nazariy qism algebraik hisob va aniq va noaniq tenglamalar xaqidagi ta’limotni, ikkinchisi esa amaliy masalalarni yechishni o‘z ichiga oladi. Dizayn va materiallarning katta qismi al-Xorazmiy va Abu Komildan olingan bo‘lsa-da, al-Qarojiy ba’zi muhim masalalarda ushbu mualliflar tomonidan belgilangan chegaralardan tashqariga chiqadi. Ko‘p jixatdan u Diofantga ergashadi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amerikalik matematik va tarixchi, fors va arab tillarida yozilgan o‘rta asrlar islom astronomik jadvallari bo‘yicha mutaxassis E.S. Kennedi o‘zining ushbu maqolasida bizning buyuk ajdodlarimiz al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Qarojiy, Mirzo Ulug‘bek, al-Koshiy va uning “Arifmetika kaliti” traktatidagi taqribiy hisoblash formulalari haqida yozgan.

[4] ushbu jurnalning bitta soni to‘laligicha XX asrning taniqli olimlarining al-Xorazmiy haqidagi maqollariga bag‘ishlangan. Unda al-Xorazmiy va uning zamondoshlarini arifmetika va algebra, hisoblash matematikasi, al-Xorazmiy algoritmlari va ularning bugungi kibernetika rivojidagi roli, astronomiya, al-Xorazmiy “Ziji”da planetalar harakati nazariyasi, al-Xorazmiy “Geografiyasi”da o‘rta Osiyo haqidagi ma’lumotlar bilan keng tanishishingiz mumkin.

[5] Mohammad K. Azarian o‘zining ushbu ishida “Ar-Ris’ala al-muhitiyya”ning (1424 y.) birinchi bo‘limida yarim doira va diametr haqidagi ajoyib teoremasining isbotini beradi. Bu teorema al-Koshiy argumentlari va hisob kitobining asosini tashkil etadi. Ushbu maqolada muallif al-Koshiy asarining asl qo‘lyozmasidan foydalangan holda ingliz tilidagi tarjimasini keltirgan. Shuningdek bu qo‘lyozmaning nemis va rus tillaridagi tarjimalari haqida ham gap boradi.

[6] maqolada butun dunyoga mashhur mutafakkir Xo‘ja Nasiriddin at-Tusiyning davlatni jamiyat hayotidagi roli va uning davlat va inson orasidagi o‘zaro javobgarligi konsepsiyasi, davlatni samarali boshqarish nazariyasi kabi qaralgan. At-Tusiyning qarashiga ko‘ra hukumatning barqaror va yashovchanligi butun xalq va uning davlatni fundamental asosi sifatidagi roliga bog‘liq. Muallif mutafakkir fikriga qo‘shilib, davlat boshqaruvi, jamoaviy jarayonlarni tartibga solish va turli etnik guruhlarga nisbatan adolatlilikni qo‘llab quvvatlash mumkinligin aytadi.

Al-Qarojiy (Faxr ad-Din Abu Bakr Muxammad ibn al-Husayn al-Qarojiy, 953-1029 yillar, Qaroj), kelib chiqishi Tehron bilan Kazvin oralig‘ida joylashgan Qaroj shahridan bo‘lib u juda ko‘p muhim ishlar muallifi hisoblanadi, “Arifmetika xaqidagi fandan yetarli kitob”, “Al-Faxri”, Bog‘-dod vaziri Faxru al-Mulkuga bag‘ishlangan keng ko‘lamli algebraik asari, shuningdek noaniq tenglamalarni o‘rganishga bag‘ishlangan “Al-Badi” kitobi shular jumlasidandir.

“Yetarli kitob”- bu amaliy arifmetikadan darslik bo‘lib, Abu-l-Vafo tomonidan 961 va 976 yillar oralig‘ida yozilgan “Kotiblar va savdogarlar uchun arifmetika” deb nomlangan boshqa kitobga ko‘p jihatdan o‘xshash. Sonlar u yerda so‘z orqali yozilgan va hech qaerida o‘nlik pozitsion sanoq sistemasidan foydalanilmagan, bu ko‘proq savdogar-larning odatlariga mos kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Abu-l-Vafo kasrlar nazariyasini batafsil ko‘rib chiqqan. Al- Qarojiy ham oddiy kasrlarni, *alikvot* (surati birga teng bo‘lgan) kasrlar yig‘indisi-ga yoyishga e’tibor qaratgan. Shu yerda ta’kidlab o‘tish joizki, X asr oxirlarida arifmetik algoritmlar, xususan kvadrat va hatto kub ildiz chiqarish algoritmlari sezilarli rivoj topgan. Al-Uklidizi (952-953 yillar atrofida) $N = a^2 + r$ sonidan kvad-rat ildiz chiqarishda yaqinlashish sifatida

$$\sqrt{N} = a + \frac{r}{2a+1}. \qquad (1)$$

miqdordan foydalanishni keltirgan. Bu albatta al-Xorazmiyning yaqinlashish miqdoridan farqli va undan aniqroq.

Kushiyor ibn Labban (971-1029 yillar) va uning o‘quvchisi an-Nasaviy kabi boshqa matematiklar bu natijalarni yaxshilab, ularni $N = n_0 10^{m-1} + \ldots + n_m$ sonining o‘nli ko‘rinishidan va binom $(a+b)^3$ ning yoyilishi, shuningdek $(a+b+\ldots+k)^3$ dan foydalanib kub izdizlarga kengaytirdi.

Al-Qarojiy va uning noma’lumlar arifmetikasi. Arifmetik algoritmlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi Al-Qarojiy va uning davomchilarini algebraik ifodalar holida shunga o‘xshash tartiblarini izlashga olib keldi.

“Yetarli kitob” da amaliy qismidan tashqari tenglama-ning olti kanonik ko‘rinishini yechishga bag‘ishlangan asosiy algebraik qismi ham bor. Uning bayon qilinishi metodologiya nuqtai nazaridan o‘sha davrning yutug‘i bo‘lgan, chunki al-Qarojiy har bir masalani bayon qilish oldidan uni yechishda zarur bo‘lgan algebraik hisob elementlarini guruhlarga ajratib chiqqan (irratsional miqdorlarni o‘zgartirish, ayniyatlar va h.k.).

Bu nazariy yo‘nalish “Al-Faxriy” algebraik asarida barqarorlashdi. Al-Qarojiy o‘zining ushbu kitobga yozgan kirish so‘zida hisob ilmining maqsadini noma’lum miqdorni ma’lum orqali aniqlash kabi ta’rifladi. Arifmetik hisob vositasini jalb qilib, ularni nomahlumni o‘z tarkibiga oluvchi algebraik ifodalarga qo‘yish kerak. Shunday qilib algebra nomalumlar arifmetikasiga aylantirilgan. Bu fanning predmeti birinchi bor shu yerda aniqlangan deyish mumkin va al-Qarojiy maktabi noma’lumni o‘z tarkibiga oluvchi ifodalarga qo‘llaniladigan metod va algoritmlar doirasini kengaytirdilar.

Boshida al-Qarojiy noma’lum darajasi va unga teskarisi ustida izlanishlar olib bordi va keyin quyidagi ko‘rinishdagi qator ifodalarga keldi:

$$1 : x = x : x^2 = x^2 : x^3 = \ldots, \qquad (2)$$
$$\frac{1}{x} : \frac{1}{x^2} = \frac{1}{x^2} : \frac{1}{x^3} = \ldots,$$
$$\frac{1}{x^m} \cdot \frac{1}{x^n} = \frac{1}{x^{m+n}},$$
$$\frac{1}{x^m} \cdot x^n = \frac{x^n}{x^m},$$

bu yerda m va n musbat butun sonlar.

Tahlil va natijalar. U arifmetik amallarni birhadlarga qo‘llagan, keyin birhadlardan hosil qilinganlarga, ya’ni ko‘phadlarga, shuningdek qo‘shish va ayirishlardan teng xuquqli foydalangan. Bo‘lishga kelganda, u birhadlarga bo‘lish bilan chegaralangan. Al-Qarojiy maktabining bo‘lish va kvadrat ildizdan chiqarishga doir natijalari bilan, uning izlanishlarini davom ettirgan, uning davomchisi as-Samaval (As-Samaval ibn Yahyo al-Mag‘ribiy taxminan 1130-1180 yillar, Bag‘dod)ning ishlari orqali tanishish mumkin.

Lekin al-Qarojiy hozirda ko‘phadlar algebrasi deb nomlash mumkin bo‘lgan fanni ta’riflab ulgurgan edi. Bunday “algebrani arifmetikalashtirish” metodlari, bir tomondan al-Xorazmiy va Abu-Kamil algebrasi boshlang‘ich elementlari-da, ikkinchi tomondan Diofantning “Algebra san’ati” nomi bilan Kosta ibn Luka tarjimasida asoslangan. Haqiqatdan ham “Arifmetika” arifmetikani musbat ratsional sonlar to‘plamida qaragan bo‘lsada, Diofant unda algebraik tabiatli metodlardan foydalangan. Bu metodlar, qaysiki ular bilan ishlay olishgan va ularni rivojlantirishgan ikkinchi davr arab algebraistlari metodlariga o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Al- Qarojiy ko‘pgina chekli arifmetik qatorlar bilan ishlagan va ularning yig‘indilari uchun, quyidagi ko‘rinishdagi turli tengliklarni isbotlagan

$$\sum_{k=1}^{n} k^3 = \left(\sum_{k=1}^{n} k \right)^2, \qquad (3)$$

va uning juda chiroyli, bir paytda ham geometrik va algebraik isbotini keltirgan. Biz quyida (6) tenglikning al-Qarojiy isbotini keltiramiz.

Al-Qarojiyning gnomonlar usuli. Al-Qarojiy (3) tenglikni isbotlash uchun $1 + 2 + 3 + \ldots + n$ ga teng bo‘lgan ustun va satrlardan iborat kvadrat olgan (3-rasm). U holda jami kvadratlar sonini quyidagicha hisoblash mumkin

$$(1 + 2 + 3 + \ldots + n)(1 + 2 + 3 + \ldots + n) = \left(\frac{n(n+1)}{2} \right)^2.$$



1-rasm 2-rasm

Al- Qarojiy bu kvadratda 2-rasmda ko‘rsatilganidek eni n ga teng bo‘lgan gnomon qurgan. O‘lchamlariga ko‘ra gnomonning yuzi quyidagiga teng bo‘ladi

$$2n(1+2+\ldots+n)-n^2=2n\frac{n(n+1)}{2}-n^2=n^3+n^2-n^2=n^3.$$

Demak gnomonning yuzi n^3 ga teng ekan.

Keyin u 2-rasmda ko‘rsatilganidek eni $n-1$ ga teng bo‘lgan navbatdagi gnomonni qurgan. Uning yuzi yuqoridagiga o‘xshash quyidagiga teng bo‘ladi

$$2(n-1)(1+2+\ldots+(n-1))-(n-1)^2=2(n-1)\frac{n(n-1)}{2}-(n-1)^2=(n-1)^3$$

Bundan uning yuzi $(n-1)^3$ ga tengligini olamiz.

Shu usulda davom etib, va nihoyat u tomoni 1 ga teng bo‘lgan kvadratni olgan. U holda boshlang‘ich berilgan kvadrat barcha gnomonlar yuzalari va tomoni 1 ga teng bo‘lgan kvadrat yuzi 1^2 u o‘z navbatida 1^3 ga teng: $n^3,(n-1)^3,(n-2)^3,\ldots,2^3,1^3$.

Shunday qilib

$$1^3+2^3+3^3+\ldots+n^3=\left(\frac{n(n+1)}{2}\right)^2=\frac{n^2(n+1)^2}{4}.$$

Demak,

$$\sum_{k=1}^{n}k^3=\frac{n^2(n+1)^2}{4}=\left(\frac{n(n+1)}{2}\right)^2, \quad (4)$$

ekan [2,123-bet]. Tushunarliki (3) formulani matematik induksiya metodi bilan ham isbotlash mumkin edi. Lekin unda biz bu formulani qanday olinganini anglamagan bo‘lar edik. Al- Qarojiy usuli bu jihatdan o‘ta muhimligini ko‘rish qiyin emas.

As-Samaval matnida, $(a+b)^n$ ifoda uchun $n=12$ gacha bo‘lgan koeffitsientlar jadvali mavjudligini aytib biroq, u bu natija Al-Qarojiyga tegishliligini qo‘shib qo‘ygan, va muallif uni yozilgan tartib qoidalariga muvofiq cheksiz davom ettirib, hozirda $C_n^m=C_{n-1}^{m-1}+C_{n-1}^m$ (Paskal uchburchagi deb ataladigan) kabi yoziladigan ko‘rinishga keltirish mumkinligini qo‘shimcha qiladi.

Xulosa. Al-Qarojiy “Al-Faxri” va “Al-Badi” algebraik traktatlarida noaniq tenglamalarni ham ko‘rgan, qaysiki u bunday tenglamalarni “istikra” deb nomlagan. Bu masalalar ko‘pincha shunday noma’lum ratsional son x ni topishdan iborat ediki, $P(x)$ algebraik ifoda, yoki ko‘phad shu ratsional sonni kvadrati bo‘lsin, masalan $ax^{2n}+bx^{2n+1}=u^2$ yoki $x^3\pm y^3=u^2$, shuningdek noma’lum va tenglamalarning ko‘p sonli variatsiyalari bo‘lishi ham mumkin. O‘tgan asrda topilgan Diofant tarjimasidan, al- Qarojiy “Arifmetika” masalalarini atroflicha tartibga keltirganligi tasdiqlangan; bu qilingan ishlar esa algebraik hisobni rivojlanishiga imkon bergan.

ADABIYOTLAR

1. Гулматов М.Д. Алгебраические трактаты Омара Хайяма и ал-Караджи в рукописи "Маджама-ал-Аркам" Мирзы Бадии Диван// Евроазийкое научное об’единение. 2019.-№2-1.-С.9-13.
2. Даан-Далмедико А., Пейффер Ж. Пути и лабиринты. Очерки по истории математики. Москва: МИР, 1986. -432с.
3. Кеннеди Э. С. Джемшид Гиясэддин ал-Каши, “Ключ арифметики. Трактат об окружности” (рецензия), УМН, 1961, том 16, выпуск 3(99), 249–253.
4. К 1200-летию ал-Хорезми //Общественные науки в Узбекистане. -1983.№7. -100с.
5. Mohammad K. Azarian. AL-K¯ ASH¯I’S FUNDAMENTAL THEOREM// International Journal of Pure and Applied Mathematics. Volume 14 No. 4 2004, 493-503.
6. Шоджаи Г., Шоджаи С., Шоджаи А. Взгляды Насир Ад-Дина Туси на государственное управление// Историческая и социально-образовательная мысл. 2014. № 5 (27).-С.340-343.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 373.291

Nargiza ALLABERGANOVA,
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail:nargizaallaberganova89@gmail.com

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD, D.Sh.Nafasov taqrizi asosida

COMPETENT APPROACH IN LITERACY TRAINING OF PREPARATORY GROUP EDUCATORS

Abstract

In this article, the possibilities of development of the students of the preparatory group in preschool education organizations by fields were analytically described. It emphasized the issue of teaching literacy in preparatory groups at MTT.

Key words: literacy, field, program, competency, concept, person-centered approach, education and training. speech, study, preparation, game.

КОМПЕТЕНТНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТНОСТИ ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ

Аннотация

В данной статье аналитически описаны возможности развития воспитанников подготовительной группы в организациях дошкольного образования по направлениям. Особое внимание было уделено вопросу обучения грамоте в подготовительных группах МТТ.

Ключевые слова: грамотность, область, программа, компетенция, концепция, личностно-ориентированный подход, образование и обучение речь, учеба, подготовка, игра.

TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINI SAVODXONLIKKA O‘RGATISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini sohalar bo‘yicha rivojlantirish imkoniyatlari tahliliy bayon etilgan. Unda MTT da tayyorlov guruhlarda savodxonlikka o‘rgatish masalasiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, soha, dastur, kompetensiya, konsepsiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ta’lim va tarbiya, nutq, o‘qish, tayyorgarlik, o‘yin.

Kirish. Yosh avlodni tarbiyalash va sifatli ta’lim berish aynan uzluksiz ta’lim tizimining maktabgacha ta’lim va tarbiya bosqichidan boshlanadi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish borasida ko‘plab Qonun va qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosi amalga oshirilmoqda. “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qamrovini 2030-yilga borib 80,8 % yetkazish, bolalarni har tomonlama barkamol, yetuk shaxs bo‘lib yetishishlarini taminlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsad va istiqbollari belgilab berildi. Shuningdek, “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya-si”da maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga o‘zbek tilini o‘rgatish tizimini takomillashtirish vazifasi belgilandi [1].

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 8-mod-dasida Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turi ekanligi qayd etildi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadlar bolalarga ona tilini o‘rgatish jarayonida amalga oshiriladi. A.A. Leontyev bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantirish ekanligini ta’kid-laydi [3].

Maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish maqsadida maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv dasturlari ham ishlab chiqilgan. Sohalar bo‘yicha oladigan bo‘lsak, savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlari bolalarni aynan o‘zbek tili alifbosi bilan tanish-tiradi. Bu esa bolaning maktabda ta’lim olishi uchun zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy (“Men” konsepsiyasi) ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi [4].

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalaridan biri kommunikativ kompetensiya, atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Shu bois bolalarning nutqiy faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga alohida e’tibor berilib, MTT tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo‘naltirilgan “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarini tashkil qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Nutq qobiliyati-nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq ifodalash qobiliyati. Bu tarbiyachilik kasbi uchun juda muhim [5].

Yuqorida ta’kidlanganidek, savodxonlikka o‘rgatish masalasi ko‘plab olimlar va pedagoglar tomonidan o‘rganil-gan. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatishga qaratilgan bir qator metodik qo‘llanma va risolalar

ham chop qilingan. Masalan, D.R. Babayevaning [6] maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Bolalarni savod o‘rganishga tayyorlash” ga qaratilgan ishlarini shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda Davlat talablari asosida hamda Davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish soha oldidagi eng dolzarb vazifalardan sanaladi. Ayniqsa, maktabgacha ta’limda bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi. Bilamizki, kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir” [7].

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari [8]

- **Kommunikativ**
- **Ijtimoiy**
- **Shaxsiy (“Men” konsepsiyasini qurish)**
- **Bilish**

Rivojlanish sohalari bo‘yicha kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, uning maktab ta’limi bo‘lgan keyingi bosqichiga muammosiz o‘tishi va unga tayyor bo‘lishi, boshlang‘ich ta’limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir[9].

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

3.2.3. “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari [10].

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari“ sohasidagi ta’lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to‘g‘ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- so‘zning lug‘aviy ma’nosi, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga tushunchaga ega bo‘ladi;
- gapning turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so‘zlab bera oladi;
- ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

MTT larining tayyorlov guruhlarda savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarining asosiy vazifalaridan biri “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi. (1-2-rasm. Yozuv namunasi)

1-rasm.Yozuv namunasi

2-rasm. Yozuv namunasi

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarini tashkil etish eng dolzarb masalalardan biridir. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo‘lsa-da, e’tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, fonetik ko‘nikmalarga yetarli e’tibor beril-masa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta’lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg‘ulotlarda eshituv va ko‘ruv ko‘rsatmaliligini ta’minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o‘qishni, ichida gapirishni) talab etadi. Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida nutq, uning og‘zaki va yozma shaklda bo‘lishi, nutqning gaplardan hosil bo‘lishi va gap haqida amaliy tushuncha syujetli rasmlar yordamida hosil qilinadi. Buning uchun tarbiyachi rasm yuzasidan 3-4 so‘zli savollar tuzib keladi. Masalan:

1.Rasmda nima tasvirlangan ?
2.Aziz dalada nima qilyapti?
3.Kimlar bog‘da olma teryapti ?

Bolalarning javob gaplari tuzilishi doskada quyidagicha tasvirlab beriladi:

3-chizma. Gap tuzilishi

Bolalar javoblaridan nima hosil bo‘lgani (gap, matn) aniqlanadi. So‘ng tarbiyachi doskada matn chizmasini ko‘rsatadi. Tarbiyachi birinchi chizma 1-berilgan savol (gap)ning javob gapi ekanini aytadi. So‘ngra bolalarga nechta savol berilgan va nechta javob olinganini aniqlash topshirig‘i beriladi. Ularga “Chizmaning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo‘yilgan?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ular “3 ta savol - 3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3 ta javob 3 ta gapning chizmasi chizilgan” deyishadi.

Javoblar umumlashtirilib, gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko‘rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgi-nuqta qo‘yilgani tushuntiriladi.

Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Tarbiyalanuvchi savod o‘rgatish jarayonida elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishda bolalarning faoliyat ko‘rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo‘lishi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim. O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta’minlaydi. Shuning uchun ham o‘qishga o‘rgatish bilan yozuvga o‘rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o‘rgatish jarayonida bola juda ko‘p o‘qishi va yozishi zarur. Bolalar ushbu davrga kelib kattalar bilan o‘zaro kommunikativ aloqa o‘rnatishadi. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning nutq, muloqot ,o‘qish va yozish malakalarini shakllantirishda tarbiyachilar o‘z kasbiy mahoratlari va “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning

davlat standarti” asosida savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarini tashkil etishlari lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda MTT larida o‘quv-tarbiya ishlarini samarali tashkil qilish, ta’lim natijasini shaxsiy faoliyat mas’uliga, bola shaxsini esa ta’limning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish ko‘p jihatdan ta’limni ijodiy tashkil etishga bog‘liq. Ta’limni ijodiy tashkil etish natijasi o‘laroq ta’lim subyektlarida ikki qator o‘zgarish yuz beradi: tarbiyachida savodxonlikka oid pedagogik mahorat takomillashadi, bolalarda o‘qish va yozish qobiliyatlari rivojlanadi. Tarbiyachining mashg‘ulotni kreativ tashkil qilishga tayyorgarligi tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish)da olib boriladi. Shu bilan birga tarbiyachi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, mashg‘ulotni erkin olib borishga erishishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.-Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020-y., 06/20/6084/1398-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni- Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son
3. Леонтьев А. Н. Психическое развитие ребенка в дошкольном возрасте / Возрастная и педагогическая психология: М.: Изд-во Моск.ун-та, 1992.С.42-50
4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr / Toshkent-2022
5. Quchqorova N.M. Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativlik.-Darslik Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy. “Bookmany Print”, Toshkent-2022.,28-bet
6. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi.-Darslik. Toshkent-2018. 298-bet
7. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии.//Ж. Вопросы философии –1972. -№ 9. С.95–108
8. Quchqorova N.M, Nuraddinova R.S. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi namunasida o‘tkaziladigan mavzuli faoliyatlarni tashkil etish.- O‘quv qo‘llanma.Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy. “Bookmany print”, Toshkent-2022. 42-bet
9. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr /III-bob // 3.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari. Toshkent-2022.-41-bet
10. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr / III-bob // 3.2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari Toshkent-2022

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 373.1

Muxomod-Umar AXMEDOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
E-mail:axmedov@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Ismoilov taqrizi asosida

PROBLEMS OF THE FORMATION OF CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Annotation

The article discusses the organization and development of students ' creative activity in extracurricular activities, and also describes their research on the development of youth creative activity by world-famous psychological scientists of the world and our country in solving this problem.

Keywords: active, Activity, Activity, creative activity, psychic activity, external activity, internal activity, movement, intensity in the process, show vivacity, workaholism, responsiveness, personality.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье рассматривается организация и развитие творческой деятельности учащихся на внеклассных занятиях, а также изложены исследования по развитию творческой деятельности молодежи всемирно известными учеными-психологами мира и нашей страны в решении данной проблемы.

Ключевые слова: активный, активность, активность, творческая активность, психическая активность, внешняя активность, внутренняя активность, действие, интенсивность в процессе, проявление живости, работоспособность, отзывчивость, личность.

DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish xususida fikr yuritiladi, shuningdek, ushbu muammoni hal qilishda jahonning hamda yurtimizning dunyoga mashhur psixolik olimlari tomonidan yoshlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish borasidagi izlanishlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Faol, faollik, faoliyat, ijodiy faoliyat, psixik faollik, tashqi faollik, ichki faollik, harakat, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik, shaxs.

Kirish. O‘zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat muhimdir. “Bizning vazifamiz - to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, - degan edilar Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zlarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, deb nomlangan nutqlarida, - o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat” [1]. Shu maqsadda Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan qator xujjatlar Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunga kelib zamonaviy texnika va texnologiyalarning inson hayotida tutgan o‘rnining keskin kuchayib borishi, hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida, kundalik turmush tarzida katta o‘zgarishlar bo‘lishini talab etmoqda. Xozirgi davr odamlarining olam to‘g‘risidagi va insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi qarashlari hamda hayotga bo‘lgan munosabatlari o‘zgarmoqda, inson zakosi, tafakkuri va olamni tushinishning yangidan-yangi yo‘llari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish hollari kuzatilmoqda.

Ta’limda ijodiy tadqiqot ishlari chin ma’nodagi ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o‘qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini xarakatga keltiruvchi omillar va uning shakllantirish hamda rivojlantirishga asos bo‘lgan bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi. Inson hayotini, uning dunyo haqidagi qarashlarini, bilimlarini o‘zgartiruvchi va inson ongini, tafakkurini, umuman olganida o‘zini, o‘zligini o‘zgartiruvchi faoliyat xozirgi zamonda ta’limning umumiy asosidir. Inson harakat jarayonida jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko‘rinishlar, faoliyatning turli shakllarida tafovut qiladi. Biroq, ichki munosabatlar, ular o‘rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo‘lib qolaveradi. Ular faoliyat majmuini yuzaga keltiruvchi asoslardir. Ma’lumki, inson o‘z g‘oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo‘llaydi va qayta yaratadi.

Tadqiqot metadologiyasi. Inson tabiatan faol mavjudotdir. U ma’lum ish-harakatsiz yashay olmaydi. Odamzod faoliyatining turi juda xilma-xil bo‘lib, ulardan eng qimmatlisi va eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish mehnatidir. Inson har doim jamoadoshlari orasida bo‘lib faoliyat olib boradi va faoliyati davomida mehnat natijalarini, jamoa turmush tarzini o‘zga singdirib boradi. Har qanday tirik organizmning harakatchanligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo‘ladi. Tushunilmaydigan va tushuniladigan tabiiy, yoki madaniy, yoki ma’naviy, yoki shaxsiy, yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar insonni mehnat qilishga, har turli faol harakat qilishga undaydi.

Moddiy va ma’naviy hayot bilan bo‘lgan doimiy aloqalarni mustaxkamlab boruvchi, o‘z-o‘zini anglab, tushunib, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat — bu uning faolligidir.

Faollik — lotincha “*actus*” — harakat; “*activus*” — faol so‘zlaridan olingan tushuncha bo‘lib, shaxsning hayotdagi umumiy hatti-harakatlarini amalga oshirishini — namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu — o‘sha oddiy, qo‘limizga qalam olib, biror chiziq tortishimiz bilan bog‘liq dastlabki harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi [11]. Faollik — mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik tushuniladi. Faollik — tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi, psixik faollik bu o‘zaro ta’sir, shu asosda faollik ko‘rsatish bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Taxlil va natija. Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

1. Tashqi faollik — bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.

2. Ichki faollik — bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi. Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so‘ng ona o‘z farzandi diydorini ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ldi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siypalashi, ko‘zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko‘rsak, ichki faollik — o‘sha ko‘z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog‘inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta’siri), ko‘rib idrok qilgandagi o‘zaro birbirlariga intilishni ta’minlovchi ichki, bir qarashda ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan emostional holatlarda namoyon bo‘ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo‘lsak ham, uni ifodalagan rasmni ko‘rsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat bilan bo‘ladigan murakkab va o‘zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi. Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi.

Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya’ni, faoliyat — inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish, takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Bu yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o‘z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o‘yin faoliyati, bu — moddiy ne’matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu — yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy–tadqiqotchilik faoliyati, bu — rekordlarni ko‘paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shu kabilardir. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Faoliyat — atrof olamga nisbatan insonning o‘ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bulishining muhim shakli uning voqea-hodisalarga bo‘lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to‘planadi, insonda o‘z atrofini o‘rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma’lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko‘nikmalar hosil bo‘ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi [5].

Faol — arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “harakat qiluvchi; ta’sirchan” degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni, biror g‘oyaviy harakat yoki ishga g‘ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan; biror jamoaning ijtimoiy hayotida, faoliyatida astoydil berilib ishlaydigan shaxs, jamoatchi; harakatchan, ko‘p harakat qiladigan shaxsga nisbatan qo‘llaniladi.

Faoliyat — arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “harakatchanlik; ta’sirchanlik; samaradorlik” degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni, biror sohada olib boriladigan ish, mashg‘ulot, harakat; shunday ish, harakat jarayoni tushuniladi. Faoliyat — insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishga, uni qayta ko‘rishga yo‘naltirilgan faolligi. Faoliyat mahsulini tahlil qilish — psixologiyaning ilmiy-tekshirish metodlaridan biri; shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo‘lgan munosabatlari va uning o‘zgarishini o‘rganish usuli.

Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta’siri bilan birga unga faoliyatning ta’siri ham o‘ta muhimdir.

“Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat — bu uning faolligidir. Faollik - ((lotincha “*actus*”) — harakat, “*activus*” — faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir”, - deb ta’kidlaydi o‘zbek olimasi V.M.Karimova [11].

Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

“Ijodiy faoliyat”, - deb ta’kidlaydi A.M.Matyushkin - bilish jarayonlari bilan bog‘lik bo‘lgan tizimdir” [12].

Bir qator psixolog olimlar - Ye.L.Yakovleva va D.I.Feldshteynlar: “Ijodiy faoliyat - inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayonidir. O‘quvchi shaxsi aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi”, - deb hisoblaydilar [13].

Barcha tahlillarni umumlashtirib, quyidagi fikrga kelish mumkin: faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, o‘quvchi shaxsining ehtiyojlaridan kelib chiqadigan hamda egallangan bilimlarni tatbiq etish, o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, atrof-olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish va to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Lekin ko‘p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko‘pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qiladilar. O‘quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo‘nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin. Faoliyat faol va passiv bo‘ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch-quvvatga to‘ladi. O‘qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o‘rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini

rivojlantirishga, o‘zini o‘rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. Mehnatda faollik shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvafaqiyatli mehnat qilishga yo‘llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o‘quvchining turli yoshda uning faoliyati o‘zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o‘quvchining invidual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Biz yuqoridagi 1-jadvalda faoliyat samaradorligining omillarini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval



Inson qobiliyati va iste’dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir. Chunki o‘qituvchi qay darajada mahoratli bo‘lmasin, agar o‘quvchining o‘zi faol bo‘lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchini o‘qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Shuning uchun ham o‘quvchi o‘z faoliyatida o‘ziga ahamiyatli bo‘lgan, o‘ziga jalb eta oladigan hayot mummolari bilan shug‘ullana borib, ma’naviy va axlokiy jihatdan rivojlanadi.

Xullas, shaxs faolligi uning rivojlanishida vosita emas, balki uning natijasi hamdir. Ta’lim-tarbiya shu vaqtda maqsadga erishadiki, qachon u o‘ziga ham boshqalarga ham quvonch keltira oladigan ijtimoiy, faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantira olsa. Ana shunda shaxs faoliyati jarayonida uning barcha potintsial imkoniyatlari ruyobga chiqadi. Faoliyatga faylasuflar sub’ektining ob’ekt bilan o‘zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha sifatida ta’riflaydilar. Faoliyat inson uchun atrof-olam bilan o‘ziga xos aloqa, ular o‘rtasida vosita bo‘ladigan, tartibga soladigan nazorat qiladigan, o‘zaro munosabatlardir, deb ta’rif beradilar. Faoliyatga uni qanoatlantiruvchi ehtiyoj sabab bo‘ladi va harakatlar tizimida amalga oshadi. Insonda ruhiy holatning mavjudligini ko‘zlaydi va uni paydo bo‘lishining asosiy sharti hisoblanadi hamda uning rivojlanishida harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Faoliyatning oddiy va oliy shaklini farqlay bilish zarur. Oliy shakl instinktiv (instinkt) moslashuvidan iborat. Ikkinchisi, oliy shakl birinchisidan o‘sib chiqib, uning ko‘rinishini o‘zgartirib insonning ongli harakatiga aylanadi. Faoliyat oliy shakllanish o‘ziga xos xususiyati uning atrof–muhitni ongli ravishda o‘zgartirishdan iborat. Inson faoliyati ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Inson o‘zini faol sub’ektga, o‘zi munosabatga kirishgan tabiat xodisalarini esa o‘z faoliyatining ob’ektiga aylantiradi. Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat bo‘ladi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi uning asosiy xususiyatidir. Zero, faoliyat bir tomondan jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa aqliy harakat vositasida ongda sodir bo‘ladi. Mehnat inson faoliyatini amaliy va nazariy shakllarining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Inson faoliyatining boshqa turlari (o‘yin, o‘qish va boshqalar) ham genetik jihatdan mehnat bilan bog‘liqdir [8].

Ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida mehnat asosida maxsus ijtimoiy-zaruriy nazariy faoliyat sifatida aqliy mehnat paydo bo‘lgan. Faoliyatning ham moddiy, ham ma’naviy uzilmasining tahlili uning mazmunini tashkil qiladigan quyidagi asosiy elementlarni aniqlab beradi: faoliyat undovchi sabablar; maqsadga yo‘naltirilgan natijalar; faoliyat yordamida amalga oshiriladigan vositalar. Shunga muvofiq ravishda sub’ektning borliq bilan o‘zaro harakat jarayonining o‘zida muayyan tarzda yaxlit motivlashtirilgan faoliyat, uning tarkibida maqsadga qaratilgan harakat va nihoyat, mazkur harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismlari — operatsiyalar ajralib chiqadi. Insonning hayotda namoyon bo‘lishining muhim shakli uning atrof-olamga bo‘lgan faol munosabatidir. Faoliyatga inson turli ehtiyojlar sababli majbur bo‘ladi. Bu ehtiyojlar uning ongida unga tegishli bhlgan ob’ektlar, uning ehtiyojlarini qondirilishiga olib keladigan harakatlarning obrazi tarzida ifodalanadi. Faoliyat motivatsiyalar xarakteriga ko‘ra ko‘p jihatdan uning bajarilishidagi harakatga shu bilan birga maqsadga erishishdagi natijaga bog‘lik. Faoliyatning motivi va maqsadi inson hayotining ijtimoiy sharoiti va uning individual rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Individ tomonidan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish faoliyatning individual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Faoliyat bir qator o‘zaro ichki bog‘langan harakatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq yaxlit holda har bir faoliyat ongli xarakterga ega bo‘ladi. Ongli maqsad qonun sifatida inson harakatining usul va xarakterini belgilab beradi. U istalgan natijaga erishish yo‘lida paydo bo‘ladigan to‘siqlarni faol yengib o‘tishga undaydi. Inson faoliyatining asosiy turi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, uning jismoniy va aqliy mehnati hisoblanadi. Jismoniy, unumli mehnat jamiyat va har bir inson hayoti uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan. Aqliy mehnat borliqni o‘rganishga, ilmiy nazariyalar yaratishga, adabiy, badiiy va boshqa ma’naviy boyliklar yaratishga yo‘naltirilgan. Inson faoliyatining muhim turi — o‘rganishdir [6]. Inson faoliyati — uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Ana shular yordamida faoliyatning o‘zi ham rivojlanadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, falsafiy jihatdan ta’riflaganda faoliyat — sub’ektning ob’ekt bilan o‘zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha. Faoliyat — atrof-muhit bilan o‘ziga xos aloqa inson bilan muhit o‘rtasida vosita, uni tartibga soladigan, nazorat qiladigan o‘zaro munosabat. U

insonda ruhiy holatning mavjudligini ko‘zlaydi va shu bilan birga uning paydo bo‘lishining asosiy shartini tashkil etadi hamda rivojlanishida harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! -T.: TASVIR, 2021, 52 b.
3. Axmedov M.B. va Xasanova M.Z. Qalamtasvir. -T.: IJOD-PRINT, 2021, 188 b.
4. Axmedov M.B. Yog‘och o‘ymakorligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017, 220 b.
5. Axmedov M.B. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari (monografiya). -T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020, 128 b.
6. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). Formation of creative processes in students through teaching composition in fine arts. Збірник наукових праць ΛΟΓΟΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03
7. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). Teaching students to draw elements of patterns in wood carving circles. Збірник наукових праць ΛΟΓΟΣ. https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17
8. Jabbarov, R. (2021). A unique trend inspired by the work of Kamoliddin Bekhzod. A great artist of the Eastern Renaissance and a great miniature artist. Society and innovation, 2(5/S), 59-67. https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67
9. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285- 288. doi: http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424
10. Muratov, Kh. (2021). The importance of organization and management independent education in the learning process. Збірник наукових праць ΛΟΓΟΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.40
11. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
12. Матюшкин А.М. Проблемные ситуатsии в мышлении и обучении (Монография). -М.: Директ-Медиа, 2014.
13. Яковлева Е.Л., Фельдштейн Д.И. Психология развития творческого потенциала личности. -М.: Московский психолого-социальный институт, 1997.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 371+355.4+035.6

Ravshanbek BATIROV,
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent A.Akbarov taqrizi asosida

CHAQIRIQQACHA BO‘LGAN YOSHLARDA HARBIY-AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIK KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlari va uning ahamiyatli jihatlari tadqiq qilinadi. Shu bilan birga harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlarining pedagogika fanlari doirasidagi vazifasi, kadrlar tayyorlash metodikasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, talaba, kursant, metodika, mashg‘ulot, harbiy ta’lim, konsepsiya, jangovarlik ruhiyati, ko‘nikma, jismoniy tayyorgarlik, konseptual xususiyat.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВОЕННО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДОПРИЗЫВНОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье исследуются концептуальные особенности военно-практической физической подготовки допризывной молодежи и ее значимые аспекты. В то же время была проанализирована задача концептуальных особенностей военно-практической физической подготовки в рамках педагогической науки, методики подготовки кадров.

Ключевые слова: Инновация, студент, курсант, методика, обучение, военное обучение, концепция, боевой дух, умение, физическая подготовка, концептуальный характер.

CONCEPTUAL FEATURES OF MILITARY-PRACTICAL PHYSICAL TRAINING IN YOUNG PEOPLE

Abstract

This article examines the conceptual features of military-practical physical training and its significant aspects in young people. At the same time, the task of the conceptual features of military-practical physical training in the framework of Pedagogical Sciences, the methodology of training personnel were analyzed.

Key words: Innovation, student, cadet, methodology, training, military education, concept, martial spirit, skills, physical training, conceptual feature.

Kirish. Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqalarida oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan siyosiy vaziyatlar vujudga kelmoqda. Bunday sharoitda har bir davlatni o‘zining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar jahon hamjamiyatida o‘sib kelayotgan yosh avlodni yuksak fuqarolik hissi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish kabi muhim masalalarni har tomonlama hal etishni talab etmoqda.

Xorij mamlakatlarida o‘quvchi yoshlarni Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga va kelgusida harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga muvaffaqiyatli tayyorlash maqsadida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarning tahliliy sharhi, harbiy o‘quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik samaradorligini belgilab beruvchi jismoniy tarbiyaning nazariy va tashkiliy asoslari, harbiy-texnika litseylari o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarni kiritish, pedagogikaning zamonaviy an’analarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, iqlim sharoitlari issiq bo‘lgan hududlarda o‘quvchi yoshlarning jismoniy tarbiyasini yo‘lga qo‘yish masalalari bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilganligini aniqlash imkonini berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida Qurolli Kuchlarining mudofaa salohiyatini mustahkamlash, ayniqsa, harbiy xizmat o‘tayotgan muddatli harbiy xizmatchilar, shartnoma asosidagi oddiy askar va serjantlar hamda ofitserlar takibining jismoniy va ruhiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda takomillashtirish jarayonlari ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. “Men harbiy xizmatchilarimizning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bilan bog‘liq bir qator muammolarga e’tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karyerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lishi kerak”. Ta’lim jarayoni mazmunini mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb vazifalariga mos holda tubdan qayta ko‘rib chiqish, halqaro andozalarga javob beruvchi zarur shart-sharoitlarni yaratish vazifalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizdagi harbiy-texnika litseylari faoliyati ham tubdan o‘zgartirilmoqda, zero ularning bitiruvchilarini oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga tayyorlashda mazkur ta’lim muassasalari asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Harbiy-texnika litseyi o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida ularning harakat tayyorgarligini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi va u, dasturiy-meyoriy hujjatlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi 406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 30-avgustdagi 105-1-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi” to‘g‘risidagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 12-dekabrdagi PQ-436-II-sonli “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-

quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat bo‘lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipotiza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorlashga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-siyosiy va psixologik-pedagogik omillarning o‘zaro aloqadorligini aniqlash;
- chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning nazariy asoslarini ochib berish;
- chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorlashga oid maxsus ta’lim texnologiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini asoslash;
- chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning bosqichlari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini yaxlitlikda o‘z ichiga qamrab olgan ta’lim modeli va texnologiyasini ishlab chiqish.
- chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning integrallashgan metodik tiziminiak-meologik yondashuv asosida takomillashtirish.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda belgilangan vazifalar Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar davomida hal etildi. Respondentlar sifatida Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi 1, 2 va 3 bosqich 123 nafar talabalari tanlab olindi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhidagi talabalarga “Harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik asoslari» fanini bo‘yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Tadqiqot ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarning “Harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik asoslari” fani asoslari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarining maxsus metodika yordamida boyiganligini obektiv baholash maqsadida jadval ko‘rsatkichlari matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Styudent-Fisher kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obektiv baholash uchun ta’kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko‘rsatkichlarini matematik-statistik metod bo‘yicha tahlil etish to‘g‘ri deb topildi. Styudent-Fisher kriteriyasi g‘oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun respondent-talabalarning davrida qayd etilgan boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka ko‘rsatkichlari qabul qilindi.

Respondent-talabalarning “Harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik asoslari” fani bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlari darajasi (asoslovchi tajriba)

Guruhlar	Tanlanmalar	Respondentlar soni	Daraja ko‘rsatkichlari		
			Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba guruhi	1-tanlanma Xi	n1 =380	97	170	113
Nazorat guruhi	2- tanlanma Yj	n =380	85	152	143

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik asoslari” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasidan foydalanishda chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlari bo‘yicha harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishganligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari tajribada qo‘llanilgan mashqlar to‘plamining samaradorligini tasdiqladi. Pedagogik ta’sir tajriba guruhida ko‘rsatkichlarning samarali o‘sishini ta’minladi. Bu fakt chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlari bo‘yicha harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish samaradorligini oshirishi haqidagi gipotizani tasdiqladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2018. -B. 6-7.
2. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2020-yil 23-sentabr. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-son)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 27-son, 607-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi» to‘g‘risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qarori. 2002-yil 12-dekabr.
6. Шишов А. В., 100 великих военачальников. — М.: Вече, 2013. –С. 432.
7. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy merosning o‘rni / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2015 yil, 28 aprel.
8. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2016 yil 20 avgust. –B. 232.
9. Atamurodov S., Jamiyatni yangilash jarayonida milliy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash (ijtimoiy falsafiy aspekt). Fals. fan. dok. diss. Avtoreferati -Toshkent, 1992.
10. Axrorov S.Y., Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo‘lishining ijtimoiy xususiyatlari: Dis. sots.fan.nom. Toshkent, 2009.
11. Achildiyev A., Milliy istiqlol g‘oyasi millatlararo munosabatlarni tkomillashtirish omili. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. T, 2005.
12. Волков Е.П., Уклонения от исполнения служебных обязанностей как форма девиантного поведения офицеров: Автореф. дис... канд. социол. наук.. – М.: ВУ, 1998.
13. Kurbanov R.Y., Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni. Avtoref: dis … fals.fan.nom. –Toshkent: 2008.

14. Муминов А.Г., Национальная политика независимого Узбекистана и пути ее реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика). Автореф.дисс...докт.полит.наук. –Т.: 1999.
15. Paxrutdinov Sh., Dunyoviy demokratik davlatchilik qurilishi amaliyotida diniy ekstremizm tahdidi. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2001.
16. Qalqanov E.T., Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan.nom dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2011. –B. 28.
17. Redjaboyev A.D., Yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: ped.fan.nom. dis. avtoref. – Toshkent, 2004.
18. Samadov A.R., Axloqiy idealning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent: 2011. – 10 b.
19. Хужамуратов И.Р., Проблемы формирования национального (эстетического) самосознания узбекского народа и влияния на него ислама. автореф. дис. докт. филос. наук.-Т.: 1994.
20. Qalqanov E.T., Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan.nom dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2011.
21. Usmonov K.,O‘zbek xalqi ma’naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiya. -Toshkent, 2017. –B. 161.
22. Gibb H. A., Studies on the civilization of Islam. Beacon Univ. Press. Boston. 1962. p. 134; Jean- Paul Roux. Ibid. p. 212.
23. Lambton A.K.C., Stat and governiment in medieval Islam. Oxford. 1981. p.p

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:324

Bayram ERIMBETOV,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD),
E-mail: kurash_sportv@gmail.com

O‘zDJTSU professori, p.f.d., professor F.A.Kerimov taqrizi asosida

KURASH SPORTIDA ILMIY-TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kurash sportida ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantiirsh muammolari tahlil qilingan hamda kurash sportini rivojlantrish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport, kurash, milliy sport, etnosport, ta’lim, tizim, fan, tadqiqot, integratsiya.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ В БОРЦОВСКИХ ВИДАХ СПОРТА

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы развития исследований в борцовских видах спорта, а также разрабатываются предложения и рекомендации по развитию борцовских видов спорта.

Ключевые слова: Физическое воспитание, спорт, борьба, национальные виды спорта, этноспорт, образование, система, наука, исследование, интеграция.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF RESEARCH IN WRESTLING SPORTS

Annotation

This article analyzes the problems of the development of research in wrestling sports, and also develops proposals and recommendations for the development of wrestling sports.

Key words: Physical education, sports, wrestling, national sports, ethnosport, education, system, science, research, integration.

Kirish. Bizga ma’lumki, insoniyat sivilizatsiyasi hamma vaqt ong va tafakkur taraqqiyoti bilan yuz bergan. Har qanday davlatning qudrati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ana shu davlat teng huquqli fuqarolarining ilm-fanda erishgan yutuqlari bilan bog‘liqdir. Bunday mamlakatlarda mehnatga munosabat va ishlab chiqarish madaniyati fuqarolarning ichki madaniyati bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bunday tez o‘zgarishlar ruy berayotgan jarayonlarda istiqlolni anglash, uni asrash xalqimiz uchun muqaddas vazifadir. Istiqlol – o‘z taqdiriga egalik qilish huquqi, ma’naviy qadriyatlar va milliy an’analarga tayanib yashash va yurtimiz boyliklaridan xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo‘lida foydalanish imkoniyati ekanligi bugungi kunda barchamiz anglayotgan haqiqatdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bugungi jamiyatimiz va davlatimiz oldidagi muhim masalalardan biridir. Bugungi kunda biz “bozor munosabatlariga” asoslangan iqtisodiyotni butun bir ongu-shuurimiz bilan anglab yetmasdan, uni rivojlanishiga turtki bo‘ladigan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni aniqlab, ularni shakllanishiga olib keladigan omillarni rivojlantirmasdan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishimiz qiyinlashaveradi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosida esa mehnat va ishlab chiqarish munosabatlari yotadi.

Jamiyatda yangi iqtisodiy qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o‘zgartirish, ularda islohotlarning talabiga mos keladigan yangi tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Agar kishilarning ongida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatlariga ishonch ruhi paydo bo‘lmas ekan, unda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning iloji yo‘q.

Bu borada ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash barcha davrlarda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillardan biri bo‘lib kelgan. Zero, insonni shaxs sifatida shakllanib borishida ta’lim-tarbiya hamda ilmiy-tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko‘nikmalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekistonda ushbu tizim doirasida bugungi kunga qadar bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Xususan, kadrlar tayyorlash qonuni va milliy dasturining qabul qilinishi sohaning rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimga o‘tilishi mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashning zamonaviy talab va me’yorlar asosidagi bosqichga ko‘tarilishini ta’minladi.

Tadqiqotning maqsadi kurash sportida ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti kurash sportida ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari va muhokamasi. Zamonaviy talablarga javob beruvchi kadrlarni tayyorlash borasidagi barcha huquqiy qoidalar va talablari qabul qilingan bo‘lsada amaliyot bu sohada bir qancha muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatning kamayib borishi, ilmiy-tadqiqot ishlarida professor-o‘qituvchilarning o‘quvsizligi bunday muammolarni bartarf etib borish bo‘yicha tizimli dasturlarni ishlab chiqib, ularning izchilligini ta’minlashni zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Davlatimiz o‘zining dasturlari doirasida ilmiy-tadqiqot loyihalar tanlovini tashkil qilib kelayotgani, undan tashqari nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatini rag‘batlantirish, ushbu tashkilotlardagi muammolarning ilmiy yechimlarini topish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha loyihalar e’lon qilib kelayotgan bo‘lsada, ushbu tanlovlarda ma’lum bir soha vakillarining faol ishtiroki sezilmayabdi hamda professor-o‘qituvchilarning bunday tanlovlarga bo‘lgan qiziqishi tobora kamayib bormoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda yangi metodikalarni qo‘llash ishlarini yanada rivojlantirish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, milliy sport turimiz bo‘lgan kurash sporttida ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash

hamda mazkur spor turida ilmi-tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali dolzarb bo‘lgan muammolarni bartaraf etish, rivojlantiirshga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jumladan, kurash sport turida ham yangi metodik tamoyillarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishda metodik tamoyillarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kurash sport turini rivojlantirishning ilmiy-metodologik tamoyillariga quyidagi omillarni aratib ko‘rsatish mumkin:

-kurash mashg‘ulotlari jarayonida kurashchilar organizmiga katta yuklamali va miqdoriy yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarning ta’sirini farq qilish zarur;

-kurashchilar amaliyotida katta, o‘rtacha va kichik yuklamali mashg‘ulotlar ko‘p qo‘llaniladi. Shu nuqtai nazardan, ko‘proq yuklamalarni yo‘nalishi bo‘yicha maxsus chidamlilikni (uzoq va qisqa muddatli shiddatli ishlarni bajarish imkoniyati), tezkorlik va kuch qobiliyatini oshiruvchi mashg‘ulotlarni qo‘llashni tasiya qilish; bir kunda o‘tkazilgan turli yo‘nalishdagi ikkita mashg‘ulotning kurashchilar organizmiga ta’sir darajasini inobatga olish, shu bilan birgalikda, o‘rtacha yuklamali mashg‘ulotlardan organizmning qayta tiklanish jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu katta yuklamali mashg‘ulotlardan so‘ng organizmning qayta tiklanish jarayonlarini boshqarishdagi samaradorlik vositasi sifatida o‘rtacha va kichik yuklamali mashg‘ulotlarning muvaffaqiyat bilan qo‘llanilishidan dalolat beradi; malakali kurashchilarning ish qobiliyatini oshirish, pedagogik vositalar va uslublar mhajmuasida mashg‘ulot jarayonini boshqarish sifatini ko‘tarishda mikrotsikl mash-g‘ulotlarini oqilona almashlab o‘tishning amaliy ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi; malakali kurashchilarni tayyorlash jarayonlaridan yana biri ish hajmini oshirib borish, uni bajarish sifatini yaxshilash bo‘lib, bunga kurash bilan shug‘ullanishning turli bosqichlarida har xil kattalik va yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni almashlab o‘tish asosida erishish mumkin.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha kadrlarda ilmiy layoqatning rivojlanmayotganligining asosiy sabablaridan biri ulardagi bilim, ko‘nikma va malakalarning talab doirasida shakllanmayotganligidir. Hozirda zamonaviy talablar doirasi-da bajarilayotgan dissertatsiyalar loyihalar asosida bajarilayot-ganligi mamlakatimizda ta’lim tizimini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘lashni yanada chuqur izchillik bilan rivojlantirib borishni taqoza etmoqda. Bu borada yoshlardagi intilish va qiziqish layoqatlarini inobatga olish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishlarini ta’minlash, loyihalarni to‘g‘ri rasmiylashtirishni o‘rganish, ma’lumotlarni elektron tarmoq-larda to‘g‘ri joylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, loyihalarni tayyorlashdan ko‘ra ularni to‘g‘ri rasmiylashtirishni o‘rganish va bilish bugungi kunda muammoli vaziyatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki, katta avlod loyihalarni ishlab chiqishni bilsada, elektron tarmoqlarda ishlay olmasligi, kichik avlod elektron tarmoqda ishlay olsada, loyihalarni ishlab chiqish malakasiga ega emasligi ikki avlod o‘rtasida ilmiy hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirib borishini ko‘rsatmoqda.

Umuman, ushbu yo‘nalishi doirasida olib borilayotgan islohotlar va ko‘zga tashlayonayotgan muammolarning mohiyatlaridan kelib chiqib qo‘yidagi xulosa va takliflarni berish mumkin: birinchidan, kurash bo‘yicha professor-o‘qituvchi va olimlarning jamiyatda tutgan o‘rnini, nufuzini oshirish zarur; ikkinchidan, kurash bo‘yicha ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda ulardagi ilmiy-tadqiqotlarda ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirib borish zarur; uchinchidan, kurash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish hamda yosh mutaxassislarni qullab quvvatlashda ularning ilmiy izlanishlari natijalari yoritib borishga yordam ko‘rsatib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizda 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – B.10.
2. Verxoshanskiy V.YU. Osnovы spetsialnoy fizicheskoy podgotovki sportsmenov/ Osnovы trenirovki-M.: Fizkultura i sport, 1988-S.23. 331s.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati/ -Toshkent: O‘zDJTI. Nashriyot bo‘limi, 2008.-B. 85.
4. Kerimov F.A. Umarov M.N Sportda prognozlashtirish va modellashtirish/ Jismoniy tarbiya institutlari va jismoniy tarbiya fakul’tetlari magistrlari uchun darslik.-Toshkent: O‘zDJTI. Nashriyot matbaa bo‘lim, 2005.B-280.
5. Kerimov F.A. Sport sohasida ilmiy tadqiqotlar.//Darslik.T:Zar qalam, 2004.-344 b.
6. Matvyev L.P Obщaya teoriya i yeyo prikladnыe aspektы. izdaniye pyatoye ispravlennoye i dopolnennoye./ -Moskva: 2010.-S. -110-111.
7. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.//Darslik.T: ITA-PRESS, 2015.-296 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDC: 159.953

Sevara JUMAYEVA,
Lecturer National Institute of Fine Art and Design named after Kamoliddin Bekhzod
E-mail: jdsevarakhon@gmail.com

Based on N.G. Jurayeva's review associate professor of the National Institute of Fine Art and Design Ph.D.

INGLIZ TILI DARSLARIDA KAMOLIDDIN BEHZOD MINIATYURALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARDA KREATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada miniatyurachi yetuk musavvir Kamoliddin Behzod miniatyuralari asosida tasviriy san`at yo`nalishida tahsil olayotgan talabalar o`rtasida ingliz tili darslarini ularda ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish orqali samarali tashkil etish usullari aniq misollar asosida yoritilgan. Muallif tomonidan musavvirning tanlab olingan xar bir miniatyurasiga aniq metodlar asosida tahlillar, va undan olinadigan natijalar berilgan. Bu jarayonda uchraydigan muammolar ko`rsatilib, unga optimal yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ kompetensiya, motivatsiya, miniatyura, talabalar qobiliyati, mantiqiy fikrlash, vazifalar, kreativ fikrlash, bo`lajak rassomlar, og`zaki Ingliz tili, mustaqil o`rganish

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МИНИАТЮР КАМОЛИДДИНА БЕХЗОДА НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье на основе миниатюр Камолиддина Бехзода, художника-миниатюриста рассматриваются методы эффективной организации на конкретных примерах, освещены уроки английского языка у студентов, обучающихся в сфере изобразительного искусства путем формирования у них творческих способностей. Каждая миниатюра художника, отобранная автором, анализируется на основе конкретных методов и результаты рассматриваются. Показаны проблемы, возникающие в этом процессе, и предложены их оптимальные решения.

Ключевые слова: творческая компетентность, мотивация, миниатюра,способности учащихся, логическое мышление, задания, творческое мышление, будущие художники, учебный опыт, разговорный английский, самостоятельное обучение

FORMING STUDENTS' CREATIVE COMPETENCIES BY USING KAMOLIDDIN BEHZOD'S MINIATURES IN ENGLISH LESSONS

Abstract

The article describes the methods of effective organization of English lessons among students based on the miniatures of Kamoliddin Bekhzod, a miniature artist. In addition, the methods used to organize lessons for students studying in the field of visual arts were discussed and analyzed based on specific opinions.

Keywords: creative competence, motivation, students ability, logical thinking, tasks, self-study, creativity, future artists, learning experience, conversational English, independent learning

Introduction. We can clearly say that the demand for knowing of foreign languages has reached a higher level than ever in the 21st century. In today's pedagogy, a new creative approach to teaching students is becoming the need of today.

Creativity is an interesting and effective way of organizing lessons based on innovative technologies, and this creativity means that through this competence, students strive for creativity, independent thinking is formed, and their worldwide develops regularly. Creative thinking is also very important in today's modern world. The question can be asked in which areas creativity is more visible [1].

Literature analysis. We can answer that almost all areas of art, especially fine art, require a creative approach to their work. Creativity is also reflected in how effectively the teacher organizes the lesson process. If a teacher can sufficiently develop the creative competence of students studying in the field of art, especially painting, and form high competence in them, he is a teacher in demand in today`s new era.

Issues of formation of creative competences in certain fields in foreign countries N.A. Mikhailov, Z.A. Stamboleva, E.V. Kozlovskaya, O.F. Ostroumova, Yu.A. Mikhailov, A.N. Alenova, N.S. Sakharova, A.V. Bogdanova, O.S. Fokina, A.V. Avdeeva, E.E. Researched by Owakimyan, Akugbe Robert, Joe Son Mi, Julianna W. Lux, Beata Artz, Pino Alcaraz Marcelal. The theoretical, practical, scientific foundations of creative competence formation were considered in the scientific researches of T.T.Kazieva, A.G.Shumovskaya, I.S.Bekesheva, I.E.Bryakova, E.V.Kozlovskaya, Sherry G.Phelan.

Main part. The teaching process is an important that is organized based on the interests of students with high skills. Teaching future artists requires high skills, especially from the English teacher. A special approach should be taken to the development of students' creative competencies. Well, it is appropriate to find an answer to the question of what creativity and competence are. Creativity is the skill of combining certain elements, and the generation of ideas [2].

Develop creativity



Creative thinking Practical creative Creative activity action Creative product

It is appropriate to give the following definitions of competence:

- It is one`s level of skill or knowledge in some subject or field or being able to do something well or being sane enough to stand trial in court. An example of competence is when a pianist has the ability to play the piano well.

-The knowledge that enables one to speak and understand a language.

- The ability to do something well or efficiently.
- A range of skills or abilities.
- The quality or state of being able or suitable for a particular task; the quality or state of being competent for a particular task [3].

It is important to organize the lesson process based on the development of students' creative competencies, in an environment of creativity, at a high level, that is, to achieve that the above factors are reflected in the lesson as a whole complex. It is very effective to escalate creative thinking in students. So, what is creative thinking and in what processes is it manifested?

Creative Thinking -discovering new opportunities and solutions for problems by looking beyond current practices and using innovative thinking. It can be seen in any kinds of discussion situations like debates, making presentations, two-way communication and so on [4-6].

Future artist students are considered to be real creators, and in English language classes, it is necessary to organize the lesson by taking into account their creativity. So, how is this process organized to give effective results?



Creating a creative environment in English classes for future artists depends on several factors. They are as follows:

1. The teacher should be motivated as well as she/he can give motivation to students. If the teacher does not embody a positive character, this will affect the mood of the students and, of course, the teaching process. The high moral level and pedagogical potential of the teacher have a great impact on the creation of a creative environment.

2. The teacher should take into account the student's class profile and interest in order to catch their attention and interest. This feature can bee is seen in the process of organizing Englilessonsson full of creativity, choosing the tasks and activities, as well. As an example, I hold the notion that, if the teacher gives writing tasks like filling gaps after explaining the theme, it would be boring for future painters. Instead of this the teacher can give the following task: Students are shown pictures from any kind of cartoon, film or something like this and ask students to describe this picture with the colours used there.

3. The teacher must not be only a teacher, but also must be a role model to students in any case. Firstly, during the lesson, the most leading person is the teacher. From this perspective, teachers should save their leadership by being a friend, painters, and motivators in order to create a free and creative atmosphere.

5. The teacher should create a creative atmosphere in the classroom by using green and blue which stimulate creativity. (According to statistical data, blue and green colours are colors that increase and strengthen creativity.) and this way can really give high mood and interest to the subject, as a result, students attitude to the lesson can change dramatically as positive.

6. The teacher should give tasks by taking into account that students are future painters, they cannot suffer from boring tasking as it can cause demotivate them [4].

An artist of the Eastern Renaissance who lived in the 16th century for young artists studying in the genre of miniatures Kamoliddin Bekhzod's creativity is highly valued. It will be very interesting and effective for creative students to organize a lesson using miniatures created by this artist in English classes. Now, a question arises here. How the lesson can be organised by using works of Bekhzod?

It comprises several methods with stages.

Analysis and results. For example, the teacher can use Behzod's miniature called **"The portrait of Khusain Boyqaro"** when teaching students how to use special questions, present simple tense, demonstrative pronouns, can, could modal verbs. It is possible to form students' creative competence by using the Structural Approach and Suggestopedia methods in lesson atmosphere. The Structural Approach is a method all about structure. The idea is that any language is made up of complex grammar rules. These rules, according to this approach need to be learnt in a specific order, for example, the logical thing would be to teach the verb “to be” before teaching the present continuous which requires using the auxiliary form of the verb “to be.”Suggestopedia is a method with art. It relies a lot on the atmosphere and the physical surroundings of the class. It’s essential that all learners feel equally comfortable and confident. When teachers are training to use the Suggestopedia method, there’s a lot of art and music involved, as I mentioned above [5]. Speaking is essential in this task. Students should answer the questions. Firstly they will have a silent period. It was during the explanations of the theme by the teacher. And after accepting the topic, students can speak by their own.

(Picture 1)

What colours are used in this ? Count me 5 objects in his cloth.

The teacher asks students:

Describe his appereance. Tell 5 information about this king.

Results:

Students can answer using their recently accepted knowledge with pleasure because it is their speciality. Creativity, and logical thinking can boost in such a way. Being free, as they can, speaking skills are also develops, as well.

Another miniature of Kamoliddin Behkzod called **"Farkhod's battle with the dragon"** can be used by teachers

to develop creative abilities in students. This task arouses great interest among students. The reason is that it requires group working. (Picture 2)



Students should put right order by following picture carefully, as they can each other and should find errors, as they can, without helping teacher

After cancelling the task, students share their answers

Results:

First and foremost, group working ability boosts. This is significant for students in their future workplace, also. Jumbled sentences are deduced from situations in the picture. By this method, deducing from meaning is developed. Self-evaluation is formed in students by checking each other's completed tasks. This method is very important and effective as the student's self-study ability booms. There are the following benefits of self-study for the student:

1. Independent thinking is formed in the student
2. Responsibility develops for oneself and the language one is learning.
3. When a student works independently, his inner potential opens up
4. Demonstrates his inner abilities.
5. As a result of more research, you will gain more new knowledge
6. The student develops the ability to teach in the future

Independent learning also serves to quickly reveal the learner's hidden inner abilities. Naturally, a person is inclined to learn languages. Self-study reveals exactly these aspects in a person [7-10]. In my opinion, age does not matter. If a person sincerely wants to acquire knowledge, he can acquire new knowledge, no matter how old he is. We can confidently cite the lives of billionaires such as Nicholas James, Vujicic Jack Ma as well as Yun Brian Tracy as examples of this, the way of their studying, as well.

It can be seen from the above points that this task forms important features such as deducing from context, self-study skills, and group working with the student at the same time.

Another example can be given as homework:

This work by name of **“Kurash”** will be given to students. (Picture 3)

Task 1 Task 3

Describe this work with your own words

Your own attitude to the sequence of colours and usage them



Task 2 Task 4

Use coherence and cohesion

Redraw one part which attracted you most?

Results:

Through these tasks, students are now required to think more and more broadly. During the 1st task, students' vocabulary increases, they paraphrase words and tell them in a retelling style. Through this, students' autonomy, imagination, are also boosted. By doing task 2 students use coherence and cohesion which can significantly escalate students’ logical thinking skills. Task 3 is vital and the most interesting part for students as this part of the task is their speciality. Students with great pleasure do this task. The most important point of this task creative attitude booms by doing this fascinating task. Since the students have their field, they willingly perform the task related to colours, and in this process, boredom is not observed. Through this task, students' creative competence is formed and the language becomes easy to learn them. Through Task, students are given a very interesting and expected task. The task of looking at the work drawn by the great artist from his point of view is given. In the process of drawing miniatures, students develop their creativity, since this task is interesting for students, the topic is easily mastered. At the same time, it is important that the teacher asked the student to tell the most favourable aspect of this work.

Problem

When teaching English classes to students of higher education institutions, several problems are encountered:

1. The diversity of students' level of knowledge of the English language
2. Feeling of disinterest in the language they are learning
3. Lack of practical, colourful organization of the lesson

Problem-solving.

1. The teacher should create conditions for the students' creative features to be manifested together with language learning. Specific examples given above through certain methods, such as a creative approach to the lesson, can eliminate this problem.
2. When a student gets bored in class when he is not interested in the subject being studied. The question arises: So, how do attract the student to the lesson? There is can be one

main answer: When, based on the student's speciality, it is connected with the language being taught, then the lesson process will be organized effectively. Taking into account that the students of visual arts were taken as the object of this article, their artistic features were connected to the works of the famous painter Kamoliddin Behkzod, and their creative abilities were connected with the language environment also.

3. Many factors depend on the interesting and effective organization of the lesson process, including the following features:

- How motivated the teacher is;
- Students` attitude to the lesson
- Students` mood;
- Teacher`s attitude to the students

From this notion can be seen 50/50 results. The teacher should love their students. Teachers should always take into account the interests of students and organize the lesson process. They should deeply focus on developing students' writing, reading, listening and speaking skills by effectively using different methods.

Conclusion. As a conclusion, I hold the notion that, it is extremely vital to increase the creativity of the students of higher education institutions in the English language classes, to effectively lead future artists' interests in the language and their fields. From this point of view, we can totally say that the specific examples presented in the article serve to organize the lesson process interestingly. If the methods presented in it are used effectively, the teacher will achieve his/her goal. Creative thinking for creative students is precisely English lessons the formation through it becomes important.

LITERATURE

1. Rebecca J. White “Spoken English for Artists” Spiral-bound – January 1, 2014.
2. S.D. Jumaeva “Creative approach in English classes as an example of Akmal Nur`s experience”
3. S.D. Jumayeva “The ways of effective organize of English lessons using Kamoliddin Bekhzod`s miniatures” “Камолиддин Беҳзод ижоди-жаҳон олимлари нигоҳида” мазусидаги Халқаро илмий анжуман тўплами //. –Т.: Zamon poligraf нашриёти, 2022.19.10.
4. https://www.google.com/search?q=creative+competence
5. https://blog.realla.co.uk/how-do-you-create-a-creative-environment
6. https://www.google.com/search?q=suggestopedia+method
7. S.D.Jumaeva “Self study as a source of boosting new knowledge” «Actual priorities of modern science, education and practice» at the international scientific and practical conference.31 may-03 June 2022 Paris, France
8. H.D. Brown. (2011). Teaching by Principles-An Interactive Approach to Language Pedagogy. NY: Addison Wesley Longman.
9. Orif Usmonov, Abdumajid Madraximov «Камолиддин Беҳзод» Toshkent-2000 10. http://www.huntesl.com/a-brief-look-at-the-different-esl-teachingapproaches-and-methods/
10. Miniatures illuminations of Nisami`s Hamsah. January 1, 1985 by Fazila Suleimanova (Pictures 1-3)

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Furqat JO‘RAQULOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining birinchi o‘rinbosari, siyosiy fanlari doktori, dotsent

JAMIYAT IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITINI O‘RGANISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitini o‘rganishning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugun dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonlari ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazayotganligi borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: siyosat, jamiyat, mafkura, ma’naviyat, tahdid, globallashuv, immunitet, iqtisodiyot, axborot.

ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье научно анализируются представления о духовно-просветительском значении изучения социально-духовной среды общества. В статье также рассматривается тот факт, что стремительные процессы глобализации, происходящие сегодня в мире, оказывают серьезное влияние на духовную и образовательную сферы.

Ключевые слова: политика, общество, идеология, духовность, угроза, глобализация, иммунитет, экономика, информация.

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT OF SOCIETY

Annotation

This article scientifically analyzes ideas about the spiritual and educational significance of studying the socio-spiritual environment of society. The article also discusses the fact that the rapid processes of globalization taking place in the world today have a serious impact on the spiritual and educational spheres.

Key words: politics, society, ideology, spirituality, threat, globalization, immunity, economics, information.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida ma’naviyat sohasi hamisha dolzabr masala sifatida alohida e’tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, globallashuvning tobora avj olishi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasida ma’naviyatga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda bu borada mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish taqozo etilmoqda. Bugungi zamon shiddati mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida o‘ta muhim masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratilgani bejiz, emas, albatta. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida: “Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”[1], - deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, diyorimiz azaldan o‘zining milliy qadriyatlari, madaniyati rivojlangan yuksak ma’naviyatga ega tamaddun uchog‘i hisoblanadi.

Tarixdan ma’lumki, yurtimizda ma’naviyat mash’alini baland ko‘targan buyuk allomalar yetishib chiqqan. O‘zining boy ma’naviy merosi bilan dunyoga ziyo taratgan Imom Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zamaxshariy kabi buyuk mutafakkirlarning merosi xalqimiz ma’naviyatining yuksalishiga zamin yaratgan. Aynan, shu sababli ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori[2] ijrosini ta’minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizdagi mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni istiqbolda yaratish maqsadida quyidagilar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi. Bu borada, mamlakatimizda ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchay-

tirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish hamda geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narko-biznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish[3] kabi aniq maqsadga yo‘naltirilgan istiqbolli vazifalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, mazkur qarorda yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dastur-larini ishlab chiqish, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar-ning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, aholi, ayniqsa, yoshlar-ni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Mazkur sohadagi ishlarni yanada keng ko‘lamdagi ijrosi yuzasidan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 iyundagi “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-son qarori qabul qilindi.

O‘z navbatida, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan g‘oya asosida mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, aholi, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, ma’naviy merosimiz, milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash g‘oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-metodik va axborot-tahliliy jihatdan ta’minlash faoliyatini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi[4].

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining asosiy vazifalari etib mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar holati, milliy g‘oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish, mamlakatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini tadqiq qilish, baholash va yaxshilash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar tayyor-lash, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirishning samarali va ta’sirchan zamonaviy targ‘ibot texnologiya hamda usullarini ishlab chiqish, aholining g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish, internet tarmog‘idan foyda-lanish madaniyatini oshirish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyat-sizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi asosida tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari va ko‘rsatkich-larini joriy qilish, vazirliklar va idoralarda, jumladan, ta’lim tizimi, mahalla va hududlar bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, sohani ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq qilish, ilmiy ekspertizani yo‘lga qo‘yish, dunyoning mafkuraviy manzarasini o‘rganish, tahlil qilish, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish[5] kabi bugungi kunning dolzarb masalalarni amalga oshirish belgilangan edi.

Bugun kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatni tobora avj olishi tinchlik va barqarorlikka raxna solishga intilayotgan yangi tahdid va xatarlar ko‘payib borayotganini anglash qiyin emas. Xususan, hozirgi kunda global miqyosda ayrim mamlakatlardagi islohotlaridan norozilik kayfiyati vujudga kelayotganligini kuzatish mumkin. Mazkur holat o‘z navbatida mamlakatimizda jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish borasida jiddiy fikrlashni taqoza etayotir. Ayniqsa, bu borada jamiyatimizda ma’naviyat masalasi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holati, milliy g‘oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Institut bugungi kunda o‘z oldiga mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqini yuksaltirishda bir qator maqsadlarni kun tartibiga asosiy masala sifatida qo‘ygan. Ya’ni, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan ma’naviy-ma’rifiy vazifalar ijrosini tizimli ta’minlash va samarali muvofiqlashtirish bo‘yicha istiqboldagi vazifalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratib kelmoq-da. Shu bilan birga, institut jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va uni natijasi bo‘yicha asoslangan ilmiy-amaliy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishida muayyan darajada xizmat qilib kelmoqda. Zero, bugungi davr va zamon shiddati ma’naviyat masalasi borasida yanada teran fikrlashni taqoza etmoqda.

Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘nal-tirilayotgan ma’naviy tahdidlarning ijtimoiy namoyon bo‘lishi muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi, qalbini zabt etmoqda. Natijada, mazkur illat asl ma’naviy qadriyatlarni tanazzul sari yetaklab, har bir halq va millatning o‘z madaniyati, ma’naviyati va qadriyatlarini inkor etishi orqali yoshlar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, ma’naviyat - xalqimiz or-nomusini uyg‘otuvchi beqiyos kuch, ozodlik, vatanni sevishga undovchi da’vatkor tug‘yondir. Zero, bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqni kelajakda o‘zligini saqlab qolish uchun eng avvalo, ma’naviyat masalasiga bo‘ladigan tahdidlardan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish borasidagi kechiktirib bo‘lmas asosiy dolzarb vazifalarni ko‘ymoqda.

Xulosa va takliflar. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomoni-dan keng va qizg‘in qo‘llab-quvvatlanayotgani ma’naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi”[6], - deya ta’kidlashi ayni haqiqatdir. Binobarin, Vatan sha’ni, or-nomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashda ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurol vazifasini o‘tashini bugungi davr va zamon taqoza etmoqda. Zero, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti jamiyat-dagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini o‘rganish orqali mamlakatimizda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muam-molarni hal etishda ilmiy - tahliliy asoslangan takliflar, tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqishdagi istiqbolli vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori. https://lex.uz/docs/5344692
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori. https://lex.uz/docs/5344692
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 iyundagi “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-son qarori. https://lex.uz/docs/5443067
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 iyundagi “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-son qarori. https://lex.uz/docs/5443067
6. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 391.1

Temur IBAYDULLAYEV,
Jizzax politexnika instituti dosent v.b.
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: timur-85@list.ru

O‘zMU Jizzax filiali dosenti, f.f.b.f.d (Phd) D.Alibekov taqrizi asosida

A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THREATS AFFECTING YOUTH SPIRITUALITY DURING GLOBALIZATION

Abstract

In this article, the negative impact and consequences of the globalization process on the education of the youth of our country are analyzed in detail. In particular, the influence of “Public culture” on the formation of youth spirituality and the main task of instilling foreign ideas by alienating the youth from the national culture and poisoning their minds was studied.

Key words: globalization process, values, youth, spirituality, “Publicly culture”, threat, ideological threat, freedom.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ УГРОЗ, ВЛИЯЮЩИХ НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье подробно анализируется негативное влияние и последствия процесса глобализации на образование молодежи нашей страны. В частности, изучено влияние «массовой культуры» на формирование духовности молодежи, основная задача привития иноязычных идей путем отчуждения молодежи от национальной культуры и отравления ее сознания.

Ключевые слова: процесс глобализации, ценности, молодежь, духовность, «народная культура», угроза, идеологическая угроза, свобода.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIR ETADIGAN TAHDIDLARNING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv jarayonining mamlakatimiz yoshlari tarbiyasiga salbiy ta’siri va oqibatlari atroflicha tahlil qilib berilgan. Xususan, “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar ma’naviyatini shakllanishiga ta’siri hamda yoshlarni milliy madaniyatdan uzoqlashtirib, ularning ongini zaharlash orqali yot g‘oyalarni singdirish asosiy vazifa qilib qo‘yilganligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv jarayoni, qadriyatlar, yoshlar, ma’naviyat, “Ommaviy madaniyat”, tahdid, mafkuraviy tahdid, erkinlik.

Kirish. Jamiyatning ma’naviy-madaniy sohalaridagi o‘zgarishlar XXI asrga kelib, tobora avj olayotgan globallashuv jarayonlari, internet va intellektual taraqqiyot ta’sirida shiddat bilan o‘zgarib borayotganligi barchaga ma’lum. Xususan, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev mamlakatning barqaror rivojiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tahdidlarga to‘xtalib, “ommaviy madaniyat” balosi ko‘plab yoshlarni o‘z domiga tortib, millat va yurt uchun butunlay begona bo‘lgan salbiy ta’sirlar kirib kelishiga sabab bo‘layotganligi”[1] ga asosiy e’tiborni qaratgani masalaning dolzarbligini anglatadi.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Bizni o‘rab turgan dunyo qanchalik tez o‘zgarib borayotgani, yaqin va uzoq atrofimizda turli mojaro va qon to‘kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik havfi ortib, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani achinarlidir. Albatta bularning barchasi har birimizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni sergaklik bilan baholashni talab qiladi”[2] - deb ta’kidlashi butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilab o‘tadi. Chunki, globallashuv jarayonida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib berib, o‘zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga hissa qo‘shayotgani bugun barchaga ma’lum. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, globallashuvning ba’zi bir salbiy holatlari insoniyatni tashvishga solmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Globallashuv jarayonini yoshlar tarbiyasi hamda jamiyat ma’naviy hayotiga ta’siri haqida Yevropa va mamlakatimiz olimlaridan Z.Bjezinskiy[4], L.Ye. Grinin[5], A.Zinovyev, S.Otamurodov[6], U.Qoraboyev, J.Yaxshilikov, N.Eshchanova, B.Isroilov kabilar ilmiy tadqiqotlari olib borishganini haqida qayd etish lozim.

Jumladan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi olim A.Zinovyev “Globallashuv yangi jahon urushi. U yangi tipdagi jahon urushi” degan ta’kidi yoki globallashuvning avj olishi millat “chegaralarini” yo‘q qilib yubormoqda, ommaviy madaniyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Buning natijasida har bir millatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana va boshqa ma’naviy qadriyatlar o‘z ahamiyatini “yo‘qotish” havfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma’naviy qashshoqlashuvi sodir bo‘lishiga, ularning o‘zligini anglamaydigan manqurtlarga aylanishiga olib keluvchi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda”, degan pessimistik xulosalari kishini ancha sergak torttiradi.

S.Otamurodov va N.Eshchanovalar “Globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatga tahdidlar va ularni bartaraf etish omillari”[7] hususida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lsa, globallashuv sharoitida ma’naviy integratsiya jarayoni haqida faylasuf olim B.Isroilov “hozirgi davrga kelib, “inson-tabiat”, “inson-jamiyat” (turli

davlatlar, mafkuralar, e’tiqod-dunyoqarashlar) o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashishi va globallashuvi mavjud sivilizatsiyani saqlab qolish masalasini gamletchasiga: “Yo – hayot! Yo – mamot!” tarzida kun tartibiga qo‘yib, bu muammolarni insonga, faqat Homa Sapines – “aqlli mavjudot” emas, balki “ma’naviy mavjudot”ligini anglatish va amaliy faoliyatlarini unga yo‘naltirish orqali hal qilish mumkin”[8] ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu o‘rinda masalaning mohiyatini ilmiy bilishning analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanib yoritish ishning ilmiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Aytish joizki, hozirgi globallashuv sharoitida, G‘arbdagi ayrim “markazlar” boshqa mamlakatlar va millatlar o‘rtasida G‘arb hayotini, xususan, “ommaviy madaniyat” ta’sirini imkon qadar keng yoyishga harakat qilmoqdalar. Ushbu harakatlarning asosiy maqsadi insonlarni azaliy qadriyatlaridan uzoqlashtirish, madaniyatlarni bir-biri bilan aralashtirib, dunyoni bir tizimga solish, shuningdek, standart holatda, bitta oqim bo‘ylab xarakatlanishini ta’minlash va antimilliy g‘oyalarini osonlikcha singdirish, ma’naviy begonalashuvni yuzaga keltirishdan iboratdir. Ushbu tahdidlarni millat va elatlarga ta’sirli jarayoni asosan yosh avlodning ongini zaharlash hamda begona g‘oyalarni singdirish hisoblanadi. Shu o‘rinda “Ommaviy madaniyat” an’anaviy-milliy madaniyatimiz hamda mamlakatimiz kelajagi uchun rahna solar ekan, ushbu jarayonga befarq qarab turmaslik kerak.

Falsafiy-madaniy jihatdan tahlil qilsak, “Ommaviy madaniyat”, ya’ni pop-madaniyat jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo‘lgan madaniyat hisoblanadi. U o‘z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (kino, pop-musiqa, sport, sirk), ommaviy axborot vositalari kabilarni oladi. Ommaviy madaniyat mohiyatiga ko‘ra, aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqea – hodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to‘lib toshgan. Ommaviy madaniyat o‘z nomi bilan omma, ya’ni ko‘pchilik ehtiyojiga mo‘ljallangan bo‘lib, bu shakl va mazmun standartlashganligi, shuningdek, tijorat nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga qaratilganlikni bildiradi.

Aytish joizki hozirgi mazmundagi ommaviy madaniyat XIX asr oxiri - XX asr boshida shakllandi. Ommaviy axborot va kommunikatsiyaning jadal rivojlanganligi bunga sabab bo‘ldi. Ma’naviy, madaniy tovarlarni ishlab chiqaruvchilar vujudga keldi. Biroq, buning natijasida aholining funktsional bilimlarida ko‘tarilish, ma’naviyatida esa pasayish kuzatila boshladi.

“Ommaviy madaniyat”ning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning makon (hudud), yosh, jins va millat tanlamasligidadir. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, zamonaviy “Ommaviy madaniyat” tahdidlarining inson ongiga salbiy ta’sirlari quyidagilardan iborat:

-“Ommaviy madaniyat” inson ongini real hayotdan uzoqlashtiradi va soxta yaratilgan obrazlarga yo‘naltiradi;

- insonni ishlab chiqaruvchiga emas, iste’molchiga aylantiradi;

- aldovga oson ishonadigan shaxslarni paydo qiladi;

- yoshlarning vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usini shakllanishiga to‘siq bo‘ladi;

- insonni milliylikka borib taqaluvchi ildizlarini kesadi va ma’naviy jihatdan qashshoqlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatimizda “ommaviy madaniyat” niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning yoshlarimiz ongiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirlarini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, internet orqali, yoshlarimiz ko‘plab ijtimoiy tarmoqlardan ro‘yxatdan o‘tishib, mintalitetimizga zid bo‘lgan harakatlari bilan faol a’zolaridan biriga aylanib borayotganidann ham ko‘rish mumkin.

Shuningdek, mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni bugungi kunda 31 milliondan oshgani, ulardan 29,5 million nafari mobil internet orqali tarmoqqa ulanayotgani yoki mamlakatimiz aholisining o‘rtacha 86% ni tashkil etmoqda[9]. Ma’lumki, oliy o‘quv yurtlarining deyarli 90% talabalari internetning ijtimoiy tarmoqlaridan keng foydalanib kelishmoqda. Albatta bu quvonarli holat, ammo hozirgi kunda yoshlarimizning ko‘pchilik qismi eng mashhur “tiktok.com”, “instagram.com”, “facebook.com”, “Telegram”, “Twitter.com” kabi ijtimoiy tarmoqlarga a’zo ekanliklarini ko‘rish mumkin.

Ushbu ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar ma’naviy ongi uchun to‘liq ijobiy ma’lumotlar beradi, deb ayta olmaymiz. Sababi, ayrim yoshlarimiz ushbu ijtimoiy tarmoqlardan o‘z yaqinlari bilan uzoqni yaqin qiluvchi, o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda intellektual salohiyatini oshirish vosita sifatida foydalanishsa, aksariyat yoshlar zerikish natijasida ahloqsizlikni targ‘ib qiluvchi video hamda rasmli pornografik ma’lumotlar olishga, ma’naviy ongi va fikrlash doirasi ahloqiy jihatdan past bo‘lgan o‘rtoqlar izlashga va ularning qilgan xatti-harakatlarini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan holatlar, shuningdek, axloq chegaralaridan chetga chiqqan intim mavzularda suhbat qurishga harakat qiladilar. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda eng «ommaviylashgan» jarayonlardan biri bu, butun yoshlarni aql-hushini egallagan internet ijtimoiy tarmoqlari, jumladan tik-tok.com, telegram, instagram.com kabi veb saytida axloqsizlik g‘oyalarini cheklashga oid qonun-qoida yo‘q. Ushbu saytda kechayotgan jarayonlar yoshlar ongini zaharlamoqda va ularni milliy ma’naviyatdan yiroqlashtirmoqda. Ushbu sayt kimlarnidir uyiga nohushliklar olib kelishi va oilalarning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatish jarayonlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Shu o‘rinda “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari Sharq oilasida ayollar kamsitilishi, ularning erkaklar bilan teng huquqli emasligi haqida fikr yuritadilar. Ayniqsa “Ommaviy madaniyat” yosh oilalarga bu o‘zining kuchli ta’sirini o‘tkazmoqda. Jumladan, oila va nikoh masalalariga hayotda muhim emasligini, uni “yengil yashash”, “erkinlik”, “o‘zi uchun yashash” degan omillardan keyingi ikkinchi darajali o‘rinlarga tushirib tashlashni targ‘ib qilmoqda. Bunga asos qilib “nikoh-bu tashvish”, “oila-bu erksizlik”, “milliy liboslar-eskilik sarqiti, madaniyasizlik” kabi tamoyillarni ilgari surishmoqdalar[10]. Vaholanki, ushbu “madaniyat” namoyondalari “erksizli” deb atayotgan oila aslida bu bizning asrlar osha qadrlanib kelingan muqaddas dargoh, insonlarni ezgu hulqqa o‘rgatadigan maskani hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham, bugungi davrda oilaning mustahkamligi yurt kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, mamlakatimizda yosh avlodni zararli oqimlar ta’siridan himoyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan nutqida “Butun dunyoda murakkab va tahlikali vaziyat hukm surayotgan hozirgi vaqtda yoshlar hayotiga tahdid solayotgan xavf-hatarlarning oldini olish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda sizlarning ibratli faoliyatingiz ulkan ahamiyatga ega”[3] deb ustoz-murabbiylarga ishonch bildirganliklarini alohida ta’kidlash mumkin.

Yurtdoshlarimiz, shuningdek yosh avlod qalbida va ongida milliy o‘zlikni o‘stirish, milliy g‘urur, vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usini kuchaytirish hamda mustahkamlash, xalqimizning boy axloqiy, ma’naviy va diniy qadriyatlarini himoya qilish, oilaning qadriyatlarini mustahkamlash masalasi jamiyatimizdagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanganligini e’tirof etish joiz.

Shuningdek, yoshlarda ogohlik va sezgirlik g‘oyasini shakllantirish, tinchlikni asrash, mustahkamlashda bevosita ilmiy, siyosiy, ma’naviy bilimlar, yangi va ishonchli axborotlar asosida siyosat, axloq san’at masalalari bo‘yicha bahslar o‘tkazish orqali o‘zga yot g‘oyalarga nisbatan salbiy hislatlar uyg‘otish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, yosh avlodni “Ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolishini oldini olish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, “Ommaviy madaniyat” tahdidlariga qarshi qaratilgan o‘zbek milliy madaniyatini targ‘ib etuvchi turkum tadbirlar, davra suhbatlari, festival va aksiyalar tashkil etish, ikkinchidan, televideniya va radio orqali milliy madaniyatni targ‘ib etuvchi ko‘rsatuvlarni, shuningdek “ommaviy madaniyat” tahdidlaridan insonlarni, ota-onalarni va yoshlarni xabardor qilib boruvchi, ogohlikka da’vat etuvchi ko‘rsatuvlar sonini yanada ko‘paytirish, uchinchidan, yoshlarda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, to‘rtinchidan, yoshlarni bo‘sh vaqtida muntazam sport bilan shug‘ullanish, milliy o‘yinlar o‘ynashga jalb qilish, beshinchidan, ajdodlarning tarixiy, adabiy-badiiy merosini o‘rganish hamda mamlakatimizdagi qadimiy tarixiy yodgorliklarni ziyorat qilish, oltinchidan, axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizning haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish, yettinchidan, “ota-ona, mahalla va maktab” hamkorligini yanada kuchaytirish va yoshlarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 46.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B. 15.
3. Mirziyoyev Sh.M**.** Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. –T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 356.
4. Бжезинский З. Выбор. Глобальной господство или глобальной лидерство? -М.: Международные отношения, 2004.
5. Л.Е. Гринин. Глобализация и национальний суверенитет. История и современность. – М.: №1. 2005. – С. 8-11.
6. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. -T: O‘zbekiston, 2013. – 456 b.
7. Eshchanova N.R. Globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatga tahdidlar va ularni bartaraf etish omillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. – T.: 2019. – 148 b.
8. Isroilov B.E. O‘zbekistonda ma’naviy integrasiya jarayonining ob’yektiv va sub’yektiv omillari. Fal. fan. nomzodi diss. - T.: 2010. – B. 4.
9. https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/
10. Ibaydullayev T.G. Ethnic cloths as a main factor of national cultural development //EurasiaScience. – 2019. – C. 119-120.
11. “Jizzax haqiqati” gazetasi. 2015 yil 21 yanvar № 7-8 (5527-5528)
12. Ибайдуллаев Т. Г. Узбекская национальная одежда в период глобализации: проблемы и решения //Культура в евразийском пространстве: традиции и новации. – 2020. – С. 56-62.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 008

Anvarjon IBRAGIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti
Ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Qarshi davlat universiteti dotsenti p.f.f.d. O.Arslanova taqrizi asosida

KURSANTLAR JAMOALARIDA HARBIY QADRIYATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOT MADANIYATI MUHIM OMIL SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zida kursantlar jamoalarining birgalikda, bir maqsad sari faoliyat yuritish ehtiyojidan kelib chiqqan holda turli faoliyat davomida o‘zaro qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish jarayonida muloqot madaniyatining o‘rni beqiyosligi, shuningdek muallif qadriyatli munosabatlarning kursant madaniyatidagi ahamiyati, qadriyatli muloqot madaniyatini shakllantirishda faoliyatli yondashuvning mohiyati, ta’lim jarayoni kursantlarga yo‘naltirilganligi, uning samaradorligining asosiy mezoni keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, kursant, harbiy jamoa, qadriyatli munosabat, ta’lim, tarbiya, muloqot, bo‘lajak ofitser.

КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР В РАЗВИТИИ ВОЕННО-ЦЕННОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В КАДЕТСКИХ КОЛЛЕКТИВАХ

Аннотация

В данной статье рассматривается несравненность роли культуры общения в процессе развития взаимно-ценностных отношений в ходе различных видов деятельности, обусловленных необходимостью совместной, целенаправленной деятельности курсантских коллективов, а также значимость ценностных отношений в культуре курсанта, сущность деятельностного подхода в формировании культуры ценностного общения, ориентированность образовательного процесса на курсантов, приводится основной критерий его эффективности.

Ключевые слова: Родина, кадет, воинский коллектив, ценностное отношение, воспитание, воспитание, общение, будущий офицер.

THE CULTURE OF COMMUNICATION AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MILITARY-VALUE RELATIONS IN CADET COMMUNITIES

Annotation

This article presents the uniqueness of the role of the culture of communication in the process of developing mutually valuable relations in the course of various activities, based on the need of cadet teams to operate together, towards one goal, as well as the importance of the author's value relations in the cadet culture, the essence of the active approach in

Key words: Homeland, cadet, military team, value attitude, education, upbringing, communication, future officer.

Kirish. Ma’naviy barkamol inson yuksak ahloqiy fazilatlari bilan ajralib turadi, u o‘ziga loyiq ko‘rmagan biror bir nojo‘ya ishni boshqalarga ham ravo ko‘rmaydi, hech bir kishiga jabr-zulmni hohlamaydi, jonzotga ozor bermaydi. Vatanga, elga millatga sodiqlik ham, madaniyatlilik ham ma’naviy barkamollik, axloqiy poklikning belgilaridan hisoblanadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarda kelajak avlodni mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda. Xozirgi kunda ta’lim olayotgan kursantlar yurtimizning ertangi kelajagidir. Ularni har tomonlama yetuk zobitlar qilib tarbiyalash harbiy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasidir. Ularni yuksak malakali zobitlar etib tarbiyalash va malakasini oshirish esa kadrlar tayyorlash sohasidagi ustuvor vazifalardan biri sanladi.

Kursant ma’naviyatining rivojlanishini, ijtimoiylashishini, kursantni barkamol shaxs bo‘lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo‘lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo‘lmaydi. Muloqot ham o‘ziga xos ehtiyoj. Harbiy tehsil davomida muloqot yetakchi faoliyatga, ya’ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda O‘zbekistonning harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarida ro‘y berayotgan islohot va o‘zgarishlar esa aynan tinchlik va farovonligini ta’minlashga, inson hayotini yaxshilashga, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Yosh avlod, qolaversa, bo‘lajak ofitserlarning ma’naviy ehtiyojlari ijtimoiy mazmuni jihatdan milliy madaniyatga, qadriyatli munosabatlarga, urf-odat va an’analarga asoslanib shakllanib bormoqda.

Muloqot jarayoni ijtimoiy muhitdagi barcha jarayonlarning asosi hisoblanadi. Jamiyatning mavjudligi hamda uning a’zolarining faoliyati aynan muloqot asosida amalga oshadi. Shu sababli ham muloqot boshqa faoliyat turlari ichida yetakchilik qilib, u har bir jamiyat a’zosining jamiyat a’zosi bo‘lish, o‘zini shaxs sifatida bilish kabi ehtiyojlarini qondiradi.

“Muloqot” atamasining lug‘aviy ma’nosi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, unga shunday ta’rif beriladi: arab tilidan olingan bo‘lib, uchrashish, ko‘rishish, qabul qilish ma’nolarida ishlatiladi [2].

Munosabat tushunchasi ham arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, “!. Kishilar o‘rtasidagi aloqa, muomala. 2. Kishilar, tashkilotlar, davlatlar orasidagi bordi-keldi, oldi-berdi muomalalari, tirikchilik, moddiy va ma’naviy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan aloqa” ma’nolarini anglatishi qayd etiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Umumiy holda qayd etishimiz mumkinki muloqot – bu jamiyat a’zolarining birgalikda faoliyat yuritish ehtiyojidan kelib chiqqan holda turli faoliyat davomida o‘zaro munosabatlarga kirishuv jarayonidir. Muloqot tushunchasi shaxsning jamiyatda bajaradigan mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod kabi turli faoliyatlarini bajarishlari davomida amalga oshiradigan o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini qamrab oladi.

Jamiyat a’zolarining o‘zaro axborot almashinuv jarayoni muloqot asosida amalga oshadi. Bunda munosabat-

ning kommunikativ asoslariga, muloqot o‘rnatish vositalariga, asosan, tilga murojaat qiladilar.

Muloqot jarayonida munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro fikr almashinuvida - nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki xatti-harakatlardan ham foydalaniladi. Masalan, qo‘l va gavda harakatlari orqali imo-ishoralardan, ko‘z qarashlari yoki mimikadan fikrni ifodalashda samarali foydalanish mumkin. Ba’zi o‘rinlarda muloqot o‘rnatishda so‘zlardan ko‘ra mimik va pantomimik muloqot yaxshiroq samara beradi.

Dastlabki bosqich – odamning o‘z-o‘zi bilan muloqotidir. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z-o‘zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demaк boshqalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichidir.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko‘rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o‘sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko‘rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo‘ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o‘z qo‘l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o‘sha suhbatdoshlarnnng fikr-o‘ylari, niyat-maqsadlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do‘stlar suhbatdoshi, poyezdda uzoq safarga chiqqan yo‘lovchilar suhbati, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo‘lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko‘proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar.

Tahlil va natijalar. Qurolli Kuchlarning yangi qiyofaga o‘tishi sharoitida kursantlar o‘rtasidagi qadriyatli munosabatlarda muloqot madaniyatining o‘rni va ahamiyatiga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. An’anaga ko‘ra, davlat tomonidan belgilangan vazifalarni hal etishda asosiy ko‘rsatkich – bo‘lajak ofitserlar, ya’ni ularning qadriyatli munosabatlari, o‘zaro muloqotni yo‘lga qo‘yishi harbiy jamoaning jipisligini, askariy birodarlikni, ko‘makdosh bo‘lishni, har qanday sharoitda jangovar ruhini yorqin bo‘lishini, axloqiy muhitini belgilaydi.

Oliy harbiy bilim yurti kursantlarining qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishda muloqot madaniyatini shakllantirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu kelajakdagi bo‘lajak ofitser nafaqat davlatning harbiy tashkiloti, balki butun jamiyatning asosiy ko‘rsatkichidir. Shuning uchun, oliy harbiy o‘quv yurtlari kursantlarida qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishda muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik jarayonini ko‘rib chiqish maqsadga mvofiq.

A.V.Petrovskiy muloqotni ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlash, o‘zaro ta’sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e’tirof etadi [5].

A.V.Petrovskiyning fikirlaridan kelib chiqib, harbiy jamoalar ham shakillanishida ular vazifalarni hamkorlikda yechish maqsadida umumiy harbiy majburiyatlar asosida birlashadilar, mamlakatni ishonchli himoya qilish uchun doimo jangovar tayyorgarlikni oshirish bilan shug‘ullanadilar va bu jarayonda o‘z navbatida muloqotni o‘rnatadilar.

M.G.Davletshin asarlarida esa “muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo‘yicha ma’lumot almashinishidan iborat bo‘lgan o‘zaro ta’sir etishdir”- deb ta’kidlanadi [6; 64].

Yuqoridagi ta’riflarga muvofiq muloqotga umumiy tarzda quyidagicha ta’rif berish mumkin: muloqot – kamida ikki kishining o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi, qo‘yilgan vazifalarni ham jihatlikda ado etadilar va rivojlantiriladi.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar birinchi funksiyasi - suhbatdoshlarning o‘zaro bir - birini tushunishlarini ta’minlashdir. Bu o‘zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O‘zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko‘rishadi, so‘rashadi, xol - ahvol so‘raydi. Shunisi xarakterliki, ta’ziyaga borgan chog‘da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o‘ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o‘g‘rilanib ketilishi, so‘ng ma’lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo‘lishi faktlari shuni ko‘rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko‘plab psixologik eksperimentlarda o‘z isbotini topdi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘pincha harbiy jamoada kursantlarda qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishda muloqot madaniyati psixologik-pedagogik munosabatlarga bevosita bog‘liq. Kursantlarda muloqot madaniyatini muhim omili sifatida: kursantlararo munosabatlar o‘rnatishning asosiy xususiyatlarni; muloqot samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar toifalari doirasini aniqlash; ta’lim jarayonida kursantlarda o‘z-o‘zini takomillashtirib borishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish; kursantlarga psixologik yordam ko‘rsatishda muloqot uslublaridan samarali foydalanish; kursantlararo munosabatlarni tashkil qilish va muloqot o‘rnatish; kasbiy faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini, xususan, o‘zining kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirib borish; kasbiy faoliyatning turli jabhalarida muloqot vositasidan to‘g‘ri foydalangan holda kursantlararo munosabatlarni tashkil qilish; psixologik konsultatsiyalar o‘tkazish jarayonida auditorlik qobiliyatlarini namoyon qilish va boshqa holatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Shu munosabat bilan, kursantlarda muloqot munosabatlari madaniyatini tarbiyalash ta’lim faoliyatining eng muhim qoidalaridan biri bo‘lib, pedagogik ahamiyatga egadir.

Oliy harbiy bilim yurtlari kursantlarida muloqot madaniyatini tarbiyalash muammolarini nazariy rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda ifodalanadi:

ijtimoiy yo‘naltirilgan-keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqoti;

guruhdagi predmetga yo‘naltirilgan-o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot-mehnat, ta’lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a’zolarining muloqoti;

shaxsiy muloqot-bir kursantning boshqa kursant bilan o‘z muammolarini ochish maqsadida o‘rnatgan munosabatlari; pedagogik muloqot pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida amalga oshiriladigan murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Yangi O‘zbekistonimiz oldidagi asosiy vazifalardan biri, qadriyatli munosabatlari har tomonlama kamol topgan bo‘lajak ofitserlarni tayyorlashda eng avvalo, kursantlarning tarbiyasi va ta’limi eng muhim masaladir. Kursantlar mamlakatimizning ertangi kelajagidir. Biz Yangi O‘zbekiston taqdirini ularga ishonib topshiramiz. Buning uchun kursantlar

zimmalariga yuklanayotgan murakkab vazifaning butun mohiyatini chuqur anglashlari, his qilishlari, unga munosib bo‘lish uchun hozirdanoq tayyorgarlik ko‘rishlari lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida quyidagi fikr va takliflarni aytishim mumkinki, kursantlarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda muloqot madaniyati kursantlar jamoalarini shakllantirish va rivojlantirishda, axloqiy qadriyatlarni tiklashda tarbiya, ta’lim sohalarining ahamiyati benihoya kattadir. Kursantlar jamoalaridagi qadriyatli munosabatlar ma’naviy, ma’rifiy va madaniy jihatdan barkamol bo‘lgan kursantlarning fidokorona, halol mehnati, muloqot madaniyati asosida ro‘yobga chiqadi.

Muloqot jarayonida kursantlar bir-birlari bilan ma’lumotlar almashib, o‘zaro ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to‘g‘riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Buning zamirida bashqa jamoalar, bo‘linmalar, harbiy qismlar bilan hamkorlik o‘rnatilib, jang sharoitida zudlik bilan bir birlarini anglashga, tushunib yetishga hamda o‘ziga yot bo‘lgan begona fikr va muloqotlar iskanjasida qolmasligini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori. 2018.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: Ж.II. Е-М/Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва бошқ.: ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: Ж.II. Е-М/Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва бошқ.: ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
4. Ғозиев Э.Ғ. Мулоқот психологияси. Т. 2001. – 134 б.
5. Петровский А. В. Психология и время. — СПб.: Питер, 2007. — 448 с.
6. Давлетшин М. Г. Умумий психология. Т. 2000. – 325 б.
7. Нуруллаева Ш. Ўқитувчиларнинг ўз устида ишлаши узлуксиз касбий ривожланишнинг асоси сифатида. Халқ таълими. 2022. №4. 93-98-б.
8. Nurullayeva Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari. Pedagogik akmeologiya. 2022 №1. 12-19-b.
9. Нуруллаева Ш.У. Бўлажак ўқитувчилар касбий тайёргарлиги моделида педагогнинг профессионал компетентлигини ривожлантириш йўллари. Таълимда узвий касбий ривожланишнинг жамият тараққиётидаги роли, ривожланиш масалалари: мақсад ва вазифалар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Қарши-2022.150-152 б.
10. Nurullaeva Sh. Modern pedagogical models of professional trining of future teachers in Uzbekistan. Excerpts from Uzbekistan. The special periodical journal of Uzbekistan writters and scholars hald in Egypt Alexandria University. Alexandria University, 2022. P. 95-97.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 372.8

Maxzuna ISMATOVA,
Samarkand davlat chet tillar instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: ismatovam@mail.ru

P.f.d.,dotsent U.Jumayev taqrizi asosida

KOUCHING TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mutaxassislik – oliy ta’lim darajasi, undan so‘ng mutaxassisning malakasi (darajasi) berilishi tahlil etilgan. Aniq mutaxassislik bo‘yicha magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari malaka talablari bilan belgilanadi. Shuningdek, ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda kouching texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etilgan. Bunnig uchun kouching tushunchasining mazmun-mohiyatini, uning turlari yoki tipologiyasini aniqlashtirish talab etiladi.

Kalit so‘zlar: Kouching, kouching yondashuv, mutaxassis, magistr, layf-kouching, biznes-kouching, psixoanalitik kouching, sport-kouching, akademik kouching, moliyaviy kouching, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha kouching, karer-kouching, ta’lim kouchingi, vokal kouching, shaxsiy kouching.

ПОНЯТИЕ КОУЧИНГА И ЕГО СУЩНОСТЬ

Аннотация

В данной статье анализируются специальность как уровень высшего образования и квалификация (уровень) специалиста. Требования к подготовке магистров по конкретной специальности определяются квалификационными требованиями к магистерским специальностям, утверждаемым уполномоченным государственным органом управления высшим образованием. Также рекомендуется использовать коучинговые технологии в подготовке специалистов по английскому языку. Для этого необходимо уточнить сущность понятия коучинга, его виды или типологию.

Ключевые слова: Коучинг, коучинговый подход, специалист, мастер, лайф-коучинг, бизнес-коучинг, психоаналитический коучинг, спортивный коучинг, академический коучинг, финансовый коучинг, коучинг здорового образа жизни, карьерный коучинг, образовательный коучинг, вокальный коучинг, персональный коучинг.

CONCEPT OF COACHING AND ITS ESSENCE

Annotation

This article analyzes the specialty as the level of higher education and the qualification (level) of a specialist. The requirements for master's training in a specific specialty are determined by the qualification requirements for master's specialties approved by the competent state body for higher education management. It is also recommended to use coaching technologies in the training of English language specialists. For this reason, it is necessary to clarify the essence of the concept of coaching, its types or typology.

Key words: Coaching, coaching approach, specialist, master, life coaching, business coaching, psychoanalytic coaching, sports coaching, academic coaching, financial coaching, healthy lifestyle coaching, career coaching, educational coaching, vocal coaching, personal coaching.

Kirish. Oliy ta’lim-ilm-fan-ishlab chiqarish o‘rtasida uzilishlar mavjudligi integratsiya ta’minlanishini taqozo etadi. Integratsiya jarayonlarini ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etish, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirish, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlashda kuzatish hamda amalga oshirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risi-da»gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi [1]. Mazkur konsepsiyada magistratura mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha qator vazifalar belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi Rustam Xolmurodov tomonidan magistrlar tayyorlash maqomiga juda zarur o‘zgartirishlar kiritilgani tahlil qilingan: “Tor ixtisoslashuvdan muayyan darajada voz kechildi. Bu yildan qabulda chet tili sertifikati mavjudligi talab etilmoqda. Ixtisoslik fanlaridan sinov o‘rniga, bakalavr diplomidagi natijalar hisobga olinishi inson omilini bekor qilib, bevosita adolatni ta’minlaydi. Bu, mubolag‘asiz, inqilobiy islohotdir. Bunday tartib, oliy ta’limning bakalavr bosqichida joriy imtihonlar haqqoniyligi ta’minlanganda, ta’lim sifatini ko‘tarishga jiddiy ta’sir qiladi, maktab o‘quvchilari va talabalarning chet tilini o‘rganishga munosabatini o‘zgartiradi. Ammo mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini yetarli darajada oliy sifatli mutaxassislar bilan ta’minlash, ilmiy-pedagogik sohaning kadrlar zaxirasini to‘ldirib borish uchun yuqoridagi - shubhasiz, muhim bo‘lgan chora-tadbirlarning o‘zi yetarli emas. Magistrlik darajasining mehnat maqomi jozibadorligi qonun bilan ta’minlanmasa, raqobat muhiti shakllanmaydi va kutilgan samarani bermaydi. Magistratura ta’limining davrga va bizning muayyan muammolarimizga munosib modelini qabul qilmasdan turib, ta’lim-tarbiyaning

barcha bosqichida qo‘yilgan maqsadga erishish mushkul. Bu aksioma emas, balki haqiqat. Ko‘p bosqichli oliy ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda talaba haqiqiy professional bilimni magistratura bosqichida yoki ish beruvchilar malaka oshirish tuzilmasida egallaydi” [6].

N.Isakulova izlanishlarida kouching superviziya amaliyotida mutaxassisning murabbiylik vaziyati va undagi munosabatlar, mutaxassis uchun xavfsiz joyni ta’minlash kerakli uqtirilgan. Barchamizga ma’lumki, murabbiy oliy o‘quv yurtidagi professor-o‘qituvchisinig kasbiy roli, uning talabalarni ta’lim olayotgan kishilar sifatida pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq kasbiy vazifadir. Binobarin, murabbiylik hatto katta yoshdagi kishilarga ham ko‘rsatsa bo‘ladigan darajadagi pedagogik qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Biroq oliy o‘quv yurtida ta’lim olish jarayonida bunday qo‘llab-quvvatlash talabannng hayotga jalb etilishining turlicha darajalarida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, talabaga birinchi kursda uning o‘qish sharoitlariga ko‘nikib ketishiga yordam beradi, talabaning turli vaziyatlarida maslahat beradi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mutaxassis (bitiruvchi mutaxassis) – maxsus o‘quv dasturini o‘zlashtirganidan keyin talaba tomonidan olingan malaka. Muayyan mutaxassisliklarda o‘z nomi bor (masalan, shifokor, farmasevt, kimyogar, xoreograf va boshqalar). Mutaxassislik – oliy ta’lim darajasi, undan so‘ng mutaxassisning malakasi (darajasi) beriladi. Boloniya jarayonida ishtirok etish qoidalari bilan bog‘liq holda, yaqin yillarda yagona Yevropa oliy ta’limi dasturida ishtirok etuvchi mamlakatlar universitetlariga abiturientlar uchun “mutaxassis” malaka darajasi o‘z faoliyatini to‘xtatadi, oliy ta’limning ilmiy darajalari qoladi: bakalavr, magistr [5].

Aniq mutaxassislik bo‘yicha magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari malaka talablari bilan belgilanadi. Magistr:

tanlangan mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga;

kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga;

oliy ta’lim muassasasidan keyingi ta’limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo‘yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olishga tayyorlanadi.

Magistr o‘z mutaxassisligi, ilmiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga muvofiq kasbiy faoliyatining quyidagi turlari:

ilmiy-pedagogik;

ilmiy-ijodiy;

ilmiy-tadqiqot va tajriba;

loyiha-konstruktorlik;

loyiha-texnologik;

ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek, bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo‘yicha ham shug‘ullanishi mumkin [2].

Mutaxassis bilim, mahorat va tajriba bilan insonni ma’lum bir sohada amaliyoti ta’lim orqali erishiladi. Norasmiy ravishda ekspert – bu keng tan olingan tushuncha bo‘lib, shaxsning mahoratiga adolat bilan baho berish, qaror qabul qilish shaxs. Mutaxassis tadqiqot, tajriba, kasb va ma’lum bir ta’lim sohasiga asoslangan. Mutaxassislar o‘zlarining mavzulari bo‘yicha maslahat olish uchun chaqiriladi, ammo ular har doim ham bir tadqiqot sohasi xususida kelisha olmaydilar [4].

Ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda kouching texnologiyalaridan foydalanish uchun kouching tushunchasining mazmun-mohiyatini, uning turlari yoki tipologiyasini aniqlashtirish talab etiladi.

Kouching (coaching inglizcha «trenirovka») – “kouch” deb nomlangan shaxs talabaga ma’lum bir hayotiy yoki kasbiy maqsadga erishishda yordam beradigan mashg‘ulot usuli hisoblanadi. Mentordan farqi kouching umumiy rivojlanish o‘rniga aniq belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilganda kuzatish mumkin. Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda kouch – trener hisoblangan. Ruscha termin sifatida ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, ingliz tilida uning paydo bo‘lish joy nomi bilan atalgan yuk transport vositasining nomidan kelib chiqqan (ilgari nemis tili orqali rus tiliga boshqa so‘z – kucher). Kouch tushunchasining birinchi marta 1830 yil atrofida Oksford universitetida ishlatilishi qayd etilgan, ya’ni jargonda kouch talabaga imtihonga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradigan shaxs deb nomlana boshlagan. “Kouch” so‘zi “odamlarni o‘z joyidan xohlagan joyiga ko‘chirish” ma’nosiga ega bo‘la boshladi. Sportda esa ushbu so‘zning 1861 yilda birinchi marta ishlatilishi qayd etilgan. Kouchingning rivojlanishiga aksariyat bilim sohalari, shu jumladan pedagogika, psixologiya (shu jumladan sport, klinik, ijtimoiy va sanoat), yetakchilik nazariyasi va boshqalar ta’sir ko‘rsatdi. 1990 yillarning o‘rtalaridan boshlab kouching alohida tuzilmaga aylandi, kasbiy uyushmalar paydo bo‘ldi, masalan, “Kouching assotsiatsiyasi”, “Xalqaro kouching Federatsiyasi”, “Yevropa mentor va kouching Kengashi” kabilar ta’lim standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etishdi [7].

Kouching – bu o‘zaro ta’sir usullaridan biri bo‘lib, unda trener (kouch) boshqa odam(mijoz)ga o‘z potensialini ochish va mahsuldorligini oshirishga yordam beradi. Kouching vazifalari quyidagilardan iborat:

biror kishiga xohlagan narsani o‘zgartirishga yordam bering va u xohlagan yo‘nalishda boring;

kompetentlikni oshirish, tanlov imkoniyatlarini kengaytirish va o‘zgarishlarga olib keladi [8].

Kouching – bu trener va mijoz o‘rtasidagi hamkorlik bo‘lib, unda trener mijozga uni o‘rgatmaydi, o‘rganishga yordam beradi. Bu shuni anglatadiki, inson o‘z maqsadiga qarab harakat qilishi va xohlaganicha, o‘z tempida, kasbiy qo‘llab-quvvatlashini his qilishi mumkin. Shu bilan birga, kouching o‘z mijozi muvaffaqiyatga erishmoqchi bo‘lgan hududning barcha nozikliklarini tushunishga majbur emas, u uchun muammolarni hal qilmaydi, balki mijozga o‘z salohiyatidan foydalangan holda o‘z-o‘zidan javob topishda yordam beradi. Kouching va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar esa sessiya deb ataladi. Sessiya davomida kouching odatda tinglaydi, ba’zan savollar beradi. Mijoz savollarga javob beradi va fikrlash jarayonida u o‘z maqsadlariga erishish uchun yechimlarni topadi. Odatda, bunday sessiyalarning ta’siri bir vaqtning o‘zida ikkita yo‘nalishni qamrab oladi: mijoz taraqqiyotga erishmoqchi bo‘lgan sohada ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi, shuningdek, hayotning umumiy sifati yaxshilanadi, motivatsiya va o‘ziga ishonch kuchayadi [8].

Tahlil va natijalar. Amaliyotda kouchingning ko‘plab turlari mavjud, ularning har biri insonning muayyan ehtiyojlariga javob beradi. Kasbiy kouching o‘z ichiga oladi, tinglash, so‘rab savollar, tushuntirish, qaysi mijoz nuqtai nazar o‘zgartirish va kerakli maqsadga erishish uchun yangi yondashuvlar ko‘rish metodlarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi tasnif bizga kouching kerakligini tushunishga yordam beradi (4-jadvalga qarang):

Ta’lim va tarbiyada kouching turlari quyidagilardan iborat:

individual – maslahatchi tomonidan olib boriladi;

boshqaruvchilik – tashkilotni rivojlantirish, xodimlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan;

guruhiy – qat’iy funksional munosabatlarsiz kishilar guruhiga qaratilgan;

bitta loyiha uchun qaratilgan;

tizimli – o‘zaro ta’sirini soddalashtirish, umuman manfaatlarni hisobga olish va har bir ierarxik bosqichda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lish uchun kuchli tizimli aloqalar mavjud bo‘lgan shaxslar bilan o‘tkaziladi [10].

Kouching psixologdan farqlash talab etiladi. Psixolog shaxs, uning rivojlanishi va mumkin bo‘lgan sharoitlar to‘g‘risida kasbiy bilimlarga ega. Mijoz uning uchun bemor bo‘ladi. Psixolog bolalikdagi shikastlanishlarni aniqlashga, hissiy muammolar, munosabatlarni o‘rganishga, vaziyatni yengil depressiyalar va boshqa og‘ishlar bilan barqarorlashtirishga yordam beradi. Agar u muammo yanada jiddiy terapiyani talab qilishini tushunsa u o‘z mijozini psixoterapevt yoki psixiatrga yuborishi mumkin [9]. Shuningdek, kasbiy kouching quyidagilarni bilishi shart:

uning ish metodologiyasini har bir mijozga moslashtiradi;

biror kishiga muammolarga o‘z-o‘zidan javob toppishga yordam beradigan savollar beradi;

mijozning potensialini ochishga yordam beradi, ammo buning o‘rniga buni qilmaydi;

samarali rivojlanish strategiyasi uchun vositalarni taklif etadi [9].

Ta’limda kouching texnologiyasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

shaxsiy yondashuv

ta’lim oluvchini qo‘llab-quvvatlash;

muvaffaqiyat tafakkurini shakllantirish;

uning kuchli tomonlarini aniqlash;

jarayonda ongli ishtirok etish va aniq natijalarga erishish.

Demak, mashg‘ulot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uning mazmuni talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga javob berishi zarur. Talabalar o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishlari uchun olgan bilimlari ular uchun shaxsiy mazmunga ega bo‘lishi kerak. Aksariyat o‘qituvchilar ta’limda kouching texnologiyasini amalga oshiradilar, darslar mustaqil ishlarni nazarda tutadi. Bunda kouching texnologiyalari yordam beradi:

auditoriyada mustaqil ish yoki ijodiy vazifalar;

o‘z-o‘zini tekshirish yoki o‘zaro tekshirish;

aqliy hujum, ochiq savollar;

xabardorlikni oshirish va motivatsiya [12].

Kouching ta’lim va tarbiyada qo‘llanilib keladigan maslahatchi, trening, ustoz kabi metodlardan farq qiladi. Ustoz metodi — bu tajriba almashish bo‘lib, ta’lim oluvchida kerakli malakani shakllantirishda amaliy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarining yechimiga qaratilgan aniq ishlash metodlarini o‘rgatish tushuniladi. Trening metodi – bu ta’lim oluvchilarda aniq malakalarni rivojlantirish bo‘lib, ishtirokchilar o‘zining muammolarini chetdan kuzatish, xatolarni to‘g‘rilash rejalarini tuzish, egallangan malakalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratib beradi.

Xulosa va takliflar. Kouching yosh mutaxassislarga shaxsiy, amaliy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar, shuningdek, mavzu va uslubiy sohada maslahat beradi, mustaqillikni mustahkamlaydigan, individual rivojlanish va o‘z kasbini tushunish bilan bog‘liq shaxsiy manfaatlar ustida ishlaydigan maslahat shakli hisoblanadi. Guruhli, jamoaviy (Team-Coaching), aralash (Blended Coaching) kouchinglar individual mashg‘ulotlarda asosan qo‘llaniladi, chunki u talabaning individualligiga qaratilgan. Muayyan holatlar bo‘yicha shaxsiy suhbatlar o‘zgarishlarni tushunish va o‘z-o‘zini bilishga hissa qo‘shishi kerak [11].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5847 son Farmoni. 2019 yil 8 oktabr.
2. Magistratura to‘g‘risida Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 36-son Qarori.
3. Isakulova N. et al. Supervision Method In Training A Specialist Or The Role Of Methodical Cooperation (On The Example Of Foreign Language And Literature Specialty) //Philology Matters. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. – С. 115-122.
4. Mutaxassis – Expert. Elektron resurs: Mutaxassis (wikiaro.ru). Murojaat sanasi: 15.04.2021.
5. Mutaxassis (bitiruvchi mutaxassis). Электрон ресурс: Mutaxassis (bitiruvchi mutaxassis) - Vikipediya (wikipedia.org). Мурожаат санаси: 02.04.2021.
6. Magistratura ta’limi – davlat boshqaruv kadrlarining poydevoridir // Xalq so‘zi. 2022 yil 6 avgust. № 168 (8230)
7. Коучинг. Электронный ресурс: Коучинг — Википедия (wikipedia.org). Дата обращения: 12.05.2021.
8. Коучинг: что это такое и как этому научится. Электронный ресурс: Коучинг: что это такое и как этому научится | Блог 4brain. Дата обращения: 12.05.2021.
9. Коучи: кто они, какие задачи решают и как правильно выбрат специалиста. Электронный ресурс: Кто такие коучи и что такое коучинг, в чём отличие от психолога и как отличит хорошего специалиста от шарлатана (mts.ru). Дата обращения: 13.06.2021.
10. Никулина Н.Н., Березина С.В., Ушаков И.И. Сущност и рол коучинга в образовании и воспитании // Образование. Наука. Научные кадры. – 2019. - № 3. Электронный ресурс: https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-i-rol-kouchinga-v-obrazovanii-i-vospitanii. Дата обращения: 18.08.2021. – С. 166.
11. Понятие "коуч-технологии" в образовании. Электронный ресурс: Понятие "коуч-технологии" в образовании (b17.ru). Дата обращения: 13.06.2021.
12. Технологии коучинга в образовании. Электронный ресурс: https://www.1napc.ru/aboutcoaching/v-obrazovanii.html. Дата обращения: 13.06.2021.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378

Baxodir KARIMOV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: boho_mss@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor Sh. Nurullayeva taqrizi asosida

FORMATION OF NORMATIVE AND METHODOLOGICAL AUTHORITY OF FUTURE SPECIALISTS

Annotation
This article discusses the specifics of the most important forms of cooperation between the higher education institution and the enterprise in the formation of all components of the normative-metrological competence of the future engineer.
Key words: Specialist, prospective engineer, authority, normative-metrological, labor market.

ФОРМИРОВАНИЕ НОРМАТИВНО-МЕТОДИЧЕСКОГО АВТОРИТЕТА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация
В данной статье рассматривается специфика важнейших форм сотрудничества вуза и предприятия в формировании всех составных компонентов нормативно-метрологической компетентности будущего инженера.
Ключевые слова: Специалист, будущий инженер, орган власти, нормативно-метрологический, рынок труда.

INTEGRATIV UZVIYLIK - BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI NORMATIV-METROLOGIK VAKOLATINI SHAKLLANTIRISH OMILI

Annotatsiya
Mazkur maqolada bo‘lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatning barcha tarkibiy qismlarini shakllantirish doirasida oliy ta’lim muassasasi va korxona hamkorligini tashkil etishning eng muhim shakllarining o‘ziga xos jihatlari haqida fikr bildirilgan.
Kalit so‘zlar: Mutaxassis, bo‘lajak muhandis, vakolat, normativ-metrologik, mehnat bozori.

Kirish. Ta’lim muassasasining vakolatga ega malakali mutaxassislar tayyorlanayotgan korxona bilan o‘zaro hamkorligi talabaning professional-motivatsion sohasini rivojlantirish, shuningdek, talabani oliy ta’lim muassasasida o‘qitish jarayonida talabalarni real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish tizimini joriy etishdan iborat. Oliy ta’lim muassasasining potensial ish beruvchi bo‘lgan sanoat korxonasi bilan o‘zaro hamkorligi “asosiy funksiyani bajarish - mehnat bozorini zarur miqdordagi va tayyorgarlik sifatiga ega mutaxassis xodimlar bilan ta’minlash” imkonini beradi. Bundan tashqari, ta’lim muassasasi uchun quyidagilar kabi qo‘shimcha imkoniyatlar ochiladi:

kasb-hunar tuzilmasi va kadrlar tayyorlash hajmini aniqlashtirish imkonini beruvchi mehnat bozori to‘g‘risidagi ma’lumotlardan doimiy foydalanish;

mutaxassislarni tayyorlash mazmuni bo‘yicha ish beruvchilarning talablarini hisobga olish: professional ta’lim standartlarini, o‘quv rejalarini, dasturlarini birgalikda ishlab chiqish;

zamonaviy iqtisodiyot sohasida ishlatiladigan uskunalarda talabalarning amaliyotlarini tashkil etish;

eng yangi uskunalar va texnologik jarayonlar bilan tanishish uchun o‘qituvchilarning muntazam stajirovkasini tashkil etish;

ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan test bo‘yicha mustaqil ekspert komissiyalari tomonidan mutaxassislar tayyorlash sifatini mustaqil baholash mexanizmini yaratish;

bitiruvchilarni ishga joylashtirish imkoniyatlarini oshiradigan muayyan korxona uchun mutaxassislarni maqsadli tayyorlash…" [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqsadga oliy ta’lim muassasasi va korxonaga yo‘naltirilgan ta’lim muammolarini hal qilish orqali erishiladi (ta’lim vazifalarini tartibga solish va hal qilish).

Oliy ta’lim muassasasi oldida turgan ta’lim vazifalariga quyidagilarni kiritamiz:

- ishlab chiqarish sohasining zamonaviy talablariga javob beradigan ta’lim mazmunini amalga oshirish (fanlarning o‘quv rejalari va ishchi dasturlarini tuzatish, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida professional faoliyatga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beruvchi o‘quv-professional vazifalar komplekslarini yaratish, ishlab chiqarish amaliyotining o‘zgaruvchan mazmunini ishlab chiqish);

- nafaqat federal davlat ta’lim standarti, balki zamonaviy mintaqaviy ishlab chiqarish talablarini hisobga olish imkonini beradigan bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlarni nazorat qilish va hisobga olish tizimini qo‘llash.

Korxona oldida turgan ta’lim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta’limning soha yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim mazmuni va texnologiyalarini tuzatish bo‘yicha takliflar kiritish;

- o‘qituvchilar va talabalarning tadqiqot faoliyati natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish.

Oliy ta’lim muassasasi va mintaqaviy sanoat korxonalarining o‘zaro hamkorligini amalga oshirish quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish ekskursiyalarini o‘tkazish;

- xalqaro standartlashtirish kuni, Butunjahon metrologiya kuni, Jahon sifat kuni korporativ tadbirlarini tashkil etish;

- ishlab chiqarish amaliyoti davomida bo‘lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatni shakllantirish;

- korxonaning yuqori malakali mutaxassislarini auditoriya mashg‘ulotlariga, talabalar bilan auditoriyadan tashqari ishlarda ishtirok etishga jalb etish;

-korxona negizida o‘qituvchilar va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Bo‘lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatning barcha tarkibiy

qismlarini shakllantirish doirasida oliy ta’lim muassasasi va korxona hamkorligini tashkil etishning eng muhim shakllaridan biri ishlab chiqarish amaliyotini amalga oshirishdir.

Talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti oliy kasb-hunar ta’limi asosiy ta’lim dasturining ajralmas qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi talabalarning nazariy ta’lim jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish, kasbiy mahorat, ko‘nikmalar va amaliy ish tajribasiga ega bo‘lishdir.

Ishlab chiqarish amaliyoti kelajakdagi muhandisni tayyorlashning integrativ shakli hisoblanadi, chunki talabalar uning davomida korxona tuzilishi bilan tanishadilar, mehnatni tashkil qilishni, korxona iqtisodiyotini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish va nazorat qilish jarayonlarini o‘rganadilar. Biz ishlab chiqarish amaliyotini “professional faoliyatning qonuniyatlari va tamoyillarini bevosita bilish, uni tashkil etish usullarini o‘zlashtirishni ta’minlash orqali professional bilimlarga asoslangan muayyan nazariy poydevorga tayangan professional ta’lim shakli” sifatida ko‘rib chiqamiz [3].

Ishlab chiqarish amaliyoti davomida bo‘lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatini shakllantirish uchun tayyorgarlik yo‘nalishlarining o‘quv rejalariga muvofiq dastlabki nazariy professional tayyorgarlikni ta’minlash zarur. O‘quv jarayoni talabalarning mashinalar, jihozlar, mexanizmlar, asbob-uskunalarni xavfsiz ishlatish qoidalari va talablarini, yong‘in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini majburiy o‘rganishni nazarda tutishi lozim. V. I. Baydenko, V. M. Jurakovskiy, A. A. Kirsanovning muhandislik va texnik professional ta’limga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida bo‘lajak mutaxassisning professional tayyorgarligini takomillashtirish yondashuvlari orasida amaliy yo‘naltirilgan yondashuv qayd etiladi[5].

Ishlab chiqarish amaliyotining asosi sifatida tegishli professional yo‘nalishdagi mintaqaviy sanoat korxonalarini jalb qilish kerak. Ta’lim muassasasi ishlab chiqarish korxonasi bilan birgalikda faoliyati normativ-metrologik vakolatlarning tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun prinsipial bo‘lgan korxonaning tarkibiy bo‘linmalarini belgilaydi; o‘tkazish muddatlarini muvofiqlashtiradi; ta’lim muassasasidan va korxonadan rahbarlarni tayinlaydi; har bir talaba tomonidan amaliyot dasturida nazarda tutilgan ishlarni mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish bo‘limlari bo‘yicha talabalarni ko‘chirish jadvallarini tuzadi.

Mutaxassislarni tayyorlashda turli darajadagi ta’lim tizimlari va ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyalashuvi va o‘zaro ta’siri muammolari bir qator tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida mutaxassisning professional malakasini shakllantirish bo‘yicha professional ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning pedagogik maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan [2]. Ushbu hamkorlikning asosida ishlab chiqarish sharoitida innovatsion texnik-ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishda o‘qituvchi, muhandis-texnik xodim va talaba faoliyatining integratsiyasi yotadi. Olimlar ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarning muayyan usullari (axborot-kommunikativ, sheriklik, tashkiliy-shartnoma) va turlari (birgalikda yashash, ko‘maklashish, hamkorlik) bo‘lajak mutaxassisning professional malakasini shakllantirishga yordam beradigan yoki to‘sqinlik qiluvchi muayyan ta’lim muhitining paydo bo‘lishini belgilashini isbotlashdi.

Xulosa. Normativ-metrologik vakolatni shakllantirish jarayonidagi ishlab chiqarish amaliyoti davomida talabalar tomonidan olingan nazariy bilimlar ifodalanadi, aniqlikni standartlashtirish, meyorlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha faoliyatning individual uslubi shakllantiriladi va takomillashtiriladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida normativ-metrologik vakolatlarning shakllanishini ta’minlashga qaratilgan quyidagi vazifalar aniqlandi:

- ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish va metrologik ta’minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash;
- normativ-metrologik vakolatni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish.

Bo‘lajak mutaxassislarni sifatli tayyorlash bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik vakolatini shakllantirishga yordam beradigan muayyan ta’lim muhitida ta’minlanadi. Binobarin, amaliyot bazalariga qo‘yiladigan talablarni belgilash kerak bo‘lib, ular:

moddiy rivojlanishning yuqori darajasi;

loyihalashtirish jarayonlarini muhim normativ-texnik hujjatlar bilan ta’minlash; ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnik va nazorat-o‘lchov uskunalari bilan ta’minlash;

yuqori malakali muhandislik-texnik xodimlarning mavjudligidir.

Shunday ekan, mazkur aspektlarni nazariy va amaliy jihatlarini to‘g‘ri analiz qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. - М.: Просвещение, 1990. - 141 с.
2. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вуза как необходимый этап проектирования ГОС ВПО но вого поколения: Методическое пособие [Текст] / В.И. Байденко. -М: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. -72 с.
3. Жураковский В.М. Высшая техническая школа на рубеже веков // Высшее образование в России. - 1999. - № 1 . - С.2-8.
4. Кузнецов В.В. Введение в профессиональнопедагогическую специальность: учеб. пособие для студ. Высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007. - 176 с.
5. Попов А.В. Формирование инженерной компетентности будущего специалиста во взаимодействии ВУЗа и предприятия: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. -Оренбург: ИПК ОГУ, 2006. - 21 с.
6. Профессиональная педагогика: учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. -2-е изд., перераб. и доп. [Текст] - М.: Ассоциация «Профессиональное образование», 1999.- 904 с.
7. Karimov B.S. Talabalarda meyoriy-metrologik kompetensiyalarni shakllantirish darajalari va ko‘rsatkichlari . –Xalq ta’limi, №6-. 61 б

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 796.011. 3 :5:012.33

Kulmurat KENJABAYEV,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
E-mail: qulmuratkenjebaev@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti p.f.b.f.d., professor v.b. K.Muxammadiyev taqrizi asosida

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES AND THE ESSENCE OF THE FORMATION OF PATRIOTIC DUTY TRAINING IN YOUTH

Annotation

This article describes the pedagogical approach to educating young people in the spirit of patriotism in our country and the work carried out in connection with this, the forms and methods of education used in the preparation of young people in the spirit of patriotism. At present, it is important to increase the readiness of the younger generation for military service, which has become a national tradition and the most important problem of the day.

Key words: Youth, military, patriotism, upbringing, upbringing-training, method, activity, improvement, national development, tradition, training, globalization, communication, technology, concept, independence, homeland, legal, filed, democracy, society.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И СУЩНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДОЛГА В МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье описаны педагогический подход к воспитанию молодежи в духе патриотизма в нашей стране и работа, проводимая в связи с этим, формы и методы воспитания, применяемые при подготовке молодежи в духе патриотизма. В настоящее время важно повысить готовность подрастающего поколения к военной службе, что стало национальной традицией и важнейшей проблемой современности.

Ключевые слова: Молодежь, военнослужащие, патриотизм, воспитание, воспитание-обучение, метод, деятельность, совершенствование, национальное развитие, традиция, обучение, глобализация, общение, технология, концепция, независимость, Родина, правовое, поле, демократия, общество.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedogogik yondoshuv yo‘llarini shu bo‘yicha Pespublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ishlatiladigan ta’lim-tarbiyaning shakli hamda usullari to‘g‘risida yozilgan. Hozirgi kunda yoshlarni harbiy ta’lim-tarbiyaga, harbiy o‘quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash, ularning milliy qadriyatlar va an’analari masalalari kunning eng dolzarb masalalarilan biriga aylanib ulgurgani yosh avlodning harbiy xizmatga tayyorgarligini oshirish va yaxshilash nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, harbiy, vatanparvarlik, tarbiyalash, ta’lim-tarbiyaning, usullar, faoliyat, yaxshilash, milliy qadriyatlar, an’analar, tayyorgarlik, globallashuv, axbopot-kommunikasiya, texnologiyalar, Konsepsiya, o‘zgarishlar, Vatan, huquqiy, fuqarolik, demokratik, jamiyat.

Kirish. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng asosiy diqqat-e’tibor milliy qadriyatlar va an’analarni tiklash va ularni hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish, Vatanga, o‘z xalqiga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, Vatan himoyasi uchun fidoiy bo‘lish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish, milliy o‘zligini anglash va harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini yoshlar ongiga singdirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlashda asosi ma’naviy, axloqiy, puhiy jismoniy va harbiy tarbiya bilan bog‘liq hisoblanadi. Yoshlarini harbiy vatanparvarlik rruhida tayyorlashning nazariy va amaliy asosi esa O‘zbekiston respublikasining Mudofaa doktrinasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 18 dekabpda qabul qilingan Senat tomonidan 2017 yil 20 dekabpda ma’qullangan. O‘zbekiston Pespublikasining 2018 yil 9 yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar va ularning milliy armiya hamda mamlakat fuqarolari hayotida tadbiq etilishi, shu jarayonda olib borilayotgan harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini tashkil qiladi.

Prezidentimiz SH.M. Mirziyoevning “Har qanday davlat siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi o‘zining asosini umumvatanparvarlik tarbiyasiga asoslab olib boradi va uning tapkibiy qismi hisoblanadi” deb ta’kidlagan fikrlarini vatanimiz yoshlari qalbiga singdirib borishimiz lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixga nazar solsak, sobiq sho‘ro davrdagi harbiy qismlarda nosog‘lom muhit, adolatsizlik yosh harbiy xizmatchilar ongida o‘rnashib qolgani va ularning ota-onalarda harbiy xizmatga nisbatan salbiy fikк shakllanib ulguкgan. Qolaversa, turli ittifoqdosh pespublikalardan harbiy xizmatga chaqirilgan yigitlarga harbiy texnika sirlari yuzaki o‘rgatilgan, o‘zlarini urush holatida qanday tutishlari va harakat qilishlari bo‘yicha mashg‘ulotlar olib nomigagina olib borilgan.

Demak, sobiq sho‘ro davridagi harbiy askarlarga nisbatan, qopa ishchi, sifatida qaralgan, ularda harbiy xizmatga qiziqish, fidoiylik ko‘rsatish singapi tuyg‘ular sundirilgan. Harbiy xizmatni o‘tab, uyga qaytguncha milliy askarlar harbiy stpategiya va taktika, harbiy texnika va texnologiya sirlarini chuqur o‘rgatilmagan.

Hozipgi milliy mustaqil armiyamizda xizmat qilish jarayonlari esa sobiq sovet armiyasining butunlay aksi bo‘lib, ular o‘ptasidagi fapq-tafovut alohida ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, harbiy sohadagi o‘zgarishlar qurilish bunyodkoplik ishlari sohasigi ppinsipial o‘zgarishlar, yangiliklardan yosh va bo‘lg‘usi askarlarda harbiy xizmatga nisbatan juda katta qiziqish

uyg‘otmoqla. Hozirgi yoshlarimiz milliy armiyamizning maqsad va vazifalarini biladilar, harbiy qurollardan, harbiy texnikadan qanday foydalanish va ularni urush holatida qanday ishlatish sirlarini o‘rgananayotganligi armiyada sog‘lom muhit yaratilganligidan dalolat berib, bu sohaga nisbatan muay’yan tartib-intizom, eng asosiysi, hurmat ehtirom ortganligidan dalolat beradi.

Bu o‘z navbatida, harbiy pedagogika fanining prinsipial masalasi bo‘lib, ular yosh ongi va shuurida harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga oid malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga yopdam beradi. Shuningdek ular harbiy pedagogika va ijtimoiy pedagogika fanining uzviy va asosiy qismlaridan bipi bo‘lib, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini belgilab bepadi va harbiy xizmat davrida tarbiyaviy burilishlarga samarali ta’sir ko‘rsatdi va ko‘rsatib kelmoqda (1-rasm).

1-rasm. Harbiy, jismoniy va jangavor tayyorgarlik tarbiyasi

Jadvalda ko‘rsatilgan pedagogika fani sohalarining majmuasi va ularning hamkorlikda harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltirilishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi yoshlarning harbiy xizmatga o‘z hohishi bilan borishi, qolavepsa, ota-onalarning o‘z farzandlarini harbiy xizmatga yuborish uchun sayi hapakatlari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha, harbiy islohotlar to‘g‘ri yo‘lni topganini, tapg‘ibot-tashviqot ishlarning haqqoniyligini, so‘z bilan amaldagi ishlarining birligini, qolaversa, milliy Qurolli Kuchlarga nisbatan [alq, hurmati va e’tiborning naqadar yuksak dapajaga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Ta’kidlash lozimki, milliy armiyamizda islohotlarning o‘tkazilayotganligi, unga nisbatan yoshlar va halqning ijobiy qarashidagi pedagogik xususiyatlar asosini tahlil qilish, tadqiq etish va umumlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu tadqiqot yoshlarga harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi tub burilishlar va ularni mohiyatini aniqlash va ko‘rsatib berishga imkon yaratdi.

Hozirgi kunda asosan harbiy ta’lim-tarbiyaga, harbiy o‘quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash, ularni milliy qadriyatlar va an’analar asosida qurish va moddiy mablag‘ bilan ta’minlash masalalari kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu o‘z navbatida yosh avlodning harbiy xizmatga tayyopgarligini oshirish va yaxshilashni nazarda tutadi. Ayniqsa, bu sohaga daxildor bo‘lgan qarorlar harbiy xizmatchilarning oilalariga muayyan ijtimoiy va huquqiy kafolatlarning, berilishi, harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi armiya bilan oilalar o‘rtasidagi tarbiyaviy aloqalarning muvofiqlashtirishga ta’sir ko‘psatadi.

“Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qildi: 1992 yil 3 iyulda qabul qilingan “Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, № 10, 398-modda) o‘zgarishlar va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi va 2001 yil 11 may, 211-II-son O‘zbekiston Respublikasining qonuni mudofaa to‘g‘risida (yangi tahriri) qabul qilindi.

Bunda yoshlarni harbiy xizmatga chaqirishdan oldin o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar nazarda tutilgan bo‘lib, u ajdodlarimizning yigitlarni harbiy xizmatga – askarlikka chaqirish va qabul qilish talablariga mos keladi. Jumladan, harbiy qurollardan yaxshi foydalana bilish (qilichbozlik, kamonbozlik, nayzabozlik va shu kabilar) - hozirgi zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlash, jismoniy jihatdan baquvvat, kuchli va sog‘lom bo‘lishi kabilar.

Shuningdek, mazkur yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlashga qaratilgan Qonun va qonunosti xujjatlarda yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ta’limiga maxsus majburiy fan sifatida qapar, uni umumta’lim maktablarida, akademik litseylar, kasb-xunar kollejlarida harbiy rahbarlar tomonidan olib borilishi va o‘qitilishi ko‘rsatilgan. Qolaversa, unda Mudofaa vazirligining talablari harbiy tayyopgarligi ustidan nazorat qilishi, o‘quv yurtlarida o‘quv markazlari, harbiy kafedralar boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari oliy o‘quv yurtlarining rektorlari bilan kelishgan holda tajribali ofitserlardan tayyorlash ta’kidlangan.

Fikr yuritilayotgan va tahlil qilinayotgan xujjatlarda harbiy o‘quv yurtlari tinglovchilari harbiy xizmatni O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri tomonidan tasdiqlangan “Mudofaa vazirligiga qarashli oliy harbiy o‘quv yurtlari to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari umumqo‘shin nizomlarida belgilab berilgani qayd qilingan.

Qonunda ta’kidlanganidek, yoshlarni harbiy vatanparvarlik puhida tarbiyalashda milliy bupilishlarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan Respublika halq ta’lim vazirligi va Oliy hamda o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasidagi integrasiyaning mustahkamlash zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 29 dekabridagi Qonunga muvofiq “14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni” [29] deb e’lon qilindi.

Garchi harbiy xizmatchilarning, harbiy xizmatga chaqiriluvchilar va butun o‘zbek halqining olqishiga sazovor bo‘ldi, bu milliy armiyaga nisbatan faxr va iftixor tuyg‘usidir. Bu tuyg‘u yoshlarga milliy g‘ururni shakllantirish va harbiy xizmat odobini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, Vatanni himoya qilish barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Demak bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo‘lgan milliy armiyamiz tomonidan xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlashda olib borayotgan xizmatini munosib baholash hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Armiya va xalq – bir tanu bir jon!” degan olijanob g‘oya va amaliy harakat barcha bo‘g‘indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharafli burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi” deb aytgan gaplarida ham Qurolli Kuchlarimizning xalq bilan har qachongidan ham yaqinligini anglashimiz mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida dunyoning turli joylarida keskin tus olayotgan vaziyatda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavf-xatarlari barrchamizni ogoh bo‘lishga chaqiradi va Qurolli kuchlarimizdan esa yuqori darajadagi jangovar qobiliyatni mustahkamlashni talab etadi. So‘nggi yillarda davlatimizda harbiy-siyosiy masalalarda ham tubdan islohotlar amalga oshirilib, milliy armiyamiz har qanday tahdidlarga munosib zarba bepadigan jangovor qudrati yildan yilga oshib bormoqda.

Bundan tashqari, har bir harbiy xizmatchining bilimi, malakasi hamda ruhiy tayyorgapligi oshirilib borilmoqda. Ularning oilalariga munosib sharoitlar yaratish maqsadida imtiyozli kreditlar asosida ko‘p qavatli uylar, farzandlarini oliy ta’lim muassasalariga davlat grandi asosida o‘qishga qabul qilish, harbiy shaharchalarni obod qilish hamda zamonaviy infratuzilma barpo etish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

14-yanvar kuni esa mamlakatimizda faqatgina harbiylarimizgina emas, balki bapcha yuptdoshlarimiz ham tinchlik va osoyishtalik bayrami kuni sifatida keng nishonlashmoqda.

Muqaddas islom dinida “Ikki ko‘z egasini do‘zax otashi kuydipmas: biri – Allohning azobidan qo‘r qib yig‘lagan ko‘z, ikkinchisi – Alloh yo‘lida poyloqchilik qilib bedor bo‘lgan ko‘z” (Imom Tepmiziy rivoyati) deb rivoyat qilingan Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam

hadislaridan ham shuni anglash mumkinki, Vatan himoyasi yo‘lida olib borilayotgan har qanday xizmat savobli amallar qatoriga kiradi.

Darhaqiqat, harbiy vatanparvarlik puhida tarbiyalash ishlarini nafaqat yoshlar, balki keng xalq ommasi orasida ham olib borish zapup. Chunki xalq milliy armiyamizning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular himoyaning xalqchil usullarini yaxshi bilishadi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga, harbiy – pedagogika, bag‘ishlangan g‘oyalar majmuasi deb aytish lozim. Xozirgi tahlikali zamonda yoshlarni harbiy vatanparvarlik puhida tarbiyalash harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi tub burilish va buyuk o‘zgarishlar va ularning mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilishi zamon talabiga aylangan.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining yaxlit bip dialektik uyg‘unlikda olib borilishi ijtimoiy-pedagogik va harbiy-pedagogik xapakterga egadir. Bu harbiy tarbiya va harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini belgilab beradi.

Yurtboshimiz harbiy xizmatni harbiy kasb dapajasiga ko‘tarish ustivop masala qilib quydi. Chaqiriqqa qadar yoshlarni tayyorlash harbiy kasb pedagogikasining asosi hisoblanadi. Hozirgi yoshlar harbiy xizmatni o‘tash jarayonida, yoki, harbiy xizmatga tayyorgarlik davrida (akademlitseylar, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlarining talabalari, harbiy bilim yuptlarining tinglovchilari) harbiy xizmat kasbini egallashga intilayotganlari va shu kasbni tanlashlari zaminida harbiy vatanparvarlik g‘oyasi va tarbiyasining naqadar yuksak darajada ekanligini bildiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 13 yanvar kuni O‘zbekiston Qurolli kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan bayram tabrigida soha xodimlariga qarata yo‘lladi

“Dunyoda yuzaga kelgan hozirgi murakkab vaziyatda Vatanimiz mustaqilligi va suvepenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta’minlash, eng qimmatli boyligimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini barchamiz albatta chuqur anglaymiz.

Aynan shuning uchun ham biz 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot stpategiyasida yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli kuchlarimizni rivojlantipishni ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgiladik.

O‘tgan yili harbiy qismlarda ilk bor “Amip Temup jangovar bayrog‘i uchun” musobaqalar bo‘lib o‘tdi. Qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, harbiy an’analarni yanada mustahkamlash, buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur, bilimli va jismonan baquvvat Vatan himoyachilarini tarbiyalashda ushbu musobaqalar beqiyos ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda azmu shijoatli askarlarimiz xalqapo maydonlarda o‘tkazilayotgan ko‘plab nufuzli harbiy musobaqalarda ham faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston harbiylari Xalqaro armiya o‘yinlari, “Kembriya patruli” va boshqa yirik harbiy-spopt musobaqalarida bip necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi.

Yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada o‘tgan yili mamlakatimiz bo‘ylab “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar hapakatini tashkil etganimiz hamda bapcha umumta’lim maktablarida mazkur hapakatning 20 mingdan ziyod o‘quvchi yoshlarni qamrab olgan guruhlari tuzilgani fapzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotganini ta’kidlash lozim.

Bugungi kunda butun jahonda, jumladan, bizning mintaqamizda, bevosita chegaralarimiz yaqinida tupli tahdid va xatarlar tobopa kuchayib bormoqda. Dunyoda po‘y berayotgan gibpid xapakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli kuchlarimizning jangovap harakatlar japayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qapshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

Ma’lumki, biz 2023 yilni mamlakatimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qildik.

Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma’naviy salohiyat O‘zbekiston Qurolli kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur. Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yengilmas sapkardalarimiz jasorati, ularning “Bilagi zo‘r – birni yengar, ongi va yuragi zo‘r esa – mingni” degan dono o‘gitlari bizga aynan mana shunday hayotiy haqiqatni uqtiradi.

Shu ma’noda, harbiy ta’lim va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik puhida, milliy o‘zligimiz, ezgu qadpiyatlarimizga sadoqat puhida tarbiyalash tizimini yanada takomillashtipish bapchamizning eng muhim vazifamizdip.

Yoshlarimizni bugungi axborot makonida mavjud tahdidlardan himoya qilish, ularda yot va zararli g‘oyalarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni vatanparvarlik puhida tarbiyalash bopasidagi amaliy ishlarimiz samaradopligini oshirishimiz zarur.

Tabiiyki, ushbu vazifalarni bajarishda “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!” degan tamoyildan kelib chiqib, harbiy-ma’muriy sektoplar va keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega”.

Pespublika Qurolli Kuchlari, harbiy xizmat to‘g‘risida yurtboshimiz chiqargan Farmonlarni, hukumat qarorlarini, Pespublika Qonunlarini o‘rganish va tadqiq etish natijasi bugungi kunda yoshlarni harbiy vatanparvarlik puhida tarbiyalash vazifalarini belgilab olishga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi (2- rasm).

2-rasm. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining vazifalari

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, harbiy xizmat va Qurolli Kuchlarga doip Ppezident Farmonlari, O‘zbekiston Pesrublikasining Konstitutsiyasi va “Mudofaa to‘g‘risida”, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”, “Muqobil xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlar va boshqa qarorlar hamda harbiy doktrina O‘zbekistonda harbiy vatanparvarlik tarbiyasida tub burilishlar bo‘lishining asosini tashkil qilib, ular pedagogika va harbiy pedagogika fanlarining ravnaqiga juda katta ta’sip qilgan holda harbiy vatanrarvarlik tarbiyasining ma’no-mazmunini va mohiyatini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23-fevlaldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-son Qarori.
3. Aminov B., Rasulov T. Vatan-yurakda javoxir. – T.: “O‘qituvchi”. 2001.-231 b.
4. Amir Temur saboqlari. – T.: “Sharq”, 2001. -62 b.
5. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. – T.: “Fan”, 1990.- 168 b.

6. Buniyozov Ziyo. Anushtegin Xorazmshoxlar davlati, (1097-1231). (Ashraf Axmad va Maxkam Mahmud tuzilmasi) – T.: F.Fulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1998.- 8-12 b.
7. Barkamol avlod orzusi. / Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Axliddinov, to‘ldirilgan 2-nashri /. – T.: “O‘zbekiston milliy enseklopediyasi”, 200.-248 b.
8. Vatan himoyasi bo‘rch. – T.: “O‘zbekiston”. 2001, 31-32 6.
9. Vatanimga xizmat qilaman: Askar qo‘shiqlari / Tuzuvchi va ma’sul muxarrirlar; H.Raximov, N.Narzullayev /. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi g‘alq merosi nashriyoti, 2001. – 80 b.
10. Diniy ekstremizm va fundamentalizm: “tarixi, moxiyati va bugungi havfi” / tuzuvchilar: F.Hotamov, M.Lofasov, A.Umarov. – T.: F.Fulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2000. – 94 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 613.6.02:799+159.923.3

Galina KOZLOVA,
Farg‘ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti o‘qituvchisi

Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent O.T.Nazirov taqrizi asosida

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish va uning ahamiyatli jihatlari tadqiq qilinadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning pedagogika fanlari doirasidagi vazifasi, kadrlar tayyorlash metodikasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, talaba, jismoniy ta’lim, metodika, mashg‘ulot, iroda, konsepsiya, irodaviy sifatlar, ko‘nikma, jismoniy tayyorgarlik, konseptual xususiyat.

РАЗВИТИЕ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье исследуется развитие волевых качеств у будущих преподавателей физической культуры на основе компетентностного подхода и его значимые аспекты. При этом анализируется задача развития волевых качеств у преподавателей физической культуры в рамках педагогической науки, методика подготовки кадров.

Ключевые слова: Инновация, студент, физическое воспитание, методика, обучение, воля, понятие, волевые качества, умение, физическая подготовка, концептуальный характер.

DEVELOPMENT OF VOLITIONAL QUALITIES IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON A COMPETENCY APPROACH

Abstract

This article examines the development of volitional qualities and its significant aspects in future physical education teachers on the basis of a competency approach. At the same time, the task of the development of volitional qualities in teachers of physical education in the framework of pedagogical sciences, the methodology of training personnel were analyzed.

Key words: Innovation, student, physical education, methodology, training, will, Concept, volitional qualities, skills, physical fitness, conceptual feature.

Kirish. Jahonda oliy jismoniy ta’lim tizimini modernizaitsiyalash, unga innovatson yondashuvlarni olib kirish, shu bilan birga pedagogik jarayonda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining jismoniy kompetentligini shakllantirish bilan birga ularda irodaviy sifatlarni ham rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa oliy jismoniy ta’limda talabalarning irodaviy sifatlari – jasroart, maqsadga intilish, qat’iyatlilik, botirlik, intizomlilik, sobitlik, chidamlilik, majburiyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish va shu asosda ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish zarurati ortib bormoqda. Shu bois bugungi zamonaviy pedagogikada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida, sport ustalarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ularda yuksak marralarga erishish qat’iyatini, sabotini va chidamliligini yuzaga chiqarish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Dunyoning ilg‘or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimini takomillashtirish, bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislariga professional kasbiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish va muvvafaqiyatga erishishlari uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni berish bilan birga irodaviy sifatlarni rivojlantirishning innovatsion tartibotini yaratishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida jismoniy va ruhiy-irodaviy sifatlarni integral rivojlantirish metodikasini yaratishga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarda kasbiy faoliyatida yuksak natijalarga erishish, qat’iyatli, chidamli va matonatli o‘quvchilar, sportchilar va lider shaxslarni tarbiyalash tizimining nazariy asoslari muntazam takomillashtirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham “yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”ga doir vazifalarni belgilab olinishi mamlakatimizda bo‘lajak kadrlarda jismoniy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish zaruratini asoslaydi. Bu esa bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish, jismoniy ta’limga jismoniy va irodaviy sifatlarni integral rivojlantiruvchi tizim sifatida munosabatni shakllantirish talab etilmqoda. Shu bois, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qiutvchilarida irodaviy sifatlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga ehtiyoj ham ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-oktabrdagi “O‘quvchi va talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 864-son Qarori, O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 apreldagi “Davlat ta’lim

muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipotiza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlantirishga doir umummadaniy, metodik, umumkasbiy kompetensiyalarning integrativ, tashkiliy, diagnostik funksiyalari va ijtimoiy-amaliy komponentini takomillashtirish;
- oliy jismoniy ta’limda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jarayonlari ijodiy-irodaviy jismoniy faoliyatga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy elementlar (integrativ yondashuv, loyihalashtirish, texnologiyalashtirish) uchun jismoniy mashq va topshiriqlar, vaziyatli mashqlar majmuini ishlab chiqish asosida takomillashtirish.
- bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish omillari (shart-sharoit, tizimli jismoniy mashq va topshiriqlar, doimiy muloqot va munosabatlar, hamkorlikdagi faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash) jismoniy-irodaviy ko‘nikmalar va kasbiy-pedagogik mezonlarning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish asosida aniqlashtirish;
- bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish modelining amaliy-texnologik komponentiga psixodiagnostik, rivojlantiruvchi, konsultatsion, korreksion metodlarni oqilona qo‘llashning natijakorligi va diagnostik tizim (bosqichlari, mezonlari, vositalari)ning samaradorligi oliy jismoniy ta’limda jismoniy-irodaviy sifatlarni rivojlantiruvchi innovatsion jarayon va sog‘lom muhit barqarorligiga bog‘liqligini asoslash.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda belgilangan vazifalar Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar davomida hal etildi. Respondentlar sifatida Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 1, 2 va 3-bosqich talabalari tanlab olindi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhidagi talabalarga “Jismoniy-irodaviy sifatlarni o‘stirish metodikasi” fanini bo‘yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba yakunidagi umumiy ko‘rsatgichlari

Guruhlar	Talabalar soni	Javoblar		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba guruhi	50	27	13	10
Nazoratguruhi	49	11	27	11

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Jismoniy-irodaviy sifatlarni o‘stirish metodikasi” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasidan foydalanishda chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlari bo‘yicha harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishganligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari tajribada qo‘llanilgan mashqlar to‘plamining samaradorligini tasdiqladi. Pedagogik ta’sir tajriba guruhida ko‘rsatkichlarning samarali o‘sishini ta’minladi. Bu fakt kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish samaradorligini oshirishi haqidagi gipotizani tasdiqladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. –Б. 40.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3160-сонли “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги Қарори. // Халқ сўзи. 2017 йил 28 июль.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори./ Халқ сўзи. 2017 йил 16 май.
6. Вазирлар Маҳкамасининг “Илмий-инновацион ишланма ва технологияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” 24-сонли Қарори. Халқ сўзи. 2018 йил 13 январь.
7. Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли Қарори. “Халқ сўзи” газетасининг 2017 йил 6 июндаги 111 (6805)-сони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3907-сонли Қарори./ Халқ сўзи 2018 йил 15 август.
9. 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2019 йил 14 февраль.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4306-сонли Қарори. / Халқ сўзи. 2019 йил 4 май.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони. // https://lex.uz/docs/4545884

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 371+378.091.212:305+37.02

Baxtixon QURBONOVA,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail:baxtixon78@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor O ‘.Asqarova takrizi asosida

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish, shuningdek, milliy axloq tarbiyasida ma’naviy-ruhiy, milliy nafosat va jismoniy tarbiya ham ta’lim jarayonida ustuvor o‘rin egallashi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: hamkorlikda o‘qitish, mantiqiy fikr yuritishga yo‘naltirish, birgalikdagi faoliyat, pedagogik hamkorlik, hamkorlik muhitini tashkillash.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА И ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются инновационные технологии подготовки студентов к общественной жизни на основе педагогики сотрудничества и их совершенствование, а также приоритет духовности, национальной эстетики и физического воспитания в процессе формирования национальной нравственности.

Ключевые слова: совместное обучение, ориентация на логическое мышление, совместная деятельность, педагогическое сотрудничество, организация среды сотрудничества.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR PREPARING STUDENTS FOR SOCIAL LIFE BASED ON THE PEDAGOGY OF COOPERATION AND THEIR IMPROVEMENT

Annotation

This article discusses innovative technologies for preparing students for public life based on the pedagogy of cooperation and their improvement, as well as the priority of spirituality, national aesthetics and physical education in the process of forming national morality.

Keywords: co-education, orientation to logical thinking, joint activity, pedagogical cooperation, organization of the environment of cooperation.

Kirish. Bugungi davr talabalarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga talabani ijtimoiy hayotga tayyorlash orqali ularning pedagogik relaksatsiya (pedagogik relaksatsiya – ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba, tarbiyalanuvchi)larning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash[2])sini tiklash muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Zero, K.Hoshimov inson faqatgina o‘zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilishi kerak[8], deb yozadi pedagogiki tarixi kitobida. Darhaqiqat, jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlash dars samaradorligini oshiribgina qolmay, insonlarni bir-biriga nisbatan mehrli qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida esa bevosita hamkorlikka yo‘naltirilgan pedagogikaga tayanish – shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning zamonaviy texnologiyalarini faoliyat davomida qo‘llash, zamonaviy muhitda ta’lim oluvchida birgalikda ishlashga yo‘naltirilgan jamoaviylik, o‘z tengdoshlarining aqliy hamda axloqiy fazilatlari bilan to‘laqonli faxrlanish, jamoa tarkibida o‘zining munosib o‘rniga egaligi bilan g‘ururlanish tuyg‘usini tarbiyalash, uni jamoa a’zolari bilan birgalikda faol bilim olishga o‘rgatish demakdir. Ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning istiqbolli, ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ularning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlanishini ta’minlashdir. Milliy axloq tarbiyasida ma’naviy-ruhiy, milliy nafosat va jismoniy tarbiya ham ta’lim jarayonida ustuvor o‘rin egallashi lozim. Bunda o‘quv materiali shaklida berilgan ta’limiy matnlar, didaktik mashqlar, o‘quv topshiriqlari yordamida ta’lim oluvchilarga turli shaklda axloqiy-ma’naviy tarbiya va milliy nafosat me’yorlari, umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi[3].

O‘zaro hamkorlik - bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorligi. Ko‘p omillilik ko‘plab obyektiv va subyektiv omillarning namoyonidir[5].

Ta’lim oluvchilarining obrazli tafakkur qilish imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni birgalikdagi faoliyatni vujudga kelish jarayoni bilan tanishtirish kerak. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar hamkorlikka kirishish yo‘llari va usullari bilan yaqindan tanishadi. Ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalarini boyitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar so‘nggida ular bilan yakunlovchi xarakterdagi tahliliy suhbat o‘tkazish talab qilinadi.

Ta’lim mazmunining muammoli o’qitish va pedagogik hamkorlik printsiplariga asoslanganligi, o’quv jarayoni ishtirokchilari orasida o’zaro dialog muhitining ta’minlash lozim [4].

Hamkorlikdagi ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilarning do‘stlashishi, bir-birini tushunishi, muloqotga kirishishlari uchun zamin hozirlashi kerak. Ta’lim oluvchilar o‘zaro baland ovozda gapirmasliklari, bir-biriga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lish, zarur vaziyatlarda o‘zlarini tuta bilish va xatti-harakatlarini nazorat qilishni ta’minlashi muhim. Ta’lim oluvchilarda hayotiy tajribaning etishmasligi tufayli ular orasida ishchan, do‘stona muloqot o‘rnatish murakkab kechadi. Bunda o‘qituvchi ta’lim oluvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va qo‘llashi, ularning individual

xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi va har tomonlama o‘rganishi kerak[4].

Hamkorlikdagi pedagogik vaziyatni vujudga keltirishda o‘qituvchi, birinchi navbatda o‘yin usulidan samarali foydalanishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi ham, ta’lim oluvchilar ham zarur shaxsiy sifat va ko‘nikmalar bilan qurollangan bo‘lishlari kerak. Shunda ular vaziyatlarga ijobiy yechim topa oladilar.

Pedagogik hamkorlik jarayonida ta’lim oluvchilarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko‘tarinkilik, quvonch, do‘stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchanlik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko‘maklashish, kechira olish, mas’uliyatlilik, haqgo‘ylik, bag‘rikenglik, toqatlilik, tushunish kabilar kuzatiladi. Mashg‘ulotlar yakunida ta’lim oluvchilar bir-birini yaxshi bilganliklari, yaqindan do‘stlashganliklari, o‘zlari haqidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘lganliklari, yaxshi sifatlarni namoyon qilganliklari, atrofdagilarning o‘zlariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlaganliklari, o‘zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari, ijobiy hamkorlik muhitiga ega ekanliklari, o‘zlari va sinfdoshlariga nisbatan ishonch hissini tuyganliklarini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Hamkorlikdagi ta’lim jarayonida o‘qituvchilar quyidagi bir qator vazifalarni ham samarali echishga intilishlari lozim. Bunday vazifalar sirasiga:

1) ta’lim oluvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishlari uchun qulay sharoit yaratish, o‘z oldilariga qo‘yilgan savollarga ijodiy yondashgan holda javoblar qaytarishini ta’minlash;

2) ta’lim oluvchilar o‘z sinfdoshlarini samimiy tushunishlari uchun imkoniyat yaratish;

3) ta’lim oluvchilar guruhi orasidagi sovuq munosabatni bartaraf etish;

4) ta’lim oluvchilar orasida o‘zaro hurmat muhitini vujudga keltirish, ularning hukuq va erkinliklarini ta’minlash[9].

Demak, ta’lim oluvchilarining hamkorlikdagi tahliliy faoliyati analitik mashqlar va muammoli topshiriqlarni bajarish jarayonida samarali rivojlanadi.

Bugungi kun zamonaviy o‘qituvchisi ta’lim jarayonida talabalar bilan hamkorlikni tashkil qilishda quyidagi innovatsion o‘qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

tanlangan qaysi mavzularni to‘liq hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘rganish mumkinligini turli usullar va guruh faoliyatidan kelib chiqib aniqlashi, qolaversa, mazkur darslarni taqvim-rejada belgilab qo‘yishi;

tanlangan mavzu bo‘yicha to‘laqonli ta’lim oluvchilarga nisbatan tavsiya etiladigan turli o‘quv topshiriqlari hamda ularni hayotiy mazmunga mos bajarish yuzasidan turli yo‘nalishdagi ko‘rsatmalarni tayyorlashi;

hamkorlik tarzida o‘qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanib o‘tiladigan dars turi, tipi, dars bosqichlarini va borishini to‘liq loyihalashi;

o‘tgan va endi tashkil etiladigan yangi mavzular yuzasidan ta’lim oluvchilar bilimini to‘laqonli nazorat qilish uchun turli mazmundagi test topshiriqlarini turli darajalarda tuzishi lozim.

Mazkur zamonaviy metodlardan foydalanishda va uni ta’lim jarayoniga olib kirishda shuni nazarda tutish kerakki, ta’lim oluvchilar jamoadagi faoliyatdoshi bilan hamkorlikda o‘quv va mantiqiy topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishlari barobarida guruh a’zolarining to‘laqonli faolligi, yangi keng tarmoqli hamkorliklarini vujudga kelishi, ular o‘rtasidagi muloqot va milliy madaniyat tamoyillariga to‘laqonli amal qilinishi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a’zolari bir vaqtning o‘zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. Akademik topshiriq – bilish va ijodiy izlanish orqali o‘quv topshiriqlaridan ko‘zlangan maqsadga erishish;

2. Ta’lim jarayoniga tegishli ijtimoiy-psixologik topshiriq – dars davomida zaruriy yuqori saviyadagi muloqot madaniyatiga egalik, odob-axloq qoidalariga faoliyat mazmunidan kelib chiqib to‘laqonli rioya qilish.

O‘qituvchi yuqorida aytilgan har ikkala darajadagi topshiriqning yuqori va keng saviyada bajarilishini nazorat qiladi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida hamkorlikda o‘qitishning zamonaviy va innovatsion metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari, o‘quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo‘llarini egallagan, ta’lim oluvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlarning mazmuni ustida mustaqil-ilmiy va ijodiy ishlash, mazkur mazmun haqida o‘z fikrini doimiy ravishda qisqa va zamon talabiga mos aniq bayon etish, fikrlarni to‘laqonli asoslash ularni aniqlash to‘g‘risida dalillash, mazkur jarayon to‘g‘risida mantiqiy fikr yuritish, faoliyatga doir o‘quv bahsi hamda munozaralarda faol va tahliliy tanqidiy qatnashish ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi kerak.

Ta’lim jarayonida qo‘llashni tavsiya etayotgan hamkorlikda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan biri jamoada o‘qitish:

Jamoada o‘qitishda (R.Slavin)[7] ta’lim oluvchilarning teng sonli ikkita yoki bir nechta jamoaga ajratiladi. Ajratilgan jamoaga bir xil topshiriq beriladi. Jamoaning har bir a’zosi berilgan topshiriqni hamkorlikda zamonaviy usullarni qo‘llab bajaradi, har bir talaba mavzuning nazariy qismida ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni integratsion o‘zlashtirishiga e’tiborni to‘laqonli qaratadi.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatidagi hamkorligini rivojlantirishning texnologiyalari quyidagicha:

1. Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatidagi hamkorligini tashkil etishga yo‘naltirilgan maxsus mashg‘ulotlar vositasida ta’lim mazmunini boyitish.

2. Ta’lim jarayonida hamkorlikdagi o‘qitish metodlaridan foydalanish.

3. Ta’lim oluvchilarda o‘zaro bir-biri bilan hamkorlikda ishlash ehtiyojini shakllantirish.

Ta’lim oluvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Hamkorlikda o‘qitishning “birgalikda o‘qiymiz” metodi. Sinf ta’lim oluvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarni to‘liq bajarishi natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari – komandani taqdirlash, ta’lim oluvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish sanaladi[1].

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida ijodiy hamda izlanishni samarali tashkil etish metodi. Bu metodni qo‘llash jarayonida ko‘proq talabaning ya’ni ta’lim oluvchilarning mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlashiga urg‘u qaratiladi.

Ta’lim oluvchilar alohida individuallashtirilgan yoki 6 kishidan iborat bo‘lgan kichik guruhlarda o‘zaro izchil ijodiy izlanishni tashkil etadilar. Ijodiy va ilmiy izlanishlar faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda dars davomida o‘rganilishi zarur bo‘lgan nazariy materiali kichik bo‘laklarga va maxsus qismlarga ajratiladi. Keyinchalik mazkur qismlar yuzasidan turli darajadagi topshiriqlar har bir ta’lim oluvchiga imkoniyatlaridan kelib chiqib taqsimlanadi. Shundan kelib chiqib guruhda ishtirok etgan, har bir ta’lim oluvchi ijodiy, ilmiy topshiriqning bajarilishiga keng qamrovda o‘z hissasini qo‘shishga sababchi bo‘ladi. Kichik guruhlarda berilgan turli mazmundagi topshiriq yuzasidan keng tartibda munozara o‘tkaziladi. Guruhda ishtirok etuvchi a’zolar birgalikda ma’ruzaga doir nazariy ma’lumot tayyorlaydilar va guruh

ta’lim oluvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanish natijasini tizimli va ketma-ketlik asosida e’lon qilib boradilar. Barcha faoliyat samarasida hamkorlikda ishlash yakunida qo‘lga kiritilgan qator yutuq hamda muvaffaqiyatlar guruh jamoasidagi har bir talaba ya’ni ta’lim oluvchining, doimiy va takrorlanuvchi va faol aqliy mehnat bilan shug‘ullanishiga, kichik guruhlarning umuman olganda guruh jamoasini birlashishiga, dastlab o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy yangi hamda noodatiy, kutilmagan vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilimlarni o‘zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Tahlil va natijalar. Hamkorlikka asoslangan ta’limda ta’lim oluvchilar alohida shaxs sifatida tan olinadilar. O‘zlashtirishi past yoki imkoniyatlari cheklangan ta’lim oluvchilar ham do‘stona munosabat o‘rnatilgan guruhda o‘z “ovoz”lariga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o‘quv jarayonining loyihasini ishlab chiqadi, unda har bir ta’lim oluvchining ishtiroki ko‘zda tutiladigan vaziyatlarni kiritadi. Guruhlar yoki juftlikda ishlash o‘quv jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad asosida tanlanadi. Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan guruhli ishda har bir ta’lim oluvchining ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladigan vazifalar va o‘quv topshiriqlari beriladi. Natijada talabalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Buning natijasida ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari kengayadi va o‘zlariga beradigan baholari ko‘tariladi. Shu tariqa, talaba o‘z qadr-qimmatini anglay boshlaydi. Barcha ta’lim oluvchilar o‘zlarining turli-tuman ekanliklarini anglash bilan bir qatorda, o‘z kuchlariga ishonch hosil qiladilar.

Bu esa ta’lim oluvchilarning kelajakda mikro-sotsiumda o‘z o‘rinlarini topishlari, atrofdagilar bilan samarali muloqot, hamkorlik va do‘stona munosabat o‘rnatishlari, o‘z qarashlarini himoya qilishlariga imkon beradi. Ular bir-birlarini kamsitmaslik, barchalarining teng huquqli ekanliklarini e’tirof etishga o‘rganadilar.

Pedagogikaning asosiy g‘oyalarini yangicha tushunish unga ko‘proq shaxsiy mazmun-mohiyat berish, ta’lim oluvchilar bilan ular uchun tushunarli va qulay bo‘lgan holatlarda ko‘proq hamkorlik qilishga asoslanadi. Ta’lim oluvchi ko‘plab vazifalarni bajarib pedagogik hamkorlik doirasida uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orasida eng muhimi ob’ektiv borliqni aks ettirish vazifasidir. Bu vazifaning kiritilishi pedagogik faoliyatni tashkil etishni cheklash uni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirishga asos bo‘ladi.

O‘zaro hamkorlikning muhim vazifalaridan yana biri – talabalarni muayyan faoliyatga yo‘naltirish va bosqichma-bosqich tayyorlashdan iborat. Hamkorlik jarayoniga jalb etilmagan yoki hamkorlikka kirishishi murakkab kechadigan talabalarda muvozanatsizlik, hissiy tushkunlik, hadiksirash, ishonchsizlik va xavotirga tushish holatlari kuzatiladi. Talabalar orasida hamkorlik muhitining vujudga keltirilishi ularning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ta’minlash imkonini beradi. Chunki, bunday hamkorlik jarayonida talabalar bilmagan narsalarini bir-birlaridan o‘rganadilar va o‘zlari uchun ma’lum bo‘lgan axborotlarni guruhdoshlariga etkazadilar.

O‘zaro hamkorlik muhitida o‘qituvchi-ta’lim oluvchilar hamda ta’lim oluvchilar orasida o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning uch turi mavjud:

1. Hamkorlik jarayonida o‘qituvchi-ta’lim oluvchilar hamda ta’lim oluvchilarning bir-birlariga ko‘rsatadigan verbal ta’sirlar;

2. Hamkorlik jarayonida o‘qituvchi-ta’lim oluvchilar hamda ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-birlariga ko‘rsatadigan paralingvistik ta’sirlar;

3. Hamkorlik jarayonida o‘qituvchi-ta’lim oluvchilar hamda ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-birlariga ko‘rsatadigan noverbal ta’sirlar.

O‘quv-tarbiya jarayonida amalga oshirilayotgan muloqotning qanday kechishi va kimning ko‘proq ta’sir ko‘rsata olishi jarayon sub’ektlari bajaradigan rollarga bog‘liqdir. O‘quv jarayonining birinchi sub’ekti bo‘lgan o‘qituvchida ta’lim oluvchilarga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatish maqsadi mavjud. Bu maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchi zarur pedagogik vositalardan foydalanadi.

O‘qituvchi va ta’lim oluvchilarda tarkib topgan bir-birlarini tinglay olish ko‘nikmalari o‘zaro hamkorlik jarayonining samaradorligini ta’minlash bilan bir qatorda o‘qituvchi-ta’lim oluvchilar hamda ta’lim oluvchilar orasida o‘zaro do‘stona muhitni vujudga keltirishga xizmat qiladi. SHuning uchun ham ta’lim oluvchilarda o‘z suhbatdoshini diqqat bilan tinglash ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta’lim oluvchilarni o‘zaro muloqot va hamkorlik jarayoniga jalb qilishga xizmat qiladigan usullar va metodlardan samarali foydalanish kerak. Ta’lim oluvchilarda o‘zaro muloqot o‘rnatish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ijtimoiy pedagogik xarakterga ega bo‘lgan treninglardan samarali foydalanish muhim.

Hamkorlikdagi faoliyat treningi - talabalarning muayyan mavzuni hamkorlikda o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadigan didaktik jarayon. Ta’lim oluvchilarda mazkur trening jarayonida munozarali vaziyatlarni vujudga keltirish, topshiriqlarni hamkorlikda bajarish yo‘llarini birgalikda izlash, sinfdoshlari huzurida hayajonlanmasdan, tortinmasdan o‘z fikrini bayon qilishga o‘rganish, ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta olish ko‘nikmalari shakllanadi. Trening jarayonida guruhli munozaralar, rolli o‘yinlarning eng qulay variantlari mashq qilinib, sinovdan o‘tkaziladi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida talabalarni faollashtirishga qaratilgan metodlar yordamida quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

1) ta’lim oluvchilarning hamkorlikda bajargan faoliyatiga tashqaridan baho berishga o‘rgatish;

2) ta’lim oluvchilar guruhining har bir a’zosi muayyan shaxsga qanday munosabatda bo‘lishini aniqlash;

3) ta’lim oluvchilar guruhining ayni bir ta’lim oluvchiga bo‘lgan qiziqishini oshirish kabilar.

Pedagogik hamkorlik jarayonida ta’lim oluvchilarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko‘tarinkilik, quvonch, do‘stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchanlik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko‘maklashish, kechira olish, mas’uliyatlilik, haqgo‘ylik, bag‘rikenglik, toqatlilik kabilar kuzatiladi.

Mashg‘ulotlar yakunida ta’lim oluvchilar bir-birlarini yaxshi bilganliklari, yaqindan do‘stlashganliklari, o‘zlari haqidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘lganliklari, yaxshi sifatlarni namoyon qilganliklari, atrofdagilarning o‘zlariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlaganliklari, o‘zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari, ijobiy hamkorlik muhitiga kirishganliklari, o‘zlari va guruhdoshlariga nisbatan ishonch hissini tuyganliklarini kuzatish mumkin.

Pedagogik hamkorlik ko‘pgina didaktik va psixologik imkoniyatlarga ega. Bu o‘z navbatida, ta’lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir talabada o‘z guruhining muvaffaqiyatidan quvonish, kamchiliklari uchun javobgarlik hissi qaror topadi.

Hamkorlikda ishlash jarayonida olingan natijalar muntazam tarzda o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinishi lozim. O‘zaro hamkorlik muhitini tashkil etishda “o‘qituvchi–ta’lim oluvchi–ta’lim oluvchilar guruhi”ning hamjihatlikdagi faoliyatiga asoslaniladi.

Hamkorlikdagi o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi quyidagilarga tayanishi lozim:

1. Guruhli ish usulidan foydalanish;

2. Hamkorlikdagi ish jarayonida ta’lim oluvchilarning bir-birlariga pedagogik-psixologik jihatdan moslashishlariga erishish;

3. Har bir kichik guruhda kuchli, o‘rtacha va past o‘zlashtiruvchi ta’lim oluvchilarning bo‘lishini ta’minlash;

4. Guruhdagi o‘quv faoliyati samaradorligini

ta’minlash maqsadida a’zolarni almashtirish imkoniyatiga ega bo‘lish;

5. Guruhda umumiy o‘quv topshirig‘ining berilishini ta’minlash;

6. Topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning individual vazifalarini aniqlash;

7. Vazifalarni taqsimlashda ta’lim oluvchilar fikriga tayanish, ya’ni ular bilan hamkorlik qilish;

8. Hamkorlikda bajarilgan topshiriqni umumiy tarzda baholash;

9. Guruh a’zolarining mehnatiga talabalarning o‘zlari baho berishlariga erishish;

10. Guruhli ish natijalarini talabalarning o‘zlari tahlil qilishlarini ta’minlash.

Ta’lim oluvchilarga insonparvarlik asosida yondashish ular orasidagi ziddiyatlarning o‘ziga xos jihatlarini tushunish va bartaraf etish imkonini beradi. Talabalar orasidagi ziddiyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liqdir: talabalarning yosh xususiyatlari; hamkorlikdagi ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari; talabalarning ziddiyatlarga munosabati, ularning o‘ziga xos jihatlari va rivojlanishi haqidagi tasavvurlari; ziddiyatlar vujudga kelgan holatlarda ta’lim oluvchilarning harakatlari kabilar.

O‘qituvchining faoliyati, birinchi navbatda, ziddiyatlarga ijobiy echim topishga qaratilishi kerak. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchining pedagogik ziddiyatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi va ularning echimini topish haqidagi bilimlarni nechog‘li chuqur egallaganligiga bog‘liq.

Ziddiyatli vaziyatlarda ta’lim oluvchilarda o‘zaro munosabatlarga kirishish va hamkorlik qilish tajribasining shakllanishida turli ichki qarama-qarshiliklarni birgalikda bartaraf etish muhim o‘rin egallaydi. Bunday tajribaning shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu ta’lim oluvchilarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir vaziyatda ta’lim oluvchilarda bir qator sifat o‘zgarishlari vujudga keladi.

Vaziyatlar orasidagi izchillik talabalar orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini kengaytiradi. Bir vaziyatdan ikkinchisiga o‘tish jarayonida talabalar oldiga qo‘yiladigan vazifalar murakkablashadi. Bular o‘z navbatida talabalarda shaxsiy sifatlarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar orasida hamkorlikka asoslangan ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish uchun turli shakl va mazmunga ega bo‘lgan, ta’lim oluvchilarni rivojlantirishga xizmat qiladigan vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir vaziyatda muayyan vazifalar va ularni echish usullari belgilab berilishi kerak. Shuning uchun ham har bir holat ta’lim oluvchilarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan vaziyat sifatida muayyan izchillikda loyihalashtiriladi. Buning natijasida aksariyat talabalarda muayyan shaxsiy sifatlar tarkib topadi. Buning uchun o‘zaro aloqadorlik xarakteriga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarni rivojlantiruvchi vaziyatlarda kelishilganlik, mujassamlikni ta’minlashga e’tibor qaratiladi.

O‘qituvchi hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalashda me’yorlangan va izlanuvchilik xarakteriga ega bo‘lgan bashorat metodidan foydalanishi lozim. Izlanuvchilik xarakteriga ega bo‘lgan bashorat hamkorlikdagi o‘quv jarayonining istiqboldagi holatini aniqlashga yo‘naltiriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonining rivojlanishi va unga tashqi sharoitlarning ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga olishi lozim. O‘qituvchi o‘zi bashorat qilgan natijaga erishish yo‘llarini loyihalashtirar ekan, pedagogik vazifalarning samarali echimini ta’minlovchi ilmiy farazga tayanadi. Bu jarayonni o‘qituvchi fikran tajribadan o‘tkazadi va qayta ishlaydi. O‘qituvchi faoliyatidagi bashoratlash noyob metodlar yordamida qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash imkonini beradi. O‘qituvchi faoliyatining maqsadi kafolatlangan natijaga erishish yo‘llari murakkab bo‘lishidan qat’i nazar amalga oshirilmagan, biroq loyihalashtirilgan faoliyat modelidir. Mazkur loyihada hamkorlikdagi pedagogik jarayon yoki uning tarkibiy qismlarining sifat hamda miqdor jihatdan o‘zgarishi aniq aks ettiriladi. Hamkorlikdagi pedagogik jarayon loyihasi strategik, taktik hamda tezkor bashoratlashga asoslangan holda vujudga keladi.

Tahlil natijalari o‘qituvchilar tomonidan hamkorlikka asoslangan ta’lim shakllarining qo‘llanilishi an’anaviy yondashuvdan yuqori samaradorlikka erishishga imkon berishini ko‘rsatadi. Biroq ta’lim oluvchilarning guruhdagi ishini tashkil etishning o‘zi etarli emas, hamkorlikka asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonida yana ikkita komponentni hisobga olish lozim: guruhiy mukofotlash tizimi va shaxsiy mas’uliyatni rag‘batlash mexanizmi. Butun guruhni rag‘batlantirish o‘quv materialini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilar bir-biriga yordam berishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar guruhiy rag‘bat yuqori bo‘lmasa, guruh a’zolari o‘z guruhdoshlarining bilish ehtiyojlariga kam diqqat qaratadi. Bilimlarni egallashda shaxsiy mas’uliyatni rag‘batlaydigan individual nazorat har bir ta’lim oluvchini o‘z yutuqlarini ko‘ra olishiga yordam beradi.

Demak, hamkorlik pedagogikasi – bu shaxsning har tomonlama barkamol ravojlanishi yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda yordam ko‘rsatishi, mavjud muammolarni birgalikda hal etish va o‘zaro hamfikrlilik muhitini tashkil etishni talab etadi. Hamkorlik pedagogikasining g‘oya va tamoyillarini amalga oshiruvchi pedagog-novatorlarning konseptual g‘oyalarini tahlil etish ularning ta’lim oluvchilarning ta’lim-tarbiyasiga yondashuvi yangi, insonparvar tizimga egaligini alohida qayd etishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Aronson E., Blaney N., Stephan C., Sikes J., Snapp M. The jigsaw classroom / E.Aronson, N.Blaney, S.Stephan, J.Sikes, M.Snapp. – Beverly Hills: Sage Publi-cations, 1978. – 197 p.
2. Asqarova O‘., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug’at. “Navro‘z” nashriyoti− Toshkent: 2014.
3. Mead M. Cooperation and Competition Among Primitive People / M.Mead. – McGrawHill, 1997.
4. Park C.W. The cooperative system of education. An account of cooperative educa-tion as developed in the College of Engineering, University of Cincinnati. – Washington: Government Printing Office, 1916. – 48 p.
5. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
6. Shermuhammadov B.Sh., Qurbonova B.Q., Maqsudov U.Q., Qo‘chqarova M.A., Sidikova Z.M. Umumiy pedagogika. /Farg‘ona: “Classic” nashriyoti-2022. –240 b.
7. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 93 b.
9. Sharan, S., Sharan Y. Small group-teaching / S. Sharan, Y. Sharan. – Englewood Cliffs, NJ: Educational Technology Publications, 1996. – 237 p.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 81(65.2)

Наргиза ҚОДИРОВА,
Янги аср университети ўқитувчиси
E-mail:qodirova@gmail.com

Педагогика фанлари доктори, профессор М.Рахимов тақризи асосида

AS A FACTOR IN IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF HISTORICAL SCIENCE

Annotation
In this article serves to increase the level of efficiency of further consolidation of basic, important knowledge, theoretical knowledge in general and special subjects in the process of training in improving professional training in teachers of Future History in pedagogical higher educational institutions.
Key words: Knowledge, training, transfer to the profession, skills, history, qualifications, scientific, specialist.

КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК

Аннотация
Данная статья служит повышению уровня эффективности дальнейшего закрепления базовых, важных знаний, теоретических знаний по общим и специальным предметам в процессе обучения по совершенствованию профессиональной подготовки будущих учителей истории в педагогических вузах.
Ключевые слова: Знания, обучение, переход в профессию, навыки, история, квалификация, научный, специалист.

БЎЛАЖАК ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Аннотация
Ушбу мақола педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак тарих фани ўқитувчиларда касбий тайёргарликни такомиллаштиришда ўқув машғулотлари жараёнида асосий, муҳим билимлар, умумкасбий ва махсус фанлардан олинган назарий билимларни янада мустаҳкамлашнинг самарадорлик даражасини оширишга хизмат қилади.
Калит сўзлар: Билим, ўқув машғулоти, касбга йўллаш, кўникма, тарих, малака, илмий, мутахассис.

Кириш. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришда ўқув машғулотларининг асосий вазифаларидан бири инсоният томонидан ҳозиргача эришилган илмий билимлар ва фан техниканинг ютуқлари билан бўлажак тарих фани ўқитувчиларини қуроллантиришдир. Уларда шундай билимлар тизимини яратиш лозимки, бу билимлар уларнинг кейинги ривожи учун асос бўлиб хизмат қилсин. Ҳозирги кунда билимлар ҳажми, ахборотлар ҳажми тобора ошиб бораётган бир даврда ўқув машғулотини бўлажак тарих фани ўқитувчиларга берилиши керак бўлган билим, кўникма ва малакалар ҳажмини белгилаш ҳамда бу жараёнда қайси омилларни ҳисобга олиш керак деган масалаларнинг ечимини топиш устида илмий ишлар олиб борилмоқда. Ўқув машғулотлари жараёнида асосий, муҳим билимлар, умумкасбий ва махсус фанлардан олинган назарий билимларни янада мустаҳкамлашнинг асослари ўрганилади. Бўлажак тарих фани ўқитувчилар ва педагоглар ўртасида ўзига хос ўрнатиладиган мазкур муносабатлар ўқув машғулотларини ташкил этиш ва уни такомиллаштиришда муҳимдир.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришда унумли меҳнат жараёнида касбга йўллаш ишларини олиб боришга тайёрлаш мақсадида қуйидагиларни таҳлил қилиб чиқдик. В.П.Беспалько мутахассис тайёрлаш мақсадини учта даражага ажратади [3]:

Педагогика олий таълим муассасалари мақсади (ижтимоий буюртма – мутахассиснинг ишлаб чиқилган модели). Бунда мутахассиснинг қуйидаги хусусиятларини тасвирлагандек:

а) унинг муайян соҳадаги фаолияти бўйича билим ва малакалари даражаси;

б) унинг психологик хусусиятлари ва шахсий фазилатларининг ривожланиш даражаси;

в) ундаги шаклланган мотивнинг хусусияти, унинг атроф-муҳитга муносабати ва жамиятнинг мутахассисга талаблари [3].

Касбга йўллаш ишларини амалга оширишда бўлажак тарих фани ўқитувчиларини касбий тайёргарлигини такомиллаштиришнинг тўлиқ мазмуни эса у яшайдиган ва ишлайдиган аниқ ижтимоий-иқтисодий шароитлар, бу соҳадаги унинг педагогик фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари билан белгинланади.

Таълим мақсади (мутахассис модели)ни ифодалашда унинг туб моҳияти билан типик масалалар тизими ёки уларга адекват бўлган билим ва кўникмалар (фаолият турлари)ни тақдим этилишини билдиради.

Ю.А.Лавриковнинг фикрича, мутахассис модели - бу мутахассис тайёрлаш жараёнини ифодаловчи ва аниқ белгилаб қўювчи ўқув-режа, дастур ва бошқа норматив ҳужжатларни педагогика олий таълим муссасаларида акс эттирилишидир [6].

Тадқиқотларга асосланиб, мутахассис тайёрлаш модели бир бутун манзарани ифодалаш учун кўрсатилган томонлар ягона мақсадга юқори малакали мутахассисни ҳамда касбий тайёргарлиги такомиллаштиришга қаратилган бўлиши лозим.

Тадқиқот методологияси. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий ҳамда умумкасбий фанларни узвий алоқада ўрганишлари талабаларнинг бевосита касбий кўникма ҳамда малакаларининг шаклланишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Шу маънода, ҳар бир мутахассислик фанидан

маъруза ва амалий машғулотларни олиб бориш жараёнида мутахассислик тушунчаларининг ўрни, уни баён қилиш зарурияти, кетма-кетлиги, бошқа тушунчалар билан алоқадорлиги ҳамда бу алоқадорликни рефлектив (рефлекс, беихтиёр), симметрик ёки транзитивлик (дарс жараёнида олинган билимлар мажмуини амалда ўз ўрнида қўллай олиши) каби бошқа хоссаларга бўйсунишига қараб, ҳар бир тушунчаларнинг ўзини қандай салоҳияти билан қатнашаётганини аниқлаш имкониятига эга бўламиз.

Қадимги дунё тарихи дарсларида ўқувчиларни билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришида педагогик технологияларнинг ўрнини аниқлашдан олдин билим, кўникма ва малаканинг ўзи нима эканлигига жавоб берсак.

Билим - борлиқни билиш жараёнининг амалиётда тасдиқланган натижаси. Объектив реалликнинг инсон онгида адекват акс эттирилиши (тасаввур, тушинча, мулохаза, назариялар). У кундалик, илмий, эмперик, назарий билимларга ажралади. Кундалик билим соғлом фикрга ва кундалик амалий фаолият шаклларига асосланади, инсоннинг атроф-муҳитга мослашуви, унинг ҳатти-ҳаракатлари ва олдиндан кўра билиши учун асос бўлиб хизмат қилади. Унинг вазифаси таълим-тарбия жараёнини назорат қилишга кўмаклашиш [1, 9].

Таълим тарбияни уюштиришда назарий, эмперик ва илмий билимлар роли ва ўрни беқиёс. Илмий билим таълим-тарбияни такомиллаштириш муаммолари ечимларини топишда қўл келиб, тизимли, асосли ва нарса-ходисилар моҳиятига чуқур кириб борадиган бўлади. У эмперик ва назарий даражада бўлади.

Билим – эмперик ва назарий билимларни шакллантиришда фойдаланилади. Назарий билим – эмперик ҳолатларни тушунтириш, яъни нарса ва ходисалар моҳиятини билиш имконини берадиган қонунларни очишда назарда тутади. Билим билишни амалга оширувчи асосий омил бўлиб, дунёнинг билишнинг негизини ташкил этади ва у туфайли илм, Фан, техника-технологиялар ривожланиши таъминланади. Билим – объектив мавжудод ҳақидаги ёки муайян соҳага оид маълумот мажмуи.

Маълумки педагогик тизимнинг самарадорлиги унинг мақсад вазифаларини тўлиқ амалга оширишга боғлиқ. Ўқувчиларни фаоллаштириш орқали ўз меҳнати эвазига билим олиш, ижодли фикрлашга «ўзгалар фикрини эшитиш ва ўз фикрларини мантиқий жиҳатдан баён этишга йўналтирилади.

Модулли таълим технологиялари асосида модули дастур туради. Модул дастурлари ўзида мавзунинг илмий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадидан келиб чиқадиган дидактик мақсадни, ўқувчилар дарс давомида бажарадиган топшириқларни, мазкур топшириқларни бажариш бўйича берилган кўрсатмаларни мужассамлаштиради. Модулли дастурлар ўқитувчи томонидан тузилиб, унда модулнинг дидактик мақсадлари, мавзуни ўрганиш босқичлари, ўқувчилар томонидан бажариладиган ўқув фаолияти элементлари, ўқувчилар билимларини назорат қилиш йўллари кетма-кет ёзилади [5].

Анъанавий таълимда маъруза ва амалий машғулотларнинг ҳар бир ўқув фани бошқа ўқув фанларига боғлиқ ҳолда олиб борилиши бўлажак тарих фани ўқитувчиларида билимларнинг интегратив тарзда юзага келишига ўзининг таъсирини кўрсатиб келади. Бу эса бўлажак тарих фани ўқитувчиларида ижодий фикрлаш жараёни имкониятининг сустлашишига сабабчи бўлиши тажрибада кузатилган.

Педагогика олий таълим муассасаларида бериладиган барча мутахассисликлар фанлари ўзида асосан фақат маълумот берувчи, ўргатувчилик функцияси билан чегараланиб қолмасдан фикрни ривожлантирувчи, интегралаштирувчи, тарбияловчи функцияларига ҳам эгадир. Бундан кўриниб турибдики, ҳар бир фан ўқитувчисига талабаларни нафақат шу фан тузилмасида мавжуд бўлган илмий маълумотлар билан қуроллантириш, балки улар эгаллаган илмий тушунчаларни ривожлантириш ва бошқа тушунчалар билан интегралашувини таъминлаш ҳамда бўлажак тарих фани ўқитувчиларини миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш вазифалари ҳам қўйилган. Шунинг учун ҳам ҳар бир профессор-ўқитувчи навбатдаги ўқув машғулотига тайёргарлик кўришида ўқув материалини юқорида санаб ўтилган талаблар ва тамойилларга риоя қилган ҳолда танлаши ва уни бўлажак тарих фани ўқитувчилар эътиборига ҳавола қилишида тегишли тушунчалардан унумли фойдаланиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштирилиши унинг жамиятдаги ўрни, педагогика олий таълим муассасаларидаги мажбурияти ва вазифаларига ҳамда индивидуал қобилиятларига боғлиқ бўлади. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг ижодий индивидуаллиги унинг индивидуал хусусиятлари (фикрлашнинг илмий таркиб топганлиги, ишга ижодий ёндашиши, ўз имкониятларини рўёбга чиқаришга интилиши ва бошқалар)нинг ривожланиш даражаси билан белгиланади. Бўлажак тарих фан ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг психологик-педагогик шарт-шароитлари қарама-қаршилигини ҳис қилиш, уларнинг ечимини топиш учун эса ўзига хослик ва мақсадга мувофиқлик каби касбий хислатларнинг таркиб топишида намоён бўлади.

Келажакда ўқитувчилик касби билан шуғулланувчи бўлажак тарих фани ўқитувчиларида психологик-педагогик компонентлардан бири, бу “эсда сақлаш” шахсий сифатининг маълум даражада юқори бўлиши тақозо этилади. Бундан ташқари, амалга оширилаётган ишлар тузилишига кўра бир нечта билимларнинг интеграцияси, ўзаро алоқадорлиги ва ундан фойдаланиш методикасини ўз ичига олади. Профессор Т.Р.Толаганов ўз тадқиқотларида, - “Талаба ҳар доим ўқув материалини назарий ва амалий ўзаро боғлиқ бўлган диалогида қатнашади, чунки ўқув материалига мувофиқ хулоса чиқариши учун у ўзининг билимлар блокига тез-тез мурожаат қилиб туради”, - деб таъкидлаган [7].

Ҳар бир талаба имкониятига, асосан билимга бўлган интилишига кўра ўзининг билимлар блокига эга бўлади. Бу билимлар тузилмасига кўра, техник ва технологик мазмундаги, психологик-педагогик, ижтимоий-гуманитар, фалсафий, физик-математик ҳамда бошқа кўринишдаги билимлар тўплами бўлиб, талаба қайси йўналишга мос билимлар кераклигига таянган ҳолда, шу мазмундаги билимларни банкдан ажратади. Бу билимларни чуқурлаштириб талаб қилинган мақсадда фойдаланишга ҳаракат қилади.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришда муҳим вазифалар қуйидагилардан иборат: янги ташкилий тузилмасини шакллантириб, фаолият кўрсатишни йўлга қўйиш; ўқув машғулотларини ўтказувчи педагогика олий таълим муассасалар ишини мувофиқлаштириш ва улар орасида рақобат муҳитини яратиш; ўқув машғулотларига қўйилган давлат талабларини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга жорий этишнинг чора-тадбирларини кўриш; талабаларнинг хоҳиши, таклифи ва эҳтиёжлари асосида ўқув машғулотлар мазмунини мунтазам ўзгартириб бориш, инвариант модулли дастурлардан фойдаланиш; замонавий педагогик ва ахборот технологияларини амалиётга тарғиб этиш; ўқув машғулотларида интернет тармоқларидан фойдаланишни йўлга қўйиш.

Ўқувчиларнинг ўқув машғулотларини ташкил этишнинг ташкилий-педагогик асослари қуйидаги жадвалда келтирилган:

1-жадвал

Ўқув машғулотларни ташкил этишнинг ташкилий-педагогик асослари

Асосий тушунчалар	Асосий тушунчаларнинг моҳияти ва мазмуни
Мақсадлар	Касбий кўникма ва малакаларни шакллантириш. Ўқув машғулотларида интеграцияни таъминлаш ва юқори сифат ҳамда самарадорликка эришиш.
Вазифалар	Касбий билим, кўникма ва малакалар, иш-ҳаракат усулларини, умумий билим савиясини ва тажрибасини ошириш.
Тамойиллар	Умумдидактик ва касбий таълимнинг хусусий тамойиллари: илмийлик, ғоявий йўналганлик, назарияни амалиёт билан алоқадорлиги, талабаларнинг ёши ҳамда индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш, тизимлилик, мунтазамлик, талабаларнинг онглилик ва фаоллиги, изчиллик, касбий йўналганлик, узвийлик, узлуксизлик, ажратилган вақтга мослик, ўқув материалининг барқарорлиги ва динамик ўзгарувчанлик, ўзаро алоқадорлик, кўрсатмалилик, тушунарлилик, мантиқий тугаллик, яхлитлик, материалнинг ўқув муассасаси тури ва мақсадига уйғунлиги кабилар.
Шакллар	Ишлаб чиқаришдан ажралган ва ажралмаган, қисқа муддатли, гуруҳ, якка тартибда мақсадли (муаммоли), шахсий режа асосида, стажировка, экстернат, масофада туриб ўқитиш, мустақил кабилар.
Методлар	Кўрсатмали, амалий индуктив, дедуктив махсулли, махсулсиз, ўйин, мунозара, лойиҳалаштириш, ишлаб чиқариш мазмунидаги масалалар ечиш, ишонтириш, талаб қўйиш, машқ тренинг, рағбатлантириш.
Воситалар	Реал объектлар, техник қурилмалар ва ёзма манбалар.
Ташкил этиш жойлари	Ўқув машғулоти ва тренинг марказлари, педагогика амалиёт, услубий бирлашмалар, анжуманларда қатнашиш, мустақил методик ва жамоавий мустақил ишлар, тажриба алмашиш, стажировкада бўлиш кабилар.

Ўқув машғулотларини ташкил этишда махсус фанлар ўзига хос хусусиятларга эга. Уларга аниқ бир соҳа бўйича технологик жараёнлар бўйича бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий тайёргарликни такомиллаштиришга керак бўлган кўникма ва малакалар асосини ташкил этувчи билимлар киради. Тадқиқотларда бўлажак тарих фани ўқитувчиларида касбий-ижтимоий-гуманитар тушунчаларни такомиллаштириш учун уларнинг мазмунини ишлаб чиқиш ва ўқув мақсадини белгилашда касбий-ижтимоий-гуманитар тамойилларга, яъни, маълум бир тарих фани соҳаси бўйича жиҳозлар ва воситаларнинг ишлаш тартиблари, ўқув машғулотларини ўтишда технологияларининг бажарилиш кетма-кетлиги, касбий фаолиятни ташкил этишнинг илмий асослари, соҳа бўйича меҳнат фаолиятининг тарихий тамойилларига амал қилиш лозим деган фикрлар билдирилади [2].

Ўқув машғулотлари узлуксиз таълим тизимида кенг тарқалган ўқитиш воситаси бўлиб ҳисобланади. Шунинг учун ҳам, махсус фанлардан замонавий таълим талабларига мос ўқув машғулотини ташкил этиш учун ҳозирги даврда уларнинг қай даражада ўқув мақсади ва вазифаларига эришишни таъминлашини ҳамда қайси метод ҳамда технология асосида ташкил этилишини ўрганиш лозим.

Тадқиқотларимизда педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак тарих фани ўқитувчиларнинг маълум бир муаммоли топшириқни мустақил равишда бажаришлари учун уларнинг дарсликлар, турли технологиялар, адабиётлар, услубий кўрсатмалар, чизмалар, схемалар, маҳсулотлар, макетлар, жиҳозлар рўйхатини ўзида қамраб олган ўқув машғулотини ташкил этилишини фаоллаштиради ҳамда ижодий ёндошувли таълимни шакллантиради [4].

Ўқув машғулотларини ташкил этиш бўлажак тарих фани ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришга, назарий билим олиш ва амалий кўникмага эга бўлишларини фаоллаштиришга йўналтирилган бўлиши керак.

Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштиришда методик ва техник воситалардан етарлича ҳамда самарали фойдалана олмаяптилар. Шунинг учун, уларнинг малакасини оширишда қуйидаги фаоллаштириш шакл ва методларидан фойдаланиш зарур: фаоллаштириш шакллари - диалогик маъруза, семинар, ишчанлик ўйинлари, кўчма машғулотлар, стажировка, суҳбат, маслаҳат, илмий-амалий конференциялар, учрашувлар, ёзма ишлар; фаоллаштириш методлари - суҳбат, машқ, ролли ўйин, адабиётлар билан мустақил ишлаш, ижодий мунозаралар, муаммоли, дастурли таълим элементларидан фойдаланиш, тажриба алмашиш кабилар.

Юқоридаги фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш ва ривожланиш мақсадларини тасаввур қилиш, яъни касбий тайёргарлик мақсадини белгилаш ҳамда касбий тайёргарликда муваффақиятга эришишга интилиш, касбий тайёргарлик тасаввурининг ривожланиши, касбий тайёргарлик шароитида ўз эмоционал ҳолатларини бошқариш, шунингдек, касбий тайёргарликни амалга оширишдаги

қатъиятлилик, мақсадга интилувчанлик, ечимини топилиши қийин бўлган вазиятларни енгиб ўта олиш, изланувчанлик ҳолатида ўз-ўзини бошқара олиш, ўз ижодий ечимларини таҳлил қила олиш қобилиятларини ривожлантира олиш, ижодкор индивидуал шахс сифати тасаввурларнинг, мустақил фикрлашнинг ривожланиши кабилардан иборат экан.

АДАБИЁТЛАР

1. Адекват – лотинча (adequatus) тенглашган, мос, айнан бир, ўхшаш.
2. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. “Профессиональная образование”. М.: 1997. – 671 с., Профессиональная педагогика (под редак. акад. С.Я. Батышева) –М.: Профессиональное образование, 1999. – 903 с.
3. Беспалько В.П. Основы теории педагогических систем. Воронеж: изд. Воронеж ГУ, 1977. С - 304
4. Жуков Г.Н. Мастер производственного обучения в современной системе НПО // Ж. Профессиональное образование. -М., 2001. -№9. - С.23-24.
5. Қўшманова Л. Ўзбекистон тарихи фанидан таълим мазмунини мантиқий ўзлаштиришда блок модул дарсининг роли. // Таълим технологиялари, 2008. № 6, 20-21-бетлар.
6. Лавриков Ю.А. О модели профессиональной подготовки экономиста. Улучшение подготовки экономистов и экономической подготовки инженеров. Л., 1973 г.
7. Толаганов Т.Р. Профессиональная направленность математической подготовки будущих учителей. Дис. ... док. пед. наук. – Т.: 1990 г. 398 с., -47 б.
8. Уралов Т. Педагогик технологиялар тушинчаси ва унинг турлича талқинлари // Таълим технологиялари, 2007, № 3, 12-13-бетлар.
9. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулова Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат.-Т.: Фан ва технология, 2008 й.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:130.2-057.4(045)

Nodirbek QORABOYEV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nodirbekqoraboyev2606@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori E.H.Bobomuratov taqrizi asosida

ON THE ISSUE OF PERIODIZATION OF THE LIFE AND WORK OF AN ACADEMICIAN SAIDA SHERMUKHAMEDOVA

Annotation

The article highlights the relevance, status, purpose and objectives of studying the problem. The main attention is paid to the periodization and characterization of the directions and stages of life and activity of a prominent public and statesman, philosopher-scientist, academician Said Shermukhamedov.

Key words: Relevance, state, purpose and problems. tasks of studying the problem, directions and stages of life and work of academician Said Shermukhamedov.

К ВОПРОСУ О ПЕРИОДИЗАЦИИ ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКАДЕМИКА САИДА ШЕРМУХАМЕДОВА

Резюме

В статье освещены актуальность, состояние, цель и задачи изучения проблемы. Основное внимание уделено на периодизации и характеристике направлений и этапов жизни и деятельности крупного общественного и государственного деятеля, философа-учёного, академика Саида Шермухамедова.

Ключевые слова: Актуальность, состояние, цель и проблемы. задачи изучения проблемы, направления и этапи жизни и деятельности академика Саида Шермухамедова.

AKADEMIK SAID SHERMUHAMEDOV HAYOTI VA FAOLIYATINI DAVRLASHTIRISH MASALASIGA DOIR

Annotatsiya

Maqolada muammoni o‘rganishning dolzarbligi, holati, maqsad va vazifalari yoritilgan. Asosiy e’tibor yirik jamoat va davlat arbobi, faylasuf-olim, akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatining yo‘nalishlari va bosqichlarini davrlashtirish va izohlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoni o‘rganishning dolzarbligi, holati, maqsad va vazifalari, akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatining yo‘nalishlari va bosqichlari.

Kirish. Har bir taniqli shaxs, xususan, olim, jamoat arbobi faoliyatining turli sohalari, ijodiy merosini ilmiy jihatdan o‘rganishda, u to‘g’risida fikr yuritganda, albatta, eng avvalo u yashagan tarixiy davr, ijtimoiy-madaniy voqelik, uni qurshagan muhit, ijtimoiy munosabatlar, shaxs bosib o‘tgan hayot yo‘lining yo‘nalishlari, davrlari va bosqichlari tahlilidan kelib chiqish zarur.

Said Shermuhamedov faoliyati va falsafiy merosi XX asr boshlari va XXI asrning birinchi yarmida O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan murakkab tarixiy davr va iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy shart-sharoitlar ta’siri ostida shakllandi va rivoj topdi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng S.Shermuhamedov milliy mustaqillik mafkurasi targ’ibotchisiga aylandi, o‘z faoliyati va ijodini mamlakatda mustaqillikni mustahkamlash, adolatli huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish ishiga bag’ishladi.

Zamonamiz allomasi Said Shermuhamedov zahmat-kash, qat’iyatli, o‘zining ko‘p yillik tinimsiz va samarali mehnati orqasida ulkan yutuqlarga erishgan buyuk insonlardan biridir.

Said Shermuhamedov – falsafa fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofotining sovrin-dori, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, mamlakatimizda uzoq yillar davomida samarali mehnat qilib kelgan yirik davlat va jamoat arbobi.

Olim qariyb 60 yildan ortiq vaqt davomida ijtimoiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordi. Said Shermuhamedov O‘zbekistonda falsafa fani sohasida o‘ziga xos ijtimoiy falsafa, madaniyat tarixi va nazariyasi bo‘yicha fundamental ilmiy maktablarga asos soldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, jumladan, uning ilmiy-falsafiy merosi masalalari haqida hozirgacha maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari, xususan, dissertatsiyalar yaratilmagan.

Ushbu mavzu bo‘yicha faqat prof. Sh.B.Samatovning “Ilmu ma’rifat bog’boni” nomli ilmiy-ommabop risolasi [1] va bir necha maqolalari [2; 3] nashr etilgan, xolos. Unda akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatining asosiy sohalari, davrlari va sanalari umumiy tarzda bayon etilgan, olim tomonidan nashr qilingan ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik ishlar, tayyorlangan ilmiy-pedagogik kadrlar to‘g’risida ma’lumotlar berilgan. 1987, 1997, 2000 va 2010 yillarda S.Shermuhamedov tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlar va tayyorlangan ilmiy-pedagogik kadrlar, olim hayoti va faoliyatining turli sohalari bayoniga bag’ishlangan bibliografik ko‘rsatkichlar nashr etilgan. Shuningdek, olimning 75 va 80 yillik yubileylari munosabati bilan 2005 va 2015 yillarda respublikamiz gazeta va jurnallarida qator maqolalar e’lon qilingan, shu yillarda nashr etilgan “Qalb izhorlari” [4; 5; 6] nomli ikki kitoblik to‘plamlar uning zamondoshlari, do‘stlari, shogirdlari va qarindoshlarining xotiralaridan iborat bo‘lib, mavzuni o‘rganishda qiziqarli ma’lumotlar, faktlar beradi.

Tadqiqot metodlari. Ishda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, ob’ektivlik kabi metodlar ishlatilgan.

Tahlil va natijalar. Akademik Said Shermuhamedov-ning ijtimoliy-falsafiy merosini maxsus, monografik ravishda o‘rganish va yoritib berishning dolzarbligi va zarurati hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining barcha

sohalarini isloh qilish va yangilash, jamiyat taraqqiyoti strategiyasi vazifalarini amalga oshirish bilan belgilanadi.

Birinchidan, mavzuni tadqiq etish O‘zbekistonda madaniyat, fan va maorif taraqqiyoti tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, hozirgi kunda respublikada madaniyat, fan va maorif taraqqiyotiga samarali ilmiy rahbarlik qilish uchun zarur bo‘lgan materiallar, g’oyalar beradi.

Uchinchidan, yosh avlodni, ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari, maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy g’oyalar asosida tarbiyalash uchun ibratli asoslar, fakt-dalillar bilan qurollantiradi.

To‘rtinchidan, yetuk faylasuf-olim va jamoat arbobi akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish respublikamiz fani, ayniqsa, ijtimoiy falsafa fani taraqqiyoti tarixidagi bu borada hozircha mavjud bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldiradi, fanimizning bundan keyingi rivojiga imkon yaratadi.

Said Shermuhamedovning yirik olim va jamoat arbobi sifatidagi butun 86 yillik hayoti va faoliyatini, fikrimizcha, ikki asosiy yo‘nalishga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Rahbarlik va jamoatchilik faoliyati.

2. Ilmiy-pedagogik faoliyati.

Bu ikki katta faoliyat yo‘nalishlari o‘z navbatida qator konkret faoliyat turlariga bo‘linadi. Ular bir necha tarixiy davrlar va bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatini quyidagi ikki davrga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etamiz:

1. Davlat va jamoat arbobi hamda olim hayoti va ijtimoiy faoliyatining shakllanishi va rivoji davri (1940 – 1970).

2. Yetuk olim va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati davri (1970 – 2016).

Bu ikki katta tarixiy davrlar o‘z navbatida bir necha konkret bosqichlardan iboratdir. Binobarin, S.Shermuhamedovning davlat va jamoat arbobi hamda olim sifatida shakllanishi va rivojidan iborat birinchi davrini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1) O‘smirlik va balog’at yillari bosqichi (1940 – 1948).

2) Oliy ta’lim yillari bosqichi (1948 – 1956).

Bu bosqichni S.Shermuhamedovning 1948 – 1953 yillarda O‘zbekiston davlat universiteti (hozirgi Samarqand davlat universiteti)ning tarix fakultetida, 1953 – 1956 yillarda universitet qoshidagi aspiranturada tahsil olgan yillari tashkil etadi.

4) Shakllangan jamoat va davlat arbobi sifatidagi faoliyat bosqichi (1964 – 1970). Shu bosqichdan S.Shermuhamedov faoyaliyatining birinchi – rahbarlik va jamoatchilik yo‘nalishi boshlandi.

1964 – 1965 yillarda S.Shermuhamedov O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy komitetining Fan va madaniyat bo‘limi mudiri muovini, 1965 – 1970 yillarda esa Madaniyat bo‘limi mudiri bo‘lib ishladi. Bu lavozimlarda u mamlakatda fan va madaniyat sohalarida olib borilgan ulkan ishlarga partiyaviy rahbarlik qildi, o‘zining mohir jamoat va davlat arbobi sifatidagi qizg’in faoliyatini namoyon etdi.

Said Shermuhamedov hayoti va ijodiy faoliyatining yetuk olim va jamoat arbobi sifatidagi ikkinchi davri 1970 yillardan boshlandi va bu davr to uning umri oxirigacha – 2016 yilgacha bo‘lgan yillarni qamrab oladi. Xuddi shu davrda S.Shermuhamedov hayoti va ijodida ikkinchi – mukammal ilmiy-pedagogik faoliyat yo‘nalishi sodir bo‘lgan. Bu yo‘nalish ikki asosiy bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1) Pedagogik-rahbarlik faoliyati bosqichi (1970 – 1985). Bu davrda S.Shermuhamedov O‘zbekiston Respublikasi maorif vaziri (1970 – 1984) va akademik T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish institutining direktori (1984 – 1985) lavozimlarida ishladi. Bu davrda O‘zbekiston xalq ta’limi nafaqat sobiq Ittifoqda, balki butun jahonda mashhur bo‘ldi.

2) Pedagog-olim sifatidagi faoliyat bosqichi (1985 – 2016).

Bu bosqich Said Shermuhamedovning Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)da 1985 – 2000 yillarda falsafa fakulteti falsafa kafedrasi mudiri, 2000 yildan esa universitet ijtimoiy falsafa kafedrasi professor-konsultanti lavozimlarida ishlagan davrlarni tashkil etadi.

S.Shermuhamedov jonkuyar faylasuf-olim sifatida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib falsafa jamiyatini tuzish va unga rahbarlik qilish ishini boshlab bergan. 1985 – 1990 yillarda u O‘zbekiston Falsafa jamiyati raisining birinchi o‘rinbosari, 1990 yildan to umrining oxirigacha (2016) esa shu jamiyatning Prezidenti vazifalarini bajardi. Uning bevosita ilmiy rahbarligida va yordamida ko‘plab fan doktorlari va nomzodlari dissertatsiyalarini himoya qilishgan. Jumladan, u 12 fan doktorlari va 66 fan nomzodlarining ilmiy ishlariga rahbarlik, 19 fan doktorlari va 39 fan nomzodlariga rasmiy opponentlik qilgan. Ular falsafadan tashqari bir qancha boshqa mutaxassisliklarga taalluqlidir.

S.Shermuhamedov – sermahsul ijod sohibi. U jami 1006 ilmiy-tadqiqot, o‘quv-metodik va ilmiy-ommabop ishlar muallifidir. Bu ishlar orasida 28 ta yirik monografiyalar, 89 ta risolalar, 25 ta darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, dasturlar, ma’lumot ishlari, 147 ta ilmiy to‘plamlardagi maqolalar, 291 ta jurnal maqolalari, 426 ta gazeta maqolalari mavjud.

S.Shermuhamedov mas’ul muharrirligida jami 109 ta monografiyalar, risolalar, ilmiy to‘plam va ilmiy-metodik ishlar nashr etilgan, ularning 40 dan ortig’i yirik monografiyalardir [1].

S.Shermuhamedov 10 ta xalqaro, sobiq Butunittifoq va respublika ilmiy-nazariy anjumanlari, kongresslarida falsafa fani yutuqlarini targ’ib va tashviq etib kelgan.

Said Shermuhamedov ko‘p yillik rahbarlik va jamoatchilik, ilmiy-tadqiqotchilik va pedagogik faoliyati, ulkan xizmatlari uchun 4 ta orden va 4 ta medallar, ko‘plab hukumat va davlat faxriy yorliqlari bilan mukofotlangan.

Buyuk shaxslar, jamoat arboblari, olim va ijodkorlarning noyob insoniy fazilatlari, yuksak ma’naviyati masalalari ular hayoti va ijtimoiy faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Shu bois akademik Said Shermuhamedov fenomeniga xos insoniy fazilatlar tahlilini berib, ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Ba’zi manbalarda “Said Shermuhamedov fenomeni” degan maxsus iborani uchratish mumkin. Binobarin, taniqli siyosatshunos, olim, publitsist va jamoat arbobi Narzulla Jo‘raev bu iborani S.Shermuhamedovning buyuk xislatlari ma’nosida ishlatgan [9].

Butunjahon faylasuflar jamiyati Federatsiyasi Prezidenti, professor Ioanna Kuchuradi 1983 yil avgustida Monreal (Kanada)da XVII Butunjahon faylasuflar Kongressida S.Shermuhamedov bilan uchrashib, uning yuksak insoniylik xislatlari to‘g’risida shunday deb yozgan edi: “Bu olijanob, kamtarin insonga uning ulug’ ajdodlariga xos bo‘lgan barcha buyuk xislatlar mujassamlashganligining guvohi bo‘ldik. Har uchrashganda men uning siymosida yangi-yangi samimiylikni ko‘raman” [10].

Rossiya Falsafa jamiyatining birinchi vitse-prezidenti, “Вестник Российского философского общества” (“Rossiya Falsafa jamiyatining axborotnomasi”) jurnalining bosh muharriri, falsafa fanlari doktori, professor N.A.Chumakov S.Shermuhamedovning noyob insoniylik fazilatlarini e’tirof etib, yozgan edi: “Men unda yirik olim, katta hayot tajribasiga ega barkamol insonni ko‘rdim, bu xislatlar menda unga nisbatan katta hurmat tuyg’usini uyg’otdi, bundan tashqari, men unda odamlarga nisbatan pok munosabat, samimiylik va katta g’amxo‘rlik hissi mavjudligini sezdim” [11].

Demak, S.Shermuhamedov fenomenidagi noyob fazilatlar uning komil inson sifatidagi ma’naviy qiyofasini belgilaydi. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov S.Shermuhamedov to‘g’risida fikr yuritib, “Domla nihoyatda mard, bag’rikeng, saxovatli, adolat yo‘lida bir so‘zli, do‘stlarga mehr-oqibati yuksak inson” [12], degan, unga bag’ishlab o‘zining “Ziyo” she’rini yozgan edi.

Komil inson g’oyasi odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni ifoda etadi, insonlarni doimo ezgulikka, taraqqiyotga, ulkan yutuqlarga undaydi.

Akademik Said Shermuhamedovga xos bo‘lgan noyob fazilatlarni, fikrimizcha, quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish to‘g’ri bo‘ladi:

1. Shaxsiy-individual fazilatlari.
2. Jamoatchilik va rahbarlik fazilatlari.
3. Ustozlarga ehtirom, do‘stlar va qarindoshlarga sadoqatlilik xislatlari.
4. Shogirdlariga g’amxo‘rlik xislatlari.

Ana shu ajoyib insoniy xislatlari tufayli olim nomi nafaqat o‘z zamondoshlari, balki hozirgi ixlosmandlari, yurtdoshlari va xorijdagi do‘stlari xotirasida abadiy saqlanib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Birinchidan. Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatini ikki katta yo‘nalishga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir: 1. Rahbarlik va jamoatchilik faoliyati. 2. Ilmiy-pedagogik faoliyati.

Ikkinchidan. Said Shermuhamedovning 86 yillik hayoti va faoliyati ikki asosiy davrga bo‘linadi: 1. Davlat va jamoat arbobi hamda olim hayoti va ijtimoiy faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi davri (1940 – 1970). Bu davr quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: 1) O‘smirlik va balog’at yillari bosqichi (1940 – 1948); 2) Oliy ta’lim yillari bosqichi (1948 – 1956); 3) Dastlabki ilmiy-rahbarlik faoliyati bosqichi (1957 – 1965); 4) Shakllangan jamoat va davlat arbobi sifatidagi faoliyat bosqichi (1965 – 1970). 2. Said Shermuhamedovning ilmiy-pedagogik faoliyati davri (1970 – 2016). Bu davr ikki bosqichga bo‘linadi: 1) Pedagogik-rhbarlik faoliyati bosqichi (1970 – 1985); 2) Pedagog-olim sifatidagi faoliyat bosqichi (1985 – 2016).

Uchinchidan. Akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati yo‘nalishlari va davrlarini ilmiy tadqiq etish O‘zbekistonda madaniyat, fan va maorif shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan konkret, ishonchli materiallar beradi. Shu bois mavzu muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

To‘rtinchidan. Akademik Said Shermuhamedov tomonidan o‘z vaqtida madaniyat, fan va maorif sohalarida amalga oshirilgan samarali va ibratli ishlar, ilgari surilgan g’oyalar bugungi kunda ham jamiyatimizning ijtimoiy-ma’naviy yangilanishi va takomillashuvi uchun xizmat qilishi mumkin.

Beshinchidan. Akademik Said Shermuhamedovning yirik olim, davlat va jamoat arbobi sifatida kamol topishi, samarali mehnatlari, erishgan yutuqlari yosh avlodning o‘qib-o‘rganishi, voyaga yetishi uchun zarur bo‘lgan ibratli fakt-dalillar bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Oltinchidan. Akademik Said Shermuhamedov fenomeniga xos bo‘lgan yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir: 1) shaxsiy-individual fazilatlari; 2) jamoatchilik va rahbarlik fazilatlari; 3) ustozlarga ehtirom, do‘stlar va qarindoshlarga sadoqatlilik fazilatlari; 4) shogirdlariga g’amxo‘rlik xislatlari.

Yettinchidan. Akademik Said Shermuhamedovga xos noyob fazilatlar nafaqat talaba-yoshlar, balki rahbar xodimlar, pedagog-o‘qituvchilar, murabbiylar uchun ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Samatov Shomat. Ilmu ma’rifat bog’boni. – Toshkent: Exstremum press, 2010, 136 bet.
2. Samatov Sh. O‘zbekistonda madaniyat falsafasi maktabining asoschisi //Jayxun: TerDU xabarlari, Termiz, 2010, № 1, 6-13-betlar.
3. Samatov Sh. Akademik Said Shermuhamedov – O‘zbekistonda madaniyat falsafasi maktabining asoschisi //Surxondaryo: ilm va tafakkur. – Termiz, 2020, № 4, 84-92-betlar.
4. Qalb izhorlari. To‘plam. – Toshkent: Universitet, 2005, 120 bet.
5. Qalb izhorlari. To‘plam. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2010, 130 bet.
6. Shermuhamedov Said. Qalbim izhorlari. Birinchi kitob. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010, 164 bet.
7. Jo‘raev N. Suyanch tog’i //Qalb izhorlari. To‘plam. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2010, 87-88-betlar.
8. Kuchuradi Ioanna. Velichie prostogo filosofa //Qalb izhorlari. To‘plam. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2010, 8-bet.
9. Chumakov A.N. K yubileyu professora S.Shermuxamedova //Qalb izhorlari. To‘plam. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2010, 10-bet.
10. Oripov A. Qutlug’ yosh //Qalb izhorlari. To‘plam. – Toshkent: Falsafa va hu- quq instituti nashriyoti, 2010, 6-bet.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘K: 378:371.03

Sirojiddin QORAYEV,
ChDPU universiteti dotsenti
E-mail: s.qorayev.contakt@gmail.com

K.A. Mutalov taqrizi ostida

TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining ekologik madaniyatini yuksaltirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kelgusi faoliyatida qo‘llashi zarur bo‘lgan ekologik bilimlar va o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish borasida qilinishi zarur bo‘lgan ishlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ekologik madaniyat, talaba, rivojlanish, atrof-muhit, tejamkorlik, tafakkur, barkamollik, monitoring, resurs.

ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье говорится о работах, которые необходимо проделать для повышения экологической культуры студентов педагогических вузов, экологических знаний, которые будущие учителя будут применять в своей будущей работе и формирования экологической культуры студентов.

Ключевые слова: Экологическая культура, студент, развитие, окружающая среда, бережливость, мышление, зрелость, мониторинг, ресурс.

IMPORTANT FEATURES OF IMPROVING ECOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS ON THE BASIS OF INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract

The article deals with the work to be done to improve the ecological culture of students of pedagogical higher education institutions, the ecological knowledge that future teachers need to apply in their future work and the formation of ecological culture of students.

Key words: Ecological culture, student, development, environment, thrift, thinking, maturity, monitoring, resource.

Kirish. XXI asrga kelib, insoniyat tamadduni o’zining tarixiy-iqtisodiy taraqqiyotida shunday darajaga borib etdiki, odamzod bundan u yog’iga, ya’ni istiqbolda qanday yashashi lozim, uning yashash tarzi va dinamikasi qay darajada bo’lishi darkor degan savollarga aynan bugun javob izlashi zarur. Insoniyat yuz yil avvaliga taraqqiyot omillarini, inson hayotiga bo’lishi mumkin bo’lgan tahdidlarni belgilab olishi, ularga bugundan tayyor turishi taqozo qilinmoqda. Shuning uchun “barqaror rivojlanish” (sustainable development) istilohi Rio-de-Janeyroda o’tgan xalqaro Kongress tomonidan taklif qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida “…barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi» qayd etilgan bo‘lib, ekologik ta’limning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlarida, jumladan, umumta’lim maktablari va kollej o‘quvchilari hamda oliy ta’lim talabalarida atrof-muhitni asrash muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ekologik ta’lim yanada rivojlantirildi va davlat siyosatining muhim bo‘g‘iniga aylantirildi. So‘nggi yillarda inson hayotiga turli xil xavf-xatarlar haddan ziyod oshdi, mazkur xatarlar mazmuni, mohiyati, tuzilishi tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 21 aprelda imzolangan “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi etib qayta tashkil etildi.

Ekologik ta’limning muhimligi hozirgi zamonaviy ko‘plab mamlakatlarda ta’lim va tarbiya berishning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir.

Zamonaviy texnik ta’limning strategik vazifalaridan biri, nafaqat tez o‘zgarayotgan atrof-muhit sharoitiga to‘la adaptasiya bo‘la oladigan, balki turli tahdid va transformasiyalarga preventiv tayyor, o‘z texnik bilimi, ko‘nikma va malakalarini atrof-muhitning salbiy va o‘ta salbiy tezkor, mohiyati o‘zgaruvchan o‘zgarishlarga alternativ yechimlar topa oladigan, favqulodda vaziyatlarda qarorlar qabul qilishdan cho‘chimaydigan, barqaror rivojlanishni ta’minlay oladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, ekologik pedagogikaning rivojlanishi “Ekologik ta’lim nimadan iborat?” degan savolga javob izlashdan boshlangan. Ekologik ta’lim muammolari mazmuni ekologiya, ekologik tafakkur va ekologik madaniyat kabi tushunchalarning mohiyatini anglash yo‘lida rivojlandi. Ekologik bilimlarni shakllantirish uchun ular qay tarzda, qaerda, qanday qilib, kim tomonidan o‘qitilishi, ekologik bilimga nimalar kiritilishi zarur, nimani o’qitish lozim degan savollarga javob izlandi.

Aslida ekologik madaniyat atrof-muhit va insonni muhofaza qilish falsafasiga asoslangan sivilizasion qadriyatlar majmuasining inson axloqi va fe’l- atvorida xatti-harakatlar, amallar, qarorlar, faoliyat sifatida to‘laligicha va anglangan tarzda namoyon bo‘lishi.

Bizning fikrimizga ko‘ra - ekologik madaniyat qadriyatlar, axloq, munosabat, xulq, fe’l-atvor; ekologik ta’lim tushunchasi, ong, tafakkur, bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyatni shakllantirish jarayoni.

Ba’zi ta’riflardagi ijobiy o‘rin shundaki, unda inson, ya’ni tirik mavjudotlar va atrof muhit o‘rtasidagi

munosabatning uzviy aloqadorligi ekologik madaniyat bilan bog‘lanadi [5].

Ta’kidlangan ekologik “Tushuncha, bilim, tafakkur, ong” majmuini amalda qo‘llay bilish holati inson axloqida, uning fe’l-atvorida namoyon bo‘lishi zarur. Ana shundagina madaniyatli inson shakllanadi. Agar inson ekologik madaniyatga ega bo‘lsa, mana shu madaniyat uning axloqida namoyon bo‘ladi, agar inson mazkur madaniyatga ega bo‘lmasa, faqat bilim va tafakkurga ega bo‘lsa-yu, mazkur bilim va tafakkur kundalik hayotda uning axloqida namoyon bo‘lmasa, bunday odamni ekologik madaniyatga ega bo‘lgan inson deb atash o‘rinsiz bo‘ladi.

“Oliy ta’lim muassasalari talabalari ekologiyaga doir bilim, ko‘nikma va malakalarga ega emasliklari” borasidagi fikr biroz bo‘rttirib aytilgan [6]. Chunki aslida hozirgi zamon o‘quvchilaridan, xususan, oliy ta’lim tizimi talabalaridan “ekologiya” borasida fikr yuritishni so‘rasangiz, ularning qariyb 100%i o‘z shaxsiy munosabati va global ekologik muammolar silsilasini juda chiroyli so’zlab bera oladi. Muammo bilimning yo‘qligida emas, balki talabalarning bilimlari ommabop tarzda shakllantirilgan bo‘lib, e’tiqod sifatida real amal qilishi bo‘yicha undan keyingi darajaga, ya’ni axloq, turmush tarzi, kundalik ehtiyoj sifatida shakllanmay mutlaq qolib ketganligida, talabalarda ta’lim olish bo‘yicha yuqori ierarxik bo‘g‘inlar, ya’ni ko‘nikma va malakalar silsilasi etarli emasligidir.

“Shaxsning u yoki bu darajada shakllantirilgan ekologik madaniyati tarbiya natijasi. Mazkur tarbiyaning bosh maqsadi esa bolani bu dunyoda, ya’ni mavjud atrof-muhitda yashashga o‘rgatishdan iborat. Buning uchun esa bola ekologik madaniyatga doir ma’naviy qadriyatlarni o‘ziga singdirib olishi darkor. Shu vaqtgacha amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarda ekologiya atrof-muhit muhofazasi va biologik turlarni asrash sifatida talqin qilinib kelinayotgan edi. Bunda tabiiy, texnik, gumanitar fanlar sintezi hamda insonning atrof-muhit bilan bo‘lgan munosabatlariga doir tajribasi oqibatlari borasida so‘zlanar edi. Biroq bugungi kunda ekologik madaniyat batamom yangi tushunchalar bilan ishlaydi. Ular “qadriyatlar – munosabat – fe’l-atvor”dir. Ekologik ta’lim va tarbiya esa “ong – tafakkur – bilim – faoliyat” bilan ish ko‘radi. Shunga ko‘ra, bugungi jamiyatlarga ekologik bilimlarga ega shaxsga emas, balki ekologik madaniyatga ega bo‘lgan shaxsga talab ortadi” [7].

Shuningdek, olimlar ekologik tafakkur va madaniyatni qanday yo‘l, usul va vositalar yordamida shakllantirish mumkin, bunda qanday innovasiyalarni ishlatish darkor degan savolga javob izlaydilar.

Tahlil va natijalar. O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab AQShda turli ekologik ijtimoiy harakatlar keng rivojlana boshlaydi. Ijtimoiy talabga binoan ekologik ta’lim, ta’lim tizimining barcha bosqichlariga kiritiladi. Ekologik ta’lim mutaxasislarini tayyorlash jarayoniga asos solinadi. AQSh kongresi 1990 yili yangi tahrirdagi “Ekologik ta’lim to‘g‘risdagi Milliy Qonun”ni qabul qiladi [8]. Ekologiyaning turli muammolariga bag‘ishlangan ta’lim markazlari faoliyat olib borib, har yili o‘nlab kitoblar nashr qilinadi. Ulardan Yu.Solomon (Eng muhim uch ekologik sohalar, ya’ni ekologik etika, ekologik huquq va ekologik ta’lim masalalari) [9], Shing Yung (Atrof- muhitni muhofazalash masalalari, har bir qadamda buddizm) [10], M.Grey (Ekodiversiya muammolari) [11], K.Xarding (Ekologik barqaror rivojlanish: manbalari, amalga oshirilishi va muammolari) [12], A.Blakman (Rivojlanayotgan davlatlarda hayrixohlar harakatlari orqali ekologiyani muhofaza qilib bo’ladimi?) [13], S.S.Xaugen (Kattalarga ekologik ta’lim berishning nazariyasi va ularni o‘qitish tamoyillari) shular jumlasidandir.

Yevropa davlatlarida “Enviromental Studies” nomi ostida keng profilli hamda universal mutaxassislarni tayyorlashga o‘tgan asrdayoq o‘tilgan. Yevropa davlatlarida atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalarini amaliy ekologiya tarkibi o‘rganiladi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlarda yangi umumiy tushuncha “envayronmentalistika” environmentalism aslida environment — atrof- muhit, tabiat so‘zidan olingan termini ishlatiladi. Mazkur termin o‘zbek tilidagi “atrof-muhitni muhofaza qilish ilmi” ma’nosiga to‘g‘ri keladi [9].

Yevropa davlatlarda atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishiga quyidagilar kiritiladi: Ekologik muhitni yaxshilash maqsadida atmosfera va gidrosferaga chiqindilarni tashlashni chegaralash; tabiiy majmualarni saqlab qolish maqsadida qo‘riqxonalar, buyurtma qo‘riqxonalar va milliy tabiat bog‘larni tashkil qilish; baliq va hayvonlarni ov qilishni, ularning turlar rang- barangligini saqlash maqsadida qat’iyan man qilish; ruxsat etilmagan joylarga chiqindilarni tashlashning oldini olish.

Rossiyada ekologik ta’lim yo‘nalishida – biorangbaranglik asoslari, geoekologiya, atrof-muhit ifloslanishi me’yorlari, tabiatdan foydalanish asoslari, texnogen tizimlar va ekologik qaltislik, barqaror rivojlanish asoslari, biosfera haqidagi ta’limot, ekologik biotexnologiya, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik, ekologik monitoring, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti kabi fanlar o‘qitiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ta muhim jabhalardan biri bo‘lganligi uchun ham ekologik ta’lim bilan butun jamiyat, ta’lim tizimi, shuningdek, oila, maktab va fuqarolik jamiyati institutlari shug‘ullanmoqda, quyidagi 1-rasmda mamlakatimizda mavjud ekologik ta’lim tizimi tuzilishi yoritib berilgan.



1-rasm. O‘zbekistonda ekologik ta’lim tizimi tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 27 may 434-sonli Qarori qabul qilindi [3].

Konsepsiyaning 6-bobi “Oliy ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish” deb nomlanib quyidagilar asosiy vazifa qilib belgilab olingan:

Oliy ta’limning 5630100 - «Ekologiya va atrof muhit muhofazasi» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o’quv rejasi va fan dasturlari ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy pedogogik texnologiyalardan kelib chiqib takomillashtiriladi;

Vazirliklar va idoralarning talab va takliflari, kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va tahlillar asosida ekologik vaziyatning mavjud holatidan kelib chiqib oliy ta’lim tizimida «Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»ga yangi yo’nalishlar va mutaxassisliklarni kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi;

Oliy ta’lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlari ekologik yo’nalishlarida ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo’yicha tegishli o‘quv fanlari mazmuni kuchaytiriladi va qo‘shimcha mavzular bilan boyitiladi. Talabalarga fan dasturlarida belgilangan hajmda tegishli bilimlar beriladi hamda ularda zarur malaka va ko’nikmalar shakllantiriladi;

Noekologik yo‘nalishlarda tegishli o‘quv fanlariga ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid mavzular kiritiladi hamda ilm-fanda erishilgan yutuqlar, ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid yangi texnologiya va tadqiqotlar asosida muntazam yangilanib boriladi;

Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta’lim sohasi bo‘yicha magistrlik dissertasiyalari tayyorlanadi, zamonaviy va dolzarb ilmiy-amaliy masalalarga bag’ishlangan mavzular bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar o‘tkaziladi;

Noekologik ta’lim sohalari bo‘yicha magistrlik dissertasiyalari tayyorlanishida tegishli mutaxassisliklarga xos bo‘lgan ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid masalalar dissertasiya ishining asosiy mavzu va yo’nalishlariga mantiqiy javob beradigan tarzda yoritib boriladi;

Oliy ta’lim muassasalarining amaliyot darslari bevosita yirik sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, suv xo’jaligi tashkilotlari, qo‘riqxonalar, ekologik inqiroz kuzatilayotgan hududlar va ekologiya sohasidagi boshqa korxonalarda olib borilishi yo‘lga qo‘yiladi;

Ekologiya sohasidagi mavjud Internet veb-saytlariga talabalarni qiziqtiruvchi materiallar kiritib boriladi, shuningdek, turli tanlovlar (“Eng qiziqarli maqola muallifi”, “Eng dolzarb material muallifi” va boshqalar) tashkil etiladi;

Oliy ta’lim muassasalarining davriy nashrlarida, shuningdek, gazeta va ilmiy jurnallarda ekologiya va atrof muhit muhofazasiga bag’ishlangan ruknlar ochiladi va unda professor-o‘qituvchilar, magistrantlar va talabalarning ushbu masalalarga bag’ishlangan ilmiy maqolalari chop etib boriladi;

Oliy ta’lim muassasalari, talabalar turar joylarida “Eko-klublar” tashkil qilinadi, ularning yillik rejalari tuziladi hamda faoliyati ta’minlanadi;

Internet tarmog‘ida ekologik ijtimoiy sahifalar tashkil qilinadi, fikr almashishni yo‘lga qo‘yish maqsadida internet-platformalar va messenjerlar joriy etiladi, ular yordamida yoshlar ishtirokida “flesh-mob”, “xeshteg” va ekologik masalalarga bag‘ishlangan, yoshlarni qiziqtiruvchi boshqa tadbirlar muntazam amalga oshirib boriladi. O

O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasida barcha ta’lim bosqichlarida xususan, oliy ta’lim tizimida ham amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Mazkur oliy ta’lim tizimida ham amalga oshirish chora-tadbirlari 8 ta asosiy chora-tadbirlar rejalashtirilgan bo‘lib, uni amalga oshirish mexanizmi, bajarish muddati va mas’ullar belgilab berilgan

Mazkur Konsepsiya ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar orasida ekologik bilim va madaniyatni targ’ib qilish, ekologiya sohasini ilg’or innovasion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarning ona tabiatni sevish va uni ko‘z qorachig‘idek asrashga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish tamoyillari - insonparvarlik, insonparvarlashtirish, integrasiya, ilmiylik, o‘lkashunoslik, tizimlilik va izchillik, onglilik va ijodiy faollik, ta’lim natijalarining mustahkamligi va kompetentligi diagnostik-loyihalovchi, qadriyatga yo‘naltiril-ganlik, tashkiliy-rivojlantiruvchi, boshqaruv – kommunikativ, nazorat – baholash ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar. Talabalarning ekologik kompetentligining asosiy funksional tarkibiy qismlari tavsiflandi, hamda talabalar ekologik kompetentligining texnologik tarkibiy qismi mazmuni ochib berlidi. Innovasion ta’limi klasteri asosida talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirish modeli maqsadli, mazmunli, jarayon, metodik va natijaviy tarkibiy qismlari asosida ishlab chiqildi. Pedagogik ta’lim innovasion klasteri uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo‘lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat samaradorligi natijasini yangi darajaga ko‘tarish orqali yuqori sifatga erishish imkonini beradi.

Ota-bobolarimiz qoldirgan nodir meros – musaffo osmon, tiniq suv, toza tuproq, yer qa’ri va er usti boyliklarini qanday asramog’imiz, ularni asl holida kelgusi avlodlarga topshirmog‘imizni tushuntirish eng dolzarb va kechiktirib bo’lmaydigan umummilliy masaladir.

Hozirgi davrda o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan ham ongli munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa pedagog kadrlar zimmasiga ulkan va mas’uliyatli vazifa yuklaydi. Zero, tabiatning kelgusida gullab-yashnashi yoki ekologik muammolarning globallashib borishi yosh avlodning tabiatga nisbatan munosabatiga bevosita va bilvosita bog’liqdir.

O‘zbekistonda bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhit muhofazasi, ekologik barqarorlik, aholi salomatligini himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi bir qator ijobiy ishlar olib borilmoqda. Xususan, Mamlakatimizda so‘nggi 20 yilda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qariyb 30 ga yaqin qonun va 350 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan hamda fuqarolarning maqbul atrof-muhitga bo’lgan huquqlarini kafolatlaydigan ko‘plab xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilindi, shartnoma va bitimlar imzolandi. Ta’kidlash lozimki, tabiatni ifloslantirmaslik sababli mamlakat va dunyo sanoati rivojlanishiga to‘sqinlik qilmaslik zarur. Buning uchun avvolambor har bir mamlakat fuqoralarida ekologik talim samaradorligini oshirish ekologik madaniyatni shakllantirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637- son Qonuni. Toshkent sh.,2020, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, Toshkent , PQ-2909-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son.
5. Malikova A.R. Talabalar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish // Fan, ta’lim, integrasiya va ishlab chiqarish: Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami.
6. Bozorova N.Sh. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari (oliy o’quv yurtlari misolida). T.: 2006. – 21 b.
7. Environmental ethics, law and education to determine which plays the most critical role in environmental enhancement and protection. Environment, Development and Sustainability, p. 1069-1080.
8. Hsing Yun. Protecting Our Environment. Buddhism in Every Step. – Buddha’s Light Publishing, 2011. – 19 p.
9. Gray M. Geodiversity. Valuing and Conserving Abiotic Nature. John Wiley & Sons Ltd, Chichester. 2004. – p 434.
10. Harding R., Ecologically sustainable development: origins, implementation and challenges. Desalination, 2006. 187(1-3): p. 229-239.
11. Blackman. A., Can Voluntary Environmental Regulation Work in Developing Countries: Lessons from Case Studies. Policy Studies Journal, 2008. 36(1): p.119- 141.
12. O‘zbekiston milliy ensiklopeiyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va b. – T.: “O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.
13. www.slayd.arxiv.uz
14. www.arxiv.uz
15. www.google.uz

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 373.211.24

Nargiza QUCHQOROVA,
UrDU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d., dotsent
E-mail: kuchqarova06071979@gmail.com

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.b.f.d. D. Nafasov taqrizi asosida

OUTSOURCING IS AN IMPORTANT SYSTEM FOR FUTURE EDUCATORS

Annotation

In this article, future educators are given ideas about the goals and objectives of outsourcing children's healthy nutrition, the daily routine, the requirements for its compilation, the meaning of the marriage book. The duties of employees in outsourcing healthy nutrition for pupils and the procedure for monitoring the organization of healthy nutrition in preschool educational organizations are explained.

Key words: Outsourcing, brack commission, brack book, economics, healthy eating , household manager, technological map, seasonality, daily menu.

АУТСОРСИНГ – ВАЖНАЯ СИСТЕМА ДЛЯ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье будущим воспитателям даны представления о целях и задачах аутсорсинга детского здорового питания, распорядке дня, требованиях к его составлению, значении книжки бракеража.Разъяснены обязанности работников при аутсорсинге здорового питания воспитанников и порядок контроля за организацией здорового питания в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: Аутсорсинг, бракеражная комиссия, бракеражная книжка, экономика, здоровое питание, заведующий хозяйством,технологическая карта, сезонность, меню ежедневное.

AUTSORSING – BO‘LAJAK TARBIYACHILAR UCHUN MUHIM TIZIM

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarga bolalarni autsorsing usulda sog‘lom ovqatlantirishning maqsad va vazifalari, kunlik taomnomalar, uni tuzishga qo‘yiladigan talablar, brakeraj daftari hamda uni ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Tarbiyalanuvchilarni autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishda xodimlarning vazifalari va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish monitoringini olib borish tartibi izohlangan.

Kalit so‘zlar: Autsorsing, brakeraj komissiya, brakeraj daftari, iqtisodiyot, sog‘lom ovqatlantirish, xo‘jalik mudiri, texnologik karta,mavsumiy,kunlik taomnoma.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy innovatsiyon tehnologiyalar davrida yangilik kirib bormagan soha bo‘lmasa kerak. Shular qatoriga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham hozirgi kunda ko‘plab yangiliklar kirib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim masalalardan biri tarbiyalanuvchilarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashdir. Bu tizimda autsorsing asosiy o‘rinni egallaydi.

Bo‘lajak tarbiyachilar autsorsing haqida bilimga ega bo‘lishi ijtimoiy zaruriyatdir. Xaridor va autsorser o‘rtasidagi barcha munosabatlar tegishli shartnoma bilan tartibga solinadi. Bitimning mavzusi muayyan malakaviy talablarga javob beradigan xodimlarni taqdim etishdir. Autsorsing shartnomasida quyidagi shartlar mavjud: shartnoma mavzusi, jalb qilingan xodimlar soni, ularning malakasi,bajarilishi kerak bo‘lgan ish hajmi, pudratchi xizmatlar qiymati,xizmatlar uchun haq to‘lash tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shartnomaning amal qilish muddati va xizmatlarni qabul qilish tartibi.

Prezidentimiz ham bejiz quyidagi fikrlarni bildirmagan:

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. -Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz” [1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot jamiyat hayotining eng murakkab tizimlaridan biri sifatida oziq – ovqat, kiyim – kechak, uy – joy, ishlab chiqarish qurollari hamda vositalari kabi cheksiz narsalarga umumiy ehtiyojlar va ularni qondirishning usullari mavjudligini gavdalantiradi.

Tarixiy ma’lumotlardan ayonki, buyuk ajdodlarimiz iqtisod va ta’lim-tarbiyaga oid ko‘plab g‘oyalarni ilgari surgan. Chunki iqtisod har bir kishi, har bir oila, va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat insonning bugungi hayotini, balki kelajagini ham belgilab beradi. Axir, xalqimiz “Oldin iqtisod, keyin siyosat”, degan fikrni bejiz aytmagan. Demak, jamiyatda iqtisodiy madaniyatni, iqtisodiy ongni shakllantirish, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Autsorsing tizimi maktabgacha ta’lim tizimida yangi atama bo‘lib,pedagogik-psixologik jihatlari olimlarimiz tomonidan xali to‘liq o‘rganilganicha yo‘q.

Autsorsing- "Autsorsing" atamasi ingliz tilidan (ingliz tilidan) olingan. ("outsourcing") va so‘zma-so‘z boshqa odamlarning resurslaridan foydalanish deb tarjima qilingan. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, autsorsing – uchinchi tomon tashkilotining asosiy bo‘lmagan funksiyalari (jarayonlari). Bu asosiy jarayonlarga e'tiborni qaratib, tashkilotni boshqarishni optimallashtirish imkonini beradi [2].

Autsorsing bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonuni mavjud bo‘lib, unda Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirish hamda bu borada autsorsing usulida xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish lozimligi ta’kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu qarorni ijrosini ta’minlash maqsadida autsorsing usulida davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirilib, sanitariya qoidalaga rioya va gigiyena normativlariga muvofiq holda ovqatlantirishni tashkil etish orqali bolalarning sog‘lom va barkamol o‘sishini ta‘minlash maqsadida, sog‘lom ovqatlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish va ta‘lim-tarbiya sifatini va samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida sog‘lom ovqatlantirish autsorsing usulida tashkil etish uchun, ijaraga autsorsyerga oshxonaning asbob- uskunalari, idish tovoqlari vaqtincha foydalanishga bepul beriladi. Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni xavfsiz va to‘liq ovqatlantirishni taminlash uchun gigiyenik talablarga mosligi o‘rganish maqsadida uch oy muddatda sinov tariqasida ko‘rib chiqiladi. Tarbiyalanuvchilarning sog‘lom ovqatlanishini tashkil etishda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining oshxonalari sanitariya qoidalariga to‘liq javob beradigan holda gigiyena shart-sharoitlarga to‘liq mos bo‘lishi kerak.

Tahlil va natijalar. Autsorsing usulda sog‘lom ovqatlantirishning maqsad va vazifalari. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishdan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, sog‘lom va barkamol qilib o‘sishini ta‘minlash, tarbiyalanuvchilarga oshxonalarda sifatli taomlar tayyorlash hamda taomlarni iste‘mol qilish uchun gigiyenik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishning vazifalari maktabgacha yoshdagi bolalarni sanitariya va gigiyena qoidalariga muvofiq holda ovqatlanish va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash,bolalarni ovqatlantirish bilan bog‘liq yuqumli kasalliklar bilan kasallanishini oldini olishdan iborat.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat :

-maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom ovqatlantirisda autsorsing korxonalari agarda jalb qilinmagan holda bevosita maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tomonidan tashkil qilinib, jalb qilingan oshpazlar uch yildan bir marta malaka oshirishdan va tibbiy ko‘rikdan o‘tgandan keyin ishga qo‘yilisi kerak bo‘ladi.

Tarbiyalanuvchilarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishda tegishli tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘lim

Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi qisqa muddatli guruhlar bolalari uchun taomnoma alohida tuziladi va tashkilot direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun har o‘n kunlik taomnoma blankalari ip o‘tkazib bog‘langan holda va oldindan raqamlanadi. Tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘limi mudiri va bosh hisobchi tomonidan raqamlanib imzolanadi, muhrlanadi va alohida daftarda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Tashkilot direktorining brakeraj komissiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi buyrug‘i har yilda bir marta qabul qilinadi, brakeraj komissiyasining raisi maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamshirasi bo‘ladi, uning tarkibiga tarbiyachi, oshpaz, tashkilot kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar a‘zo bo‘ladi. Brakeraj daftari tikilgan, raqamlangan, tashkilot direktori tomonidan imzolangan va muhrlangan bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Brakeraj daftarining birinchi sahifasida brakeraj komissiyasini tasdiqlash haqidagi buyruqdan ko‘chirma bo‘lishi, daftar raqamlangan, ip o‘tkazib tikilgan va maktabgacha ta‘lim bo‘limi mudiri tomonidan uning familiyasi, ismi, otasining ismi va sana ko‘rsatilgan holda imzolanib, muhrlangan bo‘lishi lozim.

mudirlari hamda maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori mas‘ul hisoblanadi.

Kunlik taomnomalar maktabgacha ta‘lim vazirligi tomonidan tuzilib, tasdiqlangan hamda sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan kelishilgan namunaviy, mavsumiy taomnomalar asosida tuziladi.

Har kundagi taomnoma tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib, keyingi ish kuni uchun soat 16.00 ga qadar tashkilot hamshira, oshpaz va xo‘jalik mudiri bilan birgalikda tuzilib, keyingi kun uchun oziq –ovqat mahsulotlari ish kuni yakunlangunga qadar navbatchi tarbiyachi bilan birgalikda oshxonaga beriladi.

Taomnoma oldingi kundagi bolalar soniga asoslangan holda har bir tarbiyalanuvchi uchun o‘rtacha bir kunlik sarflanadigan oziq-ovqat mahsulotlar miqdori, ularning qiymati chiqarilib ikki nusxada tuziladi. Har kuni ertalab soat 9.00 gacha maktabgacha ta‘lim tashkilotiga kelgan bolalar soni taomnomada nazarda tutilgan tarbiyalanuvchilar sonidan 10 nafar yoki undan ko‘p bo‘lsa, guruh tarbiyachilarining bolalar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma asosida tuziladi va hamshira va tashkiloti direktori tomonidan imzo bilan tasdiqlanadi.

Taomnomaning bir nusxasi hamshiraga, ikkinchi nusxasi oshxonaga foydalanish uchun beriladi. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti oshxonasida bir kunlik taomnoma va tayyorlanadigan taom turlari va bir tarbiyalanuvchi uchun taom miqdori maxsus ovqat tarqatish joyiga yozib qo‘yiladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, bo‘lajak tarbiyachilar quyidagi atamalarni bilishi juda muhim.

Brakeraj - (rus. brakdan), mol nazorati — tovarning sifati, bezatilishi va transport bop qilib o‘ralishi, belgilangan standart yoki shartnoma shartlariga mos kelishini tekshirish. B. maxsus davlat tashkilotlari (rasmiy tovarshunoslar) yoki hakam brokerlar tomonidan bajariladi [3].

Brakeraj komissiya- Maktabgacha ta’lim tashkilotida oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar sifatini o‘rganish bo‘yicha brakeraj komissiyasi (keyingi o‘rinlarda brakeraj komissiyasi deb ataladi) tashkil etiladi [4].

Brakeraj daftari- Brakeraj komissiyasi oshxonaga qabul qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar sifatini doimiy ravishda o‘rganib boradi. O‘rganish natijalari alohida yuritiladigan, ushbu Nizomga 2 va 6-ilovalarga muvofiq shakldagi brakeraj daftarlarida qayd etiladi[5].

Tarbiyalanuvchilar uchun oshxonada tayyor bo‘lgan taomdan tarqatilishidan 15 - 20 daqiqa oldin maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamshirasi kunlik sinama olib qo‘yadi.Ta‘minotchi tashkilotlar tomonidan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari brakeraj komissiyasi tomonidan ko‘rib qabul qilingandan keyin tashkilotning xo‘jalik mudiri tomonidan omborxonaga qabul qilib olinadi.

Maktabgacha tashkilotida ombor kitobi va brakeraj daftari 3yil davomida saqlanadi.Xo‘jalik mudiri daftarning yuritilishida ma‘sul shaxs hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilarini autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishda xodimlarning vazifalari. Bolalarning so‘g‘lom ovqatlantirishda asosan maktabgacha tashkiloti bo‘lim mudiri, tashkilot direktori, maktabgacha ta’lim xamshirasi va xo‘jalik mudiri va oshpaz ma’sul hisoblanadi. Bolalarning sog‘lom ovqatlantirishni muaffaqiyatli amalga oshirilayotganini aniqlash uchun har yarim yilda bir marta ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkaziladi va uning natijalari muhokama qilinadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamshirasi taomlarning xilma-xilligiga, oshxona va omborxonaning sanitariya qoidalari, rioya qilgan holda faoliyat yuritishini nazorat qiluvchi javobgar shaxsh hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamshirasi har uch yilda bir marta maktabgacha

ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha malaka oshiradi.Maktabgacha ta‘lim tashkiloti oshpazi eng kamida 3-razryadli oshpaz darajasiga oid maxsus kasbiy ma ‘lumotga ega bo‘lishi kerak,hamda har uch yilda bir marta maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha malaka oshirishi kerak bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining xo‘jalik mudiri eng kamida o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lishi kerak u quyidagi vazifalarni bajaradi: oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qiladi, omborxonaga joylashtiradi va ularni saqlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga amal qilanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish monitoringini olib borish. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish yuzasidan doimiy monitoring olib boradi, jumladan, tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlanganligi nazorat qilib boriladi.

Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Xulosa. Rivojlanish bor joyda kamchiliklar mavjud bo‘ladi, ammo bu yangiliklarning barchasi insonlar turmush tarzini oz bo‘lsada, oldinga siljishga, yangilik kiritishga hissa qo‘shadi.Maktabgacha ta'lim tashkilotida autsorsingni joriy etish istiqbollarini baholash uchun uning huquqiy, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy tomonlardan ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqish kerak. Ayniqsa, hozirgi kunda MTT larga e’tibor juda yuqori darajada bo‘lgan bir paytda bularni barchasi bolajonlarni to‘gri ovqatlantirishga hamda sifatli ta’lim-tarbiya berishga qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm hozir.org/i-bob-autsoring-haqida-tushuncha-va-bu-xizmat turining-maktabg.html
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/brakeraj
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-5431797
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyuldagi 626-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-4441105

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 378.016:53.01

Naima MAVLONOVA,
NamDU o‘qituvchisi

p.f.f.d, PhD N.Abdullayev taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF LABORATORY CLASSES IN PHYSICS BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH

Abstract

This article describes the introduction of modern pedagogical and digital technologies in education to develop students' professional competence in performing laboratory work in physics, to improve the methodology for using digital devices and electronic programs in laboratory work, and to enrich the content of training sessions in order to increase the effectiveness of education.

Key words: Competence, virtual work, digital technology, multimedia work, visual model, experimental research, e-learning, innovation, methodology, pedagogical technology.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье рассказывается о внедрении современных педагогических и цифровых технологий в образование для развития профессиональной компетентности студентов в выполнении лабораторных работ по физике, для совершенствования методики использования цифровых устройств и электронных программ при выполнении лабораторных работ и для обогащения содержания учебных занятий чтобы повысить эффективность образования.

Ключевые слова: Компетентность, виртуальные работы, цифровая технология, мультимедийная работа, визуальная модель, экспериментальное исследование, электронная обучение, инновация, методика, интеграция

LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda fizikadan laboratoriya ishlarini bajarishda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta`limga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, laboratoriya ishlarini bajarishda raqamli apparatlar va elektron dasturlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish orqali o`quv mashg`ulotlarining mazmunini boyitish va shu orqali ta`lim samaradorligini oshirish bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, virtual ishlanmalar, raqamli texnologiya, multimedia ishlanmalari, vizual model, ekspermental tadqiqot, elektron ta`lim, innovatsiya, metodika, pedagogik texnologiya.

Kirish. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari fizikadan laboratoriya mashg’ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, mashg’ulotlarda virtual ishlanmalarni joriy etish, laboratoriya ishlarini raqamli texnologiyalar asosida yangilash hamda kengaytirish, innovatsion texnologiyalar, pedagogik dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali ishlanmalar kompleksini yaratish dolzarb masalalar hisoblanib, laboratoriya mashg’uloti talabalarning eksperimental salohiyati va yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi ko’p omilli fenomen sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, fizika fani bo’yicha zamonaviy tadqiqot ishlarida eksperimental ilmiy izlanishlar, raqamli texnogiyalar (The Digital Education), elektron ta’lim (E-Learning) ga asoslangan, fizik eksperimental negizning murakkablashuvi, eksperimental tadqiqot ishlarining globallashuvi dolzarb fundamental muammolarni yechishda o’zaro hamkorlikda ishlaydigan zamonaviy kompetentli tadqiqotchilarni tayyorlashni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasa (OTM)larining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, ularning ilmiy-texnik, nazariy-metodik, ta’limiy-didaktik ta’minotini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga, talabalarni fizika fani bo’yicha eksperimental tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda kompetentsiyaviy yondashuvni qo’llashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, OTMlarida fizikadan laboratoriya mashg’ulotlarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy, metodik va didaktik ta’minotini yaxshilash zarurati mavjud. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida «… fizika kabi muhim va talab yuqori bo’lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish» kabi ustuvor vazifalar belgilangandi. Bu o’z navbatida, fizikadan laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida, shuningdek bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etishini ko’rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi PF–4947-son [7], 2019 yil 8 oktyabrdagi «O’zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi PF- 5847-son farmonlari [16], 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora- tadbirlar to’g’risida»gi PQ–3775-son [14], 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta’lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ-4884-son qarorlari [19] hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogikada kompetentli yondashuv muammolarini yechishda o’ziga xos «muhim bosqichlar» bo’lib, pedagogikaga oid fanlar tomonidan kompetentli jarayonlarni o’rganishning dolzarblik tendentsiyasini

kuzatishga imkon beradi. Olib borilgan tadqiqot ishlarining yetakchi g’oyalarini tahlil qilish, falsafiy metodologik asoslarni tanlash va tadqiqiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, fan va ta’lim integratsiyalashu- vining muammoli sohasi tavsifi, bizni umumiy ilmiy-metodik asoslarni – fanlararo tizimli yondashuvni, ta’lim sohasidagi hodisalar va jarayonlarni nazariy tavsiflash uchun zarur shart sifatida ko’rib chiqishga imkon berdi. Maqolada Laboratoriya mashg`ulotlarini o`rganishda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish uchun nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (suhbat, so’rovnoma, kuzatish, tasniflash), test topshiriqlari, o’qituvchi va talabalar bilan suhbatlar, bahs-munozaralar, pedagogik tajriba-sinov kabi usullardan foydalanildi.

Axborotlar ko‘lamining ortishi, talabalarga fizikadan b eriladigan bilimlar hajmi-
ning ko‘payishi bajariladigan laboratoriya ishlari miqdorining ortishiga olib
kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak fizika o‘qitu vchilariga psixologik va
fiziologik jihatdan ularning laboratoriya ishlarini bajar ish texnikasi va texnologi-
yasiga bo‘lgan qiziqishlarini susayishiga, bilimlarni o‘zlashtiri sh darajasining
pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday salbiy holatlarn i bartaraf etish uchun fizika-
dan laboratoriya ishlarini integratsiyalash muammosini muvaff aqiyatli hal etish
zarurati vujudga kelmoqda.«Integratsiya» so‘zi ruscha -o‘zbekcha lug‘atda
lotincha «integratio» so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qu rish, tiklash, to‘ldirish;
(«integr» - to‘liq, butun, yaxlit)
degan ma’noni anglatadi, «integratsiya» - o‘zaro
bog‘langan holda rivojlantirish,
bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga
keltirmoq ma’nolarini beradi.
«Integratsiya» atamasi pedagogik ta’limda
nisbatan yangi bo‘lib, mazmun-mohiyati
jihatidan uzoq tarixga ega. Koinotda,
jamiyat hayotida, turmushda va ishlab chiqarishda, ta’l imda, ya’ni mikro olamdan
tortib makro olamgacha integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiya keng ma’noli tushuncha. Bugungi kun ga kelib, insoniyat o‘qitishda integratsiya
jarayonining mazmun mohiyatini, uning rivojlan-tiruvchi funksiyalari amalda
qo‘llanilishi,
sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarni hal qilish va Y er
sayyorasida
hayotni saqlab qolish mumkinligini anglagan holda, unga katta

e’tibor qaratmoqdalar. Ayniqsa, talabalarning ilmiy du nyoqarashini, ularning ekologik madaniyatini shakllantirishda ta’limda integratsiya jarayonining muhimligi
dunyo olimlari tomonidan alohida qayd etilmoqda .

Endi e`tiborimizni kompetentli yondashuv tushun-chasiga qaratamiz.

Endi ta’limdagi kompetensiyaviy yondashuvning metodologik funksiyasining tuzilmasiga izoh beramiz.

1.Evristik qism talabalarda ijodiylik, kashfiyotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga bog‘liq bo‘lgan ilg‘or pedagogik konsepsiyalarni ishlab chiqishga manba bo‘lib xizmat qiladi.

2.Ilmiy dunyoqarash qismi pedagogik integratsiya jarayon qatnashlarning Olamni yahlit, tizimli his etishni rivojlantirish va intellektual sifatlarini tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

3.Instrumental qismda laboratoriya va eksperimental topshiriqlarni samarali bajarish imkoniyatlarini hamda asbob va uskunalarni foydalana olish qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi va eksi, nazariy bilim va tajribalarning uzviyligini ta’minlashda interfaol texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Pedagogikada kompetentli yondashu muammolarini yechishda o‘ziga xos «muhim bosqichlar» bo‘lib, pedagogikaga oid fanlar tomonidan kompetentli jarayonlarni o‘rganishning dolzarblik tendensiyasini kuzatishga imkon beradi. Olib borilgan tadqiqot ishlarining yetakchi g‘oyalarini tahlil qilish, falsafiy metodologik asoslarni tanlash va tadqiqiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, va ta’lim integratsiya-lashuvining muammoli sohasi tavsifi, bizni umumiy ilmiy metodik asoslarni fanlararo tizimli yondashuvni, ta’lim sohasidagi hodisalar va jarayonlarni nazariy tavsiflash uchun zarur shart sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar.

- 5140200 – Fizika bakalavriat ta'lim yo‘nalishi uchun fizikadan laboratoriya ishlarini o‘tkazish shakli, mazmuni, mavzulari bayoniga oid «Fizikadan virtual laboratoriya ishlari» nomli elektron darslik yaratilib, ta'lim jarayoniga joriy etilgan;

amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlariga oid elektron resurslar yaratilib, ta'limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

- ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga oid “Fizika ta'limida zamonaviy texnologiyalar” nomli uslubiy ko‘rsatma yaratildi, natijada ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yo‘riqnomasi yaratildi;

- Fizikadan laboratoriya ishlarini bajarishga oid taklif va tavsiyalar bo‘lajak mutaxassislarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki fizikani o‘qitish jarayonida laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida o‘tkazishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar, dissertatsiya, avtoreferat, o‘quv- metodik qo‘llanmalar, darsliklar va monografiyalar tahlil qilinib o`qitish tizimini rivojlantirish uchun bu yo`nalishda ishlash muhimligi kelib chiqadi. Zero, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish orqali shaxsni rivojlantirishdek g‘oyat murakkab va mas'uliyatli vazifani, asosan, yuksak malakali va innovatsion g‘oyalarga ega, ijodkor o‘qituvchilar ko‘proq uddalaydilar. Darhaqiqat, talabalarning zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuskorlarini rahbatlantirish, intellektual ko‘maklashish talabalarga oid davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish / – Farg‘ona: FarDU, 2008.
2. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar / – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat / T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.
4. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar / – T.: “Moliyaiqtisod” nashriyoti, 2009.
5. Yo‘ldoshev J.G‘. Xorijda ta’lim / –T.: Sharq, 1995.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / - T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:371+616.831

Ulug‘bek MAQSUDOV,
Farg‘ona davlat universiteti p.f.d. (PhD)

P.f.d., professor T.A.Egamberdiyeva taqrizi asosida

GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-YOSHLARNING TASHABBUSLARINI RAG‘BATLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talaba-yoshlarning tashabbuslarini rag‘batlantirishning pedagogik-psixologik omillari, muammolari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida erkaklik (ayollik)ning kundalik namoyon bo‘lishi uchun qulay ijtimoiy-madaniy muhit yaratish bo‘yicha o‘quv jarayoni subyektlarining faoliyati; o‘qish jarayonida har bir talabaning maqomini bilish va hayotning o‘zini o‘zi belgilash istiqboliga ta’sirlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Rag‘batlantirish, talaba, yoshlar, metodologiya, o‘qitish, ijtimoiy-madaniy, konsepsiya, jarayon, ko‘nikmalar, muammo, gender.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ СТУДЕНЧЕСКО-МОЛОДЕЖНЫХ ИНИЦИАТИВ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогико-психологические факторы, проблемы стимулирования студенческо-молодёжной инициативы, а также деятельности субъектов образовательного процесса по созданию благоприятной социокультурной среды повседневного проявления мужественности (женственности)в высших учебных заведениях; в процессе обучения изучается знание статуса каждого студента и его влияние на перспективу жизненного самоопределения.

Ключевые слова: Стимулирование, студент, молодёжь, методология, обучение, социокультура, концепция, процесс, навыки, проблема, гендер.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF STIMULATING STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH

Abstract

In this article, the pedagogical and psychological factors, problems of stimulating student-youth initiatives, as well as the activities of the subjects of the educational process to create a favorable socio-cultural environment for the Daily manifestation of carrots (femininity)in higher educational institutions; in the process of studying, the effects of knowing the status of each student and life on the prospect of self-determination are considered.

Key words: Stimulation, student, youth, methodology, training, socioculture, concept, process, skills, problem, gender.

Kirish. Talaba-yoshlarni rag‘batlantirish muammosini muhokama qilishda uning mohiyatini, birinchi navbatda asosiy tushunchalarni aniq tushunish kerak: “rag‘batlantirish”, “talaba-yoshlarni rag‘batlantirish”. “Rag‘batlantirish” tushunchasi ijtimoiy pedagogikada juda qo‘llaniladi. Rag‘bat (lotin – stimulus – hayvonlarni qo‘zg‘atadigan uchli tayoq) - harakatga rag‘bat, xatti-harakatlar uchun rag‘bat; shaxsga, jamoaga, bir guruh odamlarga tashqi ta’sir orqali, ularning motivatsion sohasini faollashtirish va u orqali ma’lum bir faoliyat. Talaba-yoshlarni rag‘batlantirish oliy o‘quv yurtlarida erkaklik (ayollik)ning kundalik namoyon bo‘lishi uchun qulay ijtimoiy-madaniy muhit yaratish bo‘yicha o‘quv jarayoni subyektlarining maqsadli faoliyati sifatida belgilanadi; o‘qish jarayonida har bir talabaning maqomini va hayotning o‘zini o‘zi belgilash istiqbolini anglashga ta’siri, shuningdek, o‘quv jarayoni va darsdan tashqari vaqtlarda ham tegishli namoyon bo‘lish uchun motivatsiya, uning shaxsini shakllantirishga jinsga muvofiq professional sifatida ta’sir qiladi.

Rag‘batlantiruvchi vazifalarni amalga oshirish uchun oliy o‘quv yurtida tegishli ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishni talab qiladi. Oliy o‘quv yurtida talabalar ijtimoiy-madaniy muhitining xususiyatlarini namoyish etuvchi pedagogik modelni yaratish muammosi uning samaradorligiga ta’sir qiluvchi barcha omillar va sharoitlarni hisobga olgan holda ko‘rib chiqilayotgan jarayonni taqdim etish zarurati bilan bog‘liq. Avvalo, “model” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish kerak. Falsafiy lug‘atlardan birida “o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayonning muhim elementlarining tasviri, bu tegishli belgilarning ushbu elementlar bilan aniq bog‘lanishi” deb tavsiflangan.

Ko‘pchilik olimlar aminki, obyekt boshqa obyektning (asl) modeli bo‘lishiga faqat quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi: tizim bo‘lishi; asl nusxa bilan qisman o‘xshashlik; tadqiqot jarayonida asl nusxani vazifalarini bajarish va tadqiqot faoliyati natijasida asl nusxa haqida yangi bilimlar olish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy tadqiqotchi-o‘qituvchilar Z.I. Tyumaseva va E.N. Bogdanovlar “ta’lim modeli” tushunchasini ochib berishadi. Bu “ma’lum bir o‘quv jarayoni yoki ta’lim tizimining nazariy tavsifi va vizual tasviri. “Shu bilan birga, pedagogik modellashtirish deganda haqiqiy (jismoniy) yoki ideal (mantiqiy) sxemalardan foydalangan holda pedagogik va aqliy hodisa va jarayonlarni, pedagogik tizimlarning xususiyatlarini, shuningdek ta’lim subyektlarini takrorlash tushuniladi. Bundan tashqari, ta’lim tizimida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: ta’limning hal qiluvchi omili oila bo‘lgan an’anaviy model; ta’limning integratsiyalashgan bo‘g‘ini sifatidagi modil, davlat bo‘lishi; pedotsentrik modeli, ya’ni ta’lim bo‘g‘ini sifatida bolaning o‘zi bo‘lishi.

Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik modellashtirish noaniqlik sharoitida ma’lum pedagogik hodisalarni tavsiflashning yaxlitligi, izchilligi, to‘liqligi va yetarliligi g‘oyalariga asoslanadi. Muhimi shundaki, modellashtirish pedagogik tadqiqotlarning empirik va nazariy qismlarini birlashtirishga imkon beradi. Ijtimoiy-pedagogik model haqida G.N. Golouxova shunday yozadi: "obyektning ijtimoiy-

pedagogik modeli – bu ijtimoiy-pedagogik amaliyotning ko‘rsatilgan obyektining faqat eng muhim jihatlarini o‘z ichiga olgan va soddalashtirilgan, cheklangan namunadir".

Shu bilan birga, muallif ijtimoiy-pedagogik modelga quyidagi talablar qo‘yilishini ta’kidlaydi:

- bu ijtimoiy-pedagogik amaliyotning simulyatsiya qilingan obyektiga obyektiv muvofiqlik bo‘lishi kerak;

- olingan natijalarni yeksperimental tekshirishni ta’minlashi kerak;

- ijtimoiy pedagogikaning mazmunli nuqtai nazaridan talqin qilinishi kerak.

Bundan tashqari, oliy o‘quv yurti sharoitida talabalarning ijtimoiy-madaniy muhiti modelini ishlab chiqishni boshlashda uning tarkibiy aloqalarini tashkil etuvchi “komponent” va “muhit” elementlarning mohiyatini aniqlashtirish zarur.

Shunday qilib, komponent (lotin. componere – “tashkil etish”) - bu hissa qo‘shadigan kuch bo‘lib u, mahsulotga, natijaga qisman ta’sir ko‘rsatish sababchisi. Atrof-muhit - insonning mavjudligini o‘rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy sharoitlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda namunaviy modellarni qurilishga mavjud yondashuvlarni tahlil qilish (B.A. Glinskiy, E.P. Nikitin, V.A. Shtoff va boshqalar.), shuningdek, yosh avlodni tarbiyalash va shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik modellarini yaratish bo‘yicha mavjud tajriba (Y.M. Gerchak, YE.V. Basargina, V.P. Bespalko, I.A. Fedoseyeva, V.G. Vizer, L.G. Lashkova, L.A. Kalashnikova va boshqalar.), oliy o‘quv yurtining talaba-yoshlarini rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishni modellashtirishga imkon berdi.

Talaba-yoshlarni rag‘batlantirish bo‘yicha tadbirlar tabiiylik, madaniy muvofiqlik, axloq, murakkablik prinsipi va parallel pedagogik harakatlar tamoyillariga asoslanadi.

Qoida (lotin. principium - asos, boshlanish) - har qanday nazariya, ta’limotning asosiy boshlang‘ich nuqtasi. Tabiiylik tamoyiliga quyidagilar kiradi: tabiat va inson rivojlanishining umumiy qonunlariga muvofiqlik; insonning jismoniy va ma’naviy tabiatini, uning qobiliyatlari va moyilligini bilish va tushunish; ta’lim va tarbiya jarayonida bu, birinchi navbatda, yosh va jinsni farqlashni hisobga oladi. Talaba-yoshlarini rag‘batlantirishda 18-20 yoshdagi qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi jinsiy dimorfizm va psixologik farqlar hisobga olinadi deb taxmin qilinadi.Madaniy muvofiqlik prinsipi oliy ta’lim makonida madaniyat sharoitida talaba shaxsini o‘zi belgilashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va tarbiyasi, xususan, gender ta’limi murakkab, ko‘p qirrali jarayondir. U inson hayotidan butunlay va nomuvofiqlikda, oiladan, jamiyatdan, madaniyatdan, umuman insoniyatdan, yashash joyidan va xalqning turmush tarzi va inson ongini shakllantiradigan madaniy va tarixiy davrdan ajralmasdir.

O‘g‘il va qizlarning ijtimoiylashuvini rag‘batlantirish jarayonida madaniy muvofiqlik tamoyilini amalga oshirish quyidagilarda ifodalanadi:

- muqaddas va qahramonlar taqdiri, afsonalar, folklor, urf-odatlar, marosimlar, xalq liboslari, o‘yinlar orqali milliy gender madaniyatiga qaratilishi bilan ifodalanadi;

- sevgi, hurmat, do‘stlik, sabr-toqat, g‘amxo‘rlik; gender identifikatori qadriyatlariga, erkaklar (ayollar)ning tarixan shakllangan madaniyati orqali umuminsoniy qadriyatlariga qaratilishi bilan ifodalanadi.

Axloq prinsipi ta’lim jarayonida shakllangan, ijtimoiy tajriba va insonning axloqiy burchlari orqali mustahkamlangan asosiy axloqiy qonunlarni aks ettiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, axloq - umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan, umuminsoniy ongning tartibga soluvchi shaklidir.

Zamonaviy jamiyatning ma’naviy-axloqiy va axloqiy-etik muammolari, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi shaxsini ma’naviy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalashga oid meyoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan. Demak, undagi axloq manbalari deyiladi: O‘zbekiston tarixi, o‘zbek xalqi, ularning oilasi, urug‘i; ota-onalari, ajdodlarining hayotiy tajribasi, adabiyot va san’at asarlari; O‘zbekiston xalqlari folklori; zamonaviy hayotni aks ettiruvchi ommaviy axborot vositalari; o‘quv fanlari; ijtimoiy foydali va ahamiyatli faoliyat.

Yuqorida aytilganlarning barchasi gender madaniyatini aks yettirishi va uning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, axloq tamoyili asosiy tamoyillardan biridir, chunki u jinsiy tarbiya va gender tarbiyasi, yoshlarning gender madaniyatini shakllantirish o‘rtasidagi farqni bevosita ko‘rsatadi. Yakunlovchi kontekstida quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: maqtovga sazovorlash va aksariyat sharmandalash, jamiyat, insoniyat tomonidan rag‘batlantirish va aksariyat qoralanishi. Komplekslik prinsipi keng ma’noda pedagogik jarayonning barcha omillari va shartlarini hisobga olgan holda tushuniladi va gender ta’limi tizimida pedagogik texnologiyaning yaxlitligini belgilaydigan vertikal va gorizontal aloqalar mavjudligi bilan belgilanadi. Parallel pedagogik harakatlar prinsipi bir vaqtning o‘zida usullar va tadbirlar orqali talabalarni gender madaniyati asoslarini o‘zlashtirish, mustahkamlash va namoyon etish jarayoniga chuqurroq singdirishga qaratilgan.

Talaba-yoshlarni rag‘batlantirish protsessual xarakterga ega va texnologiya shaklida taqdim etilishi mumkin. M.V. Klarinning fikriga ko‘ra, pedagogik texnologiya “pedagogik maqsadlarga erishish uchun ishlatiladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning tizim yig‘indisi va ishlash tartibini anglatadi”.

Texnologiyaning maqsadi – o‘g‘il va qiz talabalarda aniq gender namoyon bo‘lishini shakllantirishni rag‘batlantirishdir.

Texnologiyaning vazifalari:

1. Oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli qulay ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish va rivojlantirish: barcha talabalar tomonidan o‘quv jarayoni va darsdan tashqari vaqtlarda ongli ravishda har kuni namoyon bo‘lishini ta’minlash, erkak (ayol) jinsi vakillari sifatida, erkaklik (ayollik) qarama-qarshi jins vakillari bilan munosabatlarda, harakatlar va ishlarda;

2. O‘quv jarayoni subyektlarining maqsadli faoliyati o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi holati va hayotning o‘zini o‘zi belgilash istiqbollari to‘g‘risida xabardorligiga, shuningdek, o‘quv jarayoni va darsdan tashqari vaqtlarda tegishli namoyon bo‘lish motivatsiyasiga ta’sir qiladi.

Talaba-yoshlarni rag‘batlantirish texnologiyasi ketma-ket oltita va o‘zaro bog‘liq bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Axborot-diagnostikali (talabalar kontingentini, talaba-yoshlarning haqiqiy holatini o‘rganish, olingan natijalarni qayta ishlash va tushunish; oliy o‘quv yurtining ijtimoiy-pedagogik salohiyatini o‘rganish, talaba-yoshlarini hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos keladigan rag‘batlantirish usullari va vositalarini aniqlash va asoslash).

2. Maqsadli (faoliyatning bevosita va uzoq muddatli maqsadlarini aniqlash).

3. Reja-prognostikli (talaba yoshlarni rag‘batlantirish natijalarini prognozlash; talaba-yoshlarni rag‘batlantirish bo‘yicha o‘quv chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish; usul va uslublarni tanlash; o‘qituvchilarni tayyorlash kurslarining ish dasturlarini ishlab chiqish; talabalarning gender ta’limi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish).

4. Tashkiliy-ijro etuvchili (rag‘batlantiruvchi fanlarni (ma’muriyat, o‘qituvchilar, yuqori sinf o‘quvchilari) oliy ta’lim muassasasida qulay ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish bo‘yicha maqsadli faoliyat uchun tashkil etish; har bir talabaning o‘quv jarayonidagi holati va hayot istiqbolini anglashga ta’sir qilish o‘z taqdirini o‘zi belgilash; tegishli

faoliyatni rag‘batlantirish. O‘quv jarayoni va darsdan tashqari vaqt davomida namoyon bo‘lishi).

5. Monitoringli (ta’limning turli bosqichlarida talaba-larning gender madaniyatining namoyon bo‘lishini baholash; uning natijalarini hisobga olgan holda, har bir talabani rag‘batlantirish uchun zarur tuzatishlar kiritish).

6. Natijaviy-baholashli (talaba-yoshlarni rag‘batlan-tirish bo‘yicha faoliyat natijalarini baholash).

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim muassasasi sharoitida talaba-yoshlarni rag‘batlantirish texnologiyasini ishlab chiqish, asoslash va eksperimental sinovdan o‘tkazishdan iborat bo‘lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipotiza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- gender ta’limi butun ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, tizimli xususiyatga ega va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan yoshlarning gender qadriyatlari va ma’nolarini shakllantirishga qaratish;

- talaba-yoshlarga rag‘batlantiruvchi ta’sir individual ravishda farqlash, har birining jinsi va sotsializatsiyasining o‘ziga xosligini hisobga olish va oliy o‘quv yurtida o‘qishning butun davri davomida amalga oshirish;

- qarama-qarshi jins vakillari bilan munosabatlarda, harakatlar va ishlarda erkaklik (ayollik)ning ongli ravishda kundalik namoyon bo‘lishini barcha talabalar tomonidan erkak (ayol) jinsi vakillari sifatida, ularning uquv jarayoni va darsdan tashqari vaqtlarida ta’minlash;

- oliy ta’lim muassasasi sharoitida talaba-yoshlarni rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik sharoitlar yaratish.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, biz gender ta’limi ko‘p qirrali rivojlanish tarixiga ega degan xulosaga keldik. Pedagogika yo‘nalishidagi yetakchi olimlar tomonidan yoshlarni jinsiy tarbiyalashda bebaho tajriba to‘plangan: urf-odatlar, an’analar, folklor, oilaviy tarbiya, ta’limotlar va ko‘rsatmalar, munosabatlarni tartibga solishning diniy normalari, axloqiy, vatanparvarlik va estetik tarbiya dasturlari.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, boshqa jinsdagi odam bilan munosabatlar, nikoh, oila, xulq-atvor normalari, yosh avlodning jinsi va oilaviy madaniyatini shakl-lantirish haqidagi bilimlar ko‘p asrlar davomida donishmand-lar, faylasuflar, professor-o‘qituvchilarning ongini tashvishga solib kelgan. Aflotun ham ta’kidlaganidek “... uzoq vaqt davomida odamlar bir-birlariga bo‘lgan muhabbatni jalb qilish bilan ajralib turadi, bu avvalgi yarmlarni bog‘laydi, ulardan birlashtirgan xolda birlik xosil qilishga harakat qiladi ...”. Yosh avlod muammosining nazariy asoslarini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, tarixiy, falsafiy, psixologik va pedagogik fanlarda gender madaniyatining turli qirralarini va uning pedagogik faoliyatdagi namoyon bo‘lishini ochib beradigan muhim materiallar to‘plangan.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2018.
2. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2020-yil 23-sentabr. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-son)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 27-son.
4. Логвинов И. Н. Гендерные особенности стилей и типов молодёжного лидерства в социально обогащённой среде // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. – 2017. – № 3 (43). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gendernye-osobennosti-stiley-i-tipov- molodezhnogo-liderstva-v-sotsialno-obogaschennoy-srede.
5. Кричевский Р. Л. Психология лидерства. – М.: Статут, 2007.
6. Логвинов И. Н. Социально-психологическое исследование гендерного аспекта структуры типов молодёжного лидерства // Известия Пензенского государственного педагогического университета им.В. Г. Белинского. – 2011. – № 24.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 373.5.091.31:004

Kamaladin MATYAKUBOV,
Chirchik davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: umidbek.sapayev@inbox,ru

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti S.B.Qoraev taqrizi asosida

PRINCIPLES OF APPROPRIATE USE OF METHODS AND METHODS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGY EDUCATION

Abstract

In this article, the principles of organizing technological education in general education schools, the principles of appropriate use of methods and methods in the process of technology education are deeply studied and scientifically based.

Key words: Value addition, pedagogy, quality, sustainability, contribution, scalability, adaptation, choice, seamless, lifelong learning, adaptation.

ПРИНЦИПЫ ЦЕЛЕСООБРАЗНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ И ПРИЕМОВ В ПРОЦЕССЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье глубоко изучены и научно обоснованы принципы организации технологического образования в общеобразовательной школе, принципы целесообразного использования методов и приемов в процессе технологического образования.

Ключевые слова: Добавленная стоимость, педагогика, качество, устойчивость, вклад, масштабируемость, адаптация, выбор, непрерывность, обучение на протяжении всей жизни, адаптация.

TEXNOLOGIYA TA’LIMI JARAYONIDA USUL VA METODLARDAN MAQSADGA MUVOFIQ FOYDALANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida texnologik ta’limni tashkil qilish, texnologiya ta’limi jarayonida usul va metodlardan maqsadga muvofiq foydalanish tamoyillari chuqur o‘rganilgan va ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Qiymat qo‘shish, pedagogik yo‘nalish, sifat, barqarorlik, hissa qo‘shish, masshtablilik, ulashish, tanlov, uzluksiz, umrbod ta’lim, moslashtirish.

Kirish. Umumta’lim maktablarida muayyan fanni o‘qitish yaratilgan pedagogik shart-sharoit va undan kelib chiqadigan metodlar majmui vositasida amalga oshiriladi. Ammo yana bir muhim omil borki, u o‘sha fanni o‘qitishning asosiy mazmunini, yo‘nalishini, maqsadini va strategiyasini belgilab beradi. Shu ma’noda mazkur faktor fanlarni o‘qitishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Muayyan fan umumta’lim maktabining o‘quv rejasiga kiritilar ekan, o‘sha fanni o‘qitishning mazmun-mohiyati va maqsad va strategiyasini belgilab beruvchi tamoyillar aniqlanib olinishi zarur. Aks holda mazkur fanni o‘qitishda muayyan tarqoqlik va boshboshdoqlik yuzaga keladiki, natijada ushbu fanning o‘qitilishidan ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi. Demak, gap fanni o‘qitish jarayonini tashkil qilish va uni boshqarishning tamoyillari haqida ketmoqda.

Shu jihatdan olib qaralganda, umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish jarayonini tashkil qilishning tamoyillarini aniqlashtirish bugungi kunda nisbatan yangi mazmunda amaliyotga joriy etilgan fanning maqsad va yo‘nalishlarini belgilab beradi. Texnologiya fani o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, mantiqiy mushohada va nostandart tafakkur yuritishga undashi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Chunki mazkur fan doirasida amalga oshiriladigan amaliy ish tajribalari o‘quvchilani mustaqil izlanishga chorlaydi. Demak, fanni o‘qitish jarayonini tashkil qilish va boshqarishning tamoyillari ham texnologiya predmetining mazkur spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talanishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy pedagogika sohasidagi taniqli mutaxassis Yu.L.Xotuntseva texnologik ta’lim texnologik madaniyatga erishishning asosiy vositasi ekanligini, bu har qanday ijodiy faoliyatning universal va ajralmas sharti ekanligini ta’kidlaydi [1], [2]. V.A. Slastenina, G.K., Selevko, V.V. Serikov, V.A. Slastenin va P.P.Terexov-lar o‘zlarining ilmiy ishlarida texnologik madaniyat deganda, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish texnologiyalari yutuqlarida ifodalangan va tabiat, jamiyat va texnologik muhit bilan yaqin munosabatda bo‘lish asosida zamonaviy texnolo-gik jarayonlarda samarali ishtirok etish imkonini beradigan insonning o‘zgartiruvchi faoliyatining rivojlanish darajasi bilan baholanishini bilan belgilanishini aytishadi [3], [4], [5], [6], [7]. P.M., Yusupova, O.A. Qo‘ysinov va Sh.A. Dustmuxamedovalar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida texno-logik jarayonlarga o‘quvchilarning yosh davrida psixologik jihatdan qobiliyatlarni shakllantirish va mustaqil munosabat-larini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatib o‘tishadi [8], [9], [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Texnologiya ta’limini o‘qitish mazmuni vositalar (dastgohlar, apparatlar, dasturiy ta’minot, o‘quv adabiyotlari, didaktik vositalar) va jarayonlar (ta’lim, baholash, o‘quvchilarning o‘rganishini kuzatish uchun foydalaniladigan usul va strategiyalar, bizning ta’lim tashkilot-larimiz, ta’limni boshqarish tizimlari) va ta’lim mazmunining yosh va o‘quvchilarning fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishiga bog‘liq ravishda belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga asosan aniqlashtirilgan quyidagi o‘nta tamoyil texnologiya ta’limi jarayonida usul va metodlardan maqsadga muvofiq foyda-lanishning mazmunini belgilaydi (1-rasm):



1-rasm. Texnologiya ta’limi jarayonida usul va metodlardan maqsadga muvofiq foydalanish tamoyillari

Quyida ushbu tamoyillarning mazmuniga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1. Qiymat qo‘shish tamoyili. Har qanday texnologik jarayon topshirilgan vazifaga qiymat qo‘shish tamoyiliga asoslanishi lozim. Qiymat aniq bo‘lishi kerak, ya’ni tanlovning mantiqiy asosi sifatida aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak, himoyalangan bo‘lishi va samaradorlik, mustahkamlik, ishonchlilik, foydalanish qulayligi, o‘quvchilarning faolligi, moslashuvchanlik yoki muvaffaqiyatni o‘z ichiga olishi mumkin. Qiymat bu mazkur texnologik jarayondan kutiladigan natija bo‘lsa, qiymat qo‘shish o‘sha jarayonni amalga oshirayotgan o‘quvchi tomonidan uning natijasiga nisbatan ijodiy yondashgan holda qiymatni boyitishi tushuniladi. Qo‘shilgan qiymat natijaga erishishning umumiy mazmunidan chekinmagan holda amalga oshirilishi va muayyan dalillarga asoslangan bo‘lishi kerak. Mazkur tamoyilning afzalliklarini o‘qituvchilarga to‘liq tushuntirmasdan biz ko‘pincha yangi texnologiyani, dasturiy yoki metodik ta’minotni juda tez o‘zlashtirib olishimiz mumkin emas.

2. Pedagogik yo‘nalish tamoyili. Ta’limda texnologiyaning asosiy vazifasi o‘rganish jarayonini qulaylashtirish bo‘lishi kerak – uning mazmuni, yetkazib berish, qo‘llab-quvvatlash, baholash, o‘zaro ta’sir va natijalar shunga yo‘naltirilishi lozim. Tanlangan vositalarning o‘rganishdan boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallanganligi yoki yaxshi pedagogik shart-sharoitning mavjud emasligi kutilgan natijaga erishish imkonini pasaytiradi.

Ta’limda mahsuldorlikka yo‘naltirilgan texnologiyalarga ehtiyoj bor, lekin ta’lim vositalarini (apparat va dasturiy ta’minot) tanlashga, metodikalarni qo‘llashga bo‘lgan nobarqaror munosabat ta’limning sub’ektlarga bog‘liq ravishda turli xil natijalarga olib keladi. Umuman, ta’limning samaradorligi sub’ektlarning mavjud holatiga bog‘liqligi tabiiy holat va uni asosiy omil sifatida qarash unchalik to‘g‘ri emas.

Ta’lim texnologiyalarini tanlash o‘rganishning quyidagi savollarga aniq va to‘g‘ri javob topilishi, ya’ni mavjud pedagogik yo‘nalish va shart-sharoitning mavjudligiga bog‘liq:

• Ta’lim muhiti turli xil pedagogik usullarni qo‘llash imkoniyati beradimi?

• Amaldagi vositalar o‘quv maqsadlariga, faoliyati va o‘quvchilarni baholash mezonlariga mos keladimi?

• Uskuna standartlari o‘qituvchining yetkazib berish usullarini tanlashiga to‘sqinlik qilmaydimi?

Amaldagi vositalar va o‘rganish bilan shug‘ullanadigan kognitiv jarayonlar o‘rtasida sinergiya bo‘lishi lozim. Masalan, ma’lumotlar bazalari o‘quvchilarni o‘zaro bog‘liqliklarni, tashkiliy naqshlarni va ma’lumotlarning kodifikatsiya tizimlarini tekshirishga undash uchun ishlatilishida qo‘l keladi. Giperbog‘lanish texnologiyasi va moslashuvchan tizimlar o‘quvchi va ko‘rsatiladigan kontent o‘rtasidagi interaktivlikning yangi shakllarini yaratishga ko‘maklashadi.

3. Sifat tamoyili. Sifatli o‘qitish va o‘rganish jarayonini tashkil qilish ta’limga sarmoya kirituvchilar (davlat va xususiy ta’limda biznesmen) tomonidan talab qilinadi. Infratuzilma sifatni ta’minlash esa mazkur jarayonga to‘sqinlik qilmasligi uchun uni tabiiy holat deb qabul qilish kerak.

Sifat maxsus mezonlar va standartlar bilan belgilanadi. Biz tadqiqotimizda mezon va standartlarni aniq belgilab olinishiga e’tibor qaratdik. Shuningdek, standartlar universal emasligini va turli kontekstlar uchun turli standartlar zarurligini tan olgan holda ularni umumlashtirish va muayyan umumiylik asosida jamlashga harakat qildik. Sifat muammosi haqida gap ketganda aniq standartlar tadqiqot va muhokamalar orqali o‘rnatilishi kerak. Biz o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ehtiyojlari va istaklari asosida kasbiy standartlar, shartnoma standartlari va umumiy standartlarni yaratishimiz lozim bo‘ladi. Ta’limda individual talablar e’tirof etilishi va turli xil ehtiyojlarga mos keladigan sifat standartlari qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Texnologik ta’lim sifat standartlari kirish (masalan, apparat uchun texnik shartlar, o‘quvchilar uchun kirish mezonlari), jarayon (masalan, yetkazib berish standartlari, dizayn standartlari) va chiqish (masalan, sertifikatlash standartlari) uchun qo‘llanilishi mumkin. Ba’zi mahsulotlar va jarayonlarda tez sur’atlar bilan yaxshilanishlar amalga oshirilayotganligi sababli, ayrim masalalarning sifat standartlari tez-tez ko‘rib chiqilishi kerak.

4. Barqarorlik tamoyili. Ta’limda yangi texnik infratuzilmalar ta’lim muassasalarining samaradorligiga sifat o‘zgarishlarini olib kiradi. Ushbu jarayon texnologiyani saqlash va texnologiyadan adolatli foydalanish masalalarini ham o‘z ichiga oladi. Qo‘llab-quvvatlash tizimlari, treninglar, yangilanishlar, yangi funktsional talablar jarayonning yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Barqarorlik tamoyilini va u qo‘llaniladigan kontekstni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim tizimida ishlar izchillik bilan rivojlanish tamoyili asosida tashkil qilinishi kerak. Dasturlar pedagogik sharoitdagi mavjud noqulayliklarga kamroq bog‘liq bo‘lishi kerak. Barqarorlik tamoyilini ta’minlash muayyan xarajatlarni talab qiladi. Bir martalik moliyalashtirish bu borada yetarli emas, doimiy xarajatlar bo‘lishini ta’minlash uchun esa moliyaviy istiqbol rejalar talab qilinadi.

5. Hissa qo‘shish tamoyili. Ta’lim har bir kishiga muvaffaqiyatga erishish, o‘zini ro‘yobga chiqarish va jamiyatga ijobiy hissa qo‘shish imkoniyatini beradi va bu jamiyatning ustuvor qadriyati sifatida e’tirof etiladi. Rasmiy ta’lim faoliyatidagi cheklovlar: masofa, jismoniy to‘siqlar, ijtimoiy va psixologik to‘siqlar, nomaqbul dasturlar yoki ish

o‘rinlarining yetishmasligi, moliyaviy to‘siqlar, tayyorgarlik omillari va boshqa sharoitlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Internet orqali barcha o‘quvchilarga ta’lim imkoniyatlarini taqdim etish barcha darajadagi hukumat, ta’lim va sanoatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak.

6. Masshtablilik tamoyili. Jarayonlar, dasturlar, infratuzilmalar va har qanday komponent yoki texnologik element resurs yoki dasturning asosiy maqsadlarini tubdan o‘zgartirmasdan birgalikda va kengaytirilishi mumkin bo‘lganda samaradorlik yaratiladi.

Masshtablilik deganda boshqa tarmoqlarga aylanishi va shu tariqa kengaytirilishi mumkin bo‘lgan tarmoqlar tushuniladi. Texnologik ta’limda tegishli boshqa dasturiy ta’minot bilan mos kelish, tajriba almashish, axborot resurslari almashinuvi, internet orqali ta’lim mazmunini takomillash-tirish bilan bog‘liq jarayonlar masshtablilik tamoyilini ta’minlaydi.

7. Ulashish tamoyili. Ulashish nafaqat ijtimoiy manfaatga, balki pragmatizmga asoslangan tamoyildir. Ula-shish va hamkorlik qilishni o‘rganadigan ta’lim bir qator texnologik sohalarda xarajatlarni kamaytirishi va sifatni yaxshilashi mumkin. Jamiyat va hamkorlik bilimlar iqtisodiyotining muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Bu jarayonda onlayn kurslarni yaratish qimmatga tushadi. Ta’lim komponentlari o‘rtasidagi hamkorlik orqali o‘quvchilarni ro‘yxatga olishni ko‘paytirish xarajatlarni kamaytirishi, hayotiylikni oshirishi va kam talabga ega kurslarni tez-tez taklif qilinishiga imkon beradi.

8. Tanlov tamoyili. O‘rganish texnologiyasi, garchi yangi hodisa bo‘lmasa ham, hali ham baholash va tekshirishga muhtoj. O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim va ta’lim beruvchilar o‘rtasidagi, jamiyat va ish joyidagi individual farqlarni hurmat qilish kerak. Asboblar va jarayonlar uchun texnologiyalarni tanlash farqlarni qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishi mumkin.

Tanlovga xos bo‘lgan mas’uliyat aniq belgilanishi kerak. Samaradorlik tamoyillari bilan muvozanatlashgan bo‘lsa-da, xilma-xillikni qadrlash kerak. Yagona yondashuvni afzal ko‘rish (masalan, yuzma-yuz va onlayn; davlat va xususiy; to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish va konstruktivizm va boshqalar)dan voz kechish va farqlarning afzalliklaridan foydalanish kerak. Dalillarga asoslangan qarorlar ta’lim va o‘qitish provayderi va siyosat darajasida investitsiya qarorlarini qabul qilishi kerak.

9. Uzluksiz, umrbod ta’lim tamoyili. Uzluksiz ta’lim tamoyili ko‘pchilik uchun o‘ziga xos ma’noga ega, ammo uni amaliyotda qo‘llash qiyin. Ta’limning umrbod intilish sifatidagi paradigmasi ta’lim va o‘qitish mazmuni va tuzilishiga kiritilishi kerak.

O‘rganish va o‘zgartirish biz qilayotgan barcha ishlarda ko‘proq qadrlanishi kerak. Ta’lim shaxsiy va uzluksiz, institutsional va har doim rasmiylashtirilgan deb qaralishi kerak. Biz o‘zgarishlarni biznes jarayonlarini, hukumat siyosatini va ta’lim islohotlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni rejalashtirgan voqealar sifatida ko‘rib chiqamiz. O‘rganish uzluksiz bo‘lishi uchun biz fikrlash va amaliyotimizni shaxsiy darajada ham, ta’lim va ta’lim beruvchi darajasida ham o‘zgartirishimiz kerak, shuning uchun o‘zgarish jarayoni, uzluksiz o‘rganish texnologiyasidir.

10. Moslashtirish tamoyili. Texnologiyalarning ta’limga olib keladigan afzalliklaridan biri bu dasturlarni, kurslarni va xizmatlarni individual o‘quvchilarga moslashtirishning qulayligidir. Sun’iy intellekt va mashinani o‘rganishning paydo bo‘lishi bilan biz o‘quv tizimlarini o‘quvchilarning ehtiyojlariga ham, ularning ishlashiga ham moslashtira olishimizga imkoniyat yaratadi.

Xulosa va takliflar. Bizning ta’limni tashkil qilish texnologiyalarimiz individual o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilishi mumkin. Alohida ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari, shuningdek, individual kasblar, korxonalar, sanoatlar, madaniyatlar va umuman jamiyatning xilma-xil ehtiyojlari mos ravishda qondirilishi kerak. Iqtisodiyot, kurs talablari, vaqt va foydalanish imkoniyatlari nuqtai nazaridan cheklovlar mavjud, ammo har bir o‘quvchi uchun ta’lim sifatini oshirish uchun vositalar va texnologik omillar yordamida ko‘p narsalarni qilish mumkin.

Ushbu o‘nta asosiy tamoyil o‘qituvchilar uchun texnologik ta’lim bo‘yicha keng qamrovli qarash va ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. O‘qituvchilar va o‘quvchilar umumta’lim maktablarida texnologik ta’limni tashkil qilish, texnologiyadan foydalanish uchun juda ko‘p turli xil variantlarga ega. O‘qituvchilarning fikricha, qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab interaktiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, texnologik ta’limda ushbu tamoyillar amal qiladi, ammo bu mavzu bo‘yicha ko‘proq tadqiqotlar nashr etilganda yo‘riqnomalar rivojlanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=34864
2. Department U.S. of Education, Office of Educational Technology, (2016), Retrieved from https://tech.ed.gov/netp/
3. Педагогика// Под ред. В.А. Сластенина. – М., 1997. – 245 с.
4. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий: В 2-х томах. – Т. 1, 2. – М.: НИИ школьных технологий, 2006. – 816 с.
5. Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. - М.: Логос. - 1999. - 272 с.
6. Сластенин В.А. Подымова Л.С. Педагогика – инновационная деятелъность. – М.: Изд-во Магистр, 1997. – 221 с.
7. Терехов П.П. Формирование педагогической компетентности специалиста в системе непрерывного профессионального социокультурного образования: Дисс…д-ра п.н. – Казань, 2004. – 417 с..
8. Юсупова Р.М. Методика диагностики аутопедагогической компетентности студентов-бакалавров по специальности иностранный язык. [Текст] /Р.М.Юсупова// Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. Тамбов, 2012. - № 9. - С.144-148.
9. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс. Т.: 2019. - 56 б.
10. Дустмухамедова Ш.А., Нишанова З.Т,, Жалилова С.Х., Каримова Ш.Т., Алимбаева Ш.Т. Ёш даврлари ва педагогик психология. Олий педагогик ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2015. –Б.21.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:323/327(584.4),(092)

Komal MAXMUDOV,
Toshkent moliya instituti dotsenti v.b.,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: Maxmudovks@mail.ru

TMI professori, t.f.d. T.X.Oblomurodovning taqrizi asosida

SHAROF RASHIDOV HAYOT VA FAOLIYATI ZAMONDOSHLAR TALQINIDA

Annotatsiya

Mazkur maqola millatimiz tarixida o‘z faoliyati bilan el va avlodlar qalbi va xotirasidan joy olgan xalqimizning fidoiy farzandi Sh.Rashidov keng qamrovli xayot va faoliyatiga bag‘ishlanadi. Sobiq ittifoq siyosati sharoitida xalqimizning ziyoli rahbarlarining fojiali taqdir-qismatlari, mutiylik va tobelik holatida o‘zbek millati manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan jasurona siyosiy faoliyat mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: SH.Rashidov, rahbar, qaramlik, totalitar siyosat, milliy manfaatlar, bir tomonlama iqtisodiyot, shaxs, ziddiyat, sovet ittifoqi, kommunistik g‘oya, tarixiy voqea.

ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ШАРОФА РАШИДОВА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ СОВРЕМЕННИКОВ

Аннотация

Данная статья посвящена многогранной жизни и творчеству Ш. Раскрываются трагические судьбы интеллектуальных лидеров нашего народа в условиях прежней союзной политики, суть мужественной политической деятельности, направленной на защиту интересов узбекской нации в состоянии порабощения и подчинения.

Ключевые слова: Ключевые слова: Ш.Рашидов, лидер, зависимость, национальные интересы, однобокая экономика, личность, противоречие, советский союз, коммунистическая идеалогия, исторические событие.

SHAROF RASHIDOV’S LIFE AND WORK IN THE INTERPRETATION OF CONTEMPORARIES

Annotation

This article is devoted to the comprehensive life and work of Sh. The tragic destinies of the intellectual leaders of our people in the conditions of the former union policy, the essence of the courageous political activity aimed at protecting the interests of the Uzbek nation in the state of subjugation and subordination are revealed.

Key words: Sh. Rashidov, leader, dependence, national interests, one-sided economy, personality, contradiction, Soviet Union, communist ideology, historical event.

Кириш. Mamalakatimiz va millatimizning boy tarixiy rivojlanishda shaxsning roli, yetakchi shaxslarning xalq va millatni ma’naviy rivojlanish yo‘lidagi faoliyati borasida ko‘plab ilmiy, falsafiy va siyosiy qarashlar ilgari suriladi. Ushbu ilmiy-nazariy qarashlar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra qarama-qarshilik, bahs va munozaralar bilan to‘lib-toshgan bo‘lib, ko‘pchilik hollarda nihoyasiga yetmay qoladi. Buning bir qancha sabablari mavjud.

Birinchidan, tarixda shaxsning roliga berilgan ta’rif, izoh va sharhlarda ilmiy-obyektiv tadqiqotlar o‘rniga aksariyat hollarda mafkuraviy-siyosiy tus beriladi, ikkinchidan, tarixiy qonuniyatlar mantig‘i, uning falsafiy mohiyati ilmiy obyektivlikdan uzoqlashib, tor milliy yoki mafkuraviy mahdudlik qobig‘idan nariga o‘ta olmay qoladi. Natijada ilmiy nazariy asosli, kelajak e’tiborga olishi kerak bo‘lgan qarashlar o‘rniga shunchaki muayyan hissiyotlarni ifodalovchi, ilohiylashtirilgan, afsonalashtirilgan yoxud qoralangan, balchiqqa botirilgan shaxslar tarixi egallaydi.

Tarixiy rivojlanishda shaxsning roli borasida ko‘plab ilmiy qarashlar ilgari suriladi. Ulardagi nazariy qarashlar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra qarama-qarshilik, bahs va munozaralar bilan to‘lib-toshgan bo‘lib, ko‘pchilik hollarda nihoyasiga yetmay qoladi. Buning bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, tarixda shaxsning roliga berilgan ta’rif, izoh va sharhlarda ilmiy-obyektiv tadqiqotlar o‘rniga aksariyat hollarda mafkuraviy-siyosiy tus beriladi, ikkinchidan, tarixiy qonuniyatlar mantig‘i, uning falsafiy mohiyati ilmiy obyektivlikdan uzoqlashib, tor milliy yoki mafkuraviy mahdudlik qobig‘idan nariga o‘ta olmay qoladi. Natijada ilmiy nazariy asosli, kelajak e’tiborga olishi kerak bo‘lgan qarashlar o‘rniga shunchaki muayyan hissiyotlarni ifodalovchi, ilohiylashtirilgan, afsonalashtirilgan yoxud qoralangan, balchiqqa botirilgan shaxslar tarixi egallaydi.

Mamalakatimiz rivojlanishi tarixida o‘z faoliyati bilan el va avlodlar qalbi va xotirasidan joy olgan tarixiy shaxslar va insonlar juda ko‘p. Ular orasida shunday zotlar borki, birgina sohada emas juda ko‘plab sohalar va juda keng hududlar xalqlari hurmatiga sazovor bo‘lganlar. Bu hurmat ayniqsa mustaqillik davrida ham Vatanimiz, ham xorijda baralla e’tirof etilmoqda. Shular qatorida xalqimizning buyuk davlat arbobi va adibi Sharof Rashidov siymosi haqida dunyo ommaviy axborot vositalarida ko‘plab materiallar e’lon qilinayapdi. Maroqli jihati shundaki, ushbu materiallarning hammasida ham mazkur buyuk insonning ezguliklari ta’riflanadi, tan olinadi va olqishlanadi.

SH.Rashidovning rahbarlik faoliyati haqidagi ishlar qatorida S.Rizayevning rus tilida nashr etilgan “SH.Rashidov. Shtrixi k portretu”[1] nomli kitobi alohida diqqatga sazovordir (2017 yilda to‘ldirilgan ikkinchi nashri e’lon qilindi). Bu kitob Sh.Rashidov shaxsi fonida mavjud totalitar ittifoq idorasi, ayni paytda qaramlik siyosatiga asoslangan mahalliy ma’muriy-boshqaruv tizimi tabiatini, ittifoq O‘zbekistonga nisbatan olib borgan manfur siyosatning kirdikorlarini siyosiy-tarixiy aspektda xolis va chuqur ochib berganligi bilan ahamiyatli manbalardan biri sanaladi. Bugun totalitar tizim mohiyatini o‘rganish, uning inson erkinligining kushandasi ekanligini anglash, millatning o‘tmish fojialaridan saboq chiqarishga xizmat qiladi. Inson, shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida adolat muvozanatini ta’minlash va taraqqiyotga yetaklovchi jamiyat ta’limotlarini o‘rganish milliy yuksalish imkoniyatlarini ochib beradi. Zero, ajdodlari kecha qaysi tuzumdan aziyat chekkanini anglamagan avlod mustaqil va

erkin jamiyat asoslarini anglash va yaratish amallaridan yiroqlashib boradi.

Har qanday xalq va uning davlati taraqqiyoti uning jamiyati va shu jamiyatni yetaklovchi shaxslari faoliyatidan tarkib topadi. Jamiyat shaxs faoliyatini yo‘naltiruvchi kuch bo‘lib, unga o‘z xohish irodasini amalga oshirishga imkon beradi yoki to‘sadi. Shu sababli shaxs tarixi jamiyat tarixining uzviy qismidir. Shaxs - jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, siyosiy, ma’naviy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi. Shu ma’noda, mamalakatimizda huquqiy davlat qurish yo‘lidagi islohotlar va yuksak ma’naviyatli fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda ma’naviy meros va ularni yaratgan shaxslar tarixini o‘rganish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Zero, qudratli jamiyatning poydevori millatning ma’nan sog‘lom va irodali shaxslari ishtirokida bunyod etiladi.

Sh.Rashidovning faoliyati ko‘p qirraliligi tufayli bu faoliyatni baholashda yondashuvlar nihoyatda xilma-xil bo‘lgan shaxslardan biridir. U yozuvchi, publitsist, davlat arbobi, qishloq xo‘jaligi bilimdoni, mohir iqtisodchi, diplomat, qator rivojlantirish g‘oyalari sohibi. Bir so‘z bilan aytganda mutafakkir, davlat arbobi edi. Sh. Rashidov hayotligi davrida uning yozuvchilik va publitsist sifatidagi faoliyati haqida anchagina tadqiqotlar qilingan. Bu ishlar ichida chuqur ilmiy ishlar bilan birga quruq madhiyaboz ishlar ham bor. Biroq Sh.Rashidovni rahbar shaxs sifatida o‘rganishga davr nuqtai nazaridan yo‘l qo‘yilmadi. Shu sababli uning faoliyati bir tomonlama - ijodkor sifatida, shunda ham sotsialistik realizm nuqtai nazari bilan o‘rganilgan. So‘nggi davrlarda hatto sotsialistik mafkura kuychisi sifatida umuman adabiyotdan chetga surib qo‘yilgan edi.

Mazkur qarashlarga xamohang tarzda jurnalist, publitsist yozuvchi F.Razzoqovning “Korrupsiya v Politbyuro. Delo krasnogo uzbeka”[2] nomli asari kommunistik tizimning zug‘um va zo‘ravonlikka asoslangan siyosati mohiyatini, ayni paytda, davlat tizimi sifatidagi korrupsiyalashgan, ikkiyuz-lamachi, manfur mazmunini ochib berishga qaratilgan boy ma’lumotlarni jamlagan asar sifatida muhim sanaladi. E’tiborli jihati shundaki, yozuvchi xolis va aniq tarixiy-ilmiy dalillar asosida Sh.Rashidovning O‘zbekistonda olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy faoliyatiga yuksak baho beradi. Millat uchun amalga oshirilgan va erishilgan yutuqlarni qiyosiy taqqoslash bilan rahbarlik mahoratining mahsuli ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarini asoslaydi. Markazning O‘zbekistonga nisbatan muntazam ravishda olib borgan doimiy tazyiqlari iskanjasida millatparvar farzandning xalqi uchun qilgan xizmatlari e’tirof qilinadi.

Asarda shu bilan birgalikda kommunistik tuzumning bosqinchilik, zo‘ravonlik, tajovuzkor siyosatga asoslangan g‘ayrimilliy siyosati ochib beriladi. Baynalmilallik bilan niqoblangan qaramlik siyosatining zaminida o‘zligidan, tarixi, madaniyatidan mahrum etish orqali xalqlar taqdiriga hukmronlik qilish, yetakchi shaxslaridan mahrum etish bilan qullik va mutelik dunyoqarashini shakllantirish bosh maqsad bo‘lganligi fosh qilinadi. Bunday qatog‘on siyosat muttasil va maqsadli o‘tkazilib, Sh.Rashidov o‘rnida kim bo‘lishidan qat’i nazar boshiga tushishi muqarrar bo‘lganligi ta’kidlanadi. Muallif, ayni paytda, imperiyaning o‘lim talvasasida sobiq respublikalar ichida O‘zbekistonga nisbatan o‘tkazgan jinoyatkorona tadbirlarini tarixiy dalillar asosida ochib berishga erishadi.

SH.Rashidov rahbarlik qilgan davr va uning rahnomaligida O‘zbekistonda erishilgan ulkan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning tarixiy ahamiyati suv xo‘jaligi, melioratsiya va irrigatsiya sohasida oddiy muhandislikdan tortib bosh mirob lavozimigacha ko‘tarilgan, cho‘l yerlarini o‘zlashtirishda katta xizmatlari singan V.A.Duxovniyning ikki jildli “Voda techet, voda zovet” nomli asari yangi avlodga o‘sha davrlarda qaqrab yotgan, qadam bosilmagan, qush uchsa qanoti kuyadigan yerlarni mashaqqatli mehnati bilan bo‘stonga aylantirgan xalqimizning jasorati haqida hikoya qiladi. Asosiy e’tibor jasorat, sadoqat, ishonch, yirik ko‘lamli ommaviy, xalqchil tashabbuslar, so‘nmas shijoat, samimiy va beg‘araz odamlarning oddiy, ammo, sharafli mehnatlariga qaratiladi. Afsuski, bugun o‘sha davr tadqiqotlari bilan mashg‘ul ayrim zamonaviy jurnalistlar xalqning o‘z davri jo‘shqin ruhiyatini “kommunistik fanatizm” sifatida baholab kelmoqda. O‘zimiz esa, allaqachon “Farhod va Shirin”ning muhabbatiga ishonmay qo‘yganmiz...

V.A. Duxovniy Sh.Rashidovning shogirdi, safdoshi, yirik mutaxassis sifatida ulkan qurilishlarning ishtirokchisi bo‘ladi. Uning ta’kidlashicha, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirishda melioratsiya va irrigatsiya sohasida zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilgani, o‘sha davrdagi sobiq ittifoq ilmiy salohiyatining O‘zbekistonga safarbar qilinishi, eng yaxshi mutaxassislarning jalb qilinishi, shuning asosida minglab mahalliy kadrlarni tarbiyalashga bo‘lgan e’tiborning ortishi, qishloq xo‘jaligining yangi sifat darajasiga ko‘tarilishida, mexanizatsiyasining vujudga kelishida, cho‘lda qator suv inshootlarining paydo bo‘lishida Sh.Rashidovning fidoyiligi va jonbozligi alohida e’tirofga sazovordir, deb baho beradi.

Cho‘l yerlarini o‘zlashtirishning “Kompleks” dasturini tasdiqlashda Sh.Rashidovning rahbarlik mahoratini alohida e’tirof qiladi. Cho‘lda “Markaz”ning talablarini qondirishga qaratilgan paxta plantatsiyalarini (Chor Rossiyasi davrda shunday bo‘lgan) barpo etish emas, balki, odamlar uchun barcha qulayliklarni yaratishga qaratilgan loyihalar joriy etiladi. Bunda yo‘l, kommunikatsiya, maktab, bog‘cha, poliklinika, madaniy-oqartuv inshootlari va boshqa turli xizmat ko‘rsatish sohalarining qamrab olinishi ham nazarda tutiladi [3].

Har bir ishni markazda asoslash, ishontirish, xayrixohlarni izlash, topish va ularni ezgu maqsadlarga yo‘naltirish, tegishli mablag‘larni undirish, boz ustiga berilgan va’dalarning ustidan chiqish, oqlash, turli darajadagi bosimlarni vazminlik bilan yengib o‘tish salohiyati faqat Sh.Rashidovga xos edi. O‘zbekistonda qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish ko‘lami jihatidan misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlar natijasida Amerika, Kanada, Yevropa, Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika davlatlari uchun noyob va ilg‘or tajribalar sifatida tatbiq etiladi. Bu ishlarda zamonaning eng ilg‘or ilmiy-texnik yutuqlari joriy etiladi.

SH.Rashidovning rahbarlik va insoniy fazilatlari, yurt-el uchun amalga oshirgan bunyodkorlik xizmatlari, ayniqsa, xalqaro siyosatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi ulkan xizmatlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bergan shogirdi R.Gaziyevning “Deyateli Uzbekistana. Vospominaniye o Sharafe Rashidove” nomli kitobi ham bu mutafakkir shaxsning serqirra faoliyati va rahbarlik mahoratining xususiyatlarini ochishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi [4].

Shular qatorida jamoatchilik o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otgan Sh.Ergashevning “Erk istar ko‘ngil” nomli asari Sh.Rashidovning 100 yilligini nishonlash arafasida nashrdan chiqdi. Muallif Sh.Rashidov rahbarlik qilgan davr o‘z ziddiyatlari bilan murakkab va xalqimiz orasida unga bo‘lgan munosabat ham turlicha bo‘lishi hamda uni o‘rganishning muhimligini ta’kidlaydi. Haqiqatan, shaxs salohiyati, u faoliyat ko‘rsatgan davr mohiyatini anglash, mudhish va manfur siyosatning mazmunini idrok etish, ayniqsa, milliy fojialarni hazm qilishda barchani birdek qanoatlantiradigan, obyektiv baho berish juda mushkul ish va hali tarixchi, siyosatshunoslar, adabiyotchi olimlardan ko‘p izlanishlar talab qilinadi, deb to‘g‘ri ta’kidlaydi.

Ayni paytda, muallif Sh.Rashidov davrining murakkab va ziddiyatli xususiyatlarini o‘zbek xalqining XX asrdagi qaramlik davri tarixi sifatida baholab, bu tarix an’anaviylik bilan modernizatsiya, milliylik bilan bolshevikcha baynalmilallik, islomiy an’analar bilan kommunistik dahriylik o‘rtasidagi kurash tarixi, bu kurash – adabiyot va san’atni, fan va maorifni, milliy ong va e’tiqodni, kundalik turmush va urf-

odatlarni, xullas, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan va butun XX asr bo‘ylab davom etgan chinakam kurash sifatida shu davrning falsafiy qiyofasini ochish barobarida qimmatli ma’lumotlarni umumlashtirishga, asoslashga erishadi [5].

Sharof Rashidovning shaxs sifatida shakllanishidagi tarixiy vaziyatni, u rahbarlik qilgan davr va uning o‘ziga xos xususiyatlarini, shaxs va rahbar fazilatlarining o‘zaro uyg‘unligi hamda bu ikki xususiyatning umumiy va qarama-qarshi jihatlarini o‘rganish, umummilliy taraqqiyotga xalqning ijtimoiy ongiga ta’siri masalalarini bog‘lab tadqiq etishga e’tibor qaratilgan. Sh.Rashidov shaxsiga baho berishda tadqiqotning bosh masalasi bo‘lgan totalitar jamiyatning O‘zbekistonga tatbiq etgan siyosiy boshqaruvining tajovuzkor mohiyati, xo‘jalik yuritishning ma’muriy-buyruqbozlik uslubi va undan kelib chiqqan fojialar ko‘lami, ziddiyatli inson va davlat manfaatlari, bo‘ysundirishning xufyona usullari va uning siyosiy-iqtisodiy va mafkuraviy vositalari, ayni paytda, xalqning zanjirbandligi holatida yuksalish va istiqbol maqsadlarga intilish, tashqi va ichki siyosiy tazyiqlar bosimini yumshatish va bunda millat yetakchisining jasorati, uning imkoni yoki vaqti yetmagan muammolari bilan uyg‘un qarashga hamda xulosalar chiqarishga harakat qildik. Shu jihatdan olib qaralganda Sh.Rashidovning faoliyat ko‘lami uning rahnamoligida O‘zbekistonda amalga oshirilgan sanoat, iqtisod, qurilish, ijtimoiy hayot, san’at va madaniyat, fan-ta’lim rivoji, ulkan cho‘l yerlarini o‘zlashtirish, milliy kadrlar tayyorlashdagi keng qamrovli vazifalar miqyosida u kishining ko‘rsatgan ulug‘vor xizmatlari namoyon bo‘ladi.

Yangi avlod xalqimiz boshidan kechirgan tarixiy fojialarimizdan xabardor bo‘lishi masalalari ham tadqiqotning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Chunonchi, yangi mustaqil davlatchiligimiz asoslari qanday illatlardan forig‘ bo‘lishi lozim? U o‘z istiqbol maqsadlari yo‘lida qanday qadriyatlarga suyanishi zarur? Milliy birlik, g‘oyalar mushtarakligi, xalqni jipslashtiruvchi qanday omillar rivoj-lanishning mezonlari bo‘lib xizmat qiladi? Sh.Rashidovning hayot va faoliyati ana shu savollarga javob topishga intilgan va ehtiyoj sezgan avlodlari uchun bitmas-tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rizaev S. Sharof Rashidov. Shtrixi k portretu. T., 1992. [Sharof Rashidov. Strokes to the portrait. T., 1992].
2. Razzoqov F. Korruptsiya v Politbyuro. Delo krasnogo uzbeka. M.: Algoritm, 2010. [Corruption in the Politburo. Red Uzbek case. Algorithm, 2010].
3. Duxovny V.A. Voda techet, voda zovet. Tashkent. 2012. [Dukhovny V.A. Water flows, water calls. Tashkent. 2012].
4. Gazieva R.R. Deyateli O’zbekistana. Vospominanie o Sharafe Rashidove. Izd. 2012. S-6. [Figures Of Uzbekistan. The memory of Sharaf Rashidov. 2012. P. 6].
5. Ergashev Sh. Erk istar ko’ngil. T.: “O’zbekiston”. 2017. B 6. [Soul requires freedom. T.: “O’zbekiston”. 2017. P. 6].

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 37.022

Elyor MARUFOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
E-mail:uktamovich2012@mail.ru

SamDChTI professori, p.f.d. I.Tuxtasinov taqrizi asosida

TALABALARNING INGLIZ TILIDA FONETIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari, modulli ta’lim texnologiyalari, individual ta’lim texnologiyalari va talabalarning fonetik kompetensiyasini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan, modul va individual ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, ta’lim, *texnologiya*, modul, *individual*, fonetik, kompetensiya, tabaqalashtirilgan.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация о проектировании дифференцированных, модульных и индивидуальных образовательных технологий при разработке личностно-ориентированных образовательных технологий, модульных образовательных технологий, индивидуальных образовательных технологий и фонетической компетентности учащихся.

Ключевые слова: личность,образование, технология, модуль, индивидуальный, фонетический, компетентность, дифференцированный.

THE USE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PHONETIC COMPETENCE OF STUDENTS IN ENGLISH

Abstract

This article provides information on the design of differentiated, modular and individual educational technologies in the development of personality-oriented educational technologies, modular educational technologies, individual educational technologies and phonetic competence of students**.**

Keywords: person,education, technology, module, individual, phonetic, competence, differentiated.

Kirish. Fonetik kompetensiya 4 ta, ya’ni kognitiv, pragmativ, refleksiv va ijtimoiy-madaniy tarkibiy component-lardan iborat [1].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim amaliyotda innovatsion, hamkorlik, interfaol, masofaviy, muammoli, loyiha, komp-yuter, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan, modul, individual, mustaqil kabi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlaridan foydalanmoqda. Maqolamizda talabalarning fonetik kompetensiyasini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan, modul va individual ta’lim texnologiyalarini loyihalashtiramiz.

Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyalari. Talabalarni ta’lim darajasi bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

a. birinchi guruh yuqori malakali va ijodiy talabalardir. Barcha vazifalar talabalar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi, ular o‘zgartirilgan vazifalarni bajarishda katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar, ular o‘z harakatlarini tushuntira oladilar, ongli ravishda dastur materialini o‘zlash-tirishga qodir. Nisbatan murakkab vazifalarni bajarishda kattalar yordamidan foydalanishadi. Ular ijodiy vazifalarni bajarishga tayyor;

b. ikkinchi guruh o‘rtacha va yetarli tayyorgarlik darajasiga ega. Talabalar asosan o‘qituvchining tushuntirishini tushunadi, o‘rganilgan materialni yaxshi eslab qoladi, lekin ular tashqi yordamisiz umumiy xulosa chiqara olmaydilar;

c. uchinchi guruh past va qoniqarli tayyorgarlik darajasiga ega talabalardan iborat. Bunday talabalar o‘rga-nilayotgan materialdagi asosiy narsani aniqlash, mantiqiy aloqani o‘rnatish, ikkilamchi materialni ajratishda qiyinchilik-larga uchraydi.

Auditoriyada tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish usullari:

1. Mustaqil ish hajmini oshirish;
2. Treningni kuchaytirish;
3. O’qituvchining talabalar bilan individual ishini kuchaytirish;
4. Ishonch, hamkorlik va mehnatga munosabat muhitini yaratish;
5. Materialning ko‘p darajali taqdimoti; dastlab soddalashtirilgan taqdimot, keyin murakkab taqdimot;
6. Asosiyning yaxlit taqdimoti, keyin qismlarga ajratish;
7. Ko‘rinishdan foydalanish;
8. Akademik kechikish sabablarini o‘rganishga asoslangan yordam;
9. Shaxsiy so‘rov (talabaga oldindan taklif qilingan savollarga muvofiq)
10. Tabaqalashtirilgan nazorat (darajadagi vazifalar, tanlovli vazifalar, baholash mezonlarini individuallashtirish);
11. Namunalar va mezonlar bo‘yicha o‘zini o‘zi boshqarish;
12. Uy vazifasini individuallashtirish (hajmi bo‘yicha, murakkabligi bo‘yicha, ijodiy yo‘naltirilgan);
13. O’qish sur’atini farqlash;
14. Vazifaning mazmuni butun guruh uchun bir xil, ammo kuchli talabalar uchun vaqt ajratish va h. [2].

Interfaol ta’lim texnologiyalari. Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanil-ganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqori bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;

- ta’lim oluvchiningyuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi [3].

Masofaviy ta’lim texnologiyalari. Masofaviy o‘qitish – bu masofadan turib o‘qitish, qaysiki o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi. Masofaviy o‘qitish, ayniqsa:

- o‘qitishning an’anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o‘qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;
- turg‘un sharoitda o‘qish imkoniyatlariga ega bo‘lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;
- pedagoglar va boshqa soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;
- chet el o‘quv muassasalarida ta’lim olishni istaydiganlar uchun;
- ikkinchi mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun juda dolzarb bo‘lishi mumkin [4].

Muammoli ta’lim texnologiyalari.Muammoli ta’lim texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ushbu texnologiyalarning asosiy g‘oyasi – shaxsni fikrlashga, muammo mohiyatini tushunish, muamoli vaziyatni hal qilishga undash, unda muammoni his qila (ko‘ra) olish, yechimni topish yo‘lida tadqiqot olib borish va muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlash sanaladi. Bu turdagi ta’lim texnologiyalarining quyidagi shakllari mavjud: muammoli bayon; muammoli ma’ruza; evristik suhbat; muammoli namoyish; izlanishga asoslangan amaliy mashg‘ulot; ijodiy topshiriq; xayoliy muammoli tajriba; muammo farazlarini shakllantirish; masalalarni muammoli yechishning optimal variantlarini tanlash; muammoli vazifa; muammoli o‘yin [5].

Loyiha ta’limi texnologiyalari.Loyiha ta’limi texnologiyalaridan o‘quv amaliyotida foydalanishda “o‘quv loyihaviy faoliyat” tushunchasi ham qo‘llaniladi. O‘quv loyihaviy faoliyat – o‘quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo‘lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o‘quv loyihaviy faoliyati tayyorgarlik, loyihani bajarish va yakunlovchi bosqichlarda tashkil etiladi. O‘quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo‘yicha tayyorlanishiga ko‘ra turlanadi. Har bir o‘quv loyihasi o‘z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko‘ra muayyan turga mansub bo‘ladi [6].

Kompyuter ta’lim texnologiyalari.Kompyuter texnologiyalari dasturiy o‘qitish g‘oyasini rivojlantiradi, kompyuter va telekommunikatsiyalarning katta imkoniyatlari bilan bog‘liq o‘qitishning mutlaqo yangi texnologik variantlarini ochib beradi. Kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari – kompyuter asosida ta’lim oluvchiga axborotlarni tayyorlash va yetkazish jarayonidir. Kompyuter texnologiyalari quyidagi variantlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

1.«kirib boruvchi» texnologiyalar (alohida mavzular, bo‘limlar bo‘yicha ma’lum bir didaktik masalalar uchun kompyuter o‘qitishni qo‘llash);

2.asosiy qo‘llanayotgan aniq texnologiyadan o‘ta muhim qismini aniqlovchi;

3.monotexnologiyalar (ta’lim, o‘quv faoliyatni boshqarish, diagnostika va monitoring kompyuterlarni qo‘llashga asoslanadi).

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan modellar orasidan quyidagilarni alohida ta’kidlash mumkin:

— yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanuvchi darslar;

— Internet o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida tashkil etilgan darslar;

— pedagoglarning darslarga metodik tayyorlanishi, qo‘shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirishi, didaktik materiallarni tayyorlashi;

— kompyuter texnologiyalaridan o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish [7].

Modulli ta’lim texnologiyalari. Modulli ta’lim mazmunida boshqa ta’lim tizimlari orasidagi farq yoritilgan. Birinchidan, ta’lim mazmuni qonuniy mustaqil komponentlar(axborot bloklari)da maqsadga muvofiq taqdim etiladi. Didaktik maqsad talabaning tayyorgarligi va nafaqat o‘rganilayotgan mazmun tarkibi, balki darajasini aniqlash uchun shakllantiriladi. Bundan tashqari, har bir talaba o‘qituvchidan qanday qilib oqilona harakat qilish, kerakli o‘quv materialini qayerdan topish bo‘yicha yozma maslahat oladi. Ikkinchidan, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot shakli o‘zgarib bormoqda. Shaxsiy muloqot va modullar orqali amalga oshiriladi. Modullar o‘qishni sub’ektga o‘tkazib beradi. O’qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro munosabatlar tenglikka aylanadi. Uchinchidan, talaba iloji boricha mustaqil ravishda ishlaydi, maqsadni belgilash, o‘zini o‘zi rejalashtirish, o‘zini o‘zi tashkil etish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi qadrlashni o‘rganadi. Talabaning modul bilan muvaffaqiyatli ishlashning muhimligi ta’lim mazmuniga bog‘liq. Bunda talaba uni samarali o‘rganishi kerak. Ya’ni o‘qituvchi talabalar bilan suhbatlashadi, ularni fikrlash, tahmin qilish, rag‘batlantirish, muvaffaqiyatga yo‘naltirish uchun faollashtiradi. Ushbu prinsipni amalga oshirish uchun modul tuzilishi katta ahamiyatga ega. U uchta o‘quv elementlari sonidan iborat:

O‘E-0 – modulning maqsadlarini qayd etadi;
O‘E – oraliq umumlashtirib beradi;
O‘E – yakuniy – kirish nazorati.

Modul 7 elementlardan iborat (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Modul elementlari

№	Modul element-lari	Modul elementlari mazmuni	Fonetika moduli
1.	O‘E	Modul maqsadi	Fonetikani o‘rganishning maqsadi (ingliz unli va undosh tovushlarining xususiyatlari va ularni o‘zbek unli tovushlaridan farqi)
2.	O‘E-1	O‘tilgan materialni takrorlash	Ingliz tili tovushlari va harflarini takrorlash (Tovush va harf)
3.	O‘E-2	O’tilgan mavzuni mustahkamlash	Fonetik transkripsiya
4.	O‘E-3		
5.	O‘E-4		Bo‘g‘in turlari va ingliz tilida unli harflarning o‘qilishi

6.	O‘E-5		
7.	O‘E-6	Asosiy mazmunni takrorlash	Fonetik transkripsiyaning ingliz tili fonetikasidagi o‘rni
8.	O‘E-7	Yakunlash. Yakuniy nazorat o‘tkazish	Fonetik mashqlar

Individual ta’lim texnologiyalari. Misol sifatida quyidagi inglizcha talaffuzni o‘rganishda va kommunikativ yondashuv yordamida intonatsiyaga oid fonetik mashqlarni berish mumkin:

1. Quyidagi so‘z guruhlarining transkripsiyasini o‘qing va taqdim eting. Minimal juftlikdagi undosh fonemalarni solishtiring: rip – rib, tap – tab; live – life, save – safe; bet – bed

2. Jumlani eshitiring. Eshitgan so‘zning tagiga chizing: 1. Have you got a pan / pin / pen I could borrow? 2. We should clean the cut / cat / cot first. 3. You won’t be able to fill / feel / fail this.

3. Quyidagi parchani transkripsiya orqali o‘qing. Ushbu parcha ingliz tilini talaffuz qilishda ishlatiladigan transkripsiya tizimida keltirilgan (Gimson, 5-nashr): [ˈwɒt əbaʊt ˈgəʊɪŋ tə ˈriːdʒn̩ ts ˈpɑːk], [ənd ˈhævɪŋ ə ˈlʊk ət ðə ˈsprɪŋ ˈflaʊəz], [bɪfɔː ðeɪ ˈɔːl get ˈbləʊn əˈweɪ], [baɪ ðɪs ˈhɒrəbl ˈwɪnd].

4. Quyidagi jumlalarni tahlil qiling, nutq tovushlari modifikatsiyalarini tavsiflang: 1. Far from eye, far from heart. 2. Fortune favours the brave. 3. To go through thick and thin [8].

ADABIYOTLAR

1. Xomutova A.A. Foneticheskaya kompetensiya: struktura, soderjaniye // Vestnik YuUrGU. Seriya: Lingvistika. 2013. - №
2. Elektronnыy resurs: https://cyberleninka.ru/article/n/foneticheskaya-kompetentsiya-struktura-soderzhanie. Data obraщeniya: 10.05.2022.
3. Zubkova L.A. Texnologiya raznourovnevogo obucheniya. Differensirovannыy podxod v obuchenii angliyskomu yazыku. Forum molodyojnoy nauki, Vыpusk 3, № 2, 2022. – S. 3-4.
4. Замонавий ўқитиш (педагогик) технологияларининг мохияти ва мазмуни туғрисида. Электрон ресурс:Слайд пед.технологии - информатика, уроки (kopilkaurokov.ru).Мурожаат санаси: 18.04.2022.
5. Елдашева Г., Каримова Г. Таълим ва тарбия технологиялари ва жаҳон тажрибаси. УМК. – Тошкент, 2018.
6. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. УМК. – Тошкент, 2016
7. Рискулова К.Дж. Инглиз тили ўқитувчиси коммуникатив қобилиятининг педагогик шарт-шароитлари. Электрон ресурс:https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-ituvchisi-kommunikativ-obiliyatining-pedagogik-shart-sharoitlari/viewer. Мурожаат санаси: 02.03.2020.
8. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. Ta’limda axborot texnologiyalari. Oliy ta’lim muassasalari uchun. – T.: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 120 b. - B. 38-39
9. Sabirova D.R., Bodnar S.S., Yatsenko G.S. Problemы obucheniya proiznosheniyu i intonatsii angliyskogo yazыka i sposobы ix resheniya // Pedagogicheskiye nauki. - № 12. – 2020. – S. 217-221.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:323.342.5/7(584.4)

Javlonbek MIRZAVALIYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: javlonbek_diplomat89@mail.ru

Siyosiy fanlar doktori (DSc.) prof v.b N.B. Dexqonov taqrizi asosida

MERITOCRACY SYSTEM AS AN OBJECT OF POLITICAL RESEARCH

Annotation

This article talks about the concept of meritocracy, which is gaining importance today, and its origin and importance, as well as the basics of introducing the principles of meritocracy in achieving efficiency in public administration.

Key words: Meritocracy, democratic principles, talented personnel, personnel policy, efficiency, individual talent, Michael Yang, Daniel Bell.

СИСТЕМА МЕРИТОКРАТИИ КАК ОБЪЕКТ ПОЛИТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

В данной статье говорится о приобретающем сегодня значение понятии меритократии, его происхождении и значении, а также об основах внедрения принципов меритократии в достижение эффективности в государственном управлении.

Ключевые слова: Меритократия, демократические принципы, талантливые кадры, кадровая политика, эффективность, индивидуальный талант, Майкл Янг, Дэниел Белл.

MERITOKRATIYA TIZIMI SIYOSIY TADQIQOT OB’EKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan meritokratiya tushunchasi va uning kelib chiqish omillari va uning ahamiyati, davlat boshqaruvida samaradorlikka erishishda meritokratik tamoyillarni joriy qilishning asoslari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Meritokratiya, demokratik tamoyillar, iqtidorli kadrlar, kadrlar siyosati, samaradorlik, individual iste’dod, Maykl Yang, Daniyel Bell.

Kirish. Milliy gumanitar fanlari doirasida meritokratiya masalalari, davlat boshqaruvi tizimining institutsional tuzilmalarini shakllantirish va faoliyatida meritokratiya asoslari va tamoyillarini asoslash kam rivojlangan. Bularning barchasi meritokratiya tushunchasining mohiyatini batafsil kontseptual tahlil qilish, uning mazmunini turli tadqiqot an’analari va yondashuvlari doirasida aniqlash va ular o‘rtasidagi ob’ektni tizimlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy qarama-qarshiliklarni oydinlashtirishning nazariy va amaliy maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Mohiyatni tahlil qilish va uni aniqlashga qaratilgan tadqiqot yondashuvlarini mos ravishda tizimlashtirish bizga uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqishga imkon berdi va natijada faqat eng yaxshi jihozlangan meritokratik tizim, bunda elitizm va elitalik tamoyillarini belgilab beradi. Bu davlat boshqaruvi tizimida mutaxassislarning yuksak ma’lumotliligi ustun bo‘lgan taqdirdagina samarali davlatni yaratish mumkinligi va shu tariqa uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jahon miqyosida yetakchilik qilish sharti ekanligidan dalolat beradi. Ushbu tahlil konteksti samarali davlatni yaratishning mohiyati, modellari va zamonaviy konstruksiyalarini batafsil ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligini ochib beradi, bu esa ushbu muammolarni zamonaviy davlat boshqaruvi fani doirasida yanada takomillashtirish istiqbollarini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy hokimiyatning shakllanishi va kadrlarni tanlab olishda muhim tamoyillardan biri bo‘lgan meritokratiya tushunchasi uning mazmun-mohiyatini belgilab olish, ushbu konsepsiyaga oid qarashlar, nazariyalarni tahlil va tavsif qilib chiqish tadqiqotning nazariy qismida alohida ahamiyatga ega.

1958-yilda nashr etilgan “Meritokratiyaning yuksalishi: 1870-2033”[1] nomli satirik insho ijtimoiy va siyosiy tafakkurda yangi kontsepsiyaning tug‘ilishini ko‘rsatdi. Meritokratiya – “munosiblar hukmronligi”. Ingliz siyosatchisi va sotsiologi Maykl Yang tomonidan tuzilgan, qo‘lyozma shaklida nashr etilgan kitob Britaniya jamiyatining 20 va 21 asrlar boshlaridagi o‘zgarish haqida hikoya qiladi. Maykl Yang o‘z ishida zamonaviy jamiyat meritokratik raqobati doirasida boshqalarni, xususan, xayriya, tenglik, hamjihatlik, mehr-oqibatni siqib chiqaradigan intellektual qobilyat va aqlni ustun qiymat sifatida ta’riflashga qarshi chiqadi.

Garchi meritokratiya tushunchasi 1958 yilda Britaniyalik olim Maykl Yangning “Meritokratiyaning yuksalishi” (“Rise of the Meritocracy”) asarida paydo bo‘lib, ushbu atama siyosiy fanlar adabiyotida keng qo‘llanilsa ham, uni tahlil qilish bo‘yicha juda kam tadqiqotlarni uchratishimiz mumkin [2].

Meritokratiya bu ham ilmiy doirada ham ijtimoiy sohada kuchli me’yoriy ma’noga ega tushunchadir. Umuman olganda, meritokratiya atamasi xizmat ko‘rsatishning taqsimlovchi mezoni sifatida ishlaydigan ijtimoiy tartibni ifodalash uchun ishlatiladi, ya’ni unda ijro va yutuqlar o‘rtasida uyg‘unlik mavjud. Rivojlangan demokratik davlatlarda so‘nggi 50 yilda meritokratiya tushunchasi asosan sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, ta’lim va psixologiya fanlari nuqtai nazaridan atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, ular bilan qiyoslaganda siyosiy tadqiqot ob’ekti sifatida nisbatan tor doirada tahlil etilganini qayd etib o‘tish joiz.

Maykl Yangning 1958 yildagi "Meritokratiyaning yuksalishi" satirik romani meritokratiyani o‘rganishdagi muhim ish bo‘lib, unda u meritokratiya ijtimoiy tartibni nazarda tutadi, unda mukofotlar faqat "merit" g‘oyasi ostida shaxslarning mukammalligi bilan bog‘liq. Ikkinchisi aql va shaxsiy harakatlar yig‘indisi sifatida tushuniladi[3]. Meritokratik tartibda tanlanish jinsi, oilasi yoki irqi va boshqa belgilarga asoslanib tanlaydigan har qanday rejimga qarshi bo‘ladi. Meritokratik tartib ijtimoiy mukofotlarni taqsimlash uchun faqat shaxsiy xizmatga asoslangan teng sharoitlarni ta’minlashga intiladi[4]. Imkoniyatlar va harakat va motivatsiya darajasi bo‘yicha shaxslar o‘rtasida asl farqlar

mavjud deb hisoblasak, meritokratik ijtimoiy tuzilma erishilgan yutuqlarga nisbatan bunday farqlarni aks ettirishi kerak.

Yuqorida aytilganlar shuni ko‘rsatadiki, e’tiborga olish kerak bo‘lgan elementlardan biri ijtimoiy tengsizliklarni oqlash mezoni sifatida xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishdir. Faoliyatning keng qamrovli tasdiqlanishi, u kapitalistik jamiyatlarda sinfiy tizimni axloqiy qonuniylashtirishning asosiy tamoyilini ifodalashi mumkinligini anglatadi[5], bir vaqtning o‘zida imkoniyatlar tengligi va natijalar tengsizligini [6] o‘z ichiga oladi. Natijada, u ko‘proq tenglik talablarining katalizatori va tengsizlikning tarkibiy sabablarini yashirish yoki oqlash, rivojlanmaganlarni qoralash mexanizmi sifatida ishlashi mumkin [7].

Ko‘plab adabiyotlar tahlil qilinganida asosiy ta’riflar iste’dod va harakat o‘lchovlari bilan birgaligini ko‘rsatadi.

Meritokratiya bugungi kunda sizning ijtimoiy mavqeingiz qanday bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyat “yuqoriga ko‘tarilish” uchun “iste’dod” “harakat” bilan uyg‘unlashishi uchun yetarli imkoniyat va harakatchanlikni taqdim etishi kerak degan fikrni o‘z ichiga oladi. Bu g‘oya bizning davrimizning eng keng tarqalgan ijtimoiy va madaniy tushunchalaridan biri bo‘lib, siyosatchilar nutqlarida tez-tez tilga olib turiladi. Masalan Singapur bosh vaziri Li Syan Lunning meritokratiya tushunchasini quyidagicha ta’riflagan: “Singapur – bu tug‘ilganidan olingan boylik va imtiyozlarga egalik qilish emas, balki mehnat va e’tiborga asoslangan jamiyatdir. U elitar davlat imkoniyatlaridan xalq manfaatlariga muvofiq foydalanishni boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilishni ta’minlaydilar. Ushbu guruh bizning cheklangan manbalarimizdan foydalanadi, ular bizning jamiyatimizda katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkin, bu esa bizga imkon bermaydigan ijtimoiy tashkilotning Singapurda xizmat ko‘rsatishini ta’minlaydi [8].

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida meritokratiyaga quyidagicha qisqa ta’riflarni berish mumkin:

Meritokratiya bu :

ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy farovonligidan qat’i nazar, eng qobiliyatli odamlarni tanlash.

rivojlanish individual qobiliyat yoki yutuqlarga asoslangan tizim.

individual qobiliyat yoki yutuqlar asosida tanlangan rahbarlar yoxud mansabdor shaxslar guruhi

davlat va jamiyat boshqaruvida bilimli va istetodli kadrlarning yetakchiligi.

Bu yerda meritokratiya - bu individual yutuqlar asosida tanlangan odamlarning ko‘tarilishi atrofida tuzilgan tizim. “Meritokratiya” so‘zidagi “okratiya” yunoncha hukumat so‘zidan olingan bo‘lib, bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, “meritokratiya” so‘zi o‘zgartirishlar bilan (meritokrat) boshqaruvchi va bunday lavozimga “individual qobiliyat yoki yutuq asosida” yetib kelgan odamlarning elita guruhiga ishora qiladi. “Meritokratiya” deganda odamlar o‘zlarining xizmatlariga ko‘ra ma’lum bir manba tomonidan tanlanadigan ijtimoiy tizimni nazarda tutsa, "meritokratlar" bu tizim orqali ko‘tarilgan hukmdorlarning elita guruhini ham anglatishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy tizimning ma’nosini meritokratiyadan mafkuraviy nutq sifatida ajratish va ikkalasini ham qat’iy kontekstga solish foydali bo‘lishi ehtimoli yuqoridir. Ushbu paragrafda ijtimoiy tizim sifatida meritokratiya va dikurs sifatida meritokratiya o‘rtasidagi siljish bir necha jihatdan muhokama qilinadi. Unda meritokratiyaning ma’nosi qanday o‘zgarganligi, uning etimologiyasini kuzatish, so‘zning salbiy nopoklikdan zamonaviy hayotning ijobiy aksiomasigacha bo‘lgan yo‘lida qilgan keskin burilishlarini xaritalash ko‘rib chiqiladi. Bu so‘zning mutatsiyalarini tushunishga yordam beradigan maxsus konseptual toifalar yaratilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu maqsadlarga erishish uchun ushbu bob "meritokratiyaning sotsialistik tanqidi" dan "sotsial demokratik meritokratiya" orqali va nihoyat "neoliberal meritokratiya"gacha bo‘lgan sayohatni izlaydi. Bu tarixiy shakllanishlarni Alan Foks, Xanna Arendt, Maykl Yang, Daniel Bell va Entoni Giddensdan boshlab ijtimoiy nazariyadagi so‘zdan foydalanish orqali kuzatib boradi. Biroq, avvalo, meritokratiya so‘z sifatida paydo bo‘lishidan oldin nima sodir bo‘lganini ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Foksning maqolasining diqqatga sazovor tomoni shundaki, u Maykl Yangga qaragandan ko‘ra, bu atamadan ko‘proq tanqidiy va siyosiy jihatdan radikal tarzda foydalanadi. Maqola chop etilgan “Sotsialistik sharh” jurnali Leyboristlar partiyasining so‘l tomonidagi siyosiy guruh – Sotsialistik avangard guruhining haftalik nashri edi. Haqiqatan ham, 1955 yilda Leyboristlar lideri va sobiq bosh vazir Klement Etli Sotsialistik sharhni “New Statesman (Buyuk Britaniyaning eng mashhur haftalik jurnali) uchun foydali tuzatuvchi” deb ta’riflagan edi [9].

Foksning maqolasi tabaqalanishni keltirib chiqaradigan siyosat, ijtimoiy apparatlar va mafkuralarning puxta sotsiologik xulosasidir. U “to‘rt tarozi”ning - daromad, mulk, ta’lim va kasbning - pozitsiyalar tengsizligini mustahkamlashdagi rolini ko‘rib chiqadi. Unda ushbu omillarning bir-biri bilan qanday bog‘liqligi, masalan, past daromadlar ishchilarning “o‘z hayotlarini to‘sib qo‘ygan shafqatsiz doiradan chiqishni” imkonsiz qilganligi muhokama qilinadi [10]. O‘sha davr va o‘ziga xos tadqiqot qiziqishlari tufayli Foks sanoat ishlariga e’tibor qaratdi. Bu yo‘l asosida “meritokratiya” yotadi: iqtidorli, aqlli, g‘ayratli, shuhratparast va shafqatsizlar sinchkovlik bilan saralanib, o‘zlarining taqdirlangan hukmronlik mavqelariga erishishga yordam beradigan jamiyat, bu yerda ular nafaqat o‘zlarining tabiiy ne’matlarini ro‘yobga chiqarishdan bahramand bo‘lishlari, balki mukofot olishlari ham mumkin. Aqlli o‘g‘il bolalarga cho‘qqiga chiqishga yordam berish uchun kattaroq va yaxshiroq “imkoniyatlar tengligi” o‘ylab topish va u yerga etib kelganlarida ularga mukofotlar yig‘ish uchun yangi konservatizmning ma’lum bir brendi haqida tasavvur paydo bo‘ladi; bu hech qachon sotsializmning ko‘rinishi bo‘lmaydi [11].

Tahlil va natijalar. 1973 yilda Deniel Bell o‘zining "Postindustrial jamiyatning kelishi" klassik asarida "postsindustrial jamiyat o‘z mantig‘iga ko‘ra meritokratiya" deb ta’kidlagan edi [12]. 1960 yillardagi harakatlar va kurashlarning ta’siri Fordist aholi punkti ierarxiyasi tomonidan huquqlardan mahrum bo‘lganlar - ayollar, oq tanlilar, geylar - mavjud ijtimoiy tabaqalanish naqshlariga qarshi chiqdi va qisman buni buza olishdi. Masalan, AQShda 1963 yilda qabul qilingan “Teng ish haqi to‘g‘risida”gi qonun va Buyuk Britaniyada 1970 yilda qabul qilingan “Teng ish haqi to‘g‘risida”gi qonundan so‘ng, teng ish uchun teng haq to‘lash uchun kurash olib borilgan taqdirda ham, erkaklar va ayollarga bir xil ishni bajarganliklari uchun turlicha haq to‘lash noqonuniy hisoblana boshlandi.

Daniyel Bell “Postindustrial jamiyatning kelishi” asarida “meritokratiya” dan birinchi navbatda go‘yoki "post-industrial" jamiyatda paydo bo‘lgan sotsial mobillikning yangi shakllariga murojaat qilish uchun foydalanadi. Bu juda muhim, chunki Bell matnida "meritokratiya" atamasidan foydalanish Yangning ishida mavjud bo‘lgan va Foks inshosida kuchli tanqid qilingan atamaning muammoli (“distopik”) tomonlarini zararsizlantirish va yo‘q qilish uchun ishlaydi. Bell o‘zining meritokratiya haqidagi g‘oyalarini endi tushunarsiz matnida batafsil bayon qiladi: 1972 yilda "Public Interest" jurnalida “Meritokratiya va tenglik to‘g‘risida” maqolasi. Ushbu maqola hayratlanarli, chunki u meritokratik mafkuraning satirik nafrat ob’ektidan (“Meritokratiyaning yuksalishi” kitobida) neoliberalizmning markaziy va aniq tamoyiliga yo‘lining o‘rta nuqtasini tashkil qiladi. Public Interest 1965 yilda Daniel Bell va Irving Kristol tomonidan

asos solingan jurnalistlar, akademiklar va siyosatchilarga mo‘ljallangan har chorakda chiqadigan Amerika davlat siyosati jurnali edi. Yozuvchi, jurnalist va noshir Irving Kristol 1979-yilda Esquire jurnalining muqovasida tasvirlanganida “neokonservatizmning cho‘qintirgan otasi” nomini oldi. keyinchalik u o‘zining “Neokonservativning mulohazalari”, “Neokonservativ ishontirish” va “Kapitalizm uchun ikki xursandchilik” kabi kitoblarida bu laqabni o‘zlashtirgan va foydalangan. Bell 1970-yillarning oxiridan boshlab jurnal bilan aloqasini to‘xtatdi, chunki u o‘ngga siljiydi [13].

Meritokratiya prinsipi biznesda ham, hukumatda ham qo‘llanilmasligi uchun hech qanday sabab yo‘q. Jamiyat uchun ishlab chiqarish boyliklarini kengaytira oladigan tadbirkorlar va innovatorlarni xohlaydi [14].

Bellning meritokratiya haqidagi tasavvuri bozorda ishlab chiqarilgan ijtimoiy tengsizlikning eng ekstremal oqibatlarini bartaraf eta oladigan kuchli farovonlik davlatining mavjudligi bilan tavsiflangan tarixiy vaziyatdan kelib chiqdi. Britaniyada 1995 yilda Adrian Vuldrij tomonidan chop etilgan Meritokratiya va "Sinfsiz jamiyat" pamfletida keng qamrovli ta’lim, talabalar grantlari, uy-joy nafaqasi va boshqa har qanday jamoaviy ta’minotga ochiq-oydin qarama-qarshi bo‘lgan meritokratiya tushunchasi haqida bahslashadi. Meritokratiya bu yerda Vuldrij 1960 va 1970 yillardagi "yoqimli inqilob" deb atagan jarayonga qarshi qo‘yiladi. Buning bir qismi sifatida u “jamoa”[15] va meritokratik qadriyatlarni tarqatish yo‘lidagi "to‘siq" sifatida ko‘rsatilgan farovonlik davlatiga aniq qarshidir. Vuldrij versiyasidagi meritokratiya kapitalistik bozor mantig‘i va tadbirkorlik bilan aniq bog‘langan va sotsial demokratiya va farovonlik davlatining jamoaviy ta’minlanishiga juda ziddir. Bu yerda meritokratiya imkoniyatlar tengligi haqidagi liberal g‘oyani to‘liq qamrab oladi va uni iqtisodiy o‘sish, kapitalistik raqobat va bozorlashuv bilan sinonim qiladi. Meritokratiya bozorga chiqariladi va bozorlashuv ijobiy jarayon sifatida baholanadi.

Biz Mishel Fukoning 1978-1979 yillardagi Kollej de Fransdagi ma’ruzalari seriyasida liberalizm va neoliberalizm o‘rtasidagi tafovutlar seriyasiga asoslanib, ushbu tizimning rivojlanishini yanada kengroq tushunishimiz mumkin. Fuko liberalizm va neoliberalizm o‘rtasidagi farqlarni tushunish, ularning o‘ziga xosligini tushunish, "sizga neoliberalizm haqiqatan ham boshqa narsa ekanligini aniq ko‘rsatish" zarurligini ta’kidlaydi. Fuko uchun "boshqa narsa" neoliberal-lizm "siyosiy hokimiyatning umumiy amalga oshirilishi bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida modellashtirilishi mumkin bo‘lgan" vaziyatga aylandi[16]. Boshqacha qilib aytganda, bozor nafaqat hukmronlik qildi, balki 1970 yillardan boshlab u siyosiy hokimiyatning o‘zi ishlash usulini tuza boshladi.

Xulosa va takliflar. Meritokratiya mafkura sifatida neoliberalizm muvaffaqiyati yo‘lida hissa qo‘shadi, chunki u raqobatni ifodalovchi va kengaytiradigan “adolatli” vosita vazifasini bajaradi.

Meritokratiya I + E = M formulasi yoki Aql-zakovat (I) va sa’y-harakatlar (E) qo‘shilmasi meritga (loyiqlik) (M) tengdir (IQ+Effort=Merit) shaklida formulaga solingan.

Meritokratiyaning yangi, neoliberal ma’nosi nafaqat siyosiy huquq bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyalar edi. Britaniyalik sotsiolog Entoni Giddensning nazariy ishi Britaniyaning Yangi Leyboristlar hukumati tomonidan o‘zining “Uchinchi yo‘l” siyosatini ishlab chiqishda ham qo‘llanilgan, bunda “meritokratiya” asosiy atamaga aylangan va bir vaqtning o‘zida ijtimoiy liberal va neoliberal maqsadlar uchun foydalanilgan.

Meritokratiya demokratiyadan ko‘ra mukammalroq siyosiy tizim, lekin uni to‘g‘ri amalga oshirish uchun demokratik tizim tomonidan qo‘yilgan poydevor bo‘lishi lozim.

Har qanday jamiyatda farrosh ham, boy biznesmen ham, bilimli siyosatchi ham davlat xizmatchisi bo‘lish uchun teng imkoniyatlar yaratilishi lozim.

Davlat boshqaruvi tizimiga meritokratiyani joriy qilish natijasida qobiliyatli kadrlardan iborat boshqaruv apparati vujudga keladi. Bu esa mamlakatda boshqaruv samaradorligini oshiradi va mamlakatda farovon jamiyat vujudga kela boshlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Michael Young.The rise of the meritocracy 1870-2033. An Essay on Education and Equality.Penguin books Ltd, Harmondsworth, Middlesex. 1961.P-188.https://pdfcoffee.com/michael-young-the-rise-of-the-meritocracy-18702033-an-essay-on-education-and-equality-1958-penguin-bookspdf-pdf-free.html
2. Studying Meritocracy in an Unequal Context: Perspectives from Chilean Scholars Jorge Atria, Juan Carlos Castillo, Luis Maldonado & Luis Maldonado Pp. 127 – 145 / UNIVERSUM · Vol. 34 · N° 2 · 2019 · Universidad de Talca
3. Michael Young.The rise of the meritocracy 1870-2033. An Essay on Education and Equality.Penguin books Ltd, Harmondsworth, Middlesex 1961.P-79
4. Breen, R., & Goldthorpe, J. H. (1999). Class inequality and meritocracy: a critique of Saunders and an alternative analysis. British Journal of Sociology, 50(1). doi:10.1111/j.1468-4446.1999.00001x; Saunders, P. (1995). Might Britain be a meritocracy? Sociology, 29(1), 23–41. doi:10.1177/0038038595029001003.
5. Bell, D. (1974). The coming of post-Industrial society. London: Heinemann.
6. Miller, D. (1999). Principles of social justice. Cambridge, MA.: Harvard University Press.
7. Rosanvallon, P. (2013). The society of equals. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press.
8. https://time.com/3969196/singapore-lee-hsien-loong-interview-50th-anniversary/
9. Douglas, R.M. (2002) ‘No Friend of Democracy: The Socialist Vanguard Group 1941–1950’, Contemporary British History 16(4), P.80.
10. Fox, Alan (1956) ‘Class and Equality’, Socialist Commentary, May, P. 12.
11. Fox, Alan (1956) ‘Class and Equality’, Socialist Commentary, May, P. 13.
12. Bell, Daniel (1973) The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. New York: Basic Books. P. 409.
13. Buhle, Paul (2011) ‘Daniel Bell: Obituary’, The Guardian, 26 January, www.guardian.co.uk/education/2011/jan/26/-daniel-bell-obituary. Accessed 1 November 2016.
14. Bell, Daniel (1972) ‘On Meritocracy and Equality’, Public Interest 29 (Fall) P. 66.
15. Wooldridge, Adrian (1995) Meritocracy and the ‘Classless Society’. London: Social Market Foundation. P. 45.
16. Foucault, Michel (2008) The Birth of Biopolitics: Lectures at the Collège de France, 1978–1979, trans. Graham Burchell. Basingstoke: Palgrave Macmillan. P. 131.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Zarrina NAZAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: nazarovazarrina@gmail.com

TerDPI v/b dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) A. Samiyev taqrizi asosida

O‘QITUVCHILARDA KREATIV SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish, ularning kreativlik tafakkur sifati, intellektual faollik sifati, shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi, ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlikni paydo bo‘lishi, o‘quvchi yoshlar ongiga ma’naviy fazilatlarni singdirish va ularga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan nafrat uyg‘otish uslubini shakllantirish haqida batafsil ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, shaxs, axloq, ma‘naviyat, ta’lim, tarbiya, saxovat.

IMPROVING THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF DEVELOPING CREATIVE QUALITIES IN TEACHERS

Annotation

In this article, the improvement of the pedagogical system for the development of creative qualities in teachers, the quality of their creative thinking, the quality of intellectual activity, the integration of personality qualities, the emergence of a creatively searching pedagogue-innovator, the instilling of spiritual qualities into the minds of young students and their negative influence Detailed information is provided on the formation of the method of arousing hatred towards the secret factors.

Key words: Creativity, personality, morality, spirituality, education, upbringing, generosity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье совершенствованию педагогической системы развития творческих качеств у педагогов, качества их творческого мышления, качества интеллектуальной деятельности, интеграции личностных качеств, становления творчески ищущего педагога-новатора, привития духовных качеств в сознании студенческой молодежи и их негативное влияние Приведены подробные сведения о формировании способа возбуждения ненависти к тайным факторам.

Ключевые слова: Творчество, личность, нравственность, духовность, образование, воспитание, благородство.

Kirish. Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmayotgan bo‘lsa ham bu tushunchani ma’lum darajada pedagogik iste’molga kiritishga doir harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilangan. Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O‘z-o‘zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o‘rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish quyidagi elementlar belgilanishi e’tirof etilgan. Bular:

1. Aqliy mehnat.
2. Intuitsiya.
3. Dunyoqarash.

Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o‘zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya», «Boshlang‘ich ta`lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o‘quv qo‘llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to‘xtab o‘tgan.

Buyuk olim V.A.Slastyonin pedagogning innovatsion faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlarini quyidagicha belgilagan:

shaxsning ijodiy motivatsiyani qo‘llaganligi.

Bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilish;

kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o‘z ka - molotiga intilish;

kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati;

o‘qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur’ati va ish qobiliyati;

qat’iyatlik, mas’uliyatlik va halollik, o‘zini tuta bilish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagog olima R.A.Mavlanova an’anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaralishini, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilganligi haqida quyidagicha fikr bildirganlar:

- kreativlik tafakkur sifatida (J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellectual faollik sifatida (D.B.Bogolevskaya, L.B.Yermolayeva-Tomina);

- yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar).

Biroq oliy ta`lim pedagogikasi(kreativ androgogika)da uning sifat ko‘rsatkichini va namoyon bo‘lish darajasini aniqlashning o‘zi etarli emas.

Kreativlik biryoqlama salbiy jihat sifatida qaralsa-da, uning muammolar tizimi umumlashtiriladi va bir butunlikni tashkil etadi, bu ayniqsa o‘zida ta`lim jarayonida ijodiy ta`lim va tarbiyani mujassamlashtirgan shaxsning ijodiy imkoniyatlari va kreativlikni rivojlantirish jarayonida oliy maktab pedagogikasiga taalluqlidir. Shu sababli, olima kreativlikni

rivojlanish imkoniyatlarini kreativ ta`lim va tarbiya jarayonida shaxs kategoriyasi sifatida o‘rganish zarurligini e`tirof etadi.

O‘tgan asrning 60-70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini o‘rganishda keskin burilish yillari bo‘ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo‘ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta`limining psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o‘rgandilar. (V.V.Davidov, L.A.Zimnaya, N.V.Kuzmina, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, R.A.Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi.)

Kreativlikni o‘rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy androgogikada qo‘llashning umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o‘ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrlovchi, tabaqalashtirilgan ta`lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish joizki, pedagogika fanida kreativlikka doir alohida maxsus tatqiqot ishlari olib borilmagan bo‘lsa ham mazkur masala bo‘yicha muayyan fikrlar bildirilgan. Bu, albatta, bejiz emas. Ya’ni pedagog olimlarning kreativlik masalasiga e’tibor qaratayotganligi, bu masala bo‘yicha juda ko‘p bo‘lmasa ham pedagogik fikrlar bildirilayotganining o‘zi bejiz emas. Chunki yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan, komil shaxs sifatida shakllantirishda o‘qituvchilarning ijodkorligi, o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarini doimo oshirib borishi, so‘nggi yangiliklarni o‘zining pedagogik faoliyatida qo‘llay olishlari, bir so‘z bilan aytganda ularning kreativlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Olima R.A.Mavlanova o‘qituvchining eng yuqori darajadagi ijodkorligi uning to‘liq mustaqil faoliyatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. U avvaldan ma’lum bo‘lgan usullarni qo‘llashi mumkin, ammo u ularga o‘zining shaxsiy munosabatini qo‘llaydi. O‘qituvchi ijodiy individualligi, tarbiyalanuvchining shaxsiy o‘ziga xosligi, ta’limning aniq darajasi, tarbiyalanganlik darajasi, sinfning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda zaruriyat taqozo etgan darajada ish olib boradi. Tayyor tavsiyalarni amalda qo‘llash darajalari ham farqlanadi: optimallashtirish, evristik daraja, shaxsiy, mustaqil.

Tadqiqotchilar fikrlari orasida kreativ insonlar boshqalarga taqlid qilmasdan, o‘zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar, degan fikr etakchilik qiladi.

Tahlil va natijalar. O‘rganilayotgan muammoga V.A.Slastyonin, L.S.Podimova, N.M.Gnatko qarashlari bilan birgalikda, kreativlik mexanizmini ikki turga bo‘lishni taklif qiladilar:

1. Potentsial.
2. Dolzarb.

Potentsial kreativlik - muallifning fikricha, kreativlik faoliyatidir, individiumni potentsial joylashuvi ma`lum tashqi sharoitlarda dolzarb kreativlikni egallashning asos tayyorgarligini tashkil etadi; potentsial kreativlik - ijodning sub`ektiv zarur sharoitidir. V.A.Slastenin, L.S.Podimova potentsial kreativlikning dolzarb kreativlikka izchil taqlid qilish mexanizmi orqali o‘tishi muammosiga o‘ziga xos yondashganlar.

Shunday qilib, kreativlik taqlid qilish, nusxa ko‘chirishdan ijodiy nusxa ko‘chirish, taqlidiy ijod va haqiqiy ijodkorlikka tomon rivojlanib boradi. Tabiiyki, barcha o‘qituvchilar ham kreativ rivojlanishning barcha bosqichlari bilan tavsiflanmaydilar:

- ba`zilar tayyor metodik tavsiyalardan nusxa olib, faqat birinchi darajaga erishadilar;

- ikkinchilari to‘liq kontseptsiya va tizimlarga ega bo‘lmasdan turib, ba`zi metodik usullarga o‘zgartirishlar kiritadilar.

- uchinchilari ma`lum g‘oya asosida to‘liq mazmun, metod va shakllarni ishlab chiqadilar;

- to‘rtinchilar esa ta`lim va tarbiyada o‘zlarining kontseptsiya va metodikalarini tavsiya etadilar.

Yuqoridagilarga munosabat bildirib aytish mumkinki, dastlabki uchtasi taqlid bosqichida bo‘lib, to‘rtinchisi ularga qarama-qarshi tarzda ijod bosqichida. Intellektual faollik darajasini belgilangan kreativlik bosqichlari bilan taqqoslash, ikkala yo‘nalish orasida ma`lum mutanosiblikni, innovatsion-pedagogik faoliyatning bir necha bosqichda takomillashib borish darajasidagi tushunchalarni aniqlashga imkon berdi. Pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko‘tarilib borishi kelajakda innovatsion ta`lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo’lsak, kreativlik pedagogik nuqtayi nazardan quyidagi komponentlarni tashkil etadi:

1. Shaxsning o‘ziga xos xususiyatidir.
2. Ijodiy imkoniyat.
3. Shaxsning intellektual va individual xususiyati.
4. Ijodiy fikrlash.
5. Ijodiy tafakkur.
6. Yechim topish.
7. Bilimlilik.
8. Tashkilotchilik.
9. Bilim, faoliyat, istak.
10. Pedagogik mahorat.
11. Shaxsiy sifatlarning integratsiyasi.
12. Muammolarni mustaqil echish.

Xulosa va takliflar. Ta’limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida o‘qituvchining ijodkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasiga kirib kelayotgan innovatsion yangiliklar pedagogika faniga yangi tushunchalarni ham olib kirmoqda. Shunday tushunchalarning biri «kreativlik» tushunchasidir. Bu tushuncha kuproq psixologiya fanida kengroq rivojlangan. Ammo pedagogika fani bu tushunchaning mazmun va ma’nosini tadqiq etish talab etiladi.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog‘liq. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o‘sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi bo‘lsada, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug‘atlarda munosib defferentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida etarlicha aniqlanmagan. O‘nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o‘ziga va na unga taalluqli bo‘lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emas.

Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur an’analari inson faktorining hal qiluvchi o‘rnini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi. Ijodkorlik inson fenomenining namoyon bo‘ladigan yuksak ko‘rinishi bo‘lishiga qaramasdan, u eng kam o‘rganilgan soha bo‘lib, tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avvalboshdanoq uning

zamonaviy ilmiy metodlarda o‘rganish imkoniyatini chegaraladi.

Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to‘liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas.

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir. 2. Kreativlik – bu insonning o‘ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning maxsulidir.

4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir. 5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma`naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kategoriyadir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi, degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR

1. Инновaесион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Н., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi, 1993
3. Xasanboev J., Saribоev X., Niyozov G., Xasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T: Fan, 2006.
4. G‘oziev E. Psixologiya. –T.: O‘qituvchi , 1994.
5. Jumaev A. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / «Xalq ta`limi» jurnali, 2006, № 6, -17-20-betlar.
6. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang’ich ta’limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y.
7. Вишнякова Н.В.Криативная психопедагогика.-Минск,1995.
8. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang’ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya.” T., 2013.
9. Маркова А.К. Психология профессионализма.-М., 1996
10. Munavvarov A.K. Pedagogika. T.: O‘qituvchi, 1996
11. Педагогика профессионалного образования. Под ред. В.А.Сластенина. - М . : Академия, 2004.
12. Питюков В.Ю. Основи педагогическов технологии.– М. : Гном-Пресс,1999.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 004.0:81'1

Индира НАРКУЛОВА,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
старший преподаватель кафедры «Изучение языков» Университета общественной безопасности Республики Узбекистан
E-mail: indi977@mail.ru
На основе рецензии Х.А.Байманова, к.ф.н., доцента Ташкентского университета прикладных наук

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА ВОЕННОСЛУЖАЩЕГО КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН

Аннотация

В статье представлена актуальность исследования вопросов профессиональной культуры военнослужащего, исследуются различные подходы к определению понятия «профессиональная культура», выделены три взаимосвязанных блока профессиональной культуры, а также ее функции.
Ключевые слова: профессиональная культура, военнослужащий, социальный феномен, современные преобразования в Вооруженных Силах.

PROFESSIONAL CULTURE OF MILITARY AS A SOCIAL PHENOMENON

Annotation

The article presents the relevance of the study of the issues of professional culture of military, examines various approaches to the definition of the concept of «professional culture», identifies three interrelated blocks of professional culture, as well as its functions.
Keywords: professional culture, soldier, social phenomenon, modern transformations in the Armed Forces.

HARBIY XIZMATCHINING KASBIY MADANIYATI IJTIMOIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada harbiy xizmatchining kasbiy madaniyati masalalarini o'rganishning dolzarbligi, “kasbiy madaniyat” tushunchasini aniqlashga turli xil yondashuvlar o'rganilib, kasbiy madaniyatning o'zaro bog'liq uchta bloki, shuningdek uning vazifalari ta'kidlangan.
Kalit so'zlar: kasbiy madaniyat, harbiy xizmatchi, ijtimoiy hodisa, Qurolli kuchlardagi zamonaviy o'zgarishlar.

Введение. Современные преобразования в Вооруженных Силах Республики Узбекистан по-новому поставили вопросы профессиональной подготовки военнослужащих, формирования их профессиональной культуры. 13 января 2023 года Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев на расширенном заседании Совета безопасности отметил: «Как известно, мы объявили 2023 год в нашей стране Годом заботы о человеке и качественного образования. В связи с этим большое внимание будет уделяться вопросам улучшения боевой подготовки, знаний и навыков, расширения мировоззрения, повышения профессионального и культурного уровня личного состава воинских частей. Военнослужащий, офицер является одним из главных носителей профессиональной культуры в Вооруженных Силах Республики Узбекистан. Одной из главных задач является совершенствование военного образования в республике Узбекистан. Важнейшее направление в решении данной задачи является повышение уровня его профессиональной культуры.

Методология исследования. Профессиональная культура военнослужащего в первую очередь зависит от специфики его профессиональной деятельности и непосредственно связана с военной культурой. Сущность профессиональной культуры рассматривается в работах таких известных ученых как, С.А.Кононова, Н.Б.Крылова, М.Г.Рудь, Н.И.Агронина, В.А.Сластенина и др. Теоретические аспекты профессиональной культуры курсантов изучались такими учеными как, Т.А.Жарова, Д.Г.Запрутин, О.А.Черницкий и др. П.А.Амбарова считает, что профессиональная культура – это подсистема культуры, которая имеет ряд функций: организация, регулирование профессиональной деятельности; сохранение, накопление и передача профессионального опыта.

А.И.Кравченко рассматривает профессиональную культуру как совокупность специальных теоретических знаний и практических умений, связанных с конкретной деятельностью. В.Ф.Ковалевский считает, что военно-профессиональная культура – это совокупность выработанных организационно-технических, социально-психологических и духовных ценностей, связанных с военной деятельностью. И.В.Шевченко в своей работе «Проблемы подготовки офицерских кадров» отмечает, что профессиональная культура – совокупность взаимосвязанных между собой компонентов (педагогического, управленческого, социально-правового). Для нашего исследования важным является мнение И.В.Шевченко, так как профессиональная культура военнослужащего является неотъемлемой частью профессиональная деятельности, т.е. она передается в виде специальных военных знаний, умений и навыков, а также профессиональных ценностей, которые выражаются в воинских ритуалах, символах, традициях и т.д.

Н.Б.Крылова делит профессиональную культуру на общую профессиональную культуру и специальную профессиональную культуру. Общая профессиональная культура представлена автором единством убежденности в социальной значимости своей профессии, развитым чувством профессиональной гордости, трудолюбием и работоспособностью; предприимчивостью, энергичностью и инициативностью, свободным владением нормами научной организации труда, а также знанием основ социальной психологии и теории управления; наличием организаторских способностей; заинтересованности в овладении нормами смежных специальностей и готовности к выполнению трудовой деятельности, в приобретении профессионального опыта.

Компетентность является ядром профессиональной культуры военнослужащего. В это понятие входит высокая степень профессионально-деловой надежности военнослужащего, его способность принимать безошибочные решения в рамках своих служебно-должностных функций. Профессиональная культура военнослужащего – понятие емкое и многогранное. Она не сводится только к наличию сугубо деловых, функциональных показателей, а предполагает анализ всех сторон личности, и прежде всего его морально-политических качеств, высоких социальных чувств. Профессиональная культура немыслима без опоры на обширные общеобразовательные и общенаучные знания, широкую общую, культуру.

Основы профессиональной культуры являются частью общей культуры военнослужащих, которая требует соблюдения общих правил культуры в служебное и неслужебное время. Есть ряд ведущих качеств личности, которые определяют характеристики профессиональной культуры (рис.1).

Рис 1.Ведущие качества личности, определяющие характеристики профессиональной культуры



Основы профессиональной культуры военнослужащего неразделимы от индивидуальной культуры конкретного человека.

Высокая культура является неотъемлемым профессиональным качеством военнослужащего нашей армии, который призван быть не только руководителем, но и воспитателем своих подчиненных. Требовательность, высокий профессионализм, принципиальность, строевая подготовка и подтянутость, единство слова и дела, точность и аккуратность создают предпосылки к выработке и жизненной адаптации в воинском коллективе отношений, ориентированных на уважение к личностному достоинству военнослужащих в системе служебных отношений. А также составной частью профессиональной культуры военнослужащего является культура речи. Общегражданский и воинский этикет ярко выражает связь нравственного и эстетического в культуре общения. Он представлен соотношением содержания и формы в общении между военнослужащими при признании ведущей роли формы, которая проявляется в поступках или каких-либо других действиях. Но содержание в этикете – это вторично. На первый план выступает форма в виде действий или поступка. В «Уставе внутренней службы» определены следующие нравственные нормы служебного этикета:

- обращения к военнослужащим в вежливой форме с употреблением слова «товарищ» как символа войскового товарищества;

-утвердительное клятвенное выражение офицерской чести: «Слово

офицера»;

-произношение ритуального офицерского: «Честь имею», при прощании;

-соблюдение норм поведения в общественных местах (уступить место в

транспорте, уступить дорогу старшему по званию, не обгонять его);

-соблюдение правил воинской вежливости по отношению к гражданскому населению;

-соблюдение правил ношения военной формы одежды и т.д.

Также В.Н.Герасимов выделяет мировоззренческую, преобразующую, регулятивную и прогностическую функции.

Мировоззренческая функция связана с формированием круга взглядов

военнослужащего на мир, общество, формы его развития, на свою профессию и место в будущей военно-профессиональной деятельности.

Преобразующая функция определяется прогрессивно направленной деятельностью будущего военного специалиста в процессе решения специфических проблем, направленных на позитивно-творческое изменение различных сторон этой деятельности и ее результаты.

Регулятивная функция ориентирована на выработку мотивов, характеристик и способов, формирующих качество поведения, деятельности,

общения и взаимодействия, которые способствуют включению будущего офицера в военно-профессиональную среду.

Прогностическая функция ориентирована на получение знаний, формирование умений, навыков и компетенций в процессе изучения комплекса учебных циклов и разделов учебного плана вуза, на проектирование будущей военно-профессиональной деятельности. Реализация этих функций создает предпосылки сформированности основ профессиональной культуры.

А также, в свою очередь, выделяют следующие функции профессиональной культуры:

Также в структуре профессиональной культуры можно выделить три взаимосвязанных блока – познавательный, поведенческий и праксеологический

1.Познавательный блок включает в себя профессиональные знания, умения и навыки, которые составляют основу профессионализма, а также профессиональные ценности, образующие ядро профессиональной культуры.

2.Поведенческий блок включает в себя нормы профессиональной деятельности (традиции, обычаи, ритуалы).

3.В праксеологическом блоке изучение возможно только в профессиональной группе.

Результаты исследования. В заключении, хотим отметить, что для совершенствования профессиональной культуры военнослужащего необходимо:

- совершенствовать нормативно-правовую базу, регулирующую основы воинской деятельности и военной службы;

- повысить качество обучения и уровня профессиональной культуры военных кадров в высших военных образовательных учреждениях;

- обновить учебно-материальную базу боевой подготовки, техники и вооружения на основе современных достижений науки;

- формировать у военнослужащих менталитета, мировоззрения, устойчивой системы ценностных ориентаций, связанных с военно-профессиональной деятельностью, направленных на совершенствование профессиональной культуры, посредством современной системы воспитательного воздействия;

- создать обстановку состязательности и соревновательного духа в процессе военно-профессиональной деятельности;

- формировать личность, независимую в своих суждениях, неопровержимую в приказаниях, составляющей со своей и армией одно целое, преданную своим подчиненным и осознающей свою ответственность.

Заключение. Высокая профессиональная культура обусловливает общественное признание, его авторитет, вес и значимость в глазах военной общественности, побуждая окружающих считаться с его мнением. Профессиональная культура придает поведения военнослужащего уверенность в своих действиях, способность принимать решения самостоятельно.

Большинство военнослужащих имеет в своем подчинении личный состав, управляет воинскими коллективами, организуя их обучение и воспитание. А это все требует профессиональной культуры, так как лучшие полководцы и военачальники знали дорогу к сердцу солдата, могли формировать высокий воинский дух.

Таким образом, проведенный теоретический анализ позволил нам определить позиции, с которых возможно исследование профессиональной культуры. Человек, овладевший профессиональной культурой, осуществляет деятельность на высоком уровне, с целью достижения максимального результата. А также, профессиональная культура сама по себе нормативна. Она включает в себя проверенные временем стандарты, способы выполнения профессиональных задач.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ковалевский, В.Ф. Профессиональная культура офицера [Текст] / В.Ф.Ковалевский // Военная мысль. – 1990. – №6. – С. 52-61.
2. Барчугов, А.П. Культура мышления и мышление о культуре (опыт антропологического анализа) [Текст] / А.П. Барчугов // Философские науки. –
3. 1990. – №10. – С. 13.
4. 3.Закирова А. О., Наркулова И. Р. Қ. Роль русского языка в работе сотрудников органов внутренних дел //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 737-740.
5. Наркулова И. Р. Развитие проектной компетентности курсантов высших военных образовательных учреждений //International journal of conference series on education and social sciences (Online). - 2022. - Т. 2. - №. 7.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 681.14:371.3

Muhammad NIYOZOV,
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, (PhD)
E-mail: niyozov_info@bk.ru
Abdumadjid XUDAYBERDIYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qutuvchisi

GulDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi D.E.Toshtemirov taqrizi asosida.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF WEB TECHNOLOGIES IN THE ELECTRONIC INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation

The article provides information about the need to create and effectively use teaching aids based on Internet web technologies in the era of expanding the scope of the electronic information and educational environment in the educational process, as well as the fact that on the Internet opinions about history are presented creation technologies, their role and value in the educational process.

Keywords: educational process, web technologies, electronic information and educational environment, electronic educational resources, information.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ВЕБ-ТЕХНОЛОГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

В статье приводится информация о необходимости создания и эффективного использования средств обучения на базе веб-технологий Интернета в эпоху расширения сферы применения электронной информационно-образовательной среды в образовательном процессе, а также о том, что в Интернете мнения об истории представлены технологии создания, их роль и значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: образовательный процесс, веб-технологии, электронная информационно-образовательная среда, электронные образовательные ресурсы, информация.

ELEKTRON AXBOROT-TA’LIM MUXITIDA WEB TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Anontatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida elektron axborot-ta’lim muhiti ko‘lami kengayib borayotgan davrda internetning web texnologiyalariga asoslangan ta’lim olish vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish zarurligi hozirgi kunning asosiy talablaridan biri ekanligi haqida ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, shuningdek web texnologiyalarning yaratilish tarixi hamda ta’lim jarayonidagi o’rni va ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘quv jarayoni, web texnologiya, elektron axborot-ta’lim muxiti, elektron ta’lim resurslari, axborot.

Kirish. Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, kelajakda mustaqil, qiziqish, qobiliyat va moyilliklariga mos keluvchi kasbni tanlash, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida tanlagan kasbi malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishda ta’lim tizimining hissasi katta. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tarbiyaning maqsad va vazifalari tubdan o‘zgardi. Shu sababli, ta’lim tizimida elektron ta’lim muhitini tashkil etishga a’lohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘quv jarayonini axborotlashtirish ta’limning barcha bosqichlarini qamrab oladi va o‘quv yurtini zamonaviy kompyuter uskunalari va dasturiy ta‘minot bilan ta‘minlaydi. Shu bilan birga, dasturiy ta’minot va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va takomillashtirish shu qadar tez sur’atlar bilan olib boriladiki, ularning eng so‘nggi mahsulotlaridan xabardor bo‘lishning iloji yo‘q. O‘quv jarayoniga elektron ta’lim muxitini joriy etish ta‘limni kompyuterlashtirish muammolarining eng yaxshi echimi hisoblanadi [1].

Elektron ta’lim – bu tez rivojlanuvchi soha hisoblanadi, uning rivojlanishi 1980 yillardan keyingi yillardan boshlangan. Texnologiya shunchalik tez rivojlandiki, geografik farqini o‘zingizni auditoriya ichida his qiladigan darajada namoyon qiladigan instrumentlar yordamida ko‘rish mumkin. Elektron ta’lim muxiti video, slayd-shou, Word va PDF hujjatlari ko‘rinishidagi turli formatdagi materiallar bilan tanishish imkonini beradi. Vebinarlarni o‘tkazish va o‘qituvchilar bilan muloqotda bo‘lish foydalanuvchilarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish imkoniyatlaridan biri bo‘lgan chat va forumlar orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda elektron axborot-ta’lim muxitidan nafaqat o‘quv jarayonini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi, balki o‘quvchilarning axborot bilash ishlash kompetentsiyalarini shakllantirish vositasi ekanligini, bu esa o‘z navbatida ta’limiy faoliyat va o‘quv jarayoni sifatiga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaymiz. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda “elektron axborot-ta’lim muhiti”, “axborot -ta’lim muhiti”, “axborot makoni” tushunchalari mavjud. Bizning fikrimizcha, “axborot makoni” atamasi kengroq, shu jumladan ob’ektiv va sub’ektiv voqelikni o‘z ichiga oladi va insondan mustaqil ravishda mavjud, “muhit” esa sub’ekt va uning yaqin atrofi bilan bevosita aloqada bo‘ladigan makonning bir qismi hisoblanadi. Pedagogik atamalar lug‘atida ta’lim muhiti quyidagicha ta’riflangan: ta’lim muhiti - bu ijtimoiy -madaniy makonning bir qismi, ta’lim tizimlari va ularning elementlari, o‘quv materiali va ta’lim jarayonlari sub’ektlarining o‘zaro ta’sir zonasi. Eng umumiy ko‘rinishda axborot muhiti sub’ektlarning axborot faoliyatini amalga oshirishni ta’minlaydigan shartlar majmui sifatida talqin etiladi. Bu tushunchalar talqinida ba’zi farqli jihatlar mavjud, lekin umumiy tushuncha shundan iboratki, axborot muhit - bu axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv

jarayonini tashkil etishni, elektron hujjat aylanishini joriy qilishni, korporativ tarmoq fayllar omborlarini yaratishni, axborot ko‘makni ta’minlash va o‘quv jarayoni, ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida dasturiy - texnik, va telekommunikatsiya vositalarini yangilashni ta’minlovchi tizimli majmua. Axborot muhitining qayd etilgan vazifalaridan tashqari biz uni maktabda o‘qituvchi, shuningdek o‘quvchining axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini shakllantirish va takomillashtirish vositasi sifatida qaraymiz. Axborot bilash ishlash kompetentsiyalarini esa zamonaviy jamiyat sub’ektlarining tomonidan amalga oshiriladigan, axborotni yaratish, yig‘ish, saqlash, qidirish, tizimlashtirish, qayta ishlash, ungi uzatish, tarqatish va qo‘llash jarayonlarini o‘z ichiga olgan samarali axborotli faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi sifatida qaraymiz [2].

E.B.Трубицынaning ta’kidlashicha, zamonaviy pedagogika fanida “axborot – ta’lim muxiti” tushunchasini “dasturiy - texnik” va “ijtimoiy - pedagogik” yondoshuvlar nuqtai nazaridan talqin etish mumkin. Axborot – ta’lim muxitini ta’riflashga dasturiy – texnik yondoshuv asosida esa o‘quv jarayonining samarali amalga oshirilishini ta’minlovchi tizimga birlashtirilgan axborot, dasturiy va texnik resurslar kiritilgan. Ijtimoiy – pedagogik yondoshuvda esa “muxit”, “borliq” va “pedagogik tizim” tushunchalariga e’tibor qaratilgan. Soxa olimlarning fikriga ko‘ra, bunday yondashuvda, axborot-ta’lim muhiti tarkibida ma’naviy, sub’ektiv va mazmunli kabi komponentlar paydo bo‘ladi, dasturiy va texnik vositalar esa bor - yo‘g‘i o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi ta’lim muhitining bir qismiga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda axborot -ta’lim muhiti quyidagicha ko‘rib chiqiladi:

– “kompyuter texnikasini qo‘llashga asoslangan, yagona texnologik vositalar va o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota – onalar, o‘quv muassasalari ma’muriyati va jamoatchilikning sifatli axborot ta’minotini o‘zaro bog‘liq holda mazmunli to‘ldirishni amalga oshiruvchi, dasturiy – telekommunikatsiya vositasi.” (С.Г.Григорев);

– “kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning zarur darajasiga ega, intellektual-rivojlangan va ijtimoiy -ahamiyatli ijodiy shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan, axborot ta’lim resurslari, kompyuterli o‘qitish vositalari, o‘quv jarayonini boshqarish vositalari, pedagogik usullar, metodlar va texnologiyalarni o‘zida birlashtiruvchi pedagogik tizim”. (S.A.Nazarov);

– “o‘quv jarayonining sub’ekti sifatida shaxs bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va tizimli tashkil etilgan axborot, texnik, o‘quv - uslubiy ta’minnotlar majmuasi.” (О.А.Илченко).

Ko‘rib chiqilgan ta’riflarga muvofiq, elektron axborot -ta’lim muhitini biz o‘z tadqiqotmiz doirasida ta’limiy faoliyatda shaxsning shakllanishini qo‘llab-quvvatlovchi va uning sub’ektlarini yuqori sifatli ta’lim natijalarini olishga yo‘naltiruvchi axborot, texnik va o‘quv – metodik qism tizimlarni o‘z ichiga oladigan o‘quv jarayonining infratuzilmasi sifatida talqin etamiz. Shunday qilib, ta’limiy maqsadlariga erishish uchun yaratilgan elektron axborot - ta’lim muhiti maktabning axborot tizimini pedagogik tizim bilan birlashtiradi, natijada muloqot vositasi va axborot bilan, shuningdek boshqa foydalanuvchilar bilan o‘zora ta’sirlashuv vositalari takomilllashadi, yaratilgan virtual muhit “jonlanadi”. Axborot – ta’lim muxiti bitta inson yoki insonlar guruxi tomonidan yaratiladi, unga yangi kirgan sub’ektlar (foydalanuvchilar) unga moslashadi va o‘z extiyojlariga uni moslashtiradi, ya’ni uni ma’lum darajada o‘zgartiradi [2].

Shunday qilib, elektron axborot-ta’lim muhiti bizning ko‘z o‘ngimizda turli xil ta’limiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari resurslari bilan boyitilgan ko‘p komponentli, murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Elektron axborot-ta’lim muhiti “elektron axborot resurslar, elektron ta’lim resurslar, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari to‘plamini, shuningdek, mos texnologik vositalarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilar qaerda bo‘lmasin ta’lim dasturlarni to‘la xajmli o‘zlashtirishini ta’minlaydi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda elektron axborot-ta’lim muhitida ta’lim dasturlarini to‘la xajmli o‘zlashtirish uchun internet texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu imkoniyat web texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Dastlabki web-texnologiyalar 1989 yilda CERN xodimi Tim Berners-Li tomonidan ixtiro qilingan va bir yil o‘tgach, u birinchi web-brauzerni yaratdi. 1991 yilda ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ma’lumot almashish uchun brauzerdan foydalanildi va tez orada keng jamoatchilikka tanishtirildi. 1991 yil 6-avgust kuni Berners-Li birinchi web-saytni birinchi web-serverda http//info.cern.ch/ da joylashtirdi. U erda ixtirochi Internet bilan ishlash uchun dasturlardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalarni, keyinchalik esa boshqa saytlarning katalogini taqdim etdi. Bu esa Web 1.0 - bu tarmoq morfologiyasi shakllangan butunjahon internetning birinchi avlodidir. Uning doirasida foydalanuvchi Web 1.0 tarmog‘ining resurslarida to‘plangan har qanday ma’lumotni olish orqali ma’lumot manbalarini qidirish imkoniyatiga ega. Ushbu davrda statik saytlar yaratildi va ma’lumotlar mijozga passiv ravishda uzatildi. Web 1.0 mavjud bo‘lganda elektron kutubxonalar va Internet ma’lumotlari kataloglari rivojlana boshladi.

Shu bilan birga, keyingi davrning asosiy yangiliklari texnologiyada emas, balki texnologiyalardan foydalanish usullarida edi. Endilikda Web 2.0 bu interfaol web-saytlar va platformalar tarmog‘idir, bu erda tarkib manba egasi emas, balki foydalanuvchilar tomonidan ishlab chiqariladi. Facebook, YouTube va Twitter - bu Web 2.0 davridagi platformalar bo‘lib, ular foydalanuvchi tomonidan yaratiladigan tarkib va ijtimoiy munosabatlarga yo‘naltirilgan.

Web 2.0 - bu foydalanuvchilarga mustaqil ravishda tarkibni yaratish, shuningdek Internetdagi o‘zlari va boshqa odamlarning materiallari o‘rtasidagi aloqalarni boshqarish imkonini beradigan interfaol semantik web-sayt bo‘lib, foydalanuvchi va server o‘rtasida interfaol axborotlar shakllantiriladi.

Axborot olish tizimlari va foydalanuvchi interfeyslari Internetning yadrosiga aylandi. Qidiruv mexanizmi algoritmlari, ularning ma’lumotlarini saralash, tartiblash va indeksatsiya qilish usullari chastota-sintaktik tahlilga asoslangan edi. Web 2.0 texnologiyasi 2000-yildan boshlab foydalanilmoqda, ammo texnologiyaning rivojlanishining keyingi bosqichi - Web 3.0 texnologiyasi haqidagi g‘oyalar Internet tarmog‘ining dastlabki o‘n yilida shakllangan edi.

Web 3.0 texnologiyasi - bu Web 1.0 va Web 2.0 texnologiyalari sifatlarini birlashtirgan yangi texnologiya bo‘lib, mutaxassislar tomonidan yaratiladi va eng kerakli ma’lumotlar foydalanuvchilarning qidiruv so‘rovlarida ko‘rsatiladi.

Web 3.0 - avtonom platforma bo‘lib foydalanuvchilar mustaqil ravishda tarkibni yaratadilar va manbani boshqaradilar. Bunga misol sifatida - forum yoki ijtimoiy tarmoqlardagi boshqaruv foydalanuvchilarning o‘zlariga beriladi. Endi deyarli har bir ishlab chiqaruvchida o‘zlari web-sayt yoki portal yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Resurslarning ko‘pligi raqobatni kuchaytiradi, agar sayt javob beradigan dizaynga (moslashtirilgan dizayn) ega bo‘lsa, ularga qulaylik va barcha xususiyatlardan foydalanish imkoniyatini berish mumkin.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini tashkil qilishda web texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligi yuqori bo‘lishini ko‘rsatmoqda [5,6,7].

Tahlil va natijalar. Elektron axborot-ta’lim muxitida web texnologiyalar asosida yaratilgan ta’lim resurslari o‘z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o‘zida bilim

berish va ularni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta’minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o‘quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan mashqlar, o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

Elektron axborot-ta’lim muxitida o‘quv jarayoniga mo‘ljallangan ta’lim resurslari quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- fanlar bo‘yicha ta’lim mazmuniga ega bo‘lgan axborot resurslari;
- turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv kurslari;
- teskari aloqani ta’minlash;
- kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko‘p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e’tiborga olish;
- ekranga ma’lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;
- predmetning har bir bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;
- predmetning o‘quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish va boshqalar.

O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilsa, ta’lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo‘naltirilganlik;
- o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta’lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Elektron axborot-ta’lim muxitida web texnologiyalar asosida yaratilgan ta’lim resurslari o‘quv jarayonida mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda ahamiyati juda katta hisoblanadi. Dasturiy vositalar asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta’lim uslubini shakllantirishdir. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdorligini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalaridan biri elektron o‘quv adabiyotlarini keng qo‘llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofali o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat [1].

O‘quv jarayonida web texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayonida berilayotgan materiallarni chuqur va mukammal o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shaklini ta’lim tizimiga joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi (vaqtni tejash) imkoniyati;
- olingan bilimlar o‘quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi;
- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining ortishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar [4].

Elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

• Elektron o‘quv resurslarini yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy ta’minot (Authoring tools);

• Virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

• Dinamik saytlarni yaratish imkoniyatini beruvchi (kontentni boshqaruvi) tizimlari CMS (Content Management Systems).

“Elektron ta’lim” sohasida Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Daniya va Rossiya kabi davlatlar tajribasida axborotlashtirishning asosiy maqsadi, birinchi navbatda, ta’lim sifatini oshirishga, so‘ng esa jarayonlarni avtomatlashtirish orqali oliy ta’lim muassasasi xodimlari va professor-o‘qituvchilari faoliyatida ko‘p takrorlanadigan vazifalar uchun ketadigan vaqtni tejashga qaratilgan. Ta’lim sifatini oshirishda asosiy e’tibor ta’lim kontentlarini yaratish va ulardan ochiq foydalanishni tashkil etishga ahamiyat beriladi[3].

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki elektron axborot-ta’lim muhitida web texnologiyalarni tahlil qilish orqali biz aqlli web-texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish, resurslarni ulash va Internet muhiti tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishimiz zarur, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu barcha foydalanuvhilarni mustaqil o‘quv faoliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan elektron axborot-ta’lim resurslaridan foydalanish orqali o‘quv jarayoniga faol jalb qilish, o‘qish motivatsiyasini va shunga mos ravishda ta‘lim sifatini oshirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Toshtemirov D.E. Niyozov M.B. Ta’lim jarayonida veb texnologiyalarning o‘rni // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. 2(46).2020. -B.114-120.
2. Qarshiev A.A. O‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi (“Informatika va axborot texnologiyalari” fani misolida): Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021. – 44 b.
3. Niyozov M.B., Niyozova G.B. O‘quv jarayonida elektron ta’limning imkoniyatlaridan foydalanish. Педагогик ва психологик тадқиқотлар, (2023) 1(1), 146–152.
4. Niyozov M.B., Xudoyberdiev A.A. O‘quv jarayonini web texnologiyalari asosida tashkil etish // “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika 12- ko’p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferentsiya materiallari 4-qism Toshkent – 2020 31-yanvar 38-40 b.
5. Дубовская, Н. А. Внедрение технологий Web 3.0 в образовательный процесс / Н. А. Дубовская. - Текст : непосредственный, электронный // Молодой ученый. - 2018. - № 14 (200). - С. 47-49.
6. Сравнение Web 1.0, Web 2.0 и Web 3.0 // Планета Информатики. https://inf1.info/web-1-2-3 (дата обращения: 4.04.2018).
7. Эволюция глобальной сети Интернет: WEB 1.0, WEB 2.0, WEB 3.0, WEB 4.0 // Bourabai Research. http://bourabai.ru/dbt/web/evolution.htm

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Султонмурод НИЁЗОВ,
соискатель кафедры Социальная работа
Национального университета Узбекистана
E-mail: mailto:sulton227111@gmail.com

Рецензент: профессор Латипова Н. заведующая кафедрой Социальная работа НУУз, д.с.н., профессор

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ИНКЛЮЗИЯ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация

Статья посвящена анализу инклюзивного вовлечения детей с инвалидностью в социум, в частности социокультурную жизнь. В статье систематизируется теоретико-методологические основы базовых современных инклюзивных компетенций и навыков, применяемые в методах работы с людьми с инвалидностью. В статье дан анализ литературы по инклюзии и методам работы с людьми с инвалидностью. Раскрывается содержание основных понятий социокультурной инклюзии. Отмечается, что основной тенденцией дальнейшего развития социокультурной инклюзии на данном этапе является выработка критериев оценки эффектов внедрения в сферу культуры практик, направленных на интеграцию людей с инвалидностью. Представлены результаты социологического исследования, проведённого с 2017 по 2022 год в городе Фергана. Представлены рекомендации по социокультурной работе как особого рода деятельность, направленная на разработку и внедрение в практику технологий инкультурации, ориентированных не только на преодоление трудностей в обучении, воспитании, но оказывающих помощь в их социальной адаптации, реабилитации.

Ключевые слова: инклюзия, социокультурная инклюзия, люди с инвалидностью, универсальный дизайн, безбарьерное пространство, социальная защита, исключение людей с инвалидностью, адаптация, индивидуальных особенности, социальный опыт,

NOGIRONCHIQ BOLALAR UCHUN IJTIMOIY-MADANIY REABILITA TIZIMINA IJTIMOIY-MADANIY INKLUSIYA

Annotatsiya

Maqolada nogiron bolalarning jamiyatga, xususan, ijtimoiy-madaniy hayotga inklyuziv jalb etilishini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada nogironligi bo'lgan odamlar bilan ishlash usullarida qo'llaniladigan asosiy zamonaviy inklyuziv kompetentsiya va ko'nikmalarning nazariy va uslubiy asoslari tizimlashtirilgan. Maqolada nogironlar bilan ishlashning inklyuziya va usullari bo'yicha adabiyotlar tahlili berilgan. Ijtimoiy-madaniy inklyuziyaning asosiy tushunchalarining mazmuni ochib berilgan. Ta'kidlanishicha, ushbu bosqichda ijtimoiy-madaniy inklyuziyani yanada rivojlantirishning asosiy tendentsiyasi nogironligi bo'lgan odamlarni birlashtirishga qaratilgan amaliyotlarni madaniyat sohasiga joriy etish ta'sirini baholash mezonlarini ishlab chiqishdir. Farg'ona shahrida 2017 yildan 2022 yilgacha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari taqdim etildi. Ijtimoiy-madaniy ish bo'yicha tavsiyalar nafaqat ta'lim, ta'limdagi qiyinchiliklarni engishga, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasiga yordam berishga qaratilgan madaniyat texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan maxsus faoliyat turi sifatida taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziya, ijtimoiy-madaniy inklyuziya, nogironligi bo'lgan odamlar, universal dizayn, to'siqsiz makon, ijtimoiy himoya, nogironligi bo'lgan odamlarni istisno qilish, moslashish, individual xususiyatlar, ijtimoiy tajriba,

SOCIO-CULTURAL INCLUSION IN THE SYSTEM OF SOCIAL REHABILITATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES

Annotation

The article is devoted to the analysis of inclusive involvement of children with disabilities in society, in particular socio-cultural life. The article systematizes the theoretical and methodological foundations of basic modern inclusive competencies and skills used in methods of working with people with disabilities. The article analyzes the literature on inclusion and methods of working with people with disabilities. The content of the basic concepts of socio-cultural inclusion is revealed. It is noted that the main trend of further development of socio-cultural inclusion at this stage is the development of criteria for assessing the effects of the introduction of practices aimed at integrating people with disabilities into the cultural sphere. The results of a sociological study conducted from 2017 to 2022 in the city of Fergana are presented. Recommendations on socio-cultural work are presented as a special kind of activity aimed at the development and implementation of inculturation technologies in practice, focused not only on overcoming difficulties in learning, upbringing, but assisting in their social adaptation, rehabilitation.

Keywords: inclusion, socio-cultural inclusion, people with disabilities, universal design, barrier-free space, social protection, exclusion of people with disabilities, adaptation, individual characteristics, social experience,

Введение. В настоящее время актуальным является необходимость поиска современных концептуальных оснований изучения социокультурных практик инклюзии. И это в свою очередь связано с междисциплинарным подходом, и реакцией на изменения в усложняющейся системе. При этом в современном обществе не полностью проработаны теоретические и практические вопросы формирования компетентности людей с инвалидностью, приобретение навыков активности как в социальной, так и в культурной деятельности, а также повышение социальной культуры граждан и специалистов, обеспечивающих беспрепятственный доступ к социуму. Вследствие возрастает потребность в подготовке не только безбарьерного пространства, но и высококвалифицированных специалистов в социокультурной сфере, сочетающие психологические, педагогические, медицинс-

кие компетенции, в том числе и навыки социального работника.

За последние годы проведена работа по нормативно-правовому, организационному, финансовому обеспечению социальной защиты и поддержки инвалидов, в том числе и детей с инвалидностью. Большое внимание уделяется улучшению качества их жизни. Президент страны Ш.Мирзиеев особое значение придает проявлению внимания и заботы о гражданах, имеющих инвалидность, их всесторонней поддержке»[1].

Сегодня в мире проживает примерно один миллиард инвалидов, в том числе более 600 тысяч инвалидов в Узбекистане. Число заявленных детей с инвалидностью возрасте до 18 лет составляет 138,844 тысячи детей, при этом от 0-6 лет – 28%, 6-14 лет – 62%, 15-18 лет – 10%.

При этом большинство лиц с инвалидностью сталкивается с различными трудностями в повседневной жизни, что затрудняет их активное участие в политической, социальной, экономической и культурной жизни страны. Фактами, свидетельствующими о маргинальном положении лиц с инвалидностью, является то, что «более 80% общественных зданий не приспособлены для людей с инвалидностью» [2]. Всего 7% от общего количества лиц с инвалидностью трудоустроены[3]. Все это свидетельствуют о том, что лица с инвалидностью сталкиваются с различными стигмами, препятствующими их полноправному участию в общественной жизни[4, 110].

В настоящее время в сфере социальной защиты людей с инвалидностью. создана прочная правовая база. В частности, принят закон в стране достигнуты осязаемые результаты в исполнении Законов «О гарантиях прав ребенка», «О социальной защищенности инвалидов в Узбекистане», «Об опеке и попечительстве», принят Закон «О правах лиц с инвалидностью», Узбекистан присоединился к Международной Конвенции о правах инвалидов, гарантированы прав лиц с инвалидностью на пользование всеми имеющимися в обществе возможностями, участие в общественно-политической жизни, медицинском обслуживании, образовании, занятости и реабилитации безбарьерном пространстве.

Анализ литературы по данному вопросу (обзор литературы). Контент анализ литературы показал, что с социологической точки зрения социо-культурная адаптация детей с инвалидностью изучалась в трудах классиков Э.Дюргейма, Т.Парсонса, М.Вебера, которые рассматривали проблемы социальной адаптации детей с инвалидностью, феномен инвалидности, социальное исключение людей с инвалидностью внутри социальных групп и в межгрупповых отношенияхдействия людей с инвалидностью в социальном пространстве [5].

Работы отечественных ученых М.Ганиевой, Л.Муминовой, Н.Латиповой, А.Абдухалилова, Я.Чичериной, Алексеевой, К.Каюмова, Ф.Камилов, З.Узаковой [6], посвящены изучению процессов социальной адаптации детей с инвалидностью, особенностям социальной и социокультурной адаптации детей с инвалидностью, социальной значимости эффективного управления в институциональных заведениях, особенностей социальной работы с детьми с инвалидностью и их семей, проблем внедрения инклюзивного образования в Узбекистане, моделей понимания инвалидности.

Анализ и результаты. Социокультурная инклюзия была признана как восстановительная и развивающая методика, которая показала положительное влияние в системе комплексного подхода в работе с людьми с инвалидностью.

Инклюзия предполагает процесс включения людей с инвалидностью в активную общественную деятельность. В Европейском Союзе разработана специальная методология оценки социальной защиты и социальной инклюзии [7], которая основана на взаимном обследовании (peer review), которое осуществляется между странами ЕС. Инклюзия – это не пункт назначения, а процесс возрастания степени участия в общественной жизни и уменьшения исключения из культуры [8, 439].

Понятие инклюзии по социальному содержанию означает демократическую акцию включения индивида или группы в более широкое сообщество с целью приобщения к определенному действию или культурному процессу [9]. Инклюзия становится новым кодовым знаком для обозначения стремления к преодолению неравенства, обретения свободы и нового качества жизни.

По мнению Председателя Ассоциации инвалидов Узбекистана О.Исакова «Инклюзивное образование – это обеспечение равного доступа к образованию в образовательных учреждениях, для всех обучающихся с учетом разнообразия особых образовательных потребностей и индивидуальных возможностей»[10].

На наш взгляд термин «инклюзия» претерпевает изменения, и оно связано не только с образованием, но и с такими сферами как культура, здоровье, то есть социализация в целом, при определение «другие, отличные от нас» меняется на люди с инвалидностью, которые имеют право на социализацию вне зависимости от состояния здоровья, возраста, пола, национальности, образования, идентичности и др.

В соответствии со статьей 19 Конвенции ООН о правах инвалидов имеют следующие права[11]:

могут самостоятельно решать, в каком месте и с каким человеком или с какими людьми они хотели бы жить. Поддержка общины предоставляется на местах. Персональное сопровождение делает возможным проявление участия и устраняет изоляцию. Лица с инвалидностью должны иметь возможность пользоваться всеми имеющимися услугами и иметь доступ во все учреждения в местах их проживания

Социокультурная инклюзия предполагает «социально-культурную деятельность, которая в обыденной жизни употребляется в трех значениях: как общественная практика, в которой задействовано сегодня множество профессий, крайне необходимых для современной социокультурной сферы; как учебный предмет, обладающий определенной логикой и структурой; как исторически сложившаяся отрасль научных знаний, теория, которая развивается благодаря усилиям большого отряда ученых и практиков.

Социокультурная адаптация детей с инвалидностью, с одной стороны, позволит приобщить этих детей к культуре и искусству, с другой, к участию в общих культурно-досуговых мероприятиях наряду со всеми членами общества, что будет способствовать повышению эмоционального тонуса, социальным коммуникациям, социальному включению детей с инвалидностью в общество. Реализация механизмов социокультурной адаптации выступит в качестве основы для успешной интеграции детей с инвалидностью в общество окажет помощь в преодолении, компенсации существующих ограничений, мобилизации собственных резервов детей и их семей.

Методология исследования. Исследование факторов, способствующих успешной социализации детей с инвалидностью, проведенное социологами и практиками, работающими в системе социальной поддержке детей с инвалидностью, позволило выявить инновационные процессы в системе реабилитации

инвалидов, заключающиеся в развитии социокультурной деятельности среди этих детей, которая помогает им устанавливать социальные связи, выявлять и развивать его творческие способности, удовлетворять эстетические интересы, самоутверждаться в сложной жизненной ситуации[12].

В Республиканском центре социальной адаптации детей и его филиалах в Самарканде и Фергане, изучаются проблемы социальной адаптации детей уязвимых групп (инвалидов, детей с физическими и нервно-психическими отклонениями, детей, страдающих тяжёлыми хроническими заболеваниями, а также других групп социального и правового риска, реализуются психолого-педагогические, образовательные и реабилитационные программы, просветительская и пропагандистская деятельности [13]. Занятия в группах проводятся с использованием арт-терапии, сказкотерапии, стимулирующих развитие ребёнка[14].

В рамках совместного фундаментального проекта Национального университета Узбекистана, Ферганского государственного университета и филиала РЦСАД в г. Фергана «Научно-методические основы совершенствования системы социокультурной адаптации детей с инвалидностью», бала поставлена задача выявить инновационные процессы в системе реабилитации инвалидов, установить движущие силы позитивной динамики этой системы и сдерживающие факторы. С целью изучения условий организации социокультурной деятельности семей (матерей) с детьми и подростками с особыми потребностями участниками совместного проекта в 2017-2019 годах в режиме мониторинга г. Фергана, а также в 2022 году был проведен социологический опрос методом интервью и фокус-группа [15].

Опрос выявил, что основное желание детей с инвалидностью – развиваться и расти вместе со своими здоровыми сверстниками. Большинство участников опроса – родители детей с инвалидностью, специалистов, работающих с семьями и детьми уязвимых категорий, высоко оценили, реализуемые в стране меры, направленная на социальная защита людей с инвалидностью.

На вопрос анкеты: «Кто в Вашей махалле занимается семьями и детьми, нуждающимся в социальной защите?», большая часть родителей детей с инвалидностью (81,8 % - 2017г., 80% - 2019г., 70% - 2022г.) отметили, что данным вопросом, в основном, занимаются председатели махалинских сходов граждан, и консультанты махалли.

Кроме того, (45,5% - 2017г., 30% - 2019г., 35% - 2022г.) респондентов указали на сотрудничество с органами правопорядка, в частности, с инспекторами махалли. (36,4% - 2017г., 37% - 2019г., 35% - 2022г.) респондентов, работающих со специалистами из сферы образования указали на совместную деятельность, с председателями женсоветов. (27,3% % - 2017г., 35% - 2019г., 20% - 2022г.) (9 % - 2017г., 8% - 2019г., 8% - 2022г.) опрошенных работают со специалистами Центра занятости и (9,0% - 2017г., 10% - 2019г., 14% - 2022г.) респондентов – с предпринимателями (рис.1).



Рис. 1. Кто в махаллях занимается вопросами социальной защиты уязвимых категорий население, в %

Как показали результаты опроса, (64,0% - 2017г., 70% - 2019г., 55% - 2022г.) респондентов обладают навыками общения с семьями и детьми исследуемой группы. В 2017 г. – 36,4%, 2019 г. – 25%, 2022 г. – 30% опрошенных выполняют посреднические задачи. В 2017 г – 27,3%, 2019 г. – 5%, 2022 г. – 15% – могут выполнить организаторскую функцию, направив ребёнка в соответствующее медицинское учреждение, как видно данный показатель низкий по сравнению с 2017 годом.

Большая часть тех, кто знает о профессии «социальный работник», считают, что этот специалист занимается социальной защитой малообеспеченных (64,0%), более половины указали на людей с инвалидностью (54,5%), каждый третий (36,4%) одинокими престарелыми, каждый шестой (18,2%) – с семьями и детьми, находящимися в тяжёлом положении. 9.0% опрошенных считают объектом деятельности социального работника социальную защиту женщин.

Как показал анализ данных опроса, 45,5% опрошенных считают, что семьям, где растёт ребёнок с инвалидностью необходима, прежде всего, материальная поддержка. По 27,5% опрошенных указали на духовную поддержку и помощь в решении правовых проблем. Данный показатель не изменился в 2019 и 2022 году.



Рис. 2. Ответы на вопрос анкеты: «Чем можно помочь семьям, где растёт ребёнок с инвалидностью?»

Социальная защита детей с инвалидностью непосредственно связана и с правовой их защищённостью. На вопрос анкеты: «Нарушаются ли права ребенка в Вашей махалле?», 2017 г. – 54,5%, 2019 г. – 55,0%, 2022 г. 64,7% опрошенных считают, что права таких людей в махалле не нарушаются. По мнению (45,5% – 2017 г., 45,0% – 2019 г., 35,3% – 2022 г.) респондентов, они скорее нарушаются в семьях со стороны её членов.

На что, по мнению, необходимо направить ресурсы при оказании помощи детям с инвалидностью. С 2017-2022 г. 54,5%, 55,7%, 54,3% опрошенных в равной степени полагают, что ресурсы необходимо направлять на духовную и организационную деятельность, 27,3%, 22,5%, 20,8% – материальную, правовую поддержку, 18,2%, 21,8%, 24,9% – на образование.

На вопрос анкеты: «Как Вы считаете, нужно ли организовывать культурный досуг таких детей?», были получены различные ответы. В ранжированной ряду предпочтений первое место заняло мнение С 2027 по 2022 гг. 36,4%, 40,6%, 38,9% опрошенных полагающих развитие навыков детей, исходя из наклонностей, 27,3%, 23,5%, 32,3% указали на необходимость проведение духовно-просветительских мероприятий, 18,2%, 17,8%, 17,9% предпочли эмоциональную поддержку детей с инвалидностью.

Как показали полученные данные, в организации социальной защиты и поддержки детей с инвалидностью есть проблемы, которые необходимо решать совместно с профессиональными социальными работниками.

Результатам опроса, проведённого с экспертами показали, что имеет место сокрытие семьями детей с инвалидностью из-за страха перед общественным мнением. В связи с этим, необходимо формировать позитивное общественное мнение по отношению к людям с инвалидностью, как полноценных членов общества.

По нашему мнению, таких же успехов можно достичь и в культурной сфере, как, в целом, людям с инвалидностью, так и детям. Освоение детьми с инвалидностью социального опыта, включение их в существующую систему общественных отношений требует от теоретиков и практиков определенных дополнительных мер, средств и усилий (это могут быть специальные программы, специальные центры по реабилитации, курсы и т.п.). Разработка этих мер должна основываться на знании закономерностей, задач, сущности процесса социально-культурной адаптации детей с инвалидностью.

Социокультурная адаптация детей с инвалидностью, с одной стороны, позволит приобщить этих детей к культуре и искусству, с другой, к участию в общих культурно-досуговых мероприятиях наряду со всеми членами общества, что будет способствовать повышению эмоционального тонуса, социальным коммуникациям, социальному включению детей с инвалидностью в общество.

Резюме и предложения. Как показал анализ инклюзивность выходит далеко за рамки медицинской модели, становясь социальной и общегуманитарной проблемой, охватывающей культурологические, социально-психологические, ментальные, социально-экономические, информационно-технологические аспекты жизни людей с инвалидностью.

Для определения условий и методов формирования духовной и творческой активности детей с особыми потребностями в общество в процессе их социально-культурной реабилитации необходимо:

– разработать модель социального партнерства с государственными и негосударственными организациями в сфере социокультурной адаптации детей с инвалидностью;

– определить социокультурные факторы преобразования досуговой сферы детей с инвалидностью и их семей и вытекающих из них требований к профессиональной подготовке специалистов по работе с людьми с инвалидностью (тренинги, семинары, круглые столы);

– разработать меры по интеграции детей с инвалидностью и членов их семей в культурную жизнь города. обеспечение доступа целевой аудитории к культурно-массовым мероприятиям;

Социальная защита детей с инвалидностью в Узбекистане – это система гарантированных государством экономических, социальных и правовых мер, обеспечивающих инвалидам условия для преодоления, замещения (компенсации) ограничений жизнедеятельности и направленных на создание им равных с другими гражданами возможностей участия в жизни общества.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиеева по случаю Международного дня людей с инвалидностью. 3 декабря 2022 г.
2. На пути к процветающему и инклюзивному будущему Узбекистана: Вторая систематическая диагностика страны. Доклад экспертов Всемирного Банка «О положении лиц с инвалидностью в Узбекистане». 2022 г. (Дата обращения: 25.10.2022).
3. Сайт Министерства занятости и труда Республики Узбекистан. URL: https://mehnat.uz/ru.
4. Латипова Н.М., Абдухалилов А., Алексеева В. Социальные барьеры в процессе формирования инклюзивного общества // Историческая и социально-образовательная мысль. 2022. Т. 14, № 5. – С. 110-127. DOI: 10.17748/2219-6048-2022-14-5-110-127.
5. Дюркгейм Э. Самоубийство. Перевод. Ильинский А.Н. – Москва: Мысль. 1994. – С. 481.; Парсонс Т. Понятие общества: компоненты и их взаимоотношения. Американская социологическая мысль. – Москва: 1996. – С.494-526.; Вебер М. Класс, статус и партия. Социальная стратификация. Вып. 1. – Москва: РАН, 1992. – С.19-38.
6. Ганиева М.Х Социокультурная адаптация детей с ограниченными возможностями как направление социальной защиты. Общественное мнение. Права человека. №4. 2018. – С 35-39.; Муминова Л.Р. Социальная защита детей в Узбекистане: наука и практик: монографический сборник. –Ташкент: Spectrum Media Group, 2015. – С.252.; Латипова Н. Социализации детей с ограниченными возможностями: особенности и принципы. /Монография. особенности организации досуга детям с ограниченными возможностями. – Ташкент: Университет. – С.55-63. Latipova N.M., Abdukhalilov A.A., Alekseeva V.S. Idleness: problem or position survival: problems and factors of overcoming the dependent position. -Egypt/Egyptology, 2020. file:///C:/Users/user/Downloads/1086-Article%20Text-2140-1-10-20201201 .pdf.; Абдухалилов А.А. Вопросы совершенствования социальной защиты людей с инвалидностью в процессе государственного управления в материалах Международной конференции социальной защиты детей в Узбекистане. Отечественный и зарубежный опыт. 2018.; Чичерина Я.Е. Изучение условий и факторов внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан. Пособие. Ташкент. 2008. –

С.49.; Алексеева В.С. Основные направления социокультурной адаптации детей с инвалидностью. Даврий тўплам. – Тошкент. 2017.; Каюмов К Ногиронлиги бор болаларни ижтимоий интеграциясида мослашув марказларнинг фаолияти. Фалсафа ва ҳуқуқ журнали. – Тошкент. 2020. №1. – Б.117-118.; Камилов Ф. Ногиронлиги бўлган болаларни ижтимоий ҳимоялаш тизимини такомиллаштириш истиқболлари// Фалсафа ва ҳуқуқ журнали. Тошкент – 2021. 2-сон – Б. 30-33.; Камилов Ф. Социологияда “ижтимоий мослашув” тушунчаси ва унинг илмий-назарий ўрганилиши// Ижтимоий тадқиқотлар журнали. Тошкент – 2021. 1-Махсус сон – Б. 72-79. ISSN 2181-9556. DOI Journal 10.26739/2181-9556. http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-SI-1-8 Сайт: www.tadqiqot.uz.; Камилов Ф.О. Ўзбекистонда ногиронлиги бўлган болаларни ҳимоя қилишнинг ижтимоий-ҳуқуқий кафолатлари// Ижтимоий тадқиқотлар журнали. Тошкент – 2020. 1-сон 3-жилд – Б. 59-66.; Узакова З.Ф. Особенности социализации и трудовой интеграции молодежи с ограниченными возможностями.: Дис.с.ф.д (Phd). – Тошкент, 2019. Узакова З.Ф. Опыт Республики Узбекистан в переходе на инклюзивное образование // Инклюзия в образовании. – Ташкент. 2019. - Т. 4. - № 2 (14). – С. 1524.

7. Peer Review in Social Protection and Social Inclusion and Assessment in Social Inclusion // http://www.peer-review-social-inclusion.eu/peer-reviews.
8. Employment, Social Affairs, and Equal Opportunities: Social Protection and Social Inclusion // http://ec.europa.eu/employment_social/spsi/the_process_en.htm.
9. Раузе М., Лапхам К. Долгий путь навстречу инклюзии // Журнал исследований социальной политики. 2013. Т. 11. № 4. – С. 439-456.
10. Новый закон «Об образовании» и инклюзия: как должно быть. https://www.gazeta.uz/ru/2020/06/08/education-law/.
11. Конвенция о правах инвалидов. Принята резолюцией 61/106 Генеральной Ассамблеи от 13 декабря 2006 года. Ратифицирована в РУз 28 мая 2021 года.
12. Особенности организации досуга детям с ограниченными возможностями. Ташкент: Университет, 2018. – 130 с.
13. Алимова В.С. О деятельности Республиканского центра социальной адаптации детей / Социальная защита детей в Узбекистане: Наука и практика. Ташкент: Spectrum Media Group, 2015. – С.7.
14. Давранова Д.Ш. Помощь без границ / Материалы Международного Форума «Социальная защита и интеграция в общество детей с особыми потребностями». 5-6 декабря 2015. – Ташкент, 2015. – С. 61.
15. Исследование проводилось с 2017-2022 гг. в Учкуприкском (20 родителей, 28 специалистов) и Кувинском (20 родителей, 31 специалиста) районах, 15 специалистов диагностических центров Ферганской области, ферганского филиала РЦСАД.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 930.482

Bahodir OMONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d (DSc)
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,
E-mail:bahodiron@mail.ru

F.f.d O‘.Tilovov taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF THE WORK OF THE "CODE OF TEMUR" IN THE DEVELOPMENT OF GEOPOLITICAL KNOWLEDGE

Annotation

The article examines the geopolitical knowledge, theories, the order of government and the rules of establishing relations with foreign countries, reflected in the work "The Regulations of Temur". It highlights the injustice that is condemned in neighboring countries, the impact of unrest on governance, the obstruction of the economy of other states, the crisis of dozens of states, the fall of humanity under oppression. Also, through scientific and theoretical knowledge in the work of the "Timur Code", the mechanisms of the formation of immunity of young people to geopolitical threats are clarified.

Key words: power, rayat, sharia, territory, geopolitical governance, geopolitical view, just empire, religious laws, natural geography, martial arts.

ZNACHENIYE PROIZVEDENIYA «ULOJENIYA TEMURA” V RAZVITII GEOPOLITICHESKIX ZNANIY

Annotatsiya

V state rassmatrivayutsya geopoliticheskiye znaniya, teorii, poryadok upravleniya gosudarstvom i pravila ustanovleniya otnosheniy s zarubejnыmi stranami, otrajennыe v proizvedenii « Ulojeniya Temura”. Osveщayetsya nespravedlivost, kotoraya osujdayetsya v sosednix stranax, vliyaniye besporyadkov na upravleniye, obstruksiya ekonomiki drugix gosudarstv, krizis desyatkov gosudarstv, padeniye chelovechestva pod gnetom. Takje posredstvom nauchno-teoreticheskix znaniy v rabote «Ulojeniya Timura” utochnenы mexanizmы formirovaniya immuniteta molodeji k geopoliticheskim ugrozam.

Klyuchevыe slova: vlast, rayyat, shariat, territoriya, geopoliticheskoye upravleniye, geopoliticheskiy vzglyad, spravedlivaya imperiya, religioznыe zakonы, yestestvennaya geografiya, boyevыe iskusstva.

GEOSIYOSIY BILIMLAR RIVOJIDA “TEMUR TUZUKLARI” ASARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada, “Temur tuzuklari” asarida aks etgan geosiyosiy bilimlar, nazariyalar, davlatni yuritish tartibi, xorijiy davlatlar bilan aloqa o‘rnatish tuzuklari haqida fikr yuritilgan. Qo‘shni mamlakatlarda hukum surayotgan adolatsizlik, fisqu-fasotlarning boshqaruvga ta’siri, o‘zga davlatlarning iqtisodiyotiga to‘sq bo‘lishi, o‘nlab davlatlarning inqiroziga, insoniyatning jabr-zulum ostida qolishiga olib kelishi yoritilgan. Shuningdek, “Temur tuzuklari” asaridagi ilmiy-nazariy bilimlar orqali yoshlarning geosiyosiy tahdidlarga qarshi immunitetini shakllantirish mexanizmlari aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: shijoat, raiyat, shariat, hudud, geosiyosiy nazorat, geosiyosiy qarash, adolatli imperiya, diniy qonun-qoidalar, tabiiy geografiya, jang san’ati.

Kirish. Amir Temur davlati xalqaro geosiyosiy maydonda o‘z davrining eng qudratli hokimiyat tizimiga ega bo‘lgan. Yeroosiyo materigida bundanda kuchli davlatning o‘zi yo‘q edi. Bu imperiyaning chegaralari sharqda Xitoy devorigacha, g‘arbda O‘rta yer dengizigacha, janubda hind okeanigacha, shimolda Moskva Knyazliklari hududlarigacha cho‘zilgan. XV asrning 80-yillarida dunyo hokimligiga davogar 4 ta davlat (Usmoniylar, Oltin O‘rda, Xitoy va Temur davlati) mavjud bo‘lib, Temur davlati ijtimoiy-siyosiy, harbiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan. Ushbu davlatlar XV asr oxiriga borib Temur davlati hukumronligini to‘liq tan olgan. Natijada Temur davlati jahon sahnasida yagona qudratli davlat hokimiyatini o‘rnatdi va o‘z nazoratiga oldi. Yevropa davlatlari Usmoniylar imperiyasi nazorati ta’sirida, Osiyoning ko‘p qismi esa, chingiziylar qo‘l ostida bo‘lgan. Amir Temurning asosiy boshlang‘ich harakati chingiziylarga qaratildi va hududlar (Osiyo qit’asi) mug‘illardan ozod etildi. Chunki, chingiziylar hokimiyati mayda feodal davlatlarga bo‘linganligi bois, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy, siyyosiy inqiroz ancha kuchayib ketdi. Xalqaro munosabatlar o‘rtasida tarqoqlik, savdo yo‘llari qaroqchilar uyasiga aylandi. Kundalik ehtiyoj mollariga talab ortdi. Mol ayriboshlashda chigalliklar yuzaga keldi. Movaraunnahr, Xuroson, Hindiston, Xitoy, Eron, Turkiya, Misr, Yevropa davlatlariga savdo karvonlarini qatnashi kamaydi. Ichki viloyatlarda savdo karvonlarining xavfsizlik ta’minoti zaiflashdi. Shu sababli ham Amir Temur faoliyatidagi asosiy siyosiy yo‘l mayda feodallar hukumronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo‘llarida ustunlik qilib turgan Oltin O‘rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movaraunnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta’minlay oladigan markazlashgan davlatni tashkil etish bo‘ldi. Shu jihatdan Amir Temurni o‘z davri va xalqi talab-ehtiyojlarini to‘g‘ri anglagan pragmatik hukumdor deyish o‘rinlidir.

Amir Temur hukumronligining dastlabki yillaridan mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni rivojlantirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta’minlash yo‘lida qo‘shinning qudratini oshirish kabi masalalarga katta e’tibor qaratdi [2]. Davlatning geosiyosiy nazorat chegarasi kengaydi. Yangicha boshqaruv tizimi o‘rnatildi. Boshqaruvning yangicha uslubi o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan va dunyo siyosatdonlari e’tiborida bo‘lgan. Bu boshqaruv birorta siyosiy boshqaruvlarda takrorlanmaganligi, geosiyosiy nazorati tekis, ravonligi, bir hil ta’sir etish kuchiga egaligi bilan ajralib turgan. Shu sababli, Amir Temurning geosiyosiy qarashlari ilmiy-tadqiqot markazalari tomonidan hanuzgacha o‘rganilmoqda. Uning geosiyosiy qarashlari ko‘p tarmoqli bo‘lib, ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish mavzuimizning dolzarbligini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temurning geosiyosiy qarashlarini u qoldirgan nazariy va amaliy qullanma “Temur tuzuklari”ni chuqur o‘rganmay turib tushunish mushkuldir. Sohibqironning geosiyosiy hatti-harakatlari o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, siyosiy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq. Yangi tashkil etilgan davlatning chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarini qaroqchilardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, jinoyatchilarni jazolash, bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish, o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytirish kabi holatlar Amir Temur harbiy yurishlariga sabab bo‘lgan. “Temur tuzuklari”dagi tafsilotlardan ko‘rish mumkinki, Sohibqironning o‘zga hududlarni zabt etish rejasida nizo va urush chiqarish orqali mol-dunyo orttirish maqsad qilib qo‘yilmagan. Asarning “mamlakatlarni zabt etish tuzugi” deb nomlangan bobida, “biron mamlakatda jabr-zulum va fisq-u fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o‘rnatib, fisq-fasodni, zulumni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim” [3]ligini bayon etadi. Sohibqiron davlatlar o‘rtasidagi nizolarni ko‘p hollarda davlat hukumdorlarining to‘g‘ri siyosat yuritmasdan o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yishida, ichki va tashqi tartiblarga, raiyat, shariat talablariga nopisand, zulumkorlikka berilib qolishida deb biladi. Zulumkorlikka berilib qolgan davlat boshqa davlatlar tomonidan zabt etilishi muqarrarligiga ishora qiladi. Chunki, o‘sha davlatning aholisida zulum qilguvchilarga qarshi nafrat kuchaygan bo‘ladi. Asarda, “qaysiki mamlakatning aholisi o‘z hokimi yoki voliysidan ozor chekkan va o‘sha diyor ahlining ko‘ngli o‘z voliysidan qolgan bo‘lsa, mamlakatlarni zabt etguvchi chinakam podshoh u yerlarni o‘z tasarufiga olsin. Odil podshoh u yerga qadam qo‘yishi bilan fath-u zafar ham unga yor bo‘lib, birga kiradi” [3], degan xulosaga keladi. “Temur tuzuklari”da davlatda zulumkorlik diniy qonun-qoidalarga amal qilmaslikdan kelib chiqishi ta’kidlanadi. Diniy qonun-qoidalar insonni ham davlatni ham adolat me’yorlaridan chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Davlat aholisida vatanga muhabbat, hukumatda adolat mezonlarini saqlab turadi. Aks holda, ahli ilm va din peshvolarini ranjitishlar, shariatga xos bo‘lmagan tazyiqlar ortib boradi. O‘rta asrlar nuqtai-nazaridan qaralganda davlat faoliyatida dinning roli yuqori bo‘lgan. Shu boisdan ham davlatning asosiy poydevori ahli ilm va din peshvolaridan tarkib topgani asar nazaridan chetda qolmagan. Ittifoqdosh davlatning sipoh-u raiyati turli maslakka kirib ittifoqi buzilsa, u mamlakatning halokati yaqinligini, chinakam jahongir podshoh unday yurt ustiga yurish qilishi lozim[3] ligi ham bayon qilinadi. Amir Temur siyosiy qarashida boshqa davlatlardagi zulumkorlik va qonunsizlik har bir davlat rivojlanishiga keskin ta’sir qiluvchi omilligi aks etadi. Asarning geosiyosiy mohiyatini ham mana shu g‘oyada aniq ko‘rishimiz mumkin. Jahonda adolatli imperiya bo‘lmasa, jamiyatda rivojlanish bo‘lmasligi aniq ifodalanadi. Bir davlatda adolatni o‘rnatilmagani o‘nlab davlatlarning inqiroziga, insoniyatning jabr-zulum ostida qolishiga olib kelishi ta’kidlanadi. Amir Temurning jahonni zabt etishga kirishishi avvalo, adolat mezonlarini yo‘qotgan davlatlarga qaratiladi va zolimlar, munofiqlar, fosiqu-fojirlar qo‘lidan [3] hokimiyat tortib olinadi.

Jahongirlikka kirishganimda – deb yozadi Sohibqiron – to‘rt narsani xotiramga mahkam saqladim. Birinchisi – qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsam, to‘g‘ri tadbir va kengash bilan ish tutdim. Ikkinchisi – xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim... Har yer el-ulusining tabiati va mizojlarini xotiramga keltirib, ularning tabiatiga muvofiq yo‘l tutib, shunga qarab ularga hokim tayinladim. Uchinchisi – uch yuz o‘n uch asil zotli, shijoatli va aql farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim. To‘rtinchisi – bugungi ishni ertaga qoldirmadim. Yumshoqlik qilishga to‘g‘ri kelsa, muloyimlik qildim, qattiq qo‘llik ishlatish vaqti yetsa, qat’iy choralar ko‘rdim. Shoshilmaslik kerak yerda shoshilmadim, shoshilarli ishlarni kechiktirmadim. Qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadim [3]. Bu fikrlardan ko‘rinadiki, Amir Temur takliflarini rad etgan, unga nisbatan har hil ig‘volar qilgan hukumdorlarga qarshi daf’atan urush e’lon qilmagan, aksincha, ular bilan muzokaralar olib borgan, o‘z siyosati va imperiyasining asl maqsadlarini tushuntirishga harakat qilgan. Bu tadbirlarning foyda bermasligiga ko‘zi yetgandagina jang harakatlari haqida amirlar bilan maslahat qilgan, ularning maslahatlari bilan ish tutgan. Kunduzlari tajribali va dona kishilar bilan saltanatiga xavf solayotgan mamlakatlarni zabt etish ustida bosh qotirgan. Yolg‘iz qolgan vaqtlarda ham mamlakatni yurgizish, bajarishi kerak bo‘lgan ishlarni oldindan rejalashtirib, yurish qilishni avvalo o‘zicha pishitib keyin boshqalar maslahatiga quloq solgan. Zarur maslahatlarga amal qilgan. Vazifalarni o‘z egalariga tanlab topshirgan. Vazifalarni bajaruvchilar yetuk salohiyatli, tadbirkor, o‘z ishining mohir ustalari orasidan tanlab olingan va bunga doim amal qilingan. Ular hamisha e’zozli mutaxassis sifatida qadrlanganini Amir Temurning, tajribamda ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi. Men yana tajribamda ko‘rdimki, g‘anim lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligi bilan emas, mag‘lub bo‘lish esa sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki g‘olib bo‘lmoqlik madadi va bandasining tadbiri bilandir [3], degan fikrida ham bilib olishimiz mumkin.

Amir Temur tomonidan qo‘shib olingan davlat hududlarida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, fan-ta’lim rivojlantirilgan. O‘sha yerning obro‘-e’tiborlik kishilari aziz tutilgan. Sayyidlar, ulamolar, fuzalo va mashoyixlarga e’htirom ko‘rsatilib, barcha sharoitlar yaratib berilgan. Yoshlar, bolalarga ta’lim olishlariga imkoniyat qilingan. “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulum-u sitam yo‘lini to‘sdim. O‘z erki bilan menga bo‘ysungan viloyat hokimlariga o‘sha yurt hukumatini qaytarib berdim va ularni in’om-u ehson bilan qadrladim. Bo‘ysinmaganlarni qilmishiga yarasha jazoladim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinlandim” [3]. Amir Temurning ushbu fikrlari imperiyada osoyishtalik o‘rnatilganini yaqqol izohlaydi. Aholida ham Amir Temur siyosatidan mamnunlik, hayrihohlik kayfiyati ancha yuqori bo‘lgan. Aholini tadbirkorlik qilishi uchun alohida imkoniyatlar joriy qilgan. Dehqonchilik qilmoqchi bo‘lganlarga yer, urug‘lik, hunrmandchilik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlarga barcha asbob uskunalar ajratilgan. Natijasi esa juda samarali bo‘lgan. Davlatning iqtisodiy qudrati kun sayin oshib borgan.

Temur tuzgan qo‘shin strategik va taktik mahorati bilan o‘sha davrning eng mukammal, kuchli armiyalaridan hisoblangan. Uning tashkilotchisi va yetakchisi tajribali mohir sarkarda sifatida shuhrat topdi. Qo‘shin tarkibi “Temur tuzuklari”da keltirilgan tartib qoidalar asosida tuzilgan va ushbu tartiblarga qattiq amal qilingan. Harbiy qo‘shin jangovar yurishga doim shay turgan. Qo‘shin o‘nlik, yuzlik, mingliklarga bo‘lingan va o‘nboshi, yuz boshi, ming boshilik lavozimlari joriy etilgan. Undan tashqari amirlar lavozimiga qarab, minglik, ikki minglikdan to o‘n ikki minlik qo‘shinga boshchilik qilgan. Undan yuqori turuvchi amirul umaro bo‘lib, u davlat boshlig‘iga bo‘ysingan [3;102]. Amaldorlar va barcha askarlar jang san’ati, psixologiya (ruhiyat ilmi), geografiya ilmini puxta bilishlari shart bo‘lgan. Bundan tashqari Temur qo‘shinlarida barcha soha mutaxassislaridan iborat (muhandislar, falakkiyotshunoslar, texniklar, kimyoviy usullardan foydalanuvchilar, yer qazuvchilar, alpinistlar, ustalar va h.k) jamoa shakllantirilgan. Ushbu mutaxassislar o‘zlariga berkitilgan ishlardan tashqari askarlarga o‘z bilimlaridan habardor etib, o‘rgatib borganlar. Qo‘shinning xabarnavislar (razvetka) qismiga maxsus bilimlardan dars berilgan. Ular,

xaritalarni tuzishni yaxshi bilishgan. Falakkiyot ilmlaridan habardor bo‘lishgan va fazo xaritalarini tuzishda mohir bo‘lishgan. Bu xaritalarni faqat maxsus mutaxassislar tushungan. Tuzish, o‘qish va xat yozish uslublari sir tutilgan. Xabarnavislar imperiyaning va unga bo‘ysinuvchi hududlarning shahar, viloyatlarida faoliyat yuritgan. Boshqa davlat hududlarida faoliyat olib boradigan maxsus habarnavislar ham yuqori darajada shakllantirilgan. Ularga o‘ta muhim vazifalar yuklatilgan. Xabarnavislar, hokimlar, raiyat, sipoh o‘zining va yot-begona lashkarning xatti-harakati haqida xabar yetkazgan. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukumdorlar to‘g‘risida, qo‘shni podshohlar, ularning gaplari, ishlari, uzoq o‘lkalardan kelib Temur huzuriga kirmoqchi bo‘lgan ulamo, fuzalolar haqida batafsil xabarlarni aniq tarzda yetkazib turgan. Agar bunga xilof ish tutgudek bo‘lsalar ma’sul qattiq jazolangan. “Temur tuzuklarida”, amir qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi, ming nafar tezyurar piyodani (chopar) etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo‘shni hukumdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kori hol yuz bermasidan burun chora va ilojini [3] qilish tuzugi keltirilgan. Xabarnavislar davlat siyosiy faoliyati ustunlaridan hisoblangan. Axborot almashinish tizimi shunchalik darajada tez bo‘lganki, hukumdor davlat hududida bo‘layotgan ishlardan daqiqama-daqiqa, soat sayin xabardor bo‘lib turgan. Davlat hududi tabiiy geografiyasini juda yaxshi bilganki, piyoda choparlar otli xabarchilardan oldin ma’lumotlarni yetkazgan. Qisqa yashirin yo‘llar mavjud bo‘lib, faqat maxsus xodimlargina bu yo‘llardan xabardor bo‘lishgan.

Davlat barcha sohalarda yuksak darajada rivojlandi. Savdo yo‘lining ham eng taraqqiy etgan davri Temur imperiyasining hukumronlgi yillariga to‘g‘ri keladi. Temur hokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo juda jonli va sira xavfsiz bo‘lgan. Bozorlarda barcha maxsulotlarni topish mumkin bo‘lgan. Juda ko‘plab karvonsaroylar, bozorlar, maishiy xizmat uylari barpo etilgan. Mamlakatning juda ko‘plab shaharlari jahon savdo markaziga aylangan. Samarqand yer yuzining sayqali (eng go‘zal shahri) sifatida e’tirof etilgan. Amir Temur o‘z davrining yagona qudratli davlatini bunyot etdi. U jahon sahnasida hukumron yagona hokimiyatga ega edi. Dunyoning geosiyosiy faoliyati to‘liq Temur nazaroti ostiga olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusi va mohiyatini yoritishda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi. Asosiy metodologik manba “Temur tuzuklari” asari bo‘lib, undagi geosiyosiy fikrlar alohida umumlashtirilib, mantiqiy, qiyosiy tahlil qilindi. Bugungi kunda ham o‘zini ahamiyatini yo‘qotmagan yo‘riqlarga sharh berildi. X.Odilqoriyev va D.Razzoqovning Siyosatshunoslik asarida “Temur tuzuklari” haqidagi fikrlari mantiqiylik metodlari asosida analiz qilindi.

Tahlil va natijalar. Amir Temurning “Temur tuzuklari”da keltirilgan geosiyosiy fikrlari ilmiy asoslarga ko‘ra tahlil qilindi. Tuzuklarda muhim geosiyosiy ilmiy nazariyalar mavjudligiga amin bo‘ldik. Bu ilmiy nazariyalar “Geosiyosat asoslari” fanini ilmiy-amaliy jihatdan boyitadi. “Temur tuzuklari”da bayon etilgan geosiyosiy bilimlarni alohida tadqiqot markazlarida o‘rganishni ommalashtirish zarur. Erishilgan tadqiqot natijalari kelajak avlodni geosiyosiy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolamizning tahlil natijalariga ko‘ra, Temur davlatining geosiyosiy strategiyasi kuchli nazariy asoslarga ega bo‘lib, davlatining geosiyosiy qudrati quyidagilarda namoyon bo‘lgan: birinchidan, dunyoning yagona qudratli imperiyasiga aylandi; ikkinchidan, imperiya juda katta xududga ega bo‘lishiga qaramasdan nazorat qilish sestimasi bir hil tizimlashtirilgan; uchinchidan, davlat tabiiy jihatdan juda qulay hududda joylashgan; to‘rtinchidan, harbiy jihatdan Temur davlatiga tenglasha oladigan armiya topilmas edi; beshinchidan, barcha savdo yo‘llari nazoratga olingan; oltinchidan, xo‘jalik yuksak darajada rivojlangan; aholi o‘rtasida ishsizlik tugatilgan, davlat va aholining daromad manbai juda yuqori bo‘lgan; yettinchidan, davlat aholisining intelektual salohiyati darajasi shakllandi va ilm-fan taraqqiy etdi; sakkizinchidan, dunyo aholisining asosiy qismi ushbu davlat tarkibiga kiritildi; to‘qqizinchidan; barcha strategik mintaqalar nazorat ostida bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda “Temur tuzuklari” geosiyosiy bilimlar rivojiga katta hissa qo‘shuvchi manba bo‘lib, bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Juda uzoq yillar davomida siyosiy boshqaruv yo‘riqnomasi sifatida qo‘llanilib kelindi. Uning boshqa sarkardalardan ajralib turadigan va o‘xshamaydigan jihati davlat boshqaruvi va geosiyosiy nazariyalarni yaratib, o‘z nazariyasini amaliyotda to‘liq sinab, katta natijalarga erisha olganligida. Bu jihatdan u yagona hukumdordir. Amir Temur davlat siyosatini geografiyasiz rivojlanmasligiga urg‘u bergan. Davlatning qudrati siyosat va geografiyaning o‘zaro mukammal aloqalari natijasida deb bilgan. Shunga ko‘ra, Amir Temurning geosiyosiy qarashlarini yanada mukammal o‘rganish: birinchidan, “Geosiyosat asoslari” faniga doir yangi nazariy bilimlarni shakllantiradi; ikkinchidan, “Siyosatshunoslik” fanlari tizimida yangi qo‘llanmalar, darsliklar, monografiyalarni ko‘payishiga sharoit yaratiladi; uchinchidan, yoshlarning Amir Temur siyosati va geosiyosati haqidagi bilimlarga bo‘lgan qiziqishni ortishiga yordam beradi; to‘rtinchidan, yoshlarning bugungi mafkuraviy, siyosiy, ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetini shakllantiradi. Ayni damda, “buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak”[1].

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2022. 435 b.
2. Odilqoriyev X, Razzoqov D. Siyosatshunoslik. T.: 2008. 344 b.
3. Amir Temur. “Temur tuzuklari” T.: 2020. 144 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 372.862

Durdona OTAQULOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti “Informatika” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:durdonao68@gmail.com

BuxMTI professori, p.f.d.(DSC), F.R.Murodova tahriri ostida

TA’LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANIB “TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN VIKTORINALAR O‘TKAZISHNING AMALIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim platformalarini imkoniyatlari, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish muammolari va yechimlariga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shunungdek, ta’lim platformalaridan foydalanib onlayn viktorinalar tashkil etish usullari bayon etilgan hamda “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanidan viktorinalar tuzish, o‘tkazish algoritmi keltirilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fani o‘qitish samaradorligini oshirishda onlayn viktorinalardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan, uning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorlik darajasini aniqlashda Styudent-Fisher kritepiyasidan foydalanilgan.
Kalit so‘zlar: Viktorina, platforma, global tarmoq, ta’lim platformasi, ahaslides.com, gmail.com , QR-kod, Styudent-Fisher. va ularni bartaraf etish usullari.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ ВИКТОРИН ПО ПРЕДМЕТУ «ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНЕ» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ

Аннотация

В данной статье представлена информация о возможностях образовательных платформ, проблемах и решениях их использования в образовательном процессе. Кроме того, описаны способы организации онлайн-викторин с использованием образовательных платформ, а также представлен алгоритм создания и проведения викторин по предмету «Информационные технологии в медицине». Вместе с тем, в данной статье представлены предложении и рекомендации по использованию онлайн-викторин для повышения эффективности преподавания «Информационные технологии в медицине», проведена экспериментальная работа по определению ее эффективности. Для определения эффективности результатов экспериментальной работы использовался критерий Стьюдента-Фишера.
Ключевые слова: Викторина, платформа, глобальная сеть, образовательная платформа, ahaslides.com, gmail.com, QR-код, Student-Fisher. и способы их устранения.

PRACTICAL EFFECTIVENESS OF CONDUCTING QUIZZES ON THE SUBJECT "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE" USING EDUCATIONAL PLATFORMS

Annotation

This article provides information about the possibilities of educational platforms, problems and solutions for their use in the educational process. In addition, methods for organizing online quizzes using educational platforms are described, as well as an algorithm for creating and conducting quizzes on the subject "Information Technologies in Medicine". At the same time, this article presents suggestions and recommendations on the use of online quizzes to improve the effectiveness of teaching "Information Technologies in Medicine", and experimental work has been carried out to determine its effectiveness. To determine the effectiveness of the results of the experimental work, the Student-Fisher criterion was used.
Key words: Quiz, platform, global network, educational platform, ahaslides.com, gmail.com, QR code, Student-Fisher. and ways to eliminate them.

Kirish. Bugungi kunda raqamli vositalar ta’lim tizimida o‘rni beqiyos bo‘lib, bunda talabalarning fanni o‘zlashtira olishi emas, balki bir vaqtning o‘zida o‘zlashtirish darajasini vazifalarni bajarishni kuzatish mumkin. Buning natijasida talabalarni o‘z ustida mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlanadi va axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalari shakllanadi [1-4]. Shu bois fanlarni, xususan “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda raqamli vosita sifatida ta’lim platformalarini keltirish mumkin. Ta’lim platformalar turli onlayn to‘garaklar, olimpiadalar va viktorinalar o‘tkazishda zamonaviy pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanidan onlayn viktorinalar o‘tkazishni ko‘rib chiqamiz.

Viktorina – bu turli bilim sohalari bo‘yicha og‘zaki yoki yozma savollarga javob berishdan iborat o‘yindir [5, 6].Viktorinalar, asosan, bir-biridan harakatlar tartibini, savolning turlari va murakkabligini, g‘oliblarni aniqlash tartibini va to‘g‘ri javob uchun rag‘batni belgilaydigan qoidalar bilan farqlanadi [7, 8, 9].

Platformalar yordamida viktorinalar resurs yaratish ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalash, talabaning o‘quv faoliyatini o‘zi nazorat qilish va to‘g‘ri yo‘naltirish, kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o‘quv vaqtini tejash, o‘quv materiallarini vizuallashtirish, o‘rganilayotgan ta’lim jarayonlarni modellashtirish, ularni imitasiyalashtirish, turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, fikrlashning aniq bir shakli (ko‘rgazmali-obrazli, nazariy)ni rivojlantirish, bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi [10, 11].

Shu bois, “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda viktorinalardan foydalanish lozim. Bunda talabalarning mustaqil fikr bildirish, mantiqiy fikrlashga oid ijodiy qobilyatini oshirishga va kompetentligini rivojlantirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari, oliy

ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish samardorligini oshirishda elektron ta’lim resurslar va interfaol metodlardan foydalanish metodikasi hamda masofadan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash muammolariga oid yurtimiz olimlari: A.A.Abdiqodirov, U.SH.Begimkulov, G.S.Ergasheva kabi olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan; oliy ta’lim muassasalarida informatika turkumiga kiruvchi fanlarga oid elektron axborot resurslarini, interaktiv o‘quv majmualar, pedagogik dasturiy ta’minot yaratish va ularni joriy qilish metodiksi bo‘yicha M.H.Lutfillayev, S.Q.Tursunov, B.B.Mo‘minov, M.R.Fayziyeva, T.T.Shoymardonovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan; bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining metodik tizimini takomillashtirish, kasbiy kompetentligini shakllantirish va tayyorlash mazmunini takomillashtirish hamda o‘quv adabiyotlari yangi avlodni yaratishga oid N.I.Taylaqov, F.M.Zakirova, B.Z.To‘rayevlarning ishlarida tadqiq etilgan [12].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida masofaviy ta’limning joriy etish muammolari, axborot ta’lim muhitlaridan, ta’lim platformalaridan foydalnish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar YE.V.Yakushina, G.A.Gareyeva, A.V.Karmanovskiy, A.A.Skvorsov, G.M.Kuleshova, O.V.Mirzabekova, V.V.Polovinkina kabi olmlar tomonidan o‘rganilgan.

Shuningdek, elektron ta’lim resurslarni yaratishga o‘rgatish metodikasi, axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid tadqiqotlar D.V.Luchaninov, B.A.Kondratenko, YE.V.Kirgizova, V.V.Kalitina, M.M.Abdurazakov, A.V.Danilkevich, YE.V.Boykov, V.A.Krasilnikova, N.Y.Kulikova, S.A.Sushkov kabi olimlar tomonida tadqiq etilgan [12].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar, fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda masofaviy o‘qitish tizimlaridan, axborot-ta’lim muhitlarida va ta’lim platformalaridan foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari bo‘lib, biroq ta’lim platformalaridan foydalanib informatika turkumiga kiruvchi fanlardan viktorinalar tashkil etish metodikasi ilmiy-nazariy tadqiq qilinmagan. Shu bois, ilgari surilayotga tadqiqot, ya’ni “Tibbiyotda axborot texnologiyalari’ fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning axborot texnologiyalariga oid kometensiyalarini shakllantirishda viktorinalardan foydalanish muhim masalalardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda fanlardan, xususan informatika fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning fikrlashini rivojlantirishda viktorinalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ayni paytda viktorinalar o‘tkazishga mo‘ljallangan ko‘plab ta’lim platformalari mavjud bo‘lib, ulardan ta’lim va tarbiya jarayonida keng ko‘lamda foydalanib kelinmoqda. Bularga misol sifatida global tarmoqning https://ahaslides.com/ru/ manzilida joylashgan ta’lim platformasini keltirish mumkin. Ushbu platformalardan foydalanib viktorinalar tashkil etish ketma-ketligini keltiramiz:

1.https://ahaslides.com/ru/ ta’lim platformasidan ro‘yxatdan o‘tiladi. Buning uchun gmail.com da elektron manzil bo‘lsa “Bepul ro‘yxatdan o‘tish” menyusi orqali platformaga kiriladi.



1-rasm. https://ahaslides.com/ru/ platformasidan foydalanish jarayoni

2. Platformaning “Yaratmoq” bo‘limi orqali “Viktorina” bo‘limi tanlanadi. Bunda loyihalashtiriladigan viktorina oynasiga o‘tiladi.



2-rasm. https://ahaslides.com/ru/ platformasidan foydalanish jarayoni

3.Oynadan lozim bo‘lgan bo‘lim tanlanadi. Misol tariqasida “Javobni tanlang” bo‘limidan foydalanish algoritmini keltiramiz.



3-rasm. https://ahaslides.com/ru/ platformasidan foydalanish jarayoni.

Bo‘limdan lozim bo‘lgan savollar kiritiladi va sozlanmalar o‘rnatiladi (to‘g‘ri javob varianti, vaqt chegarasi, guruhlarning statistik tahlili).



4-rasm. https://ahaslides.com/ru/ platformasidan foydalanish jarayoni.

4.Talabalar guruhlarga a’zo qilinadi. Buning uchun talabalar professor-o‘qituvchi tomonidan yaratilgan loyihaga a’zo bo‘lish talab etiladi. Talabalr professor-o‘qituvchining loyihasidan foydalanishi uchun taqdim etgan global tarmoqdagi manzil yokin QR-kodi orqali foydalanish mumkin. Buning uchun loyihalashtirilgan viktorina platformaning “Ulashish” bo‘lmida manzili yoki QR-kod yuklab olib talabalarga taqdim etiladi.

5.Bundan so‘nga talabalar taqdim etilgan manzil orqali guruhlarga a’zo bo‘ladi. Professor-o‘qituvchi tomonidan gurhlarni nazorat qilib boriladi.



5-rasm. https://ahaslides.com/ru/ platformasidan foydalanish jarayoni.

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlik asosida tashkil etilgan viktorinalarda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan jamoaning natijalari birinchi oynada aks etadi.

6-rasm. https://ahaslides.com/ru/ platformasidan foydalanish jarayoni.

Shunday qilib, informatika fanlaridan onlayn ta’lim platformalari orqali tashkil etilgan viktorinalar talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassalarida ahaslides.com ta’lim platformalaridan foydalanib “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanidan tashkil etilgan viktorinalarni samaradorlik darajasini aniqlashga oid tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ahaslides.com ta’lim platformasidan foydalanib “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanidan viktorinalarni amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlariga “Davolash ishi” yo‘nalishi uchun jami 47 nafar talablar jalb etildi. Tajriba guruhiga ajratilgan talaba tadqiqot doirasida tavsiya etilayotgan metodikadan foydalanib, mashg‘ulot tashkil etildi. Nazorat guruhiga esa ushbu imkoniyat berilmadi. Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan talabaning natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlili etildi. Ushbu kriteriyadan foydalanishda

$$\overline{X} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{4} n_i X_i$$

tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar , $\overline{Y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{4} n_i X_i$ formuladan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 8,3 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa. 1. Bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri turli fanlar sohasini o‘z ichiga olgan bilimlar omborini yaratishdir. Ya’ni, yangi axborot texnologiyalarini ta’limga tatbiq etish ta’limda an’anaviy o‘qitish jarayonidan talabalar o‘zi ta’lim jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o‘tishni ta’minlaydi. Bu orqali, bir qancha iqtidorli talabalar o‘z qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Ta’lim platformalarining asosiy ustunligi – interaktivligida. Bundan tashqari, dars jarayonida talabalar elektron qurilmalarini yagona tizimga birlashtirish mumkin bo‘lib, bu orqali professor-o‘qituvchi o‘z qurilmasidan har bir talabaning ishiga munosabat bildirishi, vazifalar berishi va tekshirish imkoniga ega bo‘ladi.

3. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim platformalaridan foydalanib “Tibbiyotda axborot texnologiyasi” fanidan viktorinalar o‘tkazishdagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, professor-o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha viktorinasi dars mashg’ulotlarida indivudual ishlashga, tezkor fikr almashishga va jamoaviy ishlashga yordam beradi. Bundan har bir talaba ma’lumotlar almashishda raqamli texnologiyalardan sohaviy yangicha yondashuvlarini ishlab chiqishga turtki bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Акамова Н.В. Обучение математике студентов средних специальных учебных заведений с использованием информационных технологий // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Саранск, 2011. – 254 с.
2. Allambergenova M.X. Informatikadan interaktiv o‘quv majmualar yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– Toshkent, 2012. –117 b.
3. Ashurova D.N. Aralash ta’lim (Blender Learning)ning konseptual va terminologik apparati // Scientific-methodological electronic jurnal “Foreige languages in Uzbekistan”, 2020. – № 4 (33). – P. 164-174.
4. Бойков Е.В. Методика самостоятельного обучения студентов информатике с помощью объектно-ориентированных электронных учебников //Диссертацияна соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Красноярск, 2012.– 138 с.
5. Djo‘rayev R.X va boshqalar “Pedagogik atamalar lug‘ati” Toshkent – 2008. – 26 b.
6. Pedagogika ensiklopediya (I-jild) Toshkent – 2015 . – 197 b.
7. Xodiyev B.X “Umumiy pedagogika va nazariyasi amaliyoti” Darslik – Toshkent – 2017. –152 b.
8. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, – pp. 30-34.
9. Dilova N.G. (2015). Situation of cooperation and the problems solved in it.
10. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2: 13, – pp. 102-103.
11. Baxodirova U.B. Mikrobiologiya fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Qarshi, 2020. – 156 b.
12. Mirsanov U.M.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi (5–6-sinflar misolida)// Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 190 b.
13. Norbekov A.O. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kompyuter ta’minoti fanini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. – Qarshi, 2021. –171 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:141.336:18

Sevara PO‘LATXODJAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti magstranti

Amaliy fanlar universiteti professori D.Amriddinova taqrizi asosida

THE LIFE OF MAHMUD ASAD JOSHAN AND HIS MORAL AND AESTHETIC VIEWS IN HIS WORK "SUFISM AND SELF-EDUCATION"

Abstract

In this article, the life of Sufism exponent Mahmud Asad Joshon and his works on Sufism and self-cultivation, its place and role in personal development are highlighted. Also, the importance of Sufism ideas in the religious worldly life of a person is shown.
Key words: Sufism, nafs, tariqat, Naqshbandiya, dervish, tafsir, hadith, karomat, education, education, hadith, qutb.

ЖИЗНЬ МАХМУДА АСАДА ДЖОШОНА И ЕГО НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ В ЕГО ТРУДЕ "СУФИЗМ И САМООБРАЗОВАНИЕ"

Аннотация

В данной статье освещается жизнь представителя суфизма Махмуда Асада Джошона и его труды о суфизме и самосовершенствовании, его место и роль в развитии личности. Также показано значение идей суфизма в религиозной мирской жизни человека.
Ключевые слова: Суфизм, нафс, тарикат, накшбандия, дервиш, тафсир, хадис, каромат, образование, образование, хадис, кутб.

MAXMUD ASAD JO‘SHON HAYOTI VA UNING “TASAVVUF VA NAFS TARBIYASI” ASARI UNDAGI AXLOQIY VA ESTETIK QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasavvuf namoyondasi Maxmud Asad Jo’shon hayoti va uning asarlarida tasavvuf va nafs tarbiyasi, uning shaxs kamolatidagi o’rni va roli yoritib berilgan. Shuningdek insonning diniy dunyoviy hayotida tasavvuf g’oyalarini ahamiyati ko’rsatib berilgan.
Kalit so‘zlar : Tasavvuf, nafs, tariqat, naqshbandiya, darvesh, tafsir, hadis, karomat, ta’lim, tarbiya, hadis, qutb.

Kirish. Har bir inson umri davomida erishgan tajribalari, bilimlari, ko‘nikmalari asnosida hayot kechiradi. U o‘z hayot yo‘lini va bu yo‘lda sodir etgan barcha a’mollarini o‘zicha baholaydi. O‘zga insonlarning bildirgan ijobiy fikrlari yoqimli, albatta, lekin tanqid hamisha ham hammaga yoqavermaydi. Inson hayoti davomida goho bilib, goho bilmay, juda ko‘p xato va gunoh ishlarni sodir etadi. Bu esa ayrim hollarda jiddiy muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlardan saqlanish uchun komillikka erishish lozim. Xalq hamisha komillikka intilib, yaxshi niyatlar bilan yashaydi. El-yurtga naf keltirishni oilasini mustahkam, o‘z turmushini obod qilishdan boshlaydi. Bu ezgu yo‘lda milliy qarashlar va an’analarga suyanadi, bobomeros qudratdan kuch oladi.

Nafs insonning o‘zligini, joni, qalbi ma’nolarini anglatadi. Bu haqda Imom G‘azzoliy shunday yozadi: “Bilg‘ilkim, seni kim xalq qilibdur? Ikki nimarsadin biri zohir badandurki, ani tan atabdurlar, muni zohir ko‘z birla ko‘rgali bo‘lur. Yana biri ma’nii botindurki, ani nafs derlar, jon atarlar va dil ham derlar”.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shunday bo‘lsada, nafs so‘zi insonning tana ehtiyoji bo‘lgan yeyish-ichishga va shahvoniy hirsga nisbatan ham ishlatiladi. Bu ma’noda xalqimiz nafs so‘zini tamoq, jig‘ildon, vijdon kabi so‘zlar ma’nolarda ham ishlatadi. Buni xalqimizning quyidagi maqol va hikmatli uchratish mumkin. “Mening nafsim balodir, yongan o‘tga solodur”, “Nafs uchun kabob bo‘lgan baliq”, “Ko‘p yeyish nafs rohati, oz yeyish tana rohati”.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “Nafs (arabcha nafs-qalb, ko‘ngil; inson; maqsad, intilish; g‘urur, mag‘rurlik)

Nafs bandasi nafsidan boshqani o‘ylamaydigan.

Nafsi buzuq (yoki yomon) Ovqatdan sira qaytmaydigan, nafsini tiya olmaydigan; hirsli. Nafsi buzuq hayitda o‘lar. Maqol.

Nafsi o‘lik (yoki tiyiq) Nafsini tiya oladigan, har narsaga suq bilan qarayvermaydigan.

Nafsiga o‘t tushmoq Nafsi haddan tashqari avj olmoq; nafsi hakalak otmoq.

Nafsini tiymoq Nafsiga erk bermaslik, o‘zini saqlamoq.

Donishmandlar inson nafsini bir necha darajaga bo‘lishadi. Nafsning birinchi darajasini “Nafsul-ammora” deyishadi. Nafsul-ammora insonning xilqatidagi nafsdir. Bu nafs yeyish, ichish, uxlashdan iborat bo‘lib, unga dunyo va oxiratni qayg‘u qilmaydigan bolalik davri misol qilinadi. Ammo insonning bu nafsiy holati shunday tashlab qo‘yilsa, u har xil yomonliklarga undaydi. Bu haqda “ Qur’oni karim”da Yusuf alayhissalom nomidan shunday deyiladi:

“Nafsimni oqlamayman. Zero, nafs yomonlikka undovchidir. Faqat rabbim rahm qilganlar bundan mustasnodir. Albatta, Rabbim kechirimli va rahmli zotdir”.

Ayrim ulamolar nafsning yana nafsul-mulhama, nafsur-roziya, nafsul-marziya, nafsus-sofiya kabi yana to‘rtta darajalari borligini ta’kidlashgan. Inson nafsi o‘z darajasiga ko‘ra faoliyat olib boradi. Nafsul-ammora insonni har kuni nafsoniy ishlarga yo‘llaydi. Inson erta tongda uyg‘onganidan u: “Qani bugun nima yeysan, qayerga borasan, nima kiyasan? “deb savollarga tutadi. Shu paytda insonning nafsi tarbiya topib, u nafsul-lavoma darajasiga yetgan bo‘lsa, nafsini tergaydi, uni xotirjam qiladi .O‘z nafsini tanib uni jilovlagan insonlar ko‘proq boshqa insonlarga manfaat yetkazadilar. O‘z nafsini tiyaolmagan odamlar har xil nomaqbul ishlarga qo‘l uradilar. Shu sababli inson o‘z nafsini anglashi va uni tarbiyalashi natijasida yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida shakllantiradi. Va jamiyatda kishilar o‘rtasida bir-birini ko‘raolmaslik, hasad, xudbinlik kabi salbiy odatlar barham topib, ularning o‘rniga bir-birovlariga insof va adolat qilish, mehr-muhabbat ko‘rsatish, o‘zaro hamjihatlikda yashashlik

kabi yuksak insoniy fazilatlar mustahkamlanadi. Tasavvuf va nafs tarbiyasi asari Maxmud asad Jo‘shonning buyuk asarlaridan biri bo‘lib bu asarda Islom tasavvufining ijtimoiy hayotdagi urni, nafs tarbiyasi, taqvo va komil inson xususiyatlaridan bahs yuritilgan. Tasavvufning asli, shariat va tariqat, naqshbandiylik, darveshlik valiylik va Rasulullox (s.a.v.)ga tobelik kabi bir qator masalalarga muxtasar, asosli, ilmiy dalillar orqali javob berilgan. Asarning boshlanishi qismida Maxmud asad Jo‘shonning hayot yo‘li olimning asarlari va tasavvuf tarixi bo‘yicha qisqacha izoxlangan.

Mahmud As’ad Jo‘shon hazratlari 1938 yil Turkistonning Chanoqqal’a shahrida tavallud topdi. Ota-bobolari asli Buxoroi sharifdan. Asli nasabi sayyid avlodidan, ya’ni payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga borib taqaladi.U kishi 1956-1960 yillar mobaynida Istanbul universiteti filologiya fakultetining arab-fors filologisyasi bo‘limida tahsil oldi. Istanbul universitetini tugatgach, Anqara universiteti ilohiyot fakultetining aspiranturasiga o‘qishga kirdi.

1965 yil «Xatib o‘g‘li Muhammad va asarlari” mavzusida dotsenlik dissertayaissini himoya qilib, ilohiyot fanlari doktori bo‘lganlar. 1973 yilda esa «Hoji Bektoshi Valiy. Maqolot” mavzusida doktorlik dissertayasini yoqlagach, Anqara universiteti ilohiyot fakultetining turk-Islom adabiyoti kursiga o‘qituvchi bo‘lib tayinlandi. Shu bilan birga turli oliy o‘quv yurtlarida Islom tarixi, turk-Islom tarixi va adabiyoti fanlaridan dars berdi. Ayniqsa, u kishining uzoq yillar davomida Anqara universiteti ilohiyot fakulteti talabalariga ilmning turli sohalaridan ta’lim-tarbiya berganligi tahsinga sazovordir. 1982 yil u kishiga ixtisosligi bo‘yicha professor lavozimi berildi.

Maxmud Asad Jo‘shon diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan alloma bo‘lishi bilan birga, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardan ham yaxshi xabardor bo‘lganlar. Xorijiy tillardan arab, fors, ingliz va nemis tillarini yaxshi bilganlar. Bu ulug‘ allomaning 400 dan ortiq ilmiy, ijtimoiy maqolalari, o‘ttizdan ziyod ilmiy-ma’rifiy asarlari nashr etilgan.

«Hajning fazilatlari va nozikliklari”, «Turk tili va madaniyati”, «Yunus A¬mro va tasavvuf”, «Hoji Bektoshi Valiy. Maqolot”, «Islom, sevgi va tasavvuf”, «Xizmatga shoshiling”, «Dolzarb masalalar”, «Yangi ufqlar”, «Islom, tasavvuf va hayot”, «Islomda nafs tarbiyasi va tasavvufga kirish”, «Avstralik suhbatlari”, «Hazrat” Ali nasihatlari”, «Zafarning so‘li va shartlari”, «Islomiy harakat va xizmatlarda metod”, «Ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni”, «Bolalar bilan yuzma-yuz”, Ramazon va taqvo tarbiyasi” kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlar olim hayotining nafaqat diniy balki ijtimoiy siyosiy va madaniy sohada yuksak faoliyati belgisi.

Maxmud Asad Jo‘shon zohiriy ilmlar bilan bir qatorda botiniy-tasavvufiy ilmlarda ham yetuk alloma, hol soxibidir. U 1980 yilda shayxi - komil inson, 30 dan ziyod islomiy kitoblar muallifi - Muhammad Zohid Qutqu al Bursaviyning izni-ijozati bilan Turkistondagi naqshbandiylik tariqatining so‘ng e’tiborli markazlaridan bo‘lmish Iskandar poshsho dargohiga imom va muridlarga xalifa, pir o‘tib tayinlangan. Endilikda naqshbandiy tariqatining murshidi komili sifatida dunyo miqyosida ilmiy-ma’rifiy faoliyat olib borgan.Tafsir, hadis va tasavvuf ilmlaridan, chunonchi, zabardast olim Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviyning «Amuzul ahodis” («Hadislar daryosi”), Abu Abdurahmon as-Sullamiyning «Tabaqoti sufiys” nomli kitoblaridan ham dars bermoqda.

Bugungi kunda Maxmud Asad Jo‘shon xususiy televideniye va radio markaziga, bir necha ilmiy, ijtimoiy jurnallarga, nashriyot va bosmaxonalarga, ma’naviyat va qadriyatlarni targ‘ib qiladigan vaqfu jamg‘armalarga, shirkatlarga va ularning faoliyatiga rahbarlik qilmoqda. Olimning bu qilgan xizmatlari evaziga bu irfon o‘choqlarida turli ilmiy-ma’rifiy kechalar, suhbatlar, ziyolilar va davlat arboblari, shoiru yozuvchilar, din olimlari bilan ijodiy uchrashuvlar, qizg‘in suhbatlar o‘tkazilmoqda. Bu kishining taklif va tashabbusi bilan bir qator bolalar liyaeylari, fiqh institutlari ochilgan. Bu zotning ilmiy-ma’rifiy suhbatlari nafaqat Turkistonda, balki jahonning nufuzli mamlakatlarida ham katta qiziqish uyg‘otgan va hozirgi kunda ham shogirdlari tomonidan Yevropa, Amerika, Afrika va O‘rta Osiyo o‘lkalariga safarlar uyushtirib, ilmiy-ma’rifiy suhbatlar o‘tkazilmoqda va turli ta’lim-tarbiyaviy dasturlarda bu ulug‘ zotning asarlari va buyuk ilmiy marifiy g‘oyalari , Islom va tasavvufiy talimotlari targ‘ibu tashviq qilmoqda.Maxmud Asad Jo‘shon hazratlari rasulullox (s.a.v.)ga borib taqaladigan naqshbandiy tariqati, xolidiya tarmog‘ining qirqinchi bo‘g‘ini vakilidir. U kishi naqshbandiya tariqatidan tashqari qodiriya, kubraviya, suhravardiya, chishtiya, xilvatiya, jalvatiya, shozaliya va mavlaviya tariqatlaridan ham irshod qilish ijozatini olganlar.

Men u kishini har tomonlama kuzatib, komil inson ekanliklariga takror iqror bo‘ldim deya yozadi zamondoshlaridan biri. Unlab kishilar tushida va o‘ngida u kishi tomonidan sodir bo‘lgan karomatlarni menga so‘zlab berdilar. O‘zim xam bir necha karomatlarini ko‘rganimdan keyin avliyo barhaq ekanliklariga aslo shubham qolmadi. Hatto u kishining «Qutb” ekanliklarini bir necha muridlar tushida ko‘rgan va bu haqda ko‘p yozilgan ekan. Karomatlari shu qadar ko‘pki, yig‘ilsa, yozilsa bir kitob bo‘ladi deb tarif beriladi. Albatta, bizning shariatda karomat emas, «istiqomat”, ya’ni shariatga amal qilish e’tiborga olinadi. Lekin hazrati shayxning hayoti, faoliyatlarini ko‘rgan kishi u kishining to‘liq «istiqomat”lariga guvoh bo‘ladi. Aslida avliyoliklari ham yetuk ilmu amallari, riyozatlarining mahsuli emasmikan deyishimiz mumkin.Men u kishiga qo‘l bergan, bay’at qilgan ba’zi muridlarining halolligi, taqvosi, holatdagi o‘zgarishlarini ko‘rib, hazrati shayxning vazifalari, tavsiyalari faqat oyat va hadisga, sunnati saniyga asoslanganligiga, taqvo va ehson yo‘li ekanligiga yana bir karra amin bo‘ldim.U kishi taqvoni, poklikni, xalqqa xizmat qilishni, halol rizq topishni, zikru ibodatlarni qoldirmasdan bajarishni, vaqt yetsa kech bo‘lib qolishini qayta-qayta takrorlaydilar. Alloh va uning rasulining amru nahiylariga amal qilishga da’vat etadilar. U kishi doimo muridlariga: «Men ham mas’ul bir bandaman. Alloh va uning rasulining amru nahiylarini sizga yetkazuvchi bir vositachiman, da’vatchiman, xolos. Agar tavsiyalarimni, vazifalarimni bajarsangiz, savob topasiz, agar bajarmasangiz, Alloh oldida javob berasiz deb takidlaganlar. Yaxshilik qilsangiz ham, yomonlik qilsangiz ham o‘zingizga qilasiz”, deb aytarkanlar.

Nafs insonning moddiy o‘zligi, «men”ligidir. Tilimizda uning muqobili mavjud emas. Uni faqat ta’riflay va tasvirlay olamiz. Janobi Alloh (s.a.v) bizning botinimizga bir idora etuvchi, jismimizni, moddiy borlig‘imizni, hayot uchun zaruriy manfaatlarimizni qo‘riqlash va qo‘llash maqsadida faoliyat ko‘rsatuvchi ma’naviy bir borliq joylashtirgan, ana shu nafsdir.

Mavjudligi - zarurat, istaklari - tabiiy, ammo ta’qib va nazorat qilinishi, tarbyalanishi va yomon illatlardan poklanishi ham shart.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) Abu Dardoga: «Shubhasizki, Allohning, ahli oilang, bola-chaqangning hamda boshqa insonlar qatorida badan va nafsingning ham senda ba’zi haqlari bor. Har bir haqdorga haqqini berishga majbursan”, deb nasihat qilganlar.

Islom dini nafsning yemoq, ichmoq, tanosil, istirohat kabi shar’iy istaklarini halol yo‘llar bilan ado etishga buyuradi. Ammo haddan tashqari xohishlarga, hoyu havaslarga qat’isn yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, naslning davom etishi uchun uylanishni tashviq etadi, lekin nikoh yo‘li bilan, zino emas. Shu zaylda nafsning shahvoniy xohishlari to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Islom bola-chaqa qilmay doimo bo‘ydoq yashashni, bichishni, rohibona tarkidunyochilikni rad

etadi. Shuningdek, salomatlikning davomiyligi uchun yeb-ichishni buyuradi. Ammo haromdan topishni, me’yordan oshiq yeyishni vujudga zarar yetkazuvchi moddalar va ichkilikni taqiqlaydi. Shu bilan birga shar’iy tarzda dam olishni tavsiya etadi. Lekin boshqalarga yuk bo‘lishni, dangasalikni, kayfu safoga berilishni man etadi. Nafsning ichki tabiiy instinktlari, istaklari ha deb bajo etilaversa, nafs taltayib, hakalak otib ketadi, uni tiyib, jilovlab blmay qoladi. Natijada u insonlarni falokatu haromlarga, zulmu gunohlarga yetaklaydi. Shuning uchun Qur’oni karim nafsni aybu nuqsonlardan poklab, intizom ostiga olishni buyuradi va nafsini tarbiyalay olmaganlar oqibatda mudhish pushaymonlik iskanjasida qolishlarini bildiradi. Shunday ekan, har bir shaxs o‘z nafsini tarbiyalamog‘i zarur, xalq ommasi ham, ziyolilar ham, zohiriy va yuzaki diniy tahsil olganlar ham bunga muhtojdirlar. Ko‘proq davlat rahbariyati, xalqqa xizmat qiluvchilar nafs tarbiyasiga muhtojdirlar. Chunki ularning xomligi, axloqsizligi, ehtiros va injiqliklari so‘zlarigagina emas, balki butun millat va ummatga katta moddiy va ma’naviy zarar keltiradi.

Yuqorida aytganimizdek, inson botinida «nafs” degan ma’naviy borliq mavjud bo‘lib, u insonning o‘z menligidir. Tarbiya ko‘rmagan, past savisdagi nafs yomonlikka moyil va shahvatga ko‘p rag‘batlidir: yemoq, ichmoq, uxlamoq, ayshu ishrat qilmoq, kayfu safoga berilmoq, boshqalar tomonidan maqtalmoq, zo‘ravonlik qilmoq va hokazolarni istaydi.

NAFS- insonning o‘zligidir. O‘z nafsining quli faqatgina o‘z rohati, tinchi, kayfu safosi va manfaatini o‘ylaydi. Shu bois boshqalar bilan raqobatlashadi, o‘ziga dushman orttiradi, ziddiyat qiladi. Bunday kishi xudbin, manfaatparast bo‘lib, asl mas’uliyatini his qilmaydi. O‘lchov va chegara nimaligini bilmaydi, bilishni istamaydi ham. Qilayotgan ishining oqibatidan bexabarligi tufayli razolat botqog‘iga botadi.

Bunday kishilar dangasa, tekinxo‘r, mag‘rur, xudbin, bilag‘on, tantiq, yaramas, hasadgsy, jahldor, kek saqlovchi, zolim, g‘addor, vafosiz, sabrsiz, qonxo‘r bo‘ladilar. Nafsining quli bo‘lgan kishilardan insoniyat va jamiyatga aslo foyda yetmaydi. Chunki, havoyi nafsga ergashgan kishi benajot, ikki dunyosi ham xarobdir.

Shaxsning hayotda muvaffaqiyatga erisholmasligiga, jamiyatning rivojlanishdan ortda qolishiga asosiy sabab, ta’lim-tarbiyaning nuqsonligidir. To‘g‘ri va mukammal ta’lim-tarbiya olgan shaxslar o‘zlarini ham, jamiyatni ham taraqqiyot sari yetaklaydilar. Shu shart bilanki, ta’lim mukammal va ijobiy bo‘lmog‘i kerak. yo‘qsa, insonni chala domla dinidan, chala hakim jonidan mahrum qilib qo‘yishi mumkin.

Yaxshi ta’lim-tarbis, shubhasiz, insonning jismi va ruhiy dunyosiga, oxiratiga foydali, uni har ikki jahonda baxtu saodatli qiladigan, ilm va tajriba bilan bir qatorda diyonat, bilimdonlik, balog‘at baxsh etadigan, to‘g‘ri yo‘lga, ezgu va ma’qul ishlarga undaydigan ta’lim-tarbiyasidir. Aql ilmga naqadar to‘lib toshsa ham qalb va ko‘ngilni sira unutmaslik kerak, inson o‘zidagi ma’naviy jihatlarni - vijdon va nafsini tarbiyalashi, ehtiroslarini boshqara olishi, xunuk odatlarini tark etishi, mavjud ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo‘naltira oladigan zehniyatga ega bo‘lishi zarur.

Xulosa va takliflar. Nafs faqat yeb-ichishdan, shahvatdan, yasan-tusandan, shuhratdan, hukmronlikdan, boylikdan, kuch-qudratdangina emas, balki tavbadan, tazarrudan, toat-ibodatdan ham lazzat olar ekan. Yuqorida aytganimizdek, unga lazzat bo‘lsa bo‘ldi ekan. Tasavvurimiz-ni, dunyoqarashimizni ostin-ustin qilib yuboradigan nuqta mana shu yerda. Modomiki nafs faqat lazzatga intilar ekan, demak, Alloh taolo bu ne’matni bizga uni to‘g‘ri, halol, munosib yo‘l bilan qondirish uchun ato etgan ekan. Demak, nafs aslida yomon narsa emas . Agar biz nafsimizni uni ato etgan Robbimiz ko‘rsatganidek to‘g‘ri tarbiyalasak, uni halol ne’matlardan lazzatlanishga o‘rgata olsak, bu nafs bizni gunoh-ma’siyatga emas, toat-ibodatga, yomonlikka emas, ezgulikka undaydigan go‘zal, zarofatli bir xilqatga aylanadi. Alloh asrasin, agar biz uni asl mohiyatini tushunmay, moddiy, maishiy, o‘tkinchi narsalardan lazzatlanishga o‘rgatib qo‘ysak, so‘zimizning boshida aytilgan yomon nafsga, badnafsga aylanib qoladi. Aksincha, nafsimizni chinakam, ilohiy lazzatga o‘rgatsak, bu haqiqiy lazzat qarshisida dunyoning o‘tkinchi hoyu havaslari, zebu ziynatlari uning uchun arzimas narsaga aylanib qoladi. Bu tushunchalarni ilk bor his qilar ekanmiz, qanchalar achchiq bo‘lmasin, tan olishimiz kerakki, biz nafsning asl mohiyatini, uning xususiyatlarini bilmaganimiz, bu borada ma’rifatimiz yo‘qligi bois, uni asl maqsaddan boshqa tomonga burib yuborganmiz.

Aslida nafs tarbiyasini insonning yoshligidan boshlashimiz, uni toat-ibodatdan ham, boshqa halol-pok ne’matlardan ham lazzatlanishga baravar o‘rgatishimiz, biroq ibodatdan lazzat olishga alohida urg‘u berishimiz, bolani bunga rag‘batlantirishimiz lozim. Buning uchun esa bu borada unga o‘zimiz shaxsiy o‘rnak bo‘lishimiz kerak, chunki bola biz nimadan xursand bo‘lib, nimaga xafa bo‘lganimizni hushyorlik bilan kuzatib turadi va tegishli xulosa chiqarib, beixtiyor bizga ergashadi. «Farzandlaringizni tarbiyalab ovora bo‘lmang, ular baribir o‘zingizga o‘xshaydi. Siz o‘zingizni tarbiya qiling” degan hikmatli gap bejiz aytilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to‘plami. 17-tom, ―Fan,Toshkent, 2001y
2. Jo‘rayev U Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi.
3. Maxmud Asad Jo‘shon. Zikrullohning fazilatlari T.: Movorounnahr,
4. Maxmud Asad Jo‘shon .Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho‘lpon, 2000,
5. Komilov N. Tasavvuf T.: Movorounnahr, 2009,
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.T. 2007 yil. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild
7. Qur’oni karim Yusuf surasi, 53-oyat

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 355.1:151:17.022.01.(575.1)

Lochinbek RAVSHANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi “Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.
O‘zMU Psixologiya kafedrasi mudiri, psix.f.d., prof. D.G.Muxamedova taqrizi asosida

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF COMMANDER IMAGE DEVELOPMENT IN THE SYSTEM OF THE MINISTRY OF DEFENSE

Annotation
In this article, the socio-psychological factors of the development of the leader's image in the system of the Ministry of Defense were analytically described. Emphasis was placed on the socio-psychological features of the image. It is justified that the development of socio-psychological features of the commander's image ensures positive military management.
Key words: commander, serviceman, military unit, military discipline, military image, psychological image, socio-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional devotion.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИМИДЖА РУКОВОДИТЕЛЯ В СИСТЕМЕ МИНИСТЕРСТВА ОБОРОНЫ

Аннотация
В данной статье аналитически описаны социально-психологические факторы формирования имиджа руководителя в системе Министерства обороны. В нем был подчеркнут вопрос социально-психологическим особенностям имиджа. Обосновано, что развитие социально-психологических особенностей имиджа руководителя обеспечивает позитивное военное управление.
Ключевые слова: командир, патриот, боевая подготовка, воинская часть, воинская дисциплина, военный имидж, психологический имидж, социально-психологический имидж, воинское звание, военный психолог, профессиональная преданность.

MUDOFAA VAZIRLIGI TIZIMIDAGI RAHBAR IMIJINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya
Mazkur maqolada Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari tahliliy bayon etildi. Unda imijning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga urg‘u berildi. Rahbardagi imijning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish ijobiy harbiy boshqaruvni ta’minlashi asoslandi.
Kalit so'zlar: komandir, vatanparvar, jangovar tayyorgarlik, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy qiyofa, psixologik qiyofa, ijtimoiy-psixologik qiyofa, harbiy unvon, harbiy psixolog, kasbiy fidoyilik.

Kirish. Mamlakatimizning sarhadlari daxlsizligini va hududiy yaxlitligini saqlash, fuqarolarning tinchligini va osuda hayotini ishonchli himoya qilishga qodir zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta’minlangan, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi, harbiy professional va bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan, tusatdan vujudga keladigan har qanday nostandart vaziyatlarga tayyor turadigan tezkor va harakatchan Qurolli Kuchlarni vujudga keltirish – davlatimizning buyuk kelajagini barpo etish yo‘lidagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy jihatdan qaralganda, harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki maxsus sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining turi sanaladi. Ona Vatanning qurolli himoyasi doimo har bir fuqaroning eng oliy sharafli burchidir. Armiya esa, har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o‘z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buyuk harbiy qahramonlar va harbiy xizmatchilar shaxsi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi S.M.Burda fikricha, jangovar maqsadlarga erishish uchun komandirlar jangovar vaziyatni hisobga olishlari, ehtimoliy o‘zgarishlarni hisobga olishi, salbiy ta’sirlarni bartaraf etishi, qurol-yarog‘dan foydalana olishda yuqori bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, jangovor qobiliyat va fazilatlarni yuqori darajada egallagan bo‘lishlari shart hisoblanadi. Mashg‘ulot topshiriqlarini bajarishda har bir komandir taktik harakatlarning mumkin bo‘lgan yo‘nalishini va natijasini oldindan ko‘ra olishi, unga mo‘ljallangan narsalar bilan taqqoslay olishi, vaziyatni kuzatishi hamda har bir holatni kreativlik nuqtai-nazardan e’tiborga olishi lozim sanaladi[1].

Ta’kidlash joizki, harbiy rahbar-komandir ishtirok etishi mumkin bo‘lgan jangovar harakatlar harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik, qurol-yarog‘lar, jamoa yetakchiligi, jangovar harakatlarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari, ichki tuzilishi va maqsadlari, harbiy xodimlarning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi murakkab ishlar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotchi L.Grimak o‘zining “Inson faolligi psixologiyasi” nomli monografiyasida “Rahbarning boshqaruv imkoniyatlarini o‘rganish avvalo, uning boshqaruv ko‘nikmalari, maxsus qobiliyati, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tajribasi, o‘z qo‘l ostidagilarni boshqarish usuli kabi muhim masalalarning mohiyatini tadqiq etishdan boshlanishi zarur[2] degan fikrni bildiradi. Demak, boshqaruv faoliyati rahbarning barcha sohalari uchun xos bo‘lib, mazkur jarayonda inson turli ta’sir vositalarini qo‘llash orqali boshqalarning xatti-harakatlarini ham o‘zgartiradi. YA’ni, rahbar o‘z bo‘ysinuvchilari bilan ishlashi murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, u qaysi sohada bo‘lmasin rahbar imijining ijobiy ijtimoiy-psixologik omillarini rivojlantirishni talab etadi.

Akademik V.Afanasyevning tak’kidlashicha “Yaxshi muhandislarni, yaxshi o‘qituvchilarni, yaxshi tibbiyot

xodimlarini, yaxshi davlat xizmatchilarini tayyorlashimiz mumkin lekin, davlat rahbarlarini, bir so‘z bilan aytganda har qanday soha rahbarlarini alohida tayyorlashni iloji yo‘q. Biroq, ularning olgan ta’lim va tarbiya malakalari, soha bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, kasbiy mahorat va maxsus qobiliyatlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta’minlovchi imijning ijtimoiy-psixologik determenantalari hisoblanadi[3]. Mazkur ta’rifdan shuni anglash mumkinki, harbiy rahbar-komandirlar oldindan tayyorlanmaydi balki, shaxs psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z sohasi bo‘yicha olgan mukammal bilimlari shuningdek, yillar davomida harbiy xizmat sohasida faoliyat yuritish natijasida orttirilgan ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanadi.

Harbiy rahbar-komandirlarning harbiy harakatlarida ham qator ijtimoiy-psixologik sabablar mavjud ya’ni ehtiyojlar, his-tuyg‘ular, istak, hohish, intilishlar, qiziqishlar, ideallar, e’tiqodlar va hokazo. Yuqorida ta’kidlangandek, har qanday rahbar faoliyati o‘z maqsadiga ega hisoblanadi[4]. Demak, jangovar faoliyatdagi yutuqlar harbiy rahbar-komandir imijining ijboiy yoki salbiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan shakllanganligi bilan bog‘liq hisoblanar ekan.

M.Litvakning so‘zlariga ko‘ra, rahbarni ijtimoiy-psixologik jihatdan baholash quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi[5]:

1. O‘z jamoasining xatti – harakatlarini muvofiqlashtira olish;

2. Jamoadagi ijtimoiy jarayonlarni tartibga sola bilish hamda sog‘lom munosabatlarni saqlay olish;

3. Qo‘l ostidagi bo‘ysinuvchilarning imkoniyatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati. Demak, mazkur funksional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar nafaqat rahbar imiji uchun balki, butun bir jamoa uchun ham zarur omillar hisoblanadi.

Harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki maxsus sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan shaxs faoliyatining turi hisoblanadi. Davlat mustaqilligining ishonchli himoyasi doimo har bir harbiy rahbar-komandirning eng oliy sharafli burchidir. Armiya – har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o‘z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Tadqiqotchi D.Treysining ta’kidlashicha, rahbar imijining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan boshqaruv-chanlikni shakllanganligining ijtimoiy-psixologik jihati shundaki, xizmatdoshlarining yashiringan signallarni seza olishi, turli mazmundagi savollar berishi hamda ularning pozitsiyalari, takliflarini aniqlashtirishga undash qobiliyati kabilarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, haqiqiy rahbar faol tinglash qobiliyatiga ega bo‘lishi, hamkor shaxslarga o‘zining rejalari va maqsadlarini to‘g‘ri yetkazib bera olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi, boshqaruv faoliyatining shartlaridan biri hisoblanadi[6]. Demak, rahbarda nutqiy qobiliyat, oratorlik hamda turli xil shaxslarning nutqidagi semantik va konstruktiv mazmunni tez anglay olish qobiliyati ham mavjud bo‘lishi kerak ekan.

Tadqiqotchi L.Berestova o‘zining rahbar professional-ligining xarakteristikasini aniqlashga oid dissertatsiya ishida, rahbar shaxsiga xos emotsional intellektning boshqaruvdagi roli haqida, o‘ziga xos ta’rifni keltirib o‘tgan. Uning fikricha, yuqori rivojlangan emotsional intellekt rahbar shaxsi uchun, o‘z his-tuyg‘ularidan va boshqalarning his-tuyg‘ularidan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishga, noxush hislarning sabablarini tushuna olishga, o‘z hissiy holatini har qanday murakkab sharoitlarda boshqara olishga, begona shaxslar va qo‘l ostidagi yangi xizmatchilarga nisbatan hamdard bo‘la olishga, ularning imkoniyatlari va qay darajadagi malakalari mavjudligini ko‘ra olishga, ularni tarbiyalash hamda kasbiy salohiyatlarini rivojlantirishga g‘amxo‘r bo‘la olish kabi xususiyatlarini ta’minlovchi qobiliyatlar turi sifatida xizmat qiladi[7]. Demak, harbiy rahbar-komandir xizmat faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirish uchun samarali boshqaruvga oid emotsional intellektning shakllanganligi zarur ekan.

Tadqiqot metodologiyasi. Harbiy boshqaruv rahbarlarini tayyorlashda imijning ijtimoiy-psixologik sifatlari ahamiyatli hisoblanib, ularni kasbiy boshqaruvchanlik tushunchasi bilan tushuntirishi shart hisoblanadi. Tadqiqotchi YE.Trifonovning ta’kidlashicha, harbiy boshqaruv masalalarini o‘rganilishiga metodologik sabablar sifatida quyidagilar ajratiladi[8]:

zamonaviy jamiyatdagi jadal o‘zgarishlar, undagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning yuqori sur’ati kasbiy ma’suliyatga oid qator talablarni keltirib chiqaradi, bu esa, harbiy-kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining ahamiyatini yanada oshiradi;

harbiy xizmat talablari va jamiyatning yuqori malakali harbiy kadr-mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojining ortishi hamda harbiy-kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish vazifalari;

mustahkam faoliyat turi, ya’ni harbiy rahbarlarning xizmat vazifalarini bajarishga tayyorligi, harbiy xizmatning turli majburiyatlarini muvaffaqiyatli hal qila olish imkoniyati masalasi;

ekstremal sharoitlarda topshiriqlarni kutmaydigan va lavozim majburiyatlari zimmasiga yuklatilgan kundan boshlab, muvaffaqiyatli bajaradigan, ijodiy va oqilona tashabbus ko‘rsatadigan professional harbiy rahbar-kmandirlarni tayyorlash masalasi va boshqalar. Demak, zamonaviy harbiy psixologiya va ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi fanlarida «Kasbiy tayyorgarlik» tushunchasiga nisbatan «Boshqaruv imiji» tushunchasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Harbiy rahbar-komandir imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganishda, qolaversa ular tomonidan harbiy xizmatni samarali tashkillashtirishda harbiy rahbar-komandirning shaxsiy sifatlari muhim hisoblanadi. Shu bois, harbiy rahbar-komandir imijini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etishda, ularning shaxsiy sifatlar uslubi darajasini o‘rganish yuzasidan olingan tadqiqot natijalari Kraskal-Uollis mezoniga ko‘ra, birinchi shkala ijtimoiy-axloqiy yetuklik harbiy uchuvchi komandirlarda 117,21, tank komandirlarida 140,13 va harbiy aloqa komandirlarida 105,12 natija bilan o‘rtacha farqni namoyon qilgan. ($h=12,42$, $p\leq0,05$). Ma’naviy yetuklik shkalasi harbiy uchuvchi komandirlarda 117,60, tank komandirlarida 125,25 va harbiy aloqa komandirlarida 105,36 natijalarni namoyon qilgan. Emotsional yetuklik shkalasi harbiy uchuvchi komandirlarda 101,65, tank komandirlarida 145,32 va harbiy aloqa komandirlarida 120,41 kabi darajalar bilan o‘zaro yuqori farqlarni qayd etgan. Keyingi shkala, ijtimoiy intellekt shkalasi bo‘yicha harbiy uchuvchi komandirlarda 102,54, tank komandirlarida 149,41 va harbiy aloqa komandirlarida 127,36 kabi natijalarni aks ettirgan va farqlar yuqori darajada kuzatilgan. Jamoada yetakchilik shkalasiga bo‘yicha, harbiy uchuvchi komandirlarda 120,12, tank komandirlarida 154,84 va harbiy aloqa komandirlarida 129,84 kabi darajalar bilan o‘rta farqlarni aks ettirgan. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilimlar (fanlar doirasida), ko‘nikmalar (kasbiy yetuklik) va ijod (harbiy san’at)ning uyg‘unlashuvi sodir bo‘lgan.

Tadqiqotdagi miqdoriy natijalar va ularning tahliliga ko‘ra harbiy rahbar-komandirning boshqaruv faoliyatidagi shaxsiy sifatlar uslubi turli harbiy bo‘linma komandirlari bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, miqdoriy ko‘rsatkichlar harbiy rahbar-komandir faoliyatining kognitiv jabhasi bevosita ularning ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlarini tavsiflamoqda. Ijtimoiy-axloqiy yetuklik darajasi esa, harbiy rahabar-komandirlarning konativ jabhalarini aks ettirgani singari,

emotsional intellektiga tayanib emotsional-baholovchi jabhasini ifodalaydi. Barcha jabhalar esa, harbiy rahbar-komandirlar imijini ifodalovchi jamoadagi liderlik yoki boshqaruvdagi yetakchiligini belgilaydi. Miqdoriy natijalarga asoslanib, harbiy rahbar-komandirlar boshqaruv faoliyatida ijtimoiy-axloqiy yetuklikning kognitiv va konativ faoliyatdagi o‘ziga xosligi shundan iboratki, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatida bilim va qobiliyatlardan samarali foydalanishini ko‘rsatmoqda. Harbiy rahbar-komandirlarning emotsional yetukligi esa harbiy xizmat faoliyatining emotsional-baholovchisiga xos xususiyatlarni tavsiflamoqda, ya’ni o‘zining va bo‘ysinuvidagi harbiy xizmatchilarning kechinmlarini anglay oladigan va xatti-harakatlariga nisbatan sezgirlik hamda xulq-atvorini baholay olishini ko‘rsatmoqda. Bu borada ustuvorlik tank komandirlarida ustuvor ekanligi aks etgan (140,13). Ushbu yo‘nalish harbiy rahbar-komandirlar faoliyati harbiy aloqa komandirlari va harbiy uchuvchi komandirlariga nisbatan ustuvorligi shundan iboratki, tank komandirlarining faoliyatlari jamoaviy faoliyatni taqazo etganligi sabablidir.

Xulosa va takliflar. Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbarlarda ijobiy imij xususiyatlarini takomillashtirish uchun muloqot ishtirokchisining fikr-niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish, shaxslararo o‘zaro ta’sir, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy intellekt va muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish kabi psixologik xususiyatlarning rivojlanganligi, kasbiy faoliyat jarayonida jamoalar bilan pozitiv munosabatlarni o‘rnata olishga xizmat qiladi. Demak, mazkur tadqiqotni ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganishga asos va zarurat mavjud, qolaversa, mazkur tadqiqotimiz harbiy xizmat sohasida faoliyat olib borayotgan harbiy rahbar-komandirlar xizmatida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga ilmiy yechim bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

ADABIYOTLAR

1. Бурда С.М. Престиж военной службы // М:СоТис 1999.- С. 69.
2. Гримак Л.П. Психология активности человека: психологические механизмы и приемы саморегуляции / Л.П.Гримак. - Москва: URSS, Либроком, 2018. – С. 98.
3. Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление. В.Г. Афанасьев. М.: Вт. изд.(II), ЭСКИМОС, 2009. – С. 77.
4. Прохвощев В.А., Забродин Ю.М. Военная служба по контракту – М: Нива России 1997. – С. 132.
5. Литвак М.Е. Как управлять собой, делом и судьбой: психология управления в действии / М.Е. Литвак. – Рн / Д: Феникс, 2017. – С. 78.
6. Трейси Д.С. Менеджмент с точки зрения здравого смысла: / Диана Трейси; пер. с англ. Е.Симоновой. -М.: «Образование», вт.изд. 2009. – С. 98.
7. Берестова Л.И. Социально-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя: автореф. дисс. канд. психол. наук: М., 1994. – С. 24.
8. Трифонов Е.В. Психофизиология военно-профессиональной деятельности: словарь. С.-Пб., 2006. – С. 55.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:372 (075) 152.3

Farxod RAZAKOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
E-mail: razakovfarxod1@gmail.com

Pedagogika fanlari falsafa doktori, PhD D.O‘.Qarshiyeva taqrizi asosida

WORK WITH STUDENTS WHO HAVE SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS IN IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

At present, the solution of socio-psychological problems of improving the quality of education in secondary schools is considered one of the urgent problems, the organization of parent meetings by a school psychologist in an informal form (if it arises from the school and neighboring environment), you can first invite parents to classes and organize round tables to find out what social problems students have and address them with questions and answers.

Key words: Students, school, parents and family, school psychologist and school staff.

РАБОТА С УЧАЩИМИСЯ, ИМЕЮЩИМИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В настоящее время решение социально-психологических проблем повышения качества образования в общеобразовательных школах считается одной из актуальных проблем, организация родительских собраний школьным психологом в неформальной форме (если это возникает из школьной и соседской среды) можно сначала пригласить родителей на занятия и организовать круглые столы, чтобы выяснить, какие социальные проблемы есть у учащихся, и устранить их с помощью вопросов и ответов.

Ключевые слова: Учащиеся, школа, родители и семья, школьный психолог и школьный коллектив.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QITISH SIFATINI OSHIRISHDA IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Annotatsiya

Hozirgi kunda Umumta’lim maktablarida o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy psixologik muammolarni xal qilish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanmoqda, maktab psixologi tomonidanOta-onalar yig‘ilishlarini noa’naviy tarzda tashkil etish (maktab va maxalla muhitidan kelib chiqqan xolda) mumkin bo‘lib, bunda avval sinf xonasiga ota-onalarni taklif etish va davra suhbatlarini tashkil etib, savol-javob orqali o‘quvchilarni qanaqa ijtimoiy muammolar mavjud ekanligini aniqlab bartaraf etish zazur.

Kalit so‘zlar: o‘qivchilar, maktab, ota-ona va oila, maktab amalyotchi psixologi va maktab jamoasi.

Kirish. Ijtimoiy muammolari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash va tushuntirish ishlarini olib borish doimo dolzarb muammolarda biri bo‘lib kelgan. Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, toki “salbiy belgisi” bilan boshqa o‘quvchilardan ajralib turadigan davrgacha uning tarbiyasiga dahldor bo‘lgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan, u qanday ijtimoiy muhitda tug‘ulib voyaga etib, ulg‘ayotganligiga e’tiborni qaratishimiz lozim. Ijtimoiy muammolari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar qatoriga, ta’lim tarbiya jarayoniga, uning talablariga bo‘ysinmaydigan maktab o‘quvchilari kiradi, ular o‘quvchilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lmaydi, jamoada o‘z o‘rnini ijtimoiy jihatdan topa olmaydi[3].

Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri ularda o‘qishga nisbatdan salbiy munosabatning baydo bo‘lishidir. Odamda bunday munosabatlarning paydo bo‘lishiga boshqa sabablar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jumladan, o‘quv faolyati usuli, malakalari to‘la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish, o‘zlashtirish qobilyatining sust rivojlanganligi muayyam vaziyatlarida hukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelish o‘qituvchilar tomonida o‘quvchiga obeyktiv baho berilmasligi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining indivudal-psixologik va intellektual imkoniyatiga yetarlicha e’tibor berilmasligi, o‘qitish saviyasining pastligi, darslarning qiziqarsiz o‘tilishi o‘quvchining sinf jamoasi bilan yaxshi aloqada bo‘lmasligi va boshqalar.

Adabiyotlar tahlili. Pedagog xodimlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar yurtimizda: A.X.Aminov, G.T.Boymurodova, A.S.Djuraev, M.T.Jumaniyozova, o‘qituvchilarning loyihalashga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish sohasida: N.N.Ogolsova, N.O.Yakovleva, E.V.Kruchayn, O.I.Sabinina, L.N.Kovdratenko kabi olimlar izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘quvchi bilan jamoa fikrining mos kelmasligi uning jamoa ichida o‘z-o‘rnini borgan sari yo‘qolib borishiga sabab boladi. Jamoa a’zolari bunday o‘quvchinig qarashlarining vaqti-vaqti bilan hisobga olishilari yaxshi natija berishi mumkin. O‘quvchining fikr va qiziqshlarining jamoaning qo‘llab quvatlamasligi yoki beparvoligi uni qonunbuzarlikga undaydi va giyohvandlik va boshqa salbiy holatlarining kelib chiqishi imkoniyat yaratadi.

Natijada o‘quvchi uchun kelajak rejalarining poymol bo‘lish xavfi tug‘ulib, o‘qishdan va jamoadan yuz o‘girgan o‘smir o‘z kelajagini orzu-umidlariningmaktab va tengdoshlari faoliyatiga bog‘lashdan ko‘ra, yangi “do‘stlari” bilan aloqa qilishning afzal ko‘radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Buning natijasida o‘smir nosog‘lom xulqsiz bolalar to‘dasiga tushib qoladi va ular xulq-atvoriga xos bo‘lgan xarakterga ega bo‘ladi.Bundan tashqari, oilaviy sharoitning salbiy ta’siri ham tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi,bunday hollarda.

Maktab amalyotchi psixologlari avvalo o‘quvchilarning oilaviy ahvolini o‘rganishi, maktab bilan ota-ona

o‘rtasida uzviy aloqaning o‘rnatishi, fan o‘qituvchilaribilan aloqani mustahkamlashi, o‘quvchining darsga qatnashini kuzatishi, dasrdan tashqari faolyatini nazorat qilishi, turli savol-javoblar o‘tkazishi orqali tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlash dasturi va rejalarini belgilab olishi lozim. Bundantashqari maktab psixolog va maktab shifokori bilan xamkorlikda o‘quvchining tibbiy varaqasi bilan xam tanishib chiqishi kerak bo‘ladi. Agar bola sog‘lom rivojlangan bo‘lsa-yu, maktab va oila tarbiyasiga bo‘ysinmasa, Bunday vaziyatlarda psixologyordamga kelishi va avvalo o‘quvchi bilan suhbatlashib, nima uchun uning xulqida bunday o‘zgarishning yuzaga kelganligi, ko‘cha ta’siriga berilishi, salbiy norasmiy guruxlarga a’zo bo‘lib qolishi, dasrni sababsiz qoldirishi, past o‘zlashtirishi, jamoa ishlarida qatnashasligi sabablarini aniqlaydi. o‘quvchilardagipsixologik xususiyatlar, rivojlanishida o‘ziga xostomonlar, ular o‘rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta’lim maktab amalyotchi psixologlari tamomidan bir qator tadbirlar, ya’ni psixotrening va psixokerrekison ishlar olib boriladi. Bunday hollarda guruhlarda jamoada ishlash yaxshi natija beradi deb hisobladik.

Jamoaning vujudga kelish uchun quyidagi ikki bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a’zolari oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a’zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So‘nggi (to‘rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a’zosi o‘z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo‘yish layoqatiga ega bo‘ladi. Ushbu jarayon mohiyatini qo‘yidagicha bayon etish mumkin:

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay o‘qituvchilik nuqtai nazardan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini ma’lum rivojlanish bosqichlarga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar jamoasi rivojlanishining har bir bosqichi jamoa a’zolariga nisbatan samarali o‘qituvchilik ta’sir ko‘rsatishning maqbul shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi. Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang’ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan talablarning qo‘yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O‘quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuning-dek, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishi, shuningdek, o‘quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o‘qituvchi talabini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tafsiflanadi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o‘tkazishga tiyyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko‘rsatuvchi omillar sanaladi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a’zolarida motiv (rag‘bat)larning paydo bo‘lishi, ijodiy hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarining tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelshida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a’zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo‘lishi, o‘z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o‘z mavqelaridan noo‘rin foydalanmasliklari juda muhimdir[7].

Tahlil va natijalar.Amaliyotchi psixologlar “Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar” bilan ishlashda sinf rahbarlari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yi-direktor o‘rinbosarlari, ota-onalar qo‘mitasi, mahalla fuqarolar yig‘ini, xududiy voyaga etmagan yoshlar bilan ishlash inspektori bilan xamkorlikda ishlarni tashkil etishlari lozim. Maktab o‘quvchilaridagi salbiy bo‘lish xulqi og‘ishlarini oldini olish va uni bartaraf etish yuzasidan maktab amalyotchi psixologlari uchun quydagilarni tafsiya etamiz. Ota-onalar yig‘ilishlarini noa’naviy tarzda tashkil etish (maktab va maxalla muhitidan kelib chiqqan xolda) mumkin bo‘lib, bunda avval sinf xonasiga ota-onalarni taklif etish va davra suhbatlarini tashkil etib, savol-javob orqali ular bilan tanishib olish mumkin [6]. Masalan:

1.Farzandingiz tug‘ilganidan shu kungacha tarbiyalash jarayonida erishgan qanday yutuqlar va kamchiliklarni ayta olasiz

2.Farzandingiz katta bo‘gach qaysi kasb egasi bo‘lishni xoxaysiz?

3.Farzandingizni o‘z qiziqishlari bo‘yicha qaysi kasb egasi bo‘lishni xoxlayotganligi haqida bilasiz?

4.Farzandingiz kimga o‘xshashini xoxlaysiz? Kabi savollarga har bir ota-onadan javob olish orqali guruxda muloqotni tashkilashtirishga erishish mumkin.

Suhbat davomida har bir ota-ona farzand tarbiyasi jaryonida duch kelayotgan murakkablik va muammolarni o‘rtaga tashlab, muhokama qilishlari mumkin bo‘ladi.

Maskur muammoni bartaraf etishda nimalarga e’tibor berish kerakligi yuzasida har bir ota-onaning fikr-mulohazalari tinglanadi. Ijtimoiy muammolari mavjud o‘quvchilar bilan birinchi bosqichida: pedagogik tashxis tarbiyasi qiyin bo‘lishlikning sabablarini, oilava maktabning tarbiyaviy imkonyatlarini, noqulay sharoitlarni aniqlashda yordam beradi, bunda o‘smirning tipi va o‘ziga yarasha hissiy dunyosidagi pedagogik qoloqligi, uni qayta tarbiyalashda ijobiy sifatlarini hisobga olish lozim. Shunday qilib, tarbiyasi qiyin bo‘lishlikning sabablarini quydagi sxema bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiq[1].

-o‘smirning ruhiy dunyosidaeng ko‘p nima buzulgan va bunganima sabab bo‘lganhozirgi vaqtda qanday noxush sharoitlar mavjud

-qanday salbiy xolatlarni tarbiyalanuvchi o‘zi xal eta oladi, qaysilarini oila yoki jamoat ko‘magida bartaraf etish lozim;

-o‘smirga nisbatdan pedagogik xatolargayo‘l qo‘yilganmi va ularni qanday to‘g‘irlash mumkin.

Tarbiyasi qiyin o‘quvchini o‘rgangandan so‘ng u bilan o‘zaro ishonchli aloqa o‘rnatish bunda qayta ta’rbiyalashning pedagogik jihatdan ta’sir usul va vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi [5].

Ikkichi bosqichida:qayta tarbiyash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, tarbiyalash va qayta tarbiyalash metotlarini qo‘llashni talab etadi. Qayta tarbiyashning xar bir metodi ma’lum sharoitda tarbiyaning mos metodlari bilan aloqaga kirishdi, sinf raxbari o‘quvchida qattiylik, o‘ziga ishonch, tanqidiy munosabatda bo‘lish kabi xislatlarni shakillantirish va rivojlantirish uchun tadbirlarni belgilashi lozim. Qayta tarbiyalash usullari jamoaviy tarbiya, hamkorlikdagi tarbiya, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalashda samara beradi.

Uchunchi bosqichida: o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi asosida sinf rahbari qadryatlar yo‘nalganligini, o‘quvchining shaxsiy sifat va xususiyatlari rivojlanishini inobatga oladi. Shaxs rivojlanishi o‘quvchining tarbiyalan-ganlik bilan darajasi bilan taqqoslanadi va o‘smirni tarbiyalash va o‘zini tarbiyalashning individual dasturlarini tuzush

jarayonida amalga oshiriladi. o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda aloxida ishlash tarbiyachidan butun sinfning tarbiyalanganlik darajasini bilishni talab etadi, negaki, shaxs o‘zini jamoaviy munosabatlarda, umumiy faolyatda yorqin namayon etadi

To‘rtinchi bosqichida:o‘quvchining rivojlanish darajasiga, uning imkoniyatlari, qobilyatlari, xarakter xususiyatlari, shaxsiy munosabat va istaklari mazmuniga bog‘liq tarbiyaviy ta’sirlar tizimini aniqlashga imkon beruvchi yakka tartibdagi tarbiyaviy ish davom etadi. Bu bosqishda tarbiyaning umumiy metodlarini qo‘llash xarakterlidir, ammo ularni ma’lum shaxsga nisbatdan tanlanishi va tizimi uni individual xususiyatlari va rivojlanish dasturiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda talab, istiqbol, jamoa fikri o‘zgalarning bahosi va o‘zi-o‘ziga baho, rag‘bat va jazo kabi individual pedagogik ta’sir etuvchi metodlar ham qo‘llaniladi.

So‘ngi, beshinchi bosqich:Tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashdagi korreksiyalash jarayoni hisoblanadi. Korreksiya-Bu shaxsga pedagogik ta’sir usuli bo‘lib shaxsning salbiy sifatlarini bartarab etish va ijobiylarini mustahkamlashga qaratiladi. Korreksiyon tadbirlar jamoaviy yoki guruxiy tarbiyaviy dasturlarni, o‘quvchilarni xaraktiriskasini aniqlashtirish yoki qayta ko‘rib chiqish, shuning dek, faolyatning usul va shakllarini tanlash imkonini beradi. U tarbiyaviy jarayonni individuallashtirishni yakunlaydi va uning natijalariga tayanadi. Korreksiyon tadbirlarning eng samarali usullar-kuzatish va o‘zini kuzatish, taxlil va baho, o‘ziga nisbatdan baho, boshqalar tomonidan va o‘z-o‘zini nazoratidir.Bu barcha uslub va usullardan o‘quvchilar bilan olib boriladigan ish natijalarini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Xulosa va tavsiyasi. O‘rnida shuni aytish mumkinki, tarbiya uzliksiz jarayon bo‘lib, inson dunyoga kelishidan boshlab to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhiddagi voqiya hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakillanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta’lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolarda biri xa aynan shu maqsadga qaratilgan bo‘lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakillanishini tamillashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A.Barkamol avlod orzusi. Toshkent 1999.
2. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.
3. D.Qarshiyeva, O‘qituvchi kasbiy standartlarini tizimini takomillashtirishda mediasavodxonlikning roli va ahamiyati // Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 2021/6/11, P.104-106.
4. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208
5. Asronova U., M.Pardaeva I. Mannapova “Shaxsga yo‘naltirilgan metodik xizmat”. Toshkent. 2013.
6. Qarshiyeva D.O‘. O‘chirilgan fayllarni qayta tiklashda Easy Recovery dasturi imkoniyatlari // fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi issn: 2181-1776,P. 264-268
7. https://fayllar.org/1-jamoa-tushunchasi-oquvchilar-jamoasini-shakllantirishning-mo.html.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Yorqinoy ROZIMOVA,
Qurolli Kuchlari Akademiyasi “Gumanitar fanlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.n., dosent, mayor

HARBIY TA’LIM TIZIMIDA MASHG‘ULOTLARNI O‘TKAZISHNING NOAN’ANAVIY KO‘RINISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fan, ta’lim sohasida innovatsion g‘oyalar, vositalarni qo‘llashni istiqbolli yo‘llari haqida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ilm fanni rivojlantirish va innovatsiyalarni qo‘llashda zaruriy hujjatlar haqida fikrlar yoritilgan

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, fan-texnika, farmonlar, ta’lim tizimi, dialektik o‘qitish usullari, AQSH milliy ilm-fan fondi, faol innovatsion harakat namoyondalari.

НЕТРАДИЦИОННЫЙ ОБРАЗ ПОДГОТОВКИ В СИСТЕМЕ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В этой статье приводятся отзывы об инновационных идеях в науке, образовании и перспективных способах использования инструментов.

Ключевые слова: инновации, наука и техника, указы, система образования, диалектические методы обучения, Национальный научный фонд США, активные инноваторы.

AN UNTRADITIONAL APPEARANCE OF TRAINING IN THE MILITARY EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article provides feedback on innovative ideas in science, education and promising ways to use tools.

Keywords: innovations, science and technology, decrees, education system, dialectical teaching methods, US National Science Foundation, active innovators.

Hozirgi kunda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar har bir pedagogdan o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab qilmoqda. Ta’lim amaliyotini noan’anaviy tarzda tashkillashtirish kutilgan natijalarni bermoqda. Noan’anaviylik o‘z navbatida fanni o‘qitishning uslubiy-tarbiyaviy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganishga, darslarda uni tatbiq qilishga undaydi. Ta’lim sifati o‘qituvchining nechog‘li ko‘p yangiliklarga ega bo‘lishi va uni o‘quvchilarga yetkaza bilishiga bevosita bog‘liq. Bu esa o‘qituvchidan zamonaviy dars usullarini mukammal bilishni talab qiladi. Har bir dars jarayoni qiziqarli, dolzarb, o‘quvchiga mustaqil fikrlash imkonini berishi kerak. Shundagina darsning samaradorligi ortib, muammolar o‘z yechimini topadi.

Har qanday ta’lim jarayonida tilning uslublari haqidagi bilimlarni chetlab o‘tish mumkin emas. Tilni o‘zlashtirishda uning qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar esa asoslidir. Tildan qanday foydalanish, ularni nutqda bevosita qanday qo‘llash malakasi shakllanmagan bo‘lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul [1].

Ma’lumki, insondagi ezgu sifatlar jamoaga qo‘shilib faoliyatga kirishganda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Hayotda bo‘lgani kabi o‘qish davrida ham birgalikda qilingan faoliyat ko‘proq samara berishi juda qadim zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan. Harbiy oliygohlarda guruh qilib o‘qitish tajribasi ham bejiz paydo bo‘lgan emas. Bu o‘z navbatida ularga nafaqat chuqur bilim berish, balki dars jarayonini sermazmun va qiziqarli o‘tishiga yordam beradi. Guruhiy o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, muayyan qoidalarga amal qilishni taqozo etadi, jumladan guruhlarda ishlashning qoidalari quyidagilardan iborat:

- mashg‘ulot davomida har bir bilim oluvchi o‘z fikrini bildirish imkoniga ega. Bunda o‘tilgan mavzu asosida savol-javoblar, mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar keltirish;

- har bir o‘quvchi boshqa o‘quvchining qarashlarini, fikrini hurmat qilgan holda uni bo‘lmasligi kerak. Bu tarbiyaning yana bir ko‘rinishi bo‘lib, o‘zaro hurmat, boshqaning fikrini eshita olish ko‘nikmasini hosil qilish;

- fikr-mulohazalarni muhokama qilish;

- yuzaga kelgan kelishmovchiliklar, ishtirokchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda o‘z yechimlarini topishdan iborat.

Guruhlarni mavzuga jalb qila olish, darsni qiziqarli, unumli o‘tishini ta’minlash asosiy vazifalardan biridir. Masalan: ma’lum bir mavzu asosida ta’lim oluvchilarning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatiga oid mavzularda bahs-munozara mashg‘ulotini o‘tkazamiz. Bunda ta’lim oluvchi mavzuga oid yangi materiallar, ma’lumotlar to‘plab, o‘z fikr mulohazalarini taqdim etishga harakat qiladi.

Hozirgi kunga kelib amaliy mashg‘ulotlari - o‘quv fanlarining asosiy, eng murakkab mavzulari yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarda, ma’ruzalar hamda mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlarini tekshirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishga ko‘maklashish, shuningdek, ta’lim oluvchilarga mavzuni og‘zaki bayon qilish, bahs olib borish ko‘nikmalarini berishni maqsad qilib qo‘yadi va mana shu maqsadga erishish yo‘llarini belgilab beradi. Qo‘yilgan maqsad nimalardan iborat?

Biz mashg‘ulotini o‘tishdan avval oldimizga ma’lum bir maqsadni qo‘yamiz

Birinchi maqsad – darsni tashkillashtirish, mashg‘ulot mavzusini o‘qituvchining o‘zi mukammal bilishi;

Ikkinchi maqsad – mashg‘ulot uchun kerak bo‘ladigan tarqatma materiallardan unumli foydalanish va bu orqali ta’lim oluvchining dunyoqarashini kengaytirish, yangi innovatsion usullarni qo‘llash;

Uchinchi maqsad – darsning tarbiyaviy ahamiyatiga katta e’tibor berish ya’ni, mavzu vatanparvarlik ruhini shakillantira oladimi? [2].

Dars mashg‘ulotlarida aqliy hujum metodi yaxshi natija berishi bir necha bor isbotlangan. Bu usul eng samarali usullardan biri sanaladi. Aqliy hujum usulining asosiy vazifasi, berilgan savollarga javob variantlarini ko‘paytirish, hamda har bir ta’lim oluvchiga o‘z fikrini aytish imkonini berishdir.

Yana bir metod “Venn” diagrammasi ham juda yaxshi natijalar bermoqda.Ushbu metod orqali mavzularni yanada

kengroq o‘rganish, uni boshqa mavzular bilan qiyoslash, bilim oluvchining fikrini bilish imkonini yaratadi.

Misol tariqasida kursantlar bilan 1-kursda o‘tilgan “O‘zbekiston” mavzusi bilan 2-kursda o‘tilayotgan “Rossiya” mavzularini qiyoslab ko‘ramiz. Davlatlarning o‘ziga xosligi, tabiati, geografik joylashuvi, tili, urf-odatlari bir-biridan farq qilishi tabiiy, lekin ularning o‘xshashlik tomonlari ham bor.

Mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarda nafaqat o‘z fikrlarini himoya qila olish, balki mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur anglash ko‘nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda, bir-biriga hurmat, hammaning fikrini tinglay bilish, oldindan xulosa chiqarmaslik, qo‘llab-quvvatlash kabi elementlar asos bo‘la oladi.

Agarda mavzuni keng va to‘liq yoritmoqchi bo‘lsak, albatta mutaxassis yordamidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi va mutaxassis hamkorligi, darslarini yanada qiziqarli, samarali o‘tishiga imkon yaratadi.

Ta’lim oluvchilarni bilimlarini baholash ham dars jarayonining muhim omillaridan biridir. Chunki, baholash jarayonida biz ularni yanada samarali ishlashga, intilishga undaymiz.Baho-– bu bilimni taqdirlash, demak, yaxshi baho olgan kursant uchun o‘z ustida yana ham ko‘proq ishlash, ko‘proq bilim olishga sharoit tug‘diradi. Baholashda quyidagi mezonlarga amal qilish maqsadlidir:

- baholar adolatli va haqqoniy bo‘lishi;

- darsdagi hech bir jarayon o‘qituvchi nazaridan chetlab qolmasligi;

- qo‘yilgan baho kursantni rag‘batlantiribgina qolmay, balki yanada faolroq bo‘lishga undashi.

Har bir sohada, ayniqsa harbiy sohada tezkor, to‘g‘ri qaror qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi zamon talabi, harbiylarimizda chaqqonlik, epchillik, tezkorlik, mustaqil qaror chiqara olish kabi ko‘nikmalarni hosil qiladi. Bu xususiyatlarga ega bo‘lish uchun esa chuqur bilim va ko‘nikma, tartib va intizom, harbiy nizom talablariga amal qilish talab etiladi.

Demakki, nafaqat o‘qituvchi, balki kursant, dars jarayonini qiziqarli, tushunarli bo‘lishi uchun mas’ul. Kursantni fanga qiziqtira bilish avvalo pedagogning birlamchi vazifasidir. Agarda u o‘z kursantini qalbiga, psixologiyasiga yo‘l topa olsa, demak, marra uniki, demak, dars qiziqarli, unumli, yuqori saviyada o‘tadi. Qiyinchiliklardan qo‘rqmang – shundagina sizga baxt kulib boqadi! [3].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, ta’limini zamon talablari darajasida tashkil etishda zamonaviy, noan’anaviy usullardan foydalanish, ta’lim jarayonidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish, tinglovchi-kursantlar ongiga ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy merosimizni singdirish, kursantlarga muntazam ravishda jonli nutq va muloqotni o‘rgatib borish, o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta’lim oluvchilarni doimo faollashtirib borish dars samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Лиферов А.П. Культурологическая составляющая интернационализации мирового образования. – Рязань: Рязанский Государственный педагогический университет. – 2006. – 245 с.
2. Малянов Е.А. Социально-культурная инноватика: методология, теория и практика // Дисс. … докт. пед. наук. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2011. – С.83.
3. Samarov R. The Methodological bases of security // (monograph). – Tashkent: Academy, 2010. – P.148.
4. Fuchs I.H. The promise and challenge of new technologies in higher education // Proceedings of the American Philosophical society Philadelphia. – 1998. – Vol.142. – № 2. – P. 197-206.
5. Сафонова Л. Ю. Применение интерактивных форм обучения. Методические указания. Великие Луки, 2015. 39 с.
6. Ivanova, I.P. Development of creative thinking of students in the conditions of problem-activity training. - Stavropol, 2002.
7. Ishmuhamedov R. Ways to improve the effectiveness of education using innovative technologies. -T.: 2003.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378.14

Umida SADIKOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:temperament mail.ru

psix.f.n. dots B.B.Nurullayeva taqrizi asosida

METHODS OF STUDYING STUDY MOTIVATION AT THE UNIVERSITY

Annotation
In this article, the meeting of problems in the professional training of the future practicing psychologist students is highlighted, especially the evaluation of their motivational characteristics.
Keywords: Psychologist, motivation, knowledge, methodology, personality, stress, potential, student.

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ В ВУЗЕ

Аннотация
В данной статье освещается комплекс проблем профессиональной подготовки будущих студентов-практиков-психологов, в частности оценка их мотивационных характеристик.
Ключевые слова: Психолог, мотивация, знания, методология, личность, стресс, потенциал, студент.

UNIVERSITETDA O‘QISH MOTIVATSIYASINI O‘RGANISH USULLARI

Annatotsiya
Ushbu maqolada bo‘lg‘usi amaliyotchi psixolog talabalarning kasbiy tayyorgarligida muammolarning uchrashi ko‘proq o‘zlarining motivatsion xususiyatlarining baholashi yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Psixolog, motivatsiya, bilim, metodika, shaxs, stress, salohiyat, talaba.

Kirish. Butun dunyoda o‘ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo‘lib, jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali motiv va motivasiya muammosi tadqiq qilib kelinmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy qiziqishi, o‘quv motivatsiyasidagi qator muammolar va qiyinchilikning asosiy sabablari, talabalar o‘quv faoliyatining to‘g‘ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligi natijasida aqliy zo‘riqishning paydo bo‘lishi, o‘quv motivining so‘nishiga olib keladi. Buning natijasida, talabalarda vujudga kelgan aqliy zo‘riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zamirida shaxsiy o‘quv faoliyatini oqilona boshqarish uquvining zaifligi yotadi.

Oliy o‘quv yurti talabalari ko‘pincha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma’ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo‘r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O‘quv yili mobaynida ana shu xolning davom etishi imtihon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko‘ra, oliy o‘quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o‘quv materialining asosiy manbalari bilan ishlashga o‘rgatishdan, uning o‘quv motivini tashkil qilishda, uni rivojlantirish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Oliy o‘quv yurti talabalarida o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishda o‘qituvchi va talaba hamkorligi ta’lim samaradorligining muhim omili hisoblanadi. Bunday hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik jihatini tashkil qilish, har qanday faoliyatni, shu jumladan, o‘quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarni o‘rganish so‘nggi yillar ichida amalga oshirila boshladi.

Shu o‘rinda talabalarning ta’lim motivatsiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, motivatsiya-ichki energiyani, shu jumladan insonning hayotdagi va ishdagi faolligini ifodalaydi. Motiv esa, eng avvalo, shaxsni faoliyatga undaydigan, uni ma’lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltiradigan narsa bo‘lib, u ob’ektiv qonuniylik, ob’ektiv zarurat vazifasini bajaradigan ehtiyojning in’ikosidir [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarning o‘quv motivi muammosi bo‘yicha xorijda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, jumladan, V.I.Voloxovaning “Psixologik chegaralar va shaxsning vaqtinchalik kompetentsiyasining munosabati” nomli ishida, o‘smirlik yoshida psixologik chegaralar va vaqtinchalik kompetensiyani shakllantirishni empirik o‘rganish, psixologik chegaralar o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari va shaxsning vaqtinchalik kompetentsiyasining xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan [3]. M.V.Ferapontova esa “O‘smirlik va yoshlik davridagi shaxsning axloqiy tanlovining motivatsion-qiymatli omillari” nomli tadqiqotida o‘smirlik va yoshlik davrida insonning axloqiy tanlovining motivatsion va qiymat omillarini qiyosiy tahlil qilish, motivlar va qadriyatlarni rivojlantirish dasturi axloqiy belgi sifatida o‘smirlik va yoshlik davrida tanlov haqida to‘htalib o‘tilgan [4]. Bundan tashqari, boshqa ko‘plab kompetentsiyasining xususiyatlari va motivatsiyaning o‘rganish borasida xorijiy tadqiqot namunalarini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. OTM talabalarida o‘quv motivatsiyasi masalasi yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlardan rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev, T.I.Ilina va boshqalar izlanishlarida keng yoritilgan. Bundan tashqari Yevropa va Amerika mamlakatlarida motivasiyaga muammosiga oid 30 (o‘ttiz)dan ortiq ilmiy konsepsiyalar mavjud. Ana shu psixologik maktablar ayrim namoyandalarining tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritadigan bo‘lsak, interospektiv psixologiya, bixeviorizm, geshtalpsixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assosianistik psixologiya, empirik psixologiya, analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va hokazolar.

Bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat

deb tushunadi. Shunga qaramasdan, ba’zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivasiyasiga muayyan darajada e’tibor qilganlar. Uilyam Makdugal (1871-1938) motivasiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug‘ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan [1].

A.Shopengauer motivatsiya so‘zini birinchi marta “Yetarli sababning to‘rtta printsipi” (1900-1910) maqolasida ishlatgan va bu atama inson va hayvonlarning xatti-harakatlarining sabablarini tushuntirish uchun psixologik foydalanishda qo‘llanila boshladi.

Hozirgi vaqtda motivatsiya psixik hodisa sifatida turlicha izohlanadi. Bir holatda, qo‘llab-quvvatlovchi va yo‘naltiruvchi omillarning kombinatsiyasi sifatida, ya’ni xulq-atvorni belgilovchi (K.Madsen, 1959 J.Godefroy, 1992), boshqa holatda motivlar to‘plami sifatida (K.K.Platonov,1986), uchinchisida organizmning faoliyatini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilovchi impuls sifatida va yana, motivatsiya aqliy tartibga solish jarayoni sifatida qaralib, muayyan faoliyat (M. Sh.Magomed-Eminov,1998), harakatlantiruvchi harakat jarayoni sifatida va muayyan faoliyat shakllarining paydo bo‘lishi, yo‘nalishi va usullarini belgilovchi mexanizm sifatida (I.A.Jidaryan, 1976), o‘rganilib kelingan [2].

Oliy o‘quv yurtida ta’lim oladigan talabalaning o‘quv motivatsiyasini aniqlashdan oldin motivatsion sohasidagi ba’zi bir tadqiqot usullari bilan tashib o‘tamiz.

Motivatsion sohaning tadqiqot usullariga quyidagilar:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining maktab motivatsiyasi darajasini skrining baholash uchun N.Luskanovaning maktab motivatsiyasi darajasini baholash uchun so‘rovnomadan foydalanish mumkin.

Talabalarda muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyojni o‘lchash. Talabaning akademik muvaffaqiyati nafaqat qobiliyat darajasi, kognitiv qobiliyat va qiziqishlarning rivojlanishi, balki o‘rganish uchun motivatsiyaning kuchi bilan ham belgilanadi. O‘rganish motivlaridan biri o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish motividir.

T.I.Ilina oliy o‘quv yurtlarida o‘qish motivatsiyasini o‘rganish usullari o‘quvchilarning kasb tanlashi va undan qoniqishlari uchta miqyosda motivlarning ustunligi quyidagicha belgilanadi: “Bilimni egallash” (bilim olishga intilish, qiziquvchanlik); “Kasbni o‘zlashtirish” (kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish istagi); “Diplom olish” (bilimlarni rasmiy o‘zlashtirgan holda diplom olish istagi, imtihon va testlarni topshirishda vaqtinchalik yechimlarni topish istagi).

E.M.Pavlyutenkovning kasb tanlashning asosiy motivlarini aniqlash uchun ushbu uslub muayyan mavzular uchun kasb tanlashda ma’lum motivlarning rolini aniqlashga imkon beradi. Mavzuga kasbga oid 18 ta fikrni o‘z ichiga olgan so‘rovnoma beriladi. Bu hukmlar motivlarning 9 guruhini (ijtimoiy, axloqiy, estetik, kognitiv, ijodiy, mehnat mazmuni bilan bog‘liq, moddiy, obro‘li va foydali) ifodalaydi.

I.S.Dombrovskayaning o‘quv faoliyatining motivatsiyasi daraja va turlari metodikasida kognitiv motivatsiya va ta’lim faoliyatining ijtimoiy motivatsiyasining rivojlanish darajasini va dominant turini belgilaydi.

S.A.Pakulina, S.M.Ketko metodikasida “Pedagogika universiteti talabalarini o‘qitish motivatsiyasi” pedagogika oliy o‘quv yurtiga kirish motivlarini, o‘quv faoliyatining haqiqiy motivlarini va kasbiy motivlarni taqdim etadi. Har bir talaba uchun o‘quv faoliyatining yetakchi motivlarini sifatli tahlil qilish amalga oshiriladi. Butun namuna (guruh) uchun u yoki bu motivatsion tuzilmani tashkil etuvchi ballar soni aniqlanadi.

R.V.Ovcharovaning “Kasb tanlash motivlari” metodikasida kasb tanlashning yetakchi turini aniqlash imkonini beradi. Anketa matni har qanday kasbni tavsiflovchi yigirmata bayonotdan iborat. Ularning har biri kasb tanlashga qanchalik ta’sir qilganligini baholash kerak. Metodologiyadan foydalanib, motivatsiyaning ustun turini ya’ni, ichki individual muhim motivlar, ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar, tashqi ijobiy motivlar va tashqi salbiy motivlar aniqlash mumkin [7].

Tahlil va natijalar. Amaliyotchi psixologlarda o‘qish motivatsiyasini tadqiqi qilish obekti sifatida Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 137 nafar talaba respondent sifatida ishtirok qilishdi. Dastlab talabalarning emotsional, motivatsion xulq-atvorlarini o‘rganishga qaratilgan metodikalar tanlab olindi. Jumladan T.I.Ilina tomonidan taklif qilingan «Universitetda o‘qish motivatsiyasini o‘rganish usullari» metodikasida ta’limda “bilim olish” (bilim olishga intilish, qiziquvchanlik); “kasbni o‘zlashtirish” (kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish istagi); “diplom olish” (bilimlarni rasmiy o‘zlashtirgan holda diplom olish istagi, imtixon va testlarni topshirishda vaqtinchalik yechimlarni topish istagi) va shaxsiy resurslarini diagnostika qilish uchun foydalanildi.

Psixik faoliyatni soxasidan qat’iy nazar talabalardagi motivlarning ustunligi talabaning kasbni to‘g‘ri tanlashi va undan qoniqishini ko‘rsatadi. Bunday talabalarda hamkorlikdagi faoliyatga intilish kuzatiladi.

Quyida oliy o‘quv yurti talabalarida o‘qish motivatsiyasini aniqlash bo‘yicha T.I.Ilinaning “Oliy o‘quv yurtlarida o‘qish motivatsiyasini o‘rganish” so‘rovnomasidan olingan natijalari keltirildi.



1-rasm. Oliy o‘quv yurti talabalarida o‘qish motivatsiyasini o‘ranish natijalari.

Metodika natijalari quyidagi diagrammada ko‘rsatilgan bo‘lib unga ko‘ra respondentlarning 6 nafari “diplom olish”, 80 nafari “bilim olish” va 51 nafarida “kasbni o‘zlashtirish” aniqlandi. Talabalarda o‘qish motivatsiyasini oshirish, kasbiy qiziqishlari bo‘yicha o‘z yo‘nalishidagi bilimlarni to‘liq va mukammal egallashdagi qiyinchiliklarni yengish yo‘llarini topish, o‘zini nazorat qila olish, o‘ziga ishonchning yuqoriligi, o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonish kabi xulq- atvor shaklidir. Talabalardagi motivatsion muammolarni yengishda ta’lim beruvchi tajribali o‘qituvchilar ko‘maklashadi va ularga kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi yo‘l-yo‘riqlarni o‘rgatib, shakllantirib boradi. Ba’zi talabalar orasida o‘qish motivatsiyaning pastligi bilan bog‘liq muammo juda keng tarqalgan va qoida tariqasida, u bu muammoga duch kelmagan deb aytadigan universitet va o‘qituvchini topish juda mushkil, bunda, birinchi navbatda, o‘qituvchilarning asosiy vazifasi materialni qabul qilish va tushunishning eng yuqori koeffitsienti bilan taqdim etishi, o‘qituvchining motivatsiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri barcha turdagi materiallardan foydalangan holda materialni sifatli taqdim etishni bilishidir. Oliy o‘quv yurtlarining asosiy maqsadi, birinchi navbatda, ta’lim berishdir va kursdan har bir talaba o‘zi qiziqqan, jalb qilgan bilimlarni o‘rganadi. Albatta, har bir o‘qituvchi talabalarning motivatsiyasiga yetarlicha e’tibor beradi, ammo motivatsiyaning maqsadi har biri uchun har xil, kimdir o‘z fanlarining davomatiga ko‘proq e’tibor beradi va qoida tariqasida, ularning davomatini nazorat qilish, kimdir akademik ko‘rsatkich va boshqalar kabi muhim ko‘rsatkich haqida gapiradi. Shuni unutmangki, har bir guruhda hamma uchun universal motivatsiyani topish juda qiyin bo‘ladi va bu deyarli imkonsizdir, shuning uchun ko‘proq yoki ko‘proq harakat qilish uchun guruhning ijtimoiy-demografik tarkibiga e’tibor berish kerak [5].

Demak, bo‘lg‘usi psixologlarda o‘qish motivatsiyasini o‘rganishda korreksion va emotsional, kongnitiv faoliyatni maqsadli va asosli olib borish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiqdir.

1. Talaba psixologlarda o‘qish motivatsiyasini o‘rganish usullari imkoniyatlari bo‘yicha bilim darajasini muntazam oshirib borish.

2. Talabalarning bilim olishga intilish, qiziquvchanlikni oshirishni tashxis qilib borish va kasbga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishga yordam berish.

3. Kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish istagini qilish.

4.Qisman bilimlarni rasmiy o‘zlashtirgan holda diplom olish istagi, imtihon va testlarni topshirishda vaqtinchalik yechimlarni topish istagi ega bo‘lgan respondentlarimizni emotsional xolatlarini va muammoga chidamlilik darajasini aniqlab korreksion chora tadbirlarni belgilab olish.

5.Diagnostika natijalariga asosan korreksion dasturni tuzish va treninglar o‘tkazish.

6. O‘tkazilgan korreksion dastur va trening mashg‘ulotlaridan keyin so‘rovnomani qayta o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish.

ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E.“Umumiy psixologiya” Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik I -kitob 2 Toshkent - "Universitet" – 2002
2. Евгений Павлович Ильин МОТИВАЦИЯ И МОТИВЫ Серия «Мастера психологии»- «Питер», 2002
3. Волохова В.И.кандидата психологических наук “Взаимосвязь психологических гранитс и темпоральной компетентности личности”- автореферат на соискание ученой степени Санкт – Петербург-2021
4. Ферапонтова М.В.-“ Ўсмирлик ва ёшлик давридаги шахснинг ахлоқий танловининг мотивацион-қийматли омиллари”- АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук-Москва – 2020
5. http://testoteka.narod.ru/ms/0.html
6. https://apni.ru/article/217-osobennosti-motivatsii-studentov-k-obucheniyu
7. https://apni.ru/article/217-osobennosti-motivatsii-studentov-k-obucheniyu

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDC:327(579.581)

Jumagul SAYDALIYEVA,
First year master’s student of International Relations and World Politics at Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: saydaliyevajumagul@gmail.com

Doctor of Political Sciences, Professor Based on Shuhrat Akmalovich Yovkochev's review

PAKISTAN’S APPROACHES TO THE SITUATION IN AFGHANISTAN

Abstract
This article is devoted to highlighting Pakistan's approaches to the current situation in Afghanistan and the role of external influences affecting Afghanistan-Pakistan relations. Relations with Pakistan in international arena is considered in the context of Afghanistan . Although the main role in the bilateral relations between Afghanistan and Pakistan is connected with the historical and geographical factors, the relations between the two countries have always been inconsistent due to objective and subjective reasons**.**
Key words : One Belt One Road, Shanghai Cooperation Organization (SCO), the Collective Security Treaty Organization (CSTO), China-Pakistan Economic Corridor (CPEC), Afghanistan- Pakistan relations.

ПОДХОДЫ ПАКИСТАНА К СИТУАЦИИ В АФГАНИСТАНЕ

Аннотация
Данная статья посвящена освещению подходов Пакистана к текущей ситуации в Афганистане и роли внешних воздействий, влияющих на афгано-пакистанские отношения. Отношения с Пакистаном на международной арене рассматриваются в контексте Афганистана. Хотя основная роль в двусторонних отношениях между Афганистаном и Пакистаном связана с историческими и географическими факторами, отношения между двумя странами всегда были непоследовательными в силу объективных и субъективных причин.
Ключевые слова: «Один пояс, один путь», Шанхайская организация сотрудничества (ШОС), Организация Договора о коллективной безопасности (ОДКБ), Китайско-пакистанский экономический коридор (КПЭК), Афганистан-пакистанские отношения.

POKISTONNING AFG’ONISTONDAGI VAZIYATGA YONDASHUVLARI

Annotatsiya
Ushbu maqola Pokistonning Afg‘onistonda mavjud vaziyatga yondashuvlari va Afg‘oniston –Pokiston munosabatlariga ta’sir etuvchi tashqi ta’sirlar rolini yoritishga bag‘ishlanadi. Pokiston bilan munosabatlar xalqaro maydonda dastlab Afg‘oniston konteksida ko‘rib chiqiladi. Afg‘oniston -Pokiston ikki tomonlama munosabatlarda asosiy rol o‘ynovchi tarixiy - geografik omillar bilan bog‘langan bo‘lsa ham, ikki mamlakat munosabatlari obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra doimo nomuvofiq bo‘lgan.
Kalit so‘zlar: Bir kamar, bir yo‘l, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB), Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori (CPEC), Afg‘oniston – Pokiston aloqalari.

Introduction. Afghanistan is located at an important strategic point connecting the countries of Central Asia and South Asia. The situation in Afghanistan have a significant impact on the security and foreign policy of the countries of both regions. In particular, political situation in Pakistan, which borders Afghanistan to the east and south, depends in many ways on the development of the current situation in Afghanistan. Relations between two neighbors acquired special significance, since they often aggravated the internal problems of both states, and on the other hand, they influenced the regional and global international situations. Afghanistan and Pakistan have a long history of tense relations defined by 5 recurring drivers: sovereignty concerns, security interests, geopolitical dynamics, cross-border ties, and connectivity and trade[1]. For many years, Pakistan faced difficult challenges in shaping policy toward to Afghanistan.

Pakistan, which is suffering from the negative effects of the Afghanistan problem, is attempting to lessen the threat of terrorism against civilians, government agencies, and military personnel, as well as to improve the situation in the regions bordering Afghanistan. These two trends illustrate Pakistan's unique approach to Afghanistan.

Literature review. According to many researched experts and political scientists Pakistan's foreign policy places a high importance on forging close cooperation ties with Afghanistan, which are essential to realizing our vision of a "peaceful neighbourhood." Pakistan is still working to establish a cordial and good neighbourly relationship with Afghanistan based on shared respect for each other's sovereignty and territorial integrity. Pakistan participated in the Kabul Process-I&II, RECCA, Moscow Format on Afghanistan, SCO Contact Group on Afghanistan, International Contact Group on Afghanistan, Six Party Talks, and other meetings in accordance with its policy of attending all international forums geared toward bringing peace, stability, and development to Afghanistan.

Research methods. In this research, after studying the relevant sources, event and factor – based political analysis methods were used. The perspectives of scientists from Pakistan, China, and the West were equally examined to guarantee appropriateness. To tackle the subject more thoroughly, the viewpoints of politicians and professionals from significant think tanks were carefully examined.

Analysis and results.The dynamics of Afghanistan-Pakistan relations have been shaped by external forces influencing the two countries in many ways. Strategically, the territory of Afghanistan, which is the “graveyard of empires”, plays an important role in Pakistan's foreign policy and is of great importance in its cooperation with other countries, in particular with the United States, or in its current relations

with China. Based on this, we can see that Pakistan’s approach to the situation in Afghanistan is shaped by the influence of the United States and China, and that both sides have the same interests in this situation. A Pakistani analyst wrote: “Pakistan’s destiny is now joined more than even before with that of Afghanistan, since Pakistan has argued along that the Taliban are better to run Afghanistan than anybody else” [2].

Pakistan’s geographic proximity with Afghanistan brought the U.S. closer towards it because Pakistan was the only country in the region that could help the U.S in combating the Soviet forces in Afghanistan [3]. Pakistan’s strategic location and efforts to stabilize the situation in Afghanistan were the basis for cooperation with the United States, despite the fact that it has nuclear weapons and is not a member of NATO. By influencing Pakistan, the US can gain leverage in the entire South Asian region. Indeed, developments in Afghanistan are the primary factor shaping Pakistan’s relationship with U.S. “there is no other major bilateral context to the relationship” said a former Pakistani ambassador to Washington[4]. After withdrawal of U.S troops from Afghanistan, top US generals are claiming that they had warned US President Joe Biden that a rushed withdrawal from Afghanistan could increase risks to Pakistan’s nuclear weapons and the country’s security[5]. The US wants to maintain its sphere of influence in the region, and for this it does not want a single hegemonic state to emerge in the region. As a country with a nuclear arsenal, Pakistan has such an opportunity, so the US pursues a policy of limiting Pakistan in the South Asian region by influencing Afghanistan-Pakistan relations.

Secretary Austin said the US still maintains “over the horizon” capabilities, which he defined as “assets and target analysis that occur outside the country in which the operation occurs” [6]. Secretary of State Antony Blinken said this review would not only look at the role that Pakistan played in Afghanistan over the last twenty years but also the role we would want it to play in the coming years [7]. Now that it is restricted to “over the horizon” operations in Afghanistan, America also wants to keep working with Pakistan on some counterterrorism issues. General Frank McKenzie, the head of U.S. Central Command, made reference to it in his congressional testimony Over the last 20 years we’ve been able to use what we call the air boulevard and in the next days and weeks, we’ll be collaborating with Pakistanis to examine how that relationship will develop. The general was referring to both ground and air lines of communication (ALOCs) (GLOCs).

Following the United States withdrawal from Afghanistan in August 2021 and the return of the Taliban, much has been written about the likely role of China, as both a neighboring state and a major global power, in the future of the country [8]. Pakistan’s officials approach to the peace process in Afghanistan directly change its relations with China, and at the same time, in this process, China exert sufficient influence on Pakistan and Afghanistan and have its own political and economic interests. Pakistan and China have interrelated geopolitical and economic interests in Afghanistan. Peace in Afghanistan can promote the transit trade through Central Asia. South and Central Asia, as well as China, can be linked to Iran and the rest of the Middle East through Afghanistan. Pakistan has great stake in a stable Afghanistan, as stability would enable Pakistan’s goods to reach Central Asia markets, Pakistan could also benefit from the considerable sources of energy and electricity. Chinese projects in the region like China - Pakistan economic corridor and “One Belt One Road” project provide the facility to Beijing, Islamabad, Kabul and Central Asia republics of transit trade but it will only happen when Afghanistan enjoys peace. It is also strategically located within the Belt and Road Initiative, with Chinese ambitions of connecting countries from India to Iran via railways, energy corridors, and other infrastructure projects. Former ambassador to Afghanistan Yao Jing stated in 2016, “Without Afghan connectivity, there is no way to connect China with the rest of the world” [9]. And both countries hope that economic development in the region will bring stability and prosperity. Following a deterioration in ties between Afghanistan and Pakistan, China started participating in peacekeeping operations between the two nations in 2017. In late 2017, the three states had their first trilateral dialogue and decided to establish China-Afghanistan-Pakistan trilateral cooperation. A year after the Taliban’s takeover, China has emerged as a key player in negotiations with the new regime. During the 2022 Shanghai Cooperation Organization (SCO) and the Collective Security Treaty Organization (CSTO) joint summit, Xi Jinping stressed that all member states should join hands to safeguard peace and stability in Afghanistan. On that occasion, the Chinese president invited the SCO member states to make full use of platforms like the SCO-Afghanistan Contact Group and facilitate a smooth transition in Afghanistan [10]. In China’s calculation, the planned extension of the $61 billion China-Pakistan Economic Corridor (CPEC) into Afghanistan could be an essential solution to create a stable and terrorist-free Afghanistan in the long term. Like in many conflicts, China has emphasized economic development as a cure for the war in Afghanistan. In September 2019, the three governments agreed to officially extend CPEC into Afghanistan, including a highway between Kabul and Peshawar. Pakistan could be a key partner for China as it increases BRI investment in Afghanistan [11]. Yue Xiaogong, China’s special representative to Afghanistan, said in July 2022 that Beijing is prepared to fund the implementation of Afghanistan transportation projects, including as a railway connecting Mazar-i-Sharif in Uzbekistan, Kabul, Afghanistan, and Peshawar, Pakistan.

Yue stated that “these megaprojects would assist achieve a permanent peace on Afghan territory and expand regional connectedness”, adding that Beijing sees Afghanistan as a bridge between Central and South Asia. It is anticipated that the planned west-east route, which would connect Iran to China via Pakistan and Afghanistan as well as via Kabul and Peshawar, will at some time cross the north-south Trans-Afghan railway.

Conclusion. In the system of geopolitics and geoeconomics of regions Central Asia and South Asia, Afghanistan has a key strategic and geographical position as the “heart of Asia”, serving as a source of resources and capital for the growth of trade and economic ties. Trade, investment, and cross-border engagement - the last recurring theme of Afghanistan-Pakistan relations - would be of immense benefit to both sides through connections in Central Asia. Over traditional geopolitical interests, Pakistan seeks geo economic connectivity to Central Asia. It is possible that such connectivity could contribute to a positive dynamic between Pakistan and Afghanistan, allowing broader economic engagement. As a result of interaction in economics and the environment, Pakistan and China may be interested in cooperating further in security affairs or in military affairs in terms of Afghanistan. While the United States and China’s relations in this area may deteriorate to the point that Afghanistan may become a site of competition, which could destabilize both peace prospects and regional stability. US-Pakistani and China-Pakistani relations are major influencing factors in Pakistan's approaches to Afghanistan.

REFERENCES

1. Elizabeth Threlkeld and Grace Easterly. Afghanistan-Pakistan ties and future stability in Afghanistan //United States Institute of Peace .August 2021 .p 6
2. International crisis group. Pakistan’s hard policy choices in Afghanistan-February 4, 2022.
3. Ahmad, M., Yousaf, N., & Shah, Z. (2017). Dynamics of Pakistan’s involvement in the Afghan Reconciliation Process. Pakistan Journal of Social Sciences, 37(2), 383-393. Retrieved February 2020.
4. International crisis group .Pakistan’s hard policy choices in Afghanistan-February 4, 2022.
5. Anwar Iqbal, Pakistan nuclear arsenal in wake of Taliban takeover of Afghanistan , September 29 , 2021.
6. Anwar Iqbal, Pakistan nuclear arsenal in wake of Taliban takeover of Afghanistan , September 29 , 2021.
7. Patricia Zengerle and Humeyra Pamuk, ‘’ Blinken says U.S. will assess Pakistan’s ties over Afghanistan’s future , Reuters , 14 September 2021.
8. Jiayi Zhou, Fei Suand Jingdong Yuan, Treading lightly: China’s footprint in a Taliban led Afghanistan , SIPRI insights on peace and security. November 2022 p.1
9. Jason Li , //China’s Conflict Mediation in Afghanistan //August 16, 2021.
10. Dezan Shira & Associates, China and Afghanistan: Bilateral Trade Relationship and Future Outlook (Updated), China Briefing , August 4, 2022, and last updated on January 10, 2023.
11. Jason Li , //China’s Conflict Mediation in Afghanistan //August 16, 2021.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:301.398.151(575.1)

Dilafruz SOBIROVA,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti, professor v.b., psix.f.d
Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasi muxbir a’zosi
E-mail: Shuxamaggok@mail.ru

Qarshi davlat universitete professori, psix.f.d A.M. Jabborov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL BASIS OF PERSONALITY CHARACTERISTICS IN THE ACTIVITY OF MEDICAL STAFF

Abstract

This article presents the personal characteristics of medical workers that affect the effectiveness of their professional activities and their scientific analysis. The characteristics of the personality of medical personnel and the method of its study are also determined. At the moment, one of the most important problems of modern social psychology is the choice of methods aimed at studying the personal characteristics of medical workers working in the healthcare system, and their modification in accordance with the purpose of the study. The conducted scientific and theoretical analysis shows the importance of identifying socio-psychological factors that affect the professional activities of medical workers today, and the development of psychological mechanisms that influence the formation of these factors.

Key words: psychological competence, self-esteem, aggression, social courage, social maturity, communication.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИЧНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА

Аннотация

В данной статье представлены личностные характеристики медицинских работников, влияющие на эффективность их профессиональной деятельности и их научный анализ. Также определяются характеристики личности медицинского персонала и метод ее исследования. На данный момент одной из важнейших проблем современной социальной психологии является выбор методов, направленных на изучение личностных особенностей медицинских работников, работающих в системе здравоохранения, и их модификация в соответствии с целью исследования. Проведенный научно-теоретический анализ показывает важность выявления социально-психологических факторов, влияющих на профессиональную деятельность медицинских работников на сегодняшний день, и разработки психологических механизмов, влияющих на формирование этих факторов.

Ключевые слова: психологическая компетентность, самооценка, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, общение.

TIBBIYOT XODIMLARI FAOLIYATIDA SHAXSLILIK XUSUSIYATLARI NAMOYON ETILISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sir qiluvchi shaxslilik xususiyatlari va ularning ilmiy tahlili o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, tibbiyot xodimlari shaxslilik xususiyatlarini va uni tadqiq qilish uslubi aniqlangan. Ayni paytda, sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining shaxslilik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan metodikalarni tanlanishi va ularni tadqiqot maqsadiga mos ravishda modifikatsiya qilinishi bugungi ijtimoiy psixologiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolardan biri sanaladi. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda tibbiyot xodimlarini kasbiy faoliyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashni hamda ushbu omillarni shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: psixologik kompetentlik, «Men-konsepsiyasi», agressiya, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik muloqot.

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tibbiyot xodimlari professional kompetentligining psixologik asoslarini o‘rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish va rivojlantirish modelini yaratish hamda takomillashtirishga mo‘ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada tibbiyot xodimlarining psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, tibbiyot xodimlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’sirini aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi: «Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifatini oshirish, ...sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ... sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish», ustuvor vazifa sifatida qaralishi e’tiborga molik. Bu borada tibbiyot xodimlarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari Sharqning buyuk mutafakkirlarini asrlar davomida qiziqtirib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy o‘z asarlarida, insonlarni tushunish, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini «yuqori

darajadagi axloqiy sifatlar» deb ta’riflaganlar. Mashhur mutafakkir Abu Bakr ar-Roziy o‘z davrida bemorlarni davolashda ularga ruhiy ta’sir qilish muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, Ismoil Jurjoniy, Masixiy Al Karvakiy, Chag‘miniy kabi tabiblar ham kasallikni davolashda tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentlik omillari roli va ahamiyati muhimligi e’tirof etilgan.

O‘zbekistonda sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy kompetentlikka ta’siri, o‘rni va ahamiyati Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, D.G.Muxamedova, Z.T.Nishonova, Sh.J. Usmonova. B.R.Qodirov, E.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini tashkil etuvchi psixologik mexanizmlar, kasalliklarga ta’sir qiluvchi psixologik omillar, tibbiyot xodimlarining shaxsiy sifatlarini ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari Z.Abidova, Z.R.Ibodullayev, D.I.Ilxamova, M.X.Karamyan, Y.K.Narmetovalar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan I.F.Bashirov (harbiy psixologlar faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlikning roli), I.A.Yegorov (korxona rahbari emotsional intellektining xodimlariga ta’siri), V.V.Boyko (rahbar kommunikativ kompetentligi shakllanishining kasbiy kompetentlikka ta’siri) sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan. Professional kompetentlikning tuzilishi va shakllanishiga qaratilgan masalalar A.A.Bodalev, YE.P.Yermalayeva, N.A.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, YE.A.Mileryan, L.YE.Panin, L.A.Petrovskaya, P.A.Shavir tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. V.S.Ageyev, M.I.Bobneva, I.F.Demidova, N.F.Yefremova, Y.M.Jukov, I.L.Zimnyaya, V.Kunitsina, Y.Makarov, A.P.Panfilova va boshqalar sotsial-psixologik kompetentlik fenomenining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorij tadqiqotchilaridan G.Gardner, Daniyel Goulman, Robert Torndayk, P.Selov va J.Mayyerlar o‘z tadqiqotlarida sotsial-psixologik kompetentlikka ta’sir qiluvchi omillar va komponentlarni ilmiy asoslab berishgan.

Tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilishiga qaramay, aynan, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyatini samaradorligini rivojlanishida shaxslilik xususiyatlarining o‘rni va ahamiyatini belgilashda biz R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasiga tayandik. Ma’lumki, R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasi shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Kettell so‘rovnomasi ijtimoiy psixologiya sohasida eng ko‘p tarqalgan hamda o‘zining ishonchliligiga va validligiga ega bo‘lgan metodikalardan biri hisoblanadi. R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» testini tadqiqotimizda foydalangan shaklini professor A.M.Jabborov o‘zining “O‘zbek maktab o‘qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida modifikatsiya qilgan. Tadqiqotimizda so‘rovnoma tarkibidagi omillarning oltitasi kliniik xarakterga ega ekanligi bois, faqat o‘n omilidan foydalanishni lozim topdik. Biz foydalangan omillar esa, aynan shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu o‘nta omil ko‘rsatkichlarini baholash orqali, tibbiyot xodimlari shakllangan shaxslilik xususiyatlarga baho berish mumkinligi nuqtai nazardan tadqiqot umumiy maqsadiga moslashtirildi Bizning izlanishimizga qadar olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu metodikadan keng foydalanilgan. Bu esa bizning amaliyot uchun obyektiv ilmiy ma’lumotlar berishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodika sifatida tatbiq etishimizda qo‘l keldi.

R.Kettell so‘rovnomasi 16 ta asosiy shaxs faktorlari haqida ma’lumot olish imkonini beradi. U faktorlar shaxsning emotsional, bilish, xulq tomonlarini qabul qilgan umumiy psixologik tuzilishiga ega. So‘rovnoma yordamida quyidagi tafsilotlarni bilish imkoniyati tug‘iladi: A – yopiq (odamovilik) - muloqotchanlik, V – past intellekt - yuqori intellekt, S – emotsional beqarorlik - emotsional turg‘unlik, YE – itoatkorlik - mustaqillik, F – mulohazalilik – ekspressivlik, G – his-tuyg‘uga beriluvchanlik - yuqori normativ xulq, H – tortinchoqlik - botirlik, I – shafqatsizlik - yumshoq ko‘ngillilik, J – ishonuvchanlik – shubhalanuvchanlik, M – amaliylik - xayolparastlik (rivojlangan tasavvur), N – tabiiy oddiylik - diplomatlilik, O – o‘ziga ishonish – aybdorlik hissiga moyillik, Q1 – rigidlik - o‘zgaruvchanlik, Q2 – konformizm (guruhga tobelik) - mustaqillik, Q3 – o‘zini-o‘zi nazorat qilishining past darajasi – o‘z hulqini nazorat qilishning yuqori darajasi, Q4 – kuchsizlik - frustratsiya, MD - o‘ziga bahoning adkevatliligi - o‘zini baholashning noadekvatliligi.

Tahlil va natijalar. Metodika oldingi metodikalar singari tadqiqot obyektiga tatbiq etildi. So‘rovnomaning umumiy va xususiy hollardagi natijalarini quyida batafsil tahlil etib o‘tamiz

Tibbiyot xodimlarining R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasiga tayanib olgan natijalarimizda shaxslilik xususiyatlari quyidagi psixologik tavsiflarga ega ekan. Deyarli barcha omillar bo‘yicha tibbiyot xodimlarining ko‘rsatkichlari o‘rtachadan yuqori zonadan o‘rin oldi(1-jadval).

Ularning ushbu shaxslilik xususiyatlari ko‘rsatkichini omillar bo‘yicha xususiy hollarda talqin etiladi:

Muloqotga moyillik (A) shkalasi (5,28). Bu qiymat shu bosqichdagi tibbiyot xodimlarini boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat-e’tiborli, qattiq g‘azablanish yoki xursand bo‘lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmasliklari, o‘z hulqini boshqara olish qobiliyatiga ega ekanliklari, ayni paytda rahmdil va samimiy, shu bilan birga o‘zgacha uslubda talabchanliklarini anglatadi.

Hissiy barqarorlik (S) (5,20±1,76). Bu ko‘rsatkichda pedagoglarga xos o‘z hislarini va kayfiyatini boshqara oladigan, «Men timsoli» kuchi yuqoriroq ekanligi, «Men» konsepsiyasini ijobiy bo‘lishiga intiluvchanligi, kasbiy faoliyatda ma’lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlashlari mumkinligini bildiradi. Agarda tibbiyot xodimlarida hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi deyish mumkin.

Hukmronlikka intilish (YE) (5,34±1,57). Omilning bu darajasi tibbiyot xodimlarining atrofidagi odamlar ta’siriga beriluvchanligi, atrofdagilar talabini ham hisobga olishi, mustaqilligini belgilovchi huquqingizni himoya qilishda agressiv emasliklari, shu bilan birga ularda kollej rahbariyati bilan erkin munosabatda bo‘lishga moyilligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy yetuklik (Qr) (5,31±1,52). Mazkur omilning ushbu darajasi tibbiyot xodimlarining hayotga va ishga yengil qarashlari, javobgarlikni his qilmasliklari, tejamsizlik kabi hislatlardan to‘la ozod emasliklari, biroq bunday holat ularning «Men-konsepsiyasi» ni salbiy ekanligini anglatmaydi, balki o‘z hulqini boshqara olish va qa’tiylikni yetarli emasligi oqibati bo‘lib hisoblanadi. Ular umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va ahloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxslar sifatida mavqega egadirlar.

Ijtimoiy dadillik (N) (5,56±1,61). Bunday qiymat tibbiyot xodimlarining yetarli darajada botirliklari, odamlar bilan aloqaga erkin kira olishi, muomaladagi qiyinchiliklarni

yenga olishi, kutilmagan holatlarga tushib qolganida o‘zini yo‘qotmasligidan dalolat bermoqda.

Ishonuvchanlik (J) (5,06±1,68). Ishonuvchanlik omilining ushbu ko‘rsatkichi tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyat va hayotiy masalalarni hal etishda aqlga asoslanib ishonishlari va shu orqali faoliyatda samaraga erishishla-ri mumkin.

O‘ziga ishonish (Q) (5,11±1,58). Omilning ushbu darajasi tibbiyot xodimini o‘ziga bo‘lgan ishonchi muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri baholash va ularga munosib javobni bera olishini, o‘z imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiradi. Ularda o‘zini kamsitishga moyillik bo‘lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo‘lish, ta’sirchanlik bor. Ular o‘zilariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari, kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiq.

Mustaqillik (Q2.) (5,66±1,74). Tibbiyot xodimlari hamma narsani o‘zlari bajarishni ma’qul ko‘rsalarda, atrofidagilar tavsiyasi va takliflarini ham quloq soladilar. Ular mustaqil bo‘lishni ham, atrofdagilarga tayanishni ham, ularni qo‘llab-quvvatlashlarini ham hohlaydilar.Ulardagi mustaqillik faoliyatlarini samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zini nazorat qilish (Q3.) (5,58±1,67). Ko‘rsatkich tibbiyot xodimlarining ijtimoiy va axloq normalarini bajarishda qat’iyatli ekanligi, ko‘pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qilishlari. Ammo ular har doim ham qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishni oxirigacha yetkazavermas ekanlar. O‘z faoliyatlarini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o‘zlarini nazorat qilishga ko‘proq e’tibor berganlari ma’qul.

Xotirjaihmlik (Q4.) (5,25±2,01). Ushbu omil ko‘rsatkichlarining namoyon etilishi, tibbiyot xodimlarida ehtiyojlar miqdorining ko‘pligi tufayli ularda bir muncha zo‘riqish borligidan va nisbatan ko‘proq asabiylikka moyillikdan dalolat beradi.

Murakkab maqsadlardan o‘zini olib qochish va zo‘riqish, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat natijasi bo‘lib, bunga o‘z navbatida, temperament tiplarining o‘ziga xos xususiyatlari ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tibbiyot xodimlarining shaxslilik xususiyatlarini umumiy holati sharhida ham ijobiy, ham mo‘tadil va ayrim o‘rinlarda kasbiy faoliyat uchun teskari xarakterni aks ettiruvchi xususiyatlar mavjudligini ko‘rdik

Demak, R.B. Kettel uslubi natijalariga ko‘ra barcha tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligi va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda rivojlanishida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish xususiyatlarining yetakchilik qilishi aniqlandi.

Tibbiyot xodimlarining shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik ularni shaxslararo munosabatlarda hissiy barqaror bo‘lishlarini, hukmronlikka intilmasliklarini va ruhiy toliqish, qo‘zg‘alish va zo‘riqishlarni kamaytirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman, tibbiyot xodimlari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg‘unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi psixologik ko‘rsatkichlariga baho berishda har bir tibbiyot xodimining shaxslilik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali ularning kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – №6 (766). – 70 modda. – Toshkent: Adolat, 2017. – B. 38.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: “Аспект пресс”, 1996. – 178 с.
3. Майерс Д. Социаьная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс». - С.Петербург – Москва 2002. – 188 с.
4. Ананьев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция// Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991.– С. 75-84.
5. Куницина В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
6. Sobirova D.A. Tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslari “Monografiya” - Buxoro “Durdona” 2020-248 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Rayxona SUROBOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktaranti
E-mail: surobova_r@umail.uz

O‘ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATINI RIVOJLANTIRISHNING O’ZIGA XOS MUAMMOLARI VA ECHIMLARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mexanizmlari fuqorolarning huquqiy ong darajasinii yuksaltirish muammolari, saylov huquqiy va jamoatchilik kengashi misolida yoritilgan.
Kalit so’zlar: Konstitutsiya, demokratiya, jamiyat, huquqiy norma, qonun, jamoatchilik nazorati, saylov huquqi, jamoatchilik kengashi.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC CONTROL IN UZBEKISTAN

Annotation
In this article, the mechanisms of puslic control in the democratiration of society, the probltms of raising the level of lepal awareness of citirens, the exomle of the election legal and puslic council are covered.
Key words: Constition, democracy, society, legal norm, low, public control, electoral rigt, public council.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотатция
В данной статье освещаются механизми обшественноа контроля в демократизации обществи, проблемы повышения уровня правосознания граждан на премере выборно правото и общестиеннного совета
Ключевые солова: Конституттция, демократия**,** общество, правовая норма, закон, обшественный котрол, избирательное прав, обшестиенный совет.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati rivojida dolzarb ahamiyatga ega bo’lib, bugungi kunda uning huquqiy asoslari yaratilgan.

Global axborotlashtirish jarayonida shakllanayotgan hayotga ma’muriy munosabat turli xil manfaatlar to’qnashuvlarini kunlik tartibga solish, cheklash va bartaraf etishni taqoqzo qiladi. Jamoatchilik munosabatlari siyosat-chilar qo’lida uni biron-bir darajada siyosiy maqsadlarga erishish uchun ishlatadigan vositaga aylanadi. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalariga o’zining ulkan, ammo hali ham ma’lum bo’lmagan boshqaruv qobiliyatlari alohida o’rin tutadi.

Jamoat kengashlari samarali faoliyat olib borishi va ular qabul qilgan qarorlar ijrosi jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligining muhim muammosi hisblanadi. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, bunday qarorlarning maslahat xarakteri ijro etuvchi hokimiyat roziligini olmagan taqdirda, hokimiyat idoralari ularni bajarishni rad etish sababini asoslab berishga majbur bo’lsa ham ularni amalga oshirishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, nafaqat ekspertlar, balki idoralarning yanada samarali ishlashidan manfaatdor bo’lgan mansabdor shaxslarning o’zlari ham jamoat kengashlari muayyan boshqaruv organiga aylantirilishi, ularga muayyan vakolatlar berilishi kerakligini ta’kidlamoqda.

Jamoatchilik kengashi - bu ichki rasmiylashtirilgan tuzilishga ega bo’lgan jamoat a’zolari ishtirokidagi ta’lim, unga davlat organlari muayyan vakolatlar beradi va ular bilan davlat qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish masalalari bo’yicha maslahatlashadi. Jamoatchilik kengashlari eng ko’p qatnashadigan mexanizmlardan biridir. Jamoatchilik kengashlari o’rtasidagi asosiy farq fuqarolarning boshqaruv organlari ishiga ko’proq jalb etilishidir, bular mahalliy, qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi hokimiyat organlari bo’lishi mumkin.

“Jamoatchilik kengashi o’z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi va jamoatchilik kengashi davlat organi rahbarining qarori bilan tashkil etiladi. Jamoatchilik kengashi o’z faoliyatini Namunaviy nizomga muvofiq ishlab chiqilgan va davlat organi rahbarining qarori bilan tasdiqlanadigan nizom asosida amalga oshiradi hamda jamoatchilik kengashi a’zoligiga, qoida tariqacida, davlat organida namunali xizmat ko’rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro’-e’tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi” [1].

Davlatning jamoatchilik fikrini hisobga olishdan manfaatdorligi. Bu qiziqish keng ko’lamli masalalar bo’yicha jamoatchilik bilan maslahatlashuvlarda, fuqarolarga davlat siyosati masalalarini tushunish va vakolatli tavsiyalar berish, shuningdek aholining turli qatlamlari fikrini olish uchun zarur bo’lgan barcha ma’lumot va ma’rifiy tadbirlarni taqdim etish orqali ifodalanishi mumkin. Davlat manfaatlarining asosiy ko’rsatkichi ularning ishlarida jamoat kengashlaridan olingan tavciyalardan foydalanish hicoblanadi [2].

Jamoatchilik kengashlari tomonidan qo’llab-quvvatlash vazifaci. Qonun hujjatlarini, davlat organi yoki byudjetning ish rejacini ishlab chiqishda ishtirok etadigan jamoat kengashlari ko’pincha turli jamoat guruhlari manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Bu manfaatdor guruhlarga davlat organlarini ularni qiziqtirgan macalalar bo’yicha ta’cir o’tkazishga yordam berish uchun amalga oshiriladi.

O’zbekicton Respublikasi Oliy Majlici palatalari, Vazirlar Mahkamaci, Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha recpublika kengashi, O’zbekicton faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg’armaci, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari va keng jamoatchilikning har bir davlat organi, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida jamoatchilik kengashini tashkil etish to’g’ricidagi taklifi ma’qullandi hamda O’zbekicton Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 iyuldagi PQ-3837-con “Davlat organlari huzurida jamoatchilik

kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’ricida”gi qarori qabul qilindi” [3].

Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatinini asosiy yo’nalishlari cifatida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dacturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxclarning huquqlari vaqonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish cohacida qonun hujjatlari talablari ijrocini ta’minlash, davlat organi zimmaciga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funktsiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko’rcatish, ijtimoiy sheriklik doiracida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dacturlarni ro’yobga chiqarish bo’yicha davlat organi va uning mancabdor shaxclarining faoliyati uctidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish belgilab berildi [4].

Shuningdek, “davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari birgalikda muloqot qilish, davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vocitalari va fuqarolik jamiyatining boshqa inctitutlari bilan camarali hamkorligini ta’minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog’lab turadigan «ko’prik» rolini bajarish;

“Davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa inctitutlaridan kelib tushgan cotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim macalalar yuzacidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, cotsiologik co’rovlar o’tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o’tkazish;

davlat organi faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashish cohacidagi davlat dacturlari va boshqa dacturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha olib borilgan ishlar uctidan monitoring va tahlil o’tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo’yicha takliflar tayyorlash;” [5]

davlat organi faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo’yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to’g’ricida batafcil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organi faoliyatini icloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o’rganish va ularni yaxshilash bo’yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organi faoliyati bo’yicha fuqarolar o’rtacida o’tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning camaradorligini oshirish yuzacidan takliflar ishlab chiqish;

Shuningdek, har bir davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil qilinmoqda. Jumladan, O’zbekicton Respublikasi Vazirlar Mahkamacining 2019 yil 26 dekabrdagi 1037-con “Recpublika Oliy ta’lim kengashini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’ricida”gi qarori [6] asosida O’zbekicton Respublikasi Oliy va o’rta maxcuc ta’lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati yo’lga qo’yildi.

Jamoatchilik kengashlari faoliyati to’g’ricidagi ma’lumotlarni bo’limlarning racmiy veb-caytlarida topish mumkin.

“O’zbekicton Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to’g’ricida”gi qonunning 5-moddacida davlat cektori faoliyati “jamoatchilik nazorati cub’ektlarining davlat organlari, ularning mancabdor shaxclari faoliyatiga asosciz aralashuviga va ularga g’ayriqonuniy ta’cir ko’rcatishiga yo’l qo’yilmacligi” tamoyiliga asoslanadi” [7]. Biroq, amalda ushbu tamoyil to’liq amalga oshirilmaydi. Bir tomondan, ijro etuvchi hokimiyat bo’limni o’zi faoliyatiga xalaqit bermacligi uchun o’z operatsion tizimini “cozlash” dan manfaatdor, boshqa tomondan, kengash jamoat nazoratining asosiy cub’ektlaridan biri cifatida ma’lum bir muctaqillik huquqiga ega, ammo u tubdan ciqib chiqariladi.

Jamoatchilik kengashlarining rivojlanishi nimaga olib keladi, ular hukumat uchun qulay va cokin maclahatchi bo’lib qoladimi yoki davlat organlarining faoliyati camardorligiga ta’cir qiladigan vocita bo’ladimi? Bu kabi cavollarning natijaci nafaqat hukumat yoki vazirliklar va idoralarning rahbariyatiga bog’liq, balki bu fuqarolarning tashabbuci bilan bog’liq bo’lib, ularning manfaatlari jamoat kengashlarini himoya qilishga chaqiradi” [8].

Mamlakatimizdagi zamonaviy ciyociy hayot - bu turli xil manbalar, harakatlar ucullari va ciyociy maqcadlarga erishish yo’llari bo’lgan ko’plab cub’ektlarning beqaror, shakllantirish qiyin va ciyociy ziddiyatli faoliyati ko’rinishida namoyon bo’lmoqda. Co’nggi paytlarda amaliy ciyocat to’g’ricida gapirganda nafaqat davriy nashrlarda, balki ilmiy maqolalarda, targ’ibot, jamoatchilik fikriga ta’cir ko’rcatish, “jamoatchilik bilan aloqalar” va hokazo kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Shu bilan birga, tushunchalarning mazmuni har doim ham aniq va to’g’ri talqin etilmaydi, ko’pincha talqinda chalkashliklar mavjud bo’lib, bu ko’pgina moc kelmaydigan ta’riflar yaqin bo’lishiga qaramay bu tushuncalarni qo’llashda xizmat qiladi.

“Co’nggi yillarda O’zbekictonda co’z erkinligini ta’minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar cohacini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-ciyociy va cotsial-iqticodiy rivojlanishning muammoli macalalarini hal etishda ommaviy axborot vocitalarining rolini oshirish bo’yicha cezilarli ishlar amalga oshirildi. Ayniqca, ommaviy axborot vocitalarining faoliyati uchun makcimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o’rtacida cifatli muloqotni yo’lga qo’yish, aholiga iclohotlarning maqcadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolic va to’liq axborot etkazish, davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar yo’lga qo’yildi. Oldimizda turgan, bir-biridan muhim va dolzarb vazifalarni hal etishda, yurtimizda tinchlik-ocoyishtalik, o’zaro hamjihatlik muhitini yanada muctahkamlash, xalqimizning bunyodkorlik calohiyatini, uning o’z kuchiga, ertangi kunga bo’lgan ishonchini oshirish, hayotimizda qonun va adolat uctuvorligini ta’minlash, davlat idoralari faoliyati uctidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, bir co’z bilan aytganda, xalq manfaatining chinakam himoyachici bo’lishda ommaviy axborot vocitalari bundan buyon ham faol harakat olib boradilar, deb ishonaman” [9].

Keyingi vaqtlarda O’zbekictonda paydo bo’lgan jamoatchilik bilan aloqalar ciyocatchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochdi. Ammo hozirda ciyocatshunoclar ciyocatdagi ijtimoiy munocabatlar rivojlanishining yangi tendentsiyalarini tahlil qilishlari va tuzishlari kerak. Zamonaviy ciyocatda hokimiyat uchun kurashning bunday yangi shakllari tobora ko’proq kuzatilmoqda, bunda ciyocat aniq elektorat cifatida o’z elektoratining maqcadli guruhlariga murojaat qilishi maqcadga muvofiq bo’ladi. Eshittirish xabarlarini tor fokuc yo’nalishi bo’yicha o’zgartirish kerak, tinglovchilarning xilma-xil xucuciyatlarini hicobga olgan holda, ularning barcha qadamlarini eng co’nggi tadqiqotlar va ishlanmalar bilan tekshirish kerak. Amaliy ciyocatda ciyociy kurash va faoliyatning asosiy vocitaci cifatida xabarlar ko’proq shaxciylashtirilmoqda va muloqotga kirishmoqda. Buni O’zbekicton Respublikasi Oliy Majliciga bo’lgan caylov jarayonlari, turli ciyociy partiya vakillarining teledebatlardagi o’zaro bahc- munozalarida ham ko’rdik.

“Ommaviy axborot vocitalarining jamoatchilik bilan o’zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining camaradorligini tubdan yaxshilash maqcadida O’zbekicton Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vocitalari muctaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va

tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’ricida”gi 2019 yil 27 iyundagi PQ-4366-con qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorda cohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munocib javob qaytarilmayotganini, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyocdagi iclohotlar to’g’ricidagi keng qamrovli ma’lumotlarni o’z vaqtida taqdim etish bo’yicha jamiyat ehtiyojlari axborot cohacidagi ishlarni cezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vocitalarining faoliyatini cifat jihatidan yangi bocqichga olib chiqishni taqozo etayotshani ta’kidlanadi” [10].

Ushbu qaror doiracida quyidagilar davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, matbuot markazlari, jamoatchilik bilan aloqalar bo’yicha xizmatlarining asosiy vazifalari etib belgilandi:

Keyingi vaqtda Oliy Majlic palatalari hamda xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlariga davlat hokimiyati organlarining hicobdorligining yo’lga qo’yilishi, “Elektron hukumat”ning joriy etilishi, “Mening fkrim” veb portali faoliyatining tatbiq etilishi jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o’rtacida o’zaro yaqin hamkorlikni o’rnatish bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda” [11]. O’z navbatida, davlat boshqaruvi organlarining xalq vakillari oldidagi hicobdorligi qilinayotgan ishlarning ochiq-oshkoraligi, eng muhimi, ularning mac’uliyatli bo’lishini ta’minlayapti.

“Elektron hukumat” joriy etilgach, bir qator o’zgarishlar bo’ldi. “Chunonchi, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi ancha ortdi, davlat organlari xizmatlaridan foydalanish kengaydi va oconlashdi, ularni alohida fuqarolarga taqdim etish imkoniyati vujudga keldi, fuqarolarni ciyociy jarayonlarga va davlat boshqaruviga jalb etish imkoniyati yuzaga keldi, axborotlardan foydalanish va ularni almashish tezlashdi, asosiyci, qulayliklar yaratildi.

“Mening fikrim” veb portali orqali eca Oliy Majlic palatalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga elektron jamoaviy murojaat berish imkoniyati taqdim etildi. Hozirda har bir fuqaro o’zining konctitutsiyaviy huquqidan foydalangan holda, mamlakat qonunchilik tizimini rivojlantirish boracida o’z fikrlarini bildirishmoqda” [12].

Fuqarolik jamiyati shakllanishida fuqarolik jamiyati barcha inctitutlarining o’zaro hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyat kacb etadi. Zero, jamoatchilik nazoratining maqcadi — davlat hokimiyati organlarining aholi oldidagi barcha majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligi eca jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz rahbarining 2020 yil 16 apreldagi Farmoni bilan O’zbekicton Respublikasi Prezidenti huzurida Jamoatchilik palataci tashkil etilgani jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirishda muhim ahamiyat kacb etmoqda. “Binobarin, palata oldida davlat va jamiyat inctitutlari o’rtacida camarali muloqotni yo’lga qo’yish, davlat organlari ishi uctidan nazoratni kuchaytirish, “xalq diplomatiyacini” rivojlantirish macalaci dolzarb etib belgilandi” [13].

Tan olish kerak, bugun jamoatchilik fikrini o’rganish, uni muntazam boyitib borish, mavjud muammolarni tizimli ravishda tahlil qilish, echimini topish uchun OAV va xo’jalik boshqaruvi organlari tarkibida yangi shakl va mazmunda tashkil etilgan axborot xizmatlarining beqiyoc hiccaci bor. Shu cabab, bu bo’g’inni davlat va jamiyat o’rtacidagi hamkorlikni muctahkamlashning eng muhim yo’nalishi, deyish mumkin.

Co’nggi ikki yil davomida OAVga alohida e’tibor qaratilishi, co’z erkinligining ta’minlanishi davlat va jamiyat o’rtacidagi ko’prikning muctahkamlanishiga va uzlukciz aloqalarning kafolatlanishiga olib keldi. Garchi, ko’p hollarda ayrim kelishmovchiliklarni keltirib chiqarayotgan bo’lca-da bu faollikni ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyatiga nicbatan ham aytish mumkin. Eng asosiyci, jamiyatning faolligi va ciyociy jarayonlarga qiziqishi va aralashuvi ortdi. Ko’zlangan maqcad ham shu edi aclida. Jamoatchilik nazorati kuchaydi, ular har bir jarayonlarga o’z munocabatlarini bildira boshladi, davlat va jamiyat o’rtacida o’zaro yaqin hamkorlik yaratildi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги ПҚ-3837-сон “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.07.2018 й., 07/18/3837/1454-сон; 30.05.2019 й., 06/19/5733/3216-сон)
2. Алимов Н. Жамият — ислоҳотлар ташаббускори. http://ngo.uz/uz/zhamiyat-islootlar-tashabbuskori
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги ПҚ-3837-сон “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.07.2018 й., 07/18/3837/1454-сон; 30.05.2019 й., 06/19/5733/3216-сон)
4. Жамоатчилик палатаси — фуқаро, жа…https://yuz.uz
5. АНАЛИЗ ПРИНЦИПОВ ИНСТИТУТА О…http://journal-nio.com
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 26 декабрдаги 1037-сон “Республика Олий таълим кенгашини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.12.2019 й., 09/19/1037/4227-сон)
7. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонуннинг 5-моддаси. https://lex.uz/docs/3679092
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги ПҚ-3837-сон “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.07.2018 й., 07/18/3837/1454-сон; 30.05.2019 й., 06/19/5733/3216-сон)
9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. –Б.. 500
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оммавий ахборот воситалари мустақиллигини таъминлаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари ахборот хизматлари фаолиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2019 йил 27 июндаги ПҚ-4366-сон қарори
11. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажл…https://uza.uz
12. Ғуломова Д. Кучли парламент ва халқ вакиллик органлари — Янги Ўзбекистоннинг таянчи. https://gk-usbekistan.de/uz/2022/07/01//
13. Рахманова У. Жамоатчилик назорати: ўзаро ҳамкорлик кафолатланмоқда. https://strategy.uz/ index.php?news=1154

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378.011.157

Gavxaroy TADJIBAEVA,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: jaloliddinfirdavs@gmail.com

QDPI dotsenti p.f. f.d (PhD) J. Qurbonov taqrizi asosida

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHISINING BOLALAR FIZIOLOGIYASI VA GIGIENASIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MODERNIZATSION PARAMETRLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachisining bolalar fiziologiyasi va gigienasiga doir bilimlarini rivojlantirish modernizatsion parametrlari sohasini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bo‘lajak tarbiyachilarga dastlab o‘z kasbini ijtimoiy mohiyatini tushuntirishdan iboratdir. Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash yo‘lida jadal ravishda amaliy faoliyat olib borilmoqda, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga oid ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqildi, jahon standarti darajasida yangi mazmun va yo‘nalishda faoliyat yurituvchi maktabgacha ta’lim tizimi takomillashtirildi. bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash borasida aniq tizimlashtirilgan jarayon tashkil etilmaganligini hisobga olib shu mavzuda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, rivojlantirish modernizatsiyasi, bolalar fiziologiyasi, bolalar gigienasi, birinchi tarbiyachi, oila-tarbiyachi, mahalla, bog‘cha, maktab, oliy maktab, jamoatchilik tarbiyachisi.

ПАРАМЕТРЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ ДЕТСКОЙ ФИЗИОЛОГИИ И ГИГИЕНЫ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО ПЕДАГОГА

Аннотация

Цель статьи - разъяснить будущим воспитателям социальный характер профессии с учетом особенностей параметров модернизации знаний будущего педагога дошкольного учреждения по детской физиологии и гигиене. Активно проводится практическая работа по модернизации дошкольного образования, разработаны научно-методические основы воспитания дошкольников, совершенствуется система дошкольного образования, работающая в новом содержании и направленности на уровне мировых стандартов. На эту тему ведутся исследования с учетом того, что четкого систематизированного процесса подготовки детей к школьному обучению нет.

Ключевые слова. Дошкольное образование, модернизация развития, детская физиология, детская гигиена, первый воспитатель, семейный воспитатель, микрорайон, детский сад, школа, высшая школа, народный воспитатель.

PARAMETERS OF MODERNIZATION OF FORMATION OF KNOWLEDGE OF CHILDREN'S PHYSIOLOGY AND HYGIENE OF THE FUTURE PRESCHOOL TEACHER

Annotation

The purpose of the article is to explain to future educators the social nature of the profession, taking into account the specifics of the parameters of modernizing the knowledge of a future preschool teacher in child physiology and hygiene. Practical work is being actively carried out to modernize preschool education, scientific and methodological foundations for educating preschoolers have been developed, the system of preschool education is being improved, working in a new content and orientation at the level of world standards. Research is being carried out on this topic, taking into account the fact that there is no clear systematized process of preparing children for schooling.

Keywords. Preschool education, modernization of development, child physiology, children's hygiene, first educator, family educator, microdistrict, kindergarten, school, higher school, national educator.

Introduction. In recent years, the reform of the preschool education system in our country has risen to the level of state policy. A clear example of this is the organizational and legal measures adopted for the organization of an effective preschool education system aimed at ensuring the formation of a healthy and comprehensively developed generation. For example, the decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 9, 2017 "On measures to radically improve the system of preschool education" No. PQ-3261, harmonious development of preschool children and organization of quality preschool education tasks are defined. Also, important tasks in the field of preschool education in the era of globalization can be interpreted as follows:

- introduction of education at the level of developed countries;
- strengthening cooperation between educational institutions and consumers of educational services;
- involvement of social community in child education.

As a logical continuation of the above-mentioned tasks, the activity of preschool educational institutions, as well as , the development and introduction of new mechanisms for the comprehensive assessment of the child's development and his readiness for general primary education is envisaged. Efforts are being made to modernize preschool education. Consequently, the scientific and methodical foundations of the education of children of preschool age were developed, and the system of preschool education operating in a new content and direction at the level of the world standard was improved. However, there is no clear systematized process of preparing children for school education.

To further improve the field of pedagogical education, to supply professional pedagogic personnel to train highly qualified specialists who have the skills to apply modern knowledge and pedagogical technologies, and make a worthy contribution to the socio-economic development of our country, to supply advanced educational technologies to the field for the purpose of introduction, the following priority

areas of development of the field of pedagogy were determined:

 training of professional pedagogic personnel who have mastered education and teaching methods, information and communication technologies and foreign languages, and have the skills to use modern pedagogical technologies in the educational process;

 identifying young people with a high interest in the pedagogical profession and introducing a continuous system of targeted training and education;

 improvement of curricula and programs for educational directions and specialties of the field of pedagogical education based on advanced foreign experience, creation and implementation of innovative teaching-normative and educational resources;

 regularly studying the needs and requirements of pedagogic personnel customers, developing mutual cooperation with them, and defining scientifically based prospective plans for training pedagogic personnel and implementing them;

 improvement of pedagogical education infrastructure, further expansion of international cooperation in the field;

 to increase the effectiveness of the processes of formation of modern pedagogic personnel with high culture, practical professional skills, who have mastered education, teaching methods and evaluation criteria.

Analysis of literature on the topic. (Literature review). Pedagogical knowledge and skills are required from educators to comprehensively prepare children for school education. Therefore, in the process of education, educators-pedagogues should use the pedagogical ideas of Eastern and Western scientists. Because in the theories created by them, detailed information about the development of preschool children is revealed. By studying and analyzing the sources on the mental development of preschool children, we were sure that the pedagogical and psychological theories created in history have not lost their importance to this day. In fact, in ancient Greece, great philosophers put forward scientific views on child psychology and development. The well-known philosopher Heraclitus expresses the opinion that the child's heart is initially "wet and wet" and gradually turns into "fire". Under the influence of education, the child learns to think and reason, and the ability to think appears in him. For the first time, Heraclitus expresses an opinion not only about the development of the soul in a child, he connects development with thinking, compares mental development with intellectual development and equates them. According to the theory of mental development, the formation of a child's personality occurs as a result of the development of emotional and volitional qualities and intellect [2].

In the process of preschool education, it is necessary to prepare children for school education in terms of volitional and emotional aspects, along with mental education. As children enter school, they develop personal qualities, self-awareness and self-management skills. The development of a child's personality and the formation of moral and social behavior in it are based on the Greek scientist Protagoras. According to him, there is a concept of good and bad, goodness and ignorance in society. Therefore, it is necessary to influence the personality of the child, conduct communication in a moral sense, and develop skills and abilities to overcome life's difficulties. The purpose of such an influence, in his opinion, is not only to improve moral standards in a person, but also to help him adapt to the social conditions in which he lives. According to him, social influence directed without purpose for the natural development of the child's psyche does not help his socialization. At this time, in ancient Greece, the question "What favorable conditions are necessary for a child to become socially active and flexible?"[6] was asked. Protagoras approves of the need for external influence for social adjustment, that is, the method of being influenced by others in teaching a child. In Greece, the art of oratory was considered the most convenient way to influence a child.

In fact, in the field of "Speech, communication, reading and writing skills" of the state requirements for the development of preschool children, indicators are given for the development of speech and language in children. After completing educational activities in this field, a 6-7-year-old child:

- hears and understands speech;
- uses correct pronunciation, convenient grammatical forms and various sentence constructions in his speech;
- shows interest in learning a second language;
- shows interest in works of fiction;
- has an idea about the lexical, syllabic and phonetic structure of the word;
- knows how to compose and pronounce different forms of meaning independently, knows how to use basic skills and tools of writing. It is appropriate to use pedagogical ideas presented by Greek scientists in the education of preschool children [7]. For example, Democritus says that the process of knowing consists of two stages - intuition and thinking. They appear and develop at the same time. That's why we get more information through thinking. We cannot see atoms through our senses, but we can infer them through ways of thinking. According to Democritus, education should give a person three things: good thinking; speaking well; perform well. All leading scientists in Greece confirm that spiritual development is the basis of a child's mental development[3]. According to the well-known Arab scientist Ibn Rushd, there is a connection between the organism and intuition, feelings, and thinking, which initiates the unique normal processes in the human heart. As a doctor, Ibn Rushd studied the human body and sensory organs and showed that the perception of the environment directly depends on the properties of the nervous system [4].

According to B. Spinoza, the integrity of a person is independent from the spiritual and physical aspects, and serves as the basis for understanding the environment. means the idea.[5]. Descartes and Spinoza put forward that knowledge of reality is a special method that is realized by directly reaching the truth, and mental sensitivity is the leading consideration. Intuition leads to general understanding, such as awareness of the existing state, properties, and situations of objects. When a person understands himself, he also understands the world around him, the rules of the heart and soul, and the human body are the same. Spinoza analyzes the process of knowledge and divides it into the following stages:

1. Views, thoughts and reasoning - subject's knowledge of objects and things based on emotional experiences.

2. General concepts that appear on the basis of reason and intelligence-logical thinking. According to Dj. Locke, the psyche of a child is formed only during his life. He attaches special importance to education. The knowledge and ideas of adults are not given to them ready-made, they are the result of education and are formed as a result of the intellectual and spiritual attitude of adults to the child. Locke concludes that all human knowledge is gathered on the basis of emotional experience. He divides sensory experience into two types: reflection and intuition. Both processes serve as the basis of knowledge about the external world. Intuition is not only the first stage of understanding, it is the only way to discover knowledge about the external world, the only channel that communicates with a person.

Research methodology. David Gartley, an English psychologist, believes that the possibilities of education in the formation of the psyche throughout life, influencing the mental development of a child are really unlimited. The

development of human psyche and the formation of behavior should be used in the education of children, assimilation of knowledge through analogy. Because their future depends on what the people around them tell the child about. Therefore, how a child grows, how he thinks and behaves depends only on adults [8].

The first period - from birth to 2 years, during this period it is necessary to ensure the physical development of the child. At this age, the level of speech is not developed, so it is against him.

The second period - from 2 to 12 years old, justifies the need for sensory development of the child. According to him, the development of intuition is the basis for the development of thinking. He puts forward the idea that systematic education should begin at the age of 12.

The third period - 12-15 years old, goal-oriented education is provided. At this age, children correctly absorb the offered knowledge. The knowledge given at this age should be related to natural and concrete sciences. It shows that social and spiritual development can be realized later.

The fourth period is from the age of 15 to adulthood. The development of emotions occurs when concrete life experiences are collected. At this age, children are passionate. It is necessary to form positive feelings and voluntary qualities in them [9].

Getchinson, a disciple of G.S. Hall, divides psychic development into five phases.

1. From birth to 5 years - the period of searching and digging. At this stage, children love to play in the sand. They are interested in playing various small manipulative toys.

2. From 5 to 11 years - the period of catching and hunting. In this case, children are afraid of strangers, they become aggressive, ruthless, and pride in front of adults is strong. They try to do things secretly.

3. 8-12 years old - at this age, children want to have their own private corner. They love pets and take care of them. Girls at this age strive to be cute and gentle.

4. 11-15 years old - they are interested in nature and natural phenomena. Boys are interested in gardening, and girls are interested in taking care of flowers. At this age, children become observant and cautious.

5. 14-20 years old - strive to become a modern person. They are interested in trade, they know the role and importance of money[10].

Analysis and results. Swiss psychologist Eduard Clapared says that play is of great importance in the mental development of a child. He divides games into the following types: games that develop children's individuality; intellectual games (developing cognitive abilities); affective games (developing emotions). Clapared's scientific research is focused on the study of thinking and its stages in child development. He compared thinking with psychic development and divided it into periods. He divided mental development into 4 stages:

- from birth to 2 years - at this stage, children are interested in the appearance of objects and objects. Because intellectual development is related to the development of perception;
- From 2 to 3 years old - at this stage, children's speech develops and their interest in learning is embodied and expressed in words;
- Children up to 3-7 years of age - intellect and thinking develop and common interests increase;
- 7-12-year-old children begin to develop individual characteristics and abilities, in which intellectual development is inextricably linked with objective special interests.

Clapared studied the intellectual environment in children and identified the most basic feature of the child's thinking, that is, syncretism - he says that children's ideas about the world are formed. French psychologist Alfred Binet studied the level of intelligence development in children. He experimented with the stages of development of thinking in children. He gave them tasks of clear understanding. For example: What is a chair? what is a horse what is a plant asked questions like Children aged 3-7 generalize the answer and at the same time go through three stages of the development of understanding:

1. Enumeration.
2. Description.
3. Interpretation-interpreting, commenting, explaining.

Conclusion. As a result of this study, he comes to the conclusion that it is necessary to develop diagnostic methods for the standards of intellectual development of children, the processes of formation of thinking in them. A.L. Gesell studied the mental development of children from birth to 3 years. As a result of his research, he comes to the conclusion that up to the age of 3, a child develops very quickly mentally, and then gradually his development slows down. Based on this, he divided mental development into three periods: from birth to 1 year; 1-3 years old; 3-18 years old. In the first period, the psyche develops at a high rate, in the second, at a medium level, and in the third, at a low level. German psychologist William Stern analyzed the development of a child's personality. Mental development is self-development, self-development, adaptation of the child to the living environment. This theory is called convergence theory, in which two factors play a role in mental development - heredity and environment. Analyzing the influence of two factors, he confirmed that one of the main types of children's activities - play is the main factor in mental development.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таъ- лим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепци- ясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-4312-сонли қарори.
2. Марцинковская Т.Д. История детской психологии: Учебник для студ. пед. вузов. - М.: Гуманит. изд. Центр «ВЛАДОС», 1998. -С. 27.
3. Марцинковская Т.Д. История детской психологии: Учебник для студ. пед. вузов. - М.: Гуманит. изд. Центр «ВЛАДОС», 1998. -С. 27.
4. Сагадеев А.В. Ибн-Рушд (Аверроес). - М.: «Мысль», 1973. -С. 27.
5. Галустова О.В. Шпаргалка по истории психологии: учеб. пособие. - М.: ТК «Велби», 2005. -С. 17.
6. Баранова Э.А. Введение в детскую психологию: учеб ное пособие. - Санкт-Петербург: «Речь», 2006. –С. 137- 138.
7. Тургунов, С. Т., and Л. А. Мақсудова. "Управление педагогическими процессами и технологиями." Тошкент: Sano-standart 48 (2012).
8. Турғунов, С. Т., Дониёров, Б. Х., & Аҳмаджонова, Н. (2011). Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда таълим муассасаси раҳбарларининг функционал вазифалари. Халқ таълими.–Тошкент, 5, 71-76.
9. Islamovich, I. T. (2019). Democracy and youth: formation of democratic values. European science review, (5-6), 112-114.
10. Исмоилов, Темурбек Исломович. "Problems And Solutions Of Public Activity Of Unorganized Youth." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.10 (2020): 242-247.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 1/14; 370; 17.

Tuxtasin TASHMETOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD),
E-mail: toshmetovtuxtasin@gmail.com

F.f.d. prof, N.A.Nazarov taqrizi asosida

CONDITIONS AND IDEOLOGICAL FACTORS FOR THE FORMATION OF COMPETENT YOUTH IN AN ERA OF GLOBAL CHANGE

Abstract

It is a fact that the sharp struggle in the information field of the 21st century is recognized as one of the harsh realities of the new century, which is becoming a tradition. At such a time, one of the urgent tasks should be the rallying of the nation towards a great future and ambitious goals, the education of a high-quality, mature generation, the education of people who are mature in all respects. The article also analyzes the role of education in the development of intellectual knowledge and intellectual potential. Therefore, spiritual education plays a decisive role in the education of mature youth. According to modern ideas about the ideal person, perfect young people have high spirituality.

Keywords: Society, perfect, perfect man, education, spirituality, culture, ideology, global, immunity, strategy, information, technology, education, morality, patriotism, humanism, value, cultural heritage, custom, tradition, propaganda, transformation, vigilance.

УСЛОВИЯ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОЙ МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНЫХ ПЕРЕМЕН

Аннотация

Фактом является то, что острая борьба в информационном поле XXI века признается одной из суровых реалий нового века, что становится традицией. В такое время одной из актуальных задач должно стать сплочение нации навстречу великому будущему и амбициозным целям, воспитание качественного, зрелого поколения, воспитание из него зрелых во всех отношениях людей. Также в статье проанализирована роль образования в развитии интеллектуальных знаний и интеллектуального потенциала. Поэтому духовное воспитание играет решающую роль в воспитании зрелой молодежи. Согласно современным представлениям об идеальном человеке, совершенные молодые люди обладают высокой духовностью.

Ключевые слова: Общество, совершенный, совершенный человек, образование, духовность, культура, идеология, глобальный, иммунитет, стратегия, информация, технология, просвещение, нравственность, патриотизм, гуманизм, ценность, культурное наследие, обычай, традиция, пропаганда, преобразование, бдительность.

GLOBAL O‘ZGARISHLAR DAVRIDA BARKAMOL YOSHLARNI SHAKLLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI VA G‘OYAVIY OMILLARI

Annotatsiya

XXI asr axborot maydonlaridagi keskin kurashlar urfga aylanib borayotgan yangi yuz yillikning qaltis voqeliklaridan biri sifatida e’tirof etilayotgani ayni haqiqatdir. Ana shunday davrda, xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazish, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, xozirda dolzarb vazifalardan biriga aylanmog‘i lozim. Shuningdek maqolada, barkamol yoshlarni shakllantirishda intellektual bilim, intellektual salohiyatini yanada rivojlantirib borishimizda ta’lim-tarbiyaning o‘rni tahlil qiingan. Binobarin, barkamol yoshlarni voyaga yetkazishda ma’naviy tarbiya halq qiluvchi o‘rin tutadi. Zamonaviy komil inson konsepsiyasiga asosan, barkamol yoshlar yuksak ma’naviyat sohibidir.

Kalit so‘zlari: Jamiyat, barkamol, komil inson, tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, mafkura, global, immunitet, strategiya, axborot, texnologiya, ma’rifat, axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, qadriyat, madaniy merosn, urf-odat, an’ana, targ‘ibot, transfarmatsiya, hushyorliklik.

Kirish. Jahonda global o‘zgarishlar ta’sirida ma’-naviyatning o‘rni, yoshlarni milliy ma’naviy ruhda tarbiya-lashning ahamiyati hamda “axborot” tushunchasining semantik va falsafiy ma’no-mundarijasida kuzatilayotgan yangilanishlar mavjud umuminsoniy qadriyatlarning qayta baholanishi (reassessment of human values) bilan bog‘liq bo‘lgan global o‘zgarishlarni taqdim etmoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga yangicha qadriyatlar, hayotning barcha jabhalariga nisbatan mutlaqo o‘zgacha yondashuvlar bilan munosabatda bo‘lish kabi o‘ziga xos muammolarni ham qo‘ymoqda. Yuzaga kelgan bunday shart-sharoit ma’naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirishning zamonaviy texno-logiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini va hayot sur’atlarining uzluksiz jadallashuviga nisbatan ijtimoiy hodisalarning u yoki bu darajada transformatsiyalashuvini ilmiy-nazariy va falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Dunyoning bir qator yetakchi ilmiy markazlari va institutlarida globallashuv jarayonining ma’naviyatga ta’sirini baholash, ma’naviyat targ‘ibot texnologiyalarining mohiyati va xususiyatlarini anglash, jamiyatdagi integratsiyalashuv jarayonlarga ta’siri, ijobiy jihatlaridan unumli foydalangan holda salbiy oqibatlarini kamaytirish choralarini ko‘rish, xususan, globallashuvning yoshlar ongi va axloqiga ta’siri, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati, milliy o‘zlikni anglash, yoshlar ongining transformatsiyalashuv jarayonlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globallashuv sharoitida ma’naviyatning namoyon bo‘lish xususiyatlari, uni yoshlar ongiga singdirish hamda mazkur jarayonni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar o‘zbekistonlik faylasuf olimlari tomonidan ham o‘rganilgan. Xususan, E.Yusupov[2, 37] milliy g‘oya va mafkuraning

o‘zaro munosabati, ularning mohiyati, ijtimoiy-tarixiy mazmuni va ahamiyatini, I.Soifnazarov[3], ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyatni, A.Begmatov[4] globallashuv sharoitida ma’naviy taraqqiyot va ma’naviy tarbiya, B.Umarov[5] globallashuv ziddiyatlari, S.Otamuratov[6, 20] globallashuv: millatni asrash mas’uliyatini, jamiyatga xavf soluvchi tahdidlar, xususan, demokratiya niqobi ostida kirib kelayotgan va axborot xuruji shaklidagi tahdidlar tasnifini, A.Azizxo‘jaev[7, 19], I.Ergashev, N.Berdaliyev, M.Davletova, G‘.Muhammadjanov, O.Bo‘tayorov [8], O.Bozorovlar [9] milliy g‘oya targ‘ibotini amalga oshirish shakllari, vositalari va texnologiyalarini, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyevlar [10] O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasida ma’naviyatning o‘rni maslasini tadqiq etganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari faylasuflaridan, xususan, rus tadqiqotchi С.П.Штумпф o‘z ishida ruhiyat muamosi rus falsafiy an’anasini, Г.Глебов ва О.Милаева [11, 17] zamonaviy xalqaro munosabatlar va uning tamoyillarini, М.М.Решетников [12, 76] globallashuv jarayoning dunyo hamjamiyatiga ta’sirini, И.Балабанов, С.Крючкова [13] innovatsiyalarni falsafiy aspektdagi tahlili kabi masalalarni o‘rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ilmiy-siyosiy merosida ma’naviyatning konseptual asoslari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy qarashlarida esa ma’naviyat va uning targ‘iboti globallashuv sharoitiga mos talablar asosida yanada takomillashtirilmoqda.

Tahlil va natijalar. Bugun insoniyat tez sur’atlarlarda o‘zgarib borayotgan, shu kungacha boshidan kechirgan jamiyat bosqichlaridan tubdan farq qiladigan o‘ta tezkor, shiddatli va butun murakkabliklarni to‘la namoyon qilayotgan tapixiy davrda yashamoqda. Keyingi yillarda “globallashayotgan dunyo”, “global jamiyat”, “global integratsiya”, “global taraqqiyot” kabi so‘zlar, tushunchalar faollashdi. Insoniyat yangi bir voqelikka – global o‘zgarishlar davriga duch kelib, uni anglashga, undagi ijobiy jihatlardan unumli foydalanib taraqqiyotini ta’minlashga intilmoqda. Ammo global o‘zgarishlarni faqat ijobiy voqelik sifatida qarashga hali erta: u ziddiyatlarga to‘la, goho esa milliy taraqqiyotga, milliy madaniyatga va milliy g‘oyaga salbiy ta’sir etuvchi belgilarga ega.

Globallashuv – jahondagi barcha mamlakatlar, hududlar va butun kontinentlarning o‘sib borayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va boshqa munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligidir. Boshqacha qilib aytganda, globallashuv – bu barcha xalqlar, jamiyatlar taraqqiyotining o‘zaro bog‘liqligini yanada ortib borish jarayonidir.

Shu o‘rinda rossiyalik olim А.Зиновевning – Globallashuv yangi jahon urushi[14] U yangi tipdagi jahon urushi degan ta’kidi kishini ancha sergak torttiradi. Yana bir olim А.Паршев esa – Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo‘shimcha qiymatini dunyodagi asosiy zahiralarni o‘zlashtirishdan iboratdir[15] degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, XXI asr axborot maydonlaridagi keskin kurashlar urfga aylanib borayotgan yangi yuz yillikning qaltis voqeliklaridan biri sifatida e’tirof etilayotgani ayni haqiqatdir. Natijada, sodda, bilimli va hayot tajribasi past yoshlarning ongi va tafakkurini turli uydirmalar bilan chalg‘itishga urinmoqdalar. Bugun biz yashayotgan davr inson tamaddunining rivojlangan davri, ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivojlangan va yuksak imkoniyatlar eshigi ochiq davr hisoblanadi. Buni bir so‘z bilan aytganda globallashuv asri deb ataladi. Bu davr o‘zining axborot oqimining tezligi, integratsiyalashuv va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy kommunikatsiyalarning yo‘lga qo‘yilishi kabi ta’sirlar orqali namoyon bo‘lmoqda. Shuni ham aloqida aytish kerakki, bu davr keng imkoniyatlar davri bo‘libgina qolmasdan balki u hozirgi sharoitda g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning o‘tkir quroliga ham aylanib inson hayotiga va u yashayotgan jamiyatga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Milliy mafkurani targ‘ib qilishda ma’naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma’rifiy yondashuv bo‘lsa ham bu jarayon milliy mafkuraning xususiyatlari bilan bog‘liq. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g‘oyaga bo‘lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayoni bo‘lmasa, milliy mafkuraga ham ehtiyoj oshmas edi. Chunki globallashuv bo‘lmaganda har bir xalq va millatning ma’naviyati o‘zicha mavjud bo‘lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta’sir va tahdidning yo‘qligi esa milliy mafkuraga ehtiyojni kuchaytirmas edi. Milliy mafkuraning mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida mafkuraligicha qolmay, amaliyotga, hayotga aylanishi zarur.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab Birinchi Prezident I.A.Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning rahnamoligida mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun zarur sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li shakllanib bormoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildiradi: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq”[1, 257] -deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, tarbiya inson ongi mahsulidir. Shuning uchun ham ongni o‘zgartirmasdan turib, yangi jamiyat barpo etish va oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz juda murakkab kechadi. Shu bois, yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yangi davlatchiligimizning asosi hisoblanib, ular ongidagi transformatsiyalashuv jarayonlarini ta’minlab boradi. Shu jihatdan barkamol yoshlarni voyaga yetkazishda ma’naviy tarbiya halq qiluvchi o‘rin tutadi. Zamonaviy komil inson konsepsiyasiga asosan, barkamol yoshlar yuksak ma’naviyat sohibidir. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” hamda 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilinishi xalqimiz va yoshlarimizning manfaatlarini ifodalovchi dasturiy hujjat bo‘ldi. Bu borada, ya’ni yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda oila, ta’lim, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tizimli joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rib turganimizdek, dunyoda yoshlar tarbiyasidek, muhim va murakkab muammo bo‘lmasa kerak. Ayniqsa, hozirgi mustaqillik sharoitida “barkamol avlod”ni tarbiyalash masalasi kelajak taqdirimiz bilan bog‘liq masaladir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildiradi: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq”[1] – deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, tarbiya inson ongi mahsulidir. Shuning uchun ham ongni o‘zgartirmasdan turib, yangi jamiyat barpo etish va oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz juda murakkab kechadi. Shu bois, yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlar ruhida barkamol inson sifatida tarbiyalash yangi davlatchiligimizning asosi hisoblanib, ular ongidagi transformatsiyalashuv jarayonlarini ta’minlab boradi.

Bizning fikrimizcha, ma’naviy barkamol inson tushunchasining o‘zi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma’naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan

hamohangdir. Ayni vaqtda ma’naviy barkamol inson tushunchasi sog‘lom avlod tushunchasi bilan ham bog‘lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Ma’lumki, barkamol shaxs – komil inson mohiyati birday tushunchalardir. Yoshlarni to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo‘yingki, yuksak axloqlilikka yo‘llash bevosita bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi – iymoni, e’tiqodi va axloqiy fazilatlari – qo‘yingchi, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat to‘yg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko‘taradi. Boshqacha aytganda, ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasini paysalga solish yoki bunga panja ortidan qarash, buni qandaydir mavhum yoki o‘z-o‘zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash mantiqsizlikdir. Shu ma’noda, sharqona odob-axloq va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan yoshlar yuksak ma’naviyatli, ya’ni ma’naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma’naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni aslo istamaydilar.

Shu boisdan, ma’naviy barkamol yoshlarda jismoniy go‘zallik, mukammallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog‘lom bo‘lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Avvalo, sog‘lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma’naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma’rifatli yosh avlodni tushunmog‘imiz kerak. Bunday kishilar o‘zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari – iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o‘zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g‘oyalarni mujassamlashtirgan bo‘lishlari lozim. Zero, barkamol yoshlar Vatanga, millatga, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladilar. Vatanni sevmagan, millati tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan yoshlarning barkamolligi haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Barkamol inson, insoniy fazilatlarning uyg‘unligini ifoda etadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda”[1]. Haqiqatan ham ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda, shubhasiz, ta’lim tizimining ham salmoqli hissasi bor. Hozirgi dunyoda yoshlar potensiali va intellektual qudrat hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ma’naviy barkamol, intellektual salohiyati yuqori avlod tarbiyasi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan yot g‘oyalar va g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyatga egadir. Shu bilan birgalikda, xalqimizning olis o‘tmishi buyuk bobolarimiz tomonidan yaratilgan rang-barang va o‘lmas, madaniy va ma’naviy qadriyatlarga juda boy. Ajdodlarimizdan bizga meros qolgan ana shunday umrboqiy boyliklarimiz ichida “Avesto”, xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalari bo‘lmish “Alpomish”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlar, buyuk bobolarimiz Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Yassaviy, Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Kubro, Naqshbandiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi allomalarimizning ilmiy merosi hamda yaqin o‘tmishimizda yashab ijod etgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ajdodlarimizning badiiy ijodiy faoliyatlari hamda sharq falsafiy tafakkuri taraqqiyotida yuksak darajada ahamiyat kasb etgan.

Shak-shubhasizki, yuqorida keltirib o‘tilgan boy axloqiy qadriyatlarimiz zamirida insonni yaxshilik tomon yetaklaydigan, uning qalbida ezgulik tyg‘ularini uyg‘ota oladigan, shaxsni o‘z-o‘zini, milliyligini anglab yetishga undaydigan yuksak ma’naviy kuch yotadi. Shunday yekan, jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari masalasi hamisha o‘rganib borishni taqozo etadi.

Birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi jamiyatning ma’naviy-axloqiy yetuklikka bo‘lgan ehtiyoj va talablari ortib bormoqda. Chunki, chetdan jamiyat mentalitetiga yot bo‘lgan, axloqiy-ma’naviy illatlarni o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi o‘z ta’sirini o‘tkazib, jamiyatda xulqiy faoliyatlarning transformatsiya bo‘lishi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, jamiyatning ma’naviy-axloqiy ehtiyoji va talablarini ro‘yobga chiqarish uchun axloqni ijtimoiy ong shakli sifatida axloqiy faoliyat, axloqiy munosabatlar va axloqiy anglash muammolarini maqsadli va izchil ravishda o‘rganish lozim bo‘ladi.

Ana shunday ishlar ko‘lamini kengaytirish o‘sib kelayotgan har bir shaxs, har bir yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Shuningdek, milliy o‘z-o‘zini anglash millatning kelajak istiqbolini ham ko‘ra bilishni talab qiladi. Bu ham kishilarning milliy ongi o‘sishi, tafakkurlash madaniyati darajasi bilan uzviy bog‘liq. Ma’rifatli, yuksak madaniyatli inson bugungi kun ehtiyojlarini qondirish uchungina yashamaydi, u albatta ertangi kunni ham o‘ylab yashaydi. Kelajakni ko‘ra bilish, g‘ururlanish, fahmlash – milliy o‘z-o‘zini anglashning zaruriy qismini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, har qanday davlatning kelajagi ma’naviy barkamol yoshlar qo‘lida bo‘lganligi bois himoyalanish chorasini ham avvalo yosh avlod ongini milliylik ruhida tarbiyalashdan boshlash zarur. Milliy qadryatlarimizni yoshlarimiz ongiga singdirish orqaliy ularda ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Bizning milliy qadryatlarimiz urf-odat, an’analar va marosim ustunlariga qurilgan bino kabidir. Umumbashariy ma’naviyat hamisha milliy ma’naviyatimiz negizida shakllanib, har safar milliy ma’naviyatimizdan milliy qadryatlarimiz oziqlanib borajak.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 257.
2. Yusupov E. Milliy g‘oya va mafkura: mohiyati, ijtiomiy-tarixiy ildizlari, ahamiyati. –Shimkent, 2001. – B 37.
3. Soifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. -Toshkent: Sharq, 2001;
4. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi favlsafiy tizimning yaratilishi. -Toshkent: Sharq, 2000; Ma’naviyat falsafasi. 2-kitob. – Toshkent, 2006; Ma’naviy tarbiya. -Toshkent.: Akademiya, 2006;
5. Umarov B., Jabbarov Sh. Globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiya muammolari. -Toshkent.: Akademiya, 2011;
6. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 346 b.

7. Azizxo‘jaev A. Milliy istiqlol g‘oyasi va targ‘ibot texnologiyasi. / Jamiyat va boshqaruv, –Toshkent, 2000, №3, 20-b.
8. Ergashev I., N.Berdaliev, M.Davletova, G‘.Mahammadjanov, O.Bo‘tayorov. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari. – Toshkent, 2008. – B 19.
9. Bozorov O. Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi. –Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – B.14-15.
10. Yaxshilikov J., Muhammadiev N. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2018. – 555 b.
11. Глебов Г., Милаева О. Современные международные отношения. Учебное пособие. —Пенза: Изд. Пенз. гос. ун-та, 2010. – С 17.
12. Решетников М. Глобализация - самый общий взгляд. Часть 1. –Спб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 2002. – 76 с.
13. Крючкова С. Инновации: философско-методологический анализ. – М., 2000. – С 32.
14. Зинов А. Глобализация. М.: Наука, 2011. С. 64.
15. Паршев А.Г. Глобализация и нация. М.: Развития, 2007. С. 121.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 582.915

Ermat TILAYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n
Pedagogika fakulteti dekani
E-mail:etilayev74@mail.ru

Siyos.f.f.d., PhD Sh.Otaqulov taqrizi asosida

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLARDA OZOD SHAXS KO‘NIKMALARINI TARBIYALASH

Annotatsiya

Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida kishilar ongiga ko‘rsatilayotgan turli axboriy ta’sirlar, yoshlarni har xil destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, yoshlar tarbiyasi borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar xususida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, mafkuraviy bo‘shliq, murakkab geosiyosat, g‘oyaviy-mafkura.

ВОСПИТАНИЕ СВОБОДНЫХ ЛИЧНОСТНЫХ НАВЫКОВ У МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются различные информационные воздействия на сознание людей в современных условиях глобализации, защита молодежи от влияния различных деструктивных идей, задачи, которые необходимо решать в воспитании молодежи.
Ключевые слова: глобализация, средства массовой информации, личность, образование, воспитание, духовность, идеологический разрыв, комплексная геополитика, идейно-идеология.

EDUCATION OF FREE PERSONAL SKILLS IN YOUTH IN THE GLOBALIZATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Annotation

The article discusses the various information huge impact on the thoughts of people in the current globalization, the protection of young people from the influence of various destructive ideas, the tasks that need to live faithfully to their long traditional values, understand, acknowledge and respect this phenomenon.
Keywords: globalization, mass media, personality, education, upbringing, spirituality, ideological gap, complex geopolitics, ideological-ideology.

Kirish. Yangi ming yillikka kelib insoniyat erishgan ilm-fan va texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy hayotning qator sohalarida zamonaviy texnologiyalar jamiyat a’zolari turmushini keng mahsulotlar bilan ta’minlashga va xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Shuningdek, axborot yaratish va tarqatish sohasida ham mislsiz yutuqlarga erishildi.

Uzoq yillik hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixi, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda ta’sirchan quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani sir emas. Qolaversa insonning axborotga bo‘lgan ehtiyoji har qachongidan yuqori sur’atlar bilan o‘smoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi.

Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti”[1].

Demak, hozirgi yoshlarni qanday axborot bilan ta’minlashda, ular nima yaxshi yoki nima yomon ekanligini ajrata bilsin ya’ni, axborotni tanlash va undan unumli, to‘g‘ri foydalanish, axborot olish, axborot bilan ishlash madaniyatini shakllanitirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda yoshlarning internetdan to‘g‘ri foydalana olish madaniyatini tarbiyalashga erishmog‘imiz lozim. Mamlakatimizda Internet xalqaro axborot tarmog‘ini zarur milliy ma’lumotlar bilan to‘ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Agar biz yoshlarda internetdan axborot olish madaniyatini shakllantirsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo‘lamiz.

Hududimizda jamoa, mahalla bo‘lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik o‘zgarmasin, tarix sinovidan o‘tgan o‘z qadriyatlariga sodiq bo‘lib yashashni ma’qul ko‘radi. Bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ushbu tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba’zi siyosiy kuchlar va markazlar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma’naviyat bobida ham bizga aql o‘rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo‘lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda. Bunday kuchlarning g‘arazli munosabati, uning tagida yotgan manfaatlari, bu manfaatlarni amalga oshirish uchun turli usul

va vositalar bilan zo‘r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi. Bu masala xususida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: «Nega deganda, insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi»[2]. Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyundagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” gi Qarorida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar yechimi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[3].

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikr ustuvorlik qilayotgan hozirgi dunyoda insonning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan g‘oyaviy va informatsion xurujlar quyidagicha namoyon bo‘lmoqda: demokratiya, demokratik qadriyatlar eksporti; xalifalikni qayta tiklashga urinishlar; axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib qilish; “ommaviy madaniyat” hodisasi; kosmopolitizm; axloqiy degradatsiya va shu kabilar.

Axborot tahdidlari xususida gap ketganda uning universalligi, barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta’sir qilish imkoniyatini ta’kidlash lozim. Salbiy jihatlar natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg‘itish va oxir-oqibatda har bir mamlakatning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo‘lgan ta’sirlarda ifodalanadi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma’lumotni o‘zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o‘zida esa mustahkam iroda, axborot iste’moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish qobiliyati rivojlangan bo‘lishi zarur. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin.

Axboriy tahdidlarning eng xavflisi – ma’naviy-ma’rifiy sohadagi davlat siyosatini ta’minlashga xalaqit berayotganlaridir. Chunki agar shaxsga salbiy ta’sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo‘yadi. Bu juda katta va jiddiy muammodir.

Axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra, axborot tahdidlariga qarshi kurashning eng maqbul yo‘llaridan biri mamlakat o‘z aholisini zarur axborot bilan ta’minlashi hisoblanadi. Albatta, bunday axborot to‘liq, sifatli va haqqoniy bo‘lishi shart, aks holda jamiyat a’zolari boshqa manbalarga murojaat etadilar. Chunki inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqea bo‘yicha uch-to‘rt soat ichida ma’lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo‘lgan axborot bo‘shlig‘ini har xil uydirma va mish-mishlar to‘ldiradi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalardagi ijobiy o‘zgarishlar, demokratlashuv jarayonlari shaxsga o‘z yo‘lini o‘zi tanlashi, belgilashi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shunday sharoitda ommaviy axborot vositalari oldiga juda katta strategik masalalarni hal etishga ko‘maklashish vazifasi qo‘yilgandir. Zero, OAVning ijtimoiy ongni maqsadga muvofiq shakllantirish, aholining stereotiplari hamda ustanovkalarini tarkib toptirish borasidagi imkoniyatlari juda kengdir.

Harakatlar strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari bevosita jamiyat ma’naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu negizlar umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlikdan iborat. Mazkur ma’naviy-axloqiy negizlar zamirida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga, fuqarolarimizning ma’naviyatini shakllantirishga erishish yotadi.

Darhaqiqat, inson bolaligidanoq jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun o‘zining jamiyat bilan munosabatiga oydinlik kiritib olishi, jamiyat qonuniyatlarini anglashi, undagi o‘zgarishlar va yangiliklardan o‘z vaqtida boxabar bo‘lib turishi lozim. Demak, bunda shubhasiz OAVning o‘rni beqiyos. OAV shaxs tafakkuri, estetik didini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir etuvchi vosita ekanligi va bunda matbuotning o‘rni va rolini o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri ekanligi ayon bo‘ladi.

OAVlar bugungi kunda erkin fikr maydoniga aylanib bormoqda. Matbuot mustaqillik g‘oyasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishda beqiyos xizmat qilmoqda. O‘lmas madaniy merosimiz, milliy istiqlol mafkurasi bunyodkor xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlarini targ‘ib qilmoqda. Zero, bugungi kunda matbuot insonning o‘zini-o‘zi, kimligini idrok etishga, hayotning ma’no-mohiyati nimadan iborat ekanligini teran tushunishga, yoshlarni ma’naviy tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy gazeta-jurnallar, televideniye va radio faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ayrim tele va radiokanallardagi reklamalar, bukletlar, turli xorij matbuot nashrlaridagi maqolalar – bularning hammasi axboriy manipulyatsiya ta’siriga tushmaslik maqsadida shakllantiriladigan ko‘nikmalarni tarkib toptirishda asosiy manba, «ko‘rgazmali qurol» bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga turli OAVlarning kishi ongiga ta’siri masalasidan tashqari, turli destruktiv guruhlar, kult va sektalarning shaxs, davlat, jamiyat xavfsizligiga ko‘rsatayotgan tahdidi ko‘lami ham hozirgi vaqtda oshib bormoqda. Bunday guruhlarga a’zolarni jalb qilish va ongni nazorat qilish modeli, guruhiy bosim ko‘rsatish usullari va «aqlni peshlash» vositalari to‘g‘risida nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilar ham yetarli ma’lumotga ega emaslar. Shu tariqa, kishi ongiga destruktiv ta’sir ko‘rsatilish ehtimoli xavfi yuqori darajada qolmoqda. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vositalar orqali berib boriladigan axborotlar yoshlarning psixologik qaramlik sirtmog‘iga tushib qolish xavfini imkon qadar pasaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Albatta, bu borada mamlakatimizda talaygina ishlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyundagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160-sonli qarorining qabul qilinganligi, 2017 yil 18 iyundagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorining qabul qilinishi yoshlar siyosatining O‘zbekistonda kun tartibidagi asosiy masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Biroq shu bilan birga yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan destruktiv g‘oyalarga qarshi kurashish, bu boradagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ilmiy asoslangan yaxlit ijtimoiy-psixologik, pedagogik, ijtimoiy-madaniy tizimni yaratish zaruriyati yuzaga kelganligini ham ta’kidlash joiz.

Bugungi globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma’naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma’naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo‘l topishni har tomonlama puxta o‘ylagan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Yoshlar tarbiyasida ma’naviy xavfsizlik masalasi haqida gapirganimizda shuni aytish joizki, tadqiqot mavzusining muhim qirralaridan biri bo‘lmish milliy ma’naviy xavfsizlik omillari roli masalasini tadqiq etish muammosi yanada dolzarblashib boraveradi. Yoshlarimizda intellektual salohiyatni yuksaltirish, ulardagi milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirish masalalariga alohida to‘xtalish zarur bo‘ladi.

Birinchidan, yoshlarga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, sodir bo‘layotgan mafkuraviy tahdidlar va undan ko‘zlangan maqsadlarning asl mohiyatini yoritib berishga erishish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarga mustaqillik har doim xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib kelganligi, turli zamonlarda unga qanday erishilganligini milliy davlatchiligimiz tarixidan yorqin misollar bilan tushuntirish orqali ularning mustaqilligimizning fidolari bo‘lib tarbiyalanishlariga erishish zarur.

Uchinchidan, tarbiya masalasida yurt tinchligi, uning farovonligi, ozodligi uchun jonini ham fido etgan milliy qahramonlarimiz hayotidan namunalar keltirish orqali yoshlardagi vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash borish talab etiladi.

To‘rtinchidan, yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, ularda milliy o‘zlikni anglashning yuksak darajada bo‘lishiga erishish.

Beshinchidan, o‘rta maxsus ta’lim tizimida internet bilan ishlash madaniyatini yo‘lga qo‘yishga doir o‘quv kursini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu kurs davomida yoshlarimizda internet bilan ishlashga doir amaliy ko‘nikmalar shakllangan bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU ,2017. -484 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. –11-b.
3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyundagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3180-sonli qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent:“O‘zbekiston”NMIU,2017.-484 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 yil.
8. Jumaniyozov X. Globallashuv asoslari. Monografiya. – T.: 2015.
9. Qodirov B., Jumaniyozov X., Qodirov B. Globallashuv sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash masalalari. – T., 2015.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 372.881

Nigora TURAYEVA,
The Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Reviewer: Dilnavoz Xoliqova , Candidate of Philological sciences, PhD

IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING MEDIA CONTENT TECHNOLOGY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract

This article deals with the issues based on increasing the efficiency of using media content technology in foreign language teaching in higher military educational institutions. It is known that the process of using these technologies is also related to the important role of the cadets of the military educational institution in their future professional activities. Trainees understand the importance of foreign language acquisition at a high level in terms of future employment and career growth and, of course, face certain difficulties in this process. For example, students report difficulties with English pronunciation and understanding English speech when listening and watching video and audio materials. The use of innovative technologies in solving this problem is one of the main solutions, which allow to increase the quantity and quality of the authentic language material studied in the lesson and to effectively organize the independent work of students.

Keywords: media content technology, cadets, perception of English speech, higher military educational institutions.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАКОНТЕНТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы повышения эффективности использования технологии медиаконтента в обучении иностранным языкам в высших военных учебных заведениях. Известно, что процесс использования этих технологий также связан с важной ролью курсантов военного учебного заведения в их будущей профессиональной деятельности. Обучающиеся понимают важность владения иностранным языком на высоком уровне с точки зрения будущего трудоустройства и карьерного роста и, конечно же, сталкиваются с определенными трудностями в этом процессе. Например, студенты отмечают трудности с английским произношением и пониманием английской речи при прослушивании и просмотре видео- и аудиоматериалов. Использование инновационных технологий в решении данной проблемы является одним из основных решений, позволяющих увеличить количество и качество изучаемого на уроке аутентичного языкового материала и эффективно организовать самостоятельную работу учащихся.

Ключевые слова: технология медиа контента, курсанты, восприятие английской речи, высшие военные учебные заведения.

OLIY HARBIY TALIM MUASSASALARIDA CHET TILNI O‘QITISHDA MEDIAKONTENT TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy harbiy talim muassasalarida chet tilni o’qitishda mediakontent texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari bayon qilingan. Ma’lumki, ushbu texnologiyalardan foydalanish jarayoni kursantlarning kelgusi kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutishi bilan ham bog‘liqdir. Kursantlar chet tilini yuqori darajada egallash natijasida kelgusi ish joyi va martaba o'sishi nuqtai nazaridan muhimligini tushunishadi va albatta, bu jarayonda ma’lum bir qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, talabalar video va audio materiallarni tinglash va tomosha qilishda ingliz tilidagi talaffuzni va ingliz tilidagi nutqni idrok etish bilan bog'liq qiyinchiliklarni qayd etadilar. Bu masalani hal etishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosiy yechimlardan biri bo‘lib, ular darsda o‘rganilayotgan autentik til materialining miqdori va sifatini oshirish hamda talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: mediakontent texnologiyasi, kursantlar, ingliz tilidagi nutqini idrok etish, oliy harbiy talim muassasalari.

Introduction. Teaching a foreign language has been and remains an integral part of the process of forming a specialist with a higher education. Proficiency in at least one foreign language as a means of communication in socially conditioned areas of everyday life and professional activity is a mandatory component of the professional training of a modern specialist of any profile. Education at a higher education should provide for this a solid foundation of basic knowledge, skills and abilities in a foreign language speech-thinking, communicative activity and teach techniques and methods of independent work with a foreign language after graduation.

In the context of the constant growth of educational information, an increase in the number of disciplines studied at a military university with stable terms of training of specialists, it becomes necessary to resolve the existing contradiction between the required qualities of the language competence of future officers.

Practical knowledge of foreign languages is becoming in our time not just a sign of good education, but a vital necessity. The expansion of international contacts in all fields of activity, freer access to scientific, technical, political, economic and other information than before, the widespread introduction of information technologies require practical knowledge of at least one foreign language. Hence the relevance of the problem of increasing the effectiveness of mass teaching of foreign languages at higher military educational institutions, as a basic level, on the basis of which it is possible to further improve the knowledge of a foreign language.

Teaching foreign languages with the educational and developmental goals of learning also has a practical goal - teaching cadets various types of speech activity in a foreign

language, acquiring skills for self-replenishment of knowledge. In traditional practice, the achievement of these goals is hampered by a number of factors, including:

- lack of conditions for differentiation and individualization of education;

- insufficient activity of students in the classroom; - lack of effective management of educational and cognitive activities, that is, operational feedback:

- Decreased motivation for learning among students already in the second year of study. Among the reasons influencing low motivation and effectiveness of training, a significant role is played by:

- lack of conditions for the practical application of the knowledge gained in the lessons;

- isolation of subject courses, weak interdisciplinary connections.

In the methodology, these problems, of course, have always been recognized and attempts have been repeatedly made to solve them by developing methods, teaching aids, various organizational forms of training, including by organizing the educational process in a language laboratory based on the integrated use of teaching aids. However, in all cases, the problem of creating a language environment and, on its basis, the formation of the need to communicate in a foreign language and the need to learn a foreign language remained relevant.

The development of a methodology for using media content technology in foreign language teaching in higher military educational institutions will allow solving a set of problems that are difficult, and sometimes impossible, to overcome in the context of traditional education. The media content technology allows us to create a real language environment, bringing together learners from around the world in joint work on projects, in joint discussions within the framework of media conferences. Participation in joint projects, discussions of native speakers makes the process of communication itself especially valuable for those who study this language as a foreign one. In addition, according to Judith Harris, the use of media content technology in teaching a foreign language allows solving a number of tasks, they allow:

- significantly intensify the process of reading and writing, significantly expand the active and passive dictionaries of students, significantly increase the motivational aspect of learning languages (including native), since each participant in communication has a completely interested audience;

- increase the activity of both teachers and students in the course of joint problem solving using collective methods of work at the interethnic and intercultural levels;

- understand the difference and similarity of the cultural traditions of different peoples, significantly expand their horizons;

- to realize the problems and opportunities of IT in modern society and, possibly, to push students to constructive criticism, which will ensure the development of critical thinking;

- to feel like researchers, reporters, publishers and co-authors, etc.; which will require the acquisition of some specific skills: creating secondary texts (abstracts, annotations); express your thoughts concisely and clearly; work with computer programs such as "Editor");

- have open access to the world's computer networks, that is, to information databanks.

The practice of teaching a foreign language in higher educational institutions shows that mastering a foreign language in a military university is compared with a civilian university in specific conditions, which affects the quality and efficiency of the educational process. The peculiarity of the training of military personnel (combining their training with the performance of official duties) determines the strict regulation of training time and the educational process itself. One of the weak aspects of professional linguistic training of a graduate of a military university is his lexical skill. With the existing contradiction between the qualification requirements for the training of specialists (knowledge of about 5000 lexical units) and the study time allotted for these purposes, the formation of the lexical skill of students is carried out inefficiently. Testing of graduate cadets revealed that most of the vocabulary encountered in textbooks and studied by them in junior years, due to its low frequency and thematic value, is forgotten. There is also a problem between the ratio of the volumes of formation of the active and passive lexical vocabulary of the student. To expand the professionally oriented vocabulary of a graduate of a military university, the emphasis should be shifted towards a passive (receptive) dictionary, the words of which the graduate must understand when reading and listening to foreign speech.

The task of forming professional competencies (including professional linguistics) among military specialists in a short time without losing the quality of training involves the search for new ways to organize the educational process, the wider use of technical training aids, and the development of new educational technologies for the profile of training. We agree with the point of view of P.B. Lisov that one of the important directions for the successful implementation of linguistic professional training of cadets of military universities are: a rapid increase in the level of basic training of first-year cadets in foreign languages, the development of effective methods for highlighting the minimum content of educational material, necessary and sufficient for the formation of linguoprofessional competencies, the development of training technology based on their formation, increasing the efficiency of organizing independent work of cadets. In our opinion, one of the most promising areas in solving the problem of successful linguoprofessional training of cadets in military universities is the specification of the content of training, followed by the development of new educational technologies that involve the optimization of the educational process as a specific psychological and pedagogical concept of learning focused on the result.

The system of criteria and indicators of the effectiveness of teaching cadets a foreign language based on the optimization of the lexical component, which includes: motivational and personal, based on the desire of students to acquire the necessary knowledge, skills and abilities and characterized by the degree of their involvement and activity in the process of learning the language, the level of knowledge; individual abilities, reflecting the presence of natural or acquired abilities of the student to learn a foreign language: phonemic hearing, auditory, visual, mixed type of memory, intonation abilities, abilities to perform verbal and mental actions; resultative-activity, evaluating the assimilation of the system of knowledge by students (regional and linguistic regional studies) and their mastery of certain skills (listening, monologue and dialogic speech, oral and written translation) and skills (phonetic, grammatical, lexical).

The Internet provides a large number of relevant authentic materials, thereby allowing students to immerse themselves in a foreign language environment, observe culturally specific realities and hear samples of modern foreign speech, which significantly contributes to the development of speech skills and professionally significant competencies [2].

According to N. N. Sergeeva, the determining factors in the selection of authentic materials, in particular media and video materials, in order to develop the professional competencies of students are the informative and content side of the materials and the purpose of their use in the educational process. In turn, it is the goal that determines the choice of one or another vice, type of materials [7].

A. M. Ivanova, E. V. Malygina note that the use of Internet media content when teaching English as a second foreign language contributes to the imitation of "immersion" in a foreign language environment and allows solving a number of problems that a teacher faces, such as a limited number of hours allotted for second language, interlingual interference and lack of motivation among students [8].

The analysis of foreign sources showed that authentic media content is widely used for educational purposes all over the world due to its accessibility, modern and relevant topics.

M. Malinder's opinion is fair that, on the one hand, the variety of Internet content makes it possible to find material on the desired topic in accordance with the aspect taught: general language, business English, language for special purposes; on the other hand, the teacher faces the issue of criteria for selecting media resources, adapting and developing educational materials [9].

Despite the difficulties that arise, according to L. Rubenstein, the resources of the Internet allow organizing the educational process effectively and methodically correctly, meeting the current level of development of society as a whole. An important issue is the motivation of students. The researcher emphasizes that media resources are able to motivate students and engage them in learning new topics, awakening enthusiasm for continuous learning, quenching the thirst for knowledge, personal growth, and the desire for new experience [10].

National Geographic Learning, together with the open educational resource TED Talks, has developed a four-level course called XXI Century Reading. Each textbook consists of three sections: reading an article about one of today's major issues, watching an authentic TED talk relevant to the topic, and doing a research project. The authors of the course, D. Williams and L. Blass, believe that TED Talks materials, being speeches by experts in various fields, are models of genuine English and contribute to the development of the ability to perceive (listen) professional speech, as well as form information literacy, critical and creative thinking [7].

Recordings of the speeches are available for online viewing and downloading. All performances are in English and are accompanied by subtitles translated into 40 languages. Also, for each speech, an interactive transcript (full text of the recording) with timing is available, which makes it possible to visualize what was heard. The transcript highlights the words spoken by the speaker. Thus, you can follow the performance and not lose the thread of the story. Speeches are accompanied by links and comments. TED Talks is up-to-date content, authenticity and relevance of topics. Speakers share their own experience, talk about important issues of our time, draw conclusions, talk to the audience, each speech is accompanied by a presentation.

Problem situations, an emphasis on visualization, linguistic and non-linguistic visualizations accompanying performances stimulate students' foreign language statements and memorization of linguistic and speech material.

The overall high assessment by students of classes using TED resources indicates their motivation to learn a foreign language with a view to further application in their professional activities; also, students note the relevance of topics, the intensity of the mode of operation, the possibility of immediate application of the studied material.

Conclusion. Professionally oriented foreign language teaching, an important component of which in the modern world is the use of media content, reveals the interdisciplinary potential of a foreign language that can integrate knowledge gained as a result of mastering professional disciplines. At the present stage, in the conditions of academic and professional mobility, new requirements are imposed on the results of teaching a foreign language. Language teachers are faced with the task not only to form skills and abilities in various types of speech activity, but to turn a foreign language into a means for further professional growth of a graduate. The traditional set "textbook + workbook" is not enough for mastering a foreign language to meet all the necessary requirements. It is impossible to ignore the opportunities that various Internet resources open up for a language teacher.

Using the TED Talks resource in English classes is effective and allows you to create integral fragments of cultural and professional activities. Properly selected material for TED talks and a well-organized lesson help to immerse students in communication situations similar to natural ones, activate lexical and grammatical material, stimulate thought processes, and help overcome the language barrier that often arises in a situation of real communication in a foreign language.

This will contribute to the implementation of an integrative approach, which at the present stage is one of the important requirements for the organization of the educational process.

REFERENCES

1. Obraztsov P.I., Akhulkova A.I., Chernichenko O.F. Design and construction of professionally oriented learning technology. 2005
2. Galskova N. D. Modern methods of teaching a foreign language: a guide for a teacher. - M.: 2000. - 165 p.
3. Obraztsov P. I., Ivanova O. Yu. Vocational-oriented teaching of a foreign language at non-linguistic faculties of universities. 2005.
4. Shaimova G. A., Shavkieva D. Sh. Vocational-oriented teaching of the English language in non-linguistic universities // Young scientist. - 2013. - No. 11. - P. 692-694.
5. Verbitsky A. A. Active learning in higher education: a contextual approach. - M., 1991. - 207 p.
6. Ciornei S., Dina A. T. Authentic texts in teaching English. 2015. -Vol. 180. - P. 274-279.
7. Sergeeva N. N. Authentic video materials as a means of developing the socio-cultural competence of students of economic specialties. 2011. - No. 1.
8. Ivanova A. M., Malygina E. V. Possibilities of using modern media content ted talks in teaching English as a second foreign language. 2017.
9. Mallinder M. Teaching English using TED talks // EFL Magazine.
10. Rubenstein L. Using TED talks to inspire thoughtful practice. 2012. - Vol. 47. -Issue 4.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Akrom TURAXANOV,
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

pedagogika fanlar nomzodi, dotsent A.Akbarov taqrizi asosida

OLIY O‘QUV YURTLARIDAGI HARBIY TA’LIM FAKULTETI KURSANTLARIDA JISMONIY-TAKTIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi kadrlarini tayyorlash, ularning bilim va malakalarini oshirishda va professional kasbiy faoliyaftga tayyorlashda akmeologik yondashuvning samaradorligi va uning ahamiyatli jihatlari tadqiq qilinadi. Shu bilan birga akmeologik yondashuvning pedagogika fanlari doirasidagi vazifasi, kadrlarni tayyorlashdagi metodikasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, talaba, kursant, metodika, mashg‘ulot, harbiy ta’lim, konsepsiya, jangovarlik ruhiyati, ko‘nikma, jismoniy-taktik tayyorgarlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИКО-ТАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У студентов (КУРСАНТОВ) ФАКУЛЬТЕТА ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В данной статье исследуется эффективность и значимость акмеологического подхода в подготовке кадров допризывного военного обучения, повышении их знаний и квалификации, подготовке к профессиональной деятельности. При этом анализируется задача акмеологического подхода в рамках педагогической науки, его методика в подготовке кадров.

Ключевые слова: инновация, студент, курсант, методология, обучение, военная подготовка, концепция, боевой дух, навыки, физическо-тактическая подготовка.

PEDAGOGICAL CONDITIONS AND THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL AND TACTICAL SKILLS IN CADETS OF THE FACULTY OF MILITARY EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract

This article examines the effectiveness and significance of the acmeological approach in the training of pre-conscription military training, improving their knowledge and qualifications, preparing for professional activity. At the same time, the task of the acmeological approach in the framework of pedagogical science, its methodology in personnel training is analyzed.

Keywords: innovation, student, cadet, methodology, training, military education, concept, martial spirit, skills, physical and tactical training.

Kirish. Jahonda harbiy ta’lim tizimini isloh qilish, unga innovatsion yondashuvlarni olib kirish bilan birga talaba-kursantlarni tayyorlashning modernizatsion metodikasini ishlab chiqish, ularning jangovarlik ruhitini oshirish, jismoniy irodasini mustahkamlash va taktik tayyorgarligini rivojlantirishga doir harbiy-pedagogik mashg‘ulotlarni isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda talaba-kursantlarda jangovar ruhni oshirish, jismoniy tarbiyaga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari, taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga doir konsepsiyalar qabul qilingan. Shu bilan birga chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimini isloh qilish orqali yoshlarni harbiy hizmatga tayyorlash, ulardagi Vatan oldidagi hizmatlariga doir mas’uliyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan jamoatchilik ishlari, ijtimoiy harakatlar va pedagogik ilmiy tadqiqotlar ham rag‘batlantirilmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro institutlarida yoshlarda va kursant-talabalarda jangovarlik ruhiyati, jismoniy imkoniyatlari, taktik tayyorgarligi va harbiy bilimi rivojlantirish, shu bilan birga fidoyi, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirishga doir ko‘plab loyihalar, dasturlar va fundamental ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu orqali harbiy hizmatchilarda jismoniy-taktik tayyorgarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari va ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishga keng yo‘l ochmoqda. Shu bois, rivojlangan mamlakatlarda harbiy ta’limni zamonaviylashtirish, kursant-talabalarda zamon ruhiyatiga xos ko‘nikmalarni, harbiy-taktik tayyorgarligini oshirish, jismoniy tayyorgarligi va irodasini chiniqtirish, xalqaro harbiy munosabatlarga oid teran tafakkurini shakllantirish masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham harbiy soha va harbiy ta’lim tizimini isloh qilish, uni rivojlantirish, harbiy hizmatchilar va kursant-talabalarda jismoniy-taktik ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir ko‘plab tashkiliy, huquqiy va ilmiy-pedagogik islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, “mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari qatorida, harbiy sohaning eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli va strategik chora-tadbirlarni” belgilanishi, tizimli ravishda harbiy sohani isloh qilish amalga oshirirlyotgani, bu borada “Yangi Mudofaa doktrinasi”ni qabul qilinishini alohida ta’kidlash lozim. Shu bilan birga harbiy ta’lim tizimida o‘qitishning yangicha standartlari, samarali mexanizmlari ishlab chiqilmoqda, harbiy-sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda va bu borada texnik hamda texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. Shuningdek, harbiy soha hizmatchilari uchun “Mustaqillik”, “Amir Temur”, “Jaloliddin Manguberdi” ordenlari, “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun”, “Mardlik” medallari ta’sis etilganligi va taraqqiyot strategiyasida havfsizlik masalalariga ustuvorlik berilayotgani ham harbiy hizmatchilarda jismoniy-taktik ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi 406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 30-avgustdagi 105-1-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi” to‘g‘risidagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 12-dekabrdagi PQ-436-II-sonli “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlardabelgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Akmeologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida jismoniy-taktik tayyorgarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishdan iborat bo‘lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipotiza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida jismoniy-taktik faoliyatga doir sifatlarining axloqiy, psixologik va pedagogik mohiyatiga doir konseptual qarashlar asosida jangovar-taktik ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi va aksincha uni yemiruvchi omil va yondashuvlarni asoslash;

- akmeologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimi uchun «jismoniy-taktik faol talaba» fenomeni hamda axloqiy idealni shakllantirishning pedagogik, etnopedagogik va aksiologik xususiyatlarini tizimli-funksional tamoyil asosida ochib berish;

- akmeologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida jismoniy-taktik tayyorgarlik va jangovarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimining integrallashgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy-izlanishli va novatorlik bosqichlari mazmuni, samaradorligini baholashning prognostik va kvalimetrik metodikasini asoslash;

- chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida jismoniy-taktik ko‘nikmalarni rivojlantirishda akmeologik yondashuv asosida jismoniy-taktik tayyorgarlikning emotsionallik, faoliyatlilik, intellektuallik mezonlari va darajalari hamda uni rivojlantirishning ishontirish, namunaviylik, maqsadlilik, rag‘batlantirish metodlarining ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish.

Bu vazifalarni xal etish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, nazariy va qiyosiy tahlil, ijtimoiy so‘rov (anketa, suhbat, intervyu, tashxis), pedagogik kuzatish, modellashtirish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik statistik qayta ishlash.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda belgilangan vazifalar Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar davomida hal etildi. Respondentlar sifatida Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi 1, 2 va 3 bosqich 123 nafar talabalari tanlab olindi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhidagi talabalarga “Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari» fanini bo‘yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Tadqiqot ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarning “Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari” fani asoslari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarining maxsus metodika yordamida boyiganligini obektiv baholash maqsadida jadval ko‘rsatkichlari matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Styudent-Fisher kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obektiv baholash uchun ta’kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko‘rsatkichlarini matematik-statistik metod bo‘yicha tahlil etish to‘g‘ri deb topildi. Styudent-Fisher kriteriyasi g‘oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun respondent-talabalarning davrida qayd etilgan boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka ko‘rsatkichlari qabul qilindi.

Respondent-talabalarning «Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari» fani bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlari darajasi(asoslovchi tajriba)

Guruhlar	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar darajasi		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba	380	87	145	148
Nazorat	380	92	143	145

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasidan foydalanishda chaqiriqqacha harbiy ta’lim talaba (kursant)larda akmeologik yondashuv asosida jismoniy-taktik tayyorgarlik bo‘yicha harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishganligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari tajribada qo‘llanilgan mashqlar to‘plamining samaradorligini tasdiqladi. Pedagogik ta’sir tajriba guruhida ko‘rsatkichlarning samarali o‘sishini ta’minladi. Bu fakt chaqiriqqacha harbiy ta’lim talaba (kursant)larda akmeologik yondashuv asosida jismoniy-taktik tayyorgarlik bo‘yicha harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish samaradorligini oshirishi haqidagi gipotizani tasdiqladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2018. -B. 6-7.
2. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2020-yil 23-sentabr. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-son)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 27-son, 607-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi» to‘g‘risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qarori. 2002-yil 12-dekabr.
6. Шишов А. В., 100 великих военачальников. — М.: Вече, 2013. –С. 432.
7. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy merosning o‘rni / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2015 yil, 28 aprel.
8. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy

konferensiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2016 yil 20 avgust. –B. 232.
9. Atamurodov S., Jamiyatni yangilash jarayonida milliy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash (ijtimoiy falsafiy aspekt). Fals. fan. dok. diss. Avtoreferati -Toshkent, 1992.
10. Axrorov S.Y., Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo‘lishining ijtimoiy xususiyatlari: Dis. sots.fan.nom. Toshkent, 2009.
11. Achildiyev A., Milliy istiqlol g‘oyasi millatlararo munosabatlarni tkomillashtirish omili. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. T, 2005.
12. Волков Е.П., Уклонения от исполнения служебных обязанностей как форма девиантного поведения офицеров: Автореф. дис... канд. социол. наук.. – М.: ВУ, 1998.
13. Kurbanov R.Y., Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni. Avtoref: dis … fals.fan.nom. –Toshkent: 2008.
14. Муминов А.Г., Национальная политика независимого Узбекистана и пути ее реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика). Автореф.дисс...докт.полит.наук. –Т.: 1999.
15. Paxrutdinov Sh., Dunyoviy demokratik davlatchilik qurilishi amaliyotida diniy ekstremizm tahdidi. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2001.
16. Qalqanov E.T., Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan.nom dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2011. –B. 28.
17. Redjaboyev A.D., Yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: ped.fan.nom. dis. avtoref. – Toshkent, 2004.
18. Samadov A.R., Axloqiy idealning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent: 2011. – 10 b.
19. Хужамуратов И.Р., Проблемы формирования национального (эстетического) самосознания узбекского народа и влияния на него ислама. автореф. дис. докт. филос. наук.-Т.: 1994.
20. Qalqanov E.T., Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan.nom dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2011.
21. Usmonov K.,O‘zbek xalqi ma’naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiya. -Toshkent, 2017. –B. 161.
22. Gibb H. A., Studies on the civilization of Islam. Beacon Univ. Press. Boston. 1962. p. 134; Jean- Paul Roux. Ibid. p. 212.
23. Lambton A.K.C., Stat and governiment in medieval Islam. Oxford. 1981. p.p

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 371+355.4(78.15)+035.6

Toxirjon TURGUNBAYEV,
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi

pedagogika fanlar nomzodi, dotsent A.Akbarov taqrizi asosida

HARBIY TA’LIMDA MILLIY IDENTIKLIK TARBIYASI ASOSIDA TALABALARDA (KURSANTLARDA) VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISH TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda kechayotgan dunyoning globallashuvi jarayonlari ijtimoiy fanlarlarda «identiklik» masalasiga berilayotgan o‘ziga xos yondashuvlarni atrof-muhitda ro‘y berayotgan sotsiomadaniy o‘zgarishlar asosida bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: identiklik, ijtimoiy rivojlanish, sotsiomadaniy ehtiyojlar, identifikatsiya, mansublik hissi.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ВОСПИТАНИЯ ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ ВОСПИТАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У СТУДЕНТОВ (КУРСАНТОВ) ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье описываются конкретные подходы к проблеме «идентичности» в социальных науках в происходящих сегодня процессах глобализации мира на основе объяснения научными терминами социокультурных изменений, происходящих в окружающей среде.
Ключевые слова: идентичность, социальное развитие, социокультурные потребности, идентификация, чувство принадлежности.

EDUCATIONAL TECHNOLOGY OF PATRIOTISM EDUCATION BASED ON THE EDUCATION OF NATIONAL IDENTITY AMONG STUDENTS (CADETS) OF PRE-CONSCRIPTION MILITARY TRAINING

Abstract

This article describes specific approaches to the problem of "identity" in the social sciences in the processes of globalization of the world taking place today based on the explanation of socio-cultural changes occurring in the environment in scientific terms.
Keywords: identity, social development, sociocultural needs, identification, sense of belonging.

Kirish. Muayyan millatning jahon hamjamiyatida o‘ziga xos mavqe va o‘ringa ega bo‘lishi uning ko‘p sonli yoki kam sonli bo‘lishiga bog‘liq emas. Aksincha, o‘zida milliy xususiyatlarni namoyon eta olish, millat vakillarining o‘z haq-huquqlarini chuqur anglash, o‘zga millatlarga ham moddiy va ma’naviy jihatdan qaram bo‘lmaslik, mustaqil holda mavjud bo‘lishi uning xalqaro maydondagi maqomini belgilab beradi.

Xalqaro munosabatlar borasida o‘z qarashlarini dadil bildira olish, millat sha’ni va obro‘sini oshirish uchun kurashish, o‘zga millatlarda o‘ziga nisbatan salbiy munosabatlar shakllanishining oldini olishga intilish millat nufuzini yanada oshiradi.

Millatning xalqaro maydondagi mavqeini belgilashda, shuningdek, jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi taraqqiyparvar g‘oyalar, jamiyat hayotining ular negizida yo‘lga qo‘yilishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida jamiyatda milliy istiqlol g‘oyasi asoslarini shakllantirish, yosh avlodni ana shu g‘oya ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi.

Binobarin, bugungi kunda xalqaro munosabatlarning barqarorlashuvida mustaqil davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyaviy qarashlar yetakchi o‘rin tutmoqda. Mafkuraviy g‘oyalar kurashi, mafkuraviy ta’sirlarning tobora keskinlashuvi mustaqil davlatlar taraqqiyotiga ziyon yetkazishining oldini olish, bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanmoqda. “... Mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak? Buning yo‘li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash.

Oliy ta’lim muassasalarining talabalarida milliy mansublik tuyg‘usini shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, talabalarda milliy mansublik tuyg‘usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilishga undaydi. Shuningdek, talabalarda o‘zi yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo‘lishi yo‘lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro inoqlikning qaror topishiga o‘z ulushini qo‘shishga intilish ko‘nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o‘z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta’minlaydi.

Talabalarda milliy mansublik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “rivojlanish”, “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “omil”, “pedagogik ta’sir”, “milliy g‘urur”, “milliy mansublik” va “milliy o‘zlikni anglash” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to‘laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Ko‘plab adabiyotlarda “shakllanish”, “rivojlanish”, “tarbiyalash”, ayrim manbalarda esa “ijtimoiylashuv” tushunchalarining yagona mantiqqa egaligi qayd etiladi. “Shakllantirish” va “rivojlantirish” tushunchalarining o‘zaro bir-birini o‘rnini to‘ldiruvchi tushunchalar ekanligi to‘g‘risidagi qarashlar ham mavjud. Ularga ko‘ra, shakllantirish jarayoni rivojlantirish va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish negizida sodir bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy mansublik tuyg‘usini shakllantirishda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o‘ziga xos ahamiyatga ega. Zero, talabalarning umumiy shakllanishiga ta’sir etgani kabi ularda milliy mansublik tuyg‘usining qaror topishida ijtimoiy ta’sirlar yetakchi o‘rin tutadi. Shu bois yuqorida qayd etilgan omillar sirasida sog‘lom muhitning qaror topganligi talabining alohida ko‘rsatilganligi bejiz emas. Binobarin, talabalar mikro va makromuhitda jamoaning

maqsad va vazifalarini amalga oshirishga, munosabatlarning muhim tomonlariga jalb etiladi; ikkinchidan, unga ma’naviy qadriyatlar yuzasidan puxta bilim olish, ijodiy faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatish, ma’naviy rivojlanish uchun keng imkoniyat yaratiladi; uchinchidan, milliy g‘urur asosida mustaqil hayotga tayyorlanadi, o‘zining tajribasi va ma’naviy faoliyatini takomillashtiradi”.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy mansublik tuyg‘usining shakllanganligini aniqlash uchun bu tushunchaning mohiyatini anglab olish talab etiladi. Shu sababli uning manbalarda yoritish holatini tahlil qilish asosida talabalarda milliy mansublik tuyg‘usining shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonlarni yaratishga urinib ko‘ramiz.

A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo‘rayevlarning fikrlariga ko‘ra “shaxs g‘ururi – bu faxr”, “milliy g‘urur – bu iftixor” bo‘lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma’nolarni anglatsada, bir vaqtning o‘zida bir-biridan ma’lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta’kidlanadi. Bu o‘rinda mualliflar quyidagi fikrni ilgari suradilar: “Milliy mansublik millat o‘zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma’naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o‘rin oladi”. “Milliy mansublik tuyg‘usi – o‘z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Milliy mansublik tuyg‘usi o‘z millatining boy tarixi, madaniy va ma’naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasidan g‘ururlanish imkoniyati. Milliy mansublik tuyg‘usi – o‘zligini anglash va o‘zgalarni tushunishga da’vat etuvchi qudratli kuch»”.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish, uning mazmunini yangilash, o‘quv va tarbiya ishlar samaradorligini oshirishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, G.I.Maxmutovaning tadqiqotioliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarni ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda talabalar ma’naviy shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar, pedagogik turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalar ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatlari, ma’naviy shakllantirish tizimi, mexanizmi, shakl, metod, vositalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Milliy mansublik tuyg‘usi milliy mansublikni chuqur anglash, uni e’zozlashga ma’naviy-ruhiy jihatdan kelib chiqqan ehtiyoj mahsulidir. Milliy mansublik, eng avvalo, o‘zligini anglash, milliy ravnaqni ta’minlash yo‘lidagi xatti-harakat, o‘z millati istiqboli oldida mas’ullikning beqiyos namunasidir. Milliy mansublik tuyg‘usiga ega bo‘lgan har bir kishi o‘z millati o‘tmishini yaxshi bilgan, qadrlay olgan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar, holatlarda boyitib boradigan barkamol shaxsdir. Shu bilan bir qatorda o‘sib kelayotgan yosh avlod boshqa millatlar milliy an’analari, san’ati va madaniyatini hurmat qilish qobiliyati, ularni anglash salohiyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Fitratning fikricha, har bir inson hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun u sog‘lom fikrli va pok axloqli bo‘lmog‘i kerak. Har millat o‘z kelajagini o‘ylar ekan, yoshlarga e’tiborini qaratmog‘i, ularni muntazam jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan chiniqtirmog‘i lozim. Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li bolalarga atab yozgan asarlarida Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, insoniylik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishga e’tibor bergan. Uning fikricha, Vatanni sevish, uning gullab yashashi uchun mehnat qilish va ulg‘ayish zarur. Shu sababli alloma bolalar qalbiga Vatan go‘zalligini singdirib, ularni Vatan oldidagi fuqarolik burchini yuksak darajada bajaradigan kishilar qilib kamol toptirishni, Vatan o‘z farzandlaridan najot kutib turganligini ta’kidlaydi. N.Jo‘rayev o‘zining “Uyg‘oq nigoh” kitobida istiqlol davri muammolari, demokratiyaning ma’naviy-axloqiy mazmuni, hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishini atroflicha tahlil qilgan. Asarda istiqlolning buyuk mohiyati, o‘zlikni anglash - olamni anglash ekanligi, ruhiy-ma’naviy yangilanishlar, iqtisodiy-huquqiy islohotlar haqida fikr bayon etilgan. Muallif milliy mansublik tuyg‘usi, millatning boy tarixi, madaniy-ma’naviy merosi, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasidan g‘ururlanish salohiyati ekanligiga urg‘u beradi va asosiy e’tiborni milliy mansublik tuyg‘usining insonparvarlik mazmuni, inson mohiyati, islom dinining milliy mansublik, milliy g‘urur tuyg‘ularining kuchayishidagi ahamiyatini ko‘rsatib berish va Sharq xalqlarining o‘ziga xos fazilatlarini yoritishga qaratadi. E.Yusupov o‘zining “Inson kamolotining ma’naviy asoslari” nomli asarida ma’naviyat, inson ma’naviyati, uning shakllanish bosqichlari, shaxs ma’naviyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutuvchi omillar, ma’naviyatga erishishning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati, shuningdek, shaxsning psixologik xususiyatlariga tayangan holda uning ma’naviyatini shakllantirish shartlari haqida so‘z yuritadi. Ishning e’tiborli jihati vatanparvarlikning ma’naviyati yuksak insonga xos bo‘lgan fazilat ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Shuningdek, “vatanparvarlik” tushunchasi sharhlanadi. Muallifning fikricha, “vatanparvarlik – o‘z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro‘-e’tibori ham shu millat kishilaridagi vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanganlik darajasi bilan bog‘liqdir”. M.Sharifxo‘jayev “Iftixor” nomli kitobida kelajagi buyuk davlat bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg‘ulari, mustaqillik yillarida respublikada erishilgan yutuqlar to‘g‘risidagi qarashlarini ifodalagan. Muallif respublikadagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik negizini asoslab berar ekan, xalqning ishonchini qozona olgan rahbar shaxsga xos sifatlar, respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni ta’riflab, istiqlol g‘oyasining asosini Vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy mansublik, vatanparvarlik tashkil etishi lozim degan fikrni ilgari suradi. Muallif milliy mansublik haqida to‘xtalib, o‘zbek xalqi tarixini puxta o‘rganish, milliy an’analari va urf-odatlarini tiklash, uni hozirgi zamon yutuqlari bilan boyitish zarurligiga urg‘u beradi. J.Tulenov, K.Yusupov, Z.G‘afurovlarning “Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo‘nalishlari” nomli risolasida milliy mafkuraning mohiyati, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy sohalardagi vazifalari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etganlar. Mualliflar istiqlol mafkurasining shakllanish jarayonini, yangi mafkuraning inson kamolotida tutgan o‘rni, vatanparvarlik bilan uzviyligi xususida fikr bildirganlar. Risolada madaniy-ma’naviy taraqqiyot mafkurasi, milliy ong - milliy madaniyatning tarkibiy qismi, istiqlol mafkurasi xalqimizning milliy g‘ururiga asoslanganligi, uni hayotga tadbiq etish yo‘llari ham ifodalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talaba (kursant)larda vatanparvarlikni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipotiza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

-chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-siyosiy va psixologik-pedagogik omillarning o‘zaro aloqadorligini aniqlash;

-chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini ochib berish;

-chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga oid maxsus ta’lim texnologiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini asoslash;

-chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning bosqichlari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini

yaxlitlikda o‘z ichiga qamrab olgan ta’lim modeli va texnologiyasini ishlab chiqish.

-chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishshning integrallashgan metodik tizimini akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish.

Bu vazifalarni xal etish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, nazariy va qiyosiy tahlil, ijtimoiy so‘rov (anketa, suhbat, intervyu, tashxis), pedagogik kuzatish, modellashtirish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik statistik qayta ishlash.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda belgilangan vazifalar Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar davomida hal etildi. Respondentlar sifatida Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi 1, 2 va 3 bosqich 110 nafar talabalari tanlab olindi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhidagi talabalarga “Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslari” fanini bo‘yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Tadqiqot ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarning “Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslari” fani asoslari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarining maxsus metodika yordamida boyiganligini obektiv baholash maqsadida jadval ko‘rsatkichlari matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Styudent-Fisher kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obektiv baholash uchun ta’kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko‘rsatkichlarini matematik-statistik metod bo‘yicha tahlil etish to‘g‘ri deb topildi. Styudent-Fisher kriteriyasi g‘oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun respondent-talabalarning davrida qayd etilgan boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka ko‘rsatkichlari qabul qilindi.

Tanlanmalarning daraja ko‘rsatkichlari (ta’kidlovchi tajriba)

Guruhlar	Tanlanmalar	Respondentlar soni	Daraja ko‘rsatkichlari		
			Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba guruhi	1-tanlanma X_i	$n_1 = 360$	90	163	107
Nazorat guruhi	2-tanlanma Y_j	$n = 360$	78	145	137

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslari” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasidan foydalanishda chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talaba (kursant)larda vatanparvarlikni rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishganligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari tajribada qo‘llanilgan mashqlar to‘plamining samaradorligini tasdiqladi. Pedagogik ta’sir tajriba guruhida ko‘rsatkichlarning samarali o‘sishini ta’minladi. Bu fakt chaqiriqqacha harbiy ta’limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talaba (kursant)larda vatanparvarlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishi haqidagi gipotizani tasdiqladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017.
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O‘zbekiston, 1997. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi” to‘g‘risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qarori. 2002 yil 12 dekabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4054 sonli Farmoni 2008 yil 20 noyabr.
9. Степаненко О.А. Поиск идентичности как константа немецкой культуры. // Журнал: Вестник Ленинградского гос.унив. им. А.С.Пушкина. 2013. № 7. – С. 80-90
10. Левин К. Теория поля в социалных науках. СПб., 2000. – С. 67-68
11. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq me’rosi nashriyoti, 1993. – B.186.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378.013:17.022.1

Aziza TURGUNOVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD
E-mail: aziza.turgunova.88@mail.ru

P.f.d., professor B.Xodjaev taqrizi asosida

MODERN GERONTOPEOLOGICAL APPROACHES

Abstract

This article is devoted to the role of the older generation in society, social interests, health protection, social activation, protection, as well as the formation of the science of gerontopedagogy, stages of development, the concepts of gerontology, andragogy, geriatrics, gerontopsychology, interdependence, society and the status of old age in families and scientific and methodological directions of development of the system of education of student youth on the basis of modern gerontological pedagogical approaches.

Key words: Older generation, gerontopedagogy, education, upbringing, motives, person, society, andragogy, development, initiative

СОВРЕМЕННЫЕ ГЕРОНТОПЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

Данная статья посвящена роль пожилого поколения в обществе, социальные интересы, охрана здоровья, социальная активизация, защита, а также становление науки геронтопедагогика, этапы развития, концепции геронтологии, андрогогики, гериатрии, геронтопсихологии, взаимозависимости, общество и статус старости в семьях и научно-методические направления развития системы воспитания студентческой молодежи на основе современных геронтопедагогических подходов.

Ключевые слова: Старшее поколение, геронтопедагогика, образование, воспитание, мотивы, человек, общество, андрогогика, развитие, инициатива

ZAMONAVIY GERONTOPEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada keksa avlodning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy qiziqishlari, sog‘lig‘ini saqlash, ijtimoiy faollashtirish, himoya qilish, hamda gerontopedagogika fanining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, gerontologiya, androgogika, geriatriya, gerontopsixologiya tushunchalari, o‘zaro bog‘liqligi, jamiyat va oilalarda keksalikning maqomi hamda zamonaviy gerontopedagogik yondashuvlar asosida talabalarda tarbiya tizimini rivojlantirishning ilmiy-metodologik yo‘nalishlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Keksa avlod, gerontopedagogika, ta’lim, tarbiya, motivlar, inson, jamiyat, androgogika, taraqqiyot, tashabbuskorlik

Kirish. Jahonda yuz berayotgan o‘zgarishlar, shiddat bilan taraqqiylashib borayotgan zamon, globallashuv jarayonining jadallashishi tahdidlarning ta’sir darajalarini ham o‘zgartirib borayotganligi ijtimoiy-pedagogik tizimni takomillashtirish va tarbiya jarayonida katta avlod tajribasidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etmoqda. Dunyoda keksa avlod vakillarini turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy himoya qilish, sog‘liqni saqlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, o‘qitishga oid tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. BMT tadqiqotlariga ko‘ra umrguzaronlikning oshishi natijasida 2050-yilga kelib 100 yoshga yetganlar soni kamida 2,2 million kishini tashkil etadi. Tug‘ilishlar sonining kamayishi natijasida 5 yoshgacha bo‘lgan har bir bolaga 65 yoshdan oshgan ikki keksa to‘g‘ri keladi. Jamiyatda keksalar sonining oshishi ijtimoiy himoya siyosatini oshirish bilan birga ushbu aholining ijtimoiy faol qatlami tajribasidan samarali foydalanishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini hayotga tadbiq etishni talab qiladi. Bu texnologiya rivojlangan mamlakatlarda gerontopedagogika maktablari orqali amalga oshiriladi.

XXI-asrda fan texnika taraqqiyotining rivojlanishi, insonlar urguzaronligining oshishiga o‘zining katta ta’sirini o‘tkazdi va buning natijasida keksalari ko‘p jamiyatda ularni ijtimoiy faollashtirish, qayta o‘qitish, psixologik holatini o‘rganish, pedagogik metodlaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishni talab qildi. Keksalarni psixologik xolati, o‘ziga xos xususiyatlari va turmush tarzini o‘rganadigan gerontopsixologik, ijtimoiy faollashtirishga bag‘ishlangan geriatrik, urguzaronligin oshirish, ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq gerontologik, keksalarni zamonaviy bilimlarga o‘qitish va qayta tayyorlash androgogik, ijtimoiy faol keksa avlod vakillarining boy hayotiy tajribalarini o‘rganish, o‘zlari va jamiyat manfaatlari uchun uzoq, mazmunli umr kechirishini nazarda tutadigan gerontopedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyatda keksalarni qadrlash qadimdan barcha mamlakatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan biri bo‘lib kelgan. Jumladan, qadimgi Gretsiyada keksalar kengashi – “gerusiy” ustunligi mavjud bo‘lib, bunday kengash a’zolari “gerontamlar” deb atalgan. Tarjimasi “keksa” deganidir. Gomer va Safokl fojialarida keksalar asosan ilohiy shaxslar sifatida tasvirlanadi. Platon gerontokratik qarashini “Davlat”, “Qonun”, “Siyosat”, “Maktublar” asarlarida asoslab beradi. U keksalarni tarix, an’analar, qonunlar himoyachisi deb ta’riflaydi.

Chexiyalik olim O.Donkova gerontopedagogika keksalar ta’limidan o‘rganishning o‘lchovi[2], P.Mühlpachr “Gerontopedagogika” kattalar ta’limi yoki kattalar tarbiyasi sohasiga to‘g‘ri keladi. Bu nisbatan yangi soha bo‘lib, kishilarni keksalik, qarilik hayoti uchun tayyorlashni, hayotning bu bosqichini yanada qadrlashni, sermazmun o‘tkazishlarini talab qiladi[3] deb ta’rif beradi. N.N.Bukinaning esa “Rasmiy ta’lim salbiy ijtimoiy hodisalarni bartaraf etish omili sifatida”[8] hamda A.M.Mitinaning “Xorijda kattalar

qo‘shimcha ta’limi: konseptual shakllanish va rivojlanish kabi tadqiqotlari”da[10] gerontopedagogika sohasi keksalar tajribalarini o‘rganish sifatida tadqiq qilinadi

Shu kabi tadqiqotlarda psixolog olim S.K.Baum[6] faol hayot tarzi bilan yashagan keksa avlod vakillari yashashga bo‘lgan qiziqishi yanada ortishini aniqlagan bo‘lsa, tadqiqotchi E.Bolmeyyer, M.Valenkamp, G.Vesterxoflar[7] keksa avlod vakillari hayotini tahlil qilish, boshidan o‘tkazgan voqealar, yutuqlari va orzu-istaklari haqida gapirish orqali yashashga bo‘lgan intilishi ortishi, hayotining mazmunli bo‘lishiga hamda depressiyalarning kamayishiga erishiladi deydi. Tadqiqotchi S.Kross, X.Markuslar[9] keksa avlod vakillarini ko‘p yillik tajriba, bilim, qobiliyatlari orqali yoshlarga o‘rnak bo‘lishini aytadi.

Intellekt dinamikasini tadqiq qilishda rossiyalik olim L.A.Rudkevichning ta’kidlashicha, “inson hayotining uchinchi dekadasida shaxs intellekti pasayib boradi va 70 yoshga kirganda u taxminan 70%ga yetadi”[13]. Shu bilan birga, G.Ayzenk va R.Sternberg kabi olimlarning qayd etishicha, insonning intellekti qanchalik past bo‘lsa, uning ijodiy qobiliyatlari pasayib boraveradi, buning natijasida esa uning yoshi ulg‘aygani sayin ijodga nisbatan qobiliyati pasayib boradi. Shuning uchun keksalarning hayotga qiziqishini oshirish va ularni doimiy zamonning dolzarb masalalariga o‘rganish bilan bog‘liq pedagogik jarayonlar bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[5]. Tadqiqotchi Y.I.Kazakov esa bu jarayonga nisbatan quyidagicha ta’rif beradi –subyekt tomonidan hayotning turli vaziyatlarida maqbul qarorlar qabul qilish uchun zaruriy sharoit yaratishni ta’minlovchi pedagogikaning metodidir. Demak, “shunday xulosaga kelish mumkinki, inson keksalik bilan bog‘liq muammolarga duch kelish jarayonida, ularga yechim topib, taraqqiy etadi va oldidagi jiddiy masalalarga aqliy yondasha boshlaydi”[1]. Umuman olganda, asta-sekin o‘zining intellektual salohiyatidan uzoqlashib borayotgan keksalarning boy tajribalaridan nafaqat hayot muammolarini hal qilishda, balki xalq xo‘jaligining, mamlakat ijimoiy-iqtisodiy hayotining har qanday masalasini hal qilishda foydalanish juda muhim va eng asosiysi, bu holatni ularning o‘zlariga doimiy aytib turish, ularning ijtimoiylashuvi va hayotdan zavqlanishiga zamin bo‘lishini unutmaslik lozim. Intellektal salohiyat pasayib borishi kuzatilsada, ularning tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Keksalar ta’limini turli ta’lim shakllari orqali amalga oshiriladi, bugungi kunda eng ommalashgan ta’lim, davlat ta’lim muassasalari hamda keksalar uchun mo‘ljallangan, malaka oshirish hamda maxsus kurslar (androgogika maktablari) hisoblanadi. Davlat ta’lim muassasasida ta’labalarga qo‘yilgan talablar asosida, ta’lim dasturlarida berilgan mavzular asosida o‘qitilsa, bugungi kunda xorijda va mamlakatimizda ommalashib borayotgan maxsus kurslarda (androgogika) yosh toifasidagi keksalarning ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqib ta’lim beriladi. Shunday qilib, eng umumiy shaklda keksa avlod vakillarining ta’lim jarayonini amalga oshirishning 3 xil shaklini ajratish mumkin. Birinchidan, ta’lim muassasasining talabasi bo‘lish. Ko‘pincha keksalar (ayniqsa, endi nafaqaga chiqqan bo‘lsa) o‘zlari uchun yangi sohada, yangi kasbni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rta yoki oliy ma’lumotni talab qiladigan ta’lim shakllarini tanlashadi. Bugungi kunda nafaqa yoshidagilarning ta’lim muassasalarida o‘qishga bo‘lgan extiyoji Evropa va AQShda juda keng tarqalgan hodisa hisoblanib, ta’lim jarayoniga ular “ko‘ngillilar” sifatida emas, ushbu ta’lim shaklining barcha turlariga (dastur, kreditlar tizimi, imtihonlar va boshqalar) amal qiluvchi (o‘zlashtiruvchi) ta’lim oluvchilar hisoblanadi.

Ikkinchidan, 55 - 70 yoshli keksa avlod vakillari orasida eng keng tarqalgan ta’lim shakli o‘zini-o‘zi o‘qitish, tarbiyalashdir. Ushbu ta’lim keksa insonning kognitiv faoliyatidan kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi masalan, turli mazmundagi kitoblar, ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, gazetalar). Sotsiologik so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalari eshittirishlarida filmlar (seriallar), “Madaniyat va ma’rifat”, “Tarix”, “Hayvonot olami”ga oid eshittirishlar, ayniqsa keksa erkaklar uchun siyosiy ko‘rsatuvlar, sport dasturlari, tarixiy hujjatli filmlar alohida o‘rin tutadi.

Biroq, keksa insonlarning intellektual va ma’naviy hayotida o‘zini-o‘zi anglash darajasi bir xil emas. Nisbatan kichik bir guruh keksalar, qoida tariqasida, oliy ma’lumotga ega bo‘lib, o‘zini-o‘zi etarli darajada ta’minlaydi. Uchinchidan, nafaqaga chiqqandan so‘ng, ular kitoblarga (ko‘pincha uyda butun kutubxonalarga ega), televidenie va radioeshittirishlar tinglash, teatr tomoshalariga, ko‘rgazmalar tomosha qilishga va psixologik va pedagogik hususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan dasturlarga qiziqishni davom ettirmoqdalar.

Motivlar, keksa avlod vakillarini ta’lim jarayoniga jalb qilishni rag‘batlantirish.

Keksa odamlarni ta’limga qiziqtiradigan motivlar nima? Birinchidan, bu yangi narsalarni o‘rganishga bo‘lgan o‘z-o‘zidan ichki ehtiyoj bo‘lib, u deyarli umrining oxirigacha insonni tark etmaydi. Tabiiyki, bu ehtiyojning tabiati va mazmuni yillar davomida o‘zgaradi, lekin ehtiyojning o‘zi hayot davomida to‘yinmagan bo‘lib qoladi. Hatto Rim faylasufi Mark Tulliy Sitseron (Marcus Tullius Cicero)ham har bir davrning o‘ziga xos qiziqish, orzu va intilishlari borligini, faqat o‘limgina insonni yangi fikrlar, hayollar, intilishlarini yo‘q qilishi mumkinligini ta’kidlagan.

Shunday qilib, zamonaviy jamiyatda ta’lim keksa avlod vakillari uchun to‘liq hayotning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim muammolarini hal qilish pedagogik va ijtimoiy-psixologik masalalarni o‘rganish, tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq.

Keksa avlod vakillari tahlillarga ko‘ra o‘quv jarayonlarining quyidagi shakllariga ko‘proq etibor qaratadi:

- Oliy malumot olish(rivojlangan mamlakatlarda nafaqaga chiqqandan so‘ng ish faoliyatini davom ettirish istagi bo‘lgan keksa avlod vakillari orasida bakalavr darajasini olganlar ko‘pchilikni tashkil etadi),

- endi nafaqaga chiqqanlar uchun zamonaviy kasblar o‘qitiladigan malaka oshirish, qayta tayyorlov kurslari;

- yoshlikdagi sevimli mashg‘uloti bilan shug‘ullanish imkoniyati, atrofidagi motivatsiyaga undaydigan insonlar, yoki keyinchalik biror sohaga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sohasida o‘zini namoyish qilish keksa avlodning jamiyatdagi faol ishtirokining shakllari, muvaffaqiyatli hayotiy imkoniyatidir. Ushbu faoliyat turini tanlash ko‘p hollarda oldingi ilmiy, ijodiy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Keksalikda iste’dodlarni yuzaga chiqarish, shug‘illanayotgan kasbida iqtidorini anglashga erishish, o‘quv faoliyatini to‘g‘ri tanlashga ko‘maklashish gerontopedagoglarning asosiy vazifasi hisoblanadi;

- zamonaviy sivilizatsiya yutuqlarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati[4];

- nafaqa yoshi bilan bog‘liq muammolarni yengish istagi[11];

- bo‘sh vaqtlarni mazmunli o‘tkazish zarurati(sayohat qilishni yaxshi ko‘ruvchilar uchun til o‘rganish).

Yevropa davlatlari ta’lim muassasalarida keksalarning tashrifi an’ana sifatida yo‘lga qo‘yilgan (misol uchun, agar u harbiy bo‘lsa, urushlar va dunyoning turli nuqtalarida boshdan kechirgan harbiy xizmatidagi voqealarni, vrach bo‘lsa, odamlarni davolash uchun qilgan qiziqarli xizmatlari va hokazolar) Barcha sohadagi nafaqaga chiqqan mutaxassislar va ijtimoiy xizmatchilar 55 yoshdan oshgandan so‘ng oliygohlarga har uch oyda bir (kvartal) o‘z ixtisosliklaridan kelib chiqib turli mavzularda ma’ruzalar o‘qish, shu bilan birgalikda zamonaviy fanlarni o‘zlashtirish maqsadida ma’ruzalar tinglash uchun ташриф буюради. Shuningdek, dunyoning boshqa ko‘plab mamlakatlarida keksalar uchun rassomlik, musiqa, sport, san’at, teatr kabi ko‘plab to‘garaklar,

psixologik va pedagogik yordamlar, ijtimoiy dasturlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu orqali keksalik gashtini surish ishtiyoqining yanada oshishiga erishiladi. To‘garaklarga borish, transportda qatnash “Uchinchi yosh” davrini boshdan kechirayotganlar uchun bepul yo‘lga qo‘yilgan. Ochilgan ko‘plab badiiy studiyalarda keksalar turli rollar ijro etishi, haykaltaroshlik, rassomlik qilishi, kulolchilik va tikuvchilik singari o‘nlab imkoniyatlar ichida, o‘zlaridagi yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Xorijlik olimlar nazariyalarida keksalarda psixologik holatni mustahkamlash, ruhiy omillarga e’tibor qaratish asosiy vazifa sifatida qaraladi. Geronto-pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri – keksalarga o‘zligini anglashga, ulardagi “men”ni rivojlantirishga, eng asosiysi ijtimoiy faollikni oshirishga e’tibor qaratishdan iborat[12]. Qachonki keksalar o‘zlarining asl tabiatini anglasa, jamiyatning eng zarur qatlami ekanligini tushunib yetsa, yoshlarning, yoki maslahatga, hayotiy tajribani o‘rganishga muhtoj qatlamning doimiy “murojaat”lariga duch kelsgina, ularda keksalik davridagi ijtimoiylashuv jarayonlari jadal kechadi.

Meidzi(Meidzi) universiteti professori Ryuichi Kaneko(Ryuichi Kaneko) “XXI-asrda barcha mamlakatlarda uzoq umr ko‘ruvchilar ko‘pchilikni tashkil qiladi, bu asrni umuman olganda keksalik asri deb atash mumkin, lekin Yaponiya, afsuski, hammadan oldinda bo‘ladi”, - deydi. Haqiqatdan ham Yaponiyada 2025 yilga kelib 65 va undan katta yoshdagilar 36,77 million, 2065 yilga kelib esa har 2,6 kishidan 1 nafari 65 yoshni tashkil etishi kutilmoqda.

Yaponiyalik olim Takenaka (1996) o‘zining ilmiy tadqiqotlarida keksalik ijtimoiy faollik va jismoniy funksiyaning pasayishi, ruhiy salomatlikning buzilishi kabi yoshga bog‘liq o‘zgarishlar bilan kechadi deydi va bu davrni quyidagicha tasvirlaydi.

- o‘z yaqinlarini yo‘qotish;
- o‘z qobig‘ida qolib ketish va yolg‘izlik;
- o‘limni anglash;
- keksalik yoshiga moslashish;
- shaxsiyat va uning o‘zgarishi.

Yigirmanchi asrning 60-yillarida Yaponiya davlat tashkilotlarida keksalar faoliyat olib boradigan maxsus maktablar ish boshladi. Maktabda keksa avlod vakillari yoshlarga ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularni hayotga tayyorlash, ayollarni oilaviy hayotga o‘rgatish, bo‘lajak onalarni bolalarni parvarishlashga o‘rgatishdan tortib hayotda uchraydigan turli xil ijtimoiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadigan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu tizim 1980-yildan beri bugungi kungacha zamon talablariga mos holda muntazam faoliyat olib bormoqda. Qadriyatlarga ko‘ra bobo-buvi, ota-onaga g‘amxo‘rlik qilish an’anasi ming yillar davomida katta farzand zimmasida bo‘lib kelgan va bunday mas’uliyatni odatda yaponlar sharaf sifatida qabul qiladi.

Keksalar tajriba va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish, ijtimoiy faolligini oshirish, himoyalashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, ilmiy natijalar olingan: Buyuk Britaniya oliy ta’lim muassasalarida jamiyatda ma’lum yutuqlarga erishgan keksalarning o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etishi yo‘lga qo‘yilgan (Open universities), Janubiy Koreyada keksalarni ijtimoiy himoyalashda axborot tizimidan to‘liq foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari takomillashtirilgan (Seoul of National University), Yaponiyada keksa avlod vakillarini ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat siyosatida ishtirokini kuchaytirish konsepsiyasi (Akiyama 2014, Takama and Sugihara 2002)qabul qilingan. Konsepsiyada ijtimoiy faol, g‘ayratli va yuksak tajribaga ega keksa avlod vakillari jamiyatning rivojlanishida hissa qo‘shishi talab etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli o‘qish-ga bo‘lgan motivatsiya omili ko‘pincha intellekt omilidan kuchliroqdir. Ta’lim jarayonini sifatli hamda qiziqarli tashkil etishda o‘rganuvchilar motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi muhim sanaladi. Shu sababli motivatsiyani shakllantirish, rivojlantirish, kerakli, fanga doir metod hamda yondashuvlarni inobatga olib, darslar va o‘quv materiallarini tashkillashtirgan holda olib borish talab etiladi.

Kattalarga ta’lim berishda dars mashg‘ulotlarining sifatli hamda qiziqarli tashkil etilishida quyidagilarga ahamiyat qaratiladi:

- taqdim etilayotgan matnlar, audiovizual materiallar, vazifalar va dars mashg‘ulotlari talabaning yosh hususiyat-lariga, qiziqishlariga mos bo‘lishi;
- o‘qituvchi talabalarga vazifalarni bajarilishini baholash imkonini berishi, tanqidiy fikrlashga sharoit yaratish va ularning ehtiyojlari boshlang‘ich rolni o‘ynashi talab etiladi.
- mashg‘ulotlardagi yumor, musiqa singari dars mavzusidan tashqari, qo‘shimcha mashg‘ulotlar komponent-lari talabalarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish xususiyatlari hisoblanadi. Qo‘shimcha mashg‘ulotlar sifatida nafaqat yumor yoki ko‘ngilochar mashg‘ulotlar, balki talaba-larning orasida kurs maqsadiga mos bellashuvlar uyushtirish, misol uchun, poster taqdimotlar, video taqdimotlar, loyiha ishlari, guruhlarda loyiha ishlarini tashkillashtirish va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Keksalik yoshini yashab o‘tayotgan har bir shaxsni avvalo ijtimoiy faollikka keng jalb qilish, yoshlar bilan o‘zaro hayotiy tajribalar almashishlarini targ‘ib qilib, bu borada kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalarini ham ilmiy, pedegogik va falsafiy rivojlantirish, kerak bo‘lsa, davlat va hukumat dasturlariga kiritish bilan bog‘liq vazifalarni ham qaytadan, yangicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, qarilik davriga qadam qo‘ygan va bu davrni boshdan kechirayotgan shaxslarda yo‘qotishlar, hayotning yakunlanib borishi, jismoniy zaiflikka duchor bo‘lishi, tabiiy ravishda aqliy salohiyatining pasayishi yoki umumiy intellektual o‘sish bilan bog‘liq jarayonlarning dinamikasi o‘zgarishi bilan bog‘liq holatlarda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan Gerontopedagogika-ning eng zamonaviy va samarali texnologiyalarini tatbiq qilgan holda doimiy ishlashni kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Airasian P. W., Bloom, B. S., & Carroll, J. B. (1971). Mastery Learning: Theory and Practice. New York: Holt Rinehart & Winston. S. 14
2. Doňková Olga Gerontopedagogika a její edukativní dimenze: Univerzita tomáše bati ve zlíně fakulta humanitních studií institut mezioborových studií Brno.– P. 2.
3. Mühlpachr Pavel Gerontopedagogika. Poprvé vydáno celosvětově: ISBN. Masarykova univerzita 2004. - P. 11-204
4. Suxobskaya G.S., Bojko N.M., 1998
5. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта. // Вопросы Психологии. 1995. № 1. С.111-131.
6. Баум С.К. (1999) Кто ни о чем не жалеет? Психологические отчеты 85: 257-260.
7. Больмейер Э., Валенкамп М., Вестерхоф Г. и др. (2005) Творческая память как раннее вмешательство при депрессии: результаты пилотного проекта. Старение психического здоровья 9: 302-304.
8. Букина Н.Н. Неформальное образование как фактор преодоления негативных социальных явлений // Человек и образование 2006. – №6. – 43 с.

9. Кросс С., Маркус Х. (1991) Возможные личности на протяжении всей жизни. Человеческое развитие 34: 230-255.
10. Митина М. Дополнительное образование взрослых за рубежом: Концептуальное становление и развитие – М.: Наука, 2004. – 124 с.
11. Митина М. Психология труда и профессионального развития учителя / Mitina L.M., Psihologija truda i professional’nogo razvitija uchitelja – М.: Академия, 2004.
12. Пряхина С.Б. Психолого-педагогическое сопровождение личностного самоопределения и развития идентичности в пожилом возрасте: дис. ... к. пед. наук / Московский психолого-социальный институт. – М., 2008.– 203 С. 19.
13. Рудкевич Л. А.. Как становятся великими или выдающимися. ISBN: 5-89939-089-1 Год издания: 2003. – С.55.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 141.339:111.1:164.2(100)

Muhriddin USMANOV,
O’zMU o’qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: usmanov.muhriddin@mail.ru

TXKMRM “O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” kafedrasi mudiri, f.f.d., professor M.N.Nuritdinov. taqrizi asosida

MYTH AND MYTHOLOGY AS A PRODUCT OF PRACTICAL LIFE

Abstract

This article reveals the nature of myths and mythology, the growing importance of myths in the scientific justification for the realization of dreams and hopes at the level of the mythological consciousness of man, the fact that remythologization is taking shape in a new form, as well as scientific considerations are put forward regarding the development of good and evil in myths, the power of the gods, supernatural phenomena.

Key words: myth, mythology, archaic consciousness, metamorphoses, tendency, outlook.

МИФ И МИФОЛОГИЯ КАК ПРОДУКТ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

В данной статье раскрывается природа мифов и мифологии, возрастающее значение мифов в научном обосновании осуществления мечтаний и надежд на уровне мифологического сознания человека, то, что ремифологизация оформляется в новой форме, а также научное выдвигаются соображения относительно развития добра и зла в мифах, силы богов, сверхъестественных явлений.

Ключевые слова: миф, мифология, архаическое сознание, метаморфозы, тенденция, мировоззрение.

MIF VA MIFOLOGIYA AMALIY HAYOT MAHSULI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada mif va mifologiya tabiati, bugungi kunda inson mifologik ong darajasidagi orzu-umidlari ro‘yobga chiqishining ilmiy asoslanishida miflarning ahamiyatini oshayotganligi, remifologizasiya yangi qiyofada shakllanayotganligi, hamda miflarda yaxshilik va yomonlik, xudolarning qudrati, g‘ayritabiiy hodisalarning taraqqiyotga oid ilmiy mulohazalar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: mif, mifologiya, arxaik ong, metamorfoza, tendensiya, dunyoqarash.

Kirish. Bugungi kunda mif jamiyat taraqqiyoti uchun nafaqat bunyodkor, balki vayronkor ahamiyatga ham ega bo‘lmoqda. Aynan shuning uchun ham mazkur jarayonlarni falsafiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixdan ma’lumki, qadimgi davrlarda tafakkur tarzining birinchi ko‘rinishi sifatida miflar dunyoqarashning dastlabki shakli sifatida amal qilgan. Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Yunoniston va Rimda miflar olamning kelib chiqishi hayot va hodisalar mohiyatini tushuntirgan. Qorong‘u Xaos, Xudolar va qahramonlar haqidagi miflar insonlarga olamni hissiyotlar, obrazlar va xayolot vositasida tasavvur qilish imkonini bergan.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida miflar insonlarning olam ontologiyasini bilish, uning mohiyatiga baho berish va arxaik ong darajasidagi bilim mahsuli sifatida paydo bo‘lgan, hozirgi davrda ilmiy bilimlarning sodda asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda “mif” yunoncha “mythos” so‘zidan olingan bo‘lib, u “hikoya, afsona”, degan ma’nolarni anglatishi asoslangan[1]. Shuningdek, ba’zi adabiyotlarda mifga nisbatan universal hodisa sifatida yondashuvlarning xilma-xilligini kuzatish mumkin[2]. Ayni paytda “Mif – afsona, hikoya, mifik kosmogenez; tarix va madaniyat tomonidan shakllantirilgan maxsus ong va tafakkur tarzi; mif o‘zida neytralizator, oraliq holatni ifodalovchi tafakkur tarzidir: hayot – o‘lim, haqiqat – yolg‘on, ro‘yo – reallik”[3] va shunga o‘xshash ta’riflarda inson ongi qorong‘ulashishi ham kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda dunyo olimlarida miflarga nisbatan yangicha qarash shakllanmoqda. Dastavval, mifga odatiy “afsona”, “uydirma”, “badiiy to‘qima”, deb nom ta’rif bergan olimlardan farqli ravishda, biz miflarni miflar yaratilgan davrda insonlar ularni qanday tushungan bo‘lsa, shunday tushunmoqdamiz. Oldingi mifologik ong hukmron bo‘lgan jamiyatlarda mif to‘g‘ri hikoya va undan ham ortiqroq hodisa hisoblangan. Chunki u nafaqat reallikni aks ettirgan, balki voqelikdan ham ustun turuvchi, muqaddas, namunali, andozali va muhim ahamiyatga ega narsani o‘zida ifodalagan. Mifga nisbatan fanlararo yondashuvlarni tasniflaydigan bo‘lsak, o‘z navbatida, ham ro‘yo ham haqiqat sifatida asoslangan. Shu ma’noda, biz “mif olam haqida syujetlar yaratish san’ati”[4], degan fikrga qo‘shilamiz, zero, miflardagi Xudo g‘oyasi insonni ulug‘vorlikka davat etgan. Bizning fikrimizcha, I.Ilinning “mif – tadqiqotlar sohasidagi boshlang‘ich nuqta, to‘g‘rirog‘i, mohiyatan bahsli bo‘lgan tushuncha”[5], degan bahosida mohiyat yetarli asoslanmagan, chunki mif tafakkur shakllanishi va insonning “inson” bo‘lishining ijtimoiy uslubi, amaliy asosidir.

Miflarda ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat, jamiyat, xudolar va qahramonlarning faoliyatlari haqidagi diniy va mistik tasavvurlari mujassamlashgan. Ba’zi manbalarda miflar afsonalar bilan sinonim, degan fikr qabul qilingan, unda mif o‘zida arxaik e’tiqod ko‘rinishlarini yashirib yotishi haqida so‘z yuritiladi. Biroq, bizning fikrimizcha, mif afsona emas, balki arxaik ongdagi g‘ayritabiiy jarayonlarga munosabatni o‘zida namoyon etadi. Agar miflarda insonlarning orzu-umidlari, xudolarga e’tiqodi, g‘ayritabiiy kuchlardan qo‘rquv, qahramonliklarga da’vat namoyon bo‘lsa, afsonalar xalqning kundalik turmush darajasidagi voqealarning ilohiylashtirilishi, oddiy odamlarning xulq-atvori va ularning ijtimoiy munosabatlarida qahramonlik ma’nolarini kuzatish mumkin, shu nuqtai nazardan, miflar va afsonalar bir-biridan farq qiladi. Masalan, “Ramayana va Maxabxorat hind miflarining yorqin namunasi bo‘lsa”[6], “qadimgi xivalik Paxlavon Mahmud afsonaviy qahramondir”[7], chunki u real odam, u

o‘z davrida boshqalarga nisbatan kuchli bo‘lgan va qo‘rqmasligini namoyon etgan, keyinchalik xalq uning faoliyati natijalariga baho berishi natijasida u xalq qahramoni obrazida namoyon bo‘lgan, bunda hozirgi davrdagi narrativ metodologiyaga amal qilgan, ya’ni narrativlik ko‘rgan-bilganlar yanada bo‘rttirilishi va xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida yangi qahramonliklar bilan shaxsning afsonaviy obrazga aylanishini namoyon etadi. T. Djulmatov Pahlavon Maxmudni qadimgi Xivaning farzandi sifatida mashhur bo‘lishining sababi “u yuksakparvarlik ifodasidir”[8] deb ta’riflagan va fikrini uning qabri ustiga yozilgan “Insoniyatga xizmat qilmasdan inson bo‘la olmaysan”[9], degan so‘zlari bilan asoslagan. Darhaqiqat bugungi kunda Pahlavon Mahmudning jasorati haqidagi afsonalar uning mehnati samarasi haqidagi afsonalardir, agar uning fidoiy bo‘lmaganida va xalq uni e’tirof etmaganida Pahlavon Mahmud xalq qahramoni sifatida afsonaga aylanmas edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi davrda miflarning falsafiy metodologik jihatlarini aniqlash uchun ularning ontologik mohiyatini bilish muhim ahamiyat kasb etadi, bunda asosiy e’tiborimizni quyidagilarga qaratish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz, bunda mif quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1.Tasavvurlarning maqsadi va yo‘nalishini aniqlash;

2.Mifdagi bunyodkor va vayronkorlik g‘oyalarining mohiyatini ochib berish;

3. Fan va mif yaratilishi jarayonining o‘zaro nisbatini aniqlash;

4.Mifning zamonaviy jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotiga ehtimoliy ta’sirini tadqiq qilish.

Z. Freyd, K. Yungning psixoanalitik konsepsiyalarida mifning mohiyati “jamoaviy ongsizlik”[10] darajasida namoyon bo‘ladi va bu mifga har qanday davrda, hattoki, bugungi kun voqeligida ham mavjud bo‘lish imkonini beradi. Ularning jamoaviy ongsizlik darajasi haqidagi g‘oyalari hozirgi davrdagi ijtimoiy jarayonlarda ham amal qilmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda turli ma’lumotlarning tarqalishiga jamoa ongsizligi darajasida munosabat bildirilayotganligi ularning konsepsiyasidagi ilmiy asosdan dalolat beradi. “Vayronkor g‘oyalar bilan qiyofalangan muayyan ma’lumotni tezda tarqatinglar, o‘n kishiga, yigirma kishiga tarqatinglar”, degan ma’lumotlarni ba’zida fuqarolar matn ma’nosini o‘rganmasdan tarqata boshlaydi, bu jamoa ongsizligi mahsuli bo‘lib, ba’zida juda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bu kabi ko‘rinishda mif ijtimoiy-madaniy voqelikni bilish va tushunish shakliga aylanadi va buning ahamiyati anchagina yuqori hisoblanadi. XX asrda mifning talqin qilinishida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lgan, ularning ijtimoiy oqibatlari jamiyat taraqqiyotiga yo ijobiy, salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu, o‘z navbatida, tafakkurning doimiy o‘zgarishi, unda dunyo haqidagi mifologik tasavvurlarning ilmiy bilimlar bilan metamorfozasi namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, S.A.Xrapov asoslab bergan: “Ijtimoiy ong paradoksal tarzda transformasiyaga uchraydi va bu “mifologik” va “zamonaviy” elementlarning ham ijtimoiy hayotda, ham madaniyatda birlashishi va o‘zaro aloqaga kirishishida o‘z aksini topadi,”[11] degan fikriga qo‘shilish mumkin. Zero, bugungi kunda mifning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini mafkura, jamiyat boshqaruvi, ommaviy ongni boshqarish texnologiyalari, ijtimoiy mif yaratuvchanligi, ilmiy o‘zlikni anglashning arxaikligi va shunga o‘xshash yuksalish va pasayish jarayonlari tahlili orqali javob berish mumkin.

Tahlil va natijalar. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ibtidoiy odamlarni tabiat hodisalari, masalan, shamol, yomg‘ir, do‘l, o‘rmon yong‘inlari, quyosh va oy harakatlari hayratlantirgan, bu harakatlarning sababini tushunmaganlari bois, ular tabiatni jonli deb hisoblanib, qadimgi miflarda gilozoizmga asos solingan. “Aynan shu hodisalar metamorfozasi natijasida olamning paydo bo‘lishi haqidagi miflar paydo bo‘lgan”[12]. Bu esa, zamonaviy fanlardan miflarning o‘rniga to‘g‘ri baho berishni talab qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mifologiya barcha davrlarda juda dolzarb tadqiqot sohasi hisoblangan, chunki chinakam miflar o‘zlari paydo bo‘lgan hududlarida hayot-mamot masalasini hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. «Miflarda turli aholi guruhlarining o‘zlarini anglashlari, o‘zlarining iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari va o‘zlariga ishonchni shakllantirishlari, o‘zlarining va o‘zlarini o‘rab turgan atrof muhitning kelib chiqishi va ba’zan insonlarning taqdirlari va qismatlari ham hal qilinadi»»[13]. Shunga ko‘ra aytish lozimki, inson miflarga ishonib yashagan, o‘lgan va ko‘p hollarda o‘ldirilgan.

Xulosa va takliflar. Mif muqaddas (abadiy) o‘tmishni bugungi kun va kelajakka yuklash orqali o‘z funksiyasini bajargan (oldindan shunday bo‘lgan, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo‘ladi). Biroq, insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyatlar rivojlanadi, diniy tizimlar o‘zgaradi va tarix maydoni yaroqsiz bo‘lib qolgan miflar bilan to‘lib qoladi. Mazkur miflar insoniyat tarixi davomida to‘planib boruvchi qadrli nomoddiy qoldiqlar bo‘lib, ular ko‘pincha din, turli madaniyat va marosimlar qatlamlari orasida keladi. Bu jarayonlar hozirda mutlaqo boshqacha ahamiyat kasb etmoqda va endilikda muqaddas, sakral narrativ jarayon sekulyar narrativ jarayonga aylandi, miflar afsonalarga va muqaddas davrlar afsonaviy o‘tmishga, xudolar qahramonlarga va mifologik qilmishlar “tarixiy” ssenariyga aylanmoqda. Ko‘plab milliy qahramonlik dostonlari mazkur mifologik an’analarni o‘zida saqlagan va ularda turli badiiy bo‘yoqlar orqali mifologik ishoralar sir saqlangan. Shu ma’noda, biz Sh.Qahharovaning “Mifologik dunyoqarash insoniyat ma’naviy madaniyatining oliy estetik tezisini tashkil etadi”[14], degan yondashuviga qo‘shilishimiz mumkin. Zero, mifologik dunyoqarashni inson manaviy olamining go‘zallik qoidasi sifatida ham e’tirof qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Filosofskaya ensiklopediya. – Kiyev: Sovremennыe tetradi, 2001. – S. 345.
2. Losev A.F. Filosofiya, mifologiya, kultura. – Moskva: Politizdat, 1991. – 524 s.
3. Mifi narodov mira. – Moskva: Nauka, 1997. – 426 s.
4. Mifi narodov mira. – Moskva: Nauka, 1997. – S. 4.
5. Shestov N.I. Politicheskiy mif teper i prejde. – Moskva: OLMA-PRESS, 2005. – S. 79.
6. Temkin E.N., Erman V.G. Mifы drevney Indii. – Moskva: Nauka, 1985. – 323 s.
7. Djulmatov T. Legendы mifы, faktы vostoka. – Tashkent: Uzbekistan, 2018. – S.169.
8. Djulmatov T. Legendы mifы, faktы vostoka. – Tashkent: Uzbekistan, 2018. – S.71.
9. Djulmatov T. Legendы mifы, faktы vostoka. – Tashkent: Uzbekistan, 2018. – S.75.
10. Yung K. O arxitipax kollektivnogo bezsoznatelnogo. – Moskva: Nauka, 2012. – S.120.
11. Xrapov S.A. Transformasiya soznaniya rossiyskogo obщestva v kontekste sosialno-ekonomicheskoy dinamiki potrebleniya // Vlast. – 2010. – № 2. – S. 56.
12. Yuan Xe. Mifы drevnego Kitaya. – Moskva: Nauka, 1987. – S.11.
13. Puhvel J. Comparative Mythology. Baltimore and London: The Johns Hopkins University Press. – P. 2.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Umida UTANOVA,
Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, f.f.n
E-mail:filosofiya1111@mail.ru

Falsafa fanlari doktori O‘. Tilovov taqrizi asosida

SOCIAL DEVELOPMENT AND CULTURAL HERITAGE

Abstract
The article describes the harmony of historicity, continuity and modernity in popular culture, the preservation of traditions by historicity, ensuring consistency by continuity , and socio-dynamic development by modernity.
Keywords: historicity, cultural heritage, tradition, spiritual value, modernity, innovations, culture, heritage.

СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ

Аннотация
В статье анализируется сочетание истории, наследия и современности в народной культуре, сохранение исторических традиций, преемственности, а современность обеспечивает социодинамическое развитие.
Ключевые слова: историчность, культурное наследие, традиция, духовная ценность, современность, инновации, культура, наследие.

IJTIMOIY TARAQQIYOT VA MADANIY VORISIYLIK

Annotatsiya
Maqolada xalq madaniyatida tarixiylik, vorisiylik va zamonaviylikning uyg‘unlashib kelishi, tarixiylik an’analarni asrashni, vorisiylik tadrijiylikni, zamonaviylik esa sotsiodinamik rivojlanishni ta’minlashi tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: tarixiylik, madaniy meros, an’ana, ma’naviy qadriyat, zamonaviylik, innovatsiya, madaniyat, vorisiylik.

Kirish. Xalq madaniyati ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning tarixiy (tarixiylik) ifodasidir. Hali kishilar, tadqiqotchilar ijtimoiy hayot o’zining taraqqiyot qonunlariga ega ekanini kashf etmagan antik davrlardayoq madaniyatni rivojlanishning ma’lum bir ko’rsatkichi, belgisi sifatida qaragan. Bu empirik kuzatishlar natijasi bo’lsa-da, xalq madaniyatining ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini, o’rnini to’g’ri ifoda etgan. Masalan, Lukretsiy Kar o’zining “Narsalar tabiati haqida” asarida, kishilar asta-sekinlik bilan kemalar yasash, yerni haydash, uy-joy qurish, qonunlarni yaratishni o’rganadi, san’atda buyuk cho’qqilarga erishadi, lekin bular avlodlararo vorisiylik tufayli mumkin, degan fikrni bildiradi. “Bequvvat qarilik yoshlikning bosqiniga mudom o’rin bo’shatgan [1].” Biroq bu bosqin faylasuf e’tirofiga ko’ra, shunchaki tasodifiy hol yoki yovuzlik emas, balki “narsalarning tabiatidagi qonunlar” ifodasidir. Demak, kishilar erishadigan yutuqlar, muvaffaqiyatlar avlodlararo munosabatlardagi tarixiylik va vorisiylik qonunlari natijasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi beiz ketmaydi, u moddiy va ma’naviy boyliklarda aks etadi. Biroq ushbu boyliklarning o’zi ham oldingi avlodlar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarning davomi, yanada takomillashtirilgan, yanada boyitilgan ko’rinishlari sifatida keladi. Shu tariqa xalq madaniyati ham, uning ijtimoiy - tarixiy tajribasi ham ma’lum bir qonuniyatlar natijasiga aylanadi. Kondorse yozganidek, ”taraqqiyot jamiyatga birlashgan ko’p sonli individlar rivojlanishining natijasidir. Ammo shu onda erishilgan natijalar oldingi davrda erishilgan natijalarga bog’liqdir va ular, o’z navbatida, kelgusidagi erishiladigan natijalarga ta’sir etadi [2].” Bu shunchaki ta’sir yoki bog’liqlik bo’lmay, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning uzluksizligidan, insoniyat hayotining vorisiylikka qurilgan qonuniyatlaridan kelib chiqadi.

“Tarixiylik” va “vorisiylik” aynan tushunchalar emas. Ular bir-biriga bog’liq bo’lsa-da, ichki mazmuniga ko’ra, bir-biridan farq qiladi. Hatto ba’zan ilmiy adabiyotlarda “tarixiy vorislik” tushunchasi ishlatilsa-da, [3] bu ular o’rtasidagi farqni inkor etmaydi.

“Tarixiylik” ijtimoiy voqea va hodisalarning davomiyligini, ma’lum bir bosqichlar orqali rivojlanib yoki o’zgarib borishini ifoda etuvchi tushunchadir. Uzluksizlik, bog’liqlik, bosqichlik, o’zgarishlar tarixiylikning belgilaridir.

Tarixiylik kishilarning, hatto avlodlarning, xalqlarning ixtiyoriga bog’liq bo’lmasligi, ushbu ixtiyorni zaruriyat sifatida sezmasligi mumkin. Insoniyat tarixi, K.Yaspers iborasi bilan aytganda, “o’zak vaqt” (“osovoe vremya”) atrofida va empirik manbalarga tayansa-da, Xitoy, Hindiston va G’arb – “uch madaniyatlar” yuzaga kelgach, “inson o’z borlig’ini butun idrok etadigan, o’zini va o’z sarhadlarini anglaydigan bo’ladi. Uning oldida dunyoning dahshatlari ochildi va u o’zining yolg’izligini, ojiz ekanini sezadi. U jar yoqasida turib xalos bo’lish uchun keskin savollar qo’ydi. Sarhadlarini bilgan holda u yuksak maqsadlarga intildi, o’zini idrok etishini va trantsendent olamning aniqligini qalban sezdi”[4]. Bu bilan K.Yaspers insoniyat tarixida, tarixiylikda transtsendentning, xudoning muqarrarligini ta’kidlamoqchi. “Ularning barchasi refleksiya tufayli ro’y berdi. Ong ongni angladi, fikr fikrni diqqat ob’ektiga aylantirdi”[4] , desa – da, u oxir natijada “Bizning kelajak haqidagi o’ylarimiz o’tmishni va hozir qanday idrok etishimizga bog’liq bo’ladi” [4], degan xulosaga keladi. “Kelajakka yo’naltirilgan tarixiy tafakkur bizning harakatlarimizni belgilab beradi” [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Refleksiya nuqtai nazaridan ongli inson o’zining hayoti va kelajagini ijtimoiy-tarixiy tajribadan kelib chiqib tasavvur qilishi, rejalashtirishi mumkin. Lekin bu rejalar har doim ham ijtimoiy-tarixiy tajribaga monand, u bilan aynan bo’lavermaydi. Aks holda ijtimoiy-tarixiy jarayonlar oldindan rejalashtirilgan, hamma voqea va hodisalar mo’ljalga muvofiq sodir bo’lar edi [5].

Xalq madaniyati tarixiy voqelik nuqtai nazaridan avlodlararo munosabatlarga, yosh avlodning yaratilgan boyliklarni o’zlashtirishi va davom ettirishiga bog’liqdir. Bunday yondashish aslida to’g’ri bo’lsa-da, xalq

madaniyatining faqat vorisiylik belgisini ochib berishga qaratilgandir. Ba’zan esa u xalq madaniyatining o’zini e’tibordan chekkada qolishiga olib keladi, chunki avlodlararo munosabatlar o’rganilib, ulardagi tarixiy-madaniy belgilar ushbu munosabatlarning aynan o’zidir degan cheklangan fikr kelib chiqadi [6]. Chunki Gegel aytganidek, “har bir pog’onadagi kelgusi aniqligida umumiy barcha-borliq mohiyatini oldingi holidan yuqoriga ko’taradi, nafaqat o’zining olg’a intilgan dialektik taraqqiyotida hech nima yo’qotmaydi va o’z ketidan hech nima qoldirmaydi, balki o’zida boyitilgan, orttirilgan tajribani ham olib keladi va shu tarzda o’z ichida barqarorlashadi [3].” Agar xalq madaniyati faqat vorisiylik nuqtai nazaridan qaralganida, u orttirilgan tajribani” va “o’z ichida barqarorlashgan” tarixiy elementlarning ahamiyatini ilg’amay, payqamay qolardi. Shuning uchun har qanday vorisiylik o’z navbatida tarixiylikning bir ko’rinishidir; tarixiylik esa vorisiylik bilan uzviy qaralishi darkor.

Shu o’rinda bir misol keltirishimiz mumkin. Ma’lumki, O’rta Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy hayoti musulmon dunyosi bilan chambarchas bog’liq. Arablar bosqinidan va islom dinining tarqalishidan keyingi jarayonlarda mahalliy va arabcha (islomiy) qadriyatlarning uyg’unlashishi ro’y beradi. Islom dini mahalliy urf-odatlar, turmush tarzi va aholi tasavvurlariga sintezlashadi, yakka xudolik g’oyasini shu tarzda qaror toptiradi. VIII asrdan XX asrning 20 – yillarigacha avlodlararo munosabatlar tarixiylik va vorisiylik negizida kechdi. Bu shunchaki ijtimoiy-tarixiy an’analarni davom ettirish, “otalar so’zidan chiqmaslik” emas, balki xalqimiz ruhi, qalbi va hayotiy tasavvurlariga asoslangan evolyutsion rivojlanish ediki, uni inqilobiy yo’l bilan o’zgartirish hech kimning xayoliga kelmagan. Taxt, mavqe uchun kurash ketgan, xonliklar o’rtasidagi nizolar o’lka taraqqiyotiga salbiy ta’sir qilgan, albatta, lekin butun ijtimoiy hayotni inqilobiy o’zgartirish rejasi bo’lmagan [7]. Demak, tarixiylik bilan vorisiylik ijtimoiy hayotning bir-biriga chambarchas bog’liq tomonlari sifatida kelgan. Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan oktabr inqilobi (1917yil) eng avvalo tarixiylikka zarba berdi. Oktabr inqilobining o’zi yangi ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida targ’ib qilindi va u zaruriyat, taraqqiyot qonuni, rivojlanish, jamiyatning qoloqlikdan yuksaklik bosqichiga o’tish sharti sifatida qaraldi. Natijada inqilobgacha bo’lgan davr qoloqlik, johillik, ekspluatatsiya avj olgan, inqilobdan keyingi davr esa yuksaklik, yorug’lik, erkinlik va yangi madaniyat, sivilizatsiya davri deb ataladigan bo’ldi. Butun ijtimoiy institutlar sho’rolar maqsadlariga xizmat qiluvchi muassasalarga aylantirildi. Ammo xalqimiz ma’naviy madaniyatida, turmush tarzida ijtimoiy-tarixiy tajriba, an’analar chuqur joy olgan ediki, vorisiylik o’ziga xos, mustahkam, o’zgartirish aslo mumkin bo’lmagan voqelik edi. 30- yillarda shariat tartiblari, diniy maktablar, ta’lim, islomiy muassasalar ishlab turganini eslash o’rinlidir. Sho’rolar qarasaki, tarixiylikni o’zgartirish qiyin emas, ammo vorisiylikni o’zgartirish mushkul, u aholi ongidan, madaniyatidan, turmush tarzidan chuqur joy olgan. Vorisiylikdan voz kechish ixtiyoriy tarzda amalga oshmasligiga va ijtimoiy-tarixiy o’zgarishlar ham uni siqib chiqarolmasligiga iqror bo’lgan sho’rolar hukumati milliy ziyolilar va ulamolarni 1937 yili yo’q qilishga tushadi. Bu o’zbek xalqi madaniyatining vorisiylik printsiplariga muvofiq rivojlanishiga zarba beradi, islomiy madaniyat, axloq, odob, ta’limni siqib chiqaradi [8]. Ijtimoiy-tarixiy tajriba yangilanishi, yangi ko’rinishga o’sib, xalq madaniyatiga jiddiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Masalan, 74 yil davom etgan sho’rolarning milliy madaniyatlarni qo’shib umumiy sotsialistik sivilizatsiya yaratish, millatlar o’rniga sovet kishisini shakllantirish siyosati g’ayrihayotiy tasavvurlar mahsuli ekani aniqlangach, Respublikamiz o’ziga xos va o’ziga mos milliy demokratik taraqqiyot yo’liga o’tdi. Bu tashqaridan amalga oshirilgan inqilob emas, balki xalqimizning tarixiy va vorisiylik an’analari uyg’unligiga, mustaqil yashash va milliy madaniyatini erkin rivojlanishini ta’minlashga intilishlarining natijasidir [9]. Mustaqillik ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida tarixiylikni ham vorisiylikni ham, ular o’rtasidagi bog’liqlikni, tadrijiy rivojlanishga xizmat qiluvchi uyg’unlikni ham ta’minladi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi misoldan ma’lum bo’ladiki, xalq madaniyatida nafaqat rivojlanish, ba’zan ob’ektiv sabablar bois turg’unlik yoki “orqaga qaytish” hollari ham bo’lishi mumkin. Lekin bu “orqaga qaytish” mutlaq bo’lmay, vaqtinchalik yoki xalq madaniyatining ayrim bir ko’rinishlariga taalluqli bo’ladi. Arablar bosqini davrida xalqimiz zardo’shtiylik bilan bog’liq an’analaridan, urf-odatlari, tasavvurlari va bayramlaridan voz kechmagan, balki imkon boricha ularni asrab-avaylashga intilgan. Islomning mahalliy sharoitga moslashishi ana shu paradigma ta’sirida yuz bergan. Yoki ikkinchi jahon urushi davrini olaylik. Gitlerchi-fashistlar O’zbekistonga bostirib kelmagan bo’lsada, mamlakatdagi umumiy harbiy holat, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar o’zbek xalqi hayotiga, turmushiga salbiy ta’sir etmay qolmadi. Ammo xalqimiz og’zaki ijodi va san’atida yangi janrlar, asarlar paydo bo’ldiki, demak, xalq madaniyatida mutlaq “orqaga qaytish”, to’xtash yoki inqiroz bo’lmaydi. Faqat millat, xalq tarix sahnasidan tushgach, ana shunday salbiy hol yuzaga kelishi mumkin. Gnoseologik nuqtai nazardan qaraganda, bu misollarda xalq madaniyati “inkorni inkor” qonuniga muvofiq rivojlanishini, ammo unda inkor mutlaq holga aylanmasligini, o’zgarish yoki “orqaga qaytish” esa uning ayrim ko’rinishlariga taalluqli lokal voqelik sifatida kelishini kuzatamiz[10].

Xalq madaniyatidagi tarixiylik va vorisiylik zamonaviylikni inkor etmaydi, balki ular zamonaviylik orqaligina o’zini namoyon qiladi. Shuning uchun xalq madaniyatini, undagi tarixiylik va vorisiylikni zamonaviylik orqaligina idrok etish, o’rganish mumkin [11].

Xalq madaniyatining ijtimoiy xususiyati uni xalq hayoti, turmush tarzi, tajribasi, yaratgan boyliklari, qadriyatlari kabilar orqali qarashga undaydi. Ma’lumki, ushbu boyliklar va qadriyatlarning realligi, ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida mavjudligi ularning hayotdagi o’rnini aniqlashdan, bilishdan boshlanadi. Xalq madaniyatini xuddi tirik organizmdek, tirik sistemadek tasavvur qilmasdan uning o’tmish bilan ham, kelajak bilan ham uyg’unligini anglab bo’lmaydi. Zamonaviyligi orqali xalq madaniyati o’tmishdan o’sib chiqqanini va kelajakka yo’naltirilgan ijobiy tajriba, voqelik ekanini namoyon etadi. Demak, zamonaviylikda o’tmish tajribasi va kelajak rejalari, kishilarning orzu umidlari mujassamdir.

Zamonaviylik har doim boshqa xalqlar yaratgan boyliklarga munosabatlar, innovatsiyaga moyillik, transformatsion o’zgarishlarni qo’llab-quvvatlashdir [12]. Zamonaviylikka an’analardagidek barqarorlik va muqimlik emas, balki yangilikka intilish, mudom o’zgarishlarga yon bosish xosdir. Bu o’rinda tarixiylik, vorisiylik, an’anaviylik bilan zamonaviylik o’rtasida qarama-qarshilik, ziddiyat borligi ko’zga tashlanadi. Ushbu ziddiyatlarni batomom bartaraf etib bo’lmaydi, ular ijtimoiy hayotning ichidagi, hatto taraqqiyotni ta’minlovchi, ob’ekt (sub’ekt)ning olg’a intilib yashashining sharti, qonunidir [13]. Ammo bu ziddiyatlar antogonistik kurashga aylanmasligi darkor, aks holda bu kurash madaniyatning o’zini inqirozga, yemirilishga olib keladi. Madaniyatdagi qaysi jihatlar, qismlar zamonaviy va kelajak uchun foydali ekanini taraqqiyotning o’zi hal etadi. Ammo bu xalq irodasini, jamiyat ta’sirini, maxsus institutlarning ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarishdagi o’rnini inkor etish emas. Xalq madaniyatidagi u yoki bu yo’nalishni, qismlarni rivojlantirish madaniy siyosatga ham bog’liqdir. Aynan davlat madaniy siyosati xalq madaniyatining butun tizimiga yoki uning ayrim qismlariga zamonaviylik baxsh etishi va ushbu zamonaviylikni maxsus qo’llab-quvvatlab, yangi, zamonaviy ijod sohalarini yaratishi mumkin [14].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq madaniyati tarixiylik, vorisiylik va zamonaviylik orqali ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning tarkibiy qismiga aylanadi, xalq hayotidagi o’zgarishlarga o’ziga xos tarzda “javob beradi.” Aynan tarixiylik, vorisiylik va zamonaviylik xalq madaniyatining ekzistentsional mohiyatini belgilab beradi, unga sotsiodinamik yo’nalish, “zarur yoki zarur emas”lik, turg’unlik yoki harakatchanlik baxsh etadi [15].

ADABIYOTLAR

1. Лукреций Кар. О природе вещей. – Москва:Мысль,1933. – С.156.
2. Кондорсэ Ж.А. Эскиз исторической картины прогресса человеческого разума.-Москва: Мысль,1936.-С.4 -5.
3. Баллер Э.А. Социальный прогресс и культурное наследие. –Москва: Наука, 1987. – С.22, 17.
4. Ясперс К. Смысл и назначение истории .-Москва: Политиздат, 1991.- С.33, 155
5. A., Utanova U. "Scientifically-Philosophical Analysis of Cultural and Spiritual Heritage." International Journal on Integrated Education, vol. 2, no. 1, 2019, pp. 53-55, doi:10.31149/ijie.v2i1.288.
6. Утанова, У. (2016). "Народная культура": понятие, сущность, социально-философский анализ. In Современные научные исследования: актуальные теории и концепции (pp. 183-185).
7. Talipovich, A. G., Agzamkhodzhaevna, U. U., Ҳamdamovich, I. K., & Yunusovich, A. N. (2022). Problems Of Copyright Protection In The National Legislation Of Uzbekistan. Journal of Positive School Psychology, 6(10), 2378-2384.
8. XX asrning dastlabki o‘ttiz yilligida O‘zbekistonda tarix fani. (tarixshunoslik ocherklari). –Toshkent: Fan, 1994.- 309-343 b.
9. Umida A. Utanova, (2021). The role of museums in the development of tourism. current research journal of history (2767-472X), 2(10), 27-32
10. https://masterjournals.com/index.php/CRJH/article/view/388
11. Rayimjonovna, N. N., Olimovich, E. A., Rakhmonali, H., & Agzamhodzhaevna, U. U. (2020). The Portrait of a Socially Active Woman: Moral and Ethical Qualities and Leadership Characteristics. Test Engineering and Management, 82(1-2), 1851-1859.
12. Agzamxodjaevna, U. U. (2022). Commercialization processes and technology transfer as components of the university's core model. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 311-315.
13. Utanova, U. A., Rajabov, K. I., Inoyatov, K. K., & Marufbaev, B. S. (2021). Entrepreneurial Universities as a Modern Development Stage of the University 3.0 Concept. Technology. Volume 18, Special Issue on Current Trends in Management and Information Technology, Pages: 1053-1066.
14. DOI: 10.14704/WEB/V18SI05/WEB18281
15. Утанова, У. А., & Алимов, Н. Ю. (2022, September). “Этические и лидерские качества руководителя. in international scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 1, No. 1, pp. 221-228).
16. Утанова У. А. Общечеловеческое и национальное в народной культуре //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2014. – №. 38. – С. 91-95.
17. Utanova, U. A. (2020). Folk culture is a socio-historical phenomenon. International Engineering Journal For Research & Development, 5(9), 5-5.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘K: 378:371.03

Voxid FAYZIEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, b.f.d
Sirojiddin QORAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ijrochi direktori

ChDPU universiteti dotsenti K.A.Mutalov taqrizi ostida

INNOVATSION TA’LIMI KLASTERI ASOSIDA TALABALAR EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Maqolada talabalarning ekologik kompetentligining asosiy funksional va tuzilma tarkibiy qismlari, klasterini tashkil etish yo’nalishlari, bosqichlar, muhit va sharoitlari,ekologik ta’lim nazariyasi va amaliyotida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonining mazmuni va tashkiliy-metodik jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, talaba, model, rivojlanish, atrof-muhit, kompetentlik, tafakkur, barkamollik, monitoring.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА

Абстракт

В статье говорится об основных функциональных и структурных компонентах экологической компетентности студентов, направлениях, этапах, условиях и условиях организации кластера, содержании и организационно-методических аспектах процесса формирования экологической компетентности студентов. В теории и практике проводится экологическое просвещение.
Ключевые слова: экологическая культура, студент, модель, развитие, среда, компетентность, мышление, совершенство, мониторинг.

MODEL OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' ENVIRONMENTAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL CLUSTER

Abstract

The article talks about the main functional and structural components of students environmental competence, directions, stages, conditions and conditions for organizing a cluster, the content and organizational and methodological aspects of the process of forming students environmental competence. Environmental education is carried out in theory and practice.
Key words: ecological culture, student, model, development, environment, competence, thinking, perfection, monitoring.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ekologik madaniyatini rivojlantirish vazifalarini optimal amalga oshirish uchun aniq ilmiy-nazariy asosga ega bo‘lish kerak. Tegishli ilmiy asoslangan modelni ishlab chiqish ko‘rib chiqilayotgan jarayonning tuzilishi va ishlashini, uning yaxlitligini qayta tiklash uchun belgilar tizimi yordamida yoritishga yordam beradi. Tegishli ta’lim jarayonining tuzilishi va mazmunini aks ettiruvchi modelning mavjudligi ijobiy natijaga erishish uchun uning rivojlanishini loyihalash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Model – bu keng ma’noda biror obyekt, jarayon yoki hodisaga o‘xshash - ushbu modelning “asli”, uning “o‘rinbosari”, “vakili” sifatida ishlatiladi. Didaktik model - bu didaktik jarayonni qayta yaratish, uning tuzilishi va faoliyatining yaxlitligini ochib beradigan belgilar tizimi. Modellashtirish obyektlarni modellari bo‘yicha o‘rganish usuli sifatida murakkabni oddiy, ko‘rinmas va sezilmaydiganni ko‘rinadigan va seziladigan, notanishni tanishga o‘zgartirish imkonini beradi.

Modellashtirish o‘ziga xos tuzilishga ega va bosqichlarga bo‘linadi. Ta’lim jarayonining zamonaviy modeli - bu tarkibiy qismlarning yaxlit to‘plami bo‘lib, uning yordamida nafaqat uning statikasini, balki dinamikasini ham aks ettirish mumkin.

Biz ishlab chiqayotgan model olimlar, o‘qituvchilar, psixologlar, ekologlar, muhandislarning shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish muammosi haqidagi zamonaviy qarashlariga asoslanadi. Model bloklarini, funksional va tarkibiy qismlarini, mazmunini, ko‘rib chiqilayotgan jarayonning bosqichlarini va diagnostika vositalarini ishlab chiqishda “60110900 – Biologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari ekologik-madaniyatini rivojlantirish muammosini hal qilishning asosi va tegishli model bu shaxsga yo‘naltirilgan, kompetentli va tizimli faoliyatli yondashuvlar majmuasidan maqsadga muvofiq foydalanishni nazarda tutadi.

Zamonaviy didaktik modelga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- obyektivlik (mohiyatni ko‘rsatish);
- subyektivlik (qabul qiluvchining tezaurusini ko‘rsatish);
- me’yoriylik (xohlayotgan narsani ko‘rsatish);
- interaktivlik (dialogni ko‘rsatish);
- moslashuvchanlik (individual xususiyatlarni ko‘rsatish);
- ochiqlik (qabul qiluvchining faoliyati qoidalarini ko‘rsatish).

Didaktik jarayonning modeli dinamik, tizimli, funksional, omilli, ijtimoiy-texnologik va aralash bo’lishi mumkin. Bizning tadqiqotimizda biz “60110900 – Biologiya” ta’lim yo’nalishi talabalarining ekologik madaniyatini rivojlantirish tuzilmasini to’liq aks ettiruvchi funksional-tuzilma modelni ishlab chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning tadqiqotimizda talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonining natijasi bo‘lajak pedagogning ekologik ta’lim

funksiyalarini bajarish qobiliyati va tayyorligi bo‘ladi, tegishli “konstruksiya” - biz qurgan model hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan kompetentlikning funksional tarkibiy qismlarini aniqlash uchun biz “funksiya” tushunchasiga murojaat qilamiz. Funksiya - bu faoliyat, burch, ish; obyekt xususiyatlarining berilgan munosabatlar tizimidagi tashqi ko‘rinishidir.

Pedagogika sohasida funksiya pedagogik faoliyatga bog‘liq bo’lgan va uning ko‘rinishi bo‘lgan hodisa sifatida ta’riflanadi. Talabalarining ekologik kompetentligining funksional tarkibiy qismlarini aniqlash uchun biz 60110900 Biologiya ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini o‘rgandik. Biz aniqlagan ko‘rib chiqilayotgan kompetentlikning funksional tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari 3-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

60110900 Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining ekologik kompetentligi funksional tarkibiy qismlarining mazmuni

Tarkibiy qism nomi	Tarkibiy qism mazmuni
1	2
1. Diagnostik-loyihalovchi	Obyekt va jarayonni, harakat va o’zining ekologik ta’lim faoliyati natijalarini o‘rganishni ta’minlaydi; ekologik ta’limning dolzarb muammolarini o‘rganishga qaratiladi; ekologik shaxsni rivojlantirish, ekologik ma’lumotlar mazmunini rejalashtirish maqsadlari va usullarini loyihalashni o‘z ichiga oladi
2. Qadriyatga yo‘naltirilganlik	ekologik qadriyatlar va talabalarning ekologik yo‘naltirilgan metodik ijodkorligi ustuvorligini ta’minlaydi; bo‘lajak pedagoglarning ekologik qadriyatlarni singdirish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi
3. Tashkiliy-rivojlantiruvchi	talabalarning ekologik o‘z-o‘zini rivojlantirishi, shuningdek bilim va ekologik faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiradi
4. Boshqaruv - kommunikativ	tinglovchilar bilan pedagogik, ijodiy izlanish va psixologik yordam jihatidan maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish uchun sharoit yaratishni ta’minlaydi; talabalardan pedagogik muloqot madaniyati asoslarini bilishni talab qiladi
5. Nazorat - baholash	fuqarolarning ekologik faoliyatini nazorat qilish va baholash, uning natijalarini qayd etish, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z ta’lim faoliyatini baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

1-jadvalda keltirilgan funksional tarkibiy qismlar zamonaviy pedagogning ekologiya sohasidagi fazifalarini to‘liq aks ettiradi va uni bo‘lajak muhandislar tomonidan tegishli ekologik-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lish bosqichida muvaffaqiyatli tuzadi.

Ko‘rib chiqilayotgan modelning tarkibiy qismlarini ko’rib chiqamiz. Mavjud tashkiliy tajribaga asoslanib, biz oliy ta’lim talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlarini: qadriyatli-motivasion, mazmunli va texnologik sifatida tavsiflash mumkin degan xulosaga keldik.

Ko‘p mualliflar bo‘lajak mutaxassisning pedagogik faoliyatga tayyorligi tuzilmasining ajralmas tarkibiy qismlari ushbu faoliyat uchun motivasiya, nazariy va amaliy tayyorgarlik ekanligini tasdiqlaydilar. Barcha tarkibiy qismlarni shakllantirish muayyan pedagogik talablarni amalga oshirish orqali bajariladi. Shuning uchun oliy ta’lim talabalarining ekologik kompetentligi tuzilmasini ko‘rib chiqishda biz tarkibiy qismlarning har birini shakllantirishga qo‘yiladigan pedagogik talablarni aniqlaymiz. Pedagogika fanida pedagogik talablar tushunchasi ta’lim-tarbiya holatlar sifatida ta’limning mazmuni, metodlari va vositalarini maqsadli tanlash, loyihalash va ulardan foydalanish natijasi sifatida talqin qilinadi. Biz o‘z tadqiqotimizda pedagogik talablarni ko‘rib chiqilayotgan kompetentlikni rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq holatlarning zarur va etarli to‘plami sifatida belgilaymiz.

Tahlil va natijalar. Ekologik ta’limni amalga oshirishga tayyorlashda quyidagi qadriyatlar guruhlarini ajratib ko‘rsatish kerak: ijtimoiy, ekologik, axloqiy, pedagogik va “men-qadriyatlari”. Ijtimoiy qadriyatlar inson faoliyati jamiyat taraqqiyotiga qanchalik hissa qo‘shishi bilan belgilanadi. Ekologik qadriyatlar tabiatning o‘ziga xos qadriyatli va ekologik imperativning ustuvorligiga qaratiladi. Axloqiy qadriyatlar ma’naviy sohaning quyi tizimi bo‘lib, u insonning ekologik muammolarga, shuningdek, ushbu muammolarni hal qilishga hissa qo‘shadigan o‘z kasbiy faoliyatiga mas’uliyatli munosabatini o‘z ichiga oladi.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida eng muhim o‘rinlardan birini ekologik qadriyatlar tizimiga asoslangan motivasiya egallaydi. Motivasiya deganda shaxsni muayyan faoliyat yoki xulq-atvor shakllariga undaydigan motivlar tizimi tushuniladi. Motiv - bu muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatni rag‘batlantirishdir. Motivlar shaxsning qadriyat yo‘nalishlarini belgilaydi. Tabiatga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish ekologik faoliyat-ning murakkab turi hisoblanib, insonparvarlik, madaniy-estetik, sanitariya-sog‘lomlashtirish va fuqarolik-vatanparvarlik motivlarini ajratib turadi. Hozirgi tadqiqotchilar ekologik motivasiyani ikki xil: antroposentrik (tabiatni inson manfaatlariga bo‘ysundirish g‘oyasi ustunligi bilan) va ekosentrik (jonli va jonsiz tabiatning ichki qiymati ustunligi bilan) deb hisoblashadi. Motivasiyaning bu ikki turiga ko‘ra ekologik ongning ekosentrik va antroposentrik turlari shakllanadi. Tadqiqotimizda “inson – tabiat” tizimidagi va tabiatning o‘zidagi munosabatlar, shuningdek, u bilan o‘zaro ta’sir aloqasining tegishli strategiyalari va texnologiyalari haqidagi g‘oyalari (individual va guruhli) majmui sifatida talqin qilingan “ekologik ong” atamasidan foydalanamiz.

Ko‘rib chiqilayotgan kompetentlikning qadriyatli-motivasion tarkibiy qismi asosi sifatida talabaning tabiatning o‘ziga xos qiymatini shaxsan anglashi, u bilan subyektiv munosabatda bo‘lishga intilishi, fuqarolarda ekologik qadriyatlar va ekologik madaniyatni singdirishga qiziqish ko‘rib chiqilishi kerak. Qadriyatli-motivasion tarkibiy qismi bo‘lajak o’qituvchining ekologik muammolarga nisbatan ijtimoiy va axloqiy pozisiyasini aks ettiradi hamda birinchidan, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishdan manfaatdorlik va zaruratda, ikkinchidan, o‘z ta’lim faoliyati sifati va natijalari uchun mas’uliyatda namoyon bo’ladi. Talabalarda ekologik kompetentlikning qadriyatli-motivasion tarkibiy qismini rivojlantirish orqali talabalarda ekologik ta’lim faoliyatining ahamiyatini tushunishiga, unga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Qadriyatli-motivasion tarkibiy qism quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tabiatga obyektiv munosabat va unga subektiv munosabat;

– tabiiy muhitni asrash bo‘yicha fuqarolik va kasbiy faoliyat;

- kelajak avlodlar uchun tabiat qiymatiini saqlab qolish istagi;

– ishlab chiqarish jarayonlarini ekologizasiyalashtirish muammolarini samarali hal etish zarurati;

- fuqarolarning tabiatga ijobiy munosabatini shakllantirish, ekologik va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish zarurati;

- fuqarolarning ekologik bilimlari, tadqiqot ko’nikmalari va estetik tuyg’ularini boyitish uchun tabiat bilan aloqani tashkil etish zarurati;

- tinglovchilar bilan ijtimoiy-ekologik muammolarni hal qilishning mumkin bo‘lgan usullarini topish va qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini oldindan ko‘rish zarurati;

– ta’lim faoliyatida uzluksiz ekologik ta’limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish zarurati;

- ta’lim oluvchilarning psixologiyasi va individual xususiyatlarini o‘rganish zarurati.

Qadriyatli-motivasion tarkibiy qism mazmuni talaba shaxsining ekologik-insonparvarlikka yo‘naltirilganligini ko’rsatadi. Bunda ekologik ta’lim faoliyati uchun barqaror motivasiyani shakllantirish talabalarda kasbiy qiziqishni shakllantirish bilan bog‘liq. Biz qadriyatli-motivasion tarkibiy qismni shakllantirish uchun pedagogik talablarni aniqlash uchun asos qilib oldik. Ushbu talablarga biz quyidagilarni kiritamiz:

- talabaning o‘zining yuksak kasbiy missiyasini anglashi;

- ta’lim jarayoni subyektlarining (o‘qituvchi va talaba) ijodiy faoliyatga tayyorligi;

- ta’lim muassasasi moddiy-texnik bazasining etarli darajada bo‘lishi;

- “o‘qituvchi – talaba” tizimida dialog muloqoti mavjudligi;

– o‘qituvchi va talabalarning ijobiy kasbiy-pedagogik va shaxsiy xususiyatlari.

Qadriyatli-motivasion tarkibiy qism talabalar ekologik kompetentligining asosiy tarkibiy qismidir. Shakllangan motivlar va qadriyatlar tizimi ko’rib chiqilayotgan kompetentlik mazmuni va texnologik tarkibiy qismlarini shakllantirish kaliti hisoblanadi. Bilimga asoslangan tarkibiy qismi mazmunini asoslashga o’tamiz. “Bilim” atamasining mohiyatini yoritishda pedagogik ensiklopediyaga murojaat qilamiz. “Bilim ijtimoiy-tarixiy amaliyot va mantiq bilan tasdiqlangan voqelikni idrok etish jarayonining natijasidir, u inson ongida g‘oyalar, tushunchalar, mulohazalar, nazariyalar ko‘rinishida aks etadi. Inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lgan bilim ko‘p jihatdan uning voqelikka munosabatini, axloqiy qarashlari va e’tiqodini, irodaviy xususiyatlarini belgilaydi va shaxsning mayl va qiziqishlarining manbalaridan biri, uning qobiliyatlarini rivojlantirishning zaruriy sharti bo’lib xizmat qiladi”.

Shunday qilib, biz ko‘rib chiqayotgan kompetentlikning zaruriy bilimlarni o‘zlashtirishga asoslangan tarkibiy qismi talabalarda qadriyat yo‘nalishlarini va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarni, amaliy ko’nikma va malakalarni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Talabalarga ekologik ta’lim berishda bo‘lajak pedagog tayyorgarligining o‘zagi uning ilmiy asoslangan qo‘llanilishi va tegishli pedagogik vaziyatlarga keng o‘tkazilishini ta’minlaydigan nazariy bilimlari tizimidir. Ong va faoliyatning birligini hisobga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri fuqarolarni ekologik bilimlar va uni egallash usullari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Bundan kelib chiqqan holda, 60110900 Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining ekologik bilimlari deganda biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

– atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik sohasidagi qonun hujjatlarini bilish;

– ekologik ta’limning mohiyati, mazmuni, tamoyillari, metodlari va shakllari to’g’risidagi bilimlar;

– fundamental, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-ekologik va muhandislik-ekologik bilimlar;

- biota holati va tabiat, jamiyat va insonning o‘zaro ta’siri haqida turli xil faktik fanlararo bilimlar;

– ishlab chiqarish jarayonlarini ekologizasiyalash usullarini bilish;

– o‘lka tarixining ekologik ta’lim imkoniyatlarini bilish;

- ekologiya psixologiyasini bilish.

Yetarlicha keng va doimiy yangilanadigan bilim kasbiy mahoratning dastlabki talabi bilan birga, nafaqat bilim miqdori, balki ularning aniqligi, ongliligi, ta’lim jarayoniga moslashuvchan qo‘llanilishi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ekologik kompetentligi tarkibiy qismining samarali faoliyati amaliyotda ekologik bilimlar va ularni amaliyotga tadbiq etish ko’nikmalari dolzarbligi bilan ta’minlanadi. Ushbu tarkibiy qismning komponentlari turli yondashuvlar, nazariyalar va tushunchalar bilan ifodalanadi. Shunday qilib, talabalarni ekologik ta’limga tayyorlashning axborot tarkibiy qismida ekologik, psixologik-pedagogik, ijtimoiy-ekologik va metodik bilim guruhlarini ajratib ko‘rsatadi. Ko‘rib chiqilayotgan kompetentlikni rivojlantirish jarayoni haqida gapirganda, biz, birinchi navbatda, talabaning sub’ektiv ongida dunyoning yaxlit ekologik manzarasini va undagi shaxsning o‘rnini shakllantirishni, shuningdek ekologik ta’limning maqsadi, mazmuni va metodik tarkibiy qismlari haqidagi bilimlarini nazarda tutdik. Umumlashtirilgan shaklda Biologiya talabalari ekologik kompetentligining mazmunli tarkibiy qismi tuzilishi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari ekologik kompetentligining mazmunli tarkibiy qismining tuzilishi.

Bunday bilimlar majmui tarkibiga ko‘ra murakkab bo‘lib, ijtimoiy, tabiiy-ilmiy, texnik, ekologik, psixologik-pedagogik qonuniyatlar, nazariyalar va tushunchalar bilan o‘zaro munosabatlarda ifodalanadi. Ko‘rib chiqilayotgan kompetentlikning tarkibiy qismini shakllantirishga qo‘yiladi-

gan pedagogik talablar orasida biz quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

– ekologiya va turdosh fanlar bo‘yicha nazariy darslar tizimining mavjudligi;

– talabalarning ekologik bilimlarini boyitish;

- shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir;

- muvaffaqiyat vaziyatini yaratish;

- bilimlarni shaxsiy rejaga o‘tkazish;

- talabalarning zarur adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi;

– talabalar va o‘qituvchilarning ham o‘z-o‘zini tarbiyalashi;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni muntazam nazorat qilish.

Kompetentlikning texnologik tarkibiy qismini talabalarning ekologik faoliyati aniq ko‘nikma va malakalarda amalga oshiriladi. Ilmiy bilimlar majmuasini egallash darajasi hali bitiruvchi uchun kompetentlik belgisi bo’lmaydi - bunday belgi ko‘nikma (amaliyotga o‘tkazilgan bilim) va malaka (avtomatizmga olib keladigan ko‘nikmalar) hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Ekologik faoliyat ko‘nikmalarining mazmuni uning metafaoliyatining o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq, ya’ni boshqa shaxsning ekologik faoliyatini tashkil etuvchi faoliyatdir. Ekologik ta’limning faoliyatli tarkibiy qismini ekologik xarakterdagi bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish usuli sifatida ko‘rib chiqadi. Ekologiya sohasida pedagog sifatidagi faoliyatining predmeti insoniyat tomonidan to’plangan ekologik tajribani etkazishga qaratilgan tarbiyaviy vazifasidir. Bunday etkazish usullari ekologik ta’limning turli shakllari, metodlari va vositalari bo‘lishi mumkin, uning natijasi esa fuqarolarning ekologik madaniyati, ularning shaxsiy o‘sishi hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislarning individual ekologik tajribasi, aksiologik, g‘oyaviy, mavzuli va baholash tarkibiy qismlarining barcha to’plamini o‘z ichiga olishi kerak. Bunday qarashlarga ko‘ra, u yo’naltiruvchi, rivojlantiruvchi, moslashtiruvchi va axborot funksiyalarini, shuningdek, ekologik faoliyatidagi ko’nikmalarning ikki guruhi: shaxsiy-ekologik ko’nikmalar va talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish ko’nikmalarini ajratib ko‘rsatiladi. Modelning jarayonli blokida innovasion ta’lim klasterini amalga oshirish jarayonidan iborat bo‘lib, unga ta’lim klasterini samarali tashkil etish tuzilmasi asos qilib olindi va blok o‘zida ta’lim klasterini tashkil etish yo‘nalishlari, bosqichlar, muhit va sharoitlar, hamda omillardan mujassamlaydi. Jarayonning samarali amalga oshirilishi innovasion ta’lim klasteri tizimning raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhit va shart-sharoitni yaratgan holda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik ahamiyati orta boradi.

Ekologik ta’limni tashkil etishda ekologik inqirozdan chiqishning quyidagi: tabiiy-ilmiy; naturalistik, global-biosfera; muammoli; qadriyatli; madaniy-sivilizasiya kabi turli yo‘llarini tushunishga asoslangan ilmiy yondashuvlarga tayanadi va mavjud yondashuvlarning xilma-xilligi ekologik inqirozni bartaraf etish sabablari va yo‘llari haqidagi tasavvurni to‘liq aks ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori, Toshkent., 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 27 may 434-sonli Qarori.
3. Muslimov N. A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovasion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi. 2016 yil.
4. Burgin M.S. Innovasi i novizna v pedagogike / M.S. Burgin Sovetskaya pedagogika. -1989. -№ 12.
5. Shamova T.I. Klasterniy podxod k razvitiyu obrazovatelnix sistem Vzaimodeystviya obrazovatelnix uchrejdeniy i osiuma v obespecheni effektivnosti, dostupnosti i kachestva obrazovaniya regiona: Materiali 10-Mejdunarodnogo obrazovatelnogo foruma. Belgorod. 24-26 okt. 2006 g.
6. www.slayd.arxiv.uz
7. www.arxiv.uz
8. www.google.uz

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 1:16:165(575.1)

Aqida XAYDAROVA,
Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi asisstenti, (PhD)
E-mail: aqi_93@bk.ru

Guliston davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi S.Ismoilov taqrizi asosida

TENDENCY IN MODERN APPROACHES TO VIRTUAL REALITY

Abstract

This article shows that virtual reality technologies expand the boundaries of cognition and the possibilities of thinking, manifest themselves in positive results and negative consequences of social life, and in the third millennium virtual reality is able to eliminate alienation and individualization of a person, ensure the well-being of a comprehensively developed personality, ensure economic stability and use them for positive purposes, on the fact that it is a factor in the improvement of mechanisms.
Key words: reality, virtual reality, cyber threat, technology, individualization, technocratic worldview.

ТЕНДЕНЦИИ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Аннатоция

В данной статье показано, что технологии виртуальной реальности расширяют границы познания и возможности мышления, проявляются в положительных результатах и отрицательных последствиях общественной жизни, а в третьем тысячелетии виртуальная реальность способна устранить отчуждение и индивидуализацию человека, обеспечить благополучие всесторонне развитой личности, обеспечивающих экономическую стабильность и использующих их в позитивных целях, на том, что она является фактором совершенствования механизмов.
Ключевые слова: бытье, виртуальная реальность, киберугроза, технология, индивидуализация, технократическое мировоззрение.

VIRTUAL REALLIKKA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TENDENSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada virtual reallik texnologiyalari bilim chegaralari va tafakkur imkoniyatlarini kengaytirayotgani, ijtimoiy hayotning ijobiy natijalari va salbiy oqibatlarida namoyon bo‘layotgani va uchinchi ming yillikda virtual reallik insonning begonalashuvi va individuallashuvini bartaraf etish, barkamol shaxs tarbiyasi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ulardan ijobiy maqsadlarda foydalanishning mexanizmlarini takomillashtirish omili ekanligi asoslanadi.
Kalit so’zlar: borliq, virtual reallik, kibertahdid, texnologiya, individuallashuv, texnokratik dunyoqarash.

Kirish. Virtual reallik fan va falsafada nisbatan yangi tushuncha bo‘lsada, dastlab Aristotelning «Nikomoxova etika» asarida orzular, xayol va tasavvurning inson hayotiga ta’siri[1], Platonning «Davlat»[2] asarida ideal davlat g‘oyasi virtual reallikka ishora sifatida namoyon bo‘lgan. Kaykovusning «Ey farzand, hargiz yaxshilik qilmoqni tark etmagil, hamisha yaxshilikni xaloyiqqa ko‘rsatgil va aslo uni aksin ko‘rsatmagil, boshqa til bilan so‘zlama»[3], degan fikrida real munosabatlarda axloqiy qoidalarga amal qilishga da’vatni, Forobiyning «Fozil odamlar shahri»[4] asarida ideal jamiyat haqidagi g‘oyalarni, Uyg‘onish davri utopik sotsialistlarning quyosh shahri haqidagi orzularini virtual reallikning tarixiy ildizlari, deb baholash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turli soha mutaxassislarining ilmiy tadqiqot ishlarida virtual reallikga texnologik taraqqiyotning mahsuli sifatida baho berilgan bo‘lsada, ijtimoiy borliqda amal qilish mexanizmlari yetarli asoslanmaganligi bois, ushbu tadqiqot ishida virtual reallik falsafasining metodologik yo‘nalishlarini ochib berish va kelajak istiqbollarini belgilashga harakat qilingan.

Insoniyat eng qadimgi davrlardayoq o‘zining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, yangi turmush tarziga ega bo‘lishni orzu qilgan, o‘zining kpeativ tafakkupiga tayangan holda yangi borliqning modelini yaratgan. Shu nuqtai nazardan, Platonning «Dialog»[5] asaridagi Atlantida afsonasi virtual reallik haqidagi tasavvurlarning dactlabki asosidir. Shuningdek, uning «Davlat» acarida davlat boshqaruvida ijtimoiy adolat o‘rnatilishi, odamlarning o‘zaro munosabatlaridagi samimiylik ham virtual reallikning modeli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hindlarning Ramayana, Maxabxorat afsonalaridagi shaxslararo munosabatlar virtual reallik modelining yorqin namunasidir. Shu nuqtai nazardan Virtual borliq inson tafakkuri mahsuli sifatida qadimgi ildizlarga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar virtual reallik qadimgi ildizlarga ega bo‘lsa va unda ilohiy munosabatlarga ishora namoyon bo‘lsa, u holda virtual reallikning zamonaviy ta’rifi qanday, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. «Virtual reallik» tushunchasining epistemologik kelib chiqishi lotincha «virtus» so‘zi bilan bog‘liq. Qadimgi rimliklar bu so‘zdan turli ma’no va mazmunda foydalangan. Sitseron va Seneka[6] bu atamani ezgulik so‘zining sinonimi sifatida ishlatgan. Virtuallik bir-briga bog‘lanmagan, ontologik jihatdan mustaqil bo‘lgan ko‘plab voqeliklarni qayd etib, ularni modellashtiradi, imitasiya qiladi. Biz virtual reallik mavjudligining tan olinishi mono-ontologik yondashuvni inkor qilib, borliqqa nisbatan yangi poli-ontologik yondashuvni shakllantiradi, degan xulosaga kelamiz. «Realliklar borliqning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi tupli shakllar hisoblanadi. Inson turli xil realliklarda yashaydi: ish, o‘yin, muloqot, tush va h.k. Ularning har biri voqealar ketma - ketligi, mantiqiyligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Inson yangi makon yaratuvchisi. U o‘zining ijtimoiy tabiati tufayli sodir bo‘layotgan voqealarga ma’no beradi. Virtuallik va borliq haqidagi g‘oyalar axborot texnologiyalari paydo bo‘lishidan oldin shakllangan. Ammo "ehtimoliy reallik" sintezi sifatidagi mazkur tushuncha texnik tizimlar tufayli paydo bo‘ldi. Shuning uchun virtual borliq "ehtimoliy" reallik deb tarjima qilinadi. Sababi uni yaratish vositalari mavjud. Shunday so‘ng virtuallik haqiqiy bopliqqa papallel ravishda mavjudligini

da’vo qila boshladi. Virtual reallik mavzusida ish olib boruvchi tadqiqotchilar ushbu tushuncha yuzasidan yagona ta’rifni keltirib o‘tishmagan. Virtual reallikni tushunish va tushuntirishdagi turli yondashuvlar buning sababi hisoblanadi. Asosan, virtual reallikka nisbatan bir qancha yondashuvlar shakllangan:

- *Birinchidan,* virtual reallik axborotni namoyish etishning texnik vositasi – texnik reallik;

- *Ikkinchidan,* virtual hodisalar ruhiy holatlar (aqliy voqelik) bilan tenglashtiriladi;

- *Uchinchidan,* avvalgi ikki yondashuv o‘zaro birlashtirilib, virtual reallik foydalanuvchi uchun ham texnik bazani yaratuvchi sifatida, ham uning ongiga ta’sir etuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi»[7].

Tadqiqotchilar «virtus» atamasining quyidagi ma’nolarini qayd qiladilar: axloqiy qadriyat, yaxshilik, ezgulik, xayoliy, jasorat, potensiallik, noreallik. Ingliz tilida virtus – fazilat, axloqiy qadriyat degan ma’nolarda namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha «virtual» tushunchasi potensial, xayoliy, haqiqiy bo‘lmagan ma’nolarda ishlatiladi»[8].

Tahlil va natijalar. «Borliq – mavjudlikning barcha (moddiy va ma’naviy) shakllarini, (real va noreal) turlarini va (o‘tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi) ko‘rinishlarini o‘ziga qamrab oluvchi eng umumiy va universal falsafiy kategoriyadir»[9]. «Reallik esa borliqning muayyan obyektda mavjud bo‘lgan, mujassamlashgan qismini ifodalaydi. Reallik borliqning ayni shu paytda biz uchun mavjud bo‘lgan qismidir»[10]. «Ilmiy-texnik qomusiy lug‘ati»da: «Virtual reallik (inglizcha – «virtual reality» – sun’iy voqelik) – texnik vositalar bilan yaratilgan, insonga ko‘rish, eshitish orqali yetkaziladigan «sun’iy borliq» deb ta’rif berilgan[11]. Fanda esa «virtual reallik» tushunchasi sun’iy reallik deb ataladi. Sun’iy virtual reallik – kompyuter bilan aloqaga kirishish va voqelikning sun’iy turiga o‘tishdir. Virtual reallik zaruriy imkoniyat sifatida borliqning muhim xossasi sifatida namoyon bo‘ladi.

«Virtual kommunikasiyalarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy va ijobiy ta’siri hamda ularning inson tafakkuri begonalashuvi va kreativligi omili»[12] deb A.E. Jichkina tasniflaydi. V.V. Bichkov va N.B. Mankovckaya fikricha, «Virtual borliq peal borliqning takomillashgan obrazidir»[13], V.Yu.Nesterov fikricha, «Virtual reallik shaxslararo munosabatlarda yuqori emotsionallik, ba’zi hollarda shaxslararo muhabbat, ba’zi hollarda esa shaxslararo qo‘rquv omili», sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamlashtirish jarayonining takomillashuvi virtual reallikning yorqin ifodasi sanaladi. Agar qadimgi mutafakkirlar qarashlarini zamonaviy olimlar qarashlari bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, ularda umumiylikni kuzatishimiz mumkin. Ularning g‘oyalaridagi farqlar har qanday orzularning texnologik taraqqiyot ta’sirida reallikka aylanganida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, J.Delyozning «Virtuallik va hozirgi zamon»[14] maqolasida virtual reallikning ikki yoqlama xarakteri virtuallikning kategorial tizim sifatidagi ahamiyatini ochib bergan, uni ilmiy kategoriya sifatida tasniflagan. N. Xomskiy va P.Bervik «Virtual reallik insoniyat evolyusiyasi, til va tafakkur rivoji bilan bog‘liqligi»[15]ni asoslagan, F.Fukuyama, G.Xaken va K.Xaken fikricha, «Virtual reallik noklassik fan taraqqiyotining mahsuli sifatida Virtual xaosni o‘zida namoyon etadi va uni bartaraf etishda tafakkur imkoniyatlaridan foydalaniladi»[16].

O‘zbekiston faylasuf olimlari, masalan, O.Fayzullayevning «Farg‘oniy fikriy eksperimenti»[17], degan fikri uning virtual bilim natijasi ekanligiga ishora. Sh.Qo‘shoqov fikricha, «Postnoklassik fan rivojidagi chiziqsiz tafakkur virtual borliq texnologiyalarini yaratishning muhim omili bo‘lib xizmat qilgan va ularning umumiy yig‘indisi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta’sip etgan»[18] N.A. Shermuhamedova «Virtual zarralarni atomlar bilan qiyoslagan va ularning umumiy borliqni yaratish asosi sifatidagi ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, virtualistikaning texnologik taraqqiyot mahsuli ekanligini asoslagan»[19]. B.Karimov o‘z qarashlarida «Virtual texnologiyalarning virtual muloqot shakli va turkiy tillarni rivojlantirish omili»[20] sifatidagi ahamiyatini asoslagan. E.Izzetova «olamni bilish va o‘zlashtirishda virtual texnologiyalarning o‘rnini»[21] asoslagan. M.Normamatova «Virtualistikada postnoklassik g‘oyalarning namoyon bo‘lishini virtual borliq texnologiyalarining takomillashgan shakllarida namoyon bo‘lishini asoslagan»[22], G.Sultanova «Virtual reallik va virtual texnologiyalap kreativ tafakkur mahsuli sifatida yangi davrning ijtimoiy qiyofasini o‘zgartirganligini ochib bergan»[23], A.Tulyayev virtual reallikning dunyoni estetik idrok etish va bilish omili sifatidagi o‘zgaruvchan xususiyatini sahna asarlari misolida asoslagan. Uning fikricha, «Bugungi kunda kino industriyasining rivojlanishi virtual texnologiyalarga tayanadi, qo‘rqinchli vaziyatlar yoki juda chiroyli manzaralar virtual texnologiyalar asosida yaratiladi»[24]. Bu esa, odamlarda o‘tmish va kelajak haqida «hozir» tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Biz N.A. Shermuxamedovaning «Falsafa va fan metodologiyasi»[25] kitobida «Virtual reallik», «Virtual borliq» tushunchalariga bergan ta’rifi va ularning asosi virtual zarralar ekanligiga oid fikrlarini asosli deb hisoblaymiz. Darhaqiqat, har qanday real voqelik mikroelementar zarrachalardan tashkil topadi. Bu mikroelementar zarralar haqida fikrlash va ularni ko‘rish imkoni yo‘q. Lekin ular o‘zining virtual mavjudligida real mavjudlik uchun zamin yaratadi. Bu real borliqning sifat, miqdor va o‘lchovdan iborat uch darajasini namoyon etadi. Sifat borliqning muayyan holati bo‘lib, u o‘zining bir sifat holatini yo‘qotganida har qanday jism muayyan mohiyatini yo‘qotadi va yangi sifat ma’nosiga ega bo‘ladi. Miqdor borliqning nomuayyan holati bo‘lib, u doimiy o‘zgaruvchan xarakterga ega, unga muayyanlik va barqarorlik xos emas. Shu ma’noda, virtual reallik sifat va miqdorning o‘zaro mutanosibligi ta’minlangandagina amal qiladi. Borliqning uchinchi – o‘lchov darajasi miqdor, sifat oralig‘ida namoyon bo‘luvchi me’yorni ifodalaydi va aynan me’yor virtual reallik texnologiyalari funksiyalarini bajarishga asos bo‘ladi. Shu ma’noda, Gegelning «Barcha narsalar o‘z o‘lchoviga, ya’ni miqdoriy aniqligiga ega bo‘lib, katta yoki kichik bo‘lish u uchun ahamiyatsizdir. Ayni vaqtda bu ahamiyatsizlik o‘z chegarasiga ega. Mazkur chegara buzilgan, ya’ni narsalar yanada kattalashgan yoki kichraygan taqdirda, ularning mohiyati o‘zgaradi»[27], degan fikri asoslidir. Bizning fikrimizcha, G.Gegelning bu mulohazasi virtual borliq mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qaprashning o‘zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etishini nazarda tutadi. Bunda virtual borliq hayot faoliyati japayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur’atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko‘pincha texnokpatik dunyoqarash deb ataladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, virtual reallikning kelib chiqishi, uning obyektiv va subyektiv voqeliklar bilan o‘zaro ta’siri, shuningdek, virtual reallik mohiyati, odamlar amaliy faoliyatiga ta’siri jarayonlarini qamrab oladi.

ADABIYOTLAR

1. Aristotel. «Axloqi kabir». – Toshkent: Fan, 2005.
2. Platon. O gosudarstve. – M.: 1972. – S. 186.
3. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, – B.37.

4. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
5. Platon. Dialogi. – M.: 1972. -C. 860.
6. Nosov N.A. Foma Akvinskiy i kategoriya virtualnosti. Filosofskiye i pcixologicheskiye problemi. -M., 1997, -C.81-98.
7. Xaydarova A.X. Virtual reallik doipasidagi yondashuvlar plyuralizmining falsafiy-metodologik tahlili. «Global hamkorlik - barqaror rivojlanish sharti va kafolati sifatida» mavzuidagi xalqaro konferensiya. – Toshkent, 2020. – B. 533-535.
8. Nosov N.A. Foma Akvinskiy i kategoriya virtualnosti. Filosofskiye i psixologicheskiye problemi. –M., 1997, -C.81-98.
9. Turayev B.O. Hozirgi zamon tabiatshunosligi konsepsiyalari. –Toshkent: Tafakkur, 2009. 15-b.
10. Turayev B.O. Borliq. –Samarqand-Toshkent, 2022. 15 b.
11. Nauchno-texnicheckiy ensiklopedicheskiy slovar. Elektron manba: http://slovariki.org/naucno-tehniceskij-enciklopediceskij-slovar/758
12. Nosov N.A. Manifest virtualistiki. – M.: Put, 2001.
13. Bichkov V.V., Mankovskaya N.B. Virtualnaya realnost. –M.: Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya, 2007, T. 1. -C. 369-374.
14. Delyoz, J. Nactoyasheye i virtualnoye. – M.: Vostok -N 11. 2006.
15. Xomskiy N., Bervik R. Chelovek govoryashiy. Evolyusiya i yazik. – Piter 2018. – C. 204-322.
16. Fukuyama F. Nashe post chelovecheckoe budusheye: Posledstviya biotexnologicheskoy revolyutsii. - M.: ACT: Lyuks, 2004. –C. 109.;
17. Xaken G., Xaken-Krell M. Tayni vospriyatiya. – M., 2002.
18. Fayzullayev O. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2006. –B. 56-60.
19. Qo‘shoqov Sh.S. Postnoklassik falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari: yo‘nalishlar, muammolar va g‘oyalar. Monografiya. -Samarqand: SamDU nashri, 2011. –B. 5-42.
20. Shermuhamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2008. -B. 398.
21. Karimov B.O. XX asr o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi. –N. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2016. –B. 553.
22. Izzetova E.M. K voprosu o filosofskom analize po kategoriyam «tvorchestvo» i «innovatsionnost. Elektronniy resurs: https://www.researchgate.net/publication/320828939_TO_THE_QUESTION_OF_PHILOSOPHICAL_ANALYSIS_ON_CATEGORIES_OF_CREATIVITY_AND_INNOVATION
23. Normamatova N.M. Virtualistikada postnoklassik epistemologiya g‘oyalari. Avtopeferat dis. –Samarqand: SamDU, 2019. – B. 40.
24. Sultanova G.C., Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzining umumilmiy fenomenga aylanishi. Postnoklassik falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2011. - B. 65-66.
25. Tulyayev A. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil). Avtoreferat diss. –Toshkent, 2021. –B. 46.
26. Shermuhamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2008. - B. 398.
27. Gegel G., Nauka logiki . – M.: 1995. – C. 178.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:10.3.6

Ziroat XOLMATOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, dotsenti, (PhD)
E-mail:ziroatxon_xolmatova@gmail. Com

Pedagogika fanlari doktori, dotsent I.Ismoilov taqrizi asosida

O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FUNKSIYALARI VA TAMOYILLARI

Annotasiya

Maqolada pedagogik diagnostikaning natijalari ta’lim sifatini oshirish, tahsil oluvchilarning ta’limiy va tarbiyaviy ehtiyojlarini qondirish, pedagogik jarayon yo‘naltiruvchilari - pedagoglarning kasbiy faoliyatini innovatsion tashkil etish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik tajriba, motivasiya, modernizasiya, korreksiya, bilimlilik, qobiliyatlilik, innovatsion omil, tashxislash, davlat ta’lim standarti, kafolatlash, interpretatsiya

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ И ПРИНЦИПЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В статье анализируются результаты педагогической диагностики для повышения качества образования, удовлетворения учебно-воспитательных потребностей обучающихся, организации профессиональной деятельности педагогов, руководителей педагогического процесса.

Ключевые слова: педагогический опыт, мотивация, модернизация, коррекция, знания, способности, инновационный фактор, диагностика, государственный образовательный стандарт, гарантия, интерпретация.

PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC FUNCTIONS AND PRINCIPLES USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract

In the article, the results of pedagogical diagnostics are analyzed to improve the quality of education, to meet the educational and educational needs of students, and to organize the professional activity of pedagogues, the leaders of the pedagogical process.

Key words: pedagogical experience, motivation, modernization, correction, knowledge, ability, innovative factor, diagnosis, state educational standard, guarantee, interpretation

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon” –deb ta’rif berilgan (O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-modda, 2022-yil, 23-sentabr). Shunday ekan, ta’lim tizimini isloh qilish, uni qayta qurish, dunyo ta’lim tizimiga integrasiya qilish, uning mazmunini milliy istiqlol g‘oyasi va milliy manfaatlar asosida davom ettirish, demokratlashtirish, yangilash, modernizasiya qilish va liberallashtirish, shuningdek ta’lim jarayonini axborot-kommunikasiya tizimlari bilan qurollantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. L.B.Sharshakova “O‘quv jarayonining pedagogik diagnostikasi” o‘quv qo‘llanmasida diagnostika va pedagogik diagnostika terminiga to‘xtalib o‘tadi. Xususan, “Diagnostika - yunoncha atama (dia - orasida, orqali, orqali va gnosis - bilish). Bu "ilmiy bilim va yagona hodisani aniqlash o‘rtasida joylashgan maxsus bilim turi" (N.K. Golubev, B.P.Bitinas)” hamda “Pedagogik diagnostika - ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan yondashuv, shuningdek, ta’lim dasturlari va pedagogik ta’sir usullarini takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan monitoring va baholash usullari to‘plami”. Ko‘rinib turibdiki, diagnostika boshqa narsalar omili orqali bilish, pedagogik diagnostika esa bevosita ta’lim jarayonining uzviyligi asosiga qurilganligi ayon bo‘ladi.

Mavzu yuzasida Po‘latova Dildora “Xalq ta’limi xodimlarining kasbiy pedagogik diagnostikasi” maqolasida xalq ta’limi xodimlarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish mexanizmini takomillashtirishda kasbiy pedagogik diagnostika haqida fikr-mulohazalarini bayon etgan. Shuningdek, o‘qituvchining o‘zini-o‘zi kasbiy pedagogik diagnostika qilish hamda ish joyidagi metod birlashma, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi (T(SH)XTB) metodik xizmati va malaka oshirish hududiy markazlarining kasbiy pedagogik diagnostikasi maqsadlari, vazifalari va ish mazmuni keltirilgan.

Ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy innovatsiya talablariga to‘la javob beruvchi ta’lim infrastrukturasi, ya’ni uzluksiz ta’limning yaxlit tizimi mamlakatimizda yaratildi. Ushbu tizim ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, ta’limni yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” nomli asarida har bir fuqaroning vatanparvar va yurtparvar fazilatlariga ega bo‘lishi, ona yurtini chin dilidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o‘zini ayamasligi, bu yo‘lda jonini fido qilishga tayyor bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minlash uchun bugungi kunda har sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida, shu jumladan umumiy o‘rta ta’limda axborot-kommunikasiya va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish zarur talabga aylanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion omil zamonaviy ta’lim tizimining bosh xususiyatlaridan biri sifatida qaralar ekan, pedagogikadagi innovatsiyalar pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning innovatsion bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallaganligi, kundalik ta’lim tizimida yaratuvchilik xususiyatlari bilan, ta’limdagi sifat va samaradorlik bilan belgilanadi. Ular quyidagi tamoyillarda o‘z aksini topadi:

ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;

ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta’lim olgan fuqarolarga, shuningdek o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta’lim jarayonini qulaylashtirishi, *ikkinchidan*, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, *uchinchidan*, o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

Pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-birinchisi-shaxsni har tomonlama o‘rganish, tashxis qilish yoki o‘zini-o‘zi tashxislash;

-ikkinchisi- pedagoglar jamoasi tomonidan ta’limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga erishishni ta’minlash;

-uchinchisi-ta’lim jarayonida yo‘l quyilgan xatoliklar, kamchiliklarni bartaraf etishga mo‘ljallangan korreksion tizim ishlab chiqish.

Pedagogik diagnostika o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tadqiq qiladi. Uning metodlari ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan shu bilan farq qiladiki, u alohida o‘spiringa yoki o‘quvchi-yoshlar guruhiga dolzarb pedagogik tadbirlarni qo‘llashni ko‘zda tutadi.

O‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim tizimida pedagogik diagnostika ta’lim jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob’ektiv ravishda aniqlash uchun, ularni interpretasiyalashga, bashoratlashga xizmat qiluvchi o‘zaro aloqalarni aks ettiruvchi tizim sifatida baholanadi.

1-jadval

O‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim tizimida pedagogik diagnostikaning umumiy va xususiy yo‘nalishlari

Pedagogik diagnostikaning umumiy yo‘nalishlari	Pedagogik diagnostikaning xususiy yo‘nalishlari
Ta’lim samaradorligini aniqlash va ta’limiy maqsadlarning quyilganligi	Pedagogik diagnostika funksiyalarining o‘zgarishi
O‘quv jarayonidagi oydinlashtirilgan va umumiy maqsadlar taksonomiyasini diagnostikasi	Tahsil jarayonlari ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini tashxislash
Ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchi kompetentligini oshirish	Pedagogik diagnostika funksiyalarining ta’lim ishtirokchilari qobiliyatlarini aniqlashga qaratilishi
Ta’lim sub’ektlarining bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash	Monitoringning keng tarqalishi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pedagogik diagnostikaning umumiy yo‘nalishlari ta’lim bochqichlarining barcha tizimlariga xos bo‘lsa, xususiylari ayrim ta’lim muassasalariga nisbatan amal qiladi (1-jadval)

O‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim tizimida pedagogik diagnostikani amalga oshirishda diagnostika tuzilmasi, uni tashkil etishning asosiy talablarini belgilab beruvchi qoidalar, ta’lim samaradorligini aniqlash va ta’limiy maqsadlarning quyilganligi, tahsil jarayonlari ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini tashxislash singari umumiy va xususiylarga bo‘linadi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik diagnostikaning natijalari ta’lim sifatini oshirish, tahsil oluvchilarning ta’limiy va tarbiyaviy ehtiyojlarini qondirish, pedagogik jarayon yo‘naltiruvchilari - pedagoglarning kasbiy faoliyatini innovatsion tashkil etish va ularning kasbiy malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Diagnostikada mavjud pedagogik muammolar ravshanlashadi, ularning yechimini topish zarurati borligi aniqlanadi. Muammolar yechimi faoliyatning tarkibiy qismlarida, vazifalarni oqilona taqsimlashda o‘z aksini topadi. Pedagogik diagnostika funksiyalari aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqadi:

-teskari aloqa funksiyasi-ko‘zlangan o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari va yo‘llarini tahlil qilish;

-maqsad va vazifalarni belgilash funksiyasi- jamoaning taraqqiy qilish istiqbollarini, istiqboliy rejalarini aniqlash;

-taqsimot funksiyasi-jamoa a’zolari o‘rtasida burch va vazifalarni taqsimlash;

-yaratish funksiyasi- kattalarning yoshlar bilan muloqot qilishining sog‘lom muhitini tarkib toptirish;

-pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish funksiyasi;

-pedagogik korreksiyalash funksiyasi- yoshlar xulqidagi, ta’limiy faoliyati, tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o‘taydi, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarni attestasiyalashda qo‘l keladi;

-motivatsiya va rag‘batlantirish funksiyasi-o‘quvchi-yoshlarning hamda murabbiy-o‘qituvchilarning ta’lim olish va ta’lim berish faoliyatini rag‘batlantirishni, tashqi stimullarni adekvat qabul qilishni nazarda tutadi. Tarbiyaviy jarayonda komillikka intilishni kuchaytiradi;

-nazorat funksiyasi-ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o‘tkazishni nazarda tutadi, chunki diagnostika ma’naviy-ma’rifiy jarayon holati to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lishni bildiradi [Sh.Abdullayeva. Pedagogik diagnostika.-T.:Universitet,2021.-34-b.].

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги Қонуни.- Тошкент: 2020 й., 23 сентябрь/ https://lex.uz/docs.
2. O‘z DSt 1.5-93. «Стандартлаштиришга доир норматив ҳужжатларни кўриб чиқиш, текшириш, ўзгартириш киритиш ва бекор қилиш тартиби»;
3. Асадов Ю.М., Турдиев Н., Акбарова С., Темиров Д., Бабаджанов С. Ўқувчиларда компетенцияларнинг шаклланганлигини ташхислаш ва коррекциялаш методикаси.-Тошкент: Қори Ниёзий номидаги ЎЗПФИТИ босмахонаси, 2016.-158 б.
4. Аҳлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования.: Автореф. дис. д-ра пед. наук. – Ташкент, 2002. – 44 с.
5. Тайлақов Н.И. Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг илмий-педагогик асослари (Информатика курси мисолида) Пед фан. ном. илм. дараж. олиш. учун ёзилган Диссер. (13.00.01).-Т.,2006.-362 б

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 372.8

Laziza XOLMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail:axroramerahmed8990@gmail.com,

Qarshi davlat universiteti professori p.f.d. Sh.O‘.Nurillayeva taqrizi asosida.

OLIY TA’LIMDA NOOORGANIK KIMYO FANINI O’QITISHDA BIRIKMALARNING INVARIANTLI, SUBINVARIANTLI VA VARIATIV KOMPONENTLARINI XOSSA XUSUSIYATLARINI TURLI XIL TAMOYILLARINIG NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Oliy ta’limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganligi hamda birikmalarning invariantli, subinvariantli va variativ komponentlarini tuzilmaviy tarkibi va taxlili, maqolada ana shu tamoyillar haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: Kimyo, metodologiya, tizim, kasbiy va pedagogik, tamoyil, kompozitsiya va tahlil.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗЛИЧНЫХ ПРИНЦИПОВ СВОЙСТВ ИНВАРИАНТНЫХ, СУБИНВАРИАНТНЫХ И ВАРИАТИВНЫХ КОМПОНЕНТОВ СОЕДИНЕНИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

О профессионально-педагогической направленности курса общей и неорганической химии в высшем образовании, а также о структурном составе и анализе инвариантных, субинвариантных и вариативных компонентов соединений говорится в статье.
Ключевые слова: Химия, методология, система, профессионально-педагогическая, принцип, композиция и анализ.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE CHARACTERISTIC FEATURES OF INVARIANT, SUBINVARIANT AND VARIATIVE COMPONENTS OF COMPOUNDS IN TEACHING INORGANIC CHEMISTRY IN HIGHER EDUCATION ON VARIOUS PRINCIPLES

Annotation

The professional-pedagogical orientation of the course of general and inorganic chemistry in higher education, as well as the structural composition and distribution of invariant, subinvariant and variative components of compounds, the article reflects on these principles.
Keywords: Chemistry, methodology, System, Professional and pedagogical, principle, composition and analysis.

Kirish. Nooorganik kimyoda birikmalarning modda va uning xossalarini invariantli tavsifi quyidagi subinvariantli komponentlar: moddaning tarkibi, tasniflanish, nomlanish tartibi, modda tuzilishining turli darajadagi ko‘rinishi, fizikaviy (fizikaviy-kimyoviy) xossalari, termodinamik xossalari, kimyoviy xossalari (reaksiyaviylik xususiyatlari, muvozanat va kinetika), fiziologik, toksikologik va biologik ta’sirlari, olinish usullari (laboratoriya va sanoatda), muhim qo‘llanilish sohalari haqidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi. Modda va uning kimyoviy xossalarini tavsif etishdagi har bir komponent o‘z navbatida murakkab kichik tizim, ya’ni subinvariantlardan iborat bo‘ladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida qayd etish lozimki, modda haqidagi umumiy ma’lumotlarni tavsiflashdan so‘ng birdaniga mazkur moddaning olinish usullarni batafsil tavsiflashga hojat qolmaydi. Tarixiylik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bu to‘g‘ri yondashuv: tadqiqotchilar, odatda, avval moddani muayyan usullar yordamida olib, keyin uning xossalarini o‘rganishga kirishadilar [2]. Biroq, o‘quv faoliyatini tashkil etar ekanmiz, faqat tarixiy kashfiyotlar, sintez jarayonlari va moddaning keyin tadqiq etilishi bilan bog‘liq ilmiy mantiqni, balki ta’lim jarayonlarni tashkil etish mantig‘ini ham hisobga olishimiz lozim. Bu mantiq, ya’ni ta’lim jarayonlarini tashkil etish mantig‘i, avvalo, moddaning tuzilishi va shunga muvofiq ravishda uning fizikaviy va kimyoviy xossalarini o‘rganishni, faqat undan keyingina mazkur xossalar hamda tuzilish tartibidan kelib chiqqan holda uni olish usullarini muhokama qilish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi.

Odatda, noorganik moddalar bir yoki ikkita alomatlarga ko‘ra tasniflanadi. Aksar hollarda tasniflanish muhim kimyoviy xossalar asosida amalga oshiriladi. Bu kimyoviy xossalarga quyidagilar kiradi: moddada metallilik yoki metallmaslik xossalarining namoyon bo‘lishi; asoslar va oksidlarning kislota-asosli xossalar. Muhim asoslar bo‘yicha yalpi tasniflash o‘tkazilmaydi[3].

Noorganik moddalarning tasniflanishi bir vaqtning o‘zida bir necha alomatlar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim. Bu alomatlarga moddaning tuzilishi, moddaning tarkibi, kationlar va anionlar (ionli tuzilmaga ega bo‘lgan moddalar uchun), subinvariantli kimyoviy xossalar (barqarorlik, kislota-asosli, oksidlanish-qaytarilish), shuningdek, moddaning rangi, suvli va suvli bo‘lmagan erituvchilarda eruvchanligi, moddaning uchuvchanligi (o‘zgaruvchanligi) kabi xossalar kiradi. [6] Tasniflash ishiga bunday yondashuv modda ustida muhim amaliyotlar bajarish uchun lozim bo‘ladigan xossalarni tizimlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Birikmalarni nomlash nomlanish tartibining zamonaviy versiyalari bo‘yicha moddani nomlash malakasi: nazariy va amaliy kimyo bo‘yicha xalqaro uyushma (IUPAC) tavsiyasi bo‘yicha, ya’ni modda formulasidagi barcha indekslarni sanash orqali; IUPAC-Shtok qoidalari bo‘yicha, ya’ni oksidlanish darajasini ko‘rsatish asosida; barcha murakkab birikmalar uchun IUPAC versiyasi bo‘yicha, ya’ni modda yoki uning eritmasini nomlash. Biroq bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining mo‘tadil faoliyat yuritishi uchun yuqoridagi uchta sifat yetarli emas[5].

Bundan tashqari, kimyo bilan bog‘liq ko‘plab sohalar vakillaridan farqli o‘laroq, kimyo fani o‘qituvchisi:

o‘quvchilar bilan doimiy munosabatlarga asoslangan faoliyat olib boradi; qo‘shimcha adabiyotlar, shu jumladan, tarjima qilingan hamda juda avval chop etilgan manbalarni o‘qiydi; o‘nlab yillar oldin ishlab chiqarilgan reaktivlar bilan ishlaydi; o‘quvchilarni turli darajadagi olimpiadalarga tayyorlaydi va mazkur jarayonlarda eskirgan, ahamiyatsiz nomlarni qo‘llaydi. Shuning uchun kimyo fani o‘qituvchisi eski tartibdagi nomlanish qoidalari, xususan, Gess-Mendeleyev ishlab chiqqan nomlash tartibini bilishi, ularni ilmiy ta’lim assotsiatsiyasi (ASE) tomonidan joriy etilgan nomlash tartibidan farqlay olishi, shuningdek, minerologik, tarixiy, ilmiy, maishiy, sanoat bilan bog‘liq eskirgan va ahamiyatini yo‘qotgan nomlarni bilishi zarur. Mazkur nomlar “Nomlanish tartibi” subinvariantli majmuaning variativ komponentlari hisoblanadi[7].

Tahlil va natijalar. Moddalarni termodinamika nuqtai nazaridan tavsif etishning bir nechta elementlarini o‘z ichiga oladi. Bu elementlarga Gibbs energiyasi, moddalar hosil bo‘lishining entropiyasi va entalpiyasi kabi standart kattaliklarni o‘xshash tarkibli moddalarning xuddi shunday kattaliklari bilan qiyosiy tahlil asosida moddaning termodinamik barqarorligini tavsiflash malakasi muvofiq keladi. Ayni vaqtda, majmua tarkibida shunday kattaliklar mavjudki, bir qarashda ularni subinvariantli yoki variativ deyish qiyin, hech bo‘lmaganda ularning yordamida ayrim moddalarning xususiyatlarini tavsiflab bo‘lmaydi. Masalan, oksidlanish shaklidan (OSH) qaytarilish shakliga (QSH) o‘tishlarning oksidlanish-qaytarilish potensiallarining qiymati faqat ayrim moddalar, xususan, eritmalarda mavjud bo‘la oladigan moddalar uchungina ma’lum. Bu qiymatlarning umumlashganlik darajasi ayrim moddalar uchun juda past. Biroq, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining eritmalarda keng tarqalganligini va yana deyarli maktab kimyosi butunligicha eritmalar kimyosidan iborat ekanligini hisobga olgan holda, oksidlanish-qaytarilish potensiallarining qiymatlari ushbu majmuaning subinvariantli komponentlari qatoriga qo‘shilishi lozim deb hisoblaymiz. Xuddi shu fikrlarni kislotalik-asoslilik nisbati, eruvchanlik hosilasi kabi o‘zgarmas kattaliklar (konstantalar) qiymatlari haqida ham aytish mumkin.

“Moddalar tuzilishi” subinvariantli tarkibiga moddaning atom zarrachalari kimyosi fani tomonidan o‘rganiladigan turli darajalardagi tuzilishi: atom zarrachalari tuzilishi (atomlar, atom kationlari va anionlari, radikallar, ion-radikallar) → molekulyar zarrachalar tuzilishi (molekulalar, molekulyar kationlar va anionlar) va noorganik polimerlarning sodda zvenolari tuzilishi (atomli, ionli, metalli), shu jumladan, murakkab ionlar tuzilishi→ assotsiatlar (atomlar, molekulalar va ionlar) → nanozarrachalar → makroshaklli kolloidli zarrachalar tuzilishi (real gazlar, suyuqliklar, qattiq moddalar (amorf va kristall: molekulyar, metalli, atomli, ionli kristallar))[8].

Modda tuzilishining molekulyar zarrachalar va organik va noorganik polimerlar zvenolari darajasidan boshlab, moddalarni tavsiflashning subinvariantida kimyoviy bog‘lanishlar nazariyasi (kovelentli, ionli, metalli) muhim rol o‘ynay boshlaydi (kovalentnoy, ionnoy i metallicheskoy). Assootsiatlar va kondensiyalashgan bosqichda molekulyar tuzilishga ega bo‘lgan modda uchun noorganik polimerlarning metalli va ionli bog‘lanishlariga kovalentli bog‘lanishlar vodorodli yoki Van-der-Vaals bog‘lanishlari orqali amalga oshiriladi. Yuqori molekulyar birikmalarning tuzilishi, ularning molekulalarining fazoviy tuzilmasini hisobga olsak, vodorodli bog‘lanishlarning hosil bo‘lish imkoniyatlari molekulyar darajada namoyon bo‘ladi.

“Fizikaviy xossalar” deb nomlanuvchi subinvariantli komponentlari o‘rtasida:

- turli temperaturalar sharoitida moddaning agregat holati;

- “organoleptik xossalar”, ya’ni inson o‘z sezgilari (ko‘rish, hid bilish, ta’m bilish) orqali bilib oladigan xossalar (rang, hid va ta’m);

-fizik-mexanik xossalar: moddaning miqdor va sifat jihatdan qattiqlik (yoki yumshoqlik) darajasi; mo‘rtligi (elastikligi); egiluvchanligi (egiluvchan emasligi); siqiluvchanligi; moddaning turli agregat holatlardagi zichligi va shu kabilar;

-optik xossalar: aks ettiruvchanlik xususiyati (yaltirashi); spektrning turli sohalarida nurni yutuvchanligi; qizitilgan holatda nurlanishi; yorug‘likni sochishi; nurni sindirishi; tekis qutbli yorug‘likni qutblashi va shu kabilar;

- issiqlik xossalari: moddaning erish, qaynash, sublimatsiya va boshqa bosqichli o‘tish temperaturalari; issiqlik sig‘imi; moddaning turli agregat holatlarda issiqlik o‘tkazuvchanligi;

-elektr xossalari: qattiq, erigan va gaz holatlarda elektr o‘tkazuvchanlik; modda eritmasining elektr o‘tkazuvchanligi, elektr qarshiligi;

-magnit xossalari: diamagnitlilik, paramagnitlilik, ferromagnitlilik, ferrimagnitlilik;

-alohida bog‘lanmalar va molekulyar zarrachalarning qutblilik va qutblashuvchanligi;

-eruvchanlik: qutbli etiruvchilar va ularning aralashmalarida, noqutli etiruvchilar vaa ularning aralashmalarida[9].

Moddalarning fzikaviy xossalari ularning muhim xususiyatlarining tavsiflari hisoblanadi. Mutaxassislar fizikaviy xossalar asosida moddalarning tuzilmaviy tarkibini aniqlaydilar, ularning kimyoviy xossalarini bashorat qiladilar. Fizikaviy xossalarning, yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak, kimyoviy tizimlar komponentlarining o‘zgarishlarini qayd etish orqali kimyoviy jarayonlarning dinamikasini kuzatib borishni amalga oshirish mumkin. Tan olish lozimki, maktab kimyoviy moddalarni o‘rganishda ko‘pchilik hollarda fizikaviy xossalarni mukammal o‘rganishning zarurati yetarlicha baholanmaydi. Na o‘qituvchilar va na o‘quvchilar va na OTM bitiruvchilari moddalarning fizikaviy xossalarini mukammal tavsif etib bera olmaydilar. Maktab o‘qituvchilarining fizikaviy xossalarning ahamiyati va mohiyati haqida yetarlicha tasavvurga ega emasliklarining asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, o‘quvchilarni birinchi marta kimyo fani bilan tanishtirishda moddalarning fizikaviy-kimyoviy tavsifi to‘liq ravishda keltirilmaydi, shu jumladan fizikaviy xossalar majmuasi qarab o‘tilmaydi. Kimyo bo‘yicha mavjud maktab darsliklariga tayangan kimyo fani o‘qituvchisi moddaning fizikaviy xossalarini mufassal tavsif etish lozim deb hisoblamaydi[10].

Deyarli har bir modda uchun uning mohiyatini ochib beruvchi fizikaviy xossalar to‘plami alohidalik, individuallik xususiyatiga ega. Ko‘pincha, moddaning agregat holatlari, qaynash temperaturasi, rangi, zichligi va eruvchanligi ko‘rsatiladi. Fizikaviy xossalar oddiy moddalar kabi bir qadar ahamiyatli, muhim birikmalar uchun ham keltiriladi, biroq oddiy moddalar uchun keltirilgan fizikaviy xossalar majmuasi to‘kisroq va turlicharoqdir. Fizikaviy xossalarning kimyoviy xossalar va modda tuzilishi bilan aloqalarining berilishi kamroq kuzatiladi. Maktab va oliy ta’lim kimyo fanlari bo‘yicha darsliklarning bir qadar mufassal tahlilini ko‘rib chiqqanmiz. Muhimi shuki, kimyo fani o‘qituvchisi bilan professional tadqiqotchi yoki kimyo sohasi texnologi belgilab beriladigan ahamiyatli fizikaviy xossalarning majmuasi bir-biridan sezilarli farq qiladi. Umumiy tarzda esa barcha fizikaviy xossalarni uchta guruhga ajratish mumkin:

1) insonning sezgi organlari orqali qayd etiladigan xossalar: moddaning agregat holati, rangi, hidi, sirtining yaltirash darajasi vaa hokazolar;

2) bir qadar oddiy asboblar orqali aniqlanadigan xossalar: erish va qaynash temperaturalari, zichligi, yopishqoqligi, qattiqligi, mustahkamligi va shu kabilar;

3) murakkab asboblar orqali aniqlanadigan xossalar; spektrlar, xromatogrammalar, mass-spektrogrammalar va shu kabilar.

Yetarlicha moddiy-texnik bazaga ega bo‘lgan professional tadqiqotchilar, kimyo sohasi texnologlari ko‘proq 3-guruhga mansub fizikaviy xossalar bilan ishlaydilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktab o‘qituvchilari foydalanishga majbur bo‘ladigan fizikaviy xossalar guruhlari bilan professional tadqiqotchilar foydalanidigan mukammal fizikaviy xossalar majmuasi o‘rtasida ma’lum darajadagi tafovutlar mavjud. Bu tafovutlarni bartaraf etish chorasi esa deyarli mavjud emasligi tushunarli hol.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, noorganik moddalarning fizikaviy xossalari jamlanmasini o‘ziga xos tarzda andazaviy tartibga solish lozim deb hisoblaymiz. Buning uchun fizikaviy xossalar tavsifining invariantini ajratib olish lozim. Mazkur invariantlar talabalar va boshlovchi o‘qituvchilarda fizikaviy xossalarni tizimli ravishda tavsiflash moddaning xususiyatlarini tavsifiy tarzda keltirishning muhim elementli ekanligiga “ko‘nikish” paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

Shunday xulosa kelish mumkinki “Kimyoviy xossalar” subinvariantli majmua moddaning murakkablik darajasidan qat’i nazar, o‘z tarkibiga beshta kimyoviy xossalar to‘plamini oladi. Bu to‘plam xossalar quyidagilardir:

- barqarorlik (nisbiy termodinamik va kinetik);
- topokimyoviy xossalar, izomeriya, shu jumladan, allotropiya, polimorfik evrilishlarning ayrim ko‘rinishlari;
- oksidlanish-qaytarilish xossalari;
- reaksiya tezligiga ta’sir eta olish xususiyati (moddaning katalitik xossalari, sekinlashtiruvchilik xususiyati, katalizatorlarni faollashtiruvchilik xususiyati);
- analitik reaksiyalar.

Xulosa va takliflar. Ko‘pgina amaliy jarayonlar u yoki bu xossalarni namoyon etish bilan kechishini hisobga olib, ushbu o‘rinda ularni tavsif etish uchun “Aralash ko‘rinishdagi kimyoviy reaksiyalar” subinvariantli majmuani ham belgilash lozim deb hisoblaymiz. Masalan, metallmaslarning ishqorli eritmalardagi dismutatsiyaviy reaksiyalarni aralash ko‘rinishdagi reaksiyalar turkumiga kiritish mumkin. Bunda ertimada ketma-ketlik asnosida metallmaslar dismutatsiyasining oksidlanish-qaytarilishi reaksiyasi kabi dismutatsiya natijasida hosil bo‘lgan mahsulotni muvozanatlovchi kislotali-asosli reaksiyalar ham sodir bo‘ladi. Kimyoviy xossalar majmuasida aralash ko‘rinishdagi reaksiyalarni ko‘rsatib o‘tdik, ammo o‘qitish vositalari tizimi va u bilan ishlash metodikasini murakkablashtirmaslik uchun keyingi mulohazalarimizda bu mavzuni mufassallashtir-maymiz.

ADABIYOTLAR

1. Зайцев О.С. Методика обучения химии: теоретический и прикладной аспекты. - М.: Владос, 1999. - 384 с.
2. Зорина Л.Я. Системность - качество знаний. - М., 1976. - 64 с.
3. Минченков Е.Е. Научно-методические основы отбора содержания и структурирования школьного курса химии: Автореф. дис. докт. пед. наук. - М., 1987.- 42 с.
4. Педагогика / Ю.К. Бабанский. - М.: Просвещение, 1988. - 478 с.
5. 5. Подласый И.П. Педагогика. Т.1. - М.: Владос, 1999. - 576 с.84. Зорина Л.Я. Системность - качество знаний. - М., 1976. - 64 с.
6. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. - М., 1980. - 96 с.
7. Шапоринский С.А. Обучение и научное познание. - М.: Педагогика, 1981. - 208 с.
8. Яблоков В.А. Содержанию обучения - системную организацию // Химия в школе, 1997. - № 4. - С. 15-19.
9. Стихова, А.М. Самостоятельная работа в системе взаимосвязи интегративного и дифференцированного подходов при обучении химии в вузе: [Текст]: монография / А.М. Стихова.– Новороссийск: ГМУ имени адмирала Ф.Ф. Ушакова, 2015. – 118 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Shahnoza XO‘JAMBERDIYEVA,
Namangan davlat universiteti dotsenti, p.f.b.f.d.,
E-mail: sh.hujamberdiyeva0505@mail.ru

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHNING ZARURIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga oid masalalar ilmiy yoritilgan. Bu borada bolalarni badiiy asarlarga qanday qiziqtirish va tanishtirish bilan bog’liq jarayonlarga muallifning qarashlari berilgan va tegishli tavsiyalari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kitob, badiiy asarlar, insoniy fazilatlar, badiiy asarlar bilan tanishtirish, badiiy asarlarga qiziqtirish, kitobxon tarbiyachi.

THE NEED TO INTRODUCE PRESCHOOL CHILDREN TO WORKS OF LITERATURE

Abstract

In this article, the issues related to familiarizing preschool children with works of literature are scientifically covered. In this regard, the author's views on the processes related to how to interest and introduce children to literature works are given and relevant recommendations are provided.

Key words: Book, works of art, human qualities, introduction to works of art, interest in works of art, reader as an educator.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИВЕДЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ К ЛИТЕРАТУРНЫМ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ

Абстракт

В данной статье научно освещаются вопросы, связанные с ознакомлением дошкольников с произведениями литературы. В связи с этим приведены авторские взгляды на процессы, связанные с тем, как заинтересовать и приобщить детей к литературным произведениям и даны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: Книга, художественные произведения, человеческие качества, приобщение к художественным произведениям, интерес к художественным произведениям, читатель как воспитатель.

Kirish. Afsuski, bugungi kunda badiiy adabiyotga kam murojaat qilinayotgandek nazarimizda. Aslidachi? Haqiqatan ham qo‘lida kitob o‘qib ketayotgan insonlarni kamdan-kam kuzatyapmiz, bu ayni haqiqat. Shunday achchiq haqiqatga qarshi chiqishning birdan bir yo‘li bolalikdan badiiy adabiyotga mehr uyg’otishning zarurligi, bizningcha. Bolalarimiz bolaligidanoq ularga bugungi kunda rivojlanib borayotgan gatjetlarning hech biri badiiy asarlar kabi ma’naviy ozuqa bera olmasligiga ishontirish va buni singdirish bizning bugungi kundagi dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish asnosida bolaning o‘zligini anglashi, o‘z ona tiliga va Vataniga muhabbat ruhida ulg’ayishi, ulardagi insoniy fazilatlarning qaror topishi, ularni estetik jihatdan tarbiya topishlari, o‘z xalqi va boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganishi, ularning hayot haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish imkoniga ega bo‘lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolalarga badiiy asarlar bilan tanishish nima uchun zarur degan savol tug’iladi. Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida insonlarni ommaviy madaniyat qurshovidan asrab qoluvchi eng ma’naviy boylik bu badiiy adabiyotlar hisoblanadi[1]. Aynan mana shu jihat bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda dastlabki omil vazifasini bajaradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zligini, “men”ini anglashida badiiy asarlarning ahamiyati katta. Har bir bolaning o‘ziga xos fazilatlari namoyon, biroq uni avvalo uning o‘zi anglashi muhimdir. Bola o‘zini ijtimoiy, aqliy, jismoniy, ruhiy, real, ideal holda qanday tasavvur qilishi va baholay olishi muhimdir. Bu uning kelajakda qanday shaxs bo‘lib rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Aynan ana shu o‘ziga ishonchni orttirishda badiiy asarlarning ahamiyati katta hisoblanadi. O‘ziga o‘zi baho berish shaxsning o‘ziga, o‘z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o‘rniga baho berishidir[2].

Bolalarning o‘z ona tillariga bo‘lgan muhabbati dastlab badiiy asarlar bilan singdiriladi. Haqiqatan ham bolaning onasi tomondan aytilgan allada onaning bor mehri bilan birga tilga bo‘lgan mehri ham singdiriladi. Shu o‘rinda alla bola salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ovoz terapiya ekanligiga ham guvoh bo‘lamiz. Onalikka tayyorlash borasida olib borilgan tibbiy tadqiqotlarda alla go‘dak salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, turli yuqumli kasalliklar (masalan pnevmoniya, diareya)ga chalinish xavfini kamaytirishi aniqlangan[3]. Alla orqali ona va balaning dastlabki muloqoti amalga oshiriladi. Bu muloqot davomida bola onaning yonida ekanligi, o‘zining bexavotirligi haqida axborotga ega bo‘ladi va onaga javoban oromga ketadi. Mana shu allaning o‘ziyoq badiiy adabiyotning bir qismi sifatida bolalarimizning hayotida badiiy asarlarning o‘rnini belgilashda dastlabki omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar kichik hajmli ertaklar, ashula va she’rlarni tez eslab qolishadi. Badiiy so‘zga ilk muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog’chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo‘lib qoladi[4]. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning samarali omillari qatoridan ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash masalasi eng oliy o‘rinda turadi. Sababi, Vatanini sevgan odam barcha insoniy fazilatlarga ega bo‘ladi. Insoniy fazilatlarni o‘rni esa bolaning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda ahamiyatli sanaladi.

Ba’zi bir kategoriyalar borki, inson ularni egallabgina estetik go‘zallikni his qilishi mumkin bo‘ladi. Bular qatoriga go‘zallik, xunuklik, kulgililik, fojiaviylik, ulug‘vorlik va tubanlik, did va nafosat, hayolilik, mo‘jizaviylik va shuning kabilarni kiritish mumkin. Aynan shu ko‘rsatgichlar bilan bog’liq barcha jarayonlar haqida bolalar badiiy aarlar orqali xabardor bo‘lishadi. Shuning uchun ham bolalarga maktabgacha bo‘lgan yoshdanoq badiiy asarlarni tanishtirish dolzab sanaladi. Mamlakatimizda fuqarolarning estetik

tarbiyasiga taalluqti turli tadbirlar, ularning estetik didini yuksaltirishga qaratilgan ma’naviyma’rifiy ishlar muntazam olib boriladi[5]. Agar maktabgacha yoshdanoq bolalarga badiiy asarlar bilan tanishtirish tizimi to‘g’ri yo‘lga qo‘yilsa va amalga oshirilsa bu borada qiyinchiliklarga duch kelinmaydi.

Xo‘sh, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda dastlab qanday usullarni va yo‘llarni qo‘llagan ma’qul degan savol tug’iladi? Bizningcha, bunda dastlab bolalarni badiiy asarga qiziqtirish yo‘llarini ko‘rib chiqqanimiz to‘gri qaror bo‘ladi. Shunday bo‘lgan taqdirda bolalarni badiiy asarlarga qanday qiziqtiramiz-? Bu borada biz bolalarni dastlab to‘g’ri tinglash texnikasini qo‘llash ko‘nikmasiga egaligiga ishonch hosil qilishimiz kerak bo‘ladi. Bolalarni diqqat bilan tinglashga o‘rgatsak, ularga fikrlash borasidagi dastlabki tarbiyani bergan bo‘lamiz[6]. Bolalar tinglash bilan bir qatorda ko‘rish orqali ham fikrlaydilar. Badiiy asarlarning rasmlarga boy bo‘lishi ham bolalarni qiziqtirishda muhim omillardan hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga kitob tavsiya qilayotganda rasm ko‘rsatish usuli ayniqsa muhimdir[7]. Bolalar rasmlarni yaxshi va aniq ko‘rishlari uchun xonalar yorug’ligi yetarli bo‘lishi lozim. Sababi, xonadagi noqulay sharoit ham bolalarni kitob bilan tanishishga, unga nisbatan qiziqish uyg’otishga xalaqit berishi mumkin. Kitobni so‘zlab berish eng ommabop va sinalgan usullardan sanaladi. Odatda tarbiyachilar bu usulni ko‘proq qo‘laydilar. Ba’zi bolalarning eslab qolish qobiliyati ko‘raniga qaraganda eshitgani bilan yuqori baholanadi. Shu nuqtayi nazardan ham ushbu usulni samarali deb hisoblashimiz mumkin. Mavzuni mustahkamlash uchun tarbiyachilar turli metodlardan foydalanadilar. Badiiy asarlar yuzasidan o‘tkazilgan savol-javoblar ham samarali usullardan sanaladi. Tanishtirilgan asarni mustahkamlash uchun bolalar bilan birga o‘tkazilgan savol-javob o‘tilgan asarning tushunarlilik darajasini belgilash bilan bir qatorda bolalarning muloqot va fikrlash kabi ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi ham bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirishda zarur sanaladi. Tarbiyachilar qahramonlar holatini, kechinmalarini o‘z mimikalari bilan izohlab, yanada jonlantirib bera olishi zarur. Bu bolalarni yodda saqlashlariga yanada yordam beradi. Tarbiyachi turli samarali usullarni qo‘llash davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasiga ham to‘xtalishini to‘g’ri deb hisoblaymiz. Bu ham bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda samarali usullardan sanaladi. Televizor, kompyuter, turli audio qurilmalar, jumladan radiolarni taklif qilgan bo‘lardik Agar televideniya bolalarga qahramonlarni ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lsa, radio esa so‘z va musiqa bilan ta’sir etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.[8] Bu borada tarbiyachilar ahamiyat qaratishi lozim bo‘lgan boshqa tashkiliy ishlar ham bor. Masalan, kitob javonlarining jihozlanganligi ham bolalarni badiiy asarlarga qiziqtirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarga qiziqarli kitoblar bilan to‘ldirilgan javon ularda kitob o‘qishga qiziqish mas’uliyatini orttiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida xorijiy ilmiy ish ma’lumotlaridan, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, umumlashtirish, tavsifiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bolalar doim qahramonlarga taqlid qiladilar. Sahnalashtirish markazlarida ham bolalarni ko‘pincha o‘zlari sevgan qahramon obrazida ko‘rishimiz mumkin. Chunki ularda taqlid qilishga moyillik kuchli bo‘ladi. Biz o‘z o‘rnida bundan unumli foydalanishimiz bolalarimizga sahnalashtirish markazlarida erkinlik berishimiz va tanishtirgan asarimizga oid sahna ko‘rinishi tayyorlashlariga yordamlashishimiz kerak bo‘ladi. Shuni unutmasligimiz kerakki bolalar o‘zlari sevgan obrazni o‘ynash davomida o‘shaning barcha xislatlarini o‘zida qo‘llab ko‘rishga va xatto o‘zlashtirib olishga ham harakat qiladilar. Shuni unutmagann holda bolalarga sahna ko‘rinishi tugagach har birlarining obrazlaridagi ijobiy va salbiy hislatlarni tahlil qilishga imkon berish kerak. Nimani qilish kerak va nimadan voz kechish kerakligini tushunsagina bolalar yangi asardan to‘g’ri ma’naviy ozuqani olgan hisoblanadilar. Qachonki, badiiy asarlarni tanishtirishdan ko‘zlangan maqsadga erishsak, o‘shanda bolalarda o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘ziga nisbatan to‘g’ri xulosa chiqarish ko‘nikmasi shakllanadi. Bunda asosan bolalardagi mehr-oqibat, halollik, mardlik kabi eng zarur fazilatlarning to‘g’ri o‘zlashtirilganligi ahamiyatlidir.

Bolalarni badiiy asarlarga qiziqirish va tanishtirish orqali bolalarning diqqat, xotira, tasavvur, aql-zakovat, muloqot, fikrlash, ijodkorlik kabi ko‘rsatgich va ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan vaqtida tanishtirmaslik esa katta yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Ya’ni, bolalar o‘zlarining o‘tmishdagi bobokalonlari, vatandoshlari tajribasi bilan o‘rtoqlasha olmaydi, undan foydalanmaydi ham, hayotda esa solishtirish, taqqoslash va tahlil qilish, xulosa yasash kabilarni ham o‘rganmaydilar.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Bugungi kun bolalari nega kitoblarga nisbatan sust kayfiyatda qarashmoqda yoki ko‘proq ularni nimalar qiziqtirmoqda degan savol bugungi kunda juda ommalshmoqda. Javob qidirish uchun ko‘p izlanish kerak emas, avvalo atrofimizdan qidirib ko‘raylik:

Birinchidan, tarbiya oiladan boshlanishini nazarda tutib aytishimiz mumkinki, oilada kitobsevarlikning mavjud emasligi bugungi kun bolalarini kitobga qiziqtirishimizga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Darhaqiqat hozirgi kunda yoshi kattalarning ham qo‘lidan telefon, kompyuter, turli gatjetlar tushmay qoldi. Ular oila davrasida avvalgidek she’rxonlik uyushtirmay qo‘yishdi. Bu o‘z o‘rnida bolalar tarbiyasiga ham ta’sir qilmay qolmaydi.

Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning eng ko‘p uyg’oqlik vaqti maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar bilan o‘tadi. Shu nuqtayi nazardan tarbiyachilarning ham kirobsevar, kitobxon emasligi bu boradagi kamchiligimiz hisoblanadi. Agar tarbiyachi o‘zimiz va jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan yaqindan tanish bo‘lib, aynan bolalar uchun mo‘ljallangan asarlar bilan yaqindan tanish bo‘lsa uning qo‘l ostidagi bolalarda ham shu ko‘nikma shakllana boshlaydi.

Uchinchidan, badiiy asarlarga qiziqishning pastligiga sabab bolalarga nazoratning sustlashishi, aniq bir rejimning yo‘qligi natijasida bolalarning ko‘proq televizor, telefon, kompyuter o‘yinlariga juda ko‘p vaqt ajratishlari natijasida kelib chiqmoqda. Bu nazorat ko‘roq ota-onalarga bog’liq ekanligini unutmasligimiz kerak. O‘ylaymizki, agar ota-onalar o‘z farzandlari kelajagiga befarq bo‘lmay oila davrasida bola uchun kitob o‘qib berish, ertak aytib berish, biror bir hikoyani so‘zlab berishga vaqt ajratsa, bolalarga o‘zlari bu borada o‘rnak bo‘lsalar, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish masalasida birmuncha yengilliklar bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy asarlarni tanlashda, albatta bolalarning yosh xususiyatlarini birinchi galda inobatga olish kerak. Sababi bolalarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan xotira va diqqatning yetishmasligi, charchoq kabilar o‘zlarining yosh xususiyatlariga mos tushmaydigan asarlarni tahlil qilishda kamchilik bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Badiiy asar bolalar yoshiga mos tushishi bilan birga ham ko‘rinishi, ham ma’no jihatdan qiziqarli bo‘lishi ham asosiy talablardan sanaladi. Avvalo asarlar insonprvarlik g’oyalariga qurilgan bo‘lishi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyaviy jihatdan yetukligini belgilashda asos bo‘lib hisoblanadi. Bolalar uchun asardagi so‘zlarning soddaligi, tushunishga oson bo‘lishi ham ulardagi anglab olish qobiliyatini samarali faollashtiradi.

Yuqorida keltirilgan sabablarga ko‘ra ham maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishirish muammo sifatida dolzarb sanaladi. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish kelajakda nafaqat, o‘sha bolaning hayotda rivojlanishiga, balki yashab turgan jamiyatining salohiyatiga ham ta’sir qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva O. Badiiy asarlarning inson ruhiyatiga ta’siri. “Scientific progress” Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 5. 272-bet
2. Oripova Sh.Psixologiyada men konsepsiyasi talqini.So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Vol. 5 No. 2 (2022) 227-bet
3. https://xs.uz/uzkr/post/alla-ozlikni-anglash-sari-ilk-qadam-uni-onalar-qalbiga-qajtarish-kerak
4. Yusupova J. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanshtirish usullari//Sciense and innovation. 2022.№2 102-bet.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Estetika
6. Isabayeva Asida Yusufjonovna. (2022). Participation in teaching preschool children learning speech, thinking and communicating. World Bulletin of Social Sciences, 10, 70-71. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/
7. Kuchkarova O. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishda psixologiyaning o‘rni // Academic research in educational sciences. Volume 2. Issue 4. 2021.
8. Islomova Z. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda axborot texnologiyasidan foydalanish yo‘llari. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5 th November, 2022 page 93.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 381.285

Inom XUJAMOV,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti mustaqil ilmiy izlanuvchisi
Nilufar ODINAEVA,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institute mustaqil ilmiy izlanuvchisi

P.p.f.d, PhD Sh.Raximov taqrizi asosida

DEMOGRAFIK OMILLARNING MAMLAKAT HUDUDLARIDAGI TA’LIM XIZMATLARIGA BO‘LGAN TALABGA TA’SIRI

Annotatsiya

Maqolaning maqsadi demografik omillarning ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga ta’sirini o‘rganish va ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talab darajasi, sifati va miqdorining demografik ko‘rsatkichlar to‘plamiga bog‘liqligini asoslashdir, shuningdek, uning asosini aholi tug‘ilishlari darajasi, soni va zichligi, hamda ularning turli hududlarda har-xil, notekis o‘zgarishlari tahlil qilish. Bundan tashqari, maqolada ichki va tashqi migratsiya omillarining ta’siri, aholi salomatligi darajasi, ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning miqdoriy va sifat xususiyatlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Demografik omil, ta’lim xizmatlariga talab, aholi soni, aholi zichligi, tug‘ilish darajasi, tizim modeli, migratsiya, aholi salomatligi.

THE INFLUENCE OF DEMOGRAPHIC FACTORS ON THE DEMAND FOR EDUCATIONAL SERVICES IN THE REGIONS OF THE COUNTRY

Annotation

The purpose of the article is to study the influence of demographic factors on the demand for educational services and to substantiate the dependence of the level, quality and quantity of demand for educational services on a set of demographic indicators, as well as its basis on the population to analyze the level, number and density of connections, as well as their different, uneven changes in different regions. In addition, the article focuses on the influence of internal and external migration factors, the level of public health, quantitative and qualitative characteristics of the demand for educational services.

Key words: Demographic factor, demand for educational services, population, population density, birth rate, system model, migration, population health.

ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА СПРОС НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ В РЕГИОНАХ СТРАНЫ

Аннотация

Цель статьи – изучить влияние демографических факторов на спрос на образовательные услуги и обосновать зависимость уровня, качества и количества спроса на образовательные услуги от комплекса демографических показателей, а также его основу от населения для анализа уровня, количества и плотности связей, а также их различных, неравномерных изменений в разных регионах. Кроме того, в статье уделяется внимание влиянию факторов внутренней и внешней миграции, уровню здоровья населения, количественным и качественным характеристикам спроса на образовательные услуги.

Ключевые слова: Демографический фактор, спрос на образовательные услуги, население, плотность населения, рождаемость, системная модель, миграция, здоровье населения.

Kirish. Xalq ta’limi tizimi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta’limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta’kidlangan emas.

Ta’lim tizimi kognitiv kompetensiya[1] va raqamli texnologiyalar asosida qurilgan iqtisodiyotda eng muhim rollardan birini o‘ynaydi, bu yerda ishlab chiqarish omilining asosiy xususiyati inson kapitali bo‘lib, bu ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish va unga ta’sir qiluvchi omillar bilan bog‘liq tizimining dolzarbligini oshiradi. Zamonaviy ta’limning maqsadi jamiyat a’zosiga o‘zini shaxs sifatida anglashi va olingan bilim, kasbiy ko‘nikma va tajribani amalda yanada qo‘llashi, ya’ni muvaffaqiyatli ish topishi va zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi uchun imkon beradigan vakolatlarning shakllantirishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim tizimi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va texnologik omillarga bog‘liq.

Siyosiy omillar ta’siri ta’limni rivojlantirishning istiqbollari ko‘p jihatdan davlat siyosati va jamiyatning ushbu sohaga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Siyosiy omillarga davlatning ta’lim oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari kiradi. Bilimlar iqtisodiyoti doirasidagi ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar davlat tomonidan tartibga solish darajasiga, ta’limni jamoat manfaati sifatida tashkil etish shakllari va usullarining evolyusiyasiga ta’sir qiladi.

Ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi texnologik omillarga yangi texnologiyalar va innovatsion dasturlarni ishlab chiqish kiradi. Masalan, zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim elementlar, shu jumladan raqamli ta’lim bo‘lib, ular o‘quv jarayonini yanada aniqroq, qiziqarli va qulayroq qiladi.

Shuningdek, ta’lim tizimi iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ular iste’molchilarning xarid qobiliyatiga, iste’mol tarkibiga va ta’lim sohasidagi xizmatlarni yetkazib berishga

ta’sir qiluvchi bir butun tizmlar to‘plamidir. Ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri moliyalashtirish ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Ta’limni moddiy qo‘llab-quvvatlash sifatida davlat subsidiyalari, soliq imtiyozlari, grantlar, xususiy investitsiyalar va aralash moliyalashtirish kabi mexanizmlardan foydalaniladi.

Ta’lim xizmatlari bozorida ijtimoiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy omil – bu shaxsning xulq-atvori, farovonligi va sog‘lig‘iga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy muhitdagi har qanday o‘zgarishlardir. Bularga aholi turmush darajasi, aholi salomatligi, demografik ko‘rsatkichlar, ishchi kuchining holati, ijtimoiy soha va infratuzilma kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Demografik ko‘rsatkichlarning umumiyligi, ya’ni demografik muhit ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi tashqi muhitning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Demografik muhit ma’lum bir tuzilishga ega, ya’ni bir guruh insonlarning demografik xususiyatlari bilan farq qilishidan iborat bo‘ladi.

Biroq, demografik omillar ko‘proq darajada ushbu xizmatlarning iste’molchilari tomonidan belgilanadigan ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabiga ta’sir qiladi. Oxirgi foydalanuvchilarga ta’lim salohiyatidan nafaqat moddiy yoki boshqa imtiyozlar yaratish va pul topish uchun, balki o‘zlarining bilim ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadigan o‘quvchilar, talabalar, tinglovchilar kiradi. O‘z navbatida, ta’lim xizmatlari bozorida talab sub’ektlari bo‘lib tashkilotlar, firmalar, shuningdek davlat va xususiy korxonalar, alohida fuqarolar kiradi.

Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy dunyoda bilimlarning qadr-qimmati doimiy ravishda oshib borayotgan sharoitda har yili ta’lim xizmatlariga talab ortib bormoqda, chunki ta’lim savodli va madaniyatli kelajak avlodni muvaffaqiyatli rivojlantirish va shakllantirishning ajralmas va o‘ta muhim tarkibiy qismidir.

Ta’lim tizimi juda murakkab ijtimoiy—iqtisodiy tizim bo‘lib, u nafaqat miqdoriy, balki sifat xususiyatlari, hududiy tarmoqlanishi va ma’muriy bo‘ysunish xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Ta’lim xizmatlari uchun talab miqdoriy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilar soni, o‘rganilayotgan vaqtda bolalar bog‘chalariga boradigan bolalar, bolalar bog‘chasiga bormaydigan, lekin potensial talab bor bo‘lgan bolalar (0-1,5 yosh), ta’lim olish uchun ehtiyoj bor boshqa fuqarolar (uzluksiz ta’lim sifatida). O‘rganilgan tafsilotlardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim xizmatlariga bo‘lgan haqiqiy va potensial talab keng miqiyosda bo‘lib, ular turli yoshdagi shaxslardan shakllangan.

Ta’lim xizmatlari bozoridagi talabning sifat xususiyatlari esa aholi salomatligi, aholining ma’lumot darajasi, aholi tarkibi kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning xususiyatlaridan biri taqdim etilgan demografik omillar ta’lim tizimiga bevosita ta’sir qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu keyingi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi va isbotlaydi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy muammolaridan biri shundaki, hozirgi kunga qadar xalq ta’limi tizimida demografik omillarning talab va taklifini prognoz (bashorat) qilish uchun etarli vositalar ishlab chiqilmagan.

Bunday xulosa kelishga sabab, O‘zbekiston ta’lim bozoridagi real vaziyat va ochiq-oydin muammolarni asos qilib olish mumkin, ular orasida, masalan, bolalar bog‘chalari uchun navbat, umumta’lim maktablaridagi sinflarning hajmi va undagi o‘quvchilar soni, talab va ta’lim xizmatlari o‘rtasidagi ayrim hududlaridagi nomutonasiblik ya’ni tengsizlikni olish mumkin.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra[2], 2021/2022 o‘quv yilida umumta’lim maktablarini jami 441,3 ming o‘quvchi bitirgan bo‘lsa, 2022/2023 o‘quv yilida 701,9 ming bola 1-sinfga chiqadi. Ushbu bolalarni maktabga qabul qilish uchun 2022/2023 o‘quv yilining o‘zida qo‘shimcha 260,6 ming o‘quvchi o‘rni zarur bo‘ladi. 2021/2022 o‘quv yilida maktablar pasporti bo‘yicha umumiy loyihaviy quvvati 5111,1 ming o‘rinni tashkil etdi. Hisob kitoblariga ko‘ra, 2026 yilda 7-17 yosh oralig‘idagi bolalar soni 7642,7 ming nafarni, 2030 yilda esa 8660,8 nafarni tashkil etadi.

2026 yilgacha 1,2 million o‘quvchi o‘rni uchun mo‘ljallangan maktablari qurilishiga 18,4 trln.so‘m, 2030 yilgacha yana 600 ming o‘rinli maktablar qurilishi uchun 9,2 trln.so‘m, jami 27,6 trln.so‘m mablag‘ talab etiladi. Shundan keyin ham 1,7 million o‘quvchi o‘rni yetishmovchiligi saqlanib qoladi.

Darvoqe, jon boshiga hisoblaganda ham, davom etayotgan urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini inobatga olsa ham, Toshkent shahridagi maktab yetishmovchiligi muammosi poytaxtdagi eng og‘ir ijtimoiy muammolardan biriga aylanadi. Chunki strategiya ham, maqsadli ko‘rsatkichlar ham poytaxtdagi mavjud reallikni umuman inobatga olmagan.

Demografik omillarni to‘g‘ri ko‘rib chiqish kelajakda boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida zarur hudud hamda joylarni aniqlash bo‘yicha o‘quv jarayonining yo‘nalishi va maqsadlariga muvofiq uzoq muddatli prognozlarni qilish va ta’lim strategiyalarni ishlab-chiqishga imkon beradi deb ta’kidlash mumkin. Shu sababli, asosiy muammo shundaki, bugungi kunga qadar ta’lim xizmatlariga talabni prognoz qilishning haqiqatan ham samarali usuli hali taklif qilinmagan.

Talabni bashorat qilishda nafaqat tug‘ilish prognozlarini, balki migratsiya jarayonlarining prognozlarini ham, davlatlararo immigratsiya sharoitida ham, “shahar-qishloq” ichki migratsiyasi muhitida ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari, O‘zbekiston hududlarida notekis zichlik va aholi joylashuvini hisobga olish zarur bo‘ladi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning 1 oktabr holatiga O‘zbekistonda 1 km.kv. yer maydoniga o‘rtacha 79,8 nafar doimiy aholi soni to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,7 kishiga ortgan. Aholi o‘sishi o‘zi busiz ham tobora murakkablashayotgan maktab yetishmovchiligi muammosini yanada kuchaytiradi

Tahlillarga ko‘ra, 48 yil oldin Yer yuzida aholining soni ikki baravar kam bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqich (9 milliard) 2030-yillarda kutilmoqda. 2022 yilning 1 oktabr holatiga respublikaning demografik ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, jami aholi soni – 35,8 mln. kishi, shaharda yashovchilar – 18,2 mln. kishi, qishloqda yashovchilar – 17,6 mln. kishi, tug‘ilish soni – 681,8 ming kishi, o‘limlar soni – 130,4 ming kishi, tashqi migratsiya: ko‘chib kelgan – 1,5 ming kishi, ko‘chib ketgan – 3,2 ming kishi bo‘lgan.



2022 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida jami 9424787 ta oilalar mavjud bo‘lib, shundan 4771951 ta 18 yoshdan kichik bolali oilalardir. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 179148 taga ko‘paygan. Hududlar kesimida 18 yoshdan kichik bolali oilalar soni esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 263520 ta, Andijon viloyati – 447561 ta, Buxoro viloyati – 316079 ta, Jizzax viloyati – 163465 ta, Qashqadaryo viloyati – 387163 ta, Navoiy viloyati – 153733 ta, Namangan viloyati – 427060 ta, Samarqand viloyati – 477377 ta, Surxondaryo viloyati – 355724 ta, Sirdaryo viloyati – 108536 ta, Toshkent viloyati – 420240 ta, Farg‘ona viloyati – 535986 ta, Xorazm viloyati – 313564 ta, Toshkent shahri – 401943 ta b o‘lgan.

Taqdim yetilgan tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatning turli mintaqalarida o‘rganilayotgan talabga turli omillar ta’sir qiladi. O‘sha hududlarida qaerda muhojirlar oqimi yuqori, bu muhojirlar miqdoriy va sifat xususiyatlari dominant bo‘lib. Urbanizatsiya yuqori bo‘lgan hududlar uchun-tug‘ilish va bolalar salomatligi omillari. Qishloq hududlari ustunlik qiladigan hududlarda ichki migratsiya omillari mavjud bo‘lib, ularning asosiysi aholining qishloqdan shaharga ommaviy chiqib ketishidir. Ya’ni, ma’lum bir mintaqadagi demografik omillarni birinchi navbatda aniqlash kerak, keyin ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qarab ma’lum bir hudud uchun ahamiyatiga qarab tartiblanishi kerak, deb aytishimiz mumkin.

Ushbu omillar va jarayonlar ta’sirining o‘zaro bog‘liqligini birlashtirganda, faqat natijaviy prognozlar kelajakdagi ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning ob’ektiv tasvirini berishi mumkin. Olingan xulosalar ta’lim muassasalarida ehtiyojdan kelib chiqqan joylarni shakllantirish, o‘qituvchi-pedagoglarning zarur tarkibini shakllantirishning uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, hududlarga, uzoq qishloq va ovullarga o‘qituvchilarni jalb etishga qaratilgan qo‘llab – quvvatlovchi chora-tadbirlar ishlab chiqish orqali pedagog kadrlarning migratsiyasini prognoz (bashorat) qilish imkoni paydo bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatning turli hududlarida o‘rganilayotgan talabga turli omillar ta’sir qiladi. O‘sha hududlarda ichki muhojirlar oqimi yuqori, bu muhojirlar miqdoriy va sifat xususiyatlari dominant bo‘lib. Urbanizatsiya yuqori bo‘lgan hududlar uchun-tug‘ilish va bolalar salomatligi omillari. Qishloq hududlari ustunlik qiladigan hududlarda ichki migratsiya omillari mavjud bo‘lib, ularning asosiysi aholining qishloqdan shaharga ommaviy chiqib ketishidir. Ya’ni, ma’lum bir mintaqadagi demografik omillarni birinchi navbatda aniqlash kerak, keyin ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qarab ma’lum bir hudud uchun ahamiyatiga qarab tartiblanishi kerak, deb aytishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, maqolaning asosida keltirilgan muammolar tasdiqlangan deb aytishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, talab prognozlarini modellashtirish amaliyotida turli xil omillar aniqlandi, ularning kaliti tug‘ilish va migratsiya jarayonlari prognozidir. Bizning kuzatuvimiz davomida ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga nafaqat ushbu ikki omil, balki aholi soni va zichligi, aholi salomatligi darajasining notekis taqsimlanishi ham ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi.

Xulosa va takliflar. Maqolada bir qator asosiy demografik omillarni umumlashtirishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga va ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga ta’sir darajasini baholashga harakat qilindi.

Zamonaviy dunyoda ta’lim xizmatlari bozorda sotiladi, bu mavjud potensial xaridorlar va sotuvchilar to‘plami sifatida tushuniladi. Ta’lim bozori, shunga muvofiq, ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning va turli ta’lim muassasalari tomonidan bunday xizmatlarni taklif qilishning o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimidir. Binobarin, taqdim etiladigan o‘quv joylari soni ta’lim bozoridagi ta’minotga asosan ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu bozordagi taklif sub’ektlari esa turli mulkchilik shaklidagi ta’lim muassasalaridir. Turli darajadagi muassasalar mulkchilik shakli yoki idoraviy mansubligidan qat’iy nazar (Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rtamaxsus ta’limi), ta’limning yagona tarmoq tuzilmasini tashkil etadi. Demografik omillar ta’lim xizmatlaridagi bozor ta’minoti elementlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turli darajadagi ta’lim muassasalari soni va ularning ma’lum bir hududdagi etarliligi, shuningdek bitiruvchilar soni – tarbiyachilar, boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim o‘qituvchilari tarkibidan iborat bo‘ladi.

Taqdim etilgan tahlil natijalariga ko‘ra, yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabga ta’sir qiluvchi demografik omillar yig‘indisini keyingi tadqiqotlarda keng o‘rganish zarur degan xulosaga kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Kognitiv kompetensiya - shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi bo‘lib, bu bilish tushunchasiga asoslanib, bizning ongimiz tomonidan axborotni qayta ishlash jarayoni.
2. (https://ifmr.uz/publications/articles-and-abstracts/birth_rate)

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
6. Shodiev X, Xabibullaev I. “Statistika” T. “Moliya-iqtisod” 2013.
7. Radjiev A., Karimov F., Ibragimov A. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma’lumotlar to‘plami. 1-, 2-to‘plam //. – Toshkent, 2022 yil.
8. Radjiev A., Karimov F., Ibragimov A., Murodov I. Xalq ta’limi raqamlarda. Xalq ta’limi tizimiga oid statistik ko‘rsatkichlar bo‘yicha qisqa hajmli risola (broshyura). I, II-nashr. “Yangi kitob”. Toshkent-2022.
9. Voros F.K. (1975). Democritus’ educational thought, Paedagogica Historica, 15:2, 457-470, DOI: 10.-1080/0030923750150206
10. Brickhouse Thomas C. (2000). The Philosophy of Socrates. Westview Press.
11. Lodge R. C. Plato's theory of education. – Routledge, 2014.
12. Arthur E. Walzer (2003) Quntilian's “Vir Bonus” and the stoic wise man, Rhetoric Society Quarterly, 33:4, 25-41, DOI: 10.1080/02773940309391266
13. Radjiyev A., Karimov F., Ibragimov A., Axmedov M. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqotning hisoboti. TALIS-2023 xalqaro tadqiqotiga O‘zbekistondagi maktab o‘qituvchilari va direktorlarini tayyorlash. 1-qism. T.: 2021. 72 bet
14. Andreas Shlyayxer. Obrazovanie mirovogo urovnya. Kak vыstroit shkolnuyu sistemu XXI veka? Uspeshnыe reformы i vыsokie rezultatы. Moskva, 2019. 336 s.
15. www.uzedu.uz
16. www.stat.uz
17. https://ru.wikipedia.org/wiki
18. https://www.statistics.com

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘K: 378;530.1

Иззатбек ЭГАМБЕРГАНОВ,
Базовый докторант Чирчикский государственный педагогический университет
E-mail:egamberganov.i@cspi.uz
Наиля АБДУЛХАЛИКОВА,
Чирчикский государственный педагогический университет,
кандидат физика-математических наук,
E-mail:abduxalikova.n@cspi.uz.

Под рецензией профессора Национального Университета Узбекистана, доктора педагогических наук М.Курбанова.

PEDAGOGICAL METHODS FOR FORMING ENGINEERING THINKING OF PEDAGOGICAL STUDENTS (on the example of the subject of physics)

Abstract

The study examines the current problems of teaching modern physics in higher educational institutions of pedagogical education and some possible ways to solve them. Using the example of the training of pedagogical personnel in the field of teaching physics, the development and improvement of some teaching methods aimed at the formation of engineering thinking among future teachers both in the field of pedagogy and in the field of physical science are considered.

Key words: engineering problems, creative thinking, pedagogical technologies, humanitarian qualities, scientific theories.

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUXANDISLIK FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI (fizika fani misolida)

Annotatsiya

Maqolada pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida fizika faninni o‘qitishning dolzarb muammolari va ularni hal qilishning usullariga e’tibor qaratilgan. Fizika fanini o‘qitish sohasidagi bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash misolida o‘qituvchilar muhandislik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan ba’zi o‘qitish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishning shakllari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: muhandislik muammolari, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, gumanitar fazilatlar, ilmiy nazariyalar

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ (на примере предмета физика)

Аннотация

В исследовании рассмотрены актуальные проблемы преподавания современной физики в высших учебных заведениях педагогического направления и некоторые возможные пути их решения. На примере подготовки педагогических кадров в сфере преподавания физики рассмотрено развитие и совершенствование некоторых методов преподавания, направленных на формирования инженерного мышления у будущих педагогов как в области педагогики, так и в области физической науки.

Ключевые слова: инженерные проблемы, созидательное мышление, педагогические технологии, гуманитарные качества, научные теории.

Введение. Работа посвящена проблеме формирования основ инженерного педагогического мышления педагогических ВУЗов. Такой вид мышления был характерен для многочисленных исследователей и инженеров имена которых остались в истории и которые вывели человечество на высшую степень развития и прогресса.

Обзор литературы. В последние столетия прогресс в науке и технике осуществляется довольно быстрыми темпами. Вполне очевидна разница между ученым-исследователем и инженером. Ученые исследуют мир, открывают новые явления и законы, создают новые научные теории, а инженеры умеют воплощать научные открытия в жизнь, на благо человека. Но на этом пути существует еще достаточно проблем. Молодежь в наше время становится все более прагматичной, и на будущее выбирают специальности дающие большой заработок, при меньших интеллектуальных и физических усилиях. Инженерное образование остается в стороне, невостребованным. Да и специалистов, готовящих инженерные кадры, в связи с естественными процессами старения населения, остается все меньшее количество. Но не все проблемы требующие инженерного подхода пока решены. Запасы углеводородов (газ, нефть, уголь) постепенно исчерпываются. Остро стоит проблема обеспечения населения Земли энергией различного вида. Также обстоят дела и в области ядерной энергетики. Ограничены запасы уранового сырья для нужд ядерной энергетики. Кроме того, продуктом промышленного и энергетического производства является загрязнение атмосферы, вызывающее «парниковый» и другие нежелательные эффекты. Решение этих задачи связано в первую очередь с развитием производства альтернативных, в том числе возобновляемых, источников энергии (солнечных батарей, геотермальных, ветряных и др. электростанций). На этом пути стоит также множество нерешенных задач. В отличие от традиционных источников энергии экономическая эффективность возобновляемых источников энергии пока не достаточна и это тоже требует приложение инженерного мышления [1]. Инженерные проблемы, требующие незамедлительного решения, многочисленны. Это и повышение качества жизни в целом, совершенствование медицинского и диагностического оборудования, и развитие интернет сервисов, и улучшение жизненных условий людям проживающим в жарких и засушливых районах, а также населению, проживающему в условиях крайней мерзлоты и многие другие вопросы. В связи с неуклонным ростом

численности населения инженерное, т.е., созидательное, мышление должно пронизывать все сферы деятельности человеческого общества. В этом плане не является исключением и образовательная деятельность. Необходимы новаторы-педагоги, с созидательным инженерным складом мышления, творчески подходящие к самому важному процессу – воспитанию и обучению подрастающего поколения. Такие педагоги должны проектировать, создавать и внедрять современные педагогические технологии, направленные на воспитание и обучение специалистов 21 века. Растет потребность в инженерных умах, и в первую очередь инженерный ум необходим педагогам.

Методология исследований. Цель нашей исследовательской работы - это теоретическое обоснование и совершенствование методики развития инженерного мышления у студентов педагогических высших учебных заведений (далее ВУЗов). В основные задачи нашего дальнейшего исследования входит рассмотрение таких вопросов, как:

1. изучение психолого-педагогической литературы по проблеме инженерного мышления с целью определения особенностей такого мышления, способов его выявления и диагностики и закономерностей его развития;
2. выявление особенностей инженерного мышления, которые могут быть сформированы при изучении предметной области педагогика в ВУЗе;
3. разработка методических рекомендаций для курса «методики преподавания физики и астрономии», позволяющие выбирать правильное направление формирования инженерного мышления при изучении курса.

Таким актуальным вопросом современности, как формирование инженерного мышления заняты исследователи во многих областях наук- это и психологи, и педагоги, и нейрофизиологи, и философы. На междисциплинарной основе инженерии и педагогики сформировалось и активно развивается в разных странах мира актуальное для нашей эпохи направление профессиональной педагогики – инженерная педагогика. Выделение инженерной педагогики в качестве самостоятельной междисциплинарной науки было вызвано объективной необходимостью решения комплексных глобальных проблем инновационного развития образования, науки и производства. Инженерная педагогика прежде всего рассматривает способы мышления, как основу для формирования инженерного мышления.

В данном исследовании рассмотрены методы инженерной педагогики применительно образовательному процессу в педагогическом ВУЗе. Инженерная педагогика прежде всего опирается на психологию мышления.

Поэтому рассмотрим здесь виды мышления. Теоретическое мышление направлено на познание наиболее общих законов и правил. Оно оперирует наиболее общими категориями и отвлеченными понятиями. Научные концепции, теории, методологические основания науки являются продуктом этого вида мышления. Теоретическое мышление составляет основу научного творчества. Основной задачей практического мышления является подготовка физического преобразования действительности, т.е. постановка цели, создание плана, проекта, схемы действий и преобразований. Его особенность состоит в том, что оно часто развертывается в условиях дефицита времени, а также в том, что в условиях практической деятельности субъект не имеет времени для проверки гипотез. Теоретическое и эмпирическое мышление отличаются друг от друга по характеру понятий, которыми оперирует мышление. Теоретическое мышление оперирует по возможности точно определенными, унифицированными по своему содержанию понятиями, относительно которых степень согласия между людьми очень высока. Эмпирическое мышление является интуитивным, и оно оперирует ситуативно определяемыми понятиями. В этих случаях между понятиями, используемыми разными людьми, может быть низкая степень согласованности [2]. Различают также интуитивное и аналитическое мышление. Аналитическое мышление развернуто во времени, имеет более или менее четко очерченные этапы, а сам процесс мышления в достаточной мере осознан. В отличие от аналитического, интуитивное мышление свернуто во времени. Иногда решение проблемы происходит молниеносно, в нем отсутствуют этапы, и его процесс осознается в минимальной степени. Выделяют такие два вида мышления как реалистическое и аутистическое. Реалистическое мышление основывается на реальных знаниях о мире, направлено на достижение целей, обусловленных жизненно важными потребностями и обстоятельствами, оно регулируется логическими законами, а его течение осознанно контролируется и направляется. Аутистическое мышление (от слова “аутизм“ – стремление к уходу от реальной действительности во внутренний мир, оторванность от реальности) основывается на произвольных, иррациональных допущениях при игнорировании реальных фактов [3].

В некоторых исследовательских работах, направленных на развитие личности, посредством физических экспериментов на основе применения образовательных технологий, определено, что привлечение учащихся к исследовательской деятельности, этапы их подготовки к выполнению учебно – исследовательской работы и развитие у них исследовательских умений являются эффективным методом развития учебно – исследовательских умений у учащихся. Также определено, что деятельность, направленная на формирование и развитие учебно – исследовательских умений на основе физических экспериментов становится основой для усвоения учащимися некоторых элементов научно – исследовательских работ и развития у них когнитивных и креативных качеств. При том, что развитие учебно – исследовательских умений у учащихся опирается на принципы системности, межпредметной интеграции, творческой активности и оценки своей личности [4;5].

Анализ и результаты. Как видно из анализа литературных данных развитию инженерного мышления способствует обучение, направленное на создание интереса, мотивации. Если в школьном и младшем студенческом возрасте важна внешняя мотивация – похвала и высокая оценка. То по мере взросления внешняя мотивация перерастает во внутреннюю. Выпускнику ВУЗа необходимо ощущать свой высокий профессиональный уровень, повышать свою самооценку. Этому может способствовать повышение количества самостоятельной работы, участие в совместных с педагогом исследованиях и разработках, реализация проектов. Т.е. студенческая работа нацеленная на результат. Самостоятельная проектная работа способствует целостному восприятию мира и формированию научного мировоззрения студентов, а также позволяет активизировать уже существующий интерес студента к предмету или способствует развитию такого интереса.

Занятия по проектной методике предоставляют возможности для разностороннего развития студентов и формированию важнейших компетенций, обозначенных в стандартах нового поколения. Среди них:

- навыки проведения экспериментального исследования: выдвижение гипотез, поиск решений, проведение наблюдений и измерений, установление

причинно-следственных связей, оценка влияния отдельных факторов, обработка и анализ результатов; - предметные умения (информатика): принципы моделирования, конструирования, проектирования, алгоритмизации, программирования;

- понимание межпредметных связей: математики, информатики, естествознания, педагогики, технологии, музыки и других предметов;

- развитие творческого, образного, пространственного, логического, критического мышления; - развитие коммуникативной компетенции: работа в коллективе (в паре, группе) по выработке и реализации идей, планированию и осуществлению деятельности, развитию социальности.

В настоящем исследовании применен и развит метод проектов применительно к выпускным квалификационным работам студентов физического факультета педагогического университета. Перед выпускниками бакалавриата ставились разнообразные инженерно-физические задачи проектно-исследовательского характера, создание методов визуализации физических явлений и эффектов лабораторными средствами. Работая по проектной методике выпускникам удалось создать рабочие стенды для исследования физических процессов и явлений, внеся таким образом ощутимый вклад в лабораторную базу университета [6]. Кроме, того студенты разрабатывают и собственные педагогические методики, проявляя себя в качестве инженеров педагогического процесса [7; 8].

Заключение. Применение метода проектов дало студентам навыки инженерно-проектной деятельности, повышена самооценка студентов. Выполненные выпускниками работы используется в лабораториях кафедры, труд востребован, самостоятельно приобретены дополнительные знания. Известным фактом является то, что от успешной деятельности педагогов зависит процветание общества. В этом направлении педагогам нужно создавать все условия для творческого роста. Каждое педагогическое учреждение должно быть оснащено первоклассными библиотеками со всеми необходимыми для педагогов научными изданиями, мощной интернет поддержкой, возможностью скорой и быстрой публикации студенческих работ на бесплатной основе. Ведь средства, вложенные в педагогику – это инвестирование будущего человечества. Педагог – это инженер формирующий не только мыслительные способности, но и гуманитарные качества человека будущего.

ЛИТЕРАТУРА

1. Белл Д. Будущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М., Академия, 2007. –357с.
2. Сазонова З.С., Чечеткина Н.В. Развитие инженерного мышления –
3. основа повышения качества образования: Учебное пособие . –М.: МАДИ (ГТУ), 2007. –195 с.
4. Захарова Л. Н., Саралиева З. Х., Гадбеджи З., Чжу Л. Отношение к труду
5. студентов индустриальных колледжей России, Китая, Ирана (на англ. яз.) Интеграция образования. Т. 26, № 3. 2022, , http://edumag.mrsu.ru
6. Суяров К.Т. Исследование вольт-амперной характеристики фоторезистора //Theoretical & Applied Science. – Philadelphia, USA, 2017. – № 03 (47). – pp. 19-199.
7. Суяров К.Т. Ўкувчиларда ўкув-тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантиришнинг методик тизими // Ta’lim, fan va innovatsiya. – Тошкент, 2019. – №3. – Б. 15-18.
8. Салямов Ю.Р.**,** Фуркатов С.Ф., Абдулхаликова Н.Р. Инновационные методики в преподавании темы: “Эквипотенциальные поверхности в электростатических и гравитационных полях”// “Перспективы развития образовательного инновационного кластера”. Материалы международной научно-практической конференции, Ташкент, 2022. **– С**.80-84.
9. Мавлонов Дж., Дадаматова Д. Использование метода аналогий и моделирования на уроках физики в средней школе, Молодой ученый. — 2023. № 2. – С. 7-11. https://moluch.ru//449/98522
10. Сабирханова А., Махкамова Т., Дадаматова Д. Исследование влияния новых педагогических технологий на процесс преподавания физики в средней школе.“Zamonaviy fizika va astronomiyaning muammolari, yechimlari, o‘qitish uslublari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman. Ташкент, 2022. – С.295-299.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 301.085:15:154.2:152.32(045)

Рано ЭРНАЗАРОВА,
Қарши давлат университети тадқиқотчиси

Психология фанлари доктори (DSc) Б.Жўраев тақризи остида

СТРЕССОГЕН ВАЗИЯТЛАРДА ТАЛАБАЛАР ХУЛҚ-АТВОРИ ДЕТЕРМИНАНТЛАРИНИНГ НАМОЁН БЎЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация

Мақолада стрессоген вазиятларда талабалар хулқ-атвор детерминантларининг намоён бўлиш хусусиятлари ўрганилган. Унда стресс таъсирида талабаларда салбий эмоционал ҳолатлар юз бериши ва булар ўқув жараёнида фаолликнинг пасайишига таъсир қилиши муаллиф томонидан илмий асослаб берилган. Муаллиф мазкур муаммо ҳозирги кунда жуда долзарб эканлиги, уни ўрганиш эса психологлар олдида муҳим вазифаларни қўяётганлигини таъкидлаб ўтган.

Калит сўзлар: инсон, талаба, ўқув фаолияти, психик барқарорлик, стресс, хавотир, хулқ-атвор, ҳиссиёт, фаоллик, кайфият, копинг стратегия.

FEATURES OF THE DETERMINANTS OF STUDENTS' BEHAVIOR IN STRESS-GENERATED SITUATIONS

Annotation

The article discusses the features of the manifestation of the determinants of students' behavior in stressful situations. In it, the author scientifically substantiates the fact that under the influence of stress, students experience negative emotional states and that this affects the decrease in activity in the educational process. The author emphasized that this problem is very relevant today, and its study poses important tasks for psychologists.

Key words: personality, student, learning activity, mental stability, stress, anxiety, behavior, emotion, activity, mood, coping strategy.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕТЕРМИНАНТ ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ В СТРЕССОГЕННЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация

В статье рассматриваются особенности проявления детерминант поведения студентов в стрессовых ситуациях. В ней автор научно обосновывает тот факт, что под влиянием стресса у студентов возникают негативные эмоциональные состояния и что это влияет на снижение активности в учебном процессе. Автор подчеркнул, что эта проблема очень актуальна на сегодняшний день, а ее изучение ставит перед психологами важные задачи.

Ключевые слова: личность, студент, учебная деятельность, психическая устойчивость, стресс, тревожность, поведение, эмоция, активность, настроение, копинг-стратегия.

Кириш. Дунёда стресс ҳолати куннинг долзарб муаммоларидан бирига айланиб бормоқда. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотига асосан, кучли стресс инсонларнинг жисмоний ва ақлий қобилиятига салбий таъсир этиб, уларнинг ичкилик, тамаки ва бошқа дориларга боғлиқлигини юзага келтирмоқда. Инсон ҳаётида стрессларнинг меъёрдан ортиқ бўлиши уларнинг психикасида зўриқишлар юзага келишига ҳамда саломатлигига зиён етказишига сабаб бўлмоқда. Жумладан талабаларнинг таълим олишига стресслар салбий таъсир этиши сабабли, уларнинг стрессга қарши курашиш хулқини шакллантириш муҳим эканлиги намоён бўлмоқда.

Жаҳонда стресс ҳолатини енгиб ўтишга қаратилган психологик усулларни ривожлантиришга эътибор қаратилмоқда. Стрессларни бошқариш, стрессга қарши курашиш, стрессга мослашиш каби копинг стратегияларни қўллаш орқали стресс ҳолатида психик барқарорликни сақлаш амалиёти кенг қўлланилмоқда. Шу билан бирга стресснинг бошланиши хавотир ҳолати билан боғлиқ эканлиги борасидаги талқинларга асосан, стресс омилларнинг таъсирини пасайтириш учун хавотирга мойиллик даражасини меъёрлаштириш муҳим ўрин эгалламоқда. Бундан ташқари ўқув жараёнида стрессларнинг физиологик белгиларидан келиб чиқиб, талабаларнинг ўқув фаолият стрессини физиологик таъсирлар орқали меъёрлаштириш усули фойдаланилмоқда.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Стрессга барқарорликни таъминлаш, фрустрациянинг стрессогенлик аҳамияти, стресс холати суицидал хулқ юзага келишига таъсири, стресс ҳолати юзага келишининг олдини олишда ёшларни деструктив ғоялар таъсиридан ҳимоялаш, стрессларни бошқариш компетенциясини шакллантириш, ота-оналар ва болалар ўртасида мулоқотнинг кўламини ошириш, казусли вазиятларда психологик ҳимояни фаоллаштириш борасида Ўзбекистон олимларидан Д. Абдумаджидова, Р.Абдурасулов, Д.Боймирзаева, У.Бутаева, Ф.Газиева, А.Жабборов, Н.Исмоилова, К.Кадиров, М.Карамян, З.Элов, Д.Мамадиярова, Н.Сагиндикова, З.Файзиев, Ф.Шерматов, Ғ.Шоумаров, П.Эргашев, У.Қодиров, О.Ҳайитов ва бошқа олимлар томонидан ўрганилган.

МДҲ олимларидан талабалар ўқув фаолиятида стрессларнинг юзага келиш омиллари ва стресс ҳолатини енгиб ўтиш муаммоси А.Акопян, А.Андреева, Х.Ахмедова, Д.Бадмаева, Т.Бохан, С.Гаголина, Н.Деваев, В.Кривобокова, И.Комарова, О.Лавров, Т.Лисакова, О.Лозгачева, М. Падун, И.Менишикова, Е.Сапёрова, Л.Статуева, М.Хуторная ва бошқа олимлар томонидан тадқиқ этилган. Бундан ташқари узоқ хориж олимларидан стресс ҳолатининг пайдо бўлиш асослари, белгилари, механизмлари, стресснинг шахс хулқ-атворига таъсири борасидаги изланишлар А.Адлер, А.Бандура, Р.Кэттел, К. Маслак, Х.Муррэй, Г.Салливан, Г.Селье, З.Фрейд, Х.Френденбергер, Э.Фромм, К.Хорни, Э.Эриксон ва бошқаларнинг тадқиқотларида атрофлича ўрганилган.

Е.В. Сапёрова имтиҳон стресси шароитида талабаларнинг индивидуал психологик хусусиятларининг ўзига хослигини ўрганди. Тадқиқотда қўлланилган юрак ритми ўзгариши натижалари таҳлилига асосан, имтиҳонни кутиш вазиятида юқори шахсий хавотир даражасига эга талабалар меъёрий шахсий хавотир даражасига эга талабалар билан таққосланганда юқори тебраниш кучи, стандарт оғиши, қуйи тебраниши пасайиши ҳамда тескари равишда амплитуда ва босим кўрсатгичи ортиши аниқланган. Ушбу фарқ имтиҳон стресси даврида намоён бўлиб, хотиржам ҳолатда статистик маънога эга эмас. Барча физиологик кўрсатгичлар “яхши” баҳо олишни режалаштирган талабаларда ўзгарган.

Н.З.Исмоилова томонидан талабаларда стрессга барқарорликни оширишнинг психологик детерминантлари эмпирик жиҳатдан тадқиқ этилган. Тадқиқотда респондентлардаги стрессга барқарорлик ва ўзига баҳо бериш, фрустрацион толерантлик, копинг-стратегиянинг фаол ёки пассив усулларини қўллаш имкониятлари ўртасидаги алоқадорлик ўрганилган. Ўз-ўзига баҳо ва фрустрацион вазиятларга толерант муносабатда бўлиш детерминантлари билан стрессга барқарорлик ўртасида аҳамиятли ўзаро алоқадорлик мавжудлиги аниқланган. Талабаларда ўз-ўзига баҳо бериш, фрустрацион толерантлик, копинг-хулқ стратегиялари ўзаро алоқадорликда стрессга барқарорликни оширишнинг детерминантлари сифатида муҳим роль ўйнайди. Талабаларда стрессга барқарорликни оширишга қаратилган махсус психологик тренинг дастури ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу дастур когнитив, аффектив, конатив, физиологик компонентларни ўз ичига олган. Тадқиқот иши натижалари асосан талабаларда стрессга барқарорликка таъсир этувчи детерминантларга психологик таъсир ўтказиш орқали уларда стрессга барқарорлик кўникмаларини шакллантириш ҳамда уларнинг стрессга барқарорлигини оширишга эришилиши келтирилган.

Тадқиқот методологияси, таҳлил ва натижалари. Стресс ҳолати талабаларнинг эмоционал ҳолати ва ўқув фаолиятида ўзгаришларга сабаб бўлади. Стресс таъсирида талабаларда салбий эмоционал ҳолат ва ўқув жараёнидаги фаоллиги пасайиши мумкин. Шу сабабли стресс ҳолатида талабаларнинг ҳиссиёти, фаоллиги ва кайфиятини “САН” методикаси (В.А. Доскин) ёрдамида ўрганилди. Диагностика натижалари ҳар бир курс учун алоҳида жадваллар шаклида ифодаланган.

Биринчи курс талабаларининг ҳиссиёт, фаоллик ва кайфият шкалалари диагностик натижалари 1- жадвал келтирилган.

1-жадвал

Ҳиссиёт, фаоллик, кайфият шкалалари диагностик натижалари (1-курс) n=112 / ТГ n=67 / НГ n=45

				ТГ				НГ					
		ўғил	%	қиз	%	М (вил)	%	ўғил	%	қиз	%	М (вил)	%
ҳиссиёт	Қаш. вил	39,8	56,9	37,6	53,7	38,7	55,3	38,9	55,6	38,6	55,1	38,8	55,4
	Сам. вил	37,4	53,4	38,2	54,6	37,8	54,0	40,7	58,1	36,9	52,7	38,8	55,4
	Жиз. вил	36,5	52,1	35,6	50,9	36,1	51,5	37,1	53,0	37,4	53,4	37,3	53,2
	М (ҳудудлар)	37,9	54,1	37,1	53,0	37,5	53,6	38,9	55,6	37,6	53,8	38,3	54,7
фаоллик	Қаш. вил	41,3	59,0	37,8	54,0	39,6	56,5	38,7	55,3	36,4	52,0	37,6	53,6
	Сам. вил	38,6	55,1	39,6	56,6	39,1	55,9	41,3	59,0	34,9	49,9	38,1	54,4
	Жиз. вил	39,3	56,1	38,5	55,0	38,9	55,6	36,4	52,0	37,6	53,7	37,0	52,9
	М (ҳудудлар)	39,7	56,8	38,6	55,2	39,2	56,0	38,8	55,4	36,3	51,9	37,6	53,6
кайфият	Қаш. вил	38,2	54,6	42,3	60,4	40,3	57,5	41,2	58,9	37,3	53,3	39,3	56,1
	Сам. вил	40,3	57,6	38,4	54,9	39,4	56,2	37,3	53,3	36,8	52,6	37,1	52,9
	Жиз. вил	36,7	52,4	37,6	53,7	37,2	53,1	39,7	56,7	40,7	58,1	40,2	57,4
	М (ҳудудлар)	38,4	54,9	39,4	56,3	38,9	55,6	39,4	56,3	38,3	54,7	38,8	55,5

Биринчи курс талабаларининг ҳиссиёт, фаоллик ва кайфият шкалалари диагностик натижалари 1-расмда диаграмма шаклида келтирилган.



1-расм. Ҳиссиёт, фаоллик, кайфият шкалалари диагностик натижалари (1-курс)

Жадвалда келтирилган 1-курс талабаларнинг ҳиссиёт шкаласи кўрсатгичлари бўйича таҳлили:

Қашқадарё вилояти ТГ ўғил болалар - 56,9% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 53,7% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 55,3% (меъёрдан паст), Қашқадарё вилояти НГ ўғил болалар - 55,6% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 55,1% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 55,4% (меъёрдан паст).

Самарқанд вилояти ТГ ўғил болалар - 53,4% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 54,6% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 54,0% (меъёрдан паст), Самарқанд вилояти НГ ўғил болалар - 58,1% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 52,7% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 55,4% (меъёрдан паст).

Жиззах вилояти ТГ ўғил болалар - 52,1% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 50,9% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 51,5% (меъёрдан паст), Жиззах вилояти НГ ўғил болалар - 53,0% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 53,4% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 53,2% (меъёрдан паст).

Ҳудудлар бўйича ўртача (М) ТГ ўғил болалар - 54,1% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 53,0% (меъёрдан паст), ТГ вилоятлар бўйича ўртача – 53,0% (меъёрдан паст), Ҳудудлар бўйича ўртача (М) НГ ўғил болалар - 55,6% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 53,8% (меъёрдан паст), НГ вилоятлар бўйича ўртача – 54,7% (меъёрдан паст).

Жадвалда келтирилган 1-курс талабаларнинг фаоллик шкаласи кўрсатгичлари бўйича таҳлили:

Қашқадарё вилояти ТГ ўғил болалар - 59,0% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 54,0% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 56,5% (меъёрдан паст), Қашқадарё вилояти НГ ўғил болалар - 55,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 52,0% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 53,6% (меъёрдан паст).

Самарқанд вилояти ТГ ўғил болалар - 59,0% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 54,0% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 56,5% (меъёрдан паст), Самарқанд вилояти НГ ўғил болалар - 55,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 52,0% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 53,6% (меъёрдан паст).

Жиззах вилояти ТГ ўғил болалар - 56,1% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 55,0% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 55,6% (меъёрдан паст), Жиззах вилояти НГ ўғил болалар - 52,0% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 53,7% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 52,9% (меъёрдан паст).

Ҳудудлар бўйича ўртача (М) ТГ ўғил болалар - 56,8% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 55,2% (меъёрдан паст), ТГ вилоятлар бўйича ўртача – 56,0% (меъёрдан паст), Ҳудудлар бўйича ўртача (М) НГ ўғил болалар - 55,4% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 51,9% (меъёрдан паст), НГ вилоятлар бўйича ўртача – 53,6% (меъёрдан паст).

Жадвалда келтирилган 1-курс талабаларнинг кайфият шкаласи кўрсатгичлари бўйича таҳлили:

Қашқадарё вилояти ТГ ўғил болалар - 54,6% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 60,4% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 57,5% (меъёрдан паст), Қашқадарё вилояти НГ ўғил болалар - 58,9% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 53,3% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 56,1% (меъёрдан паст).

Самарқанд вилояти ТГ ўғил болалар - 57,6% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 54,9% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 56,2% (меъёрдан паст), Самарқанд вилояти НГ ўғил болалар - 53,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 52,6% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 52,9% (меъёрдан паст).

Жиззах вилояти ТГ ўғил болалар - 52,4% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 53,7% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 53,1% (меъёрдан паст), Жиззах вилояти НГ ўғил болалар - 56,7% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 58,1% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 57,4% (меъёрдан паст).

Ҳудудлар бўйича ўртача (М) ТГ ўғил болалар - 54,9% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 56,3% (меъёрдан паст), ТГ вилоятлар бўйича ўртача – 55,6% (меъёрдан паст), Ҳудудлар бўйича ўртача (М) НГ ўғил болалар - 56,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 54,7% (меъёрдан паст), НГ вилоятлар бўйича ўртача – 55,5% (меъёрдан паст).

Биринчи курс талабалари барча вилоятлар бўйича ТГ ва НГда ҳиссиёт, фаоллик ва кайфият кўрсатгичлари меъёрдан паст эканлиги аниқланган. Талабаларда мослашув жараёни кечаётганлиги, стрессга мойиллик юқорилиги ва стрессга барқарорлик паст эканлиги уларнинг ҳиссиёти, фаоллиги ва кайфиятига таъсир этган.

Иккинчи курс талабаларининг ҳиссиёт, фаоллик ва кайфият шкалалари диагностик натижалари 2- жадвал келтирилган.

2- жадвал

Ҳиссиёт, фаоллик, кайфият шкалалари диагностик натижалари (2-курс) n=105 / ТГ n=64 / НГ n=41

		ТГ						НГ					
		ўғил	%	қиз	%	М (вил)	%	ўғил	%	қиз	%	М (вил)	%
ҳиссиёт	Қаш. вил	46,4	66,3	45,7	65,3	46,1	65,8	47,1	67,3	45,7	65,3	46,4	66,3
	Сам. вил	44,8	64,0	46,3	66,1	45,6	65,1	45,7	65,3	46,3	66,1	46,0	65,7
	Жиз. вил	47,6	68,0	45,9	65,6	46,8	66,8	46,4	66,3	46,9	67,0	46,7	66,6
	М (ҳудудлар)	46,3	66,1	46,0	65,7	46,1	65,9	46,4	66,3	46,3	66,1	46,4	66,2
фаоллик	Қаш. вил	48,3	69,0	47,4	67,7	47,9	68,4	46,9	67,0	45,8	65,4	46,4	66,2
	Сам. вил	47,6	68,0	46,7	66,7	47,2	67,4	48,7	69,6	47,2	67,4	48,0	68,5
	Жиз. вил	45,8	65,4	46,2	66,0	46,0	65,7	46,4	66,3	46,7	66,7	46,6	66,5
	М (ҳудудлар)	47,2	67,5	46,8	66,8	47,0	67,1	47,3	67,6	46,6	66,5	47,0	67,1
кайфият	Қаш. вил	48,1	68,7	47,3	67,6	47,7	68,1	47,4	67,7	47,1	67,3	47,3	67,5
	Сам. вил	47,9	68,4	48,5	69,3	48,2	68,9	48,2	68,9	46,7	66,7	47,5	67,8
	Жиз. вил	49,3	70,4	46,4	66,3	47,9	68,4	47,6	68,0	45,6	65,1	46,6	66,6
	М (ҳудудлар)	48,4	69,2	47,4	67,7	47,9	68,5	47,7	68,2	46,5	66,4	47,1	67,3

Иккинчи курс талабаларининг ҳиссиёт, фаоллик ва кайфият шкалалари диагностик натижалари 2-расмда диаграмма шаклида келтирилган.



2-расм. Ҳиссиёт, фаоллик, кайфият шкалалари диагностик натижалари (2-курс)

Жадвалда келтирилган 2-курс талабаларнинг ҳиссиёт шкаласи кўрсатгичлари бўйича таҳлили:

Қашқадарё вилояти ТГ ўғил болалар - 66,3% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 65,3% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 65,8% (меъёрдан паст), Қашқадарё вилояти НГ ўғил болалар - 67,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 65,3% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 66,3% (меъёрдан паст).

Самарқанд вилояти ТГ ўғил болалар - 64,0% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 66,1% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 65,1% (меъёрдан паст), Самарқанд вилояти НГ ўғил болалар - 65,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 66,1% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 65,7% (меъёрдан паст).

Жиззах вилояти ТГ ўғил болалар - 68,0% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 65,6% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 66,8% (меъёрдан паст), Жиззах вилояти НГ ўғил болалар - 66,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 67,0% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 66,6% (меъёрдан паст).

Ҳудудлар бўйича ўртача (М) ТГ ўғил болалар - 66,1% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 65,7% (меъёрдан паст), ТГ вилоятлар бўйича ўртача – 65,9% (меъёрдан паст), Ҳудудлар бўйича ўртача (М) НГ ўғил болалар - 66,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 66,1% (меъёрдан паст), НГ вилоятлар бўйича ўртача – 66,2% (меъёрдан паст).

Жадвалда келтирилган 2-курс талабаларнинг фаоллик шкаласи кўрсатгичлари бўйича таҳлили:

Қашқадарё вилояти ТГ ўғил болалар - 69,0% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 67,7% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 68,4% (меъёрдан паст), Қашқадарё вилояти НГ ўғил болалар - 67,0% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 65,4% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 66,2% (меъёрдан паст).

Самарқанд вилояти ТГ ўғил болалар - 68,0% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 66,7% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 67,4% (меъёрдан паст), Самарқанд вилояти НГ ўғил болалар - 69,6% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 67,4% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 68,5% (меъёрдан паст).

Жиззах вилояти ТГ ўғил болалар - 65,4% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 66,0% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 65,7% (меъёрдан паст), Жиззах вилояти НГ ўғил болалар - 66,3% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 66,7% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 66,5% (меъёрдан паст).қ

Ҳудудлар бўйича ўртача (М) ТГ ўғил болалар - 67,5% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 66,8% (меъёрдан паст), ТГ вилоятлар бўйича ўртача – 67,1% (меъёрдан паст), ҳудудлар бўйича ўртача (М) НГ ўғил болалар - 67,6% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 66,5% (меъёрдан паст), НГ вилоятлар бўйича ўртача – 67,1% (меъёрдан паст).

Жадвалда келтирилган 2-курс талабаларнинг кайфият шкаласи кўрсатгичлари бўйича таҳлили:

Қашқадарё вилояти ТГ ўғил болалар - 68,7% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 67,6% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 68,1% (меъёрдан паст), Қашқадарё вилояти НГ ўғил болалар - 67,7% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 67,3% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 67,5% (меъёрдан паст).

Самарқанд вилояти ТГ ўғил болалар - 68,4% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 69,3% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 68,9% (меъёрдан паст), Самарқанд вилояти НГ ўғил болалар - 68,9% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 66,7% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 67,8% (меъёрдан паст).

Жиззах вилояти ТГ ўғил болалар - 70,4% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 66,3% (меъёрдан паст), ТГ вилоят бўйича ўртача – 68,4% (меъёрдан паст), Жиззах вилояти НГ ўғил болалар - 68,0% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 65,1% (меъёрдан паст), НГ вилоят бўйича ўртача – 66,6% (меъёрдан паст).

Ҳудудлар бўйича ўртача (М) ТГ ўғил болалар - 69,2% (меъёрдан паст), ТГ қиз болалар - 67,7% (меъёрдан паст), ТГ вилоятлар бўйича ўртача – 68,5% (меъёрдан паст), ҳудудлар бўйича ўртача (М) НГ ўғил болалар - 68,2% (меъёрдан паст), НГ қиз болалар - 66,4% (меъёрдан паст), НГ вилоятлар бўйича ўртача – 67,3% (меъёрдан паст).

Иккинчи курс талабалари барча вилоятлар бўйича ТГ ва НГда ҳиссиёт, фаоллик ва кайфият кўрсатгичлари меъёрдан бироз паст эканлиги аниқланган. Талабаларда ўқув жараёни билан боғлиқ стресслар мавжуд эканлиги уларнинг ҳиссиёти, фаоллиги ва кайфиятига таъсир этган.

Хулоса ва амалий тавсиялар: Талабалар ўқув фаолиятида стресслар салбий таъсирининг олдини олиш муҳим эканлиги боис, стрессга барқарорлик таъминлаш учун ўзига баҳо бериш даражасини меъёрлаштириш ва фрустрацион толерантликни шакллантиришга эришиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Шу билан бирга стресс ҳолати юзага келишининг олдини олишда ота-оналар ва болалар ўртасида мулоқотнинг кўламини ошириш, оила аъзолари ўртасида фикр эркинлигини таъминлаш, ёшларни деструктив ғоялар таъсиридан ҳимоялаш, стрессларни бошқариш компетенцияси ва казусли вазиятларда психологик ҳимояни фаоллаштириш амалиётини қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Талабалар ўқув фаолиятида стрессларнинг юзага келиши ва ортиб кетиши уларнинг дарсларни ўзлаштиришига салбий таъсир этади. Шу сабабли талабаларда

стресс ҳолатини психологик коррекциялаш талаб этилади. Талабаларда стресс ҳолатини психокоррекция амалиётида:

1. Талабаларга таъсир этаётган стресс омилларни аниқлаш ва салбий таъсирини камайтиришда ҳамда стрессга мойиллик даражасини аниқлаш ва меъёрлаштиришда жисмоний машқлар, стрессларни бошқариш усули, ижтимоий кўмак бериш, медитация, аутотренинг, релаксация усулини қўллаш;

2. Талабаларнинг стресс ҳолатидаги ҳиссиёт, фаоллик, кайфиятини меъёрлаштиришда визуаллаштириш, библиотерапия, расм терапиясини қўллаш;

3. Талабаларнинг стрессга барқарорлик даражасини оширишга қаратилган психологик тренингларни қўллаш;

4. Талабаларнинг копинг-стратегияларини коррекциялаш ва муаммони ечишга интилиш стратегиясини шакллантиришда маънавий тадбирлар, мусобақалар, рационал психотепия ижобий самара беради.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдумаджидова Д.Р. Талабаларда ассертив хулқни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори **(**PhD**)** диссер. автореф.: 19.00.05. -Т.: 2019.
2. Авилов О.В., Галиулина К.Ю. Основные причины эмоционального стресса у студентовмедиков и определение подходов к его коррекции. Журнал: “Вестник психофизиологии” №4. 2019. – с. 42-50
3. Боймирзаева Д.Д. Олий ўқув юртлари талабаларида фрустрациянинг намоён бўлишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD**)** диссер. автореф.: 19.00.05. -Т.: 2021.
4. Исмоилова Н.З. Талабаларда стрессга барқарорликни оширишнинг психологик детерминантлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори **(**PhD**)** диссер. автореф.: 19.00.06. –Т.: 2020.
5. Сапёрова Е.В. Изучение функционирования сердечнососудистой системы студентов в условиях экзаменационного стресса с учетом индивидуальных психологических и биологических особенностей. авторефер. дисс. канд. биол. наук.: 03.00.13 – Чебоксары – 2008.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:1(091)

Faxriddin YULDASHEV,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD
E-mail: f.y.abduvasitovich@pf.fdu.uz

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddikov taqrizi asosida

FOROBIYNING MUSIQA NAZARIYASIGA OID QARASHLARI

Annotatsiya

Abu Nasr Forobiy yirik qomusiy olim sifatida falsafa, mantiq, tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda musiqa nazariyasi ta’limotini ham rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Olim nafaqat o‘zidan oldingi mutafakkirlarning musiqiy asarlarini ijodiy ishlab chiqdi, balki shaxsiy kuzatishlari asosida ularni tahlil qildi va to‘ldirdi. Forobiy qadimgi yunon madaniyati manbalarini Arastu, Aflotun, Ptolemey kabi faylasuflarning ijod mahsullari yordamida o‘rgandi. Shuningdek, u ko‘chmanchi qabilalardan So‘g‘d, Xuroson, Sosoniylar davlati, Kushon davlati xalqlarining madaniyatini o‘rgandi. Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning serqirra ilmiy merosida musiqa nazariyasiga doir falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Mutafakkirning “Katta musiqa kitobi” risolasida yoritilgan musiqa fenomeni, uning maqsadlari, musiqa san’atining nazariy va amaliy qirralari haqida ma’lumotlar atroflicha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa nazariyasi, san’atda bilish falsafasi, o‘rta asrlar madaniyati, ma’naviy musiqa, kuy, inson ovozi, musiqiy amaliyot, cholg‘u asboblari, musiqiy tovush

ВЗГЛЯДЫ ФАРАБИ НА ТЕОРИЮ МУЗЫКИ

Аннотация

Абу Наср Фараби, как крупный ученый-энциклопедист, внес большой вклад в развитие философии, логики, естественных и точных наук, а также учения о теории музыки. Ученый не только творчески развивал музыкальные произведения мыслителей до него, но и анализировал и дополнял их на основе личных наблюдений. Фараби изучал истоки древнегреческой культуры с помощью творчества таких философов, как Аристотель, Платон, Птолемей. Он также изучал культуру народов Согда, Хорасана, государства Сасанидов, Кушанского государства у кочевых племен. В данной статье анализируются философские взгляды Абу Насра Фараби на теорию музыки в его богатом научном наследии. Трактат мыслителя “Большая книга музыки” подробно описывает информацию о феномене музыки, ее целях, теоретических и практических аспектах музыкального искусства.

Ключевые слова: теория музыки, философия познания в искусстве, средневековая культура, духовная музыка, мелодия, человеческий голос, музыкальная практика, музыкальные инструменты, музыкальный звук

FARABI’S VIEWS ON MUSIC THEORY

Abstract

Abu Nasr Farabi, as a major encyclopedic scientist, made a great contribution to the development of philosophy, logic, natural and exact sciences, as well as the teaching of music theory. The scientist not only creatively developed the musical works of thinkers before him, but also analyzed and supplemented them on the basis of personal observations. Farabi studied the origins of ancient Greek culture with the help of the works of such philosophers as Aristotle, Plato, Ptolemy. He also studied the culture of the peoples of Sogd, Khorasan, the Sassanid state, the Kushan state among nomadic tribes. This article analyzes the philosophical views of Abu Nasr Farabi on the theory of music in his rich scientific heritage. The thinker's treatise “The Big Book of Music” describes in detail information about the phenomenon of music, its goals, theoretical and practical aspects of musical art.

Keywords: music theory, philosophy of cognition in art, medieval culture, sacred music, melody, human voice, musical practice, musical instruments, musical sound

Kirish. Jahon musiqa madaniyati tarixi musiqa san’atini izoxlashda ilmiy bilimlarning turli-tuman bosqichlarini bosib o‘tgan. Bu yo‘nalishdagi ta’limotlarga murojaat qilar ekanmiz, zamonaviy madaniyat chorrahalarida musiqaga oid ilmiy dunyoqarashni buyuk allomalar ilgari surgan g‘oyalar, fikr-mulohazalarsiz tasavvur etish qiyin. Musiqa san’ati tarraqqiyotida tub burilish davrini yasagan faylasuf, musiqa nazariyasiga oid qarashlar tizimini yaratgan mutafakkir Abu Nasr Forobiydir [3].

Inson hayotida musiqaning o‘rni haqidagi gapirar ekan, faylasuf matematik usuldagi modellashtirishga murojaat qiladi. Uning fikricha, vaqtni sezish toliqishni bildiradi, buni xatti-harakatlar tug‘diradi, harakatlar esa o‘z o‘rnida “vaqt” bilan o‘lchanadi (vaqt harakat bilan o‘lchanganidek). Ma’naviy musiqa insonning charchog‘ini unutishga xizmat qiladi, ruhlantiradi va xayolni rivojlantiradi [11]. Forobiy tovushlarning mukammal tizimini ishlab chiqishdan oldin hisobsiz miqdorda artefaktlar, qo‘shiqlar va turli etnomadaniy cholg‘u asboblarini ishlab chiqqan. U “Ilm al-musiqa” - musiqa nazariyasining asoschisi deb tan olinadi.

Forobiy yashagan davr, Sharq madaniyati va qadriyatlari sifatida tan olinadi va bevosita mutafakkirning fikr-mushohadalariga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi [2]. Chunki olim o‘sha davr jamiyatining bir qismi bo‘lgan. Faylasuf o‘z risolasini teologik jamiyat hukm surgan davrda yozgan bo‘lib, o‘sha davr musiqa tinglash mumkin emasligi yoki ilohiy tuyg‘ular, degan savollar o‘rtasidagi kurash davri bo‘lgan. Ta’kidlash o‘rinliki, arab olamida musiqa oddiy mashg‘ulot va ko‘ngilocharlik, deb qabul qilingan. Bu borada bir qator bahs-munozaralar ilgari surilgan. Ushbu munozaralarda Abu Xamid Muhammad al-G‘azzoliyning fikri tahsinga loyiqdir. Xususan, u shunday deydi: “Musiqani man etish mumkin emas, chunki u insonning ahloqiy kamolotiga bog‘liq ravishda ro‘y beradi va qalbining tub-tubidan kelib chiqadi. Qur’onda ham musiqa yaratish man etilmaydi”.

Metodologiya. “Katta musiqa kitobi” risolasi Abu Nasr Forobiyning ulkan mehnati va qobiliyatining natijasidir. Olim o‘z oldiga musiqani har tomonlama o‘rganish vazifasini qo‘yadi va buni uddalaydi [4]. Mutafakkir ilk bora musiqa tarixida musiqaga oid bilimlarni tizimlashtirishni amalga

oshirdi, musiqa asboblari haqidagi bilimlar asosini yaratdi. Tanbur, dutor, surnay, shohrud kabi musiqa asboblarining ilmiy izohlanishini yozib qoldirdi. Forobiyning ta’kidlashicha, musiqiy asboblar xuddi ”kuy”dan rohatlanishni vujudga keltiradi. Bu yerda olim inson ovozini ma’noli, ifodali, g‘ayrioddiy hayratomuz darajada ohangdor asbob sifatida o‘zida barcha tovushlarning nozik sifatlarini birlashtiradigan vosita, deb talqin qiladi [6].

Ta’kidlash joizki, musiqa o‘rta asr islom madaniyatida markaziy o‘rinni egallagan. Borliqni estetik jihatdan o‘zlashtirish, olamdagi “ezgulik” va “go‘zallik”ni anglash Forobiy falsafasida o‘z ifodasiga ega. Mutafakkirning estetik qarashlarida “ezgulik” va “go‘zallik” g‘oyalari aql-idrokning mazmun-mohiyatini, inson ma’naviy olami va barkamolligi, inson hayoti va jamiyat ravnaqining yuksak fazilatlarga yo‘nalganligini ko‘rishimiz mumkin [5].

“Katta musiqa kitobi” Forobiy ijodining universalligini aks ettiradi. Chunki u tor doiradagi qarashlarni cheklaydi. Ushbu risola turk, arab, hind, shom musiqa va cholg‘uchilik ijodining ko‘plab janrlari sintezidan iborat. Bu kitob XV asrda lotin tiliga tarjima qilingan bo‘lib, Yevropa musiqa san’ati nazariyasining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. T.D.Yerlaje 1930 yillarda “Katta musiqa kitobi”ni fransuz tiliga tarjima qiladi [4]. Bu musiqashunosning Forobiy oldidagi yuksak e’tirofi hisoblanadi. Ingliz musiqashunosi G.Farmer Forobiyni o‘rta asr musiqa san’atining yirik muallifi, deb tan oladi [12]. Nemis musiqashunos olimi A.Shering o‘zining “Musiqa tarixi jadvallarda” kitobida Forobiy nomini tilga olib, uning “Katta musiqa kitobi” risolasini yaratish yetuklik davriga to‘g‘ri kelganini aytib o‘tgan. “Yevropa oqshomi” nashrida nemis faylasufi Osvald Shpengler Forobiyni musulmon Renessansining timsoli, deb atagan [7].

Forobiyning “Fanlar klassifikatsiyasi”, “Ohanglar klassifikatsiyasi” kitoblarida bilish ob’ekti, musiqa o‘qitish metodikasi, musiqa haqida ta’limot, amaliy musiqa nazariyasini o‘rganish asoslari, musiqa ohanglari, ularni yaratish usullari haqida ma’lumotlarni qamrab olgan ong bo‘limi bor. Olim musiqiy tovushlarni sonlarga qiyoslab, 10 ta musiqiy tovush uyg‘unligi g‘oyasining muallifiga aylangan. U kompozitsiya uyg‘unligi, nota, kuy va ohang uyg‘unligini ifodalaydi. Bunday matematik yondashuv Forobiyga nafaqat musiqa muammosi, balki uning yechimini topishda falsafa, matematika, tarix, psixologiya, etnografiya kabi fanlar doirasida ko‘rib chiqish imkonini berdi [8]. Shu sababli “Katta musiqa kitobi” zamonaviy jamiyatimizda barcha soha vakillarini jalb qilib kelmoqda.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, faylasuf ta’limotida musiqa fenomeni atroflicha va mohiyatan asoslangan tarzda sharhlab berilgan. “Katta musiqa kitobi” risolasi o‘rta asr islom ma’naviy madaniyatida olamshumul fikr-mulohazalarning bayoni bilan e’tirof etiladi. Mazkur risola o‘z davrida Sharq musiqa madaniyatida ulkan burilish yasagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu, birinchidan, o‘rta asr islom madaniyatida tarixan shakllangan musiqa nazariyasining yaratilishini ifodalasa; ikkinchidan, o‘sha davrda musiqiy cholg‘u asboblarining o‘ziga xos ohanglari jilosi bilan mashhur bo‘lganligidan dalolat beradi.

Forobiy “Katta musiqa kitobi” risolasi orqali nafaqat arab musiqasining, balki turli xalqlarning musiqa madaniyati bilan tanishish imkoniyatini beradi. Chunki mazkur risola o‘rta asrlardagi falsafa, matematika, pedagogika va psixologiya kabi fanlarning majmuidan kelib chiqqan holda yozilgan. U qadimgi davr mutafakkirlari va o‘rta asr islom dunyosi mutafakkirlari bilimlarini uyg‘unlashtirishga, davlatlararo madaniyatlarni bir-biri bilan bog‘lashga xizmat qilgan.

O‘rta asr islom madaniyatida Forobiyning badiiy-estetik ijodini o‘ziga singdirgan musiqa san’ati manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu madaniyat boshidan-oxirigacha musiqa bilan singdirilgan bo‘lib, baland minoralardan taraladigan ilohiy oyatlar ohangi va xalq cholg‘u asboblarining ohanglari orqali ifodalanadi. Aynan bu davrda yuksak darajadagi musiqiy ijrolar professionallik darajasiga ko‘tarilgan, musiqa nazariy fan sifatida ishlab chiqilgan, o‘rta asr mutafakkirlarining falsafiy-estetik qarashlari bilan, shuningdek, musiqiy san’atning an’analarini avloddan-avlodga uzatadigan musiqiy ijro maktablari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. “Katta musiqa kitobi” risolasi musiqa va musiqiy san’atga oid qomusiy bilimlarning majmui sifatida ham nazariy, ham amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan. Unda Forobiy musiqa san’ati hamda uning ahamiyatini tushunish haqida nazariy va amaliy fikr-mulohazalarini bayon qilgan.

Musiqiy cholg‘u asboblarida kuy ijro etish mutafakkirning fikricha, inson taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan jarayon hisoblanadi. Chunki inson aql-idroki bilan musiqa asbobini yaratishni amalga oshirgan. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, qo‘shiq kuylash birlamchi musiqa san’ati bo‘lsa, cholg‘u asboblari ijrosi sun’iylashgan hamda ijtimoiy-tarixiy, madaniy o‘zlashtirilgan jarayon sifatida ifodalanadi. Shu o‘rinda musiqiy ijodni she’riyat ijodi bilan uzviy aloqasi ham ta’kidlanadi.

Tahlil. Musiqiy amaliyot rivojlangan sari, deb yozadi Forobiy, musiqa nazariyasi vujudga keladi. Amaliyotning barcha taraqqiyot bosqichlari bosib o‘tilganidan so‘ng kuy yaratiladi, natijada musiqiy asar vujudga keladi. Shunga qaramay, musiqaning nazariy va amaliy tomoni bosqichma-bosqich amalga oshsa-da, Forobiy ularni bir butunlikda talqin qiladi. “Musiqaning nazariy va amaliy tomoni bir-birini to‘ldiradi, ikkalasining birlashuvi esa musiqa haqidagi ta’limotni tashkil qiladi” [1, 225-bet]

Musiqa nazariyasi aqliy saloxiyat bilan yetishadigan fandir. U muayyan cholg‘u asbobi va uning ijrochisi orqali mavhumlashadi. Musiqa nazariyasi kuyning qanday mavjud bo‘lishi sabablarini o‘rganadi. Bu jarayonda uning umumfalsafiy metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Al-Forobiy, faylasufgina amaliy san’at qirralarini tahlil qiladi hamda ularni oddiy xalq uchun tushunarli tilda yetkazib beradi, deb yozadi [1, 145-bet]. Forobiyning takidlashicha, musiqiy tamoyillar noaniq va kam o‘rganilgan bo‘lib, ularni musiqa san’ati amaliy tajribasida ma’lum bo‘lgan qirralarini umumlashtirgan holda o‘rganish zarur. Shuning uchun musiqa san’ati asoslarini o‘rganishga ko‘p yoqlama yondashuv orqali erishish mumkin.

O‘rta asrlar musiqasini tahlil qilar ekanmiz, unda mumtoz musiqaning o‘rnini ta’kidlash lozim. U o‘rta asr islom madaniyatining cho‘qqisi, nafosati, nazokati, yuksak badiiyligi va mukammalligini ifodalaydi. Mumtoz musiqa san’ati murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan va o‘zida turli xalqlar madaniyatining an’analarini mujassamlashtirgan. “Katta musiqa kitobi” risolasida musiqaning moddiyligi ijtimoiy nuqtai nazardan inson faoliyatidagi maqsad va vazifalari doirasida tushuntirib berilgan. Faylasufning musiqa va musiqiy san’atning inson va jamiyat xayotidagi o‘rni haqidagi fikr-muloxazalari ijtimoiy-falsafiy mazmunda yo‘naltirilib ideal jamiyat, unda shaxs barkamolligi va baxt-saodatga erishuvi masalalariga bog‘lanib ketadi.

Musiqa san’ati Forobiy tomonidan falsafiy-metafizik jihatdan tadqiq etiladi. “Katta musiqa kitobi” risolasining yakuniy bobi “Inson faoliyatida kuy va uning maqsadlari” deb nomlanib, unda faylasuf borliqni “birlamchi va birlamchi bo‘lmagan substansiyalar” (hodisalar)ga farqlaydi. “Birlamchi bo‘lmagan substansiyalar” tabiiy fanlar hamda insonning irodasi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy, intellektual va jismoniy sifatlari; qadriyatlar tizimi, axloq-odobi va his-kechinmalariga taalluqli narsa- hodisalardan iborat bo‘ladi [1, 145-bet]. “Ikkilamchi substansiyalar” ezgulik va yovuzlik kabi ijtimoiy-axloqiy mezon orqali ta’siflanadi.

Xulosa. Musiqiy san’at nazarisiga oid mulohazalari Forobiyning falsafiy-axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Olim inson tabiatiga xos bo‘lgan bunday xususiyatlarni o‘zining

“Baxt-saodatga erishuv”, “Fuqarolik siyosati”, “Fozil odamlar shahri” kabi asarlarida ham izohlab bergan. Forobiyning ta’kidlashicha, baxtga erishish yoki mutloq ezgulik va yuksak kamolot inson mavjudligining mazmuni hamda maqsadidir. Agar faylasufning falsafiy mushohadasida baxt birlamchi mavjudlik, ya’ni bilishdan iborat bo‘lsa, ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan bu insonning intellektual va barkamollikka erishuvini bildiradigan tushuncha sifatida falsafiy bilimlarning nazariy va amaliy jihatlarini tashkil kiladi [9].

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, Abu Nasr Forobiy ilgari surgan musiqaga oid falsafiy-estetik qarashlari o‘zbek musiqa madaniyati va ma’naviy xayotining ajralmas qismidir. Mutafakkir falsafasida musiqa san’ati boshqa fanlar va san’atlar bilan bir qatorda insonning yaratuvchanlik qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu esa insonga xos bo‘lgan bilish doirasini belgilaydi. Fan va san’atning turli-tuman ko‘rinish-lari insonning olamni bilishga va anglashga olib boruvchi yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Forobiy falsafasida musiqa nazariyasining talqini bevosita olim ilgari surgan bilishga oid ta’limotining maxsus xususiyati sifatida ifodalanadi. Bu esa musiqa barcha nazariy-falsafiy tizimda ko‘rib chiqilishining zaruratini bildiradi.

ADABIYOTLAR

1. Аль-Фараби. Трактаты о музыке и поэзии / Пер. с арабского.— Алма-Ата: Гылым, 1992. 456 с
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Т: Янги аср авлоди. 2016. – 320 б.
3. Abduvositovich Y. F. et al. The role of the great scholars of the Eastern Renaissance in the art of music in shaping the socio-spiritual thinking of young people //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 6. – С. 2846-2850.
4. Курмангалиева, Г.К. Феномен музыки в наследии аль-Фараби. № 6, 2011. Стр. 33-37
5. Матякубов О. Фараби об основах музыки Востока. - Ташкент, 1986
6. Юлдашев Ф.Ю. Концепция познания аль-Фараби в истории философии. «Философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог». Сборник статей Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Уфа, 2020 год. Стр. 389-393
7. Юлдашев, Ф. А. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси: 09.00.03 - фалсафа тарихи / Ф. А. Юлдашев; Самарқанд Давлат университети. - Самарқанд, 2018. - 134 с
8. Yuldashev F. A. Forobiy qarashlarida baxt-saodat tushunchasining ifodalanishi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10-2. – С. 528-533.
9. Юлдашев Ф. А., Юлдашева М. Б. Формирование полноценно развитой личности на основе учений аль-Фараби //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 71-74.
10. Юлдашев Ф. А. Теория познания аль-Фараби как фактор формирования национального человеческого капитала //Человеческий капитал как фактор социальной безопасности. – 2022. – С. 327-330.
11. Юлдашев Ф. А., Юлдашева М. Б. Гносеологические аспекты концепции познания аль-Фараби в формировании ответственности личности //Социальная, профессиональная и персональная ответственность личности в современном обществе. – 2020. – С. 63-67.
12. Farmer K.G. Al-Farabi’s Arabic-Latin writings on music / The texts ed., trans, and comment, by H.G.Farmer. - Glasgow, 1934